2025-YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI
CHEGARA QO‘SHINLARI

HARBIY-AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MILLIY ASPEKTLARINI YARATISH VA ZAMONAVIY TA’LIM-TARBIYA TENDENSIYALARINI TATBIQ ETISH

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari

TO’PLAMI

“YOSH CHEGARACHILAR”
HARBIY-AKADEMIK LITSEYI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI
CHEGARA QO‘SHINLARI

“YOSH CHEGARACHILAR” HARBIY-AKADEMIK LITSEYI

“HARBIY-AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MILLIY ASPEKTLARINI YARATISH VA ZAMONAVIY TA’LIM TARBIYA TENDENSIYALARINI TATBIQ ETISH”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari

Termiz 2025-yil 18-aprel

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ: “СОЗДАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ АСПЕКТОВ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ ВОЕННО-АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ И ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ И ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС”

Статьи Республиканской научно-практической конференции

Термез 18 апреля 2025 г

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC: “CREATING NATIONAL ASPECTS FOR PATRIOTIC EDUCATION OF MILITARY-ACADEMIC LYCEUM STUDENTS AND IMPLEMENTING MODERN EDUCATIONAL TRENDS”

Articles of the Republican scientific and practical conference

Termez April 18, 2025

Termiz-2025

KBK:
UO‘K:
J

“Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy aspektlarini yaratish va zamonaviy ta’lim-tarbiya tendensiyalarini tatbiq etish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to‘plami - 2025-yil 18-aprel “KITOB NASHR” nashriyoti – 712 bet.

“Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy aspektlarini yaratish va zamonaviy ta’lim-tarbiya tendensiyalarini tatbiq etish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamiga OTM va harbiy-akademik litseylarning professor-o‘qituvchilari, mutaxassislari, ilmiy xodim va izlanuvchilari hamda iqtidorli talabalarining ilmiy ishlari kiritilgan.

Tashkiliy qo‘mita tarkibi:

M.J. Norqobilov	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi direktori, rais.
Sh.E. Omonov	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi direktorining 1-o‘rinbosari, rais o‘rinbosari.
G‘.Z. Zulpiyev	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi direktorining o‘quv ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, a’zo.
Q.T. Ulug‘berdiyev	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi o‘quv-metodik bo‘linmasi boshlig‘i, a’zo.
Dj.S. Umarov	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi bosh o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD) mas’ul muharrir.
N.R. Usmanov	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi psixologi, mas’ul muharrir.
O.M. Muxammadiyev	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, a’zo.
E.X. Jo‘rayev	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy- akademik litseyi aniq va tabiiy fanlar kafedrasi, mudiri, a’zo.
J.R. Alimov	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi tillar kafedrasi mudiri, a’zo.
Sh.X. Shaxnazarov	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi kasbiy va amaliy fanlar kafedrasi mudiri, a’zo.
B.I. Ashiraliyev	DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi kasbiy va amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo.

Mualliflarning nuqtayi nazariga putur yetkazmaslik maqsadida to‘plamga kiritilgan materiallar faqatgina texnik jihatdan tahrir qilindi, shuning uchun tahrir hay’ati matnlarda uchraydigan ba’zi bir noaniqliklar uchun javobgarlikni o‘zidan soqit qiladi.

DXX ChQ “Yosh chegarachilar” harbiy- akademik litseyi ilmiy - pedagogik kengashining 2025-yil 8-aprel kunidagi 14-sonli yig‘ilishida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi.

© Jamshid Umarov, 2025 yil.
© «KITOB NASHR» 2025 yil.

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum.

Hurmatli mehmonlar, professor-o‘qituvchilar, qadrli anjuman ishtirokchilari!

Bugun biz ta’lim va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi masalalarini muhokama qilish, o‘zaro tajriba almashish va yangi g‘oyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilishni o‘z oldiga maqsad qilgan **“Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy aspektlarini yaratish va zamonaviy ta’lim-tarbiya tendensiyalarini tatbiq etish”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga to‘planib, ilm-fan, ta’lim va vatanparvarlik tarbiyasi masalalarida fikr almashish imkoniyatiga ega ekanligimizdan xursandmiz. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda har birimizning o‘z o‘rnimiz va mas’uliyatimiz bor.

Ta’lim esa shu mas’uliyatni yuksaltiradigan, insonning dunyoqarashini kengaytiradigan qudratli vositadir. Ta’lim orqali biz yosh avlodga nafaqat zamonaviy bilimlarni, balki o‘z milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, madaniyatimiz va Vatanga bo‘lgan sadoqatni ham o‘rgatamiz. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan **“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda”** g‘oyasining mazmuni ham aynan shunga qaratilgan.

Bugungi kunda har bir ta’lim muassasasi, har bir pedagog - o‘qituvchi oldida bilim berish bilan bir qatorda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik va harbiy tayyorgarlik o‘rtasida yanada mustahkam aloqalar o‘rnatish vazifasi ham turibdi. Vatanparvarlik tarbiyasi o‘quvchilarda Vatanni sevish, unga sadoqatli bo‘lish va uning himoyasida xizmat qilish tuyg‘usini shakllantirishi lozim. Zero, o‘z yurtini sevgan, uning kelajagiga chin dildan hissa qo‘shishga daxldorligini his qilgan, axloqiy qadriyatlarga ega, bilimli va ijtimoiy mas’uliyatni anglagan insonlargina jamiyatni rivojlantirishga qodir.

Fidoyilikni yosh avlod ongiga singdirish, ularga ota-bobolarimizning yurtga bo‘lgan muhabbatini, yurt tinchligi va sarhadlarini asrash zaruratini tushuntirish, yoshlarni **“G‘oyaviy jangchi”** sifatida tayyorlashning milliy aspektlarini yaratish yo‘lida birgalikda ishlash bizning burchimizdir. Bunda vatanparvarlikning harbiy jihatlari ayniqsa muhim, chunki shiddat bilan rivojlanayotgan zamon mamlakatni mustahkam himoya qilish va tinchlikni saqlash uchun har jihatdan yetuk, qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan chegarachilarga, kuchli tayyorlangan professional armiyaga ega bo‘lishni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida harbiy soha vakillari bilan birgalikda barcha fuqarolarni, yoshlarni o‘z vatanining himoyasiga shay turishga chaqiradi. Chunki **harbiy-vatanparvarlik** - bu nafaqat xalqning mudofaa qobiliyati va qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligi, balki millatning barcha qatlamlarida vatanga, uning tarixiga, an’analariga bo‘lgan chuqur hurmat va sadoqatni tarbiyalash, uning himoyasiga bo‘lgan mas’uliyatni anglash jarayonidir. Yurtimizni, uning tinchligini saqlash - har birimizning nafaqat harbiy, balki fuqarolik burchimiz ekanligini yosh avlod ongiga chuqurroq singdirishimiz lozim.

Konferensiya davomida ta’lim tizimi, o‘quv metodikalari va vatanparvarlik tarbiyasini bir-biriga uyg‘unlashtirish masalalariga oid yangi bilimlar, o‘rganilgan tajribalarga alohida e’tibor qaratiladi. Sizlarni ilmiy muhokamalarda o‘z fikr va

takliflaringiz bilan faol qatnashishga chaqiraman. Bu yerda o‘z tasdig‘ini topgan fikr-mulohazalar bizning umumiy maqsadimizga — vatanparvar, bilimli, ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har bir olim, mutaxassis, ustoz va talabalar o‘z fikrlarini, tajribalarini o‘rtoqlashib harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy aspektlarini va zamonaviy ta’lim-tarbiya tendensiyalarini yaratish masalalariga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishadi deb ishonaman.

Yondashuvlar bizga harbiy xizmatda yurtni himoya qilish uchun zarur bo‘lgan mahorat, bilim va ma’naviyatni shakllantirishdagi faoliyatimiz uchun samarali yo‘llarni taklif qiladi. Shuningdek, biz harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kasbiy faoliyatimizda amaliyotga aylantirayotganimizni, bu jarayonda qanday yondashuvlar va innovatsiyalarni qo‘llayotganimizni kengroq tahlil qilish imkoniga ega bo‘lamiz.

Ishonamanki, konferensiya davomida siz ta’lim va vatanparvarlik tarbiyasining dolzarb masalalari, bu boradagi innovatsion yondashuvlar va tajribalar bilan o‘rtoqlashasiz. Amaliy yechimlar taklif qilasiz.

Bizning eng ustivor vazifamiz yoshlarimizni, ya’ni ertangi kunning bunyodkorlarini yurtimizga bo‘lgan muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Bu yerda bildirilgan ilmiy-amaliy fikrlar va qarashlar barchamizga vatanparvarlik tarbiyasining milliy aspektlarini shakllantirishga, yangicha qarashlar va yo‘nalishlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Anjumanimiz ilm-ma’rifat almashish maydoni sifatida samimiy va ma’rifiy muhitda davom etsin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari nomidan anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari
qo‘mondonining tarbiyaviy va mafkuraviy
ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
polkovnik Kurbanov Sanjar Salimovich

1-SHOʻBA: OʻZBEK TILI VA XORIJIY TILLARNI OʻQITISHDA OʻQUVCHILARNING KREATIV TAHLIL KOʻNIKMALARINI, INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YOʻNALTIRILGAN METODOLOGIK TAMOYILLAR.

ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI CHET TILINI OʻRGATISH USULLARI

Kenjabayev Jahongir Abdisalimovich
pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD),
Xorijiy filologiya fakulteti "Fakultetlararo chet tillari" kafedrasi dotsenti
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali chet tilini oʻrgatish usullari va ularni oʻquv jarayoniga joriy etish zarurligi koʻrsatilgan.

Kalit soʻzlar: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet resurslari, metodika, oʻqitish, onlayn darsliklar.

Кенжабаев Жахонгир Абдисалимович
PhD, доцент межфакультетской кафедры иностранных языков
факультета иностранной филологии
Термезского государственного университета

Аннотация. В данной статье показаны методы обучения иностранному языку посредством современных информационно-коммуникационных технологий и необходимость внедрения их в учебный процесс.

Ключевые слова: современные информационно-коммуникационные технологии, интернет-ресурсы, методика, преподавание, онлайн-учебники.

Kenjabaev Jakhongir Abdisalimovich
PhD, Associate Professor,
Interfaculty Department of Foreign Languages,
Faculty of Foreign Philology at the Termez State University

Abstract. This article shows methods of teaching a foreign language through modern information and communication technologies and the need to introduce them into the educational process.

Key words: modern information and communication technologies, Internet resources, methodology, teaching, online textbooks.

Yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlida jamiyatni rivojlantirishning koʻplab sohalarida, shu jumladan, oliy ta'lim sohasida katta oʻzgarishlar yuz bermoqda. Jamiyatni axborotlashtirish va globallashuv sharoitida uni oʻrganishga yangicha talablar qoʻyilmoqda, bilim olish uchun yangi imkoniyatlar paydo boʻlmoqda,

ayniqsa, xorij tillarini, xususan, ingliz tilini o‘qitishda yangicha yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Shu ma’noda, talabalarga ingliz tilini o‘qitishda ijtimoiy mediadan foydalanishda yangi bilim olish va o‘zlashtirilgan bilimlarni takomillashtirish uchun foydalanish imkoniyatlari cheksizdir. Virtual ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muhim aloqa vositasi, balki ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun noyob manba hisoblanadi. Axborot almashishning mavjud usullaridan biri sifatida ijtimoiy media talabalarning ham, o‘qituvchilarning ham e’tiborini jalb qilib, ingliz tilini o‘rganishni o‘quv jarayonini to‘xtatmasdan, auditoriyadan virtual haqiqatga o‘tkazishga imkon beradi [3]. Zamonaviy globallashuv, ta’lim va jamiyat hayotining boshqa sohalarida ijtimoiy tartib o‘zgardi – xorijiy tillarni to‘liq biladigan mutaxassislar universitet va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim sohasida madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida zarur bo‘lib qoldi, shuningdek, kasbiy manfaatlar sohasida o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi sifatida. Shunga ko‘ra, ingliz tilini o‘qitish sifatini saqlab qolish uchun o‘qitishning nisbatan qisqa muddatlarida ijobiy natija bera oladigan shunday o‘qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur.

Xorijiy tillarni bilish professional ishga joylashish uchun tanlov mezonlaridan biri, muvaffaqiyatli martaba uchun zarur shartdir, chunki amaliyot va ish beruvchilar ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni kamaytirmaydi, aksincha, oshiradi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda nafaqat oliy yoki o‘rta kasb-hunar ta’limi to‘g‘risidagi hujjatlar, balki ularni aniq vakolatlar, jumladan, amaliy ko‘nikmalar, ko‘nikmalar va ularni amalga oshirishga tayyorlik ko‘rinishida tasdiqlash talab etiladi [2]. Shu munosabat bilan zamonaviy ta’lim tizimiga intensiv, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muammosi o‘z dolzarbligini yo‘qotmayapti va o‘z vaqtida zarurdir.

Zamonaviy ta’lim jamiyatida xorijiy tillarni o‘qitish konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish mavjud bo‘lib, u ingliz tilini o‘qitishning turli pedagogik texnologiyalarini yaratishda ifodalanadi. Shunga ko‘ra, hozirgi vaqtda ta’lim jarayoni aralash ta’lim modeliga asoslangan bo‘lib, u ta’limning an’anaviy shakllari va zamonaviy texnologiyalarni samarali uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Chet tilini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning keng doirasi qo‘llaniladi: kommunikativ o‘qitish texnologiyasi, ko‘p bosqichli (differentsial) o‘qitish texnologiyasi, modulli o‘qitish texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, individual o‘qitish texnologiyalari, testlarni boshqarish texnologiyalari, loyiha texnologiyalari, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari, o‘yin texnologiyalari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari va boshqalar [1].

Keling, eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan pedagogik texnologiyalardan biri - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi, uning amaliy yo‘nalishini oshiradi, o‘quvchi shaxsining salohiyatini rivojlantiradi. talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi va ularning bilim faolligini oshiradi.

Hozirgi vaqtda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanlararo mazmun, o‘qitish shakllari va vositalariga asoslangan yagona ta’lim yondashuvidir. Ta’limni axborotlashtirish birinchi o‘ringa chiqadi, uning mohiyati shundan iboratki,

ma’lumotlar bazalari, kompyuter dasturlari, virtual kutubxonalar va m’lumotnomalarda taqdim etilgan katta hajmdagi ma’lumotlar talabalar uchun mavjud bo‘ladi [2]. Talabalar amaliy ingliz tili kursida mustaqil ta’lim uchun mavzular tayyorlash uchun kerakli ma’lumotlarni topadilar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot imkoniyatlari va sohalari kengaymoqda, chet tilini o‘zlashtirishdagi an’anaviy to‘siqlar (soddalashtirilgan muloqot muhiti, sun’iy sinf muhiti va boshqalar) avtomatik tarzda bartaraf etilmoqda.

Bundan tashqari, internet saytlari turli muloqot ko‘nikmalarni (tinglash, o‘qish, yozish, gapirish), leksik va grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish, xalqaro standartlarga muvofiq tilni bilish darajasini aniqlash uchun ishlatiladi, ya’ni internet orqali jonli muloqot orqali chet tilidan haqiqiy foydalanish. Shu bilan birga, motivatsiya, tabaqalashtirilgan ta’lim va uning avtonomiyasiga erishiladi.

Internetdagi axborot resurslaridan foydalanib, ularni o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan holda (tegishli didaktik talqin qilingan holda) bir qator didaktik muammolarni yanada samarali hal qilish mumkin:

- turli darajadagi murakkablikdagi onlayn materiallardan bevosita foydalanish orqali o‘qish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

- o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan haqiqiy internet audio matnlari, multimedia vositalari asosida tinglash ko‘nikmalarini oshirish;

- o‘qituvchi yoki talabalardan biri tomonidan taqdim etilgan onlayn materiallarni muammoli muhokama qilish asosida monolog va dialogik bayon qilish ko‘nikmalarini oshirish;

- sheriklarga yakka tartibda yoki yozma ravishda javob yozish, tezislar, insholar va sheriklarning birgalikdagi faoliyatining boshqa epistolyar mahsulotlarini tayyorlashda ishtirok etish orqali yozish ko‘nikmalarini oshirish;

- faol va passiv so‘z boyligingizni xalq madaniyati, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi rivojlanishining muayyan bosqichini aks ettiruvchi zamonaviy chet tili lug‘ati bilan to‘ldirish;

- madaniy bilimlar, shu jumladan, nutq odobi, muloqot sharoitida turli xalqlarning nutqiy xulq-atvori xususiyatlari, o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyati xususiyatlari, an’analari bilan tanishish;

- «jonli» materiallardan tizimli foydalanish, nafaqat darslik matnlari savollarini, balki barchani qiziqtiradigan «issiq» muammolarni muhokama qilish asosida darsda talabalarning chet tilidagi faoliyati uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish [2].

Biroq, endi hamma internet juda katta axborot imkoniyatlariga ega ekanligini va undan kam bo‘lmagan ta’sirchan xizmatlarga ega ekanligini tushunadi. Ulardan biri, yuqorida ta’kidlanganidek, chet tilini o‘rganuvchilar uchun haqiqiy matnlardan foydalanish, tinglash va ona tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish uchun noyob imkoniyatlar yaratishdir, ya’ni u tabiiy til muhitini yaratishdir.

Chet tili kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi kabi haqiqiy va o‘quv internet resurslaridan foydalanish orqali keng imkoniyatlar ochiladi:

1. Ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun turli xil va murakkablik darajasidagi podkastlarni o‘z ichiga olgan veb-saytlar: so‘zlashuv ingliz tili, biznes ingliz tili,

xalqaro imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun podkastlar, mashhur universitetlarning podkastlari, podkastli bloglar va boshqalar.

2. Blog va wiki texnologiyalari.

3. R. Merfi, V. Evans, S. Redman, V. Prodromou, L. Jons va boshqa mualliflarning darsliklariga interaktiv ilovalar: English Grammar in Use, Professional English in Use, English Vocabulary in Use, Test Your English Vocabulary in Use, Business Explorer, Business Vocabulary in Use, Cambridge Grammar, Interactive, Interactive Approaches to Language Learning va boshqalar.

4. Darsliklar uchun audio va video resurslar: Language Leader, Cutting Edge, First Certificate Gold, Total English, Inside Out, Cambridge Certificate in Advanced English, Cambridge Certificate of Proficiency va boshqalar.

5. Britaniya nashriyoti: Mac-Millan, Pearson-Longman, Oxford University Press, Cambridge University Press va boshqa nashriyotlarning Internet darsliklari.

6. Chet tili o‘qituvchilari uchun onlayn ta’lim resurslari: BBC learning / teaching websites.

7. You tube vositalari va resurslari, videoxosting xizmatlari: xorijiy agentliklar yangiliklari; ommaviy axborot vositalarining rasmiy akkauntlari; xorijiy olimlar ishtirokida davra suhbatlari; chet tillari bo‘yicha chet el o‘qituvchilarining ma’ruzalari va boshqalar.

8. Lug‘atlar:

- elektron tashuvchilarda - ABBYY Lingvo 12;

- onlayn lug‘atlar: - Lingvo, Webster, Multiflex, on-line free dictionary, Multitran, Polyglossum.

9. DVD filmlar va DVD kurslari, CD tashuvchilar

- zamonaviy autentik materiallarga ega xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv dasturlari va uslubiy tavsiyalar bilan o‘qituvchilar uchun kitoblar bilan;

- City and Guilds, LCCI, CAE, IELTS, TOEFL xalqaro sertifikatlashtirish imtihonlarini topshirish uchun intensiv ingliz tili kurslari: DVD, CD, Audio CD va Internet simulyatorlari.

Hozirda internetda bir qancha saytlar (masalan, http://www.listen-and-write.com) mavjud bo‘lib, ular chet tilini o‘rganuvchilarga tinglash va imlo ko‘nikmalarini sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Taqdim etilgan materiallar haqiqiy va asl manbalardan olingan. Ular darajalarga (28 daraja) bo‘linadi va imlo tezda tekshiriladi va tuzatiladi.

Dunyoning deyarli barcha yetakchi ommaviy axborot vositalarida «The Times» , «The Independent» , «The Financial Times» , «The USA Today» , «The New York Times» , «BBC» kabi veb-sahifalar mavjud. Ular juda ma’lumotli, qiziqarli va chet tilini o‘rganuvchilar uchun mazmunli saytlar va turli mavzularda lug‘atga ega turli matnlarni taklif qiladi. Bundan tashqari, har bir talaba ushbu matnlarni tinglashi va videolarni tomosha qilishi mumkin. Chet tilini samarali o‘rganishga yordam beradigan foydali ma’lumotlarning o‘ziga xos “banki” sifatida ko‘plab saytlar mavjud.

Shunday qilib, zamonaviy axborot kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish orqali o‘qituvchilar va talabalarga chet tilida o‘qish, yozish, gapirish, tinglashni

o‘rgatish imkoniyatlari shakllanadi. Bunday usullar, bizning fikrimizcha, vakolatga asoslangan, kognitivkommunikativ, fanlararo yondashuvlarning birligiga asoslanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilim olish va yanada rivojlantirish, tajribani boshqa o‘qituvchilarga o‘tkazish va chet tillarini o‘qitishning mavjud usullarini takomillashtirish uchun juda ko‘p imkoniyatlar taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akhmedova M. M., Khomidova M. M. K. Modern methods and technologies in teaching literature //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 3. – C. 317-325.
2. Nurmatova M. M. Modern information and communication technologies for teaching foreign languages // Fundamental and applied research: problems and results. 2023. No. 5. Pp 127.
3. Sulaymanova B. A. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda ijtimoiy mediadan foydalanish bo‘yicha ta’lim imkoniyatlari va ularda kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirish.//O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2021. — №1(36). — S. 138–147. https://doi.org/ 10.36078/1618987737

ONA TILI FANINI O‘QITISHDA LINGVISTIK KORPUSDAN FOYDALANISH MASALALARI

A.A.Eshmuminov TerDU
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari doktori, dotsent
e-mail: easqar@list.ru

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan tilshunoslik sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, lingvistik korpuslar tilshunoslik tadqiqotlarida hamda ta’lim jarayonida samarali qo‘llanib kelinmoqda. Ona tili fanini o‘qitishda lingvistik korpuslardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda lingvistik tahlillarni osonlashtirish imkonini beradi. Ushbu maqolada lingvistik korpus tushunchasi, uning ona tili ta’limidagi ahamiyati va qo‘llanilish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu texnologiyaning o‘qitish jarayoniga ta’siri va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim tavsiyalar ilgari suriladi.

Ta’limiy korpus – materiallari tilni o‘rgatishga yo‘naltirilgan, lingvodidaktik xususiyatga ega til korpusi. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi o‘zbek tili imkoniyatlarini o‘rgatishga mo‘ljallangan, lingvodidaktik xususiyat kasb etgan elektron matnlarni qamrab olgan, maxsus sayt ko‘rinishida amal qiladigan o‘zbek tilidagi korpus. U katta hajmga ega bo‘lgan matnlar to‘plami, oddiy/murakkab qidiruv tizimi hamda ma’lum birlikni matn va o‘zbek tili o‘quv lug‘atlaridan qidiruv funksiyalari amal qiladigan o‘ziga xos til korpusidir.

O‘zbek tilida o‘rganish va o‘rgatishga bag‘ishlangan lug‘atlar haqida gap borganda “o‘quv” atamasi qo‘llanilishi an’anaviylik kasb etib qolgan. Masalan,

o‘quv lug‘ati, omonimlar o‘quv lug‘ati, sinonimlar o‘quv lug‘ati va h. O‘quv lug‘atlari haqida maxsus tadqiqot ishi ham olib borilgan. Lekin lingvodidaktik maqsadlarni ko‘zlagan korpusda “ta’limiy” so‘zi bilan qo‘llanish urfga kirdi – barcha izlanishlarda “ta’limiy korpus” atamasi ishlatilmoqda. Shuning uchun har qanday o‘zbek tili yoki o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilar ehtiyojini qondirish uchun tuziladigan korpus “ta’limiy korpus” atamasi sifatida qo‘llanishi, bizningcha ham, to‘g‘riroq bo‘ladi (ingliz va rus tillarida: Learning Corpus, Educational Corpus, obuchayuщiy korpus, uchebnыy korpus). Qolaversa, ushbu korpusni “o‘quv korpusi” deb atash, o‘zbek tilida bu birikma boshqa ma’noda keng qo‘llanganligi uchun noqulaylik tug‘diradi.

Til korpuslari tizimida ta’limiy korpuslarning alohida o‘rni bor: ular materiallarning lingvodidaktik xususiyati bilan boshqa korpuslardan farq qiladi. Ingliz va rus tillarida korpusning shunday maxsus turlari farqlanadi, hatto ta’limiy korpusning xilma-xil namunalari ham yaratilgan. Masalan, rus tili milliy korpusi tarkibida ta’limiy korpus (obuchayuщiy korpus) mavjud: u milliy korpusning ichki korpusi sifatida ishlab chiqilgan, milliy korpusning tarkibiy qismi sanaladi. Uning materiali Milliy korpusdagi matnlardan o‘quvchining yoshiga mosligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Irkutsk davlat tilshunoslik universitetida Ta’limiy multimodal korpus (UMKO) tuzish davom etmoqda. Bu korpus materiali rus, xitoy tili tashuvchisi, ikkinchi tili sifatida ishlatuvchi shaxslarning ma’lum mavzu borasida oldindan tayyorlanmagan ta’limiy dialoglari videoyozuvidir. Korpus ELAN dasturi asosida razmetkalangan, parallel korpus shaklini olgan, dialoglar ma’noviy guruhlarga bo‘lingan holda joylashtirilgan. Masalan, rus tili egasi nutqi bilan rus tilini o‘rganayotgan xitoy tili vakili nutqi ayni bir mavzudagi dialog asosida qiyoslanadi. Ushbu korpus, birinchi navbatda, lingvodidaktik maqsadni, xususan, tipik xatolarni topish, mashg‘ulotlar davomida shu xatolarni nutqdan chetlashtirish yo‘lini izlash hamda talabaning mustaqil ishiga ko‘maklashishni ko‘zlaydi.

Jahon korpus lingvistikasining tadrijiy taraqqiyotidan shu narsa ma’lumki, shu vaqtgacha yaratilgan Milliy korpuslar deyarli hammasining qidiruv menyusida **taksonomik munosabatli leksemalar lingvistik bazasi** interfeysiga ega bo‘ladi. Ular ma’lum bir ketma-ketlikda qidiruv tizimiga bo‘ysundirilgan. Tadqiqotchi A.Rahimov quyidagicha izoh beradi: “Kompyuter va korpus lingvistikasida inson tafakkuri va tilini modellashtirish masalasi markaziy muammo hisoblanadi. Ya’ni sun’iy intellekt, tabiiy tilga ishlov berish (NLP), lingvistik protsessorlar, kompyuter uchun tabiiy tilli interfeys bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar mantiq, grammatika, semiotika, kompyuter texnologiyalari sohalarning ijodiy hamkorligi asosida amalga oshirilishi bilan bu sohada juda ko‘p yutuqlarga erishilganligi, lekin hali-hanuz mo‘jizakor tabiiy til ham, sirli inson tafakkuri ham to‘la modellashtirilmagani, ayni shu masala − til va tafakkurni modellashtirish kompyuter lingvistikasi fanining istiqbolli yo‘nalishi sanaladi”. Uning bu fikrlari o‘zining izlanishlari samarasidir.

Rus tili milliy korpusida taksonomik va meronimik **munosabatli leksemalar lingvistik bazasi** interfeysi to‘la holda modellashgan va undagi har-bir til birligi qidiruv tizimiga bo‘ysundirilgan va mukammal holda rus tili milliy korpusi

foydalanuvchilari uchun qulay usulda ishlab chiqilgan. Dastur orqali xohlagan ma’lumotlarni juda qisqa vaqt davomida foydalanuvchilar topib foydalanishlari mumkinligini alohida qayd qilish mumkin

Rus tili Milliy korpusida taksonomik va meronimik **munosabatli leksemalar lingvistik bazasi** interfeysini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, uyadoshlik (taksonomik) va butun-bo‘lak (meronimik) munosabat ifodalovchi birliklar ketma-ketlikda muayyan tasnif asosida joylashtirilgan. Shuningdek, tadqiqotchi O‘.Xoliyorov “O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari” nomli dissertatsiyasida o‘zbek tili Milliy korpusining bosh menyusi interfeysi joylashuvi haqida shunday deydi: “O‘zbek tili korpusini ishlab chiqishda umumiy talablar bilan birga o‘zbek tili xususiyatlari, o‘quvchi yoshiga mos jihatlariga alohida e’tibor qaratish lozim” (qarang: 1- rasm).

1- rasm. **O‘zbek tili Milliy korpusi interfeysi**

Ushbu tadqiqotda milliy korpus mazmuniga, ularning interfeysiga qo‘yilgan talablarga alohida e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, rasmda ko‘rib turganimizdek, O‘zbek tili Milliy korpusining interfeysi uchga bo‘lingan holda joylashtirilgan: chap, o‘ng va o‘rta maydon. Chap tarafdan O‘zbek tili korpusi haqidagi umumlashma ma’lumotlar (umumiy ma’lumot, korpus xaritasi (struktura va tarkib), yangiliklar arxivi, mualliflar jamoasi va loyiha haqidagi umumiy ma’lumot, matn parametrlari, so‘zning faolligini ko‘rsatuvchi tizim, dasturiy vosita va h.k) hamda korpusdan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma o‘rin olgan.

Interfeysning o‘ng tomonida, asosan, O‘zbek tili milliy korpusi tarkibidagi ichki korpuslarga havola beruvchi oynalar joylashgan. Jumladan, asosiy korpus, ta’limiy korpus, poetik korpus, gazeta korpusi, parallel korpuslar kiritilishi rejalashtirilgan. Tadqiqotchi A.Rahimov interfeys joylashuvi bo‘yicha quyidagicha fikr bildiradi: “Korpus birliklariga morfologik, sintaktik, semantik va etimologik tavsif berish

tamoyillariga havola qiluvchi tugmachalar mavjudligini ko‘rish mumkin”. Bularning bari modellashtirishning qanchalik aniq va mukammal amalga oshirilishiga bog‘liqligini unutmaslik lozim.

Sun’iy intellekt tizimi doirasidagi tabiiy tilli interfeys, ekspert tizimlari, neyron tarmoqlar, lingvoanalizatorlar, gapiruvchi avtomatlar – barchasi kompyuter modellashtirish natijasi hisoblanadi. Milliy korpus interfeysi ham qaysidir ma’noda modellashtirish natijasidir.

Milliy korpus bosh menyu interfeysidan so‘ng tizim interfeysning o‘rta qismida qidiruv oynasi: korpusdan qidiruv, grammatik belgilar asosidagi qidiruv, statistika hamda natijalar oynasi joylashgan. Korpusda qidiruv tanlanganda, asosiy qidiruv oynasi ochiladi (qarang: 2- rasm).

2- rasm. **Asosiy qidiruv oynasi**



Rasmda ko‘rib turganimizdek, korpusda qidiruvning turli ko‘rinishi: so‘z qidiruvi, so‘z shakli qidiruvi, birikma qidiruvi, semantik, morfologik, uslubiy xoslanganlik belgilari asosidagi qidiruv mavjudligini ko‘rish mumkin. Morfologik (*grammatik qidiruv* ham deyiladi) qidiruv tanlanganda, alohida oyna ochilib, o‘zbek tili grammatik xususiyatlaridan kelib chiqqan parametrlar asosidagi qidiruv ko‘rinadi. Shundan so‘ng o‘zbek tili milliy korpusidagi barcha ma’lumot (informatsiya)larni xohlagan usulda olishimiz mumkin. Informatsiyaning eksponensial tarzda ko‘payib ketayotganligi, shuningdek, Internet tizimida ham kundan kunga ma’lumotlar hajmining o‘sib borayotganligi kompyuter lingvistikasi oldiga bir qator vazifalarni ko‘ndalang qo‘ymoqda:

- qidiruv tizimining optimal modellarini yaratish;
- hujjatlarni tasniflash (klassifikatorlar tizimini yaratish);
- hujjatlarni klasterlash;
- foydalanuvchi interfeyslari va qidiruv tizimlari arxitekturasini loyihalash;
- zaruriy informatsiyani ajratib olish, hujjatlarni avtomatik referatlash va annotatsiyalash;
- diskriptorli (deskriptor (lotincha deskriptor “tasvirlash” so‘zidan) − axborot izlash jarayonida tilining leksik birligi (so‘z, ibora) bo‘lib, hujjatning asosiy semantik mazmunini yoki axborot izlashda hujjatni (ma’lumotni) izlashda so‘rovni ifodalash jarayonida foydalaniladi.

O‘zbek tili milliy korpusini yaratish yo‘lidagi bizning harakatlarimiz shu vaqtga qadar o‘zbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlarga tayanishini istisno qilmagan holda o‘zbek kompyuter lingvistikasi asoschilaridan biri bo‘lgan A. Po‘latov o‘zining “Kompyuter lingvistikasi” kitobida lingvistik ma’lumotlar ombori (lingvistik korpus)da leksik-semantik munosabatlarning korpusda joylashuvi haqida

quyidagi qimmatli fikrini bayon etadi: “Axborot uslubida leksikologiya masalalarini koʻrib chiqish juda muhim. Chunki u bevosita soʻzlar bilan bogʻliq. Leksikologiyada sinonimlar, omonimlar, koʻp maʼnoli soʻzlar, leksikografiya kabi bir qator masalalar axborot uslubini yaratishda tanqidiy nuqtayi nazardan koʻrib chiqishni taqozo etadi. Bu yoʻnalishdagi eng asosiy masala soʻzlarning izohidir. Mavjud lugʻatlardagi izohlar talab darajasida emas. Xususan, baʼzi soʻzlarning izohi uning sinonimini berish bilan cheklanib qolgan. Soʻzlarga izoh berishda mazkur mezonlardan foydalanish kerak deb hisoblaymiz”. Umuman olganda, yuqoridagi mavzuga aloqador fikr-mulohazalar asosida ona tilini korpus asosida oʻqitish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib oʻtish oʻrinli deb hisoblaymiz:

1. Ona tili taʼlimida asosan, lingvistik korpuslarni integratsiya qilish – Oʻqituvchilar va tadqiqotchilar uchun maxsus korpuslarga asoslangan oʻquv dasturlarini ishlab chiqish va ulardan doimiy foydalanish tavsiya etiladi.
2. Elektron resurslar yaratish – Ona tili darsliklari bilan integratsiyalashgan interaktiv korpus resurslarini ishlab chiqish oʻquvchilarning til bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.
3. Pragmatik va diskursiv tahlillarni keng qoʻllash – Oʻquvchilarga real matnlar asosida analiz qilish imkoniyatini berish uchun lingvistik korpuslar bilan ishlash usullari dars jarayoniga kiritilishi lozim.
4. Oʻqituvchilar uchun maxsus seminar va treninglar tashkil qilish – Lingvistik korpuslardan samarali foydalanish boʻyicha oʻqituvchilarning malakasini oshirishga yoʻnaltirilgan maxsus kurslar oʻtkazilishi zarur.
5. Til oʻrganish va test tizimlariga moslashuvchan korpuslar yaratish – ona tili boʻyicha turli bosqichdagi oʻquvchilar uchun moslashtirilgan korpuslardan foydalanish tavsiya etiladi.

Oʻzbek tili korpuslari asosida ona tili taʼlimini takomillashtirish masalalarida oʻzbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarga suyanib, shu vaqtgacha yigʻilgan materiallardan foydalanamiz. Lingvistik korpuslar ona tili taʼlimini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi. Korpus asosidagi taʼlim usullari nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga ham yordam beradi. Oʻqituvchilarning lingvistik korpuslardan foydalanish koʻnikmalarini oshirish, elektron resurslar yaratish va interaktiv oʻquv metodlarini joriy qilish orqali ona tili fanining oʻqitish samaradorligini yana-da oshirish mumkin. Kelgusida lingvistik korpuslar asosida taʼlim jarayonini yana-da rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarida qoʻllash dolzarb vazifalardan biri boʻlib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1 Eshmuminov A. Oʻzbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronimik munosabatli leksemalar bazasini shakllantirish. Monografiya. - Termiz davlat universiteti nashriyoti. 2023. 250 b.
2 Bahriddinova B. Oʻzbekistonda oʻquv lugʻatchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari: Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Samarqand, 2020. – 256 b

3 Xamroeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) …diss. – Qarshi, 2018. – 168 b.
4 Xoliyorov O‘. O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Termiz, 2021. – B 39.
5 Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari – T.: Fan, 1953. –30 b
6 Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi.–Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 22.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MILLIY ASPEKTLARINI YARATISH UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN SAMARALI METODLARNING AHAMIYATI.

M.B.Kasimova
DXX ChQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Tillar” kafedrasi ona tili va adabiyot fani
o`qituvchisi f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalaniladigan interaktiv metodlarning o‘quvchilarni vatanga sadoqat, mehr-muhabbat, milliy g‘ururni his qilish ruhida tarbiyalashdagi amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlikning mustahkam asoslari, milliy g‘urur, shaxs sifatida rivojlanish, vatan oldidagi burch va mas’uliyat, samarali interaktiv metodlar, milliy tarix va qadriyatlarga hurmat ruhini rivojlantirish.

Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning vatanparvarlik mas’uliyatini shakllantirish uchun turli metodlar va yondashuvlar mavjud. Bu metodlar o‘quvchilarni ona tili va adabiyot fanlari orqali milliy qadriyatlar, madaniyat va vatansevarlikni o‘rgatishda samarali bo‘ladi. Ona tili darslarida vatanparvarlikni shakllantirish uchun qo‘llaniladigan samarali metodlardan biri badiiy tahlil qilishdir. O‘quvchilarga shu mavzu ustunlik qiluvchi asarlarni o‘qitish, bu orqali ularni ona vataniga nisbatan mehr-muhabbatga chaqirish mumkin. Dars davomida vatanga muhabbat haqida yozilgan she’rlarni o‘qish, fikrlarni ongiga singdirish, his-tuyg‘ulari bilan bo‘lishishni o‘rgatish va badiiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish metodida o‘quvchilar vatanni sevish, uning madaniyatini hurmat qilish va uning oldidagi mas’uliyatni anglashni o‘rganadilar.

Ma’lumki, vatanparvarlikning mustahkam asoslarini milliy qadriyatlar, an’analar va urf-odatlar tashkil qiladi. O‘quvchilarga o‘z xalqining boy madaniyatini tanishtirish, ularni o‘rganish orqali millatga bo‘lgan hurmatni rivojlantirish mumkin. Bunda milliy bayramlar, urf-odatlar, xalqning tarixiy voqealari haqida suhbatlar o‘tkazish qo‘l keladi. Masalan, o‘quvchilarga o‘zbek xalqi va uning tarixiy merosini, milliy ramzlar (bayroq, gerb, madhiya)ning mohiyati o‘rgatish, millatning qadriyatlari va tarixini anglash ularda faxr tuyg‘usini rivojlantiradi.

Bundan tashqari mavzu doirasidagi tarixiy voqealar va hikoyalar katta rol o‘ynaydi. Ularni o‘zbek xalqining tarixiy qahramonlari, mustaqillik uchun kurashgan

insonlar haqida hikoyalar orqali ilhomlantirish mumkin. Tarixiy shaxslar va voqealar haqidagi darslarda o‘quvchilarga mustaqillik kurashi, qahramonlarimizning jasorati va boshqa tarixiy voqealarni o‘qitish va muhokama qilish, millatparvar vatandoshlar faoliyatlariga doir hikoyalar bilan tanishtirish millatning ozodligi uchun kurashgan ajdodlarini hurmat qilishni o‘rgatadi.

Buyuklarning ayni mavzudagi aforizmlarini to‘plash musobaqasi ham yurtga xizmat qilish, xalq hayotiga daxldorlik hissini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, *«Vatanparvarlik — bu nafaqat o‘z yurtini sevish, balki unga xizmat qilish va uning boyliklarini asrab-avaylashdir.»* Shahristoniy.

«Vatan - bu insonning o‘zini tanishi, o‘zini baxtiyor his etishidir.» Bu misralarda Navoiy vatanni va xalqni ulug‘lab, millat manfaatlari uchun kurashishning zarurligini ta’kidlaydi.

«Vatan o‘z bolalarini har qadamda ko‘tarib boradi, yurtsiz bo‘lish esa insonning ruhini yomonlashtiradi.» Z.M.Bobur

«O‘z xalqini bilmagan kishi, boshqa xalqlarni anglashda adashadi.» A.Beruniy.

«Vatanparvarlik - bu o‘z millatingni, uning tarixini va madaniyatini hurmat qilishdir. Faqat shu yo‘l bilan biz yuksalib boramiz.»

«Vatan uchun xizmat qilish, ilmni o‘rganish va uni o‘z yurtida rivojlantirish - har bir insonning asosiy burchidir.» Mirzo Ulug`bek

«Inson o‘z xalqining farovonligi uchun bilim olishi va uni amaliyotda qo‘llashi kerak.» Ibn Sino

«O‘zbek tilini yaxshi bilish, uni rivojlantirish va uni hurmat qilish — bu vatanparvarlikning eng yaxshi shaklidir.» Muhammad Solih

Bu misralarda nafaqat yurtdagi boylik va tarixni hurmat qilish, balki ilm, madaniyat va ma’naviyat orqali rivojlantirish ta’kidlanadi. Vatanparvarlik, allomalarning fikricha, nafaqat qahramonlik va jismoniy kurashni anglatadi, balki o‘z xalqiga, uning qadriyatlari va madaniyatiga xizmat qilishni ham o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarni faollikka undovchi interaktiv metodlar, masalan, rol o‘ynash yoki guruhli ishlash ham ularni g‘oyaviy tarbiyalashni rivojlantirishda samarali bo‘ladi. Adabiyot darslarida vatanparvarlik bilan bog‘liq mavzularda rol o‘ynashda o‘quvchilar tarixiy qahramonlarning hissiy holatiga kirib ularning ulug‘vorligini o‘z tanalarida his qilishadi. O‘quvchilar bu metod orqali vatanparvarlik ruhini ichki his-tuyg‘ulari bilan anglashadi va bu haqida o‘z fikrlarini ifoda etishadi.

O‘quvchilarning ijodiy ishlar orqali o‘z fikrlarini ifodalashlariga imkon yaratish. Bu metod ularni o‘zlari yaratgan asarlarda vatanparvarlikni aks ettirishga undaydi. She’r yozish, hikoya yozish yoki vatanparvarlik mavzusida kompozitsiyalar tayyorlash. O‘quvchilarga vatanparvarlik haqida she’rlar, hikoyalar yoki rassomlik asarlari yaratishni taklif qilish. Ushbu ishlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifoda etishadi. O‘quvchilar ijodiy ishlar orqali o‘z vataniga bo‘lgan sevgisini va hurmatini ifodalaydi. ***«Vatan haqida eng yaxshi hikoya» , «Vatanparvarlikni ko‘rsatuvchi eng yaxshi san’at asari»*** kabi musobaqalar tashkil etish. Mavzuga oid ma’ruzalar, hikoyalar yoki tadbirlar tayyorlashni topshirish. Bu uslublar o‘z vatanini sevish va uni rivojlantirishga oid g‘oyalarni rivojlantiradi.

O‘quvchilarni vatanparvarlikka chaqirish va ularning buni namoyish etishiga imkon berish maqsadida musobaqalar va tadbirlar o‘tkazish mumkin. Milliy ramzlarning tarixi, ma’nosi va ahamiyati haqida darslar o‘tish, bayroqni ko‘tarish, himoyachilarning madhiyasini kuylash kabi amaliy ishlar orqali vatanparvarlikni his qilishga jalb qilish o‘quvchilarda vatanparvarlik hissini mustahkamlashga yordam beradi.

Vatanparvarlikni faqat nazariy ma’lumotlar bilan emas, balki amaliy mashg‘ulotlar orqali ham o‘rgatish kerak. O‘quvchilarga o‘z hayotlarida vatanparvarlikni qanday namoyish etishlarini ko‘rsatish muhimdir.

Turli ekologik tozalash, yurtni obod qilish kabi loyihalarni tashkil etish, tabiatni asrash, milliy bog‘larni obodonlashtirish kabi amaliy tadbirlarga jalb qilish orqali vatanga xizmat qilish nafaqat so‘zlar bilan, balki amaliy ishlar bilan ham ifoda etilishini anglatish mumkin.

Ona tili darslarida vatanparvarlikni shakllantirish uchun bu metodlar samarali ishlatiladi. Milliy qadriyatlar, tarix, adabiyot va madaniyatni targ‘ib qilish orqali o‘quvchilarni vatanga sadoqat, mehr-muhabbat bilan tarbiyalashga, o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga va milliy mas’uliyatni his qilishga imkon yaratadi.

Vatanparvarlikni o‘rgatishda kinolar va hujjatli filmlar muhim vosita bo‘lishi mumkin. Ular o‘quvchilarga o‘z vatanining tarixini, madaniyatini, qahramonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, Mustaqillik kurashlari yoki yurtimizning buyuk ajdodlari haqida filmlar orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksak darajada rivojlantirishga erishish mumkin.

Bu masalada ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalardan maqsadli foydalanish vatanparvarlikning targ‘ibotida samarali usul hisoblanadi. O‘quvchilar turli internet manbalaridan o‘z vataniga oid ma’lumotlarni olishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlikni targ‘ib qilishga qaratilgan postlar yaratish, vatanparvarlik haqida maqolalar yoki bloglar yozish, onlayn tadbirlarda ishtirok etish, masalan, vatanparvarlikni targ‘ib qiluvchi videolar yaratish yoki matnlar yozish. Bu metod orqali o‘quvchilar vatanparvarlikni zamonaviy vositalar orqali yanada kengroq tushunadilar va uni boshqalarga etkazishda faol ishtirok etadilar.

Ona tili va adabiyot darslarida muntazam ravishda vatanparvarlik haqida suhbatlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarni yurtni sevishga chaqirish mumkin. Bu usul o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi. Mavzuga oid suhbatlar, muhokamalar tashkil qilish masalan, «Nima uchun biz o‘z vatanimizni sevishimiz kerak?» Suhbat davomida o‘quvchilarga vatanparvarlikka oid savollar berish va ularning fikrlarini tinglash. Bu metod orqali o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadilar va vatanparvarlikka oid o‘z fikrlarini rivojlantiradilar.

Yozma ishlar topshirish orqali ham ularning fikrlarini yanada shakllantirish mumkin. Bu metod o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilarga sarlavha bo‘yicha insho yoki esse yozishni topshirish («Men uchun vatan nima?» , «Vatanparvarlik nima?» , «Yurtimizning eng buyuk yutug‘i»). O‘quvchilar o‘z insho yoki esse yozish davomida o‘z fikrlarini izchil ifodalaydilar va vatanparvarlik haqidagi bilimlarini amaliy tarzda ko‘rsatadilar. Bu metod orqali

o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanadi va ular o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbatlarini tushunib, uni ifoda etishda o‘zlarining so‘zlarini topadilar.

Vatanparvarlikni shakllantirishda milliy bayramlar va tarixiy sanalar juda katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarga mustaqillik kunini, xalq qahramonlarini xotirlash kunlarini va boshqa milliy tadbirlarni o‘tkazish orqali vatanparvarlik hissini oshirish mumkin. Bayramlarni nishonlashda qatnashish, tarixiy sanalar bilan bog‘liq tadbirlarda faol ishtirok etish. Ularga vatanparvarlikni o‘z ishlarida va bayramlarda namoyish etishga imkon berish. Bayramlarda ishtirok etish orqali o‘quvchilar vatanparvarlik hissini kuchaytiradilar va mustaqillik, erkinlik kabi qadriyatlarni yanada chuqurroq tushunadilar.

Ona tili va adabiyot darslarida vatanparvarlikni shakllantirish uchun yuqoridagi metodlar va yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkin. Har bir metod o‘quvchilarga o‘z vataniga bo‘lgan sevgini, hurmatni va mas’uliyatni his qilishni o‘rgatadi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat ona tilini mukammal o‘zlashtiradilar, balki milliy qadriyatlarni ham chuqurroq anglaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. «O‘zbekiston: yangi bosqichda taraqqiyotning strategik yo‘nalishlari» . Toshkent, 2017.
2. Jumaniyozov, F. (2017). Vatanparvarlik g‘oyalarining taraqqiyotdagi o‘rni. O‘zbekiston Milliy Universiteti Jurnali, 45(2), 56-67.
3. Jabbor Omonturdiyev. Ma’rifatnoma. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.
4. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan vatanim. – Toshkent:O‘zbekiston, 2010.
5. Rafiqov Qudratilla. Mening Prezidentim. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
6. Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. – Toshkent: Davr press, 2019.

РОЛЬ ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ.

Б.Б. Нурмаматов
Преподователь кафедры
“Русского языка и литературы” ТерГПИ, Термез

Аннотация: Статья посвящена важной роли художественной литературы в формировании личности школьников, развитии их мировоззренческой культуры и гражданского самосознания. Автор рассматривает влияние литературы на эмоциональное и нравственное воспитание детей, а также её воздействие на развитие воображения, речи и интеллекта. Особое внимание уделяется значению чтения художественных произведений в младшем и среднем школьном возрасте, когда формируются важнейшие ценностные ориентации. В статье приводятся мнения известных педагогов, таких как Л.Н. Толстой, В.А. Сухомлинский и другие, подчеркивающих важность приобщения детей к литературе с ранних лет. Также рассматриваются методы

работы с текстами, такие как драматизация, моделирование ситуаций и анализ жизненных ситуаций через литературу, которые помогают учащимся осознать нравственные нормы и развить эмпатию. В заключение автор утверждает, что литература является важным средством воспитания духовных и моральных ценностей, а также инструментом формирования чувства ответственности и любви к Родине.

Ключевые слова: художественная литература, формирование личности, мировоззренческая культура, гражданское самосознание, эмоциональное воспитание, нравственное развитие, воображение, чтение, педагогика, литература для детей, ценностные ориентации, воспитание, социальное поведение, эмпатия, моральные нормы, методы обучения, драматизация, анализ текста.

Привейте человеку вкус к чтению и предоставьте ему возможность читать, и Вы неизбежно сделаете его счастливым

Джон Хабби

Художественная литература всегда играла ключевую роль в формировании мировоззрения и становлении личности. Великаны мысли и силы, святые и тираны преклонялись перед ней. Истинное искусство способно изменить человека, прививая ему высокие ценности любви, добра и красоты. Л.Н. Толстой не раз подчеркивал, что книга должна «вдохновлять» на добрые чувства. Она влияет на людей глубже и сильнее, чем что-либо другое. Именно поэтому она обладает великой силой. Множество известных мыслителей, общественных деятелей и писателей отмечали исключительное значение книги и чтения для развития человечества, подчеркивая, что без них невозможна никакая деятельность — будь то трудовая, политическая, культурная или научная. Книга остается уникальным способом сохранения и передачи знаний, накопленных человечеством за века, являясь основой духовной культуры народа.

Художественная литература — значимая форма искусства, играющая ключевую роль в личностном росте и осмыслении окружающего мира, его нравственных и эстетических принципов. Она открывает перед читателем многообразие человеческих переживаний, мыслей и эмоций, предоставляя возможность взглянуть на жизнь с различных сторон. В произведениях литературы находят отражение как светлые, так и темные стороны человеческой натуры, что помогает читателю развивать критическое мышление и лучше понимать собственные и чужие чувства.

Книги становятся не просто источником знаний, но и важным фактором в формировании нравственных ориентиров и ценностей, начиная с детства. Влияние литературы на воспитание будущих поколений трудно переоценит, вед именно в ней заложены уроки человечности, справедливости и доброты. Детская литература, например, способствует развитию у детей навыков сопереживания, умения понимать героев и делать выводы на основе прочитанного.

Современный мир, с его бурным развитием технологий и цифровых медиа, представляет вызов традиционному чтению. С каждым годом дети и подростки все меньше времени уделяют книгам, предпочитая интернет и другие формы развлечений, что ставит под угрозу ценность книги как инструмента духовного воспитания и эмоционального роста. Однако именно в художественной литературе можно найти ответы на многие жизненные вопросы, волнующие нас в повседневности. Книги помогают развить воображение, обогатит внутренний мир, сформировать собственные взгляды на жизнь и научиться принимать важные моральные решения. Литературные произведения дают возможность прожит чужие судьбы, увидеть мир глазами других людей, что делает каждого читателя более чутким и осознанным. Образование в сфере литературы помогает не только овладеть навыками грамотности и познания мира, но и способствует воспитанию глубокой личной этики, которая определяет поведение человека в обществе.

Книги часто вдохновляют на творческое самовыражение. Влияние литературы простирается гораздо дальше, чем просто чтение; она формирует культурный и нравственный фон общества, в котором мы живем. В литературе запечатлены выдающиеся достижения человеческой мысли, способные пробудит в людях стремление к истине, справедливости и гармонии.

Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyati bo‘lib, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo‘llashga o‘rgatadi. O‘qituvchining asosiy vazifasi esa, o‘quvchilarga aniq yo‘nalish berish, to‘g‘ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o‘qituvchi o‘quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to‘g‘ri

xulosani aytadi, natijada o‘quvchi o‘z xatosini tushunib, fikrlashdan to‘xtamaydi va ular o‘rtasidagi doimiy faollik ta’minlanadi.

Darslarda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha o‘quvchilar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O‘quvchilarning sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi[6].

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o‘rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko‘p qo‘llansa, o‘quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF4947-son Farmoni .O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Guilford J.P. Creativity, American Psychologist, Volume 5,
3. Sayidahmedov ona tili va adabiyot kitobi
4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir» , 2009.
5. A. Ismoilov,X. J. Daminov Z. A. Kosimova G. A. Primov “Kreativ fikrlashni baholash”.Toshkent- 2021

INGLIZ TILINI AKADEMIK LITSEYLARDA O‘QITISHDA YANGI METODLAR VA INNOVATSIYALAR

Sattorov Sh.B.
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Tillar” kafedrasi ingliz tili fani
bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston akademik litseylari uchun ingliz tilini o‘qitishdagi yangi metodlar va innovatsiyalar tahlil qilinadi. Maqolada pedagogik yangi yondashuvlar, masalan, raqamli texnologiyalar, Project-Based Learning, interaktiv metodlar (role-play) va media manbalaridan foydalanish, shuningdek, ularning o‘quvchilar til ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’siri muhokama qilinadi. Mazkur maqolada ushbu metodlarning ta’lim jarayoniga qanday integratsiya qilinishi, shuningdek, ular o‘quvchilarning motivatsiyasiga va ingliz tilidan foydalanishdagi samaradorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, innovatsion metodlar, ta’limni raqamlashtirish, Project-based Learning, role-play, akademik litseylar, xorijiy tillar, media manbalar, innovatsion metodlar, til o‘rganish samaradorligi, tilni o‘zlashtirish, ko‘nikmalari va h.k.

“Har tilni biluv emdi bani odama jondur, Til vositai robitai olamiyondur.G‘ayri tilini sa’y qiling bilgani, yoshlar, Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur. Lozim siza har tilni biluv ona tilidek, Bilmakka oni g‘ayrat eting foida kondur”.

Avaz O‘tar

Kirish. Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida yangi metodlar va pedagogic yondashuvlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. O‘qitishning an’anaviy usullari bilan bir qatorda, talabalar uchun yanada samarali va qiziqarli bo‘lgan innovatsion texnologiyalar va media resurslaridan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tili kabi o‘ziga xos tilni o‘rgatishda audiovizual materiallar va media manbalarining roli juda katta. So‘nggi yillarda ta’limda innovatsiyalarni joriy etishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi, shu jumladan, xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitishda. Ingliz tili jahon miqyosida kommunikatsiya vositasi sifatida zaruratga aylanganligi sababli, uning o‘qitilishi ko‘plab ta’lim muassasalarida ustuvor vazifaga aylangan. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar bilan birga, xorijiy tillarni o‘rganishda katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ko‘plab imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda.[1] Ayniqsa, akademik litseylarda, o‘quvchilarni chuqur bilimlar bilan ta’minlashga qaratilgan o‘qitish usullarida innovatsiyalar muhim o‘rin tutadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — O‘zbekistondagi akademik litseylarda ingliz tilini o‘qitishdagi yangi yondashuvlar va innovatsion metodlarni o‘rganish, shuningdek, ularning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ularning amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda media manbalar — televideniye dasturlari, radio, internet, kino va musiqiy asarlar til o‘rgatishda samarali vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu materiallar tilni nafaqat amaliyotda qo‘llash, balki uning madaniy va kontekstual jihatlarini tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o‘rgatishda audiovizual materiallar yordamida talaffuzni o‘rganish, tinglab tushunish va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, media manbalar tilni o‘rganish jarayonini jonli, interaktiv va talabalar uchun qiziqarli qilishga yordam beradi. Xususan, media manbalarining —televizion dasturlari, radio, internet-resurslar, kino, musiqalar, va boshqa audiovizual materiallar —til o‘rgatishdagi o‘rni tobora kengaymoqda. Media manbalar, tilni o‘rganishda faqat so‘z boyligini oshirish bilan cheklanmay, tilning fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarini o‘rganishga ham kata yordam beradi. Ular shuningdek, talabalarni tilning madaniy va kontekstual aspektlari bilan tanishtiradi.

Ingliz tilini o‘qitishda ko‘pgina yondashuvlar mavjud bo‘lib ulardan biri ta’limni raqamlashtirish va texnologiyalarni joriy etish hamda eng muhim yangiliklardan biri ta’lim jarayonini raqamlashtirishdir. O‘zbekistonda har yili axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) faol foydalanish ko‘rsatkichi ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, planshetlar, mobil ilovalar va ta’lim platformalari litseyda o‘qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. So‘z boyligini o‘rganishga qaratilgan mobil ilovalar (masalan, “Ibrat farzandlari” ilovasi yoki Quizlet) o‘quvchilarga mustaqil ravishda material bilan ishlash imkonini beradi, bu esa tilni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda shuningdek, onlayn kurslar va elektron darsliklar faol joriy etilmoqda, bu esa masofaviy va aralash ta’limni tashkil qilishga imkon beradi va o‘quvchilarning bilim darajasiga mos ravishda ta’limni tashkil etishga yordam beradi. Coursera, Duolingo kabi platformalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o‘quv jarayonida ishtirokini rag‘batlantirishda katta rol o‘ynaydi.[2] Shuningdek, virtual va qo‘shimcha interaktiv texnologiyalar o‘quvchilarga ingliz tilida til muhiti yaratishga imkon beradi, ular real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilishadi. Masalan, o‘quvchilar virtual tarzda tilning o‘rganiladigan mamlakatlariga sayohat qilishlari yoki ingliz tilida muloqot qilishlari mumkin.[3]

Project-Based Learning, PBL ya’ni “loyiha asosida o‘qitish” ingliz tilini o‘qitishdagi eng muhim innovatsion metodlardan biridir. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar haqiqiy vazifalar ustida ishlashadi va shu orqali nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘lashadi. O‘zbekiston akademik litseylari uchun bu metod juda samarali hisoblanadi.

Bu metod asosida o‘qitish talabalarni faollikka chaqiradi va ularni o‘qitish jarayoniga faol jalb etadi. Masalan, o‘quvchilarga ingliz tilida taqdimotlar, video lavhalar, ilmiy tadqiqotlar yoki ingliz tilida o‘zlarining madaniyatiga oid loyihalarni ishlab chiqish topshiriqlari beriladi. Bu nafaqat til ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi, balki boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarni ham chuqurlashtiradi.[4] Project-Based Learning ya’ni PBL o‘quvchilarda mustaqil ishlash va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar faqat materialni o‘rganmay, balki mahsulot yaratishda qatnashadilar, bu esa ta’limni yanada amaliy qiladi va ularni yanada rag‘batlantiradi.

Xorjiy tillarni o ‘qitishda yana bir muhim metodlardan biri “Interaktiv metodlar va role – play mashg‘ulotlari”dir. Ingliz tilini o‘qitishda interaktiv metodlar, masalan, “role-play” o‘yinlar, munozaralar va simulyatsiyalar, talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘yin mashg‘ulotlari, shuningdek, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ta’lim muhitini yanada interaktiv qilish uchun ishlatiladi. Masalan, “role-play” mashg‘ulotlari o‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarga kirib borish imkonini beradi va ularni ingliz tilini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi. Undan tashqari, o‘yin ilovalari, masalan, “Duolingo”, “Memorise” va boshqa mobil platformalar, o‘quvchilarga ingliz tilida grammatikani, leksikani va tinglash hamda talaffuz ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi. Bu ilovalar o‘quvchilarning xotira

va motivatsiyasini oshirishda yordam beradi, chunki o‘qish jarayoni o‘yin tarzida amalga oshiriladi.[5] Bu innovatsion metodlar yordamida o‘quvchilar yangi materialni o‘rganishda o‘ziga xos va qiziqarli mashg‘ulotlarda ishtrok etishadi, bu esa o‘qishni osonlashtiradi va samarali qilishi mumkin.

Globalizatsiyaning kuchayishi bilan birga, o‘quvchilar faqat til ko‘nikmalarini egallash bilan cheklanmasdan, madaniy-mafkuraviy kompetensiyani ham rivojlantirishlari zarur. Mamlakatimiz akademik litseylarida o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatishda nafaqat grammatika va leksikaga, balki ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning bizning madaniyatimizga yod bo‘lgan g‘oyalarigaham qarshi turadigan o‘zining mustaqil fikriga ega yosh avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Madaniy-mafkuraviy kompetensiya boshqa madaniyat tili ta’siriga tushib qolmay u tilni o‘zaro tushunishni yaxshilashga va tilni aniq madaniy kontekstdan foydalanishga yordam beradi. [6]

Ingliz tilini o‘rganishda, talaffuz va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu aspektlarni o‘rganishda albatta “Media manbalari” metodiga murojat qilishimizga to‘g‘ri keladi, ayniqsa radio va televizion dasturlari, talabalar uchun haqiqiy nutqni eshitish imkoniyatini yaratadi. Ingliz tilining talaffuzi ko‘p hollarda murakkab bo‘lishi mumkin, ammo audio-vizual materiallar orqali talabalar turli xildagi talaffuzlarni eshitib, to‘g‘ri talaffuzni o‘rganishadi. Misol uchun, ingliz tilidagi kino va teleseriallarida turli hududlarda yashovchio damlarning nutqini eshitish, ularning talaffuzi, aksent va leksik xususiyatlarini o‘rganishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi metodlarni til o‘rgatishdagi samaradorligini baholashda, ularning an’anaviy o‘qitish metodlari bilan integratsiyasi muhim omil hisoblanadi. Misol uchun, media materiallarini dars jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilar nafaqat grammatik qoidalarni o‘rganadilar, balki hayotiy kontekstda bu qoidalarning qanday ishlatilishini ko‘rishadi. Ingliz tilida, masalan, teleseriallar va kinolar orqali, tilni kundalik hayotda qo‘llashni o‘rganish o‘quvchilarga tilni tez va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Bunda o‘qituvchilar media manbalarini an’anaviy dars metodlari bilan birgalikda ishlatish orqali o‘quvchilarning diqqatini ushlab, dars jarayonini yanada samarali qilishi mumkin. Ingliz tilida talaffuzning o‘zi alohida muammo bo‘lishi mumkin, chunki bu tilde ko‘plab o‘ziga xos tovushlar mavjud. Biroq, ushbu manbalardan foydalanishning ba’zi kamchiliklari ham bor. Masalan, ba’zi kinolar va teleko‘rsatuvlar mintaqaviy aksentlar yoki dialektlarni qo‘llaydi yoki mafkuramizga va madaniyatimizga zid bo‘lgan manbalar bor bo‘lishi mumkin, bu esa o‘quvchilarda noto‘g‘ri tushuncha va talaffuz xatolariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, media manbalarinitanlashda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur, chunki noto‘g‘ri talaffuzlar va aksentlar yoki yod tushunchalar o‘quvchilarni chalg‘itishi mumkin. Shuningdek, bu jarayonni rivojlantirish uchun media materiallarini aniq va to‘g‘ri talaffuz bilan tanlash tavsiya etiladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan metodlarning texnologiyalar bilan birlashishi, masalan, mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv mashqlar yordamida, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Audio,video va onlayn darslar orqali ingliz tilidagi materiallarni izlash, videolarni qayta- qayta tomosha

qilish imkoniyati, podkastlarni tinglash va mashqlarni bajarish imkoniyatlari talabalar uchun qulay va interaktiv o‘rganish muhitini yaratadi. Bu esa tilni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ingliz tilining fonetik tizimi o‘ziga xos va murakkabdir. Media manbalar yordamida fonetik xususiyatlarni o‘rganish talabalar uchun samarali bo‘lishi mumkin. Televizion dasturlar va podkastlar orqali ingliz tilidagi tovushlar va fonetik elementlarni o‘rganish, talabalarni tilda aniq talaffuz qilishga va fonetik xatolarni kamaytirishga yordam beradi. Bu jarayon orqali, talabalar ingliz tilining fonetik tizimiga tegishli barcha maxsus tovushlar va ularning talaffuzini o‘rganishlari mumkin.

Xulosa. Ingliz tilini o‘qitishda yangi metodlar va innovatsiyalarni joriy etish O‘zbekistondagi akademik litseylarda ta’lim sifatini yaxshilaydi va o‘quvchilarni global jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish, o‘yin texnologiyalari, madaniy-mafkuraviy kompetensiya va media metodlarini rivojlantirish o‘quvchilarni faqat til ko‘nikmalarini o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularga kengroq dunyoqarash va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Kelajakda bu yondashuvlarni yanada rivojlantirish va ularni o‘quv rejalari bilan integratsiya qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-son. LEX.UZ
2. Ким, С. (2021). Цифровые технологии в преподавании английского языка: тенденции и перспективы. Ташкент: Наука.
3. Смирнова, И. (2020). Исползование виртуалной реалности в обучении иностранным языкам. Вестник образования, 12(3), 35-42.
4. Бекмухамедова, Н. (2022). Проектное обучение в контексте преподавания английского языка в старших классах. Современные подходы в образовании, 14(1), 56-60.
5. Рахимов, А. (2019). Игровые технологии в обучении английскому языку: опыт и практика. Инновационные методики, 6(2), 22-29.

O‘ZBEK VA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION METODLARNING O`RNI VA AFZALLIK TOMONLARI

Rahimova Iroda Shomurotovna
Allabergenova Intizor Xojinazarovna
“Jaloliddin Manguberdi” nomidagi harbiy-akademik litseyning oliy toifali o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion metodlarning o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishdagi ahamiyati tahlil

qilinadi. Shuningdek, maqolada loyihaviy ta’lim, gamifikatsiya, kolaborativ o‘qitish va aralash ta’lim kabi usullarning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, intellektual salohiyat, kolabarativ, gamifikatsiya, kommunikatsiya

Аннотация: В данной статье анализируется значение инновационных методов обучения узбекскому и иностранным языкам в повышении интеллектуального потенциала учащихся. В статье также подчеркивается эффективность таких методов, как проектное обучение, геймификация, совместное обучение и смешанное обучение.

Ключевые слова: инновационное образование, интеллектуальный потенциал, сотрудничество, геймификация, общение.

Abstract: This article analyzes the importance of innovative methods in teaching Uzbek and foreign languages in increasing the intellectual potential of students. The article also highlights the effectiveness of such methods as project-based learning, gamification, collaborative learning, and blended learning.

Keywords: innovative learning, intellectual potential, collaborative, gamification, communication

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonda davlat siyosati sifatida o‘zbek tili va xorijiy tillarni o‘qitish tizimini modernizatsiya qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interaktiv usullar va raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, muloqot qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlarni qo‘llash nafaqat tillarni o‘zlashtirish jarayonini samarali qiladi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va kreativ yondashuv kabi intellektual qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Innovatsion ta’lim usullari an’anaviy metodlardan farqli ravishda, o‘quvchini dars jarayonining markaziga qo‘yadi va ularning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligi va pedagogikasida ko‘plab olimlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bo‘yicha turli metodlarni ishlab chiqqan. Bu usullar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Kommunikativ yondashuv -o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Amaliy mashqlar, suhbat va dialoglar orqali o‘zbek va xorijiy tillarda erkin muloqot qilish imkonini yaratadi.

Grammatika-tarjima metodi — bu an’anaviy til o‘qitish usullaridan biri bo‘lib, asosiy e’tibor grammatik qoidalarni o‘rgatish va matnlarni tarjima qilishga qaratiladi. Bu metodda grammatik qoidalar o‘quvchilarga tushuntiriladi, so‘z boyligi ro‘yxatlar shaklida beriladi, matnlar tarjima qilinadi, mashqlar orqali grammatik qoidalar mustahkamlanadi.

Audiovizual metod -ovozi yozilgan matnlar va videoroliklardan foydalanish orqali o‘quvchilarning eshitish va tushunish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo‘lib chet tillarini o‘rganishda samarali hisoblanadi. Ushbu usul tinglovchi va ko‘ruvchi

vositalar (audio yozuvlar, videofilmlar, slaydlar) yordamida til o‘rganishni jadallashtirishga qaratilgan.

*Ko‘rish va eshitish orqali o‘rganish – bu usul talabalar til muhitiga yaqinlashishlari va real kontekstda so‘zlarni eslab qolishlari uchun muhim.

*Interaktiv ta’lim – dars jarayonida faollikni oshirish va kommunikativ yondashuvni joriy etish.

*Lingvistik va psixologik yondashuvlar uyg‘unligi–til o‘rganishda psixolingvistik jarayonlar inobatga olinishi lozim.

Lingvokulturologik yondashuv -o‘quvchilarni nafaqat til, balki madaniyat bilan ham tanishtirishga qaratilgan usul bo‘lib, bunda o‘zbek va xorijiy tillarni chuqurroq tushunish uchun tarixiy va madaniy omillarni o‘rganish muhim sanaladi. G‘ulomov U. “Til va madaniyat” asarida til va madaniyat o‘zaro bog‘liq ekanligi, til o‘rganishda milliy qadriyatlar va tarixiy omillar muhim ahamiyat kasb etishi haqida so‘z yuritiladi. U lingvokulturologiyani tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutash nuqtasi sifatida ko‘rib chiqadi.

Innovatsion metodlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va afzalliklari nihoyatda muhim bo‘lib, ular ta’lim jarayonini yengillashtirib, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish imkonini beradi. Quyidagi innovatsion usullar samarali hisoblanadi:

Raqamli texnologiyalar va onlayn ta’lim.Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va onlayn ta’lim chet tillarni o‘rganish jarayonini ancha samarali va qulay qilmoqda. Ularning ahamiyatini quyidagi jihatlar bo‘yicha tahlil qilish mumkin:

Onlayn ta’lim matn, audio, video, interaktiv mashqlar va testlarni birlashtirgan holda o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Internetga ulangan istalgan qurilmada til o‘rganish imkoniyati mavjud, bu esa makon va vaqt cheklovlarini yo‘q qiladi.O‘quvchilar o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqtda mustaqil ravishda o‘qishlari mumkin.

Gamifikatsiya, rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar til o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ular o‘quvchilarning m**otivatsiyasini oshiradi, tilni amaliy jihatdan o‘rganish imkonini beradi, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, real hayotiy vaziyatlarga moslashishiga yordam beradi.**

Kolaborativ ta’lim (Collaborative Learning) — o‘quvchilarning jamoa yoki kichik guruhlarda ishlashi orqali bilim olish jarayonini anglatadi. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadi, fikr almashadi va real hayotda tilni qo‘llashga tayyorlanadi. Bu usul **o‘zbek va xorijiy tillarni** o‘rganishda juda samarali bo‘lib, quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi, ya’ni **faol muloqot va o‘zaro ta’sir** qilish orqali o‘quvchilar tilni o‘rganishda real vaziyatlarda foydalanishga o‘rganishadi. **Motivatsiyaning ortishi** natijasida birgalikda ishlash o‘quvchilarni yanada faol bo‘lishga undaydi. **Mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkur** esa til o‘rganishda mantiqiy va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. **Bu ta’lim shaklida o‘quvchilar guruhda muhokama qilish (Discussion Groups) orqali** berilgan mavzu bo‘yicha kichik guruhlarga bo‘linadi va o‘z fikrlarini muhokama qilishadi.

Masalan, **«O‘zbek va ingliz madaniyati o‘rtasidagi farqlar»** mavzusida bahs uyushtirish orqali ham til, ham madaniyat o‘rganiladi.

Xulosa.

O‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitishda pedagog olimlarning ilg‘or metodlari hamda innovatsion yondashuvlarning uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilar tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shu sababli, an’anaviy va innovatsion metodlarni uyg‘unlashtirib ta’lim jarayoniga tatbiq etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Behbudiy, M. (1913). Maktab va madrasalar islohoti. Toshkent: Ma’rifat.
2. Hayitmetov,A.(1981).Til o‘qitishning audiovizual metodlari. Toshkent: O‘qituvchi.
3. G‘ulomov U., Tojiyev M. (2010). «Til o‘qitishda kommunikativ yondashuv»
4. .Qosimov, A. (2010). O‘zbek tilshunosligining nazariy asoslari. Toshkent: Fan.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2012). Chet tillarni o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
6. .O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (2020). Innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A NEW STAGE OF INNOVATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Kasimova Malika Abduvakilovna
DXX “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi
ingliz tili bosh o‘qituvchisi, malika.kasimova89@gmail.com

Abstract: We are witnessing a thrilling transformation in education, particularly in how we learn foreign languages. Artificial intelligence (AI) is no longer a futuristic concept but a concrete reality, altering traditional teaching methods and opening doors to incredibly personalized and captivating learning experiences. This article explores how AI is enhancing language acquisition, refining teaching techniques, and fostering a more dynamic and interactive learning environment. From AI-powered learning platforms to intelligent tutoring and automated assessment tools, we’ll explore how AI is transforming foreign language education, making it more effective and accessible than ever before.

Keywords: *artificial intelligence, foreign language education, innovation, technology assisted language learning, personalized learning, chatbots, natural language processing, machine translation, speech recognition, pedagogy.*

The digital age has significantly changed every part of our lives, especially education. We are experiencing a shift where knowledge and the ability to learn are

becoming more important than owning physical things. This change highlights the need for people to be equipped to succeed in a complex world. Being skilled with technology is now just as important as traditional reading and writing. Today, a well-educated person is not only knowledgeable but also capable of using technology to find, understand, and use information effectively.[1]

Central to this technological revolution is the rise of Artificial Intelligence (AI). The seeds of AI were sown back in 1956, at a gathering of brilliant minds at Stanford University, including personalities like John McCarthy, Marvin Minsky, Allen Newell, and Herbert Simon [2]. This group, driven by a shared vision of creating machines capable of intelligent thought and action, birthed the very concept of "artificial intelligence".

AI, in essence, attempts to create machines that can perform tasks typically associated with human intelligence. It aims to replicate the human capacity to learn, reason, adapt, and interact with the world in meaningful ways[3] . The term «intellect,» derived from the Latin «intellectus,» encapsulates these cognitive abilities, encompassing reasoning, understanding, and awareness[4]. AI systems, at their core, analyze past experiences and external stimuli to make informed decisions, optimal outcomes. While a universally accepted definition of AI remains elusive, constantly evolving with new advancements, a practical understanding sees AI as the endeavor to build systems that mimic human intelligence, enabling them to pursue goals, learn, adapt, and communicate effectively.

While the application of AI in foreign language teaching is relatively nascent, several Uzbek scholars are actively exploring its potential. For instance, Abdullayeva B.S. and colleagues' research demonstrated that students with higher technological literacy exhibited more positive emotional responses and greater engagement when using AI-powered language assessment systems [5]. Similarly, Ibragimova S.'s work on phoneme-based speech recognition for the Uzbek language [6], and Mukhamadiyev A. and colleagues' research on developing language models for continuous Uzbek speech recognition[7] underscore the potential of AI to advance language-specific technological tools.

The historical trajectory of AI reveals a progression through distinct phases, each marked by specific objectives and advancements. The initial phase (1956-1970)

---

[1] Zubov A. V., Zubova I. I. Osnovy lingvisticheskoy informatiki. Ch. 3. Iskusstvennyy intellekt. — Minsk, 1993. - 144 s.

[2] Dick, S. (2019). Artificial Intelligence. Harvard Data Science Review, 1(1). https://doi.org/10.1162/99608f92.92fe150c

[3] Bashmakov, A.I., & Bashmakov, I.A. (2005). *Intellektual'nyye informatsionnyye tekhnologii: Uchebnoye posobiye*. Izd-vo MGTU im. N.E. Baumana. - Moskva. - 304 s.

[4] Gavrilov, A.V. (2001). *Sistemy iskusstvennogo intellekta: Uchebnoye posobiye: v 2-kh ch*. Izd-vo NGTU. - Novosibirsk. - Ch. 1. - 67 s.

[5] Abdullaeva, B. S., Abdullaev, D., Rakhmatova, F. A., Djuraeva, L., Sulaymonova, N. A., Shamsiddinova, Z. F., & Khamraeva, O. (2024). Uncovering the impacts of technology literacies and acceptance on emotion regulation, resilience, willingness to communicate, and enjoyment in Intelligent Computer-Assisted Language Assessment (ICALA): An experimental study. *Language Testing in Asia, 14*(40). https://doi.org/10.1186/s40468-024-00316-x

[6] Ibragimova, S. (2023). Creation of An Intelligent System for Uzbek Language Teaching Using Phoneme-Based Speech Recognition. *Revue d'Intelligence Artificielle, 37*(6).

[7] Mukhamadiyev, A., Mukhiddinov, M., Khujayarov, I., Ochilov, M., & Cho, J. (2023). Development of language models for continuous Uzbek speech recognition system. *Sensors, 23*(3), 1145.

saw researchers focused on developing “problem solvers” capable of mimicking human reasoning in limited domains, such as solving puzzles or simple mathematical problems. Early forays into machine translation also emerged during this period, though they were rudimentary compared to today’s capabilities. The second phase (early 1970s to 1980s) shifted towards creating intelligent robots capable of navigating and interacting with the physical world, potentially laying the groundwork for future language-learning robots. The third phase (early 1980s onwards) witnessed a focus on developing more sophisticated systems capable of complex planning, knowledge representation, and natural language interaction.

The integration of AI into foreign language teaching is deeply rooted in the broader concept of Technology Assisted Language Learning (TALL). The advent of personal computers and the rise of the information society in the 1970s were pivotal in this regard, providing the technological infrastructure for innovative language learning tools. These tools, initially focused on providing interactive exercises and access to digital resources, gradually evolved to incorporate more sophisticated AI capabilities, leading to the personalized and adaptive learning experiences we see today.

The field of applied linguistics has played a crucial role in connecting these technological advancements for language education. By focusing on tasks such as creating AI systems, developing automatic translation and annotation tools, building text generation systems, and designing language teaching and speech recognition systems, applied linguists have paved the way for the integration of AI into language learning[8]. The automation of tasks like text editing, morphological and syntactic analysis, and dictionary lookups has further streamlined the process, making it more efficient and effective.

The rapid advancements in hardware, including faster processors, increased memory capacity, and the development of multimedia and networking technologies, have been instrumental in enabling the current wave of AI innovation in language education. This has led to the exploration of various pedagogical approaches, including TALL, Computer Assisted Language Learning (CALL), Computer Assisted Language Instruction (CALI), and Mobile Assisted Language Learning (MALL). These approaches, while distinct, share a common thread: leveraging technology to enhance language acquisition. They provide a rich foundation for understanding how AI tools like ChatGPT can be effectively integrated into the language learning process.

Computer-mediated language learning offers numerous benefits, including fostering interactive communication between learners and computers, providing access to vast linguistic resources, enabling independent practice through computerized courses and expert systems, personalizing the learning process, and facilitating assessment. Linguistic informatics, a subfield of applied linguistics, further contributes by studying how linguistic information can be processed

[8] Gerd A. S. O spetsifike zadach v prikladnoy lingvistike // Strukturnaya i prikladnaya lingvistika: Mezhvuz. sb. — Sankt-Peterburg, 1998. — Vyp. 5. — S. 123—132.6

computationally, delving into areas like text translation, annotation, and language teaching methodologies[9].

The social media revolution has created unprecedented opportunities for language learners to engage in authentic communication across various modalities. Consequently, language teachers today need not only to be computer literate but also to be proficient in using ICT resources effectively in their teaching. AI tools, in particular, offer exciting possibilities for enriching the learning experience, fostering international collaboration, creating virtual language environments, and providing access to a wealth of authentic materials.

The integration of ICT and AI can be implemented to achieve several key objectives in language education: enhancing teaching and learning by catering to diverse learning styles and fostering communication among learners, improving administrative tasks through streamlined document management and information sharing, and refining assessment and reporting through electronic tracking of student progress and facilitating communication with parents and peers.

With in the broader framework of computer-assisted language learning, behavioristic and cognitive-intellectual theories offer different perspectives on how learners interact with technology. The behavioristic approach, rooted in the idea that repetition leads to retention, has evolved to incorporate more sophisticated techniques like deductive reasoning and the use of hypertexts[10]. However, its focus on mechanical learning and its limitations in fostering cognitive development have been critiqued. In contrast, the cognitive-intellectual approach emphasizes activating learners' cognitive functions, leveraging technology to create rich learning environments that encourage exploration and deeper understanding.

Research has consistently shown that TALL has a positive impact on learners' motivation and engagement. Studies by Alraimi[11], Huang[12], and L. Lee[13] have demonstrated that TALL can boost learners' motivation, willingness to communicate, and sense of autonomy. Similarly, AI tools like ChatGPT have been shown to be effective in helping learners develop core language skills and improve their vocabulary, pronunciation, and grammar.

The site of AI-powered tools in education is diverse, encompassing learner-centered, teacher-centered, and system-centered approaches. Learner-centered tools, such as adaptive learning platforms and intelligent tutoring systems, focus on individual needs, while teacher-centered tools aim to streamline tasks like lesson

[9] Zubov A. V., Zubova I. I. Osnovy lingvisticheskoy informatiki. Ch. 3. Iskusstvennyy intellekt. — Minsk, 1993. - 144 s.

[10] Nikitina, S. Ye. (1978). *Tezaurus po teoreticheskoy i prikladnoy lingvistike*. — Moskva. - 376 s.

[11] Alraimi K. M., Zo H., Ciganek A. P. Understanding the MOOCs continuance: The role of openness and reputation // Computers & Education. — 2015. — Vol. 80. — P. 28–38.

[12] Huang H. K., Chou C. Y. Effects of a blended learning approach on student outcomes in a graduate-level online course // Journal of Computer Assisted Learning. — 2015. — № 31 (2). — P. 191–201.

[13] Lee L., Lai C. Technology and motivation in foreign language learning: Does technology deepen student learning motivation? // Australian Journal of Educational Technology. — 2017. — № 33(4). — P 1–14.

planning and assessment. System-centered tools, on the other hand, focus on optimizing the overall efficiency of educational institutions.

The use of AI technologies like speech recognition, machine translation, natural language processing, chatbots, and facial recognition is gaining traction in foreign language education. Speech recognition provides instant feedback on pronunciation, enhancing oral proficiency. Machine translation aids in comprehending foreign language texts, while NLP enables personalized learning experiences by analyzing learners' strengths and weaknesses. Chatbots offer interactive language practice, providing immediate feedback and support. Facial recognition can even be used to analyze learners' oral movements, aiding in pronunciation training. AI-powered platforms like Duolingo, Rosetta Stone, Babbel, Lingodeer, and Pronunciator are developing language learning by offering personalized, interactive, and engaging experiences.

In conclusion, the integration of AI into foreign language education represents a transformative shift, mirroring the broader impact of the digital age on learning. To fully use this potential, educators should prioritize professional development in AI literacy, actively explore and integrate AI-powered tools into curriculum design, and foster a learning environment that encourages both technological proficiency and critical thinking. Furthermore, developers should focus on creating culturally sensitive AI tools that cater to the specific linguistic nuances of languages like Uzbek, ensuring inclusivity and maximizing the benefits for diverse learner populations.

REFERENCES:

1. Abdullaeva, B. S., Abdullaev, D., Rakhmatova, F. A., Djuraeva, L., Sulaymonova, N. A., Shamsiddinova, Z. F., & Khamraeva, O. (2024). Uncovering the impacts of technology literacies and acceptance on emotion regulation, resilience, willingness to communicate, and enjoyment in Intelligent Computer-Assisted Language Assessment (ICALA): An experimental study. *Language Testing in Asia, 14*(40).
2. Alraimi K. M., Zo H., Ciganek A. P. Understanding the MOOCs continuance: The role of openness and reputation // Computers & Education. — 2015. — Vol. 80. — P. 28–38.
3. Bashmakov, A.I., & Bashmakov, I.A. (2005). *Intellektual'nyye informatsionnyye tekhnologii: Uchebnoye posobiye*. Izd-vo MGTU im. N.E. Baumana. - Moskva. - 304 s.
4. Dick, S. (2019). Artificial Intelligence. Harvard Data Science Review, 1(1). https://doi.org/10.1162/99608f92.92fe150c
5. Gavrilov, A.V. (2001). *Sistemy iskusstvennogo intellekta: Uchebnoye posobiye: v 2-kh ch*. Izd-vo NGTU. - Novosibirsk. - Ch. 1. - 67 s.
6. Gerd A. S. O spetsifike zadach v prikladnoy lingvistike // Strukturnaya i prikladnaya lingvistika: Mezhvuz. sb. — Sankt-Peterburg, 1998. — Vyp. 5. — S. 123—132.6

7. Huang H. K., Chou C. Y. Effects of a blended learning approach on student outcomes in a graduate-level online course // Journal of Computer Assisted Learning. — 2015. — № 31 (2). — P. 191–201.

MADANIYATLARNING O‘ZARO TA’SIRI VA O‘ZBEK TILI EVOLYUTSIYASI

Turdibekova Risolat Shermatovna,
Toshkent arxitektura-qurilish universitetining “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o`qituvchisi, risolatshermatovna@gmail.com
Yuldasheva Gulnoza Shukurovna
Toshkent arxitektura-qurilish universitetining “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi assistenti gg4767630@gmail.com

Annotatsiya: Maqola madaniyatlararo muloqotni o‘rganish va globallashuv sharoitida o‘zbek tilini rivojlantirishga bag‘ishlangan. Unda tarixiy kontekst, etnik xilma-xillik va zamonaviy lingvistik islohotlarning O‘zbekistonning til manzarasiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo aloqa, o‘zbek tili, globallashuv, lingvistik islohotlar, etnik xilma-xillik, til siyosati, madaniy meros.

Аннотация: Статья посвящена изучению межкультурной коммуникации и развитию узбекского языка в условиях глобализации. В ней анализируется влияние исторического контекста, этнического разнообразия и современных лингвистических реформ на языковой ландшафт Узбекистана.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, узбекский язык, глобализация, лингвистические реформы, этническое разнообразие, языковая политика, культурное наследие.

Annotation: The article is devoted to the study of intercultural communication and the development of the Uzbek language in the context of globalization. It analyzes the impact of historical context, ethnic diversity and modern linguistic reforms on the linguistic landscape of Uzbekistan.

Keywords: intercultural communication, Uzbek language, globalization, linguistic reforms, ethnic diversity, language policy, cultural heritage.

O‘zbekistonda tillararo madaniyatlararo aloqa ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, unga mamlakatning boy tarixiy konteksti, turli etnik tarkibi va rivojlanayotgan til landshafti ta’sir qiladi. Turkiy ildizlarga ega bo‘lgan o‘zbek tili fors, rus va boshqa madaniyatlar bilan o‘zaro aloqada sezilarli darajada rivojlanib, uni milliy o‘ziga xoslik va madaniy merosning muhim jihatiga aylantirdi.

O‘ZBEKISTONDA MADANIYATLARARO ALOQA

O‘zbekistondagi madaniyatlararo aloqa mamlakatning boy etnik va madaniy xilma-xilligi bilan belgilanadi, unga uning tarixiy konteksti va globallashuvning zamonaviy jarayonlari ta’sir qiladi. Mamlakat ichida ko‘plab etnik va diniy guruhlar

mavjud bo‘lganligi sababli, samarali muloqot millatlararo munosabatlar va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash uchun juda muhimdir.

Tarixiy kontekst. O‘zbekistonning tarixiy tajribasi madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.[14] Mamlakat, ayniqsa, postsovet davrida katta o‘zgarishlarga duch keldi, bu uning ko‘p madaniyatli o‘ziga xosligini qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Millatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi siyosat turli jamoalarning ehtiyojlari va huquqlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi, muloqot va o‘zaro hurmatga hissa qo‘shadigan sharoitlarni yaratadi.

Ta’lim va madaniy xabardorlik. Ta’lim O‘zbekistonda madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Talabalar o‘rtasida madaniy xabardorlik va hurmatni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlariga madaniyatlararo aloqa ko‘nikmalarini qo‘shishga qaratilgan sa’y-harakatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Aloqa muammolari. Yutuqlariga qaramay, O‘zbekistonda madaniyatlararo aloqa qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Odob-axloq qoidalari, imo-ishoralar va og‘zaki bo‘lmagan signallardagi farqlar tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin, bu madaniy xususiyatlarni hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi.

Yaxshilash strategiyalari. Madaniyatlararo aloqani kuchaytirish uchun tashabbuslar madaniy farqlarni to‘siq sifatida emas, balki hisobga olishlari kerak. Muhim madaniy sanalar va an’analarni tan olish xilma-xillikni qadrlaydigan inklyuziv muhitni yaratishi mumkin. Bundan tashqari, jamoalarda, ayniqsa global biznes sharoitida kontekstli xilma-xillikdan foydalanish ijodkorlik va qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishi va shu bilan yanada samarali natijalarni berishi isbotlangan.

ZAMONAVIY ISHLANMALAR

Lingvistik islohotlar va alifboni o‘zgartirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘zbek tilini modernizatsiya qilishga qaratilgan katta islohotlar amalga oshirildi. Prezidentning 2017 yil 13 sentabrda chiqarilgan «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish sohasini rivojlantirish va o‘qish madaniyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi farmoni o‘qish madaniyatini davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. Ushbu tashabbus O‘zbekistonning madaniy merosini asrab-avaylash, shu bilan birga zamonaviy ta’lim va savodxonlikka qulay shart-sharoitlar yaratishga bo‘lgan sadoqatini aks ettiradi.

Madaniy integratsiya va xalqarolashtirish. O‘zbek tilining global kontekstga integratsiyalashuvi madaniyatlararo muloqotga e’tiborni qayta tiklashga olib keldi. O‘zbekiston iqtisodiy va madaniy jihatdan yanada ochiq bo‘lib borar ekan, samarali aloqa strategiyalariga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqarolashtirish ichki bozorlardan tashqariga chiqmoqchi bo‘lgan o‘zbek tashkilotlari uchun juda muhim bo‘lib, xalqaro faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun ichki va tashqi aloqalarning muhimligini ta’kidlaydi.

Badiiy va madaniy meros. O‘zbekistonning ma’naviy va badiiy merosini asrab-avaylashga bo‘lgan sadoqati xattotlik, me’morchilik va bezak dizayni kabi

[14] Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти Ғайбулла Бобоёровнинг “Ўзбек тили тарихи” https://yuz.uz/news/ozbek-tili-tarixi-nomli-kitob-nashr-etildi//. С 120.

Islomiy san’at turlarini o‘rganish va ommalashtirishga qaratilgan doimiy sa’y-harakatlarda namoyon bo‘lmoqda. [15]Ushbu tadbirlar nafaqat O‘zbekistonning boy madaniy tarixini ulug‘labgina qolmay, balki Islom sivilizatsiyasining jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasi haqida jamoatchilikni xabardor qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

TA’LIM TASHABBUSLARI

Til siyosati va rivojlanishi. O‘zbekiston ta’lim tashabbuslari bilan birgalikda o‘zbek tilini rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishga kirishdi. 2020-2030 yillar uchun til va til siyosatini takomillashtirish dasturi2020–2030 годы. Ushbu dastur doirasida ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘qitishni takomillashtirish va barcha etnik guruhlar tomonidan o‘zbek tilini o‘rganish uchun teng imkoniyatlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Madaniyatlararo aloqani o‘rgatish. Madaniyatlararo aloqaning muhimligini anglagan holda, turli xil muassasalar ushbu mavzuni o‘quv dasturlariga kiritdilar. Xodimlarning madaniy xilma-xillik to‘g‘risida xabardorligini oshirishga qaratilgan va turli madaniy an’analarni ko‘proq tushunish va qadrlashga yordam beradigan tashabbuslar amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G`aybulla Boboyorov. “O`zbek tili tarixi”,“Fan”, 2022.
2. Abduhamid Nurmonov. O`zbek tilshunosligi tarixi, Toshkent –» O`zbekiston» , 2002. ISBN 5-640-03043-7

O‘ZBEK TILI UYADOSH BIRLIKLARNING LINGVISTIK TASNIFI

Musurmonqulov Adham Abdurashid o‘g‘li,
Termiz davlat pedagogika instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi
adhammusurmonqulov76@gmail.com

So‘zlarni uyadoshlik qatoriga ko‘ra tasnif qilish va bu usulni nomlashda o‘zbek tilshunosligida ham izchillik bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. F.Abdullayev o‘zbek tilidagi arabcha o‘zlashma qatlam so‘zlarni tematik tasnif qilar ekan, shunday deb yozgan: “Tilimizdagi turli tarixiy davrlarda kirib qolgan arab so‘zlarini quyidagi asosiy *leksik gruppalarga* bo‘lishimiz mumkin”.[16] Prof. Usmonov S. o‘zining ba’zi ishlarida o‘zbek tili lug‘at sostavidagi so‘zlarni yettita yirik qatlamga ajratib, ularning ayrimlarini tematik gruppalarga ajratsa,[17] boshqa bir ishida tematik gruppa

[15] Abduhamid Nurmonov. O`zbek tilshunosligi tarixi, Toshkent –«O`zbekiston», 2002. ISBN 5-640-03043-7

[16] Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир. Тил ва адабиёти институти асарлари. Тошкент, 1949, -б.

[17] Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. Тошкент, 1978, 31-32-бетлар.

o‘rnida *so‘zlarning ma’no gruppalari*[18] terminini qo‘llaydi. Ba’zi ishlarda semantik guruh, leksik gruppa,[19] tematik gruppa[20] terminlari uchraydi. A. Hojiyev “Ruscha-internatsional so‘zlar va terminlar xilma-xil bo‘lib, ular tematik jihatdan bir necha gruppani tashkil qiladi”,[21] – deydi. Yuqoridagi fikrlar o‘zbek tilshunosligida ham uyadoshlik masalasida tilshunos olimlar turlicha nomlar orqali yondashganligini isbotlab turibdi. “Ma’lum bir arxisema (umumiy sema) asosida birlashuvchi so‘z va iboralar majmuiga semantik yoki tushuncha maydoni deyiladi.”[22] Semantik maydon, guruh, tematik guruh (gruppa) tarzida atalayotgan shakllar uyadoshlik hodisasi sifatida umumlashadi. Masalan, og‘irlik semasi asosida birlasha oladigan leksemalar: milligramm, gramm, kilogramm, sentner, tonna birliklari o‘zaro og‘irlik arxisemasi ostida bir yerga jamlanib, o‘ziga xos semantik maydonni hosil qiladi. Ushbu paradigmatik qatordagi birliklar semantik maydon asosida birlashishi bilan birga o‘zaro pog‘onali (ierarxik) munosabatni ham yuzaga keltiradi. Og‘irlik semasini ifodalashi jihatdan uyadoshlikni tashkil etsa, miqdorni ifodalovchi semalarning kamdan ko‘piga qarab o‘sib borishi pog‘onali bosqichni hosil qiladi. Bu hodisa bilan bir qatorda graduonimiya (darajalanish) tizimi ham yondosh hodisa sanaladi. So‘zlararo ma’noviy munosabatlar doirasida birliklarning ma’lum jihat asosida bir uyaga birlashuvi avvaldan tilshunos olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

V.Kalinin rus tilidagi ekzotik leksikani tematik guruhlarga ajratar ekan, “Tematik guruhlar” tushunchasini quyidagicha izohlaydi: “Leksikadagi tematik guruhlar – so‘zlarning umumiy jins belgilariga ko‘ra bir tema atrofiga birlashishidir. Shunga ko‘ra stol, stul, shkaf, etajerka so‘zlari mebellar nomi sifatida bir tematik guruhga birlashadi; ko‘cha, tor ko‘cha (pereulok), maydon, prospekt so‘zlari shahar qismlarining nomi sifatida bir tematik guruhga kiradi.”[23] Bu kabi misollar til leksik qatlamida uyadosh guruhlarga ajraluvchi birliklar mavjud ekanligi shubhasizdir. Shunga binoan yuqoridagi qarashlar tildagi barcha leksik birliklarni mazmuniy uyalarga yig‘ish hamda ular asosida lug‘at shaklini ishlab chiqish muhim ekanligini ifodalaydi.

“Tilshunoslikda semantik yoki tushuncha maydoni haqidagi fikrlar Vilgelm fon Gumboldtning “tilning ichki formasi” haqidagi qarashlari negizida XX asrning boshlarida paydo bo‘ldi.”[24] A.A.Ufimseva birliklarning uyadosh guruhlarini til lug‘at doirasidagi terminologik, etimologik gruppa, leksik-grammatik qatorlar, so‘z yasalish munosabatlariga oid sinflar qatorida keltirgan. “Uning fikricha, tematik guruhlar so‘zlarning funksiyasi, nominatsion xususiyatlariga tayanadi.”[25] Shu o‘rinda bu fikrning o‘rinli ekanligini aytish kerak. Har bir uyadoshlik qatori unga a’zo bo‘lgan birliklarning semantikasi, tushunchaviy munosabatlariga tayangan

[18] Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составидаги тожикча-форсча ва арабча сўзлар – Навоийга армуғон. Тошкент, 1968, 116,124-бетлар.
[19] Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари, 30,40-бетлар.
[20] Вафоев Б. Навоий асарлари лексикаси, 146-бет.
[21] Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Тошкент, 1980, 122-бет.
[22] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Б. 87.
[23] Калинин А. В. Лексика русского языка. М., 1971, с. 122-бет.
[24] Уфимцева А. А. Опыт изучения лексика как системы. - С. 20.
[25] Уфимцева А. А. Опыт изучения лексики как системы. М., 1962, с. 133.

holda jamlanadi. “Ba’zi avtorlar fikricha, tematik guruhlarga bir tipdagi so‘zlar bilan birgalikda turli tip so‘zlar ham kira olishi mumkin. Bu hol so‘zlar orasidagi turli ma’no munosabatlari (assotsiatsiyalar) orqali yuzaga keladi.”[26] Yuqoridagi tahlillardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1) “so‘zlarni tematik guruhlarga ajratish til leksikasini sistema sifatida tavsiflash va o‘rganishning usullaridan biridir;

2) so‘zlarni u yoki bu tematik guruhlarga mansub deb bilish: a) so‘zlar orasidagi ma’no munosabatiga; b) so‘zlarning ashyoviylik (predmetlilik) xususiyatiga, ya’ni so‘zning qanday predmet haqidagi tushunchani ifodalashiga; c) so‘zlarning nominatsion belgilariga bog‘liqdir;

3) so‘zlarni tematik guruhlarga bo‘lishda asosiy o‘lchov predmetlilik va nominatsion tomon hisoblanadi;

4) so‘zlarning tematik guruhlariga ma’no jihatdan bir yo‘nalishdagi so‘zlar (masalan, bir so‘z turkumiga oid so‘zlar) yoki aralash tipli so‘zlar kirishi mumkin;

Guruhlarda ishlash – harbiy ta’lim oluvchilarning faoliyatini tashkil qilishning shunday shakliki, u harbiy o‘quv guruhlarini, ma’lum bir vazifani hamkorlikda bajarish uchun, vaqtinchalik mikro guruhlarga ajratishni talab qiladi. Harbiy ta’lim oluvchilarga quyilgan vazifa mazmunini,uni yechish yo‘llarini va usullarini belgilashni muhokama qilish taklif qilinadi. Bunda ilgari surilayotgan takliflarni hamkorlikda baholash orqali ularni amalga oshirish, bajarilgan ishlarni birgalikda tahlil qilish, hamkorlikda topilgan natijani oldin shakllantirib, so‘ngra taqdim etish so‘raladi .Guruhlarga bulinib ishlash, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, dolzarb pedagogik innovatsion texnologiyalarni kullash orkali, psixologik va ijtimoiy maqsadlarga erishishni ta’minlaydi.

Eng avvalo, ta’limning guruhli shakli «ta’lim beruvchi - ta’lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta’lim beruvchi - guruh-ta’lim oluvchi» ko‘rinishidagi uch tomonlama o‘zaro munosabatga o‘tishni nazarda tutadi. Harbiy o‘quv guruhi tarkibi bo‘yicha harakatchan kichik harbiy guruhlarga bo‘linadi va ularning har biri o‘zicha o‘quv materialini o‘zlashtiradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta’lim oluvchilar o‘rtasida ancha mustaxkam kontakt o‘rnatiladi. Shaxsiy va bir vaqtning o‘zida ta’limda harbiy jamoaviy ruxiy xolat kuchayadi. Harbiylarning hamkorlikdagi harakatini tashkillashtiradi, bu esa o‘quv-bilish jarayonini

faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko‘maklashadi:

- vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, harbiylarda, o‘rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama kilishga motivatsiya paydo bo‘ladi;

ta’lim oluvchi harbiylar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarini aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak; guruhlarda ishlash paytida, zaruriyati bo‘lganda, ta’lim oluvchi harbiylar yordam berishlarini so‘raydilar va boshqalarga yordam berishni o‘rganadilar. Har bir ta’lim oluvchi harbiyning potensial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta’minlanadi:

- qobiliyatli va iqtidorli harbiylar, ularni «maqtanganlik» larida ayblashlaridan cho‘chimasdan o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatishlari mumkin. Ular, guruhda nafaqat ta’lim beruvchi rolida bo‘lishlari, balki ta’lim oluvchi rolida xam bo‘lishlari mumkin va ta’lim beruvchi rolidagi o‘z o‘rtoqlari tomonidan baholanishi, raqib bo‘lmasdan ulardan o‘rganishi mumkin;

- o‘rtacha qobiliyatga ega yoki harakteri bo‘yicha passiv harbiylar o‘z bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatini oladilar. Kichik guruhlarda ishlash, ularni stress xolatlardan xalos etadi, ya’ni noto‘g‘ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo‘lishdan , qo‘rqishdan xoli bo‘ladi. Guruh a’zolari, javobni do‘stona baholab, ularda o‘ziga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish imkonini beradilar. 4-5 kishidan iborat guruhda, passiv harbiy 25 kishilik guruh oldida o‘zini tutishga nisbatan, o‘zini ancha erkin his etadi.

- Ta’limning ushbu shakli, ta’lim oluvchilar bilimini o‘zaro hamkorlikda boyishini ta’minlaydi: faqatgina kooperatsiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o‘zaro almashish, umumiy mahsulot olish, muammoni yechish imkonini beradi. Shuning uchun, guruhda ta’lim berishda, biz, jamoaviy muhokama qilishdan, o‘zaro konsultatsiyalar berishda maksimal foydalanamiz. Guruhlarda ishlash, atrofdagilarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartiradi, «men va ular» dan «biz» ga o‘tishni ta’minlaydi va o‘zini guruhning bir bo‘lagi sifatida his qilish imkonini beradi. Bu esa harbiylarning bir maqsad yo‘lida birlashishini shakllantiradi .

- Ta’lim oluvchi yosh harbiylarning yetakchilik faoliyati-samimiy shaxsiy muloqot esa 6-8 kishilik harbiy guruhlar orqali amalga oshiriladi. Yosh harbiylarning yetakchi motivi tengdoshlari muhitida o‘zligini ifoda etish hisoblanadi. Buni faqat guruhda qilish mumkin.Tashqi nazorat ostida his etishni dolzarblashtiruvchi frontal usullardan «ichki erkinlik» ni his kilishni chaqiruvchi guruhli usullarga o‘tish harbiylarda ichki motivatsiyani paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi.Taniqli psixologlar va pedagoglarning kooperativ hamkorlik to‘g‘risidagi fikrlari quyidagichadir:

- Harbiylar ta’lim jarayonida bir-biri bilan hamkorlik qilishini uchta asosiy usuli mavjud.Ular kim «ilg‘orligini» bilish uchun musobaqa o‘ynashi mumkin. Ular maksadga erishish uchun boshqa harbiy o‘quvchilarga e’tibor bermagan xolda individual ishlashlari mumkin. Yana ular bir-birini o‘qitishga qonuniy ravishda qiziqish bilan hamkorlikda ishlashlari mumkin.Lekin hamkorlik birinchi darajaga chiqqan payda kooperativ motivatsiya raqobatchisiga nisbatan ta’lim jarayonida ancha samaralidir.

- Harbiy guruhlarda darslarni tashkil qilish uchun misol sifatida 1-kurs matematika darsidagi «*Mulohaza. Mulohazaning rostlik qiymati. Mulohazalar ustida mantiq amallari* « mavzusidagi 1-juftlik dars ishlamasini ko‘rib chiqamiz:

Mavzu: *Mulohaza. Mulohazaning rostlik qiymati. Mulohazalar ustida mantiq amallari.*

Darsning maqsadi: Tinglovchilarga mulohaza. mulohazaning rostlik qiymati haqida tushuncha berish.

Dars turi: Yangi bilim berish.

Dars o‘tish uslubi: Kichik guruhlar bilan ishlash.

Darsning borishi:

Darsning tashkiliy qismida harbiy o‘quvchilar o‘tirgan partalarga qarab guruhlarga bo‘linadi. Qatorlarga nom tanlanadi.

Masalan:

1-qator *« Qoplon guruhi «*

2-qator *« Lochin guruhi «*

3-qator *« Burgutlar guruhi»*

Qatorlar davomati, tozaligi, darsliklar, o‘quv qurollarining mavjudligiga qarab rag‘batlantiriladi va qo‘shimcha ball beriladi.

O‘tilgan mavzular bo‘yicha interfaol metodlardan foydalanib so‘rash mumkin. Bunda qatorlar uchun tayyorlangan kartochkalarni qator sardorlari tortadi va ovoz chiqarib o‘qiydi.

1-qator: To‘plamlar birlashmasi

2-qator: To‘plamlar kesishmasi

3-qator: Universal to‘plam

Ta’rifini keltirish,misollar bilan jadval asosida tushuntirish.

Yangi mavzu bayoni:

1-Ta’rif: A mulohaza rost bo‘lganda yolg‘on bo‘ladigan mulohazaga A mulohazaning inkori deyiladi va uni A yoki ⅂A kabi belgilanadi. Quyidagi rostlik jadvali bilan beriladi:

(A-rost, ⅂A -yolg‘on) ⅂A - “A” emas deb o‘qiladi.

Ta’rif: A va B Mulohazalar rost bo‘lganda rost bo‘ladigan kolgan xollarda yolg‘on bo‘ladigan Mulohazaga A va B Mulohazalarning konyunksiyasi deyiladi va

A	B	A∧B	A	B	A∧B
Yo	Yo	Yo	0	0	0
Yo	R	Yo	0	1	0
R	Yo	Yo	1	0	0
R	R	R	1	1	1

uni A∧B kabi belgilanadi.

Quyidagi rostlik jadvali bilan beriladi.

∧-ni “va” deb o‘qiladi, logik ko‘paytma deb xam yuritiladi.

Ta’rif: A va B mulohazalar yolg‘on bo‘lganda yolg‘on bo‘ladigan, qolgan

A	B	AvB	A	B	AvB
Yo	Yo	Yo	0	0	0
Yo	R	R	0	1	1
R	Yo	R	1	0	1
R	R	R	1	1	1

hollarda rost bo‘ladigan mulohazalarga
A va B mulohazalarning diz’yunksiyasi deyiladi va uni AvB kabi belgilanadi.
Quyidagi rostlik jadvali bilan beriladi.
v-ni “yoki” deb o‘qiladi, logik qo‘shish deb ham ataladi.
Ta’rif: A mulohaza rost bo‘lib, B mulohaza yolg‘on bo‘lganda yolg‘on bo‘ladigan, qolgan hollarda rost bo‘ladigan mulohazaga A va B mulohazalarning implikatsiyasi deyiladi va uni A→B kabi belgilanadi.
Quyidagi rostlik jadvali bilan beriladi.

A	B	A→B		A	B	A→B
Yo	Yo	R		0	0	1
Yo	R	R		0	1	1
R	Yo	Yo		1	0	0
R	R	R		1	1	1

ni “.holda.deb o‘qiladi.

Ta’rif: A va B mulohazalar bir xil ma’noli bo‘lganda rost bo‘ladigan, qolgan hollarda yolg‘on bo‘ladigan mulohazaga A va B mulohazalarning ekvivalensiyasi deyiladi va uni A↔B kabi belgilanadi.
Rostlik jadvali quyidagicha:

A	B	A↔B		A	B	A↔B
Yo	Yo	R		0	0	1
Yo	R	Yo		0	1	0
R	Yo	Yo		1	0	0
R	R	R		1	1	1

↔-ni “.faqat va faqat” deb o‘qiladi.
Yuqoridagi binar logik amallarning barchasini quyidagi rostlik jadvali bilan ifodalash mumkin:

A	B	A∧B	$\overline{A \wedge B}$		A	B	⌉A	⌉B	⌉A ∧ ⌉B
0	0	0	1		0	0	1	1	1
0	1	0	1		0	1	1	0	1
1	0	0	1		1	0	0	1	1
1	1	1	0		1	1	0	0	0

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun qisqa savol- javob o‘tkaziladi va o‘qituvchi tamonidan baholanadi.

Dars davomida o‘quvchilarga mustaqil torshiriqlar beriladi.Innovatsion usuldan foydalanamiz. Darslikdagi 123-125 masalalar uchala guruhga bittadan bo‘lib beriladi. Har bir o‘quvchi masalani darslikdan mustaqil o‘qiydi va yechadi.O‘qituvchi qatordagi o‘quvchilarni nazorat kilib turadi.

To‘g‘ri yechgan har bir qator o‘quvchisi o‘z guruhi a’zolariga tushuntiradi. Ma’lum vaktdan keyin o‘qituvchi vaqtni e’lon qilib har qaysi qator o‘quvchilarini bajargan ishiga qarab qatorlarni rag‘batlantiradi.Ya’ni nechta o‘quvchi bajargan bo‘lsa qatorga shu raqam qo‘yiladi. Mustaqil ishni ilgari bajarib bo‘lgan o‘quvchilar xam qo‘shimcha ball ishlab berishadi.

Doskada har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib o‘z masalasini yechib ko‘rsatadi. Yechish albatta ketma-ket ya’ni avval 123 keyin 124 so‘ngra 125 masala hal qilinadi. O‘qituvchi tamonidan harbiy guruhlar to‘plagan ballar e’lon qilinadi. Eng katta ball to‘plagan qator birinchi o‘rin, qolgan ballarga qarab ikkinchi va uchinchi o‘rinlar belgilanadi. Qatorlardagi o‘quvchilarga yakuniy ballar asosida jurnalga baholar qo‘yiladi.

O‘qituvchi darsni yakunlashdan oldin uyga vazifa 127-130 misollarni yechib kelishni yozdiradi va darsni yakunlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. 2017-2021 Xarakatlar strategiyasi. T.: Adolat 2017
2. 11-sinf algebra I-qism B.Q.Xaydarov Toshkent -2018
3. 11-sinf algebra darsligi II-qism B.Q.Xaydarov Toshkent -2018
4. Oliy matematika . Tursun Azlarov. Adabiyotlar[tahrir]. O‘zME. Birinchi jild.Toshkent, 2000-yil .
5. Golish L.V. “ Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish”. // Ekspress qo‘llanma. – Toshkent: TASIS, 2001.-59 b**.**
6. Oliy matematikadan masalalar to‘plami N . Ribkin O‘qituvchi nashriyoti 1974 yil

AVTOTRANSPORT VOSITALARI HAYDOVCHILARINI TAYYORLASHDA O‘QITUVCHI VA HAYDOVCHI-YO‘RIQCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI

Jalilov Abdunabijon Azamatovich
DXX “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi
AVHT fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda malakali haydovchilarni tayyorlashga hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan chora tadbirlar, haydovchilarga qo‘yiladigan talablar, statistik hisoblash orqali aniqlanganligi, piyodaning xavfsizligi, haydovchilar malakasini oshirish yo‘llari va sharoitlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil, haydovchi, avtomaktab, o‘qituvchi, piyoda xavfsizligi bo‘yicha yangicha yondashuv, malaka oshirish.

Аннотация: В данной стате освещены меры, разработанные нашим правителством по подготовке квалифицированных водителей в нашей стране, требования к водителям, определяемые статистическим расчетом, безопасност пешеходов, пути и условия повышения квалификации водителей.

Ключевые слова: автомобили, водител, автошкола, преподавател, новый подход к безопасности пешеходов, обучение.

Annotation: This article highlights the measures developed by our government to train qualified drivers in our country, the requirements for drivers determined by statistical calculations, the safety of pedestrians, ways and conditions for improving the qualifications of drivers.

Key words: cars, driver, driving school, teacher, new approach to pedestrian safety, training.

O’zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti, sanoati va ijtimoiy hayotida avtomobil transportining o’rni beqiyos bo’lib, unga bo’lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Avtomobil sanoati O’zbekiston iqtisodiyotida eng oldingi o’rinlardan birini egallab turibdi. Har yili 270 mingga yaqin avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. O’zbekistonning avtomobil sanoati jahonda avtomobil ishlab chiqaruvchilar ichida 28-o’rinda, MDH davlatlari o’rtasida Rossiya Federatsiyasidan keyin 2-o’rinda va O’rta Osiyo davlatlari ichida esa birinchi o’rinni egallab turibdi.

Avtomobil ishlab chiqarishining o’sishi harakatlanish xavfsizligini ta’minlash uchun malakali haydovchilarni tayyorlashni taqazo etadi. Haydovchi o’ziga tegishli transport vositasini boshqarish jarayonida yo’llarda boshqa transport vositalarining uzluksiz harakatlanishini ta’minlashi, yo’l harakati ishtirokchilari bilan o’zaro aloqada bo’lishi, yo’l harakati qoidalariga bo’ysunishi kerak.

Yo’l harakat qoidalari barcha shaxslar va fuqarolar uchun tegishli bo’lgan majburiy talablarni o’z ichiga olib, kishilarning xavfsizligi va sog‘ligini ta’minlashga qaratilgan. Bu borada, ayniqsa, harakat xavfsizligini ta’minlashga javobgar bo’lgan

ichki ishlar organlari, xususan, yo’l-patrul xizmati xodimlaridan o’ta bilimdon va mas’uliyatli bo’lish talab etiladi. Ko’p hollarda haydovchi va piyodalarning yo’l harakati qoidalarini bilmasliklari yoki yaxshi o’zlashtira olmaganliklari oqibatida yo’l-transport hodisalari sodir bo’lmoqda. Baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo’llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o’lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PQ – 190-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-iyuldagi “Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o’tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi 393-son qarorlari qabul qilindi. Bu qarorlarning qabul qilingani har bir haydovchilarni tayyorlash muassasalari o’qituvchilari va haydovchi-yo’riqchilaridan o’z vazifalariga juda katta mas’uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish va ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Konsepsiyada “mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, tinglovchida mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” vazifasi belgilangan.

Shuningdek, unda ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarga ega bo‘lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta’kidlangan.

Aslida, o‘quvchining mustaqil ishi degan tushuncha uning auditoriya va undan tashqarida, o‘qituvchi rahbarligi ostida yoki o‘qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi. Mustaqil ishining asosiy maqsadi o‘quvchida o‘quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning tashkil topishi va rivojlanishi. Mustaqil ta’lim o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat. Mustaqil ta’lim olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma’lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli. Mustaqil ish o‘qituvchining topshirig‘i va uning rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi. Mustaqil ish bu

qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda o‘quvchilarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. O‘quvchining mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Mustaqil ish qanday sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada — ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo‘yicha vazifalar berish jarayonida.

2. O‘qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog‘ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, qarzdorlikni yo‘qotishda yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.

3. Kutubxonada, uyda, o‘quvchilar uylarida, kafedralarda o‘quvchi tomonidan o‘quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida. Bu ish turlari orasidagi chegaralar juda qat’iy bo‘lmasdan, bir-biriga osonlikcha o‘tib turishi mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning mustaqil ishlari auditoriyada ham, undan tashqarida ham bo‘lishi mumkin.

Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlar asosiy o‘rin tutadi. Mustaqil ish bo‘yicha test savollari, topshiriqlar va mashqlar ustida ishlash asosan mustaqil bajariladi. Bu ish natijalari esa auditoriya (nazariy va amaliy) mashg‘ulotlarida o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va baholanadi. Demak, mustaqil ish va auditoriya mashg‘ulotlari bir-birini to‘ldiradi, o‘quvchilarning bilim va kasbiy kompetensiyalarini oshiradi. O‘quvchilarning mustaqil ishlari (keyingi o‘rinlarda O‘MI)ni tashkil etishdagi asosiy vazifa har qanday shakldagi mashg‘ulotlarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir. O‘MIni tashkil etishdagi bosh tamoyil o‘quvchilarning individual ishlashga o‘tishlarini ta’minlash bo‘lishi kerak. Bunda ayrim topshiriqlarni formal va passiv bajarishdan uni ongli va faol bajarish sari yo‘llash asosiy o‘rin tutishi kerak. O‘MIning maqsadi avval o‘quv mazmuni bilan, keyin esa ilmiy axborotlar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish va rivojlantirish asoslarini, keyinchalik o‘z malakasini muntazam oshirib borish ko‘nikmasini hosil qilishdir. O‘MI natijali bo‘lishi esa uning faol nazorati bilan bog‘liq. Nazoratning quyidagi turlari mavjud: kirish (dastlabki) nazorati, bunda o‘quvchining navbatdagi fan o‘rganilishidan oldin shu fanga oid bilim va malakalari nazorat qilinadi; joriy nazorat, ya’ni ma’ruza, nazariy yoki amaliy mashg‘ulotlarida materialning o‘zlashtirilishi muntazam ravishda nazorat qilib boriladi; oraliq nazorat, bu kursdagi muayyan bo‘lim yoki qismning tugashiga bog‘liq bo‘ladi; o‘z-o‘zini nazorat qilish — fanni o‘rganish jarayonida nazorat ishlariga tayyorlanishda o‘quvchining o‘zi tomonidan amalga oshiriladi; yakuniy nazorat — fan o‘qib bo‘lingach imtihon yoki sinov shaklida o‘tkaziladi.

Mustaqil ta’lim- o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat. Mustaqil ish - o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi. Mustaqil ish qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda o‘quvchilarning aniq faoliyatini

tashkil etish va amalga oshirishdir. O‘quvchining mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir. Mustaqil ta’lim deganda, ta’lim oluvchining o‘zi o‘z bilimlarini kengaytirish, malaka va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida tashabbus ko‘rsatib, o‘qituvchi yoki boshqa ta’lim muassasasining bevosita rahbarligisiz amalga oshiradigan ta’lim faoliyati tushuniladi.

Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish insonning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishish va uning professional darajasini oshirish uchun muhim omildir. Quyida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asosiy qadamlar keltirilgan:

Birinchi maqsadlarni belgilash: aniq va o‘lchash mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilash kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda birinchi qadamdir. Bu sizga qanday ko‘nikmalar va bilimlarni rivojlantirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchida malaka oshirish: to‘g‘ri malaka oshirish kurslarini topish va ularda ishtirok etish. Onlayn kurslar, seminarlar va treninglar kasbiy kompetensiyalaringizni yaxshilashda yordam beradi.

Uchinchi ta’lim va o‘qish: yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun muntazam ravishda o‘qish va o‘rganish. Bu maktabda olingan ta’limdan tashqari, mustaqil ravishda o‘qishni ham o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi tajriba orqali o‘rganish: amaliy tajriba kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan biri. Loyihalarda ishtirok etish, yangi vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish orqali o‘zingizni rivojlantirish mumkin.

Beshinchi fikr va munosabatlarni o‘rganish: tajribali mutaxassislardan maslahat olish va ularning fikrlarini o‘rganish orqali kasbiy kompetensiyalaringizni rivojlantirish mumkin.

Oltinchi muntazam ravishda baholash: o‘zingizning kasbiy kompetensiyalaringizni baholash va rivojlanish darajasini tekshirib turish. Bu orqali kuchli va zaif tomonlaringizni aniqlab, rivojlanish strategiyasini tuzish. Shuningdek, sohadagi proffessional tarmoqlar bilan bog‘lanish va ularda faol ishtirok etish ham kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Davlat Avtomaktablarda mustaqil ta’limni tashkil etish, haydovchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga hissa qo‘shadi.

Haydovchilarni tayyorlashda mustaqil ta’lim quyidagicha tashkil etilishi mumkin.

Onlayn platformalar: Har bir o‘quvchiga shaxsiy kabinet beriladi. O‘quv materiallari (videodarslar, testlar, simulyatsiyalar) onlayn tarzda taqdim etiladi. O‘quv jarayonini kuzatish va nazorat qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi. O‘quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilib, savollar berishlari mumkin.

Mobil ilovalar: Yo‘l harakati qoidalarini o‘rganish uchun mobil ilovalar yaratiladi. Testlar, simulyatsiyalar orqali bilimlarni tekshirish mumkin. Istalgan vaqt va har qanday joyda o‘qish imkoniyati beriladi.

Elektron kutubxonalar: Haydovchilikka oid turli adabiyotlar, qo‘llanmalar va maqolalar elektron shaklda taqdim etiladi. O‘quvchilar o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlarni topib, o‘rganishlari mumkin.

Simulyatorlar: Turli yo‘l sharoitlarida haydash mashqlarini simulyatorda amalga oshirish mumkin. Avariyali vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishni o‘rganish imkonini beradi.

Mustaqil loyihalar: O‘quvchilarga mustaqil loyihalar beriladi (masalan, yo‘l harakati xavfsizligiga oid taqdimot tayyorlash, maqola yozish). Bu loyihalar orqali o‘quvchilar o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar.

Haydovchilarni tayyorlashda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

O‘quv materiallarining sifatiga ya’ni, taqdim etiladigan materiallar tushunarli, qiziqarli va zamonaviy bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur har bir o‘quvchining bilim saviyasi va qiziqishlarini inobatga olib, individual ta’lim rejalarini tuzish.

Muntazam nazoratni olib borish kerak o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini muntazam ravishda nazorat qilib borish.

Muloqotning davomiyligi ya’ni, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida doimiy muloqotni ta’minlash.

Olib boriladigan mustaqil ta’limning afzalliklarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlashdagi mustaqil ta’limning afzalliklari.

O‘quv jarayonini individuallashtirish har bir o‘quvchi o‘z qiziqishi bo‘yicha o‘qishi mumkin. Vaqt va makondan tanlash istalgan vaqt va har qanday joyda o‘qish imkoniyati foydalanishdir. Bilimlarni chuqur o‘zlashtirish ma’lumotni qayta-qayta takrorlash va mustahkamlash imkoni beradi. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish simulyatorlar orqali amaliy mashqlarni bajarishdan iborat. Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlashlarda mustaqil ta’limni tashkil etish, haydovchilarning kasbiy mahoratini oshirish va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda muhim qadam bo‘ladi. Haydovchi-yo‘riqchilarning mustaqil ta’limi, ularning kasbiy mahoratini oshirish va yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, nafaqat yangi qonun-qoidalar va texnologiyalar bilan tanishish, balki

pedagogik mahoratni oshirish, psixologiya asoslarini o‘rganish va boshqa ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Bunda mustaqil ta’limning ahamiyati:

Doimiy yangilanib borishni taqazo etadi va bu yo‘l harakati qoidalari va texnologiyalar tez-tez o‘zgarib turadi. Mustaqil ta’lim bu o‘zgarishlarga moslashishga imkon beradi. Kasbiy o‘sish bu o‘z ustida ishlash yo‘riqchilarning o‘zlarini ishonchli va proffessional his qilishlariga yordam beradi. Sifatli xizmat ko‘rsatish ko‘nikmasiga ega bo‘lish yangi bilim va ko‘nikmalar yo‘lovchilarga yanada sifatli xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Haydovchilarning stressga chidamliligini oshirish turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va stressga chidamliligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlashda olib boriladigan mustaqil ta’limning ahamiyati haydovchi yo‘riqchining proffessional o‘sishi uchun muhim investitsiyadir. Bu nafaqat uning o‘zi uchun, balki yo‘lovchilar va jamiyat uchun ham foydalidir. Shuning uchun, har bir haydovchi-yo‘riqchi o‘z ustida doimiy ishlab, bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirib borishi kerak.

Haydovchilarni tayyorlashda o‘qituvchi va haydovchi-yo‘riqchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda malakani baholash quyidagi usullaridan foydalanishni tavsiya etamiz:

Nazariy bilimlarni tekshirish. Test sinovlari, yo‘l harakati qoidalari, transport vositalarining tuzilishi, birinchi tibbiy yordam va boshqa sohalar bo‘yicha bilimlarni tekshirish uchun testlardan foydalaniladi. Amaliy topshiriqlar. Amaliy ko‘nikmalarni baholashda haydash mashqlarini bajarishiga ko‘ra, turli yo‘l sharoitlarida haydash malakasini baholash. Yo‘lovchilar bilan muloqot qilish va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini baholash. Transport vositasini texnik jihatdan tekshirish va oddiy buzilishlarni bartaraf etish qobiliyatini baholash taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda haydovchi-yo‘riqchilarning malakasini baholash, transport sohasidagi muhim vazifa bo‘lib, bu jarayonning samaradorligi yo‘lovchilarning xavfsizligi va transport tizimining umumiy samaradorligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2024 yil 19 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi 900-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2022 yilning 4 aprel kunidagi “Avtomobil yo‘lllarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora tadbirlari to‘g‘risda”gi PQ-190-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2022 yil 11 fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Xavfsiz va ravon yo‘l” tamoyili.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori.

5. Ibrohimov I.B. (2022). Yul-transport hodisalarining tahlili, kelib chiqish sabablari va hozirgi kunda oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar.Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali, 1(2), 75-80.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 iyuldagi Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o‘tkazish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi VMQ-393-son qarori.

YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA SHAHSIYLIK VA IRODAVIY SIFATLARNING O‘RNI

Jo‘rayev O‘tkir Tashpulatovich.
Termiz davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti
“Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Mamlakatimizda yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning mehnat bozoriga moslashuvchanligini ta’minlash, shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biridir. Bu jarayonda nafaqat ta’lim tizimi, balki oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, psixologik yondashuv va, albatta, shaxsning ichki salohiyati – irodasi, qat’iyati va maqsad sari intilishi muhim rol o‘ynaydi.

Yoshlar o‘z kasbini tanlash jarayonida ko‘plab omillarga duch keladilar: oilaning fikri, atrof-muhit bosimi, moddiy ehtiyojlar va, eng muhimi, o‘z shaxsiy istaklari. Shu sababli, bu murakkab qarorni qabul qilishda ularning shaxsi va irodaviy sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

1. Shaxs va kasb tanlovi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Shaxs — bu insonning o‘ziga xos xulq-atvori, qiziqishlari, qadriyatlari va hayotga bo‘lgan qarashi bilan ajralib turadigan ichki dunyosidir. Har bir inson o‘z qobiliyati va xohishlariga mos kasb tanlashi lozim. Aks holda, noto‘g‘ri tanlangan kasb yoshda befarqlik, ruhiy tushkunlik, maqsadsizlik kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Psixologik jihatdan, kasb tanlovi shaxsning ichki ehtiyojlariga, qiziqishlariga va hayotiy maqsadlariga mos bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, shaxsiy ongning rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar o‘zlariga mos yo‘nalishni aniqroq belgilay oladilar.

2. Irodaviy sifatlar va ularning ahamiyati

Iroda — bu insonning ongli harakati, to‘siqlarni yengish qobiliyati va maqsad sari qat’iyat bilan harakat qilishidir. Kasb tanlashda va unga erishish yo‘lida irodaning o‘rni beqiyosdir. Har qanday kasb egasi bo‘lish uchun faqatgina qiziqish emas, balki mashaqqatlarni yengish, davomiylik va tirishqoqlik kerak bo‘ladi.

Masalan, shifokor bo‘lishni istagan yosh o‘quvchi uzluksiz o‘rganish, kuchli raqobatga bardosh berish va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘lishi kerak. Bunday talablarni bajara olish esa iroda bilan chambarchas bog‘liq.

3. Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida psixologik yondashuv

Psixologlar yoshlar bilan ishlashda ularning qiziqishlarini aniqlash, shaxsiy xususiyatlarini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali ularga mos kasb yo‘nalishini tavsiya etadilar. Shuning uchun maktablarda kasbga yo‘naltirish ishlari faqat nazariy ma’lumot berish bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayonda individual yondashuv, testlar, suhbatlar, psixologik mashg‘ulotlar katta ahamiyatga ega.

4. Oilaning va jamiyatning roli

Yoshlarning kasb tanlashida ota-onalarning ko‘magi, ularga nisbatan bildirilgan ishonch va qo‘llab-quvvatlash ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo ba'zida oilalar farzandlarining shaxsiy istaklarini hisobga olmasdan, o‘z orzularini ularga yuklashadi. Bu esa yoshlarning ichki motivatsiyasini pasaytiradi. Shuningdek, jamiyatda kasb-hunarga bo‘lgan munosabat, mehnat qadriyatlarini targ‘ib qilish, turli sohalardagi ijobiy namunalarni ko‘rsatish yoshlarning qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Shuningdek kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoni insonning ichki imkoniyatlari, shaxsiy qobiliyatlari va psixologik xususiyatlariga asoslangan holda amalga oshirilgandagina samarali bo‘ladi. Bugungi kunda yoshlarning to‘g‘ri kasb tanlashlariga yordam berishda psixodiagnostik vositalar keng qo‘llanmoqda. Ulardan eng samaralilaridan biri – Reymond Kettell tomonidan ishlab chiqilgan 16 omilli shaxs so‘rovnomasidir (16PF). Ushbu test orqali shaxsning kasbiy mosligi, ishga yondashuvi, jamoaviy muhitga moslashuvi kabi ko‘plab jihatlari aniqlanishi mumkin.

Shaxsni har tomonlama o‘rganishga yo‘naltirilgan zamonaviy yondashuvlar, ayniqsa, yoshlar orasida kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida psixodiagnostik uslublarni qo‘llashni muhim vositaga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan, Reymond B. Kettell tomonidan ishlab chiqilgan 16 omilli shaxs so‘rovnomasi (16PF) Surxondaryo viloyatidagi “Yosh chegarachilar” litseyining 1-2-kurs o‘quvchilari orasida sinov tariqasida qo‘llandi. Ushbu tadqiqot o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, kasbiy yo‘nalishdagi psixologik mosligini o‘rganish hamda tarbiyaviy yondashuvlarga ilmiy asos yaratish maqsadida amalga oshirildi.

So‘rovnoma litseyda o‘qiyotgan 16–18 yoshdagi 157 nafar o‘quvchi orasida o‘tkazildi. Asosiy maqsad — yoshlarning shaxsiy fazilatlari, psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, liderlik salohiyati, mas’uliyat darajasi kabi ko‘rsatkichlarini aniqlash edi. Test o‘zbek tilidagi moslashtirilgan versiyada, standart sharoitlarda, psixolog ishtirokida o‘tkazildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Yosh chegarachilar” litseyi o‘quvchilari testda qatnashgan 16 asosiy omil bo‘yicha o‘rtacha va yuqori darajadagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishdi. Quyida ayrim asosiy shkalalar bo‘yicha yuksak natijalar keltiriladi:

1. **Emotsional barqarorlik (C)** – O‘quvchilarning aksariyati o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila olish, turg‘unlik va salbiy vaziyatlarda sovuqqonlikni saqlash qobiliyatini namoyon qildi.

2. **Mas’uliyatlilik (G)** – Javoblarning katta qismi yuqori mas’uliyat, ichki intizom, tartibga bo‘lgan intilish va burch hissining shakllanganini ko‘rsatdi.

3. **O‘zini tuta bilish (Q3)** – Shaxsiy hayotni boshqarish, o‘zini doimiy ravishda tartibga solish, ichki tartibga amal qilish darajasi sezilarli darajada ijobiy bo‘ldi.

4. **Jasurlik va tashabbuskorlik (H)** – O‘quvchilarning ko‘pchiligi ijtimoiy faollik, jamoada o‘z fikrini bemalol ifoda eta olish, muammoga bevosita yondasha olish qobiliyatini ko‘rsatdi.

5. **Rahbarlik salohiyati (E + Q1)** – Boshqalarga yetakchilik qilishga moyillik, yangilikka ochiqlik, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati yuqori baholandi.

Shuningdek, **issiqlik (A)** va **ijtimoiy qiziqish (F)** shkalalari bo‘yicha ham do‘stona, ochiq, empatik munosabatlarga moyillik kuzatildi.

Test natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, litsey o‘quvchilari o‘zlari tanlagan harbiy sohaga psixologik jihatdan mos keladigan shaxsiy fazilatlarga ega. Ayniqsa, emotsional barqarorlik, tashabbuskorlik, mas’uliyat hissi, o‘zini tuta olish va liderlik salohiyati kabi ko‘rsatkichlar — kelgusida harbiy xizmatda zarur bo‘lgan asosiy psixologik kompetensiyalardir. Bu esa litseyda olib borilayotgan tarbiyaviy va kasbiy yo‘naltirish tizimining samarali ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa

Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish faqat ta’lim yoki maslahat bilan emas, balki ularning shaxsiy va irodaviy salohiyatini rivojlantirish orqali samarali amalga oshadi. Bu yo‘lda o‘zini anglagan, qat’iyatli, mas’uliyatli, mustaqil fikrlay oladigan shaxslarni tarbiyalash muhimdir. Zero, mustahkam iroda va aniq maqsadga ega bo‘lgan yoshlar kelajakda o‘z yo‘lini topa oladi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallaydi va muvaffaqiyatli bo‘ladi.

O‘tkazilgan psixologik tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, “Yosh chegarachilar” litseyi o‘quvchilari shaxsiy salohiyat, intizom, psixologik barqarorlik va kasbiy moslik nuqtai nazaridan yuqori darajadagi ijobiy sifatlarni namoyon etmoqda. Kettell testi orqali bu sifatlarning aniqlanishi nafaqat individual rivojlanish strategiyasini tuzish, balki kasbiy tayyorgarlikni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

HARBIY-AKADEMIK LITSEYLARIDA AVTOTRANSPORT VOSITALARI HAYDOVCHILARINI TAYYORLASH FANI O‘QITILISHINING DOLZARBLIGI

Shermurotov Jamshid Tursunpo`latovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy-amaliy fanlar” kafedrasi
AVHT fani katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Harbiy-akademik litseylarida avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash fani, mamlakat xavfsizligini ta’minlash, harbiy-logistik tizimni samarali ishlashini va harbiy xizmatda ishlovchi shaxslarning professional

mahoratini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu fan orqali o‘quvchilar, avtomobil va boshqa harbiy transport vositalarini boshqarish, ularning texnik xususiyatlari, ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish kabi masalalarni o‘rganadilar. Avtotransport vositalarini boshqarish mahorati, faqat harbiy operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajarishda emas, balki favqulodda vaziyatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada harbiy-akademik litseylarida avtotransport vositalarini haydovchilarini tayyorlash fanining dolzarbligi va uning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni tahlil etilgan. Maqola, avtotransport vositalarini boshqarish bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan bilimlar, ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish haqida ilmiy nuqtai nazarlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Harbiy-akademik litsey**,** avtotransport vositalari**,** haydovchilar tayyorlash**,** harbiy-logistika**,** kasbiy tayyorgarlik**,** harakat xavfsizligi**,** favqulodda vaziyatlar**,** harbiy texnika**,** transport boshqaruvi**,** o‘qitish metodikasi

Kirish:

Harbiy-akademik litseylar — bu nafaqat harbiy xizmatga tayyorlaydigan muassasalar, balki turli sohalarda, shu jumladan avtotransport vositalarini boshqarish, texnik xizmat ko‘rsatish, va boshqa muhim kasbiy ko‘nikmalarni o‘rgatadigan ta’lim muassasalaridir. Harbiy xizmatda transport vositalarini samarali boshqarish nafaqat logistik vazifalarni, balki favqulodda vaziyatlarga tezkor va to‘g‘ri munosabat bildirishni ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, **avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash** fani harbiy-akademik litseylarida o‘quvchilarning tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy bo‘lim:

1. Harbiy-akademik litseyda avtotransport vositalarini boshqarish fanining ahamiyati:

Avtotransport vositalarini boshqarish nafaqat kundalik harbiy-logistik operatsiyalarni amalga oshirishda, balki turli xil favqulodda vaziyatlarda, masalan, tabiiy ofatlar yoki xalqaro nizolar paytida ham zarur bo‘ladi. Bu fan, o‘quvchilarga transport vositalarini boshqarish, xavfsiz harakat qilish va ularni texnik jihatdan ta’mirlash ko‘nikmalarini o‘rgatadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar transport vositalarining ishlash prinsiplarini, ularning texnik xizmatini va boshqa muhim aspektlarni o‘rganadilar.

2. O‘qitish metodikalari:

Avtotransport vositalarini haydovchilarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodikalaridan foydalanish juda muhimdir. Bu metodikalar amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiyalar va jismoniy tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, nazariy bilimlarni taqdim etish va amaliyot bilan birlashtirish orqali o‘quvchilarga avtotransport vositalarini boshqarishda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rgatish mumkin.

3. Harakat xavfsizligi va avtotransport boshqaruvi:

Avtotransport vositalarining to‘g‘ri ishlashi va ularni boshqarish, harakat xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Harbiy xizmatdagi o‘quvchilar

transport vositalarini boshqarish orqali xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradigan texnik va taktik ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

4. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik:

Avtomobillar va boshqa transport vositalarini boshqarish bo‘yicha bilimlar o‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tez va samarali javob berishga tayyorlaydi. Bu tayyorgarlik harbiy xizmatda, shuningdek, fuqarolik xavfsizligini ta’minlashda ham muhim hisoblanadi.

Jadval 1: Harbiy-akademik litseyda avtotransport vositalarini haydovchilarini tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Tavsif	Maqsad
Nazariy tayyorgarlik	Avtotransport vositalarining ishlash prinsiplari, texnik xizmat ko‘rsatish, va xavfsizlik qoidalarini o‘rganish	O‘quvchilarga transport vositalarining ishlashini tushuntirish, ularni boshqarish qoidalari bilan tanishtirish
Amaliy tayyorgarlik	Transport vositalarini boshqarish, texnik xizmat ko‘rsatish amaliyotlari	O‘quvchilarni transport vositalarini boshqarishda amaliy ko‘nikmalarga ega qilish
Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik	Tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, va boshqa favqulodda vaziyatlarda avtotransport vositalaridan foydalanish	O‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va transport vositalaridan samarali foydalanish
Harbiy-logistika	Harbiy transport vositalarining logistik vazifalarini bajarish	Harbiy operatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur logistika bilimlarini berish

Jadval 2: Avtotransport vositalarini boshqarish bo‘yicha asosiy ko‘nikmalar

Ko‘nikma	Tavsif	Dolzarb roli
Avtotransport vositalarini boshqarish	Transport vositalarini xavfsiz va samarali boshqarish ko‘nikmasi	Harbiy va fuqarolik xizmatlari uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikma
Texnik xizmat va ta’mirlash	Transport vositalarining texnik holatini tekshirish, ta’mirlash va saqlash	Harbiy transport vositalarining uzoq muddatli ishlashini ta’minlash
Xavfsizlik va yo‘l qoidalari	Transport vositalarini boshqarishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish	O‘quvchilarga xavfsizlikni ta’minlash va avariyalardan qochish ko‘nikmalarini o‘rgatish
Favqulodda vaziyatlarga javob berish	Favqulodda vaziyatlarda transport vositalarini boshqarish va yordam ko‘rsatish	Tezkor va samarali harakat qilish, hayotlarni saqlash va xavfsizlikni ta’minlash

Jadval 3: Harbiy-akademik litseyda avtotransport vositalari tayyorgarligi uchun zarur metodik yondoshuvlar

Metodik yondoshuv	Tavsif	Foydasi
Amaliy mashg‘ulotlar	Avtotransport vositalarini boshqarishning real sharoitda o‘rgatilishi	O‘quvchilarga real sharoitda amaliy tajriba orttirishga yordam beradi
Simulyatsiyalar	Avtomobil va boshqa transport vositalarining boshqaruv simulyatsiyasi	O‘quvchilarni xavfsizlikni ta’minlash va favqulodda vaziyatlarga tayyorlash
Jismoniy tayyorgarlik	Harbiy xizmatda jismoniy qobiliyatni oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar	Jismoniy tayyorgarlikni kuchaytirish, transport vositalarini boshqarish uchun zarur bo‘lgan holatni yaratish

Metodik yondoshuv	Tavsif	Foydasi
Teorik ta’lim	Avtotransport vositalarining texnik xususiyatlari, ta’mirlash va boshqarish prinsiplari	O‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish, transport vositalarining ishlashini tushunish

Jadval 4: Harbiy-akademik litseylarida avtotransport vositalari haydovchilari tayyorlashning asosiy maqsadlari

Maqsad	Tavsif	Ta’siri
Harakat xavfsizlikni ta’minlash	Harbiy transport vositalarining samarali boshqarilishi	Mamlakatning harbiy xavfsizligini ta’minlash
Logistik operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash	Harbiy-logistik vazifalarni bajarish uchun zarur transport vositalarini boshqarish	Harbiy operatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish
Jismoniy va ruhiy tayyorgarlik	Harbiy xizmat uchun zarur bo‘lgan jismoniy va ruhiy holatni shakllantirish	Harbiy va fuqarolik xizmati uchun tayyor o‘quvchilarni yaratish
Favqulodda vaziyatlarda tezkorlik	Favqulodda vaziyatlarga tez va samarali javob berish ko‘nikmalarini rivojlantirish	Aholi xavfsizligini ta’minlash, transport vositalarini samarali ishlatish

Ushbu jadvallar harbiy-akademik litseylarida avtotransport vositalarini haydovchilarini tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari va metodik yondoshuvlarini ko‘rsatib, fanning dolzarbligini ta’kidlaydi. Harbiy xizmat uchun tayyorlangan yuqori malakali haydovchilar xarakat xavfsizlikni ta’minlashda va harbiy-logistik vazifalarni bajarishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa:

Harbiy-akademik litseylarida avtotransport vositalarini haydovchilarini tayyorlash fanining dolzarbligi, o‘quvchilarning nafaqat harbiy xizmatga tayyorligini, balki xarakat xavfsizlikni ta’minlashga qo‘shgan hissasini oshirishga yordam beradi. Bu fan o‘quvchilarga zamonaviy texnikalar va usullarni o‘rgatadi, ularning kasbiy va jismoniy tayyorgarligini kuchaytiradi, hamda harbiy-logistik tizimni samarali ishlashiga hissa qo‘shadi. Shuningdek, bu fan, o‘quvchilarga transport vositalarini boshqarishda zarur bo‘lgan bilimlar va ko‘nikmalarni berib, ularni favqulodda vaziyatlarga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi. «Harbiy ta’lim va transport vositalari boshqaruvi» Nashr yili: 2020.
2. Islomov A. «Transport xavfsizligi va avtomobil boshqarish» Nashr yili: 2018
3. Sharipov N. «Pedagogika va harbiy ta’lim» Nashr yili: 2017.
4. Alimov A.» Haydovchilarni tayyorlash metodikasi» Nashr yili: 2019
5. Bekmuratov R.» Xavfsizlikni ta’minlashda transport vositalarini boshqarish» Nashr yili: 2021
6. Xudoyberganov M.» Harbiy transport vositalarini boshqarish» Nashr yili: 2015
7. Sultonov O. «Psixologiya va transport boshqaruvi» Nashr yili: 2022
8. Saidov S. «Oliy ta’lim muassasalarida transport ta’limi» Nashr yili: 2020.

HARBIY TA’LIMGA IXTISOSLASHGAN TA’LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA FANINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ashiraliyev Boburjon Ilhomjon o‘g‘li
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy-amaliy fanlar” kafedrasi
jismoniy-tarbiya fani o`qituvchisi

Dolzarbligi. Zamonaviy jamiyatda harbiy kadrlarni tayyorlash masalasi davlat xavfsizligi va milliy mudofaa qobiliyatini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Harbiy ta’lim muassasalarida olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari nafaqat kadetlar va kursantlarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish, balki ularning jismoniy va ruhiy chidamkorligini oshirish, favqulodda holatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham yo‘naltirilgan. Shu bois, harbiy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya fanining o‘rni va ahamiyati boshqa ta’lim muassasalaridagi jismoniy tarbiyadan tubdan farq qiladi.

Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fani umumiy jismoniy rivojlanish va sport mashg‘ulotlarini o‘z ichiga olgan holda, harbiy taktik va maxsus tayyorgarlik bilan uzviy bog‘liq tarzda tashkil etiladi. Bu esa, kursantlarni og‘ir iqlim va jismoniy yuklamalarga moslashtirish, ularni yuksak jismoniy qobiliyatga ega bo‘lgan professional harbiy mutaxassislar etib tayyorlash imkonini beradi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi – harbiy xizmat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish, ya’ni chidamkorlik, kuch, epchillik, tezkorlik va muvozanatni mukammallashtirishdan iborat.

Bundan tashqari, harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning pedagogik, fiziologik va psixologik jihatlari ham alohida ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari kursantlarda intizomlilik, jamoaviylik va mas’uliyat hissini oshirishga, stressga chidamlilik va favqulodda holatlarda o‘zini tutish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, harbiy tayyorgarlik jarayonida amaliy jismoniy mashqlar bilan birga, teoriyaviy bilimlar ham o‘rgatiladi. Ular harbiy-sport o‘yinlari, jangovar uslublar, yurish va yugurish texnikasi, qurol bilan va qurolsiz jang elementlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu maqolada harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining o‘ziga xos xususiyatlari, uning asosiy vazifalari, metodik yondashuvlari va samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar va milliy xususiyatlar asosida jismoniy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish yo‘llari muhokama qilinadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fani kursantlar va kadetlarni harbiy xizmatga tayyorlash jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu fan umumiy jismoniy rivojlanishga qaratilgan an’anaviy jismoniy tarbiya dasturlaridan farqli ravishda, harbiy amaliy tayyorgarlik bilan uzviy bog‘langan holda tashkil etiladi. Harbiy xizmatchilar uchun jismoniy tayyorgarlik nafaqat organizmning kuch, chidamkorlik va tezkorlik kabi muhim xususiyatlarini

shakllantirish, balki ularning favqulodda sharoitlarda samarali harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishga ham yo‘naltirilgan.

Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimida asosiy e’tibor kursantlarni og‘ir iqlim va turli topografik sharoitlarda harakatlanishga moslashtirishga qaratiladi. Bu jarayonda ular turli yuklamalar ostida harakatlanish, uzoq masofalarga yurish va yugurish, yuk ko‘tarib harakatlanish, suvdan o‘tish, jangovar vaziyatlarda qo‘l jangi elementlaridan foydalanish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bunday mashg‘ulotlar harbiy xizmat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni shakllantirish bilan birga, kursantlarda psixologik barqarorlikni ham rivojlantiradi.

Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, u kursantlarning ruhiy va irodaviy sifatlarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Stress holatlariga moslashish, uzoq vaqt jismoniy va aqliy zo‘riqishga dosh berish, jang sharoitida qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda jismoniy yuklamalar faqat jismoniy tayyorgarlik nuqtai nazaridan emas, balki psixologik chidamlilikni oshirish maqsadida ham rejalashtiriladi.

Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari an’anaviy sport mashg‘ulotlari bilan bir qatorda, taktik tayyorgarlik va maxsus jismoniy mashqlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunda kursantlar jismoniy tayyorgarlikni jang amaliyoti bilan uyg‘unlashtirgan holda mashq qilishadi. Harbiy yurish va yugurish, qurolli va qurolsiz jangovar harakatlar, turli to‘siqlarni engib o‘tish kabi mashg‘ulotlar kursantlarning mustahkam jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, fiziologiya va sport psixologiyasi yutuqlaridan foydalaniladi. Har bir kursantning jismoniy rivojlanish darajasi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular uchun maxsus tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqiladi. Bunda jismoniy yuklamalarning turli xil dinamik modellari, yuklama va tiklanish jarayonlarini to‘g‘ri boshqarish, funktsional holatni baholash kabi metodikalar qo‘llaniladi.

Jismoniy tayyorgarlik jarayonida trenajyorlar va zamonaviy o‘quv-me’yoriy bazalardan foydalanish ham samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Harbiy ta’lim muassasalarida simulyatorlar, virtual treninglar, sport anjomlari va maxsus trenajyorlardan foydalanish kursantlarning jismoniy tayyorgarligini real sharoitlarga yaqinlashtirishga yordam beradi.

Harbiy jismoniy tarbiya tizimi faqatgina jismoniy va amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lib qolmay, nazariy bilimlarni ham o‘z ichiga oladi. Kursantlar sport fiziologiyasi, yuklamalarga javob reaktsiyalari, jarohatlarning oldini olish, tiklanish usullari va to‘g‘ri ovqatlanish qoidalari haqida bilimlarga ega bo‘lishlari lozim. Bu esa ularning uzoq muddatli jismoniy faolligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jamoaviylik va o‘zaro hamkorlikni shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Harbiy xizmatda jamoaviy harakat va birgalikda ishlash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Shu bois, jismoniy tayyorgarlik

mashg‘ulotlari ko‘pincha jamoaviy topshiriqlar, sherik bilan ishlash, taktik mashqlar va maxsus o‘yinlar shaklida tashkil etiladi.

Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimi xalqaro standartlar va milliy an’analarga mos ravishda rivojlantirilishi zarur. Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi harbiy jismoniy tayyorgarlik tajribalari o‘rganilib, O‘zbekistonlik harbiy kursantlar uchun eng samarali modellar ishlab chiqilishi kerak. Bunda harbiy jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro metodikalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy ta’limga ixtisoslashgan ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fani samarali tashkil etilishi uchun bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

- Avvalo, mashg‘ulotlar jarayoni kursantlarning harbiy xizmatga tayyorgarligini kompleks tarzda ta’minlashi lozim. Bunda jismoniy tayyorgarlikni taktik mashg‘ulotlar, stressga chidamlilikni oshirish va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Harbiy jismoniy tarbiya tizimi kursantlarni og‘ir iqlim va topografik sharoitlarda harakatlanishga tayyorlashni nazarda tutgan holda tashkil etilishi kerak.

- Jismoniy mashg‘ulotlar metodologiyasini ishlab chiqishda individual yondashuvni ta’minlash zarur. Har bir kursantning jismoniy holati, tayyorgarlik darajasi va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular uchun maxsus individual dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda zamonaviy sport fiziologiyasi, biomexanika va sport psixologiyasi yutuqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Kursantlarning jismoniy tayyorgarligi doimiy nazorat ostida bo‘lib, ularning funksional holati muntazam baholanib borilishi kerak.

- Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy mashg‘ulotlarni amaliy tayyorgarlik bilan bog‘lash muhim. Jismoniy tarbiya darslari nafaqat an’anaviy sport mashg‘ulotlarini, balki harbiy taktik harakatlar bilan integratsiyalashgan mashqlarni ham o‘z ichiga olishi lozim. Kursantlar qurolli va qurolsiz jang usullarini, jangovar vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallashi kerak. Bundan tashqari, ularning ekstremal sharoitlarda harakat qilish qobiliyatini oshirish maqsadida maxsus simulyatorlar va real sharoitlarga yaqinlashtirilgan mashg‘ulotlar joriy etilishi zarur.

- Jismoniy tayyorgarlik jarayonida funksional tiklanish va jarohatlarning oldini olish choralari ko‘rilishi kerak. Kursantlar tiklanish usullari, ratsional ovqatlanish, surunkali charchoq va ortiqcha yuklamalardan saqlanish yo‘llari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Bu jarayonda tibbiy monitoring tizimini joriy etish, kursantlarning yuklamaga javob reaksiyasini muntazam kuzatib borish va ularning funksional holatini baholash muhim ahamiyatga ega.

- Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy trenajyorlar, virtual simulyatorlar va video-tahlil usullari mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, harbiy-sport musobaqalari, jamoaviy topshiriqlar va taktik o‘yinlarni muntazam o‘tkazish kursantlarning jamoaviy harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fani kursantlarni harbiy xizmatga tayyorlashning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Uni samarali tashkil etish uchun metodik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, jismoniy tayyorgarlikni taktik mashg‘ulotlar va psixologik tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirish hamda xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali jismonan baquvvat, chidamli va mustahkam irodaga ega bo‘lgan harbiy mutaxassislarni tayyorlash imkoni yaratiladi.

Harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fani nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki ruhiy barqarorlik, aqliy zukkolik va jamoaviy hamkorlikni ham rivojlantiruvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Uni samarali tashkil etish va muntazam ravishda takomillashtirish orqali yuksak malakaga ega bo‘lgan, jismonan baquvvat va ruhan chidamli harbiy mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Axmedov, A. (2020). Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy tamoyillari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Xoshimov, N. (2019). Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Norboyev, S. (2020). Vatanparvarlik ruhini shakllantirishda sportning roli. Jismoniy tarbiya va sport ilmiy jurnali, 5(3), 78-89.
4. Axmedov, O. (2017). Harbiy intellektual mashg‘ulotlar va ularning yoshlar tarbiyasiga ta’siri. Oliy ta’lim ilmiy jurnali, 2(1), 33-41.

O‘SPIRINLIK YOSHIDA KASBIY KO`NIKMALARNI LARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Baqoyeva Zarina Rayimovna
International school of finance technology and science instituti
“Psixologiya va pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi
Telefon:+(99890) 062-81-82. zbakaeva69@gmail.com

O`spirin o`quvchida o`zini anglash zamirida o`z–o`zini tarbiyalash istagi tug`iladi va bu ishning yo`llarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. O`zlariga ma’qul ma’naviy–psixologik qiyofaga ega bo`lish uchun oqilona o`lcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar. O`spirinda ideallar bir necha ko`rinishda namoyon bo`lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsolida o`zlarida yuksak fazilatlarni gavdalantirishni orzu qiladilar. Bu orzular mazmun jihatidan o`spirin yigitlar va qizlarda farq qilishi mumkin. Masalan, qizlar ko`pincha mehnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlashgan qiyofalarini ideal darajaga ko`taradilar.

Ammo ayrim o`quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, baquvvat yo`lto`sar, xiylagar quv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taklid qilishga ham moyil bo`ladilar. Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko`rsatishicha, ba'zi xollarda ilk o`spirinlar o`zlarini qo`rqmas, jasur qilib ko`rsatishga, noo`rin harakatlarga moyil bo`ladilar. Ilk o`spirinlar ma'naviy xislatlarga, ahloqiy mezonlar mohiyatiga jiddiy munosabatda bo`ladilar. Masalan, burch, vijdon, g`urur, qadr–qimmat, faxrlanish, ma'suliyat, or–nomus kabi tushunchalarni chuqur tahlil qila oladilar. Lekin hammalari emas. ahloqiy ma'naviy qarashlar, tasavvurlar shakllanishi uchun pedagoglar sog`lom muxit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishlari zarur. Ayrim munozarali tadbirlar puxta o`ylab tashkil qilinishi, ayrim chet el filmlari muxokamasi shular jumlasiga kiradi. Ijtimoiy hayotda uchraydigan yaramas yurish– turishlarga, illatlarga zarba berish pedagoglar jamoasining muhim vazifasi hisoblanadi.

O`spirinlarda balog`atga etish tuyg`usi takomillashib borib o`zining o`rnini belgilash va ma'naviy dunyosini ifodalash tuyg`usiga aylanadi. Bu hol uning o`zini alohida shaxs ekanligi, o`ziga xos xislatini tan olinishini istashida aks etadi.

Ilk o`spirinlik davri hayotda o`z o`rnini topishga intilish kasb–hunar o`rganish, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo`lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch- g`ayrat, shijoat, qahramonlik ko`rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo`lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi. Ilk o`spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni ko`yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o`rtasidagi ziddiyatlardir.

Turli qarama–qarshiliklar, ziddiyatlar o`spirinning ahloqiy, aqliy, estetik jihatdan tez o`sishi orqali bartaraf qilinadi. Mazkur davrning yana bir xususiyati– mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta'lim xarakterining o`zgarishi, yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy xis–tuyg`uning vujudga kelishiga, bilimni o`zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi. Ilk o`spirinlik yoshidagi etakchi omil yuqori sinf o`quvchisi faoliyatining xususiyati, mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir. O`spirinlarda avvalo o`zini anglashdagi siljish yaqqol ko`zga tashlanadi.

Bu xol shunchaki o`sishni bildirmaydi. O`spirinda o`zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini kuchayadi. Bu yoshdagi o`quvchilarning o`zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o`zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`spirin o`smirga qaraganda o`z ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to`laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo`l qo`yadi. Natijada u o`z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo`ladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a'zolariga g`ayritabiiy munosabatda bo`la boshlaydi. Shuningdek, ayrim o`spirinlar o`z hatti– harakatlari,

aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga past baho beradilar va o`zlarini kamtarona tutishga intiladilar.

O`smirlik yoshidagi boladan yana bir xususiyat–murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissi, o`z kadr-qimmatini e'zozlash, sezish va faxmlashga moyillikdir. Masalan, o`spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik, nafis xolatlarning farqiga borish, zaruratni anglash, xolisona yordam uyushtirishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi.

O`spirin o`zining ezgu niyatini baholashda jamoada o`z o`rnini belgilash nuqtai–nazaridan yondoshadi, chunonchi, «o`zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?» , «Jonajon Respublikamga, ota-onamga munosib farzand bo`la olamanmi?» , «Jamiyatning taraqqiyotiga o`z ulushimni qo`sha olamanmi?» degan savollarga javob qidiradi.

O`quvchida o`zining fazilati to`g`risida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o`qituvchi unga juda ustalik, ziyraklik bilan yordam berishi lozim. Shundagina jamoada ustozga, do`stlariga chuqur xurmat, minnatdorchilik tuyg`ulari uyg`onadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘spirin yoshlarda mustaqil kasbiy malakalarni shakllantirish uchun birinchi navbatda oilaning o‘rni muhim. Oiladagi muhit unga ijobiy va salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ikkinchidan, do‘stlar davrasi. O‘spirinning atrofida qaysi sohaga qiziquvchi tengdoshlari ko‘p bo‘lsa va ular yetarlicha bilim-ko‘nikmaga ega bo‘lsalar, ijobiy ta'sir qilmasdan qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Nishonova Z. T.,Alimbaeva M. V.Psixologik xizmat.-Toshkent-fan va texnologiya markazi, 2014
2. Райимовна, Б. З. (2022). Влияние социально-психологического тренинга на подготовку будущих учителей. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(11), 317-318.
3. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000
4. Abdurahmonova Guljahon Faxriddinovna “Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences” 3(4), april, 2023
5. Райимовна, Б. З. (2022, март). Ситуации, факторы, последствия образа жизни и их эффективные решения, вызывающие стресс и депрессию. В конференц-зоне (стр. 153-154).

BO‘LAJAK HARBIYLAR TARBIYASIDA KITOBXONLIKNI O‘RNI

Umaraliyev Murodjon Qambarali o‘g‘li
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi
matematika fani o‘qituvchisi telefon:+998973377889

Annotasiya: Ushbu maqolada yoshlarga bo‘lgan yondashuvning qanday bosqichlardan o‘tgani va ularni keng dunyoqarashli, vatanparvar, izlanuvchan bo‘lib kamol topishlarida kitobxonlikni ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy, siyosiy vaziyat, tabiiy paternalism, kitobxonlik, terrorizm.

Yangi O‘zbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari har tomonlama harakatlar ketayotgan davrda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kun o‘qituvchilarining asosiy burchlaridan biri. Guvohi bo‘lyapmizki dunyoda bugungi kunga kelib siyosiy iqtisodiy vaziyat tahlikali holga kelmoqda. Bunday vaziyatda yosh avlod Vatanini chin dildan sevmasa, himoya qilish burchi ekanini anglamasa, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanmasa davlat kelajagi havf ostida qolishi mumkin. Darhaqiqat, yoshlar har qanday davlat istiqbolining strategik imkoniyatini belgilovchi muhim qatlam sanaladi. Biroq, davlat taraqqiyotining istiqboli uning mazkur imkoniyatdan qay darajada foydalana olishi va unga o‘z kuch-kudratini safarbar etishiga bog‘liq. Xorijiy mamlakatlarda yoshlar siyosatining shakllanishi davlat miqyosida asosan XX asrning 50-60-yillarida boshlangan. Mutaxassislar buning oltita bosqichini e’tirof etishadi. Birinchi bosqich, XX asrning 50-yillaridagi “tabiiy paternalizm” bosqichidir. Bunda davlat va jamiyat o‘zining konservativ yondashuvini namoyish etadi, ya’ni yoshlarga o‘ziga xos talablarga ega alohida ijtimoiy guruh sifatida e’tibor qaratmaydi. Yoshlar muammolarini hal etish bilan asosan, ixtiyoriy tashkil etiladigan ijtimoiy, diniy va jamoat tashkilotlari shug‘ullanishgan. Ikkinchi bosqich, 60-yillarda “Yoshlar - qo‘rqinchli kuch” shiori bilan xarakterlanadigan va avlodlar o‘rtasidagi ziddiyatni aks etgiruvchi, yoshlarni neokonservativ kuch sifatida qabul qiluvchi bosqich sanaladi. Bu paytda yoshlar muammosini hal etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy davlat xizmatlari paydo bo‘ladi. Shuningdek, “yoshlar siyosatining tarmoq” modeli asosan arosatda qolgan yoshlar guruhi muammolarini hal etishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Uchinchi bosqich, 70-yillarda - yoshlar siyosatida demokratik qadriyatlarning qaror topishini o‘zida mujassam etgan bosqichdir. Bu bosqichda “Yoshlar - davlat va jamiyatning asosiy umidi» ga aylana boshlagan.

Yoshlarning turli guruhlari uchun davlat tomonidan ko‘rsatiladigan kengaytirilgan infratuzilma xizmatlari paydo bo‘la boshlagan. Yoshlar nafaqat siyosatning ob’ekti, balki faol sub’ekgiga aylana boshlagan. To‘rtinchi bosqich, 80-yillarning boshi 90-yillarning o‘rtalarida yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va rolini baholovchi “yoshlar -bu shunchaki yoshlarda” degan yakuniy demokratik yondashuv shakllangan bosqichdir. Bu paytda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi davlatni yoshlar siyosatining yunaltiruvchiligidan ancha chetlashtirdi.

Yoshlarning o‘zi mazkur siyosatni shakllantirib, amalga oshira boshlashdi. Mazkur bosqichda davlat va nodavlat ijtimoiy xizmatlarining maqsadi nafaqat “uyushmagan yoshlar”ga, balki birinchi navbatda faol mehnat, o‘qish va professional mahoratga yo‘naltirilgan yoshlarga qaratilishi belgilandi. Beshinchi bosqich, 90-yillarning oxiridan 2001 yil 11 sentyabrgacha bo‘lgan davrda, turli hudud va mamlakat yoshlari hamda boshqa ijtimoiy guruh vakillarini mavjud zamonaviy va global muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan faol ijtimoiylashuvi va o‘zaro hamkorlikdagi kuchlarini birlashtirishni nazarda tutuvchi yoshlar siyosatini amalga oshirishning umumbashariy yondashuvi shakllantirilgan bosqich sanaladi.

Oltinchi bosqich, 2001 yil 11 sentyabrdan boshlanib, hozirgi davrgacha davom etmoqda, chunki yoshlarning aksariyati terrorchilik va boshqa zarar keltiruvchi oqimlarning qurbonlariga aylandilar va uning cho‘qqisi sifatida 2014 yil Suriya va Iroq davlatining suvga boy yerlarida Islom davlati paydo bo‘lib, uning mafkuraviy ta’siri butun dunyoga ta’sir qila boshladi. Mazkur davlatning mafkurasi bevosita Internet hamda audio va videomateriallarda tarqala boshlab, o‘z girdobiga minglab yoshlarni jalb qilish asosida qonli terrorchilik hujumlar ko‘pgina dunyo mamlakatlarida yuzaga keldi, ya’ni AQShda, Kanadada, Shri-Lankada, Suriya va Iroqda, Afg‘onistonda, Isroilda, Rossiyada, Buyuk Britaniya, Germaniya va Frantsiya mamlakatlarida. Musulmonlar ham xristian yoshlarning yovuzli terrorchilik qurbonlariga aylandilar. Chunonchi, 2019 yilning mart oylarining o‘rtalarida Kraystcherch shahrining ikkita machitlarida (Yangi Zelandiyaning Janubiy orolida) o‘q otar quroldan tegishli otishmalar yuzaga kelib, uning natijasida politsiyaning xabariga ko‘ra 50 nafar shaxs o‘ldirildi, yana 50 nafari tegishli jarohatlarga ega bo‘ldi. Yangi Zelandiyaning Bosh vaziri Djasinda Ardern bu harakatlarni terroristik harakat deb baholadi. Ko‘rinib turibdiki, oltinchi bosqichda yoshlarning e’tiqodi va sog‘lom mafkuraviy g‘oyaga ega bo‘lishi uchun yovuz ekstremistik va diniy fundamentalizmga ega bo‘lgan kuchlarga qarshi betinim mafkuraviy kurash ketmoqda va bu kurashda G‘arbning ommaviy madaniyat ta’siriga ham qarshi harakatlar olib borilmoqda.

Yoshlarni yod g‘oyalardan saqlash, o‘z fikriga ega bo‘lgan , sog‘lom dunyoqarashli qilib tarbiyalashda badiiy adabiyot samarali vositalardan biri deb hisoblayman. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar orasida kitobxonlokni targ‘ib qilishga qaratilgan say-harakatlari ham bejiz emas. Shu maqsadda bir nechta Qaror va Farmonlar qabul qilindi. 2017— 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, “2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, shular jumlasidandir. Bu harakatlari o‘z samarasini bera boshladi. Yoshlar orasida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish ortib boryapti. Yuqorida keltirilgan hujjatlarda kitob noshirlariga ham turli xil imtiyozlar berilganini ko‘rish mumkin. Kitoblarning elektron savdolari ham ancha rivojlandi va

bu rivojlanish davom etmoqda. Biz o‘qituvchilar turli xil fanlardan dars berish jarayonida o‘zimiz o‘qigan kitoblardan tinglovchilarimizga qisqacha ma’lumotlar berib borsak, bu ham o‘z natijasini beradi, ularda albatta kitob o‘qishga bo‘lgan mehr paydo bo‘ladi. Buni o‘z tajribamizda ham sinab ko‘rdik, 15-16 yoshgacha badiiy asar o‘qimagan o‘quvchilarimiz bergan tavsiyalarimizdan so‘ng bir necha kitob o‘qishga ulgurdilar va buni doimiy mashg‘ulotga aylantirdilar. Kitob targ‘ibotidagi yana bir usul deb sovg‘a sifatida yaqinlarimizga, do‘stlarimizga, o‘quvchilarimizga ham kitob bersak, bu ham o‘ziga yarasha samara berishi aniq. Xalqimizda “Eng yaxshi sovg‘a kitob” deb bekorga aytilmagan. Bo‘lajak harbiylarni strategiyalarni tushunishi, tarixni bilishi, ajdodlarimiz qanday salohiyatli bo‘lganini Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi haqidagi kitoblarni o‘qishiga bog‘liq deb o‘ylayman. Kitob mutolasi haqidagi faylasuflar fikrlari bilan mulohazalarni yakunlamoqchiman.

Kitob zamonlar dengizida sayohat qilayotgan va o‘zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga tashiyotgan hikmat kemasidir. **Frensis Bekon**

Shunday odamlarni axtaringki, ular bilan suhbat qilmoq yaxshi kitob o‘qimoqqa barobar bo‘lsin. Shunday kitoblarni axtaringki, mutolaasi faylasuflar suhbatiga teng bo‘lsin. **A. H. Baxmanyor**

Yaxshi kitoblarni bugun o‘qing, yomon kitoblarni o‘qishga ertaga albatta vaqt topiladi. **Isaak Barrou**

Nodonlar-la o‘tirib-turmoqdan kitob bilan yolg‘iz qolmoq yaxshiroqdir. **Qosimbek Zokir**

Kitoblar sizni minglab asr avval dunyodan o‘tgan dohiylar bilan uchrashtiradi. **Rene Dekart**

Kitoblarim men uchun butun umrga yetajak ulkan qirollikdir. **Shekspir**

Men kitoblarni emas, kitoblar meni yaratdi. **Mishel de Monten**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Shavkat Mirziyoyev
2. Xalq so‘zi.uz sayti

HARBIY TAYYORGARLIKDA OG‘IR ATLETIKA VA PAURLIFTING SPORT TURLARINING O‘RNI

Shaxnazarov Shavkat Xalliyevich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy-amaliy” fanlar kafedrasi mudiri

Dolzarbligi. Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi ularning jangovar shayligi va samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Kuch, chidamlilik va tezkorlikni rivojlantirish harbiy mashg‘ulotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bunda og‘ir atletika va paurlifting kabi kuch sport turlarining ahamiyati katta. Ushbu sport yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning mushak kuchini oshirish, tana

bardoshligini mustahkamlash va turli ekstremal sharoitlarda samarali harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu mavzu harbiy tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Og‘ir atletika va paurlifting bilan shug‘ullanishning ahamiyati:

- Harbiy xizmatchilarning mushak kuchi va jismoniy bardoshligini oshiradi.
- Og‘ir yuk bilan harakat qilish va jangovar jihozlarni ko‘tarishda samaradorlikni oshiradi.
- Portlovchi kuch va tezlikni rivojlantirib, jangovar mashg‘ulotlarda tezkor va kuchli harakat qilish imkoniyatini yaratadi.
- Chidamlilik va stressga bardoshlilikni mustahkamlab, og‘ir sharoitlarda samarali harakat qilishga yordam beradi.
- Jamoaviy hamkorlik va irodani shakllantirib, harbiy xizmatchilarning intizomi va motivatsiyasini oshiradi.

Maqsad– harbiy tayyorgarlik tizimida og‘ir atletika va paurlifting mashg‘ulotlarining samaradorligini o‘rganish va harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini tahlil qilish. Shuningdek, ushbu sport yo‘nalishlarining harbiy tayyorgarlik dasturlariga integratsiyasi bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham asosiy maqsadlardan biridir.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ushbu tadqiqotda harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda og‘ir atletika va paurlifting mashg‘ulotlarining samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ikki guruh harbiy xizmatchilarning jismoniy ko‘rsatkichlari taqqoslandi: tajriba guruhi (TG) – og‘ir atletika va paurlifting asosida mashg‘ulot olib borganlar, va nazorat guruhi (NG) – odatiy harbiy jismoniy tayyorgarlik dasturi bo‘yicha shug‘ullanganlar.

1. Jismoniy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, og‘ir atletika va paurlifting mashg‘ulotlarini o‘z ichiga olgan harbiy tayyorgarlik tizimi ishtirokchilarning umumiy jismoniy kuchi, chidamliligi va tezkorligini sezilarli darajada yaxshiladi. Quyidagi jadvalda ikki guruhning 6 oylik mashg‘ulotlardan keyingi asosiy jismoniy ko‘rsatkichlari aks ettirilgan:

1- Jadval. Jismoniy ko‘rsatkichlarning taqqoslanishi

№	Ko`rsatgich nomi	Boshlang‘ich ko‘rsatkichlar (o‘rtacha)	6 oydan keyin (NG)	6 oydan keyin (TG)	O‘sish (%) TG
1	Maksimal kuch (Squat, kg)	110 kg	125 kg	150 kg	+36%
2	Maksimal kuch (Deadlift, kg)	120 kg	135 kg	170 kg	+42%
3	Portlovchi kuch (Clean & Jerk, kg)	85 kg	92 kg	115 kg	+35%
4	3 km yugurish vaqti (min)	13:50	12:40	11:55	-11% (tezlashish)
5	Chidamlilik **Push-ups** – yerda tirsak bukib ochish, chidamlilikni oshiradi.	45 marta	52 marta	65 marta	+44%

6	Chidamlilik (marta) **Pull-ups** – turnikda tortilish, yuqori tanani kuchaytiradi.	12 marta	14 marta	19 marta	+58%

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, **tajriba guruhi** vakillari nafaqat maksimal kuch ko‘rsatkichlarini oshirishga, balki umumiy chidamlilik va tezkorlikni ham yaxshilashga muvaffaq bo‘lishdi. Bu esa harbiy sharoitlarda og‘ir yuk ko‘tarish, uzoq muddatli yuklamalarga bardosh berish va portlovchi kuch bilan tezkor harakat qilish kabi jihatlarni rivojlantirishda katta ustunlik beradi.

2. Harbiy tayyorgarlikdagi funksional yaxshilanishlar

2-jadval. Harbiy tayyorgarlikdagi funksional o`zgarishlarning ko`qrsatgichlar

№	Funksional ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (NG)	Tajriba guruhi (TG)	Ko`rsatgich (%)
1	Yuk bilan yurish (20 kg, 5 km)	32 daqiqa	**28 daqiqa**	+12%
2	Yuk bilan yugurish (15 kg, 3 km)	15:30 daqiqa	**13:45 daqiqa**	+11%
3	Portlovchi kuch (Snatch, kg)	70 kg	**90 kg**	+28%
4	Reaksiya tezligi (sekund)	0.48 sek	**0.41 sek**	+15%
5	Qo‘l jangi samaradorligi	O‘rtacha	**Yuqori**	+20%
6	Chidamlilik (20 kg yuk bilan 10 km yurish)	1 soat 25 min	**1 soat 10 min**	+18%
7	Himoya va qarshi hujum harakatlari	Normal	**Tezkor va samarali**	+22%
8	Jismoniy zo‘riqishga bardoshlilik	O‘rtacha	**Yuqori**	+19%

Harbiy operatsiyalar davomida og‘ir yuklarni ko‘tarish va ko‘chirish (masalan, qurol-aslaha, jabduqlar, jarohatlanganlarni evakuatsiya qilish) talab etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, paurlifting bilan shug‘ullangan harbiylar **20-15 kg ortiqcha yuk bilan yurish va yugurish** bo‘yicha **13% tezroq natijalar ko‘rsatdi.**

Og‘ir atletika mashg‘ulotlari (ayniqsa, **Clean & Jerk**) harbiy xizmatchilarning portlovchi kuchini oshirishga yordam berdi. Bu esa jangovar sharoitlarda tezkor harakat qilish va reaktsiyani yaxshilash uchun muhim.

Clean & Jerk (Siltab ko‘tarish) Bu mashq ikki bosqichdan iborat:

1.Clean (Silkitib ko‘tarish) – shtangani polga tegib turgan holatdan tezkor ravishda yelkalarga olib chiqish.

2.Jerk (Siltab bosish) – yelkalarda turgan shtangani kuchli turtib boshi uzra ko‘tarish.

Foydasi: Portlovchi kuch va koordinatsiyani rivojlantiradi. Harbiy yuklarni tez va samarali ko‘tarish qobiliyatini oshiradi. Yelka, qo‘l, son va kor (tanani ushlab turuvchi) mushaklarini mustahkamlaydi.

Ko‘proq harbiylar va sportchilar tomonidan ishlatiladi, chunki u kuch va tezlikni birgalikda rivojlantiradi.

Ko‘p soatlik harbiy topshiriqlar va mashg‘ulotlar davomida jismoniy bardoshlilik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tajriba guruhi ishtirokchilari **uzoq muddatli yuklamalarga bardosh berish bo‘yicha 20% yaxshiroq natijalar** ko‘rsatdi.

Paurlifting va og‘ir atletika nafaqat kuch va chidamlilikni oshirdi, balki **jismoniy kontakt bilan bog‘liq topshiriqlarda ham ustunlik berdi**. Masalan, qo‘l

jangi va himoya mashg‘ulotlarida **paurlifting bilan shug‘ullangan harbiylar raqibni tormozlash yoki uni yerga urishda ko‘proq ustunlikka ega bo‘ldi.**

Tajriba guruhi ishtirokchilari og‘ir atletika va paurlifting mashg‘ulotlari tufayli **tezroq harakatlanish, ko‘proq yuk ko‘tarish, uzoqroq bardosh berish** va jangovar vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshiladilar.

Xulosa va tavsiyalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, og‘ir atletika va paurlifting mashg‘ulotlarini harbiy tayyorgarlikka integratsiya qilish quyidagi ustunliklarni beradi:

Kuch va chidamlilikni oshishi – harbiylar og‘ir yuklarga va uzoq davom etadigan jismoniy yuklamalarga bardosh bera oladi.

Tezlik va portlovchi kuchning rivojlanishi – jangovar sharoitlarda tezkor harakat qilish va reaksiyani oshirish imkoniyati ortadi.

Maksimal quvvatni ishlatish qobiliyatining yaxshilanishi – yukni ko‘tarish, jabduqlarni kiyish va jangovar topshiriqlarni bajarish samaradorligi oshadi. **Jismoniy va ruhiy chidamlilikning mustahkamlanishi** – og‘ir atletika va paurlifting mashg‘ulotlari sportchilarda qat’iyat va iroda kuchini shakllantiradi.

Shu sababli, harbiy tayyorgarlik dasturlariga **og‘ir atletika va paurlifting mashg‘ulotlarini kiritish tavsiya etiladi.** Bu harbiy xizmatchilarning umumiy jismoniy holatini yaxshilash bilan birga, ularning jangovar shayligini ham sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.Федорцов Д. И., Аржаков В. В. Проблемы физической подготовленности военнослужащих-спортсменов разнонаправленных видов спорта, с учётом их антропометрических и функциональных показателей //Сборник статей итоговой научной конференции военно-научного общества курсантов военного института физической культуры за 2018 г. – 2019. – С. 265-271.

2. Дроботов С., Чорный С. Физическое воспитание в системе подготовки профессиональных кадров в области личной охраны //Sport. Olimpism. Sănătate. – 2022. – С. 389-394.

3. Дворкин Л. С. Тяжелая атлетика. – 2005.

4. Казаков Р. Ю. Пауэрлифтинг как средство развития физических качеств и укрепления здоровья суворовцев старших курсов //Актуальные проблемы реализации образовательного процесса в вузах и общеобразовательных организациях МО РФ//Сборник научных статей межвузовской научно-практической конференции.–СПб.: ВИФК, 2018.–250 с. – 2018. – С. 68.

5. Виноградов Г. П. Атлетизм как национальная идея формирования здорового образа жизни //Теория и практика физической культуры. – 2006. – №. 10. – С. 55-57.

HARBIY-AKADEMIK LITSEYLARDA JISMONIY TARBIYA FANINING O‘TILISHINI AHAMIYATI

Shaxnazarov Shavkat Xalliyevich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy-amaliy fanlar” kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy-akademik litseylarda jismoniy tarbiya fanining o‘tilishining ahamiyati tahlil qilinadi. Jismoniy tarbiya nafaqat o‘quvchilarning jismoniy holatini yaxshilash, balki ularning ruhiy barqarorligini mustahkamlash, ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Maqolada jismoniy tarbiyaning harbiy tayyorgarlik, intizom, jamoaviy ish va psixologik bardoshlilikni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchilar harbiy xizmatda zarur bo‘lgan jismoniy va ruhiy fazilatlarni o‘zlashtiradilar, bu esa ularning harbiy rahbar sifatida samarali ishlashiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Harbiy-akademik litsey**,** jismoniy tarbiya**,** harbiy tayyorgarlik**,** ruhiy barqarorlik**,** jismoniy sog‘lomlik**,** psixologik bardoshlilik**,** jamoaviy ish**,** intizom**,** harbiy rahbar

Kirish.

Jismoniy tarbiya harbiy-akademik litseylarda nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki shaxsiy kamolot va harbiy mahoratni rivojlantirish uchun muhim fan hisoblanadi. Jismoniy faollik va sport turli xil jarayonlarni rag‘batlantirib, kishilarning aqliy va jismoniy jihatdan tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu maqolada jismoniy tarbiyaning harbiy-akademik litseylarda o‘tilishining ahamiyati tahlil qilinadi.

Harbiy-akademik litseylarda jismoniy tarbiya fanining maqsadlari

Harbiy-akademik litseylarda jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi – yoshlarga faqat jismoniy kuch emas, balki ma’naviy va ruhiy barqarorlikni ham shakllantirishdir. Jismoniy tarbiya orqali o‘quvchilar:

- Jismoniy mustahkamlikka erishadilar.
- Tezkor va aniq qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.
- Harbiy mahoratni o‘zlashtirishda zarur bo‘lgan jismoniy va ruhiy xususiyatlarni hosil qiladilar.
- Jamoada ishlash, o‘zaro hurmat va intizomni o‘rganadilar.

Jismoniy tarbiyaning harbiy maqsadlar bilan aloqasi

Harbiy-akademik litseylarda jismoniy tarbiyaning alohida ahamiyati shundaki, harbiy xizmatda bo‘lajak ofitserlar yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Jismoniy faollik harbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun:

- Muayyan harbiy texnikalarni egallash uchun jismoniy kuch va chidamlilik zarur.
- Jismoniy faollik jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining jismoniy imkoniyatlarini yaxshilab, harbiy operatsiyalarni samarali amalga oshirishga tayyor bo‘ladilar.

- Harbiy sharoitda stressni boshqarish va tez qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Jismoniy tarbiya va ma’naviy-ruhiy sog‘lomlik

Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy holatni yaxshilash, balki ruhiy barqarorlikni ta’minlashda ham o‘rni katta. Harbiy-akademik litseylarda o‘tiladigan jismoniy mashqlar va sport musobaqalari:

- O‘quvchilarni qat’iyatli bo‘lishga o‘rgatadi.
- Raqobatni qabul qilish, yengilish va g‘alabaga bo‘lgan munosabatni shakllantiradi.
- Psixologik bardoshlilikni oshiradi, bu esa harbiy xizmatda muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy tarbiyaning kadrlar tayyorlashdagi roli

Jismoniy tarbiya harbiy xizmatda yuqori darajali kadrlar tayyorlashning ajralmas qismidir. O‘quvchilar:

- Jismoniy va ruhiy jihatdan tayyor bo‘lishlari zarur.
- Shaxsiy va jamoaviy maqsadlarga erishish uchun aqliy va jismoniy salohiyatni muvozanatli ravishda rivojlantirishadi.
- Harbiy rahbar sifatida yuqori etika va intizomni o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, Harbiy-akademik litseylarda jismoniy tarbiya fanini o‘rganish, nafaqat harbiy xizmatga tayyorlanish, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, shaxsiy ma’naviy-ruhiy barqarorlikni oshirish uchun ham zarur. Jismoniy tarbiya harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini, qaror qabul qilish qobiliyatini va jismoniy sog‘lomligini ta’minlashga yordam beradi. Shuningdek, bu fan harbiy rahbarlar uchun zarur bo‘lgan psixologik va jismoniy salohiyatni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Azimov, B. K. (2010). «Jismoniy tarbiya va sportning harbiy sohada ahamiyati» . Toshkent: Harbiy akademiya.
2. Xolov, F. B. (2015). «Pedagogikada jismoniy tarbiya metodlari» . Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Yusupov, S. T. (2012). «Harbiy kadrlarni tayyorlashda jismoniy tarbiyaning o‘rni» . Harbiy pedagogika jurnali, 3(12), 45-52.
4. Tashkent State University of Economics (2018). «Jismoniy tarbiya va sportning harbiy-ta’lim tizimidagi o‘rni» . Journal of Military Education, 5(1), 33-39.
5. Gafurov, A. G. (2016). «Harbiy maqsadlar uchun jismoniy tayyorgarlik» . Harbiy bilimlar to‘plami, 10(3), 78-85.
6. Jabborov, M. A. (2014). «Harbiy-akademik muassasalarda jismoniy tarbiya va sport turlari» . O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sporti jurnali, 9(4), 18-22.
7. Shomurodov, R. (2019). «Jismoniy tarbiya va sport: ta’lim tizimida muhim masalalar» . Toshkent: Akademnashr.
8. Yusupov, I. R. (2017). «Jismoniy tarbiya va harbiy xizmatda ruhiy barqarorlikni oshirish» . Pedagogika va psixologiya jurnali, 11(7), 45-50.

O‘SMIRLARDA KUZATILADIGAN SALBIY XULQ-ATVOR GURUHLARI

Usmanov Nusratillo Raxmatullayevich,
DXX ChQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy va amaliy fanlar” kafedrasi
psixologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ishda o‘smirlar orasida kuzatiladigan salbiy xulq-atvor guruhlari tahlil qilinadi. O‘smirlik davri – shaxsiy rivojlanish va ijtimoiylashish jarayonidagi muhim bosqich bo‘lib, bu davrda o‘smirlar turli ijtimoiy muhitlarda o‘zlarini topishga harakat qiladilar. Biroq, ba’zi o‘smirlar salbiy xulq-atvor guruhlariga qo‘shilishadi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga, o‘qish va ijtimoiylashishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu guruhlar, odatda, negativ o‘rganish va madaniyatni targ‘ib qilish bilan bog‘liq bo‘lgan faolliklarni amalga oshiradilar. Salbiy xulq-atvor guruhlari orasida giyohvandlik, jinoyatchilik, agressiv xatti-harakatlar va maktabda muvaffaqiyatsiz o‘qish kabi holatlar keng tarqalgan.

Kalit so`zlar: Komil inson, o‘smirlar, salbiy xulq-atvor, ijtimoiylashuv, giyohvandlik, jinoyatchilik, agressiv xatti-harakatlar, temperament, ota-ona ta’siri, do‘stlik va ijtimoiy muhit, shaxsiy rivojlanish, salbiy guruhlar, o‘smirlik davri.

Komil inson deganda biz: “Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, bilimli, hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashdagining o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, mexanizmlari o‘zida qamrab olgan shaxs”ni tushunamiz. Shuni alohida takidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatlarda anglashilmovchilikni bartaraf qiladi, iliq psixologik iqlimni yaratadi. Hozirgi kunda o‘smirlar taqdiri masalasi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘smirlik davri taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta’sirlarga beriluvchan o‘smir o‘g‘il-qizlarga alohida e’tibor berish zarur. O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, talaba bilan o‘qituvchining muloqatida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida hayotiy o‘zgarishlar vujudga keladi.Bu o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug‘iladi.

Bular avvalo ta’lim jarayonida ro‘y beradi: yangi axborot ma’lumotlarini bayon qilish shakli, uslubi va usullari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. O‘smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning qayg‘urishi, koyishiga qaramay, o‘zining fikrini o‘tkazishga harakat qiladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatining ajralmas qismiga aylanadi. Ayrim pedagoglar kuyinib gapiradilar, ba’zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar, lekin mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik

kamolotni ta’minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo‘qotish mumkin. [1. 184-b]

Xulq-atvor motivlarining noto‘g‘ri rivojlanishi yoki kuchli affektli his-tuyg‘ular ya’ni turli tartib intizomsizliklar, atrofdagi insonlar bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish natijasida turli konfliktlarning vujudga kelishi, turli tasodifiy guruhlarga kirish,jamoada o‘zini ko‘rsatishga intilish kabilarda kuzatiladi.[2.132-b]

O‘quvchi o‘smirlarning maktabdagi tartib qoidalarni tushunib yetmaslik yoki o‘zlarining xulq-atvorini boshqara olmaslik, agressivlik ya’ni jismoniy kuch ishlatish, qo‘rqitish, serzardalik kabi bu ikki faktor asosida vujudga keladi. Birinchidan temperament xususiyati, ikkinchidan o‘qituvchi va tengdoshlari bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar shakllanishining yana bir asosiy omili bu o‘smirlarning shaxsiy psixologik xususiyatlaridir:

Sangvinik temperamentdagi o‘smirlarda his-tuygular tashqi ko‘rinishda yorqin ifodalangan bo‘ladi: Ma’noli mimika, aniq imo ishora, tez harakat qilish, tez gapirish, beqarorlik, harakatchanlik, chaqqonlik. Sangvinik o‘smirlarning kayfiyati tez o‘zgaradi. Bu tipdagi o‘smirlar boshqalar bilan tez topishib ketadi. Ularda o‘quv ishlarida, mehnatda va jamoat ishlarida faollikni tarbiyalash lozim. Ularni boshqa ishlarga berilib ketmasligi uchun doimo nazorat qilish va kuchi yetadigan ish bilan band qilish kerak.

Flegmatik temperamentdagi o‘smir og‘ir, vazmin, harakatlari salmoqli bo‘ladi. Ular boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. Flegmatik tipdagi o‘smirlarda barcha psixik jarayonlar sust rivojlangan bo‘ladi. Ularning jahlini chiqarish yoki ranjitish qiyin, ba’zi hollarda bu temperamentli o‘smirlarda mehnatga, tevarak atrofga, hayotga kishilarga va o‘ziga nisbatan beparvo munosabat hollari uchraydi. Shuning uchun ulardagi sovuqqonlik, beparvolik, bo‘shanglik, faoliyatsizlikning nomoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Xolerik temperamentdagi o‘smirlar chaqqon, harakatchan, qo‘zgaluvchan bo‘ladilar. Ularda barcha jarayonlar tez sodir bo‘ladi. Bu tipdagi o‘smirlar hissiyotlari kuchli, yorqin ifodalanib tez paydo bo‘ladi, ba’zan kayfiyati keskin o‘zgaradi. Xolerik tipdagi o‘smir boshqalar bilan munosabatda qat’iylik, serjahllik va o‘zini tuta olmaslikka yo‘l qo‘yadi. Natijada kishilar xatti-harakatini ob’yektiv baholay olmaydi va ziddiyatli vaziyatlar tug‘diradi. Haddan ortiq dangallik, serjahllik, ko‘ngilga qattiq tegadigan so‘zlar ishlatishi tufayli bunday o‘smirlarni jamoada yoqtirmaydilar. Xolerik tipdagi o‘smirlardan doimo muloyimlik bilan, ammo qat’iyatli, shoshilmay, o‘ylab javob qaytarishlarini talab qilish, ular xatti-harakatlarida o‘rtoqlari va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarida o‘zini tutishlikni tarbiyalab borish lozim. Bunday o‘smirlardan mehnat faoliyatida izchillikni va ishda tartibli bo‘lishni tarbiyalash hamma topshiriqlarni ish mobaynida yaxshi bajarishlarini talab qilish lozim.

Melanxolik temperamentdagi o‘smirlarda psixik jarayonlarning sust o‘tishi qayd qilinadi. Ular kuchli qo‘zg‘ovchilarga qiyinchilik bilan javob qaytaradilar, diqqatlarini bir narsaga uzoq vaqt va kuchli jalb eta olmaydilar. Bunday tipdagilar ishga passiv, kam qiziquvchan bo‘ladilar, ularda hissiyot va hayajonli holatlar keskin

paydo bo‘ladi va chuqur, davomli bo‘ladi. Ularni ranjitish oson, xafagarchilikka bardosh bera olmaydilar. Melanxolik tipdagi o‘smirlar odamlar bilan aralashmaslikka va yolg‘izlikka moyil bo‘ladilar lekin odatlangan sharoitda o‘zlarini erkin his qiladilar va unumli ishlaydilar. [3. 146-b]

Maktab, akademik litsey, kasb-hunar ta’limi tizimi va ishlab chiqarishdagi ta’lim tarbiya nuqsonlari, ko‘cha, mahalla salbiy xulq atvorini «qaxramon» tarzida talqin qiluvchi ko‘chadagi guruhbozlik ta’sir etadi. O‘smirlik yoshida katta yoshdagilar, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan kelishmovchilik ro‘yobga chiqadiki, bu faqat tabiiy o‘sish jarayonidagi o‘zgarishlar bilan nomaqbul oilaviy shart-sharoitlar tarbiyasi og‘ir o‘smir shaxsining shakllanishida eng asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Ota-onalarimizning janjal to‘polonlari, o‘smirlarning jismoniy jazolanib turilishi tabiyaviy ravishda tormozlashuv me’yorlarining buzilishiga, qiziqqonlik yoki qo‘zg‘aluvchanlik, o‘zini qo‘lga ola bilmaslik kabi illatlarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Biroq yomon ota-onaning bolasi albatta yomon bo‘ladi deb hisoblash xatodir. O‘smir nomaqbul tashqi ta’sirlarni o‘zi istaganicha rang barang tarzda idrok etadi va o‘zlashtiradi. U salbiy ta’sirlarni qabul qilmasligi, rad etishi, ularga qarshi kurashishi mumkin. Odatda dastlabki tergovda voyaga yetmagan xuquqbuzarning shaxsi quyidagi reja bo‘yicha o‘rganiladi:

1. Nasliy biologik omillar: ota-onalardan birining asab va psixik kasalliklarga moyilligi, homiladorlik qilishning salbiy ta’siri va hokazolar.

2. O‘smirning eng yaqin ijtimoiy iqtisodiy mavqelari, oiladagi o‘zaro munosabatlar, ular tanlagan qadriyatlar, o‘smirlarning tarbiyalanish xususiyatlari, maktabga, o‘qishga munosabat, o‘smirning sinfdagi tutgan o‘rni, sinfdoshlarining ma’naviy yo‘nalganligi, do‘stlar, ularning ijtimoiy mavqei, do‘stlar guruhida o‘smirning mavqei.

3. O‘smirning shaxsiy ta’rif tasnifi: xarakteri va temperamentining xususiyatlari, qadriyat motivatsiya majmui, o‘smirning qanday qadriyatlarga yo‘nalganligi, da’volarining darajasi, o‘z-o‘zini baholashi va o‘z-o‘zini baholashdagi murosasizlik ehtimollari, kasbkorga munosabati, huquqiy ongi.

4. Voyaga yetmagan gumondor yoki ayblanuvchining turmushi va tarbiyaviy sharoitlarini bilib olish uchun boshqa sohalarning: oilasi, ish yoki o‘qish joyini ham o‘rganish lozim. O‘smir jinoyat sodir etgunga qadar darslarga qatnaganligi, maktabda nimalarga qiziqqan, jamoatchilik topshiriqlariga qanday yondashardi, boshqa maktabdoshlari bilan muomalasi qanday edi, odamlarga kirishuvchan yoki ichimdagini top, rostgo‘y yoki saxiy, jamoa fikrini inobatga oladimi, o‘qituvchilari va ota-onalarga bevosita munosabati qanday bularning hammasini surushtirib bilish talab qilinadi.

Psixologiya fani faqat nazariyagina emas, amaliyotni ham qamrab oluvchi ko‘p tarmoqli belgilar majmuidan iborat bo‘lib, turli tuman fanlar uyg‘unlashtirilgan holda tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi. Ana shunday tadqiqotlarning xulosalari psixologiyaning umumnazariy va metodologik konsepsiyalarini qayta mushohada etish imkonini yaratadi. [4. 178-b]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Petrovskiy A.B. tahriri ostida: «Psixologiya» . Toshkent, «O‘qituvchi» , 1979
2. Platonov K.K. «Qiziqarli psixologiya» . Toshkent, «O‘qituvchi» , 1971.
3. Safoyev N., Gaffarov B. «Muomala sirlari» . Toshkent, «Navro‘z» , 1992
4. Xoxlova L.P. «Talabalar uchun psixologiyadan topshiriqlar» . Toshkent, O‘qituvchi» , 1977.

HARBIY AKADEMIK LITSEYLARDA AVHT FANINI O‘TISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Saydalimov Sirojiddin Murodullayevich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy-amaliy” fanlar kafedrasi
AVHT fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola harbiy akademik litseylarda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, kasbiy fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi, ahamiyati va afzalliklarini tahlil qiladi. Maqolada VR (virtual haqiqat), AR (kengaytirilgan haqiqat), simulyatsiya, gamifikatsiya, masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilini o‘qitishda qanday samarali qo‘llanilayotgani ko‘rsatilgan. Innovatsion texnologiyalarning harbiy ta’limda qo‘llanilishi nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini yaxshilash, balki ularga harbiy strategiyalarni o‘rganish va turli vaziyatlarda qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Maqola harbiy litseylarda zamonaviy texnologiyalarni o‘qitishga oid tavsiyalar va amaliy ko‘rsatmalar beradi.

Kalit so‘zlar: Harbiy akademik litseylarda ta’lim**,** axborot va kommunikatsiya texnologiyalari**,** innovatsion texnologiyalar**,** virtual haqiqat (vr)**,** kengaytirilgan haqiqat (ar)**,** simulyatsiya**,** gamifikatsiya**,** masofaviy ta’lim**,** sun’iy intellekt**,** harbiy ta’lim samaradorligi**,** o‘quv jarayoni modernizatsiyasi.

Kirish

Bugungi kunda axborot texnologiyalari har bir soha, jumladan, harbiy ta’limni ham rivojlantirishda asosiy vositaga aylangan. Harbiy akademik litseylarda Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quvchilarga zamonaviy harbiy texnologiyalarni tushunishga, ulardan foydalanishga yordam beradi. Ushbu maqolada, kasbiy fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qanday samarali qo‘llash mumkinligi va uning harbiy ta’limga ta’siri tahlil qilinadi.

I. Harbiy-akademik litseylarda kasbiy faninng: o‘rni va ahmiyati

Kasbiy fanlarni harbiy litseyda nafaqat axborot texnologiyalari haqida bilimlarni oshirish, balki o‘quvchilarni harbiy soha bilan bog‘liq eng so‘nggi texnologik yangiliklar bilan tanishtirish uchun ham zarur. Harbiy operatsiyalarni samarali boshqarish, zamonaviy jangovar texnika va tizimlarni tushunish uchun kasbiy fanlarning o‘rni muhimdir.

Innovatsion texnologiyalar yordamida kasbiy fanlarni o‘qitishning asosiy maqsadi – harbiy kadrlarni nafaqat klassik bilimlar bilan, balki zamonaviy texnologik ko‘nikmalar bilan ham ta’minlashdir.

II. Innovatsion texnologiyalarni kasbiy fanlarda qo‘llash usullari

1. **Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR)**: VR va AR texnologiyalari yordamida harbiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish va o‘quvchilarga virtual jangovar hududlarni ko‘rsatish, shuningdek, harbiy texnikaning ishlashini o‘rgatish imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilar real vaqt rejimida qarorlar qabul qilishni va vaziyatni tahlil qilishni o‘rganishadi.

2. **Simulyatsiya va modellash**: Harbiy axborot tizimlarining, kompyuter simulyatsiyalari va o‘yinlar orqali harbiy operatsiyalarni o‘rganish samarali bo‘lishi mumkin. Kompyuter tizimlari yordamida o‘quvchilar turli jangovar vaziyatlarni modellash va tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu, shuningdek, harbiy strategiya va taktikalarning amaliy qo‘llanilishi uchun foydalidir.

3. **O‘yinlash (Gamifikatsiya)**: O‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilish uchun o‘yin elementlaridan foydalanish. Misol uchun, harbiy vazifalar yoki strategiyalarni o‘yin shaklida o‘rgatish, bu esa o‘quvchilarga o‘z ko‘nikmalarini amaliyotda sinab ko‘rishga imkon yaratadi.

4. **Masofaviy ta’lim va elektron o‘quv materiallari**: Onlayn darslar, videomateriallar, interaktiv ta’lim resurslari va testlar yordamida o‘quvchilarni masofaviy ta’lim tizimi orqali bilim olishga yo‘naltirish. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda joylashgan litseylarda ta’limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

5. **Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili**: Harbiy axborot tizimlarining samarali ishlashi uchun sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilini qo‘llash. O‘quvchilar axborot tahlili yordamida ma’lumotlarni tezkor tahlil qilishni o‘rganadilar, bu esa harbiy qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

III. Innovatsion texnologiyalarning harbiy-akademik litseylardagi afzalliklari

1. **Ta’limning sifatini oshiradi**: Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘rgatish mumkin. O‘quvchilar zamonaviy texnologiyalarni tushunib, ulardan foydalanishni o‘rganadilar.

2. **Motivatsiyani oshiradi**: Interaktiv darslar va gamifikatsiya orqali o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Bu, o‘z navbatida, bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi.

3. **Zamonaviy harbiy texnologiyalarga tayyorlaydi**: O‘quvchilarni zamonaviy harbiy texnika va tizimlar bilan tanishtiradi. Bu esa ularning harbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

4. **Masofaviy va individual ta’lim imkoniyatlari yaratadi**: Masofaviy ta’lim tizimlari va onlayn platformalar yordamida o‘quvchilarga o‘z vaqtida bilim olish va o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu esa ta’lim jarayonining fleksibil bo‘lishini ta’minlaydi.

IV. Innovatsion texnologiyalarning kengaytirilgan imkoniyatlari

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish harbiy akademik litseylarda nafaqat ta’limni zamonaviylashtirishga, balki o‘quvchilarni nafaqat teoriya, balki amaliyotda ham tayyorlashga imkon beradi. VR, AR, simulyatsiya, sun’iy intellekt va boshqa texnologiyalar yordamida o‘quvchilarni harbiy vaziyatlarga tayyorlash samarali bo‘ladi.

V. Xulosa

Harbiy-akademik litseylarda Kasbiy fanlarni innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish, o‘quvchilarni nafaqat zamonaviy harbiy texnologiyalar bilan tanishtirish, balki ularga real vaziyatlarda qaror qabul qilish, axborotlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni o‘rgatishga xizmat qiladi. Bu o‘quv jarayonini samarali va interaktiv qilishga, harbiy ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Akhmedov, A. (2021). «Innovatsion texnologiyalar va ularning ta’lim tizimidagi roli.» Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 12(3), 25-35.
2. Isakov, B. (2022). «Harbiy ta’limda axborot texnologiyalarining o‘rni.» Harbiy fanlar, 16(2), 45-57.
3. Jumayev, F. (2020). «Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimida qo‘llanilishi.» O‘qituvchilar uchun qo‘llanma, Tashkent: Ma’naviyat.
4. Xudoyberganov, A., & Karimov, M. (2019). «Virtual haqiqat va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishi.» Innovatsiyalar va texnologiya, 10(4), 65-78.
5. Park, S. (2023). «Gamifikatsiya va sun’iy intellekt orqali ta’lim samaradorligini oshirish.» International Journal of Education Technology, 25(1), 11-22.

INNOVATSION METODLARNI O`SPIRIN YOSHDAGI BOLALARGA MUAMMOLI VAZIYATLAR ASOSIDA PSIXOLOGIK TAYORLASH

Shodiyeva Nodira Normamatovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Pedogogika va Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Telefon: +998978071007 gmail: shodiyevan22@gmail.com

Har qanday kasbiy ko‘nikma va malakalarning o‘sishi, avvalo, o‘spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o‘spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. O‘zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto‘g‘ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o‘spirinlar o‘z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

Ilk o‘spirinlik yoshidagi bolalar bu 15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo‘lganlardir. O‘spirinlik — bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma’naviy sifatlari tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o‘qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o‘spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga urg‘u beradi: o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o‘z-o‘zini anglashga va axloqiy ongga ta’siri nazarda tutiladi. Ilk o‘spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo‘lar ekanlar, o‘zlarining hayot yo‘llarini belgilab olishga, bundan buyongi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollarini aniqlab olishga, o‘zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq boiib qoladi, yigit va qizlar o‘z kelajaklari haqida jiddiyroq o‘ylay boshlaydilar. Ilk o‘spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish ustida to‘xtalib o‘tamiz, bu narsa quyidagi sabablarga ko‘ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o‘spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi va uning bundan keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarin bir qadar belgilab beradi. Birinchidan bu o‘rinda kasb tanlash nazarda tutiladi, bu esa ma’lum darajada yigit va qizlarning individual jismoniy tuzilishi xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Ikkinchidan, jinslarning o‘zaro mayli ta’sir ko‘rsatadiki, bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o‘ynaydi. O‘zining jismoniy kuchini va jozibadorligini, sog‘lomligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o‘ziga ishonch, dadillik, tetiklik, optimizm va xushchaqchaqlik singari sifatlarning tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Ta’lim to‘g‘risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo‘llanildi.

Ilk o‘spirinlarning bilish jarayonlari shunday darajaga yetadiki, kattalar bajaradigan barcha aqliy ishlarni bajarishga amaliy jihatdan tayyor bo‘ladilar. Ularning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo‘lib boradi. Ular bu yoshga kelib jiddiy ishlarga ko‘p vaqtlarini ajrata boshlaydilar, dam olish va o‘yin-kulguga juda kam vaqt ajratadilar. Ularning barcha bilish jarayonlari, jumladan, xayol, xotira, nutq, tafakkur rivojlanadi. Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlari turli nuqtayi nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo‘yicha har tomonlama fikr yuritishga yordam bera oladi. Bilishga qiziqishning rivojlanishi, o‘qishga ongli munosabatda bo‘lishning o‘sishi bilish jarayonlarining ixtiyoriyligini, ularni boshqara olish mahoratini yanada rivojlantirishga undaydi. Bu yosh davrining oxiriga borib, o‘quvchilar o‘zlarining bilish jarayonlarini to‘la-to‘kis egallab oladilar, ularni hayot va faoliyatning muayyan vazifalariga bo‘ysundiradilar. Ular axloqiy va siyosiy va boshqa mavzular bo‘yicha erkin fikrlaydilar. Ilk o‘spirinlarga

umumiydan xususiyga, xususiydan umumiyga xulosa chiqarish, ya’ni induksiya va deduksiya xosdir. Ilk o‘spirinlar ko‘pchilik ilmiy tushunchalarni o‘zlashtiradilar, turli masalalarni yechish jarayonida ulardan foydalanishni o‘rganadilar. Bu esa ularda nazariy yoki so‘zmantiq tafakkurning rivojlanganligini bildiradi. Kuzatish aniq maqsadga qaratilgan va yanada sistemali bo‘lib boradi. Shaxsning kuzatuvchanlik xususiyati rivoj topadi. O‘spirinlarda moddiy dunyo to‘g‘risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ilk o‘spirinlik yoshi emotsional holatlarni ifodalash usullari va emotsional reaksiyalarning differensiallashishini hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini boshqarishning ortishini kuzatish mumkin. Ilk o‘spirinlarning kayfiyati o‘smirlarga nisbatan barqaror va anglangan hamda ijtimoiy sharoitning keng doirasiga mos bo‘ladi. Doimo hissiyot vujudga keltiradigan shaxsiy muhim munosabatlar doirasining kengayishi oliy hislarning rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Axloqiy norma va tamoyillarning ma’lum tizimini o‘zlashtirish jamiyat va boshqa odamlar oldida mas’uliyat hissi, hamdardlik qobiliyati, do‘stlik va muhabbat ehtiyoji, o‘rtoqlik hissi va axloqiy-siyosiy hislar kabi yuksak axloqiy hislarga aylanadi. Ilk o‘spirin tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarining buzilishi unda aybdorlik hissini vujudga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘risheva Pokiza G‘anisher qizi International journal of philosophical studies and social sciences Vol 2, Issue 1 2022.
2. Райимовна, Б. З. (2022). Влияние социально-психологического тренинга на подготовку будущих учителей. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(11), 317-318.
3. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
4. Rayimovna, B. Z. (2023). O‘spirinlik davrida kasbga yo ‘naltirishning ijtimoiy psixologik muammolari. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(10), 19-21.

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIDA SPORT MUSOBAQALARINING O‘RNI

Babayev Anvarjon Axmedovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: *anvarbabaev1986@gmail.com*

Kirish. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodni ona Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim

o‘rin tutadi. Mamlakatimiz mustaqilligi va xavfsizligini ta’minlashda fidoiy, jismonan va ma’nan yetuk yoshlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etishda sport musobaqalarining o‘rni beqiyosdir. Jismoniy tarbiya va sport nafaqat yoshlarning sog‘lom o‘sishiga xizmat qiladi, balki ularda mardlik, matonat, jasorat, jamoaviylik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishga ham yordam beradi.

Hozirgi kunda jahonda va mintaqada yuzaga kelayotgan turli xavf-xatarlar, davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalarini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Shu bois, harbiy xizmatga munosib kadrlarni tayyorlash, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish maqsadida sport musobaqalariga katta e’tibor qaratish talab etilmoqda.

Ayniqsa, harbiy-amaliy sport turlari (kross yugurish, turli to‘siqlarni yengib o‘tish, qurolli yurishlar va hokazo) yoshlarning jismoniy tayyorgarligi va ruhiy barqarorligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois, sport musobaqalarini harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimiga integratsiya qilish orqali yoshlarning jismoniy barkamolligi va ma’naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida sport musobaqalaridan samarali foydalanish yoshlarning jismoniy va ruhiy barqarorligini oshirishga hamda ularda Vatanga sadoqat ruhini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Sport musobaqalari orqali yoshlar jamoaviylik, intizomlilik, rahbarlik qobiliyati, tezkorlik va strategik fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot davomida yoshlar o‘rtasida harbiy-sport musobaqalari (masalan, “Vatanparvar” musobaqalari, harbiy-amaliy sport turlari, yugurish, tosh ko‘tarish, turli to‘siqlardan o‘tish va hokazo) tashkil etilganda, ularning jismoniy tayyorgarligi va motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot davomida turli ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan sport musobaqalari yoshlarda milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usi va jismoniy barqarorlikni oshirishga xizmat qilgani kuzatildi.

Ta’lim muassasalarida, ayniqsa, harbiy-sport yo‘nalishidagi tadbirlar o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otgani, ularning sportga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytirgani qayd etildi. Shu bilan birga, sport musobaqalarining muntazam tashkil etilishi yoshlarning harbiy sohaga bo‘lgan intilishini kuchaytirishini va ularning kelajakda mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda faol ishtirok etishiga zamin yaratishini ko‘rsatdi.

Shu asosda, sport musobaqalarini harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining muhim qismi sifatida tashkil etish zarurligi tadqiqot natijalari bilan tasdiqlandi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodni Vatanga sadoqat, yuksak ma’naviyat va jismoniy tayyorgarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan muhim tarbiyaviy yo‘nalishlardan biridir. Bu jarayonda sport musobaqalari katta ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish, balki harbiy intizom,

jamoaviylik, iroda va qat’iyat kabi xislatlarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Sport musobaqalarining asosiy shakllari quyidagilar:

1. Harbiy-amaliy sport musobaqalari. Harbiy xizmatga tayyorgarlikni oshirish maqsadida o‘tkaziladigan musobaqalar. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- Milliy va xalqaro doirada o‘tkaziladigan harbiy sport o‘yinlari;
- Yugurish, balandlikka va uzunlikka sakrash, tosh ko‘tarish, moslashuvchanlik va kuch talab qiluvchi musobaqalar;
- Harbiy yo‘nalishdagi kross musobaqalari va marofonlar.

2. To‘siqli yo‘laklardan o‘tish musobaqalari. Bunday musobaqalar harbiy tayyorgarlikning real shart-sharoitlarini yaratishga qaratilgan bo‘lib, ularda ishtirokchilar yugurish, tosiqlardan o‘tish, balandlikka cho‘qish, suv to‘siqlarini yengib o‘tish kabi ko‘nikmalarni namoyon qiladi.

3. Harbiy sport turlari bo‘yicha musobaqalar. Bular qatoridan quyidagilar o‘rin oladi:

- Qo‘l jangi va kurash turlari (sambo, dzyudo, taekvondo, belbog‘li kurash va h.k.);
- Harbiy qo‘l jangi va nojalol tajovuzkor hujumlardan himoya texnikasi bo‘yicha musobaqalar;
- Milliy va xalqaro darajadagi armiya o‘yinlari.

4. Ot sporti va qilichbozlik bilan jang musobaqalari. Qadimdan jang san’atida ot minish va qilichbozlik muhim o‘rin tutgan. Hozirgi kunda bu sport turlari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Otliq sport musobaqalari, masalan, konkur va uchqurlik poygalari yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlashda foydali bo‘lib, ularning muvozanat saqlash, tezkorlik va iroda kuchini oshiradi.

5. Aniqlik va diqqatni talab etuvchi musobaqalar. Harbiy sohada snayperlik, tir atish va aniqlikka zarba berish muhim ko‘nikmalar hisoblanadi. Bu borada o‘tkaziladigan musobaqalar:

- Pnevmatik va otish qurollaridan foydalangan holda tir atish musobaqalari;
- Granata tashlash va mo‘ljalga tegish musobaqalari;
- Radioaloqa va xarita bilan ishlash bo‘yicha musobaqalar.

6. Jamoaviy va strategiya talab qiluvchi musobaqalar. Jamoa bo‘lib harakat qilish, strategik fikrlash va taktik yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi musobaqalar o‘tkaziladi:

- Strategik jang simulyatsiyalari va harbiy o‘yinlar (peyntbol, lazertag va h.k.);
- Jamoaviy topshiriqlarni bajarishga qaratilgan musobaqalar (masalan, «Komanda jangi» uslubidagi musobaqalar).

7. Ekstremal sharoitlarda omon qolish bo‘yicha musobaqalar. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning bir qismi sifatida turli tabiiy va ekstremal sharoitlarda harakatlanish, jang san’atlaridan foydalanish, oziq-ovqatsiz va suvsiz sharoitlarda yashash va harakatlanish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi musobaqalar ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida sport musobaqalarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ular yosh avlodning jismoniy barkamolligi va ma’naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, harbiy-amaliy sport turlari yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ruhiy barqarorligini oshirish va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim omillardan biridir.

Sport musobaqalari orqali yoshlar intizomlilik, jamoaviylik, tezkor qaror qabul qilish va rahbarlik qobiliyatini shakllantiradi, bu esa ularning harbiy xizmatga tayyorgarligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, sport musobaqalarining muntazam tashkil etilishi yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirib, ularni jismoniy va ma’naviy barqaror shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Bunday tadbirlar nafaqat sportga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, balki yoshlarning yuksak ma’naviyatli va mas’uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimida sport musobaqalarini keng ko‘lamda joriy etish va ularni yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Sport musobaqalari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ular nafaqat jismoniy tayyorgarlikni oshiradi, balki intizom, qat’iyat, jamoaviylik va strategiya kabi fazilatlarni ham shakllantiradi. Shu sababli, turli sport musobaqalarini tashkil etish va ularni doimiy ravishda rivojlantirib borish harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Мелентев А. В. Военно-патриотическое воспитание экстремальными видами спорта в военизированном вузе (алпинизм) //Образование и право. – 2019. – №. 8. – С. 303-306.
2. Хекерт Н. Е. Средства физической культуры и спорта, применяемые в военно-патриотическом воспитании учащейся молодёжи //Научно-методические и практические аспекты интеграционных процессов в науке и технике. – 2022. – С. 227-231.

HARBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA JISMONIY MASHQLARNING O‘RNI VA SAMARADORLIGI

Bekmirzaev Shavkat Olim o‘g‘li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi

Kirish. Harbiy tayyorgarlik jarayoni jismoniy, ruhiy va texnik qobiliyatlarning mukammal birlashmasini ta’minlashga qaratilgan, harbiy xizmatchilarni jismoniy

jihatdan mustahkamlash va vazifalarni samarali bajarishga tayyorlashning asosiy bosqichlaridan biridir. Jismoniy mashqlar, o‘ziga xos ravishda, harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismini tashkil etib, shaxsning mustahkamlik, chidamlilik, barqarorlik va harakatchanlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Harbiy qo‘shinlar ishonadigan samarali jarohatlanishlarning oldini olish, harbiy xizmatchilarni har xil vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilishga tayyorlash, shundan kelib chiqib, jismoniy mashqlar o‘quv jarayonida juda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda harbiy tayyorgarlikning samaradorligi va uning natijalari bo‘yicha yangi jarayonlar va texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgani sababli, jismoniy mashqlarning ahamiyati har qachongidan ham dolzarbdir. Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajada rivojlanishi, harbiy shaxslar va unga bog‘liq murakkab vazifalarga tayyorgarlik ko‘rishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qolaversa, harbiy xizmatchilarning jismoniy holati, yangicha strategik tahdidlarga qarshi turishga qobiliyatlarning oshishi, ularning o‘zini anglashi va ta’lim olish samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, jismoniy mashqlarning harbiy tayyorgarlikdagi o‘rni va samaradorligini izohlash va tahlil qilish harbiy ta’limning yangi yo‘nalishlari va usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot davomida harbiy tayyorgarlik jarayonida jismoniy mashqlarning ahamiyati va samaradorligi ko‘plab jihatlardan yoritildi. Bizning tadqiqotimizning asosiy natijasi shundaki, harbiy xizmatchilarning jismoniy holati, ularning strategik va taktik vazifalarni bajarish qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy mashqlar nafaqat shaxsning jismoniy qulayligini ta’minlaydi, balki ruhiy va emotsional barqarorlikni ham yaxshilaydi. Masalan, umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) va maxsus mashqlar (masalan, yurish, yugurish, barqarorlikka bo‘lgan mashqlar) harbiy xizmatchilarning chidashini va kurashga tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqotda shuningdek, mashqlardan mutanosib foydalanish harbiylarining jarayonga ta’siri, ularning texnik hamda taktik ko‘nikmalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalaridan shundan ham aniq anglash mumkin bo‘lgani, harbiy tayyorgarlikda jismoniy mashqlarning turli formatlari va metodikalari, masalan, kuchli yo‘nalishlardagi mashqlar, aerobikaga asoslangan mashqlar va hatto stressga chidamlilikni oshirishga qaratilgan jattar harbiylar uchun foydali bo‘lib, ularni murakkab vaziyatlarga tayyorlaydi. Biroq, shuni aytib o‘tish kerakki, mashqlar va tayyorgarlik dasturlarining shiddatli yoki qat’iy tartibi har bir harbiy shaxsning individual jihatlariga moslashtirilishi kerak.

Muhokamada, jismoniy mashqlarning harbiy tayyorgarlik jarayonidagi samaradorligi ta’lim va tasavvurga asoslangan kamchiliklar bilan bog‘liq masalalarni ko‘tardi. Masalan, ma’lumki, jismoniy mashqlarning samaradorligi har qanday sharoitda ularning to‘g‘ri tashkil etilishiga va davomiyligini saqlashga bog‘liq. Shuningdek, ko‘pgina harbiylarning jismoniy tayyorgarligi ehtiyojga asoslangan bo‘lishi, ya’ni mo‘ljallangan vazifalarga, xususan, maxsus vazifalarga mos kelishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Harbiy tayyorgarlik jarayonida jismoniy mashqlarning o‘rni va samaradorligi haqidagi tadqiqotlarimiz natijalari ko‘rsatadiki, jismoniy mashqlar harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular shaxsning jismoniy va ruhiy holatini mustahkamlash, harbiy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan chidash, mustahkamlik va harakatchanlik kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. Jismoniy tayyorgarlik harbiylar uchun nafaqat mashqlar va fiziologik jarayonlar, balki stressga chidamlilik, psixologik barqarorlik va jismoniy muvozanatni saqlash kabi omillarni ham o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatdiki, jismoniy mashqlar har bir harbiy shaxsning individual xususiyatlariga moslashtirilishi, ularning ishlanishi va hamkorlikdagi ish usullariga ko‘ra samarali bo‘ladi. Shuningdek, harbiy tayyorgarlikda jismoniy mashqlarning turli formatlari, shu jumladan, aerobika, stressga chidamlilikka qaratilgan mashqlar, kuchli yo‘nalishdagi jattar harbiylarning strategiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, jismoniy mashqlar harbiylar uchun, ularning tashkil etilishi va ta’lim dasturlarining moslashuvchanligiga qarab, umumiy tayyorgarlikning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumki, harbiy xizmatchilarning fizik va psixologik holatini yanada yaxshilash uchun turli mashqlarning o‘zaro moslashuvchanligi va yo‘nalishini qayta ko‘rib chiqish zarur. Ushbu tadqiqot natijalari harbiy tayyorgarlik dasturlarini takomillashtirish, jismoniy va psixologik qobiliyatlarni yanada mustahkamlash uchun qo‘llaniladigan samarali usullarni ishlab chiqishda muhim asos bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Xoshimov, N. (2019). Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Rasulov, U. (2021). Jismoniy tarbiya va sport metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Temurbeklar maktabi faoliyatini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” gi farmoni. (2019). Toshkent.
4. Axmedov, O. (2017). Harbiy intellektual mashg‘ulotlar va ularning yoshlar tarbiyasiga ta’siri. Oliy ta’lim ilmiy jurnali, 2(1), 33-41.

TEMURBEKLAR MAKTABIDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SHAXMATNING ROLI

Boboqulov Chori Urolovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: boboqulovchori0@gmail.com

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, Temurbeklar

maktablarida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish va ularning strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali har tomonlama barkamol shaxslarni voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari nafaqat o‘quvchilarning jismoniy holatini yaxshilash, balki ularni intizomli, mard va jasur bo‘lishga o‘rgatish vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxmat mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarni mantiqiy va taktik tafakkurga yo‘naltirish, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish mumkin. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi yoshlarni jismoniy va aqliy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash bilan birga, ularning vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Temurbeklar maktablarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning jismoniy bardoshliligini, chidamliligini va harbiy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu ularning kelajakda harbiy sohada muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi. Shu bilan birga, shaxmatning o‘quv jarayoniga integratsiya qilinishi o‘quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirib, ularni tezkor va aniq qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Harbiy strategiya va taktikani tushunish uchun shaxmat mashg‘ulotlari katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu intellektual sport turi rejalashtirish, oldindan tahlil qilish va strategik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu boisdan, jismoniy tarbiya va shaxmat mashg‘ulotlarining uyg‘unligi Temurbeklar maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda harbiy sohada muvaffaqiyatga erishish nafaqat jismoniy bardoshlilik, balki intellektual salohiyatni ham talab qiladi. Temurbeklar maktablarida yoshlarni jismonan baquvvat va aqlan yetuk qilib tarbiyalash orqali ularni kelajakda yurt himoyasiga tayyorlash eng ustuvor vazifalardan biridir. Jismoniy tarbiya orqali yoshlarning chidamliligi, epchilligi va intizomi oshirilsa, shaxmat orqali ularda mantiqiy fikrlash, sabr-toqat va strategik rejalashtirish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Bu esa, kelajak avlodining nafaqat jismonan, balki aqlan ham kuchli bo‘lishiga, harbiy sohada strategik qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘lishiga imkon yaratadi. Shu sababli, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliyotga joriy etish Temurbeklar maktablarida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Temurbeklar maktabida jismoniy tarbiya va shaxmat mashg‘ulotlarini uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning jismoniy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari natijalariga ko‘ra, muntazam jismoniy tarbiya bilan shug‘ullangan va shaxmat o‘yinlarini o‘rgangan o‘quvchilarning harbiy tayyorgarlik darajasi oshgani, ularda tezkor fikrlash, strategik rejalashtirish va muammoli vaziyatlardan chiqish qobiliyati shakllangani kuzatildi.

Tadqiqot davomida Temurbeklar maktabining turli yosh guruhlaridagi o‘quvchilari orasida so‘rovnomalar va kuzatuvlar o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, muntazam jismoniy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning chidamlilik darajasini oshirib, ularning harbiy-intellektual tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari orqali harbiy intizom va jamoaviy ishlash qobiliyatlari shakllangan. Shaxmat esa o‘quvchilarning taktik

tafakkurini, muammolarni hal qilish koʻnikmalarini va strategik qaror qabul qilish layoqatini rivojlantirgan.

Jismoniy tarbiya va vatanparvarlik ruhining oʻzaro bogʻliqligi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, jismoniy tarbiya faqatgina jismoniy tayyorgarlikni emas, balki vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Jismonan baquvvat va intizomli boʻlish orqali yoshlar oʻz oldiga katta maqsadlarni qoʻyishni, fidoyilik va jasoratni oʻzida mujassam etishni oʻrganadilar. Temurbeklar maktabida oʻtkazilgan mashgʻulotlar jarayonida harbiy-sport oʻyinlari, harbiy yengil atletika mashqlari va jismoniy tayyorgarlik musobaqalarida qatnashgan oʻquvchilar orasida vatanparvarlik hissi yuqori ekani aniqlandi.

Shaxmatning strategik fikrlash va harbiy tayyorgarlikka ta'siri. Shaxmatning harbiy sohaga ta'siri uzoq yillardan buyon ilmiy asosda isbotlangan. Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, shaxmat bilan muntazam shugʻullangan oʻquvchilar ancha tez fikrlashadi, toʻgʻri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega boʻlishadi va murakkab vaziyatlarda strategik yondashuvni qoʻllashadi. Ayniqsa, shaxmat harbiy taktikalarni shakllantirish va oldindan rejalashtirish boʻyicha samarali vosita ekanligi tajriba-sinov mashgʻulotlari orqali tasdiqlandi. Ushbu jihatlar harbiy xizmat davomida tezkor qarorlar qabul qilish, dushmanning harakatlarini oldindan tahlil qilish va strategik jihatdan ustunlikni ta'minlashga yordam beradi.

Integratsiyalangan mashgʻulotlarning samaradorligi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, jismoniy tarbiya va shaxmatni oʻzaro bogʻliq holda oʻqitish yanada samarali natijalar beradi. Tajriba oʻtkazilgan guruhlarda oʻquvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy qobiliyatlari ham sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, jismoniy tayyorgarlik mashgʻulotlaridan soʻng shaxmat oʻyinlarini oʻtkazish oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatini mustahkamlashga yordam berdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Temurbeklar maktabida jismoniy tarbiya va shaxmat mashgʻulotlarini samarali integratsiya qilish vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim oʻrin tutishini koʻrsatdi. Ushbu yondashuv orqali yoshlarning harbiy tayyorgarligini oshirish, intellektual rivojlanishini ta'minlash va ularning milliy gʻururini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Shu bois, kelgusida ushbu metodikaning yanada takomillashtirilishi va boshqa harbiy ta'lim muassasalarida ham joriy etilishi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, Temurbeklar maktabida jismoniy tarbiya va shaxmat mashgʻulotlarini uygʻunlashtirish oʻquvchilarning jismoniy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Jismoniy tarbiya mashgʻulotlari oʻquvchilarning chidamliligini, intizomini va harbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilsa, shaxmat esa strategik fikrlash, muammolarni hal qilish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Ushbu ikki yoʻnalishning integratsiyasi yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlab, ularning vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, jismoniy tarbiya va shaxmat mashgʻulotlarini birgalikda olib borish Temurbeklar maktabi oʻquvchilarining nafaqat jismoniy va aqliy salohiyatini oshiradi, balki ularda

fidoyilik, jasorat, mardlik va strategik tafakkurni rivojlantiradi. Bu esa, yoshlarni harbiy xizmatga yanada sifatli tayyorlash, ularning milliy g‘ururini oshirish va Vatanga sadoqat ruhini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, ushbu metodikani yanada rivojlantirish va uni boshqa harbiy ta’lim muassasalarida ham keng joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Axmedov, A. (2020). Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy tamoyillari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
3. Xoshimov, N. (2019). Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Rasulov, U. (2021). Jismoniy tarbiya va sport metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi.
5. Temuriylar tarixi davlat muzeyi. (2016). Amir Temur va harbiy san’at. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Shaxmatova, L. (2018). Shaxmatning ta’lim jarayonidagi o‘rni va uning tafakkurga ta’siri. O‘zbekiston pedagogika instituti jurnali, 4(2), 56-65.

HARBIY-AKADEMIK LITSEYLARDA AVTOTRANSPORT VOSITALARI HAYDOVCHILARINI TAYYORLASH FANINING AHAMIYATI VA O‘RNI

Bo‘riyev Yunus Yusup o‘g‘li
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy-amaliy fanlar” kafedrasi
AVHT fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Harbiy akademik litseylarda avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash fani, o‘zining keng ko‘lamli ahamiyati bilan harbiy xizmatning samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar ushbu fan, orqali yo‘l harakati qoidalari, haydovchining madaniyati yo‘lovchi va piyodaning madaniyati harbiy transport vositalarini boshqarish, ularni ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatishni o‘rganadi.

O‘quvchilarni tezkor qaror qabul qilishga va jangovor sharoitlarda avtomobillarni mohirlik bilan boshqarishni o‘rgatadi. Harbiy transport vositalari nafaqatgina jangovar sharoitlarda, balki har qanday maxsus vazifalarni bajarishda ham muhim rol o‘ynaydi. Harbiy xizmatga tayyorlanayotgan o‘quvchilarning umumiy malakalarini oshiradi, balki ularning xavfsizligini ta’minlash, tezkor va samarali harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: Harbiy-akademik litsey**,** avtotransport vositalari**,** haydovchilar tayyorlash**,** kasbiy tayyorgarlik**,** harakat xavfsizligi**,** favqulodda vaziyatlar**,** transport boshqaruvi**,** harbiy transport.

Kirish

Harbiy-akademik litseylar- o‘quvchilarni harbiy xizmatga vatanparvarlik ruhida tayyorlash ularni kasbga tayyorlash va turli sohalarda, shu jumladan avtotransport vositalarini boshqarish, yo‘llarda havfsiz harakatlanish, texnik xizmat ko‘rsatish, o‘quvchilarga tezkor qaror qabul qilishni, xushyorlik va boshqa muhim kasbiy ko‘nikmalarni o‘rgatadigan ta’lim muassasalaridir. Harbiy xizmatda transport vositalarini samarali boshqarish balki favqulodda vaziyatlarga tezkor, aniq va to‘g‘ri qaroq qabul qilishida ham katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, **avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash** fani harbiy-akademik litseylarida o‘quvchilar tezkor qaror qabul qilish ma’nan yetuk, jismonan sog‘lom kadrlarni tayyorlash uchun xizmat qiladi.

1. Avtotransport vositalarining harbiy maqsadlarda ishlatilishi

- Harbiy litseylarda tayyorlanayotgan o‘quvchilar, transport vositalarini boshqarish bilan cheklanmay, balki yo‘l harakati qoidalarini mukammal o‘rganib, harbiy texnika, xususan, zirhli transport vositalari, maxsus transport vositalari va boshqa og‘ir harbiy texnikalarni boshqarish bo‘yicha malakalarga ega bo‘lishlari kerak. Bu esa, jangovar sharoitlarda tezkor va samarali harakat qilish imkonini beradi.

2. Xavfsizlik va xavf-xatarlarni boshqarish

- Avtotransport vositalari haydovchilari harbiy xizmatda yuqori darajada xavfsizlikni taminlashi zarur. Harbiy vazifalarni bajarishda, yo‘l harakati qoidalari, texnik xizmat ko‘rsatish va transport vositalarining ishonchli ishlashini ta’minlash bo‘yicha chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish muhimdir. Bu, avariyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi.

3. Tezkor va samarali harakatlanish

- Harbiy xizmatda, ayniqsa jangovar operatsiyalar vaqtida, transport vositalarini tezda va aniq boshqarish zarur. Harbiy litseylarda avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash orqali, harbiylar har qanday sharoitda tezda joylashishni, resurslarni etkazib berishni va zarur joylarga yetkazib berishni o‘rganadilar.

4. Yuqori darajadagi jismoniy va psixologik tayyorgarlik

- Avtotransport vositalarini boshqarish nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki yuqori darajadagi jismoniy va psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi.
- Harbiy litseylarda tayyorlanayotgan shaxslar, transport vositalarini boshqarish jarayonida zarur bo‘ladigan jismoniy chidamlilik, tezkor reaksiya va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

5. Maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirish

- Harbiy avtotransport vositalarini boshqarish, Bu maxsus ko‘nikmalar orasida harbiy texnikalar uchun o‘ziga xos boshqaruv usullari, ko‘p bosqichli harakatlanish, avtojamlanma bilan harakatlanish, tunda yoki noqulay sharoitda harakat qilish va harbiy yuklarni tashish bor.

6. Strategik va taktik ko‘nikmalarni shakllantirish

- Avtomobil transporti boshqarish faqat fizikal jihatdan emas, balki strategik va taktik fikrlashni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Harbiy haydovchilar har doim o‘zining pozitsiyasini, vazifalarini va yo‘lni aniq tasavvur qilishi, shuningdek, tezkor o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan bo‘lishi zarur.

7. Jangovar sharoitda texnik xizmat ko‘rsatish

- Harbiy transport vositalari ko‘pincha uzoq muddat davomida ishlaydi va ba’zida jangovar sharoitda texnik nosozliklar yuzaga kelishi mumkin.
- Haydovchi faqatgina transport vositasini boshqarish bilan cheklanmasdan, uning ishlashini nazorat qilish va tezda tuzatishlar kiritish bo‘yicha ham tayyor bo‘lishi kerak.
- Bu, harbiy litseylarda transport vositalari haydovchilarini tayyorlashda muhim qismdir.

8. Tezkor qarorlar qabul qilish va stressni boshqarish

Harbiy xizmatda haydovchidan tezkor qarorlar qabul qilish, stressga chidamli bo‘lish va o‘z vazifasini mukammal bajarish talab etiladi.

Avtomobil boshqarishda, harbiylar ko‘pincha stressli sharoitlarda, xavfli joylarda va tunda harakat qilishadi, shuning uchun bu kabi vaziyatlarda ularning tez va aniq qarorlar qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa.

Harbiy akademik litseylarda avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, faqatgina texnik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmaydi.

Bu fan, harbiy xodimlarni nafaqat maxsus transport vositalarini boshqarish, yo‘l harakati qoidalarni mukammal o‘rgatib unga amal qilishni va jangovar sharoitlarda samarali va xavfsiz harakat qilish, texnik xizmat ko‘rsatish, strategik va taktik fikrlashni rivojlantirish kabi ko‘nikmalar bilan ham ta’minlaydi.

Bu tayyorgarlik harbiy kuchlarning samaradorligini va xavfsizligini oshiradi, shuningdek, barcha turdagi harbiy operatsiyalarda muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1 Sharipov N. «Pedagogika va harbiy ta’lim» Nashr yili: 2017.
2 Alimov A.» Haydovchilarni tayyorlash metodikasi» Nashr yili: 2019
3 Bekmuratov R.» Xavfsizlikni ta’minlashda transport vositalarini boshqarish» Nashr yili: 2021
4 Xudoyberganov M.» Harbiy transport vositalarini boshqarish» Nashr yili: 2015
5 Sultonov O. «Psixologiya va transport boshqaruvi» Nashr yili: 2022
6 Saidov S. «Oliy ta’lim muassasalarida transport ta’limi» Nashr yili: 2020.
7 «Avtotransport vositalarini boshqarish: Xalqaro tajriba» Nashr yili: 2019.
8 G‘ulomov Z. «Logistika va transport boshqaruvi» Nashr yili: 2018

UMUMTALIM MUASSASALARIDA YOSHLARNI VATANPARVAR QILIB TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYA FANINING ORNI

Shaxnazarov Azizbek Shavkat o‘g‘li
Termiz shahar politexnikumi
jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumta’lim muassasalarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya fanining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Jismoniy tarbiya nafaqat o‘quvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi, balki ularning vatanparvarlik tuyg‘ularini, mas’uliyatini va o‘z vataniga sadoqatini shakllantirishda muhim vosita sifatida ko‘riladi. Tadqiqotda jismoniy tarbiyaning tarbiyaviy jihatlari, vatanparvarlikni rivojlantirishdagi metodlari va amaliy natijalari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, vatanparvarlik, umumta’lim muassasalari, yoshlar, tarbiya, salomatlik.

Kirish

Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qanday jamiyat uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham bu masalaga alohida e’tibor qaratilib, ta’lim tizimida vatanparvarlikni shakllantirishning turli usullari qo‘llanilmoqda. Umumta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fani nafaqat o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladi, balki ularning ma’naviy-axloqiy sifatlarini, xususan, vatanparvarlik tuyg‘usini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola jismoniy tarbiya fanining vatanparvarlik tarbiyasidagi rolining ilmiy asoslarini ko‘rib chiqishga qaratilgan.

Jismoniy tarbiya fanining tarbiyaviy ahamiyati

Jismoniy tarbiya fani umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Bu fan o‘quvchilarga nafaqat jismoniy mashqlar va sport ko‘nikmalarini o‘rgatadi, balki ularning ijtimoiy mas’uliyat, jamoada ishlash va o‘z vataniga xizmat qilish kabi qadriyatlarini rivojlantiradi. Vatanparvarlik esa, o‘z yurtiga muhabbat, uni himoya qilishga tayyorlik va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish sifatida ifodalanadi. Jismoniy tarbiya bu jarayonda o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish orqali vatan himoyasi uchun kuchli va sog‘lom shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya orqali vatanparvarlikni shakllantirish usullari

1. **Sport musobaqalari va vatanparvarlik ruhini ko‘tarish:** Umumta’lim maktablarida o‘tkaziladigan sport musobaqalari, masalan, “Umid nihollari” yoki “Alpomish va Barchinoy” kabi tadbirlar o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otishga yordam beradi. Ushbu musobaqalar nafaqat jismoniy qobiliyatlarni sinovdan o‘tkazadi, balki o‘quvchilarga o‘z maktabi, hududi va natijada vatanini faxr bilan himoya qilish hissini singdiradi.

2. **Milliy sport turlari va madaniy meros:** Jismoniy tarbiya darslarida milliy sport turlari, masalan, kurash yoki ot sporti kabi yo‘nalishlarni kiritish o‘quvchilarda o‘zbek xalqining qadimiy an’analari va vatanparvarlik tarixiga hurmat tuyg‘usini oshiradi. Bu o‘quvchilarni o‘z milliy kimligi bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

3. **Jamoaviy ruhni rivojlantirish:** Jismoniy tarbiya darslarida jamoaviy o‘yinlar (futbol, voleybol va boshqalar) orqali o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik, bir-biriga yordam berish va umumiy maqsadga erishish ko‘nikmalarini o‘rganadi. Bu xususiyatlar vatanparvarlikning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, jamiyat uchun birlashish va xizmat qilishga tayyor shaxsni tarbiyalaydi.

4. **Harbiy-vatanparvarlik mashg‘ulotlari:** Jismoniy tarbiya darslarida harbiy elementlarni, masalan, marsh tashlash, to‘siqlardan o‘tish kabi mashqlarni kiritish o‘quvchilarda vatan himoyasi uchun jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni shakllantiradi. Bu mashg‘ulotlar “Vatanparvar” tashkiloti kabi tuzilmalar bilan hamkorlikda samarali tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy tarbiyaning vatanparvarlik tarbiyasidagi amaliy natijalari

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya fanining rivojlanishi davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Masalan, 1999-yilda joriy etilgan “Alpomish va Barchinoy” test sinovlari o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash bilan birga, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya darslarida muntazam ishtirok etgan o‘quvchilar o‘zlarini jamiyatning faol a’zosi sifatida his qilishadi va vatan oldidagi mas’uliyatni chuqurroq idrok etadilar. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzi va jismoniy faollikni targ‘ib qilish orqali yoshlarda salbiy odatlardan (masalan, chekish yoki giyohvandlik) uzoqlashish tendensiyasi kuzatiladi, bu esa vatanparvarlik tarbiyasining ijobiy natijasi sifatida baholanadi.

Xulosa.

Umumta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fani yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. U o‘quvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan birga, ularning ma’naviy-axloqiy sifatlarini, vatanparvarlik tuyg‘usini va jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshiradi. Jismoniy tarbiya darslarini yanada samarali qilish uchun milliy sport turlarini kengroq joriy etish, harbiy-vatanparvarlik elementlarini ko‘paytirish va sport musobaqalarini tashkil etish bo‘yicha davlat dasturlarini qo‘llab-quvvatlash tavsiya etiladi. Kelgusida bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar vatanparvarlik tarbiyasining jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liqligini yanada chuqurroq ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni.
2. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun jismoniy tarbiyadan davlat ta’lim standarti”.
3. Pedagogika va psixologiya bo‘yicha ilmiy adabiyotlar.

O‘QUVCHI YOSHLARNI HARBIY KASBGA YO‘LLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Inoyatov Islom Yusupovich
O‘zbekison Respublikasi Milliy gvardyaisi
Toshkent “Temurbeklar maktabi” o‘quv bo‘limi
uslubchisi t.f.n.

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchi yoshlar bilan harbiy-vatanparvarlik ishlarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni harbiy kasbga yo‘llash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: konsepsiya, harbiy-vatanparvarlik, xavf-xatar, harbiy kasb, harbiy-akademik litsey, kursant, harbiy-sport.

Globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitlarda jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko‘lami kengayib borayotganligi – geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo‘lgan yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan ommaviy qirg‘in qurolini qo‘llash ehtimoli oshganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makoni va kibermakonda o‘zaro kurash kuchayganligi bilan tavsiflanadi.

Rossiya – Ukraina, Isroil – Falastin urushi dunyo siyosiy jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bo‘lsa, Afg‘onistondagi vaziyatni tartibga solish mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolari sifatida kut tartibidan hanuz tushganicha yo‘q.

Xalqaro harbiy-siyosiy vaziyat beqaror rivojlanayotgan sharoitlarda O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligiga turli ko‘rinishdagi harbiy mojarolarga uning jalb etilishi ehtimolini istisno etmaydigan tahdidlar saqlanib qolmoqda [1] . Harbiy sohada O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta’minlash davlatning bosh vazifalaridan biridir va u ehtimol tutilgan harbiy mojarolarga oldindan tayyorgarlik ko‘rishdan, ularni jilovlash hamda ularning oldini olishdan iboratdir. Bu o‘z o‘rnida harbiy qism va bo‘linmalarning jangovarlik qobiliyatini muntazam ravishda oshirishni talab qiladi. Jangovarlik qobiliyatini oshirishdagi asosiy omil qurolli kuchlar shaxsiy tarkibining miqdori va sifati. Bu sifat uning professional darajasi, axloqiy-ruhiy qat’iyati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi. Shaxsiy tarkibning talabga javob beradigan sifat darajasini ta’minlashda uning professional tayyorgarligi, o‘quv-moddiy bazaning holati g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Bunda yoshlarga harbiy ta’lim beruvchi butun tizimning roli beqiyos [2]. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda umumta’lim maktablaridan to akademik ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz harbiy ta’lim tizimi yaratildi. (1-chizmaga qarang)

Bu ta’limning asosiy vazifasi maqsadli ravishda qurolli kuchlar zahirasini yaratish, professional harbiy hamda harbiy ilmiy va pedagog kadrlarni tayyorlash,

qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini yuksaltirish bilan bir qatorda fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularda Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usini mustahkamlash borasida uzluksiz ish olib borish, shuningdek Qurolli Kuchlarning shaxsiy tarkibini ma’naviy-axloqiy va psixologik jihatdan samarali tayyorlash, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyun qarori bilan “2023 - 2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi amaliyotga kiritilgan bo‘lib unda tarbiyaviy tadbirlar quyidagi besh bosqichda amalga oshirilishi belgilab berildi:

a) **birinchi bosqich** (3 – 7 yosh) – shu yoshdagi bolalarga xos xususiyatlar, jumladan, ilk o‘z tuyg‘ularini, xatti-harakatini boshqarish ko‘nikmalari, shaxsiy fazilatlari asoslari, ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishlarining paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon etish hamda muvaffaqiyatga erishish kabi ehtiyojlarini inobatga olib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladi. Mazkur bosqichda bolalar bilan milliy g‘urur, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat va uni himoya qilish, davlat ramzlari, buyuk ajdodlarimiz, tarixiy obidalarimizga hurmat, o‘zaro yordam, mehribonlik kabi olijanob fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan she’r, ertak, kuy va qo‘shiqlarni, sport va milliy o‘yinlarni o‘rgatish, teatrlashtirilgan sahna tomoshalarini namoyish etishni o‘zida mujassam etgan tadbirlar o‘tkaziladi;

Uzluksiz ta’lim tizimi bosqichlari



71 ta - Akademik litseylar (AL)	671 ta - texnikumlar
Shulardan 7 ta – harbiy akademik litsey	

***1- bosqich
tanlov jarayoni:***

9 893 ChQBT fani o‘qitiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari
Ta’lim tashkilotlari negizida tashkil etiladigan
208 ta «Jasorat maktablari»

b) **ikkinchi bosqich** (7 – 10 yosh) – tadbirlar umumta’lim va ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlarining kichik sinflarida, shuningdek, ushbu toifadagi yoshlarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mahallalarda o‘tkaziladi.

Ushbu bosqichda faxrlanish hamda Vatan va davlat ramzlariga muhabbat, yoshi kattalarga hurmat va izzat bilan munosabatda bo‘lish hamda milliy odat va an’analarni qadrlash tuyg‘ularini singdirish, O‘zbekiston Respublikasiga daxldorlikdan faxrlanish hissini rivojlantirish bo‘yicha kompleks tadbirlar o‘tkaziladi;

v) **uchinchi bosqich** (11 – 17 yosh) – tadbirlar umumta’lim va ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlarining katta sinflarida, shuningdek, ushbu toifadagi yoshlarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mahallalarda o‘tkaziladi.

Ushbu bosqichda asosiy e’tibor yoshlarda harbiy xizmatga bo‘lgan qiziqishni, Qurolli Kuchlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usini oshirish, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish, ularni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida tarbiyalash, shuningdek, yoshlarni «Vatan tayanchi» bolalar-o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatiga keng jalb etishga qaratiladi;

g) **to‘rtinchi bosqich** (18 – 21 yosh) – oliy ta’lim muassasalarining talabalari, uyushmagan yoshlar, muddatli harbiy xizmatchilar, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga yangi chaqirilgan harbiy xizmatchilar, oliy harbiy ta’lim muassasalarining kursantlari, shuningdek, mehnat jamoalarida faoliyat olib borayotgan yoshlarni qamrab oladi.

Ushbu bosqichda asosiy e’tibor yoshlarning jismoniy va ma’naviy qobiliyati, yetakchilik ko‘nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o‘z ustida muntazam ishlash, sog‘lom hayot kechirishga undash va shunga erishishga qaratiladi.

Muddatli harbiy xizmatchilar, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga yangi chaqirilgan oddiy askarlar hamda oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari

ishtirokidagi tadbirlar Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning reja va dasturlari asosida amalga oshiriladi;

d) **beshinchi bosqich** (22 – 30 yosh) – tadbirlar mahallalardagi uyushmagan yoshlar, mehnat jamoalarida faoliyat olib borayotgan yoshlar, shuningdek, shartnoma bo‘yicha yosh oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibini qamrab oladi.

Yakuniy bosqichda asosiy e’tibor yuqori darajadagi ijtimoiy faollik, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviyatni oshirishga, ijobiy qadriyat va xislatlarga ega hamda ularni mamlakat manfaatlari, davlatni mustahkamlash, uning hayotiy muhim ehtiyojlari va barqaror rivojlanishini ta’minlash yo‘lidagi yaratuvchanlik jarayonida namoyon eta oladigan fuqarolarni shakllantirishga qaratiladi [3].

Bugungi kunda kreativlik tadqiqotchilarining diqqat markazida shaxsning intellektual qobiliyatlari, intellektual faoliyati va kreativ fazilatlari, uning kreativ fikrlashi o‘rtasidagi bog‘liqlik muammosi mavjud [2, 36 bet]. Ushbu muammoni o‘rganayotgan xorij olimlari orasida D. Gilford, D. Jonson, M. Vogel, D. Goven, K. kollel, T. Domino va boshqalar bor, uzoq yillar davomida olimlar aqliy qobiliyat darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shaxs shunchalik kreativ bo‘lishi kerak deb hisoblashgan. Biroq, tajribalar shuni ko‘rsatdiki, bu ikki ko‘rsatkich bir-biri bilan bog‘liq emas: «kreativ yutuqlar va kamchiliklar (intellektuallik koeffitsienti) o‘rtasida zaif aloqalar paydo bo‘ladi yoki ular umuman paydo bo‘lmaydi» [4, 456 bet] deb tariflashgan. Olimlar bu hodisani maktabda ham, oliy ta’limda ham zamonaviy ta’limning muhim kamchiliklari bilan bog‘lashadi. Uning asosiy kamchiligi - bu o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga rivojlanish va intellektual ta’sirning yo‘qligi. Ko‘pincha o‘quvchilar maktabdan tashqarida haqiqiy ijod bilan shug‘ullanadilar.

Munozara:

O‘quv jarayoni - bu o‘quvchilarning kreativ fikrlashni rivojlantirishning muqobil vositasi, ya’ni uning samarali o‘quv va kognitiv evristik faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlaydigan shaxsning individual psixologik xususiyatlari.

Psixologik fan, yuqorida aytib o‘tganimizdek, shaxsning qobiliyatlari va uning bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari darajasining o‘ziga xosligini inkor etadi. Kreativ qobiliyatlar aniqlanadi, faqat faol samarali faoliyatda namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchining adabiy ijodga bo‘lgan qobiliyatini baholash mumkin emas, agar u hali majoziy so‘z ustida ishlash uchun tegishli ko‘nikmalarga ega bo‘lmasa. Faqat adabiy ijod jarayonida uning tegishli qobiliyatlari bor-yo‘qligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin. O‘quvchi ma’lum bilimlarni kashf etmaganligi sababli uning qobiliyatlari yo‘qligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin emas.

Qadimgi yunon olimlarining bilim darajasi yetarlicha yuqori emas edi, ammo ularning asarlari fanning keyingi rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. XVII asr nemis olimi G. K. Lixtenbergning quyidagi so‘zlarida juda yaxshi ifodalangan: «qadimgi odamlar dogmatizmni bilmaganliklari uchun ijodlari jihatidan bizdan ustun edilar, ular hech kimga taqlid qilmadilar, tabiatni ko‘proq kuzatdilar, so‘zlardan

ko‘ra ko‘proq narsalarni o‘rgandilar, erkinroq edilar, bir parcha non topish uchun yozmadilar» [6, 304 bet].

Kreativlik bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarda emas, balki ularni nostandart amaliy faoliyatda egallash va ulardan foydalanish dinamikasida namoyon bo‘ladi. Shaxsga rivojlanish ta’siri faqat samarali bilimdir.

Kreativ faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj insonning eng zarur va o‘zgarmas ehtiyojlaridan biridir. Kreativlik, mohiyatan, har bir insonning haqiqiy baxtining asosiy shartidir. Bundan tashqari, turli qobiliyatlarning kombinatsiyasi kreativ faoliyat natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘qituvchilar uchun shaxsning kreativ qobiliyatlarining muhim tomonini ochib beradi, masalan, ba’zi xususiyatlarni boshqalar tomonidan kompensatsiya qilish, odam o‘jarlik va qat’iyat bilan ishlaydi.

Shunday qilib, kreativlik aqliy xususiyatlarning yig‘indisidir. Ular orasida bir emas, balki kreativ faoliyatning ko‘p turlari, badiiy, ilmiy, konstruktorlik va boshqalar talablariga javob beradigan umumiy fazilatlar guruhi ajralib turadi, bunda quyidagi turlarni nomlash mumkin:

- muammoni ko‘rish qobiliyati;
- tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;
- farazlarni shakllantirish, tadqiqot mavzusini aniqlash;
- yetarli tadqiqot usullarini tanlash, tajribalar o‘tkazish, umumlashtirish.

Muayyan kreativ faoliyat talablariga javob beradigan maxsus fazilatlar mavjud. Kreativ shaxsning umumiy va maxsus fazilatlarini bilish o‘qituvchi uchun juda muhimdir, chunki u ularning rivojlanishi uchun qulay psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratishga mo‘ljallangan.

Qobiliyatlarni rivojlantirishning eng yuqori bosqichi odatda iste’dod deb ataladi. Iste’dod-bu turli xil qobiliyatlarning kombinatsiyasi bo‘lib, odamga mustaqil va o‘ziga xos tarzda murakkab kreativ ishlarni bajarish imkoniyatini beradi. Alohida olingan har qanday qobiliyat iste’dodning analogi bo‘lib xizmat qilmaydi, hatto u eng aniq ifodalangan bo‘lsa ham. Bu, xususan, fenomenal xotiraga ega bo‘lgan odamlarni o‘rganish orqali aytiladi. Ushbu xotira xususiyatida ko‘pchilik iste’dodning ekvivalentini ko‘rishga tayyor.

Iqtidorli bolalarni o‘rganish jarayonida o‘qituvchilar ta’siri ostida muvaffaqiyatli rivojlanayotgan kreativ shaxsning muhim fazilatlari aniqlanadi: kreativlikka qiziqish, ehtiyotkorlik, mashaqqatli ishlarga bosqichma-bosqich tayyorgarlik.

Natijada, intellektual mehnatning muhim fazilatlari, masalan, fikrlash jarayonlarining tezligi, ongning moslashuvchanligi, muhim narsalarni ajratib ko‘rsatish, o‘rganishning yetarliligi va boshqalar yoshligidan shakllanadi va bolada ilhomning ruhiy holati muhim rol o‘ynay boshlaydi. Bu uzoq vaqtdan beri iste’dodning ajralmas sifati hisoblanadi. Biroq, ilhomni kreativlik bilan mashaqqatli mehnatga qarshi qo‘yish uchun hech qanday sabab yo‘q, chunki bu uning asosini tashkil etadigan ishdir.

Shunday qilib, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning eng ishonchli usuli bu ularni o‘z vaqtida tashxislash va o‘quvchilarni intensiv norasmiy kreativ faoliyatga juda erta kiritishdir.

Xulosa.

Mahalliy tadqiqotchilarning ishlariga asoslanib aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinf yoshi shaxsning kreativ fikrlashini aniqlash va rivojlantirish uchun qulay davrdir, chunki bu yoshda kreativ va ta’lim traektoriyasining asoslari, ishlab chiqarish faoliyatining psixologik asoslari qo‘yiladi, kompleks shakllana boshlaydi, shaxsning voqelikka kreativ munosabati asosida yotadigan fazilatlari, qadriyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari.

Adabiyotda tasvirlangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqishda bizning tadqiqotimizga tegishli tarkibiy qismlar shakllantirildi va nomlandi:

- Kognitiv komponent (bilim darajasi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik va kreativ qobiliyatlar haqidagi g‘oyalari, kreativ vazifalarning mohiyatini tushunish):

- Motivatsion va ehtiyoj komponenti (o‘quvchining o‘zini kreativ shaxs sifatida namoyon etish istagi darajasi, o‘quv topshiriqlarining kreativ turlariga qiziqish mavjudligi)

- Faoliyat komponenti (kreativ xarakterdagi vazifalarni asl holatda bajarish, o‘quvchilarning kreativ tasavvurini faollashtirish, fikrlash jarayonini nostandart, majoziy ravishda amalga oshirish qobiliyatining rivojlanish darajasi).

Shunday qilib, tadqiqotchilar «kreativ fikrlash» tushunchasini aniqlash bo‘yicha yakdil fikrga ega emaslar, deb ta’kidlash mumkin, ammo ular har bir inson kreativ faoliyatga qodir ekanligini ta’kidlaydilar va o‘qituvchining vazifasi har bir o‘quvchining kreativ fikrlashini aniqlash va rivojlantirish, zamonaviy o‘quv vositalaridan foydalanish va boshlang‘ich sinf o‘quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun ma’lum pedagogik shartlarga rioya qilish, belgilangan maqsadga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xudoynazarov, E. M. (2022). Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilar mantiqiy fikrlashini rivojlantirish omili sifatida: https://doi.org/10.53885/edinres 2022.8.
2. Khudoynazarov, E. (2023). Theoretical Foundations Of Growing Logical Thinking Of Elementary School Students. International Bulletin of Engineyering and Technology, 3(5), 33-37.
3. Madrakhimovich, K. E. (2023). Didactic Principles of Developing Logical Thinking in Students. New Sciyentific Trends and Challenges, 97-100.
4. Gilford. D. Tri storoni intellekta // Psixologiya mishleniya / Red. A. M. Matyushkin. — M.: Progress, 1965. S. 456.

O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA SPORT VA BADIIY GIMNASTIKANING O‘RNI

Bekpo`latova Madina Asadovna,
Surxondaryo viloyati gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi treneri

Annotatsiya:
Ushbu maqolada o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sport va badiiy gimnastikaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Badiiy gimnastika va sport gimnastikasi, jismoniy rivojlanishdan tashqari, o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, axloqiy va ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada bu sport turlarining o‘quvchilarga jismoniy va ma’naviy barkamollikni rivojlantirishda qanday muhim rol o‘ynashi, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi amaliy yondashuvlar va metodlar, shuningdek, badiiy va sport gimnastikasini o‘quvchilarga muvaffaqiyatli taqdim etish uchun qanday strategiyalarni amalga oshirish zarurligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quvchilar, vatanparvarlik, sport gimnastikasi va badiiy gimnastika, jismoniy tarbiya, milliy qadriyatlar, mehnatsevarlik, jamoaviy ish, Vatan sevgisi, motivatsiya.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 23-dekabr kuni «Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-449-sonli qarori imzolandi.

Ushbu qaror asosida joylarda xususan chekka hududlarda ham gimnastika sport turlari bo‘yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) ishlarini takomillashtirish xususan, aholi o‘rtasida gimnastika sport turlari (sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, trampolin, akrobatika) ommaviyligini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, xalqaro talab va standartlar asosida professional sportchilarni tayyorlash orqali milliy terma jamoalarimizning nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini ta’minlash maqsad qilib olindi.

Buning zamirida o`quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosiy o`rin egallashi bejiz emas.

Vatanparvarlik–bu millatga, uning tarixiga, madaniyatiga va an’analarga bo‘lgan hurmat va sevgi. Bu haqda gapirganda, yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi, ayniqsa, maktab yoshidagi o‘quvchilarning tarbiyasida alohida e’tibor talab etadi. O‘quvchilarning ruhiy va ma’naviy rivojlanishi, ularni jamiyatga foydali, axloqiy, jismoniy barkamol shaxslar qilib shakllantirishda sportning, ayniqsa, badiiy va sport gimnastikasining roli katta.

Ushbu maqolada badiiy va sport gimnastikasining o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati, metodik yondashuvlar va ulardan samarali foydalanish yo‘llari muhokama qilinadi.

1. Badiiy gimnastika va sport gimnastikasining ta’rifi va ahamiyati

Badiiy gimnastika va sport gimnastikasi jismoniy tarbiya va sportning ikki turidir. Badiiy gimnastika estetik jihatdan go‘zal, nozik va nafis harakatlar orqali amalga oshiriladi. Bu sport turi nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilash, balki o‘quvchilarga tanani boshqarish, muvozanat estetik go‘zallikni qadrlash kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Badiiy gimnastika orqali o‘quvchilar ruhiy va jismoniy rivojlanishga erishadilar, shu bilan birga, milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat bilan yondashishni o‘rganadilar.

Sport gimnastikasi esa, aniq va qat’iy jismoniy tayyorgarlikni talab qiladigan sport turi bo‘lib, o‘quvchilarni kuchli iroda, mustahkamlik, va jismoniy chidamlilikka o‘rgatadi. Ushbu sport turi o‘quvchilarda qat’iyatni, mustahkam maqsadga erishish uchun o‘zini boshqarish va intizomni shakllantiradi. Shu tariqa, har ikkala sport turi jismoniy, axloqiy va ruhiy barkamollikka erishishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Vatanparvarlikni shakllantirishdagi o‘rni

Badiiy va sport gimnastikasi o‘quvchilarni faqat jismoniy rivojlantirishni emas, balki ularda milliy qadriyatlarni, vataniga bo‘lgan hurmatni va sevgi tuyg‘usini ham shakllantiradi. Sport, ayniqsa, jismoniy chidamlilikni oshirish, qat’iyatlilikni kuchaytirish va mehnatsevarlikni rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy gimnastika, o‘z navbatida, go‘zallikka bo‘lgan hurmatni, tananing estetik ifodasini qadrlashni va o‘zini kashf etish orqali vatanparvarlik hissini rivojlantiradi. Vatanparvarlikni shakllantirishda, shuningdek, sport turlarining o‘quvchilarga jamoaviy ishda ishtirok etishni o‘rgatishdagi o`rni katta. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarda birgalikda maqsad sari intilish, o‘zaro yordam va fidoyilikni oshiradi.

3. Badiiy gimnastika va sport gimnastikasining jismoniy va ruhiy tarbiyadagi o‘rni

Sport gimnastikasi o‘quvchilarda jismoniy rivojlanish, kuch, tezlik va chidamlilikni oshiradi. Shuningdek, badiiy gimnastika o‘quvchilarda ko‘proq estetik qarashni rivojlantiradi, tanani boshqarishni o‘rgatadi va jismoniy ifoda qilishni yanada nozikroq va go‘zal qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, badiiy gimnastika va sport gimnastikasi o‘quvchilarni intizomli, mas’uliyatli va o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatadi. Badiiy gimnastika va sport gimnastikasi orqali o‘quvchilarda yuqori ijtimoiy va axloqiy sifatlar, shu jumladan, o‘z vataniga bo‘lgan sodiqlik, hurmat va fidoyilikni rivojlantirishga imkon yaratadi. O‘quvchilarni sportga jalb qilish orqali, ularda jismoniy faollikni rivojlantirish bilan birga, ularga milliy g‘ururni his ettirish, shuningdek, jamoaviy ruhni shakllantirish mumkin.

4. O‘quvchilarni sport va badiiy gimnastikaga jalb qilishdagi muammolar va ularni yechish yo‘llari

Sportni xususan badiiy va sport gimnastikasini o‘quvchilarga jalb qilishda ba’zi ijtimoiy va oilaviy muammolar mavjud. Ko‘p hollarda, oilalar qizlarni sport bilan shug‘ullanishga rad etadilar yoki qizlarga nisbatan ba’zi stereotiplar mavjud. Shuningdek, sport inshootlari va resurslarning cheklanganligi ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

Maktablar va sport tashkilotlarida sport inshootlarini yangilash va kengaytirish;

Keng ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazish, shuningdek, ota-onalar va jamiyatni sportning ahamiyati haqida xabardor qilish;

O‘quvchilarga sportning foydalari haqida muntazam ravishda ta’lim berish va ularga motivatsiya berish.

5. Badiiy gimnastika va sport gimnastikasining o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi amaliy yondashuvlar

O‘quvchilarga badiiy va sport gimnastikasini muvaffaqiyatli taqdim etishda, ularda jismoniy va ruhiy barkamollikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy yondashuvlar muhimdir. Bu yondashuvlar quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

O‘quvchilarni individual maqsadlar va yutuqlarga erishish uchun rag‘batlantirish;

Yangi va innovatsion metodlar orqali badiiy gimnastikani yanada jozibador qilish;

O‘quvchilarni turli sport musobaqalarida ishtirok etishga undash va ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish.

Xulosa.

Badiiy va sport gimnastikasi o‘quvchilarda jismoniy, axloqiy va ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu sport turlari o‘quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish, mehnatsevarlik va intizomni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, badiiy gimnastika va sport gimnastikasi o‘quvchilarni jismoniy va ruhiy jihatdan barkamol shaxslar qilib tarbiyalaydi.

O‘quvchilarga badiiy va sport gimnastikasini muvaffaqiyatli taqdim etish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali usulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Xudoyberdiyev, I. (2020). Sport va tarbiya: Badiiy gimnastikaning ahamiyati. Tashkent: O‘zbekiston yoshlar sporti nashriyoti.
2. Yuldashev, A. (2019). Badiiy gimnastika va yoshlar tarbiyasi. Tashkent: O‘zbekiston davlat pedagogika nashriyoti.
3. Azimov, S. (2021). Vatanparvarlikni shakllantirishda sport va jismoniy faollik. Samarkand: SamDPI nashriyoti.
4. Ismailova, F. (2022). O‘quvchilarni sport orqali tarbiyalash. Bukhara: Buxoro viloyati nashriyoti.
5. Mirzoyev, M. (2021). Badiiy gimnastika va uning yoshlar tarbiyasidagi roli. Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti nashriyoti.

PEDAGOG KASBINI OPTIMALLASHTRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK JIHATLARI

Normurodova Munisa Nuriddin qizi
Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti
"Pedagogika va psixologiya" yo'nalishi talabasi
Telefon: +(99899) 674 28 00
E-mail:shodiyevan22@gmail.com

Kasbiy faoliyat samaradorligining shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Mashhur rus psixologi I.K.Platonovning fikriga ko'ra, «Kasbiy tayyorgarlik - bu o'zini kerakli kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning subyektiv holatidir. Pedagog kasbini optimallashtrish - shaxsning aniq kasbiy faoliyat turi bilan shug'illanishiga imkon beruvchi nazariy bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirish jarayonidir. R.Ishmuhamedov, Kasbiy tayyorgarlik negizida bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy nazariy va amaliy tayyorgarligi aks etishi lozim. Demak pedagog kasbini optimallashtrish tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Pedagog kasbini optimallashtirish - maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi. Kasbiy tayyorlash - bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyat talablarni o'zlashtirish, individuallashuvi demakdir.

Pedagog kasbini optimallashtrish pedagogik-psixologik jihatlari darhaqiqat, kasbiy moslashuv murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, shaxsni yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma va malaka, kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi ham asosiy mezonlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bizga ma'lumki, shaxs ta'lim jarayonining faol obyekti va subyekti bo'lib, o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonidagi faolligi uning yo'nalganligi bilan belgilanadi. Shaxs yo'nalganligi muammosini tadqiq etar ekan, S.L.Rubinshteyn uni ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalaydi. Psixolog olimlar L.I.Bojovich va R.S.Nemov shaxs yo'nalganligini motivlar tizimi va yig'indisidir, deya talqin etadilar. Kasbiy yo'nalganlik esa shaxs yo'nalganligining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, motivlar, ehtiyojlar ta'sirida aks etadi.

Kasbiy sifatlar pedagogik faoliyat muvaffaqqiyatning muhim omillaridan biri bo'lib, ular maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlik, diqqatni taqsimlay olish, tirishqoqlik, kuzatuvchanlik, pedagogik takt va pedagogik xayolning rivojlanganligi, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, shaxsiy namuna ko'rsatish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yanada boyitishga bevosita hissa qo'shish kabi jihatlar bilan tavsiflanadi.

Ma’lumki, o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligi aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda mutaxassislarni kasbiy faoliyati jarayonining bosqichlarini turlicha tavsiflanadi.

pedagog kasbini optimallashtrishning ijtimoiy - pedagogik-psixologik jarayoni quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi:

1-bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo‘nalganlik

2-bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o‘zlashtirish

3-bosqich. Kasbiy o‘z-o‘zini anglash, moslashish

O‘qituvchilarni pedagogik faoliyatini psixologik jixatlari katta ahamiyatga ega. Chunki pedagoglarning mashaqqatli mehnatlari orqali jamiyat rivojlanadi. O‘sib kelayotgan yosh avlod komil inson bo‘lib yetishadi. Turli yosh davridagi va turli hil qobilyatga ega bo`lgan bolalar bilan ishlash jarayoni bu albatta o`qituvchining o`z kasbini sevishi va tinimsiz mehnati samasi ekanligining natijasidair. Shuning uchun har bir pedagog o‘z kasbiga sidqidildan yondashish kerak. Kasbiga hurmat, tinimsiz izlanish, jamiyat rivojiga hissa qo‘shish har bir insonning muqaddas burchi sanaladi.

Kasb tanlashda kasb tanlovchining irodali bo‘lishi ya’ni bir kasbni qiziqib tanlab olib uning qiyinchiliklarini ko‘rishi bilan undan yuz o ‘girib boshqa kasbni tanlashga intilishi uning irodasizligini ko‘rsatadi. Kasb tanlayotgan odamga irodani zarurligi tanlagan kasbini o‘zgartirmagan holda uni yaxshi egallashga intilishida va kerak bo‘lsa shu sohaning ustasi darajasiga yetishga harkat qilishida ko‘zga tashlanadi. Kasb tanlovchi o‘zi sevgvn kasbni egallashi uchun kuch sarf qilishi, buning uchun esa unda sabr toqat, chidam, intilish bo‘lishi kerakligini talab qiladi. Haqiqatda ham iroda insonni faollikka undovchi jarayon bo‘lib, insonni o‘z havaslarini, orzu istaklarini, tilak va xohishlarini amalga oshirishda asosiy vositalardan hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatlar o‘rtasida katta farqlanish bo`ishiga qaramasdan ulaming asosida inson - uning subyekti sifatida yotadi. Bunda umumiy bo‘lib psixologik masalalar yotadi, ya’ni insonni mehnat faoliyati davomida xavfsizligini ta’minlash, ulami mehnatlarini yaxshilash intilish yotadi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, psixologik xavfsizlikning izlanish insonning psixologik faoliyati hisoblanadi. Psixologik faoliyat bu inson miyasining vazifasi bo‘lib, real borliqdagi predmet va hodisalami aks etdiradi. Pedagog kasbini optimallashtrishning psixologik jihatlarini tahlil qilinganda uni shaxsning psixologik jarayonlarini, psixologik holat va xususiyatlaridan tashkil topganligini ko‘ramiz.

Psixologik jarayonlar psixologik faoliyatning asosini tashkil etadi. Ularsiz bilimlar shakllanmaydi va hayotiy tajriba ham ottirilmaydi. Bunda kognitiv (bilish), emotsional va irodaviy jarayonlar ajratiladi.

Psixologik holat-bu psixologik jarayonlaming statistik darajasiga tegishli. Ular xilma - xilligi bilan va vaqtning xarakteri bilan bir-biridan farqlanib turadi. Psixologik holat insonni o‘rab turgan sharoitga va holatga moslashishini (adaptatsiyasini) boshqarib turish vazifasini o‘taydi. Psixologik xavfsizlik muammolaridan kelib chiqqan holda katta qiziqishni faoliyatdagi charchash va zo‘riqish holati tashkil qiladi. Shuningdek, alohida psixologik holat bo‘lgan stress, xavotirlanish, affekt holati, alkagol holati va boshqalar ham kiradi.

O‘quvchilarning shaxsini o‘rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog`liqdir. O‘qituvchi o‘quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste`dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h.k. Ba`zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo‘ladi, ko‘pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O‘qituvchining boladagi iste`dod nishonalarini aniqlashi, bularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko‘maklashimni muhimdir. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo‘lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo‘r qiziqish bilan qarasa, o‘z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o‘shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo‘ladi, bunday holda har bir shaxs jamiyatga eng ko‘p naf keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Toshkent 2019 yil.
2. Narzulla Boyrudov. Amaliy psixologiya. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2008 yil.
3. A. Kenjaboyev. Bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtisodiy-innavatsion tarbiya berishga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari. Surxon-nashr. 2019 yil.
4. Shodiyeva, N., & Berdikulova, G. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. Sciyence and innovation, 1(B5), 98-101.
5. Shodiyeva, N., & Berdikulova, G. (2022). Theoreticfl and practical bases of formation of akmeological position in future teachers. Sciyence and Innovation, 1(5), 98-101.

3-SHO‘BA: O‘QUVCHILARGA ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA NOAN’ANAVIY TA’LIM USLUBLARIDAN VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH;

ELEKTROMAGNIT TO‘LQINLARNING TEXNIKADA QO‘LLANISHI.

Bekpulatov Ilhom Rustamovich
Qarshi davlat universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, Fizika-matematika fanlari doktori, dotsenti
Elektron pochta: bekpulatov.ir@qarshidu.uz
Babaxanov Oybek Xatamovich,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Butun borliq elektromagnit to‘lqinlardan iborat bo‘lib insoniyat olamni elektromagnit to‘lqinlar vositasida idrok etadi. Elektromagnit to‘lqinlar radioto‘lqinlardan tortib gamma nurlargacha bo‘lgan nurlarni qamrab olgan. Insoniyat radioto‘lqinlarni ko‘rmaydi, lekin undan turli maqsadlarda foydalanadi. Radioto‘lqinlar axborotlarni simsiz uzatishda, radioaloqada, radiolakatsiyada keng miqyosda qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: elektromagnit to‘lqin, radiolokatsiya, radiotelefon, infraqizil va ultrabinafsha nurlar.

Elektromagnit to‘lqinlar – bu elektr va magnit maydonlarning o‘zaro ta’siri natijasida tarqaladigan energiya shakli bo‘lib, ularning chastotasi va to‘lqin uzunligi keng diapazonni qamrab oladi. Elektromagnit spektr radioto‘lqinlardan gamma nurlargacha bo‘linadi va har bir tur o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu to‘lqinlarning inson hayotidagi qo‘llanilishi zamonaviy texnologiyalar va fan rivojida muhim o‘rin tutadi. Radioto‘lqinlar elektromagnit spektrning eng past chastotali qismidir (3 Hz dan 300 MHz gacha). Ularning to‘lqin uzunligi bir necha kilometrdan millimetrgacha yetadi.Radioto‘lqinlar aloqa va eshittirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. AM va FM radioeshittirishlari, televideniye signallari, simsiz aloqa (Wi-Fi, Bluetooth) shular jumlasidandir.

Radioaloqa ham elektromagnit to‘lqinlar vositasida amalga oshiriladi. Uzatuvchi antennada yuzaga keltirilgan yuqori chastotali o‘zgaruvchan tok atrofidagi fazoda o‘zgaruvchan elektromagnit maydon vujudga keltiriladi. Bu maydon esa elektromagnit to‘lqin tarzida tarqaladi. To‘lqin qabul qiluvchi antennaga yetganidan so‘ng, unda uzatuvchi stansiya chastotasiga teng chastotali o‘zgaruvchan tok hosil qilinadi. 1913-yilda so‘nmas elektromagnit tebranishlar generatorining kashf qilinishi radioaloqaning rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Bu generator yuqori sifatli radioaloqa — nutq va musiqani elektromagnit to‘lqinlar yordamida uzatish imkoniyatini yaratdi. Uyali aloqa ham shunga o‘xshash prinsipda ishlaydi.

Radioto‘lqinlar yordamida narsalarning turgan joyini aniqlash, ulargacha bo‘lgan masofani o‘lchash usuli *radiolokatsiya* deyiladi. Radiolokatsiya o‘rganilayotgan narsadan qaytgan ultra qisqa to‘lqinlarni qayd etishga asoslangan. Radiolokator (radar) umumiy antennaga ega bo‘lgan radioperedatchik va radiopriyomniklardan iborat bo‘lib, qabuldan uzatishga o‘tkazuvchi moslama bilan ta’minlangan. Antenna, radionur — qat’iy yo‘naltirilgan nurlanish hosil qiladi. Nurlanish 10^{-6} s davom etadigan qisqa impulslar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Nurlanish impulsichiqarilgandan so‘ng antenna avtomatik ravishda o‘rganilayotgan narsadan qaytgan elektromagnit to‘lqinlarni qabul qilish rejimiga o‘tadi. Radiosignal jo‘natilgan va qaytgan vaqtlar qayd etilib,narsagacha bo‘lgan masofa yoki uning harakat tezligi aniqlanadi.Radiolokatsiya va shu usulda ishlovchi asboblar ham harbiy,ham tinch maqsadlarda keng qo‘llaniladi. Ular yordamida havo va dengiz kemalari harakatini boshqarish vazifalari va boshqa sayyoralargacha bo‘lgan masofalarni aniqlash, meteorit va boshqa fazoviy jismlarning harakatini kuzatish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Chastotasi 300 MHz dan 300 GHz gacha bo‘lgan diapazonni egallagan radio to‘lqinlar Mikroto‘lqinli pechlarda ovqat isitish, uyali telefon aloqasi, sun’iy yo‘ldosh orqali ma’lumot uzatish uchun ishlatiladi. Infraqizil nurlar chastotasi 300 GHz dan 430 THz gacha bo‘lib, u insonga ko‘rinmaydigan nurlardan bo‘lib masofadan boshqarish pultlari (televizor, konditsioner), issiqlik sensorlari, tungi ko‘rish kameralari va termografiyada qo‘llaniladi.

Ultrabinafsha nurlarning chastotasi 770 10^{12} Hz dan 30 10^{15} Hz gacha bo‘lib, tibbiy asboblarni sterilizatsiya qilish, suvni tozalash, quyoshda terini qoraytirish va floresan lampalar ishlab chiqarishda ishlatiladi.Rentgen nurlari 3 10^{16} Hz dan 3 10^{19} Hz gacha chastotaga ega bo‘lib, moddalardan o‘tish qobiliyatiga ega. Tibbiy diagnostikada suyak va organlarni tekshirish, aeroportlarda xavfsizlik skanerlari va materiallarning ichki tuzilishini tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Gamma nurlari eng yuqori chastota 30 10^{19} Hz dan yuqori bo‘lib, chuqur kirib borish xususiyatiga ega. Saratonni davolashda radioterapiya, tibbiy asboblarni sterilizatsiya qilish va yadroviy tadqiqotlarda ishlatiladi. Gamma nurlar sanoatda materiallarning mustahkamligini tekshirishda ham qo‘llaniladi.

Xulosa: Elektromagnit to‘lqinlarning amaliy ahamiyati turmushda va texnikada juda katta. Biz biror do‘stimiz bilan minglab kilometr masofadan turib to‘g‘ridan to‘g‘ri bir-birimizni ko‘rib muloqot qila olamiz. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar, bayramlar xalqimizga masofadan turib simsiz uzatilmoqda. Bundan tashqari elektromagnit to‘lqinlar yordamida koinotga uchirilgan samo jismlari va oyga qo‘ngan avtomat stansiyalar kuzatiladi va boshqariladi. Insoniyat uzoq koinotdan kelayotgan elektromagnit to‘lqinlarni tahlil qilib olam sirlarini o‘rganmoqda. Biz elektromagnit to‘lqinlarni chuqur o‘rganib tahlil qilmaganimizda edi zamonaviy texnologiyalardan umuman foydala olmagan bo‘lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.G.G‘aniyev A.G.G‘aniyev, A.K.Avliyoqulov, G.A.Almardonova Fizika I qism Toshkent 2014
2. M.X.O‘lmasova Fizika optika, atom va yadro fizikasi Toshkent-2010
3. “Elektromagnit nurlanish va uning qo‘llanilishi” – O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
4. Кудряшов Ю.Б., Перов Ю.Ф.Рубин А.Б.Радиационная биофизика: радиочастотные и микроволновые электромагнитные излучения. Учебник для Вузов.—М:Физматлит, 2008-184 с

COORDINATION POLYMER BASED ON 1-HYDROXY-2-NAPHTHOIC ACID AND $Cd(CH_3COO)_2 \cdot 2H_2O$

D.X.Saidov.,[a] X.X.Turayev.,[a] A.B. Ibragimov[b]

Termez State University, Department of Analytical Chemistry[a], Institute of General and Inorganic Chemistry of Uzbekistan Academy of Sciences, M. Ulugbek Str, 77a, Tashkent 100170, Uzbekistan[b] saidovdilmurod514@gmail.com

Introduction: The synthesis, characterization, and properties of metal-organic frameworks (MOFs) have been a major focus of coordination chemistry, as this class of compounds has applications in a variety of fields, including magnetism, adsorption, storage, separation, catalysis, sensing, and luminescence. Researchers in this field have focused on the design and construction of novel coordination compounds. Because of the ability of various ligands to react with metal ions, good hydrogen-bond acceptors and donors, carboxylic acids have been widely studied in the design of coordination compounds. Carboxylate ligands can coordinate with metal ions through various modes, including monodentate, symmetric, and asymmetric chelation, bidentate, and monodentate bridging.[1] Metal-organic frameworks (MOFs) synthesized from the $Cd(CH_3COO)_2 \cdot 2H_2O$ salt of 1-hydroxy-2-naphthoic acid (HNA) are of particular interest.

Experimental part. 0.752 g (0.1 M) of 1-hydroxy-2-naphthoic acid was dissolved in 30 ml of 96% metanol and the resulting solution was stirred using a magnetic stirrer for half an hour. As a result, a dark brown solution was formed. Then, 0.452 g (0.1 M) of cadmium acetate dihydrate ($Cd(CH_3COO)_2 \cdot 2H_2O$) was dissolved in 20 ml of distilled water and slowly added to the prepared ligand solution and mixed thoroughly for one hour. The resulting solution was filtered using filter paper, as a result of which the filtrate turned brown. To ensure the evaporation of the solvents, the solution was stored in a thermostat at a temperature of 50–60 °C for 30 days. At the end of the process, dark brown crystals were formed. The yield was 75%.



Figure 1. MOF crystal production scheme

According to the analysis of the (IQ) spectrum depicted in Figures 1 and 2, the spectrum was obtained in the range from 4000 cm^{-1} to 400 cm^{-1}. In this spectrum, characteristic stretching vibrations of functional groups were detected:

• OH stretching vibrations are observed in the range of 3200–3600 cm^{-1}, which confirms the presence of a hydroxyl group.

• Stretching vibrations characteristic of the –COOH group appear in the range of 1300–1750 cm^{-1}.

• C–H sp^3 stretching vibrations are detected in the range of 2840–2890 cm^{-1}.

• C=O stretching vibrations are represented by sharp and strong vibrations in the range of 1630–1600 cm^{-1}, which indicates the presence of a carbonyl group in carboxylic acids.

• C=C stretching vibrations are observed in the range of 1500–1400 cm^{-1}, and C–O stretching vibrations are observed in the range of 1200–1000 cm^{-1}.

• Stretching vibrations characteristic of metal-ligand bonds are observed in the region of 600–400 cm^{-1}.

The stretching vibrations observed in the range of 3200–3600 cm^{-1} in the spectrum confirm the hydrogen bonding of hydroxyl groups. Sharp and strong stretching vibrations in the range of 1700–1750 cm^{-1} indicate the presence of a carbonyl group characteristic of carboxylic acids.

According to the analysis presented in Figure 2, characteristic stretching and deformation vibrations characteristic of functional groups of organic and inorganic molecules were detected in it:

• In the high-frequency range of 3700–3000 cm^{-1}, deformation vibrations characteristic of O–H groups are observed in the region of 3342.6 cm^{-1}.

• In the mid-range of 3000–2000 cm^{-1}, the deformation vibrations characteristic of C–H groups were detected in the region of 2924.09 cm^{-1} and 2538.94 cm^{-1}.

• The valence vibrations characteristic of C=O groups were observed in the region of 2123.77 cm^{-1} and 1778.51 cm^{-1}.

• In the fingerprint region of 1500–1000 cm^{-1}, the deformation vibrations of aromatic hydrocarbons were recorded in the regions of 1452.26 cm^{-1} and 1353.04 cm^{-1}.

• In the low-frequency range (1000–400 cm^{-1}), the vibrations at 800.46 cm^{-1}, 773.46 cm^{-1} and 678.94 cm^{-1} correspond to the deformation vibrations of metal ions or other inorganic structures.

This spectrum indicates the presence of complexes bound to Cd. The valence vibrations observed in the range of 500–700 cm^{-1} are indicative of Cd–O bonds, confirming the complex formation process between the metal and the ligand.



Figure 2 IR spectrum of Figure 3. IR spectrum of the resulting complex compound 1-hydroxy 2-naphthoicacid

LIST OF USED LITERATURE

1. Lakshmanan, A.; Gavali, D. S.; Thapa, R.; Sarkar, D. Synthesis of CTAB-Functionalized Large-Scale Nanofibers Air Filter Media for Efficient PM2.5 Capture Capacity with Low Airflow Resistance. *ACS Appl. Polym. Mater*. 2021, *3* (2), 937–948. https://doi.org/10.1021/acsapm.0c01203.
2. Li, H.; Ha, T. A.; Jiang, S.; Pozo-Gonzalo, C.; Wang, X.; Fang, J.; Howlett, P. C.;Wang, X. N, F and S Doped Carbon Nanofibers Generated from Electrospun Polymerized Ionic Liquids for Metal-Free Bifunctional Oxygen Electrocatalysis.
3. Narmanova, F. S., Turayev, K. K., Kasimov, S. A., Ibragimov, A. B., Normamatov, A. S., Ruzmetov, A. K., & Ashurov, J. M. (2024). The structure and Hirshfeld surface analysis of the 4-amino 3-nitrobenzoic acid triclinic polymorph. *Structural Chemistry*, *35*(3), 953-960.

KASB TANLASHDA STEAM YONDASHUVNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI (ANIQ VA TABIIY FANLAR MISOLIDA)

Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Termiz (O‘zbekiston)
e-mail: saloxitdinovanavruza@gmail.com.

Annotatsiya. Ijodkorlik STEAM ta’limining ajralmas elementi bo‘lib, u fan va san’atni integratsiyalashga intiladi. STEAM loyihasi faoliyatlari turli ijodiylik shakllari (ilmiy, badiiy va hunarmandchilik) o‘rtasida bog‘liqlikni ta’minlaydi. Bu

masala bo‘yicha hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida kasb tanlashda STEAM yondashuvining pedagogik asoslariga bevosita bag‘ishlangan Prezident qarori yoki farmoyishi mavjud emas. Biroq, ta’lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan.

Kalit so‘z: STEAM, texnologiya, o‘quvchi, kasb, muhandis, dizayner, fanlararo yondashuv.

Kirish. Ijodkorlik STEAM ta’limining ajralmas elementi bo‘lib, u fan va san’atni integratsiyalashga intiladi. STEAM loyihasi faoliyatlari turli ijodiylik shakllari (ilmiy, badiiy va hunarmandchilik) o‘rtasida bog‘liqlikni ta’minlaydi. Bu masala bo‘yicha hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida kasb tanlashda STEAM yondashuvining pedagogik asoslariga bevosita bag‘ishlangan Prezident qarori yoki farmoyishi mavjud emas. Biroq, ta’lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan.

Masalan, 2022-yil 11-mayda qabul qilingan “2022–2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son farmoni ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Ushbu farmonda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni, jumladan, STEAM elementlarini kiritish masalalari ham ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirishni nazarda tutadi. Ushbu hujjatda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, jumladan, STEAM yondashuvini joriy etish orqali o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ham o‘z aksini topgan. Ushbu farmonlar doirasida ta’lim tizimida STEAM yondashuvini qo‘llash va kasb tanlashda uning pedagogik asoslarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

STEAM yondashuvining nazariy asoslari STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) – bu fanlararo yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. John Dewey[1], Seymour Papert[2], Jean Piaget[3] kabi pedagoglarning ishlarida tajriba asosida o‘rganish (learning by doing) va konstruktivizm tamoyillari ilgari surilgan. Dewey va Vigotskiy[4] nazariyalariga ko‘ra, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish uchun ularga real muhitda faoliyat yuritish imkonini berish muhim. UNESCO va OECD tashkilotlari hisobotlariga ko‘ra, STEAM yo‘nalishidagi kasblar kelajakda eng talabgor sohalar qatoriga kiradi.

Tahlil va natijalar. STEAM yo‘nalishidagi kasblar – bu fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika kabi sohalarda faoliyat yuritadigan mutaxassislarni o‘z ichiga oladi. STEAM ta’limi bu sohalarni birlashtirib, o‘quvchilarga kompleks muammolarni hal qilishda ko‘nikmalarni rivojlantirishni maqsad qiladi. STEAM kasblariga quyidagi sohalarni kiritish mumkin: Fan (Science) bo‘yicha biolog, kimyogar, fizika mutaxassisi, ekolog, astronom, genetika, tadqiqotchi, ilmiy xodim; Texnologiya (Technology):dasturchi, tizimlar muhandisi,

kompyuter tarmog‘ini boshqaruvchi, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlilchisi; Muhandislik (Engineering) bo‘yicha mexanik muhandis, elektrotexnika muhandisi, qurilish muhandisi, arxitektor, robototexnika va aerokosmik muhandis; San’at (Arts) bo‘yicha dizayner, animator, grafik dizayn, vizual san’at mutaxassisi, video o‘yinlarni yaratish va multfilm ishlab chiqarish; Matematika (Mathematics) bo‘yicha statistik, matematik tahlilchi, moliyaviy mutaxassis, risk menejeri, kriptograf, algoritm ishlab chiqaruvchi. Bu kasblar fanlararo yondashuvni qo‘llaydi, shuning uchun STEAM yo‘nalishidagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va ijodkorlikni birlashtirib, zamonaviy muammolarni innovatsion tarzda hal qilishga tayyor bo‘ladilar.

Tadqiqot doirasida kasb tanlashning erta bosqichda shakllanishi jihatlariga e’tibor qilsak, bolalar boshlang‘ich ta’lim bosqichida atrof-muhitni o‘rganish, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashishni o‘rganishadi. STEAM metodikasi esa ularga turli kasblarga bo‘lgan qiziqishni erta bosqichda shakllantirishga yordam beradi. Texnologiya va innovatsiyalar tez rivojlanib borayotgan bugungi kunda, kelajak kasblari an’anaviy fanlardan tashqari, muhandislik, texnologiya va ijodiy fikrlashga asoslanadi. STEAM yondashuvi o‘quvchilarga mehnat bozorining ushbu talablariga moslashishga yordam beradi. STEAM o‘quvchilarga nazariy bilimlarni real hayot bilan bog‘lash imkonini beradi, bu esa kasbga yo‘naltirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. STEAM yondashuvi bolalarda kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularning kelajakda muvaffaqiyatli kasb tanlashiga ijobiy ta’sir qiladi. Bugungi kunda an’anaviy kasblardan tashqari, robototexnika, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar kabi yangi sohalar paydo bo‘layotganligi sababli, STEAM ta’limi bolalarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘z qiziqishlariga mos keladigan kasbni tanlash uchun erta bosqichda turli tajribalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishlari lozim. STEAM ta’limi esa bunday sharoitni yaratishga xizmat qiladi[6 ;94-b.].

Bolalar boshlang‘ich ta’lim bosqichida atrof-muhitni o‘rganish, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashishni o‘rganishadi. STEAM metodikasi esa ularga turli kasblarga bo‘lgan qiziqishni erta bosqichda shakllantirishga yordam beradi. Bolalar kasb tanlash haqida erta yoshdan boshlab fikr yurita boshlashadi, lekin bu jarayon yoshga qarab turli bosqichlarda rivojlanadi: 3-6 yosh (Maktabgacha yosh)da bolalar atrof-muhitdagi kasblarni kuzatishadi va kattalar (ota-ona, o‘qituvchi, shifokor, harbiy soha xodimi) faoliyatidan ilhomlanishadi. Ular ko‘proq o‘yinlar orqali turli kasblarni sinab ko‘rishadi (shifokor, quruvchi, oshpaz, o‘qituvchi). 7-10 yosh (Boshlang‘ich maktab yoshi)da bolalar kasblar haqida chuqurroq o‘ylay boshlashadi, o‘z qiziqishlarini aniqlashadi. Fanlar bilan tanishish jarayonida qaysi yo‘nalish ularga qiziqarliroq ekanini tushunishadi. STEAM metodikasi aynan shu bosqichda muhim rol o‘ynaydi, chunki amaliy mashg‘ulotlar va loyihalar orqali bolalar turli sohalarga nisbatan qiziqishini shakllantirishlari mumkin. 11-14 yosh (O‘rta maktab bosqichi) da bolalar o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rib, qaysi soha ularga ko‘proq mos kelishini tushuna boshlashadi. Kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha dastlabki aniq qarorlarni qabul qilishadi. 15-18 yosh (Kasb tanlashning asosiy bosqichi)da o‘quvchilar qaysi

kasb yoki yo‘nalishda o‘qishni davom ettirishni tanlashadi[5]. Kasbiy ta’lim, oliy ta’lim yo‘nalishlarini belgilash jarayoni amalga oshadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM metodikasi orqali ta’lim olgan o‘quvchilar mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘ladi.

Xulosa. Kasb tanlash jarayonida STEAM yondashuvi zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv kabi muhim ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv fanlararo integratsiya tamoyiliga asoslanib, o‘quvchilarning ilmiy-texnikaviy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini kengaytiradi.

STEAM yondashuvi kasb tanlashda quyidagi afzalliklarni beradi:

- O‘quvchilarga real hayot muammolarini hal qilish orqali kasbga yo‘naltirish;
- Amaliy tajriba va loyihaviy faoliyat orqali kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- Innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash;
- An’anaviy ta’lim metodlariga qaraganda ko‘proq qiziqish uyg‘otib, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash.

Ta’lim jarayoniga STEAM elementlarini joriy etish o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonida ongli qaror qabul qilishiga yordam beradi, chunki bu yondashuv nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydi, mustaqil fikrlash va tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunday qilib, kasb tanlashda STEAM yondashuvining pedagogik asoslarini rivojlantirish ta’lim tizimining innovatsion yo‘nalishdagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ta’lim siyosati va metodologiyasida STEAM yondashuviga katta e’tibor qaratish kelajak kasblariga moslashgan, texnologik jihatdan savodli va ijodiy mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bequette, J. W. & Bequette, M. B. (2012). "A creative process for STEAM: Fostering artistic practice in STEM education."
2. Sanders, M. E. (2008). Stem, stem education, stemmania.
3. Yakman, G. (2008, February). STEAM education: An overview of creating a model of integrative education.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes (Vol. 86). Harvard university press.
5. Dönmez, İ., & Idin, S. (2020). Determination of the STEM Career Interests of Middle School Students. International Journal of Progressive Education, 16(4), 1-12.
6. Saloxitdinova N. (2024). STEAM ta’limini joriy qilishning pedagogik asoslari (tabiiy fanlar misolida). Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 1), 94-98.

KRIPTOGRAFIYADA MATRITSALI AKSLANTIRISHLARNING QO‘LLANILISHI

Abduraximov Baxtiyor Fayziyevich,
O‘zMU professori, a_baxtiyor@mail.ru
Boyquziyev Ilxom Mardanoqulovich,
TATU dotsenti, salyut2017@gmail.com
Jo‘rayev Elmurod Xo‘shmurodovich,
DXX ChQ "Yosh chegarachilar" HAL,
“Aniq va tabiiy fanlar”kafedrasi mudiri
matematik1987ejx@gmail.com

Annotatsiya: Kriptografiya – axborotni himoyalash va maxfiy saqlash usullarini o‘rganadigan fan sohasi bo‘lib, unda turli matematik usullar, jumladan, matritsali akslantirishlar keng qo‘llaniladi. Matritsali akslantirishlar ma’lumotlarni shifrlash va deshifrlash jarayonlarida samarali vosita bo‘lib, ular orqali shifrlangan matnlarning mustahkamligi oshiriladi.

Mazkur usul simmetrik va asimmetrik shifrlash algoritmlarida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli imzo va autentifikatsiya tizimlarida ham matritsali akslantirishlardan foydalanish mumkin. Ushbu usulning afzalligi – yuqori tezlikda bajarilishi va parallel hisob-kitoblar orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatidir.

Kalit so‘zlar: Kriptografiya, matritsa, akslantirish, transformatsiya, shifrlash, simmetrik shifrlash.

Kirish. Kriptografiya axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy usullaridan biri bo‘lib, uning asosida turli matematik usullar yotadi. Matritsali akslantirishlar zamonaviy shifrlash algoritmlarida axborotni aralashtirish, statistik xususiyatlarini buzish va hujumlarga nisbatan barqarorlikni oshirish uchun keng qo‘llaniladi.

Bu usul, ayniqsa, AES (Advanced Encryption Standard), Hill shifri, Serpent va boshqa simmetrik shifrlash algoritmlarida muhim rol o‘ynaydi.Matritsalar orqali bajariladigan transformatsiyalar shifrlash algoritmlarining chiziqliligi, teskari hisoblash imkoniyati va hisoblash samaradorligi kabi jihatlariga ta’sir ko‘rsatadi. AES shifrlash standartidagi MixColumns bosqichi, Hill shifrida qo‘llaniladigan matritsali ko‘paytirish, shuningdek, Galois maydonlarida amalga oshiriladigan matematik operatsiyalar matritsali akslantirishlarning kriptografiyadagi dolzarbligini namoyon qiladi.

Ushbu tadqiqotda matritsali akslantirishlarning asosiy tushunchalari, simmetrik shifrlash algoritmlarida ularning roli va qo‘llanilishi, xavfsizlik nuqtayi nazaridan ularning samaradorligi tahlil qilingan hamda tavsiyalar keltirilgan.

Asosiy qism

Matritsali akslantirishlarning asosiy tushunchalari

Matritsali akslantirishlar — bu matematik matritsalarga asoslangan o‘zgarishlar bo‘lib, ular kriptografiyada ma’lumotlarni shifrlash, aralash, hamda uzatish jarayonlarida qo‘llaniladi. Kriptografik tizimlarda matritsalar asosan:

–Chiziqli algebra vositalarini ishlatish orqali ma’lumotlarni murakkab tarzda almashtirish;

–Galua maydonlarida matematik operatsiyalarni bajarish;

–Ko‘p o‘lchovli vektorlar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo‘llaniladi.

Matritsali akslantirishlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

–Determinant va teskari matritsa tushunchalariga asoslangan himoya [1];

–Galua maydoni ustida ishlash imkoniyati [2];

–Aralash va shifrlash jarayonlarida samarali bajarilishi.

Matritsalar va ularning kriptografiyadagi roli

Matritsalar quyidagi asosiy kriptografik sohalarda qo‘llaniladi:

a) Simmetrik shifrlashda

–AES (Advanced Encryption Standard) – MixColumns bosqichida 4×4 matritsalar ustida Galois maydonida ($GF(2^8)$) bajariladigan operatsiyalar [1];

–Hill shifri – matritsali ko‘paytirish printsipiga asoslangan shifrlash algoritmi. Bu yerda ochiq matn vektor sifatida qaralib, kvadrat kalit matritsaga ko‘paytiriladi [3].

b) Assimetrik shifrlashda

Lattice-based cryptography (panjaraga asoslangan kriptografiya) – panjara tuzilmalari orqali matritsali hisoblash operatsiyalaridan foydalanadigan post-kvant kriptografiyasi [4];

McEliece shifrlash tizimi – matritsalar asosida o‘ta xavfsiz kodlash usuli [2].

c) Hash funksiyalar va tasodifiy sonlar generatorlarida

–Matritsali transformatsiyalar kriptografik mustahkamlikni oshirish uchun ishlatiladi [4].

Matritsali akslantirishlar va ularning xossalari

Matritsali akslantirishlar quyidagi asosiy xossalarga ega:

1. Teskarilanuvchanlik – kriptografik tizimlarda matritsaning teskarisi mavjudligi muhim. Masalan, Hill shifri uchun kalit matritsa $\det(A) \neq 0$ shartni qanoatlantirishi kerak [3];

2. Chiziqli va chiziqsiz o‘zgarishlar – ba’zi matritsali akslantirishlar chiziqli bo‘lsa, ba’zilari nolineer bo‘lib, ular shifrlash tizimining murakkabligini oshiradi [2];

3. Galois maydonida bajarilishi – AES kabi tizimlarda matritsali operatsiyalar maxsus maydonlarda ($GF(2^8)$) amalga oshiriladi, bu esa tahlil qilishni qiyinlashtiradi [1];

4. O‘zaro almashtirish va aralash – matritsali akslantirishlar ma’lumotlarning statistik xususiyatlarini buzish uchun ishlatiladi [4].

Quyidagi 1-jadvalda matritsali akslantirishlardan foydalanilgan simmetrik shifrlash algoritmlari va ularda ishlatiladigan matritsali operatsiyalar parametrlari keltirilgan.

1-jadval. Simmetrik shifrlash algoritmlarida foydalanilgan matritsalar parametrlari.

Shifrlash algoritmi	Matritsali operatsiya turi	Matritsa o‘lchami	Matritsa ustida bajariladigan operatsiya	Maydon (Field)
14. O‘.N.Sultanova. Questions and issues in physics (tutorial) questions and issues in Physics (tutorial).

FIZIKA DARSLARIDA VA TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH.

O‘giloy Nabiyevna Sultanova
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularni aqliy qobiliyatlarini o‘stirish, fizika fanini o‘qitishdagi eng muhim psixologik va pedagogik muammo. Buning uchun o‘qitishning faol metodlaridan, ta’lim va tarbiyaning noan’anaviy shakl va usullaridan keng miqyosida foydalanish, jism va hodisalarning ularning o‘zaro aloqadorligi, harakati va rivojlanib borishi asosida o‘rganish taqazo etiladi.

Kalit so‘zlar: musobaqa, tafakkur, psixiologik, shakl, fizik olimlar, fizik kattaliklar, jarayonlar, samaradorlik, didaktik, topishmoqlar, chizmalar, asboblar.

O‘quvchilarning o‘yin faolligini oshirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishi, ularda o‘quv va ko‘nikmalarini shakllantirishi hamda rivojlantirishi, umuman fizikani o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirishi katta ahamiyat kasb etadi. Didaktik o‘yinlar davomida o‘quvchilarda hosil bo‘ladigan ijobiy his-hayajon tuyg‘usi ularni charchashdan asraydi. Ularning intellektual qobiliyatini oshiradi [1].

Didaktik o‘yinlardan fizika o‘qitish jarayonida foydalanishning umumiy masalalari, ilmiy metodik adabiyotlarda ancha keng yoritilgan bo‘lsa ham, ularda asosiy e’tibor masalalar yechish va qonunlarga qaratilgan. Vaholangki, fizika fanini o‘zlashtirish o‘quvchilarga ancha qiyinchilik tug‘dirishi va uning ba’zi masalalarini yechishda noan’anaviy yondashuvlar talab etilishi tabiiydir. Buning bir qator ilmiy-nazariy, metodik va didaktik sabablari borki, ulardan har qanday mahoratli fizika o‘qituvchisi ko‘z yuma olmaydi. Shuning uchun fizika fanini o‘qitishda, yangi pedagogik texnologiyalar, noan’anaviy usul va shakllardan foydalanish talab etiladi. Ayniqsa, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, topqirlik, izlanuvchanlik, hozirjavoblik, mantiqiy xulosalar chiqara olish, o‘z ustida ishlash ma’lum va noma’lum jihatlarni solishtira olish, mavjud bilimlarga tayanib mushohada yuritish kabi imkoniyatlarini ishga solishda yordam beradi.

Fizika fanini o‘rganish jarayonida, o‘quvchilarning dars va to‘garak mashg‘ulotlarda didaktik o‘yinlardan namunalar keltiramiz. Bu didaktik o‘yinlarda yuqori ko‘rsatkichga erishish uchun darslik va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Fizik lug‘at o‘yini: O‘qituvchi bitta harfni doskaga yozadi, o‘quvchilar esa, o‘sha harf bilan boshlanadigan fizik termin, fizik kattalik, fizik asboblar, o‘lchov birliklar va hokazolarni daftarlariga o‘zlaricha yozadilar. Keyin qaysi o‘quvchi nechta ibora-termin yozganini aytadi. O‘qituvchi aylanib tekshirib yuradi, kim ko‘p yozgan bo‘lsa, u o‘quvchi birinchilikni oladi. Keyin o‘sha o‘quvchining topgan so‘zlari, orqada qolgan o‘quvchilarda bo‘lmagan so‘zlari doskaga yoziladi va hamma o‘quvchilar doskadan o‘zlari topa olmagan so‘zlarni ko‘chirib oladilar. Masalan, T harfi tezlik, tovush, tabiat, tormoz, tebranish, temperatura, termodinamika, Tomson, Tesla, termoyadro, tezlatgich, takomak, tortilish, tranzistor, transuran, turbulent, tutun, to‘lqin, tekis tezlanuvchan, tekis sekinlanuvchan kabi so‘zlardir.

A. Akselereometr, amorf, atom, Avogadro, akustika, alfa, antimodda, atmosfera, astrofizika, alyuminiy, adiabatik, abadiy, asosli, angstrem, aneroid, areometr, ampermetr, absolyut uzayish, amorf, anizotrop, aylana va h.k.

Fizik formulalar bo‘yicha damino o‘yini quyidagicha davom etadi: $v = \frac{s}{t} \rightarrow$

t= $\frac{s}{v} \rightarrow v = v_0 + at \rightarrow t = \frac{v - v_0}{a} \rightarrow a = \frac{v^2 - v_0^2}{2s} \rightarrow s = v_0 t + \frac{at^2}{2} \rightarrow t = \frac{A}{N} \rightarrow N = \frac{A}{t}$

$t = \frac{A}{IU} \rightarrow U = IR \rightarrow R = \rho \frac{l}{s} \rightarrow S = \frac{F}{P} \rightarrow P = nkT \rightarrow T = \frac{2E_K}{3K} \rightarrow k = \frac{R}{N_A} \rightarrow N_A = \frac{N}{\nu} \rightarrow \nu = \frac{m}{\mu} \rightarrow \mu = m_0 N_A \rightarrow$

$\rightarrow N_A = \frac{NRT}{PV} \rightarrow T = \frac{P}{nK} \rightarrow k = \frac{2E_K}{3T} \rightarrow T = \frac{P}{nK}; n = \frac{N}{V} \rightarrow V = \frac{m}{\rho} \rightarrow \rho = \frac{m}{V} \rightarrow V = Sh$

Fizik atamalardan tashkil topgan domino o‘yini.

Tezlik ⟶ kuch ⟶ chastota ⟶ atom massa ⟶
angestrum ⟶ meteor ⟶ richag ⟶ gigrometr ⟶
reostat ⟶ tarozi ⟶ ish ⟶ shokul ⟶ litr ⟶
radiy ⟶ yo‘ldosh ⟶ Sharl ⟶ Lomonosov ⟶ vaqt ⟶
Tomson ⟶ Nyuton ⟶ Nanometr ⟶ radius ⟶ sekund ⟶

tartibda davom ettiriladi. Fizik so‘zlardan tashkil topgan domino o‘yinida o‘qituvchi birinchi so‘zni aytib doskaga yozadi, oxirgi harfidan fizik so‘zlar bilan davom ettiriladi.

“Fizik lingvistika”

Til qonunlari, nutq jozibalari bilan lingvistika shug‘ullanadi. Fizika tili juda boy, uning imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga katta xizmat qilishi mumkin. Turli fizik kattaliklar, qonunlar, birliklar bilan bog‘liq boshqotirmalar o‘quvchilarni so‘zamollikka, topqirlikka va hozirjavoblikka o‘rgatadi. Bu tadbir ham, eng avvalo, ularni mustaqil ishlashga, qo‘shimcha bilim olishga, fizika fanining yozma va og‘zaki til imkoniyatlaridan foydalanishga undaydi.

Quyidagi savollarga to‘g‘ri javoblar topib, ularning bosh harflarini keltirilgan bo‘sh kataklarga joylashtirilsa, hikmatli so‘zlardan biri kelib chiqadi va u o‘quvchilarda fizika fanining qudratli tabiiy fanlardan biri ekanligini uzoq vaqt esda saqlab turadi.

Biz dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda lingvistik didaktik o‘yinlardan namunalar keltirdik, bunda ham ma’nosini, ham topishmoq javobini topish talab etiladi.

1- topshiriq: Quyidagi savollarga to‘g‘ri javoblar topib, ularning bosh harflarini keltirishgan bo‘sh kataklarga joylashtirilsa, hikmatli so‘zlardan biri kelib chiqadi va u o‘quvchilarga fizika fanining qudratli tabiiy fanlardan ekanligini uzoq vaqt eslatib turadi.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Ф	И	З	И	К	А	Ф	А	Н	И
11	12		13	14	15	16	17	18	19
М	У	Ъ	Ж	И	З	А	Л	А	Р

20	21	22	23	24	25	26
М	А	Й	Д	О	Н	И

1. Turli moddalardan tashkil topgan jismlarga …… deb aytiladi.

2. Jism shunday harakat qilishi mumkinki, uning ixtiyoriy ikki nuqtasini tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq jism ko‘chganda ham, o‘z-o‘ziga paralelligicha qolishiga ……. harakat deyiladi.

3. Moddaning hajm birligiga to‘g‘ri keladigan massasiga ……. deyiladi.

4. Bir jismga boshqa jismning ta’siri to‘xtagandan so‘ng jism tezligining o‘zgarmasligi ……. deyiladi.

5. Bir jismning ikkinchi jismga ko‘rsatadigan ta’siriga ……. deyiladi.

6. Tezlanishni o‘lchaydigan asbob…….

7. Hodisalarni xarakterlovchi kattaliklar orasidagi miqdoriy bog‘lanishdan iborat bo‘lgan ifodaga …… deyiladi.

8. Suyuqlik ichiga botirilgan jism o‘zining hajmicha og‘irlikdagi suyuqlikni siqib chiqaradi va unga shu kattalikdagi ……. kuch ta’sir qiladi

9. Kuch birligi …….

10. Issiqlik almashinish natijasida jismga beriladigan energiya miqdori…… deyiladi.

11. Jismlarning inertligini xarakterlovchi fizik kattalik …….

12. Linza markazidan o‘tuvchi ……. optik …… deyiladi.

13. Rus aviatsiyasining otasi …….

14. Jismni tashkil qilgan molekulalarning xaotik harakati va molekulalarning o‘zaro ta’sir energiyalarining yig‘indisiga ……. aytiladi.

15. kg/m3 qaysi fizik kattalikning birligi?

16. Zichlikni o‘lchaydigan asbob…….

17. Hajm o‘lchov birligi ……

18. Suyuqlik yoki gaz ichiga botirilgan jismga ta’sir qiluvchi itarib chiqaruvchi kuch ……...

19. Ko‘zg‘almas tayanch atrofida aylana oladigan jism …….

20. Optik asboblardan biri …….

21. Xususiyati jihatdan ham suyuq ham kattik jism ……...

22. Trayektoriya uzunligiga teng bo‘lgan kattalik …….

23. Kuch ta’sirida jismning shakli va hajmining o‘zgarishi …… deyiladi.

24. Trayektoriyaning ma’lum paytdagi va ma’lum nuqtadagi tezligi……tezlik deyiladi.

25. 1kg massali jismga 1 m/s^2 tezlanish bera oladigan kuch birligi ……

26. Bir jismning ikkinchi jism sirtida sirpanganda hosil bo‘ladigan va harakatga qarama-qarshi yo‘nalgan kuchga ……deyiladi.

J a v o b l a r:

1. Fizik jism. 2. Ilgarilanma harakat. 3. Zichlik. 4. Inersiya. 5. Kuch. 6. Akselereometr. 7. Fizik qonuniyat. 8. Arximed kuchi. 9. Nyuton. 10. Issiqlik miqdori. 11. Massa. 12. O‘q. 13. Jukovskiy. 14. Ichki energiya. 15. Zichlik. 16. Areometr. 17. Litr. 18. Arximed kuchi. 19. Richag. 20. Mikroskop. 21. Amorf. 22. Yo‘l. 23. Deformatsiya. 24. Oniy tezlik. 25 Nyuton. 26. Ishqalanish kuchi.

Xulosa qilib aytganda, darsda va to‘garaklarda foydalaniladigan didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarning quyidagi afzalliklari mavjud [2]:

- o‘quvchilarning bilish faoliyati oshadi;
- eng dolzarb muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
-mashg‘ulot davomida o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam, do‘stona munozara hosil bo‘lishiga olib keladi;
- o‘quvchilar tayyorgarlik davomida darslik, qo‘shimcha adabiyotlardan mustaqil foydalanadilar;
- o‘quvchilar o‘yin mashg‘ulotiga katta qiziqish bilan tayyorgarlik ko‘radilar, natijada mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash samaradorligi ortadi;

-o‘quvchilarning o‘z bilimini va iqtidorini sinab ko‘rishda, o‘z-o‘zini baholashda, kasb tanlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Talabalarga mustaqil bajarishlari uchun quyidagicha mazmundagi lingvistik topshiriqlar berish mumkin:

18-jadval

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12

13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24

25	26	27	28	29	30	31	32	33

4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9

Elektr maydon tushunchasini fanga kiritgan olim...

Bir jismning sirtida ikkinchi jism harakatlanganda hosil bo‘ladigan va harakatga qarama-qarshi yo‘nalgan kuch...

Hajm birligidagi jism massasini tavsiflovchi fizik kattalik...

Spektrda qizil nurning yuqorisida joylashgan nur...

Kuchning shu kuchni ta’sir etish vaqtiga ko‘paytmasi...

Keyingi uzunlikdan dastlabki uzunlikning ayirmasi...

Jism tezligi o‘zgarishining shu tezlik o‘zgarishi uchun ketgan vaqtga nisbati...

Molekulalarning ilgarilanma harakati to‘xtaydigan va gazning bosimi nolga teng bo‘ladigan temperatura...

Sirtga tik yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadigan kuchning shu sirt yuzasiga nisbati...

Jismni tashkil qilgan molekulalarning tartibsiz harakat kinetik energiyasi bilan ularning o‘zaro ta’sir potentsial energiyalari yig‘indisi...

Yerni qurshab olgan havo qatlami.

Sinish burchagining 900 ga teng bo‘lgan tushish burchagi...

Ho‘llanuvchi sirt va suyuqlik sirtiga o‘tkazilgan urinma orasidagi burchak...

Berilgan vaqt momentidagi tezlik...

Yorug‘lik nurining biror to‘siqni aylanib o‘tishi...

Moddalarning ximiyaviy tarkibi bir xil bo‘lib, atom massasi bilan farq qiluvchi moddalar...

1 kg suyuqlikni butunlay bug‘ga aylantirish uchun zarur bo‘lgan energiya...

mol’ moddadagi atom yoki molekulalar soni...

Majburiy induktsiyalangan nurlanish...

Yer radiusini birinchi bo‘lib aniqlagan olim...

Moddalarning tashqi omillar ta’sirisiz o‘z-o‘zidan nurlanishi...

Bir jismga boshqa jismning ta’siri to‘xtagandan so‘ng, jism tezligining o‘zgarmasligi...

1 kg massali jismga 1 m/s^2 tezlanish beruvchi kuch...

Turtki ma’nosini anglatuvchi fizik tushuncha...

Jismning notekis harakatini tavsiflaydigan tezlik...

Burchak o‘lchov birligi...

Nurlanish dozasining o‘lchov birligi...

Radiofaol nurlanishlardan biri...

Tushish burchagi sinusining sinish burchagi sinusiga nisbati...

Son jihatida nol ideal gazni izobarik ravishda bir Kelvinga isitishda bajarilgan ish...

Texnik quvvat birligi...

Atom yadrosiga kiruvchi neytron zarrasini aniqlagan olim...

Temperatura o‘zgarmas bo‘lgan jarayon...

Zarralarning tartibsiz harakati gipotezasiga tayanib, Broun harakatining miqdoriy nazariyasini ishlab chiqqan olim...

Absolyut noldan boshlab hisoblanadigan temperaturaning termodinamik shkalasi...

Vaqtning o‘lchov birligi...

Zaryadi vodorod yadrosining zaryadiga teng bo‘lgan elementar zarra...

6400 km qaysi sayyora radiusi...

Atom tuzilishini eksperimental o‘rgangan olim...

Moddalarning issiqlik almashinishi jarayonida temperaturaning tenglashishi...

Modda massasining shu modda molyar massasiga nisbati...

Elektron belgisi...

Protonlar va neytronlar yig‘indisi...

Jismlarning issiqlik holatini tavsiflovchi fizik kattalik...

1 m^3 havodagi suv bug‘ining grammlarda ifodalangan qiymati...

Moddalarning tuzilishi haqidagi tushunchalarni fanga olib kirgan rus olimi...

Yorug‘lik ta’sirida moddadan elektronlarning ajralishi...

Atom yoki yadro o‘lchamlarida ishlatiladigan uzunlik birligi...

Absolyut uzayishning dastlabki uzunlikka nisbati...

Yashiringan ibora “Fizika – tabiat hodisalarini o‘rganuvchi eksperimental fan”...

Javoblar: 1. Faradey. 2. Ishqalanish kuchi. 3. Zichlik. 4. Infraqizil nurlar. 5. Kuch impulsi. 6. Absolyut uzayish. 7. Tezlanish. 8. Absolyut nol. 9. Bosim. 10. Ichki energiya. 11. Atmosfera. 12. To‘la ichki qaytishning chegaraviy burchagi. 13. Ho‘llash burchagi. 14. Oniy. 15. Defraktsiya. 16. Iza-toplar. 17. Solishtirma bug‘lanish issiqligi. 18. Avogadro doimiysi. 19. Lazer. 20. Al-Xorazmiy. 21. Radiofaollik. 22. Inertsiya. 23. Nyuton. 24. Impuls. 25. O‘rtacha tezlik. 26. Radian. 27. Grey. 28. Alfa. 29. Nur sindirish ko‘rsatkichi. 30. Universal gaz doimiysi. 31. Vatt. 32. Chedvik. 33. Izotermik. 34. Eynshteyn. 35. Kelvin. 36. Sekund. 37. Proton. 38. Yer radiusi. 39. Rezeford. 40. Issiqlik muvozanati. 41. Modda miqdori. 42. ye. 43. Nuklon. 44. Temperatura. 45. Absolyut namlik. 46. Lomonosov. 47. Fotoeffekt. 48. Angstrem. 49. Nisbiy uzayish. Bunday lingvistik uy topshiriqlarini bajarish orqali talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasi shakllanadi: talabalarda kitob

bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi; qo‘shimcha adabiyotlardan mustaqil foydalanishni o‘rganadi; fizika qonunlarini ko‘proq bilishga intiladi; fizik olimlarning ishlari bilan tanishadi; fizik kattaliklarning o‘lchov birliklari bilan ishlashni o‘rganadi; formulalarni ko‘proq bilishga intiladi; fizik kattaliklar orasidagi funktsional bog‘lanishlarni tushunib yetadi.

Fizika sohasida qonunlarni kashf qilgan olimlar haqida ma’lumot olish maqsadida talabalarga quyidagi boshqotirmani mustaqil bajarish uchun tavsiya qilishni joiz deb topdik . Bunda talabalar quyidagi savollarga javob topishlari lozim [3-4]:

1. Harakat qonunlarini aniqlagan olim. 2. Atmosfera bosimini aniqlagan olim. 3. Elektr maydon tushunchasini fanga kiritgan olim. 4. Atom tuzilishini aniqlagan olim. 5. Molekulyar-kinetik nazariya asoschi-laridan biri. 6. Kvant fizikasiga asos solgan olim. 7. Tokning magnit maydonini aniqlagan olim. 8. Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni, suyuklik okimining tezligi bilan uning bosimi orasidagi miqdoriy bog‘lanishni aniqlagan olim. 9. Magnit maydonining harakatlanuvchi zaryadlar bilan bog‘lanishni tasdiqlovchi tajribani o‘tkazgan olim. 10. Foto-effekt hodisasini 1887 yilda kashf etgan olim. 11. Geliotsentrik tizimni yaratgan olim. 12. Atom yadro tarkibiga kiruvchi neytronni aniqlagan olim. 13. Yopiq idishdagi suyuqlik yoki gazga tashqi kuchlar ostida berilayotgan bosimning barcha yo‘nalishlar bo‘yicha bir xil tarqalishini aniqlagan olim. 14. Tovushning qattiqlik birligini aniqlagan olim. 15. Rentgen naycha asoschisi. 16. O‘zining asarlarida moddalar mayda zarralardan tuzilganligini aniqlagan olim.

Boshqotirmani bajarishda raqam va ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Raqamlarning oldiga qo‘yilgan ko‘rsatkich javobni belgilashdagi dastlabki yo‘nalishni, ya’ni olimning nomidagi boshlang‘ich ikkita yoki uchta harfni ko‘rsatadi. Qolgan harflarni aniqlashda yo‘nalishni talabaning o‘zi tanlaydi. Keyingi hollarda yo‘nalishni yuqoriga, pastga, o‘ngga va chapga o‘zgartirish mumkin. Masalan, to‘rtinchi savolga javobni aniqlash uchun ko‘rsatkich bo‘yicha ikki katak o‘ngga harakatlanib, R va Ye harflarini aniqlaydi, so‘ngra Rezerford so‘zini hosil qilish uchun qolgan yo‘nalishlarni talabaning o‘zi tanlaydi .

1) Ichki energiyani elektr energiyaga aylantiruvchi tok manbayi (termoelement); 2) yorug‘lik energiyasini, elektr energiyaga aylantiruvchi qurilma (fotoelement); 3) zanjirdagi elektr asboblarining ulanish metodlari tasvirlangan chizma (sxema); 4) zaryadlangan zarralarning tartibli harakati (tok); 5) elektr toki haqidagi ta’limotga asos solgan italyan fizigi (Volta); 6) zaryadlangandan so‘ng, tok manbai sifatida foydalaniladigan asbob (akkumulyator); 7) elektronning asosiy xossalaridan biri (zaryadi); 8) elektr energiyasini iste’molchilarga zarur vaqtda, ulab va uzib turish uchun ishlatiladigan qurilma (kalit); 9) elektrostantsiyalarda elektr toki beriladigan qurilma (generator); 10) hayvon organizmida elektr hodisalarini birinchi bo‘lib kuzatgan italyan professori (Galvani).



Uyga quyidagicha topshiriqlar beriladi: (lingvistik o‘yin)

Quyida keltirilgan savollarga to‘g‘ri javob topib, ularning bosh harflari qo‘yib chiqilsa yashiringan ibora chiqadi.

- Yorug‘lik ta’sirida metall sirtidan manfiy elektronlarning uzilib chiqishi (fotoelektrik effekt).
- Qo‘yilgan kuch ta’sirida jismning siljishi (ish).
- Birlik hajmga to‘g‘ri kelgan modda massasiga (zichlik).
- Bir jismning ikkinchi jism sirtida sirpanganida hosil bo‘ladigan va harakatda qarama-qarshi yo‘nalgan kuch (ishqalanish kuchi).
- Kuchning uning ta’sir vaqtiga ko‘paytmasi (kuch impulsi).
- Zichlikni o‘lchaydigan asbob (areometr).
- Foydali ishning to‘liq ishga nisbatini ifodalovchi kattalik (FIK).
- Tezlanish o‘lchaydigan asbob (akselereometr).
- 1 kg massali jismga 1 m/s2 tezlanish bera oladigan kuch birligi (Nyuton).
- Bir jismga boshqa jismning ta’siri to‘xtagandan so‘ng jismning o‘z tezligini o‘zgartirmaslikka intilish xususiyati (inertsiya).
- Bir jismning boshqa jismga mexanik ta’sirini tavsiflaydigan fizik kattalik (kuch).
- Erni qurshab olgan havo qatlami (atmosfera).
- Qo‘zg‘almas, mustahkam ipga osilgan …. Matematik mayatnik (sharcha).
- Foiz qaysi fizik kattalik birligi (FIK).
- μ – nima (ishqalanish koeffitsienti).
- Ichki ishqalanish (yopishqoqlik).
- Massani o‘lchaydigan asbob (shayinli tarozi).
- Hajmning o‘lchov birligidan biri (litr).
- Gazlarning harakati va unda jismlarning muvozanatini o‘rganuvchi bo‘lim (aerostatika).
- A.S.Popovning ixtirosi (radio).

Vaqt o‘tishi bilan jism vaziyatining boshqa jismlarga nisbatan o‘zgarishi. (mexanik harakat).

Agar moddiy nuqta aylana bo‘ylab ixtiyoriy teng vaqtlarda teng masofani bosib o‘tishini tavsiflovchi xususiyat. (Aylanma tekis harakat).

Vaqtni o‘lchaydigan asbob (sekundomer).

Xalqaro birliklar tizimida massa birligi (kg).

Jismning vaqt birligi ichida to‘liq aylanishlari soni (aylanish chastotasi).

Har qanday jism unga boshqa jism ta’sir qilmaguncha, o‘zining tinch yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakatini saqlaydi (Nyutonning 1-qonuni) .

Jism massasini uning harakatlanish tezligiga ko‘paytmasi (jism impulsi).

Javoblar: 1. Fotoelektrik effekt. 2. Ish. 3. Zichlik. 4. Ishqalanish kuchi 5. Kuch impulsi. 6. Aryometr. 7. FIK. 8. Akselereometr. 9. Nyuton. 10. Inertsiya 11. Kuch. 12. Atmosfera 13. Sharcha. 14. FIK. 15. Ishqalanish koeffitsienti 16. Yopishqoqlik. 17. Tarozi. 18. Litr. 19. Aerostatika. 20. Radio. 21. Mexanik harakat 22. Aylanma tekis harakat. 23. Sekundomer. 24. Kg. 25. Aylanish chastotasi. 26. Nyutonning 1-qonuni. 27. Impuls.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Babanskiy Yu.K. Metodika predpodavaniya fiziki v sredney shkole. –M.: Prosvещenie. 1968. –199 s.
2. Kabardin O.F. Metodicheskie osnovы fizicheskogo eksperimenta. // J. Fizika v shkole. 1985. № 2. S. 3– 9.
3. Pyorishkin A.V. Fizika o‘qitish metodikasi asoslar. – T.: O‘qituvchi. 1990. – 320
4. Sultonova O‘.N., Xolmurodov M. Fizika o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyaning didaktik asoslari. Uslubiy qo‘llanma. –Termiz, 2012. -64 b.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ASTRONOMIYADAN MASALALAR YECHISH DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH METODIKASI

Narbayev Azamat Baxramovich

Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti Umumiy fizika kafedrasi dotsenti

Xolliyev Diyor Navruz o‘g‘li

Termiz davlat universiteti Fizika ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

kholliyevdiyorn@gmail.com

Annotatsiya. Yurtimizda ta’limga qaratilayotgan yuksak e’tibor zamirida yosh avlodni barkamol va yetuk inson qilib tarbiyalash hamda sifatli ta’lim berish asosiy maqsad qilib belgilangan. Ushbu maqsad yo‘lida astronomiya o‘qitishda o‘quvchilarning masalalar yechish bo‘yicha amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda amaliy mashg‘ulot va masala yechish darslari katta ahamiyatga ega. Amaliy mashg‘ulot darslarida masalalarni yechishda ayrim murakkabliklar kelib chiqadi. Ushbu murakkablarlarni bartaraf qilish uchun tushuntirish ketma-ketligi to‘g‘ri qo‘yilishi kerak. Ushbu maqolada astronomiyadan masalalar yechish darslarini tashkil qilish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

1-MASALA YECHISH DARSI

Kerakli ma’lumotlar

1. **Astronomiyada uzunlik o‘lchov birliklari:**

1 parsek (pk)= 3,26 y.y. = 206265 a.b. = 30,86 · 10^{12} km
1 yorug‘lik yili (y.y.)= 63271,5 a.b =9,5· 10^{12} km
1 astronomik birlik (a.b.) = 149,6· 10^{6} km

2. **Osmon sferasining asosiy nuqta chiziq va aylanalari:**



Ta’rif: *Osmon sferasi* deb markazida kuzatuvchi turgan radiusi ixtiyoriy bo‘lgan faraziy sferaga aytiladi. Bu sferaga biz osmon yoritqichlarining vaziyatlarini proeksiyalaymiz.

Osmon sferasining asosiy chiziqlari, nuqtalari va aylanalari

Vertikal chiziq (shoqul chizig‘i): osmon sferasining markazidan o‘tuvchi va og‘irlik kuchi yo‘naligiga parallel bo‘lgan chiziq.

Zenit (Z) va nadir nuqtalar (Z'): vertikal chiziqning osmon sferasi bilan kesishgan nuqtalari.

Matematik gorizont: vertikal chiziqqa perpendikulyar, osmon sferasining markazidan o‘tuvchi osmon sferasi bilan kesishuvchi gorizontal tekislikdan iborat katta aylana.

Olam o‘qi: osmon sferasi markazidan o‘tuvchi va osmon sferasining ko‘rinma sutkalik harakati yuz beradigan, ya’ni, Yer aylanish o‘qiga parallel chiziq.

Olamning shimoliy (P) va janubiy (P') qutblari: olam o‘qining osmon sferasi bilan kesishgan nuqtalari.

Osmon ekvatori: osmon sferasining markazidan o‘tuvchi olam o‘qiga perpendikulyar va osmon sferasi bilan kesishuvchi katta aylana tekisligi.

Osmon meridiani: Olam qutbi va zenit nuqtalaridan o‘tuvchi katta aylana.

Shimol (N) va janub (S) nuqtalar: gorizont va meridian kesishadigan nuqtalar. Shimol nuqta gorizontda olamning shimoliy qutbi ostida yotadi.

Tush chizig‘i (NS): gorizont tekisligi va osmon meridiani kesishadigan to‘g‘ri chiziq.

Sharq (E) va g‘arb (W) nuqtalar: ekvatorning gorizont bilan kesishgan nuqtalari.

Ekvator nuqtalari (Q, Q’): ekvatorning meridian bilan kesishgan nuqtalari.

Vertikal aylanalar yoki vertikallar: zenit nuqtadan o‘tuvchi va gorizontga perpendikulyar bo‘lgan katta aylanalar.

Birinchi vertikal: meridian tekisligiga perpendikulyar bo‘lib, sharq (E) va g‘arb (W) nuqtalardan o‘tuvchi vertikal aylana.

Olam o‘qining gorizontga og‘malik burchagi kuzatuv joyining geografik kenglamasi NP yoy (φ) ga teng (olam qitbining gorizontdan balandligi haqidagi teorema).



Ekliptika: Quyosh markazining bir yil davomida yulduzlarga (yoki yulduz turkumlariga) nisbatan osmon sferasida chizgan ko‘rinma katta aylanasi.

Bahorgi (♈) *va kuzgi* (♎) *tengkunlik nuqtalar*: ekliptika va ekvatorning kesishgan nuqtalari.

3. Graduslardan soatlarga yoki soatlardan graduslarga o‘tish

Yoritgichlarning soat burchagi ba’zan soatlarda, ba’zan esa graduslarda o‘lchanadi. Bu holda graduslardan soatlarga yoki soatlardan graduslarga o‘tishga to‘g‘ri keladi. 360^0 li yoy aylana deyiladi. Bundan kelib chiqib $360^0=24^h$. Demak har bir soatlar oralig‘i 15^0 teng bo‘ladi (26-rasm). Bilamizki,

1^0 = 60' (yoy minuti),

1'=60" (yoy sekundi)

Quyidagi jadvalda qolgan o‘tishlar keltirilgan.



Yoy o‘lchamida	360°	15°	1°	15'	1'	15"
Vaqt o‘lchamida	24^h	1^h	4^m	1^m	4^s	1^s

4. Yillik parallaks π - ko‘rish nuriga perpendikulyar Yer orbitasi katta yarim o‘qining yoritqichdan qaragandagi ko‘rinish burchagiga aytiladi:

$D = a / \sin \pi$,

bu erda a – Yer orbitasi katta yarim o‘qi. Agar D parseklarda, π - yoy sekundlarida bo‘lsa, u holda $D = 1 / \pi''$ (1 parsek mos holda parallaks $\pi = 1''$ bo‘lgandagi masofa).

5. Yulduzlarning yarqiroqligini yulduz kattaliklarida belgilashni miloddan avvalgi II asrda inson ko‘zining nurga sezgirligiga tayangan holda yunon astronomi Gipparx boshlab bergan. U qabul qilgan shkalaga ko‘ra, bir-biridan 1 yulduz

kattaligiga farq qilgan yulduzlar ravshanliklarining farqi taxminan 2,5 martaga to‘g‘ri kelgan (30-rasm).

Ko‘rinma yulduz kattaligi

Quyosh Yer yuzini 10^5 lk (lyuks) bilan yoritadi va Yer atmosferasidan tashqarida Quyosh hosil qilayotgan yoritilganlik 137000 lk ga teng. To‘lin Oyning yoritishi 0,25 lk, ish stoli ustidagi elektr lampaning yoritishi 20 lk, $m=0^m$ yulduzning yoritishi $E=2{,}61\cdot10^6$ lk.

Yorug‘lik kuchi 1 kandellaga teng bo‘lgan xalqaro sham 1 km uzoqlikdan $0{,}8^m$ yulduz sifatida va 10 km uzoqlikdan esa, 5.8^m yorug‘likdagi yulduz sifatida ko‘rinadi. Ya’ni, yoritqich hosil qilayotgan yoritilganlik uning uzoqligiga bog‘liq. Yoritilganlikni o‘lchashdan topilgan yulduziy kattalik ko‘rinma yulduziy kattalik deb ataladi (31-rasm).



Ko‘rinma yulduz kattaligining tushuntirilishi

Ayni paytda yulduz kattaliklarini belgilash ilmiy asosda, ya’ni inson ko‘zi sezgirligining psixofiziologik qonunlariga amal qilgan holda qabul qilingan. Buning uchun ravshanliklari bir-biridan 100 martaga farq qiluvchi ikki yulduzning yulduz kattaliklarining farqi, shartli ravishda, besh yulduz kattaligiga teng deb qabul qilingan. Yulduz kattaliklarining bu farqi besh yulduz kattaligi intervali uchun qabul qilinganidan, bir yulduz kattaligiga to‘g‘ri kelgan ikki yulduz ravshanliklari yoki yorqinliklarining farqi $\sqrt[5]{100}$ =2,512 ga teng bo‘ladi.

Yulduziy kattaliklar farqi yoki ularning yorqinliklari nisbati Pogson formulasidan aniqlanadi:

$$m_1 - m_2 = 2{,}5\, lg\ \frac{L_2}{L_1}.$$

m_1 va m_2 – ko‘rinma yulduz kattaligi;

L_1 va L_2 – yulduzlarning yorqinliklari

6. Teleskopning kattalashtirishi obyektiv va okulyarning fokus masofalarining nisbatiga bog‘liq bo‘ladi.

$$\Gamma = \frac{F_{ob}}{F_{ok}}$$

1. Agar Yerdan Siriusgacha bo‘lgan masofa 8.611 yorug‘lik yiliga teng bo‘lsa, Siriusdan keladigan yorug‘lik bizga qancha vaqt kerak bo‘ladi? Javobni yillar, oylar va kunlarda ayting.

2. Yulduzgacha bo‘lgan masofa 250 yorug‘lik yiliga teng bo‘lsa, yorug‘lik tezligining 1/10 qismiga teng tezlikda harakat qilayotgan kosmik kema unga qancha vaqtda yetib boradi? Javobni yillarda ifoda eting.

3. Sanani, astronomik kashfiyot va uni yaratgan olimni jadvalga to‘g‘ri kiriting.

Sana	**Kashfiyot**	**Olim**
1) 1610 yil	A) Plutonning kashf qilinishi	1) Urben Leveriye
2) 1761 yil	B) Koinotning jadal kengayishini kashf qilinishi	2) Galileo Galiley
3) 1781 yil	C) Uranning kashf qilinishi	3) Mixaylo Lomonosov
4) 1846 yil	D) Yupiter yo‘ldoshlarining kashf qilinishi	4) Uilyam Gershel
5) 1930 yil	E) Neptunning kashf qilinishi	5) Saul Perlmutter, Brayan Shmidt va Adam Rays
6) 1998 yil	F) Venerada atmosferani kashf qilish	6) Klayd Tombo

4. Osmon meridiani matematik gorizont bilan qaysi nuqtalarda kesishadi? Chizma asosida tushuntirib bering.

5. $8^h25^m16^s$ ni yoy o‘lchamida ifodalang.

6. 68°24'15" ni soat o‘lchamida ifodalang.

7. Agar yulduzning yillik parallaksisi 0,16" ga teng bo‘lsa, yulduzgacha masofa parseklarda qanchaga teng bo‘ladi?

8. Betelgeyze yuduzigacha masofa 200 parsekga teng. Uning yillik parallaksi nimaga teng?

9. Qutb yulduzning yillik parallaksi 0.0075" ga teng. Ushbu yulduzdan bizgacha masofa necha yorug‘lik yiliga teng?

10. 11^m yoki 16^m yulduz kattaligidagi yulduzlardan qaysi biri necha marta yorqinroq?

11. Bir yulduz boshqa yulduzdan 25,2 marta yorqinroq. Ularning yulduz kattaligidagi farqini toping.

12. Teleskop obyektivining fokus uzunligi 1 m ga teng. Qanday fokusli okulyar bilan obyekt tasviri 20 marta kattalashtiriladi?

13. Obyektivning fokus masofasi 160 sm bo‘lganda okulyar 200 marta kattalashtirsa, fokus masofasi 12 m bo‘lgan obyektivdan foydalanilganda kattalashtirish nimaga teng bo‘ladi?

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, astronomiyaga oid bu turdagi masalalarni yechishda grafik va chizmalargdan foydalanib yechilsa, masalaning asl mohiyatini anglash osonlashadi, hisoblashga oid chalkashliklar kamayadi, ishlash vaqti qisqaradi, jarayon haqidagi tasavvur ham to‘liqroq bo‘ladi. O‘quvchilar ushbu ketma-ketlikda masalalar yechishni olib borsalar masalalar yechish bo‘yicha ko‘nikmasi rivojlantirib boradi, bu esa o‘quvchi va talabalarda aniq va teran fikrlash qobiliyatlarini shakllantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xolliyev Diyor Navruz o‘g‘li, Narbayev Azamat Baxramovich. Bloklarga oid masalalarni yechishda koordinatalar usulini qo‘llash. Modern education and development. Vol. 2 No. 3 (2024). –B.97-101
2. Xolliyev Diyor Navruz o‘g‘li. Tekislikdagi jismlarga bog‘langan bloklarga oid masalalarni yechishda koordinatalar usulini qo‘llash metodikasi. Лучшие интеллектуалные исследования | ЧАСТ-40 | ТОМ-1 (2025). –B.97-101
3. Бузруков Т. О. Ўқувчиларда физикадан турли типдаги масалалар ечиш компетентликни шакллантиришни такомиллаштириш. //Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III. – 2023. – С. 7-9.
4. Narbaev A. B. Methods of using media education and telecommunication technologies in teaching the topic" Visual motion of the sun and stars" //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2020. – Т. 2020. – №. 1. – С. 119-125.

FIZIKADAN EKSPERIMENTAL MASALALARNI YECHISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Butayev Muxammadi Alimardanovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL fizika fani
bosh o‘qituvchisi telefon: +998909635686

Annotatsiya: Fizika darslarida bo‘limlar tugallanganda, o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg‘ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Kalit so‘zlar: texnologiya, kreativ, mashg‘ulot, o‘quvchi, bahslashuv texnologiyasi, masala, metod.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun asosida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining maqsadi, barkamol shaxslarni, malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirishda, o‘quvchilarda kreativ faoliyatini rivojlanishi, mustaqil fikrlashi kabi intellektual sifatlarni tarbiyalash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining kreativ faoliyati tafakkuri yuqori bo‘lsagina, uning bilim bo‘yicha sifat ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi.

Kreativ faoliyat tafakkuri nima? Uni qanday rivojlantirish mumkin?

Tafakkur bu falsafa, psixologiya hamda pedagogika kabi o‘quv fanlarining muhim tushunchalaridan bo‘lib, unga olimlar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan.

O‘quvchida kreativ faoliyat tushunchasini shakllantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uni o‘quvchi ongiga singdirishda nazariya va amaliyot uzviyligini ifodalovchi didaktik prinsiplarga amal qilinadi. Mazkur jarayonni samarali amalga oshirish imkoni yaratilib, o‘quvchining kreativ faoliyati shakllantirishida fizikadan eksperimental masalalarni yechishda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan boyitiladi.

O‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishlari, mavzuni o‘zlashtirishlari va dasr maqsadining amalga oshishida muhim rol o‘ynaydi. O‘tilgan yoki o‘tiladigan mavzu yuzasidan olgan bilimlarining bugun va kelajakda ishlatilish o‘rni hamda o‘quvchilar hayot faoliyatida zarurati ochib berilishiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Masalaga e’tiborni jalb qilib, mazkur mavzuni o‘rganishga qiziqtiruvchi hissiy holatni yuzaga keltiradi. Bu esa o‘quvchilarda fanga oid bilim va ko‘nikmalarining shakllantirishga asos bo‘ladi. Bunda yangi mavzuni boshlashdan avval o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kirish maqsadida **“BAHSLASHUV” texnologiyasidan** foydalaniladi.

«BAHSLASHUV» TEXNOLOGIYASI
Texnologiyaning maqsadi: O‘quvchilarning o‘quv guruhlarida ularning o‘zaro munosabatlarini yana-da yaxshilash, bir-birlariga tezlik bilan ko‘nikishlari yoki o‘zaro bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lishlari uchun ba’zida ular o‘rtasida bahslar tashkil etib turish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday bahslar o‘quvchilarni o‘z fikrlarini charxlab olishga hayotga va turli muammolarga bo‘lgan munosabatlarini aniqlab olishga katta yordam beradi.
Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: Bahs mavzularini o‘quvchilarning o‘zlari tanlashlari va taklif etishlari mumkin. Bu mavzular ularni bahsga chorlovchi, muammoli, qiziqarli bo‘lishi kerak, aks holda bahs davomida o‘quvchilar o‘z fiklarini bayon eta olmaydilar. Bahslar o‘quvchilarni ayrim noto‘g‘ri fikrga kelishining oldini oladi. O‘quvchilarni erkin fikrlashga, o‘z fikrini isbotlashga o‘rgatadi, atrofda bo‘layotgan voqealarni tushungan holda to‘g‘ri sharhlashga, o‘z fikrlarida turishga, noo‘rin fikrlarga o‘z vaqtida qarshilik ko‘rsatishga hamda har bir fikrni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlab olishga, shu bilan bir qatorda o‘rtoqlari bilan suhbat qilish, bahslashish, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olishga, ta’sir eta olish madaniyatiga o‘rgatadi. Bahslarni samarali o‘tishi, albatta, ularning oldindan qanday tayyorlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Biz quyida bahslarga tayyorgarlik ko‘rishda e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan ba’zi bir bosqichlarni ajratib ko‘rsatmoqchimiz: - bahs mavzusini tanlash va uni tasdiqlab olish; - tarbiyaviy vazifalarni aniqlab olish; - oldindan bahs mavzusini e’lon qilish va bahs davomida muhokama qilinadigan savollarni belgilab qo‘yish; - o‘quvchilarni bahs davomida muhokama qiladigan savollarini to‘laroq yoritishga yordam beradigan qo‘shimcha materiallarni to‘plash; - bahsni o‘tkazish uchun mas’ul va boshlovchilarni tayinlash; - bahs o‘tkaziladigan joyni jihozlash; - bahslashish qoidalarini rangli, ko‘rgazmali etib tayyorlash.	Bahs qatnashchilari bahsni o‘tkazish va unda o‘zlarini tuta bilish, boshqara olish to‘g‘risidagi qoidalar bilan oldindan yoki bahs mobaynida tanishib olishlari kerak. Ular qo‘yidagicha bo‘lishi mumkin: - bahslashishdan avval nima demoqchi bo‘lganingizni yaxshilab o‘ylab olish; - gapirayotganda fikrlarni aniq, sodda, mantiqan va ketma-ketlik bilan bayon qilish; - faqat ishonchi komil bo‘lgan fiklarni bayon etishga harakat qilish, bilmagan, ishonmagan fikrlar bilan bahslashmaslik; - kimningdir fikriga qo‘shilmasa, uni fikrini masxaralamay, uning ustidan kulmay, haqgo‘ylik bilan bahslashish; - aytilgan fikrlarni ikkinchi bor qaytarmasdan, yangi fikr bo‘lsagina o‘sha fikrni bayon etish; - bahslashuv vaqtida qo‘llarni har tomonga o‘ynatmasdan, ovozni balandlatmasdan, baqirmasdan gapirish. - Agar boshqalarni o‘z fikringizga ishontirmoqchi bo‘lsangiz, unda siz o‘z fikringizning isbotiga, albatta, aniq dalillar, misollar keltirishingiz kerak; - bahslashayotgan suhbatdoshni hurmat qilish, uni xafa qilmaslik, uning shaxsiga tegadigan gaplarni, qiliqlarni qilmaslikka harakat qilish.

Bu texnologiyanini fizika darslarida foydalanishdan maqsad-dars qaysi shaklda bo‘lmasin, qayerda o‘tkazilmasin, darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. Fizika darsida o‘qituvchi tegishli muammolarga o‘quvchilarni jalb etishi, ularning harakatini faollashtirishi va natijada o‘zlashtirishlarini ta’minlashi lozim. Bunda o‘qituvchi faqat nazoratchi (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. Ushbu metod orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarini boshqara olish, tanqidiy va ijobiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Bu metoddan fizika darslarida foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usulni asosan, biror bob, bo‘lim tugaganda o‘tkazishni tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Suyarov K.T. Talabalarning fizikadan olgan ekspremental bilimi, o‘quvi va ko‘nikmasini tekshirishning darajalari va ularni amalda qo‘llash //Ta'lim, fan va innovatsiya. 2016.
2. Abdalova S. Mustaqil ta’limni boshqarish va talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda kreativ texnologiyalar ning o‘rni //Ta’ lim menejmenti.-Toshkent,
3. Bandarkova A. Kreativnaya pedagogicheskaya texnologiya formirovaniya professionalnoy kulturi uchashixsya // Nauchno-metodicheskiy jurnal.-Moskva, 2008.
4. Sadriddinov N., Rahimov A., A.Mamadaliyev, Z.Jamolova.Fizika o‘qitish uslubi asoslari. T.: O‘zbekiston-2005.
5. Ta’limiy pedagogik texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma.Samarqand-2013. 7. A.G‘.G‘aniyev va boshqalar. Fizika I qism.Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun.t.:2010.

AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Babaxanov Oybek Xatamovich,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi fizika fani
bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Fizika fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqa innovatsion vositalardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, akademik litseylarda ko‘rgazmali tajriba talab qiluvchi fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, mavzuni chuqurroq tushunishlarini ta’minlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Masalan, kompyuter simulyatsiyalari yordamida o‘quvchilar murakkab fizik jarayonlarni (masalan, gravitatsiya, elektromagnit to‘lqinlar yoki kvant mexanikasi) virtual muhitda ko‘rishlari mumkin. PhET Interactive Simulations kabi dasturlar fizika qonunlarini interaktiv tarzda o‘rganish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasini oshiradi.

Kalit so‘zlar: AKT**,** virtual laboratoriya**,** PhET, Kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (VR).

Fizika fani o‘quvchilarga tabiatni va uning asosiy qonuniyatlarini tushunishga, ilmiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradigan fan sifatida katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jahon ta’lim tizimlarida yirik o‘zgarishlar va texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi bilan, o‘qitish metodlari ham yangilanmoqda. O‘quvchilarning bilim olish jarayoni yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni ta’limga qo‘shish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ayniqsa, akademik-litseylarda fizika fanini o‘qitishda texnologiyalarning roli juda muhim, chunki bu o‘quvchilarga nafaqat ilmiy bilim bilan berish, balki ularning tasavvur olamini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati, imkoniyatlari va usullari haqida so‘z boradi. Shuningdek, texnologiyalarning o‘qitish jarayoniga ta’siri va kelajakdagi istiqbollari ham ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqa, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish imkoniyatlari va texnologiyalar orqali tushunchalarning vizual tarzda taqdim etilishi o‘qitishning sifatini oshiradi. Fizika fani murakkab qonun va qoidalardan iborat bo‘lib, bu tushunchalarni o‘quvchilarga aniq va sodda tarzda tushuntirish ko‘p hollarda qiyinchilik tug‘diradi. Zamonaviy texnologiyalar bu jarayonda muhim yordamchi vosita bo‘lib, fizikaning jarayonlarnii yana-da yengil tushunishga imkon yaratadi.

Fizik jarayonlarini modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlarga: **PhET Interactive Simulations,** Physics, va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Axborot texnologiyalarning imkoniyatidan foydalangan holda kompyuter modellarini o‘quv jarayonlarida foydalanish o‘zining samarasini beradi. Kompyuter modellarini o‘quv jarayonlarida qo‘llash tajriba kuzatib bo‘lmas darajada tez ro‘y bersa, turli qiyinlikdagi topshiriqlar ustida ishlashga to‘g‘ri kelsa va bir vaqtning o‘zinda bir nechta jaryonlarni bajarishga to‘gri kelsa juda qo‘l keladi

Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish uchun axborot texnologiyada fizik bilimlardan keng foydalaniladi.

Axborot texnologiyalaridan fizika fanini o‘qitishda foydalanish - darsliklarning elektron shakllari, elektron darsliklar, elektron plakatlar, test dasturlarini yaratish, masalalar yechish va hokazo bosqichlardan iborat bo‘lib, yoshlarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, hodisa va qonuniyatlarni chuqurroq anglab yetishlarida, masofaviy va mustaqil ta’lim olishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Fizika fanini o‘rganishda laboratoriya ishlarini bajarish muhim o‘rin egallaydi.

Fizika fani ko‘p hollarda turli tajribalar va hodisalarni tushunishni talab qiladi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida fizik tajribalarni va hodisalarni virtual ko‘rsatish mumkin. Video materiallar, diagrammalar, grafiklar va 3D modellar orqali o‘quvchilar fizikaviy jarayonlarni aniq ko‘rishlari va tushunishlari mumkin. Zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchilarga turli formatlarda materiallarni taqdim etish imkonini beradi. Bu nafaqat ma’lumotlarni oddiy yozuvlar va so‘zlar orqali etkazish, balki audio va video materiallar yordamida o‘quvchilarga ko‘proq tushunarli va qiziqarli tarzda ma’lumot taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Fizika laboratoriya xonasida bajarib bo‘lmaydigan tajribalarni 3D animatsiyalar yoki virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilarga yana-da aniq va yodda qoladigan ko‘rsatib berish mumkin. Fizika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning bir nechta samarali usullari mavjud. Har bir usulning o‘ziga xos afzalliklari va qo‘llanilish joylari bor. Quyida texnologiyalardan foydalanishning eng samarali usullarini ko‘rib chiqamiz.

Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar o‘quvchilarga tajribalarni xavfsiz va qulay sharoitda o‘tkazishga imkon beradi. Bunday dasturlar o‘quvchilarga fizikaga oid tajribalarini bajarish kerak bo‘lsa, parametrlarni o‘zgartirish va natijalarni ko‘rish imkonini beradi. Misol uchun, PhET Interactive Simulations kabi onlayn resurslar o‘quvchilarga elektr toki, magnit maydonlar, optika kabi murakkab tushunchalarni o‘rgatishda yordam beradi. Eng sodda misol kondensatorni manbaga ulash va keyin lamposhkaga ulash chizmasi berilgan. Bunda to‘plangan zaryab va maydon tushunarli ko‘rsatilgan. 1-rasm.





Internetda mavjud bo‘lgan onlayn ta’lim platformalari, masalan Khan Academy kabi resurslar o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu platformalarda fizika bo‘yicha videolar, interaktiv mashqlar, testlar va boshqa o‘quv materiallari mavjud. O‘quvchilar bu resurslar orqali darsdan tashqari vaqtlarini samarali o‘tkazib, o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Zamonaviy mobil ilovalar yordamida o‘quvchilar fizika fani bo‘yicha o‘quv materiallariga osonlik bilan kirishlari mumkin. Masalan, “Physics Lab” yoki “iPhysics” kabi ilovalar o‘quvchilarga turli fizika masalalarini hal qilishda yordam beradi. Bu ilovalar o‘quvchilarning masalalarni tez va to‘g‘ri yechish malakalarini rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar faqat o‘quvchilar uchun emas, balki o‘qituvchilar uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. O‘qituvchi texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘z metodikalarini yangilash, o‘quvchilarga yana-da samarali ta’lim berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘rganish ehtiyojlarini tahlil qilish va darslarni individual tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi. O‘qituvchi texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish uslubini aniqlash va shu tarzda darslarni shakllantirish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchining vaqtini tejashga yordam beradi. Masalan, avtomatik baholash tizimlari yordamida o‘quvchilarning bilimini baholash, o‘quvchilarga individual mashqlarni taqdim etish, natijalarni tezda ko‘rish mumkin. Bular o‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rish va darsni boshqarish samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Kelajakda texnologiyalarni fizika fanini o‘qitishda qo‘llashda yangi imkoniyatlar va innovatsion yondashuvlar kutilmoqda. Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridan foydalanish fizika fanini o‘qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. O‘quvchilar fizika qonunlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlarini virtual muhitda tajriba qilib ko‘rishlari mumkin. Bu o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Yangi zamonaviy laboratoriya jihozlarini yaratilishi o‘quvchilarning fizik qonunlarni amalda tekshirish va fizika fanini o‘rganishni yengillashtiradi, shu bilan birga o‘qituvchilarning ishini ham samarali va sifatli qiladi. Kelajakda texnologiyalarning rivojlanishi bilan fizika o‘qitish yanada interaktiv va ilg‘or va soddaroq o‘rganishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. -T.: O‘qituvchi, 1990. –230 b.
2. Talipova J. Noan’anaviy ta’limning didaktik asoslari. Ped. fan. nom. ... dis. -T., 1995. -158 b.
3. Hayitov A.G‘. Dars jarayonini kompyuterlashtirish xususida //J. Uzluksiz ta’lim, 2004, 3-son. –B. 46—52.
4. Zoirov, S., Murodov, S., Sharofova, T., & Qarshiboyev, S. (2022). Fizik jarayonlarni labview dasturida modellashtirish. Science and innovation, 1(A8), 775-780.

GAMMA.APP AI YORDAMIDA TAQDIMOT MATERIALLARINI TAYYORLASH

Kodirova Dilfuzaxon Abrorxonovna
Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi
Informatika va AT fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bulutli texnologiyalar va gamma.app ilovasining imkoniyatlari, gamma.appda taqdimot materialini hosil qilish, fayllarni import qilish hamda tahrirlash haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Taqdimot, gamma.app, import, tahrirlash, hisobot, AI, sun’iy intellekt, video, gif.

Gamma sun’iy intellektga asoslangan ilova. U sun’iy intellekt yordamida taqdimot, hujjatlar va veb-sahifalar hosil qilishga yordam beradi. Gamma vositalari yordamida taqdimotlaringizni sifatli va yuqori darajada tayyorlashingiz mumkin[1]. Vizual jihatdan ajoyib kontent yaratish, hamkorlik qilishda foydalanish va ma’lumotlarni tahlil qilish mumkin. Bugungi kunda ko‘plab vaqt sarflab bajariladigan ishlar, qo‘lda ishlashni talab qiladigan har qanday vazifa uchun AI alternativi mavjud. Hisobotlar, elektron pochta xabarlari – AI yordamida buyruq berish yoki vazifani tanlash orqali bir necha daqiqada bajarish mumkin[52][1].

Taqdimotlar dunyosi Gamma ilovasi bilan sezilarli darajada qayta ko‘rib chiqilgan. Bu sun’iy intellektga asoslangan veb-ilova minimal kuch sarflagan holda jozibali, sayqallangan kontent yaratish uchun mo‘ljallangan. Raqamli dunyoning rivojlanishi bilan odamlarning o‘zaro ta’siri va ma’lumot almashishning aksariyati

[52] https://gamma.app/docs/Taqdimot-materiallarini-tayyorlashda-gammaapp-ilovasidan-foydalan-jeuv6skh4xn06fm

onlayn platformalarga o‘tdi. Gamma o‘zining qadr-qimmatini isbotlagan shunday platformalardan biridir. Gamma nafaqat dizayn mahoratini talab qiladi, balki hamkorlikni ham rag‘batlantiradi. Shuningdek, u turli xil media formatlarini qo‘llab-quvvatlaydi va o‘rnatilgan tahlillarni taqdim etadi.

Gamma ilovasining imkoniyatlari quyidagilar[53][2]:

Shaxsiy shablonlar: siz tomondan hosil qilingan taqdimot, hujjatlarni gamma yuklab olish yordamida shablonlarni avtomatik ravishda yaratish orqali kontent yaratishni tezlashtirish mumkin.

Media integratsiyasi: Ilova turli media formatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu xususiyat taqdimotlarni yaxshilash va murakkab g‘oyalarni yanada samaraliroq etkazish uchun GIF, video, diagramma va veb-saytlarni qo‘shish imkonini beradi.

Hamkorlik: Ushbu vosita bir vaqtda online bo‘lib tezkor fikr-mulohaza va hamkorlikni ta’minlash orqali katta jamoalarning ehtiyojlarini qondira oladi.

Foydalanuvchilardan maxsus dizayn bilimiga ega bo‘lish talab etilmaydi. Buning o‘rniga, u stressiz ishlashingizga yordam beradigan foydalanuvchilar uchun qulay vositalar va qo‘llanmalarni taqdim etadi.

Gamma.app ilovasida taqdimot materialini hosil qilishni ko‘rib chiqaylik.

Ixtiyoriy brauzerga kirib qidiruv bo‘limiga “gamma.app” yoki, manzil qatorida “www.gamma.app” ni yozamiz va tasdiqlaymiz. Hosil bo‘lgan ro‘yxat orqali gammaga kiramiz .

Gamma o‘z mahsuldorligini oshirish va ish jarayonlarini soddalashtirishni xohlaydigan turli sohalardagi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan. Bu, ayniqsa, quyidagilar uchun foydalidir:

- O‘qituvchilar: Jozibador ta’lim mazmuni va elektron o‘quv modullarini yaratish;
- Marketologlar: raqamli kontent va marketing materiallarini samarali yaratish va boshqarish;
- Veb-ishlab chiquvchilar: AI vositalaridan foydalangan holda veb-saytlarni tezda ishlab chiqish va sozlash;
- Kontent yaratuvchilari: Bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa platformalar uchun yuqori sifatli kontent yaratish;
- Loyiha menejerlari: Loyihalarda yaxshiroq tashkil etish va hamkorlik qilish;
- Tadbirkorlar: biznes jarayonlarini samarali kengaytirish uchun avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanish;
- Kichikdan yirikgacha biznes: AI texnologiyalaridan foydalangan holda operatsion samaradorlik va ijodiy natijalarni oshirishga intilayotgan barcha hajmdagi korxonalar uchun ideal hisoblanadi.

Gamma qo‘llab-quvvatlash va integratsiya Ilova E-pochta yordami barcha premium obunachilarga taqdim etiladi[54][4]. Ayni paytda integratsiya imkoniyatlari cheklangan, ammo umid qilamizki, ular kelajakda ko‘proq integratsiya

[53] https://openai.com/

[54] https://scholar.google.com/

imkoniyatlarini taqdim etadi. Gamma ishlab chiquvchilar uchun maxsus API-ning beta versiyasini taklif qiladi. Gamma bilan qulay va oson taqdimot, hujjat va web sahifalar hosil qilishimiz, tahrirlashimiz va9,albatta, Gamma AIning imkoniyatlaridan unumli foydalanishim mumkin.

FOYDALANILGAN SAYTLAR RO‘YXATI:

1. https://gamma.app/signup
2. https://openai.com/
3. https://poe.com/
4. https://scholar.google.com/

FIZIKA O‘QITISHDA MASALALAR YECHISHNING MUHIM AHAMIYATI

Dusov Yo‘ldosh Shodiyevich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi fizika fani
bosh o‘qituvchisi
yuldoshdusov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada natijalarining ilmiy ahamiyati, fizika fanining mexanika bo‘limini yoritishda, dars jarayonini tashkil etishni belgilashda darsni tashkil qilish me’yorlariga e’tibor qaratilgan.

Аннотация: В статье основное внимание уделяется научной значимости результатов, нормам организации урока при освещении раздела механика физической науки, определению организации процесса урока.

Annotation: The article focuses on the scientific significance of its results, the norms of the organization of the lesson in highlighting the mechanics Department of physical science, determining the organization of the course process.

Tayanch iboralar: masalalar yechish rejasi, Masalalarni yechish metodlari, harakatning ma’lum ketma-ketligi, gorizontal va gorizontga nisbatan burchak ostida otilgan jism harakati.

Fizika o‘qitishda masala yechish muhim ahamiyatga ega. Masala yechish – fizika o‘qitish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u fizik tushunchalarni shakllantirishga katta hissa qo‘shadi, fizik fikrlarni rivojlantiradi, bilimni amalda qo‘llash malakasini orttiradi. Fizika masalalarini yechish quyidagi hollarda keng qo‘llaniladi:

a) yangi axborotlar berishda;
b) muammoli vaziyat hosil qilish va o‘quvchilarga muammo qo‘yishda;
d) amaliy malaka va ko‘nikmani shakllantirishda;
e) o‘quvchilar bilimining mustahkamligi va chuqurligini sinashda;
f) materialni mustahkamlash, umumlashtirish va takrorlashda;
g) texnika yutuqlari bilan tanishtirishda va politexnik ta’lim berishda;
k) o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda masalalarning o‘rni juda kattadir. Masala yechish orqali o‘quvchilarning mehnatsevarligi, sinchkovligi, mustaqil Mulohaza yuritishi, o‘qishga qiziqishi va xulqi, qo‘yilgan maqsadga erishishdagi qat’iyligi tarbiyalanadi.

Fizikadan masala yechish o‘quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularni olimlarning ishlari, fan va texnikaning yutuqlari bilan tanishtirib boradi.

Masala yechish ko‘p hollarda fizika darslarining tarkibiy qismi bo‘lib keladi. O‘qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda va uni mustahkamlashda, o‘tilganlarni takrorlashda, o‘quvchilarning mustaqil ishlarida va bilimlarini sinab ko‘rishda masala yechishdan foydalanadi. Fizikaga qiziquvchi o‘quvchilar bilan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham masalalar yechiladi, ular olimpiadaga tayyorlanadi. Olimpiadaga yechilishi qiyin va yangilik elementlarini o‘z ichiga olgan masalalar tanlanadi.

Masala yechish – olingan nazariy bilimni amaliyotga qo‘llashdir. Bu esa o‘quvchilarning fizik tafakkurini (fikrlashini) rivojlantirishda, jumladan, hodisalarni tahlil qilishda, ular haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirishda, o‘xshash tomonlarini va farqini aniqlashda katta ahamiyatga egadir. Mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yoki eksperiment yordamida yechiladigan muammo fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo‘yilgan muammoni hal etish, masala yechishdan iboratdir.

Masala yechish orqali talabalar bilimlarini kengaytiradilar. Qonun va formulalarni chuqurroq bilishni o‘rganadilar, ularni qo‘llanish chegaralarini ko‘rib chiqadilar. Umumiy qonuniyatlarni aniq bir vaziyatlarga qo‘llash malakasini egallaydilar. Masala yechish jarayonida hisoblash, adabiyotlar va ma’lumotnomalar bilan ishlash malakalari hosil bo‘ladi. Masala yechish aqliy faoliyatni, fizik hodisalarga maxsus yondashish yo‘llarini shakllantiradi.

Masalani quyidagi reja asosida yechish mumkin (ba’zi masalalarni yechishda ayrim bandlari tushib qolishi mumkin):

1) masala sharli diqqat bilan o‘qiladi;

2) masaladagi hamma so‘zlarning ma’nosi tushunarlimi? Noma’lum so‘z ma’nosi kitobdan yoki o‘qituvchidan aniqlanadi;

3) masala sharti yoziladi (hammasi bir o‘lchov birliklar sistemasidaligi aniqlanadi);

4) chizmasi chiziladi (agar u zarur bo‘lsa);

5) masalani tahlil qilib, fizik ma’nosi ochiladi;

6) bu masalani yechishda qanday qonuniyatlardan foydalanilishi aniqlanadi.

7) fizik kattaliklarni bog‘lovchi tenglama tuziladi;

8) tenglamani yechib, noma’lum kattalik topiladi va umumiy ko‘rinishda javob olinadi;

9)kattaliklarning qiymatlarini SI sistemasiga keltirib, o‘rniga qo‘yib, hisoblab, son qiymati topiladi;

10)olingan javob tahlil qilinadi, berilganlarning o‘zgarishi bilan no‘malum qanday o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi.

Masala doim shu reja asosida yechib borilsa, o‘quvchilar ko‘nikib qoladilar. Biror bosqich qolib ketsa, masala to‘g‘ri chiqmasligi mumkin. O‘qituvchi uni ko‘rsatib borishi lozim.

Masalani yechish metodlari, masalaning sodda yoki murakkabligiga, o‘qituvchining qo‘ygan maqsadiga, o‘quvchilarning bilim darajasiga va boshqa talay sabablarga bog‘liq. Masalalarni yechish metodlari ularni yechishda qo‘llaniladigan matematik apparatlarga ko‘ra: 1) Arifmetik metod; 2) Algebraik metod; 3) Geometrik metod; 4) Grafik metodlarga bo‘linadi.

Arifmetik metod. Masalani arifmetik metod bilan yechilganda, masaladagi fizik kattaliklar ustida faqat arifmetik amallar bajariladi. Formulalarni qo‘llamasdan savollar yoziladi. Bu metoddan o‘rta maktabda fizika o‘qitishning boshlang‘ich davrida hali o‘quvchilar algebradan tegishli bilimga ega bo‘lmagan yoki fizik formulalarga kirgan kattaliklar orasidagi bog‘lanishni chuqur tushunmagan paytda qo‘llaniladi. Bu metodning o‘ziga xos yana bor xususiyati, unda tenglamalar tuzilmasligida va tenglamalar yechilmasligida.

Algebraik metod. Fizika masalalarini algebraik metod bilan yechganda, o‘quvchilarni algebradan olgan bilimlaridan foydalaniladi, formulalar ishlatiladi, tenglamalar tuziladi va yechiladi.

Geometrik metod. Agarda masalani yechishda o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgan geometrik munosabatlardan foydalanilsa, bunday metod geometrik metiod deyiladi. Bu metoddan statika, elektrostatika va geometrik optikada ko‘proq foydalaniladi.

Gorizontal otilgan gorizontga nisbatan burchak ostida otilgan jism harakatiga doir masalalar yechish usullarini ko‘rib chiqamiz.

1. 80 m balandlikdagi minoradan 15 m/s tezlik bilan gorizontal otilgan jismning uchish uzoqligini toping.

Berilgan:
h=80m
υ_0=15 m/s
g=9,81m/s^2
s=?

Yechish: jism vertikal yo‘nalishda h balandlikdan tekis tezlanuvchan harakat qilib erkin tushadi. Shuning uchun uning tushish vaqti quyidagicha hisoblana

di: $t = \sqrt{\frac{2h}{g}} = \sqrt{\frac{2 \cdot 80m}{9{,}81\frac{m}{s^2}}} = 4{,}03s$. Bundan foydalanib, jismning t vaqtdan keyingi gorizontal yo‘nalishdagi ko‘chishi yoki uchish uzoqligini hisoblaymiz: $s = \upsilon_0 \cdot t$=15m/s·4,03s=60,5m .

Javob: jismning uchish uzoqligi 60,5m ga teng.

2.Jism biror balandlikdan gorizontal yo‘nalishda otilgan. 3 s dan keyin tezlik vektori yerga nisbatan 60° burchak hosil qilgan. Jismning boshlang‘ich tezligi qancha?

Berilgan:
t=3s
α=60°
g=9,81m/s^2
υ_o=?

Yechish: ixtiyoriy t vaqtdan keyin jism tezligining gorizontal yo‘nalish bilan tashkil qilgan burchagi topiladi: $tg\alpha = \frac{gt}{\upsilon_0}$. Ushbu ifodadan jismning boshlang‘ich tezligini topib,

$$\upsilon_0 = \frac{gt}{tg\alpha} = \frac{9{,}81m/s^2 \cdot 3s}{\sqrt{3}} = 16{,}97m/s$$

Javob: jismning boshlang‘ich tezligi 16,97m/s ga teng.

3. Gorizontal yo‘nalishda 800 m/s tezlik bilan otilgan o‘q 400 m masofadagi nishonga borib yetguncha, vertikal yo‘nalishda qanchaga pasayadi ?

Berilgan:
υ_0=800 m/s
s=400 m
g=9,81m/s^2
h=?

Yechish: avvalo, jismning uchish vaqtini topamiz: $t = \frac{s}{\upsilon_o} = \frac{400m}{800m/s} = 0{,}5s$. Jism vertikal yo‘nalishda h balandlikdan tekis tezlanuvchan harakat qilib erkin tushyapti, shuning uchun istalgan t vaqtdan keyingi vertikal yo‘nalish bo‘yicha ko‘chishi quyidagicha hisoblanadi: $h = \frac{gt^2}{2} = \frac{9{,}81m/s^2 \cdot 0{,}5^2 s^2}{2} = 1{,}23m$

Javob: jism vertikal yo‘nalishda 1,23 m ga pasayadi

4.Koptok 10 m/s tezlik bilan gorizontga 30° qiyalatib otildi. U qancha balandlikka ko‘tariladi ?

Berilgan:
υ_o=10m/s
α=30°
g=9,81m/s^2
h=?

Yechish: koptokning ko‘tarilish balandligini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$h = \frac{\upsilon_0^2 \sin^2\alpha}{2g} = \frac{(10m/s)^2 \cdot \frac{1}{4}}{2 \cdot 9{,}81m/s^2} = \frac{25\frac{m^2}{s^2}}{19{,}62\frac{m}{s^2}} = 1.27m$$

Javob: koptokning ko‘tarilish balandligi 1,27 m ga teng.

5. Agar gorizontga burchak ostida otilgan jismning uchish davomidagi minimal tezligi 15 m/s, uchish vaqti 4 s bo‘lsa, u qanday tezlik bilan otilgan?

Berilgan:
υ_{min}=15 m/s
t_u=4s
g=9,81m/s^2
υ_o=?

Yechish: jism gorizontga qiya otilganda traektoriyaning eng yuqori nuqtasida jismning tezligi gorizontal yo‘nalgan bo‘lib quyidagiga teng bo‘ladi $\upsilon_{\min} = \sqrt{\upsilon_0^2 - (g \cdot t_k)^2}$. Jism harakat traektoriyasining eng yuqori nuqtasiga ko‘tarilguncha ketgan vaqt $t_k = t_u/2$ ga teng bo‘ladi.

Yuqoridagi ifodaga ko‘ra jismning boshlang‘ich tezligini quyidagicha hisoblaymiz: $\upsilon_o = \sqrt{\upsilon_{\min}^2 + (g \cdot t_k)^2} = \sqrt{(15m/s)^2 + (9{,}81m/s^2 \cdot 2s)^2} = 24{,}7m/s$

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, hozirgi davr fizika fanini o‘qitish metodikasida ta’lim oluvchilarning fizikaga bo‘lgan qiziqishlarini yana-da oshirish uchun turli xil zamonaviy metodlardan foydalanilmoqda. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida hamda akademik litseylarda fizikadan masalalar yechish usullarini hamda fizikadagi ayrim murakkab masalalarni yechish usullarini ko‘rib chiqdik.

Bilamizki, fizika qonunlarini bilish bu masalalarni yechishga imkon beradi. Masala yechishni bilish, o‘quvchilarni mustaqil ijodiy ishlashga, o‘rganilayotgan hodisani tahlil qilishga o‘rgatadi, ularni keltirib chiqaradigan sabablarini ajratib olishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Akademik litseylar uchun Fizika fanidan o‘quv dasturi. T. 2024.
3. G‘aniev A.G., Avliyoqulov A.K., Almardonova G.A. Fizika. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. II qism. T. O‘qituvchi. 2003.
4. O‘lmasova M.X. Mexanika va molekulyar fizika. Akademik litseylar uchun qo‘llanma. 2-nashri. T. O‘qituvchi. 2004.
5. Turdiev N.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf Fizika darsligi. Toshkent. 2006.
6. Habibullayev P.Q., Boydedayev A., Bahromov A.D, Burxonov S.O. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf Fizika darsligi. 2017.
7. 7 Habibullayev P.Q., Boydedayev A., Bahromov A.D, Yuldasheva M.K. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf Fizika darsligi. 2014.

YOSHLARGA NANOTEXNOLOGIYANING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATINI TUSHUNTIRISH

Dusov Yo‘ldosh Shodiyevich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi fizika fani
bosh o‘qituvchisi
yuldoshdusov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nanotexnologiyaning inson hayotidagi, turmushda va harbiy sohadagi ahamiyati keng ko‘lamda tahlil qilingan. Nanotexnologiya, materialshunoslik va fizikada nanotizmlar bilan ishlash orqali yangi ilovalar va yechimlar taqdim etadi. Maqolada nanotexnologiyaning sog‘liqni saqlash sohasida, masalan, dori vositalarining aniq yetkazilishi va zamonaviy tahlil usullarida qanday inqilobiy o‘zgarishlarga olib kelayotganini ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birga, uy-ro‘zg‘or va san’at sohasidagi nanotexnologik yangiliklar, materiallarning chidamliligi va samaradorligini oshirishi bilan ajralib turadi. Harbiy sohada esa nanotexnologiya, zamonaviy qurol-yarog‘lar, himoya vositalari va razvedka tizimlarida qo‘llanilishi bilan xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, maqola nanotexnologiyaning inson hayotidagi ko‘plab jihatlarda qanday qilib yangi imkoniyatlar yaratayotgani va ularni rivojlantirishda qanday istiqbollar mavjudligini yoritadi.

Tayanch iboralar: Nanotexnologiya**,** kompyuterlardagi nanotexnologiya, tibbiy nanotexnologiyalar, tijoratda nanotexnologiya, mudofaa tadqiqotchilarida nanotexnologiyalarni qo‘llash.

Nanotexnologiya bu atom yoki molekulalar kattaligidagi materiallar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi. Bu materiallarga yangi xususiyatlar berish imkonini

yaratadi, masalan avtomobil ishlab chiqarishda yuzasining mustahkamligini oshiradi yoki elektrodlar uchun yaxshiroq o‘tkazuvchanlikni taminlaydi. Nanotexnologiya - bu texnologik inshootlar bilan bog‘liq ilmiy, nazariy va muhandislik intizomi, ularning o‘lchamlari nanometr yoki metrning milliarddan birida o‘lchanadi. Nanometr metrning milliarddan bir qismidir: vodorod atomi diametridan o‘n baravar ko‘p. Inson sochining diametri o‘rtacha 80000 nanometrga teng, standart daftar qog‘ozi qalinligi taxminan 100000 nanometrga teng, bu 0,0039 dyuym (0,009906 sm). Uzunligi bir necha o‘nlab nanometrdan bir necha millimetrgacha bo‘lgan uglerod nanotubalar Yerda kashf etilgan eng kuchli va qattiq material bo‘lib, po‘latdan 500 baravar kuchli va o‘n baravar engilroqdir. Zamonaviy metall armaturalarda ko‘pincha trionlab mayda nanoshoh teshiklari va ishlab chiqarish jarayonining noaniqligi sababli deformatsiyalar mavjud. Bu kichik teshiklar materialning qarshiligini sezilarli darajada kamaytiradi, o‘q yoki portlashning kirib borishini osonlashtiradi. Agar zirh nanozarrachalarda aniq ishlab chiqarilgan bo‘lsa, uni bir necha marotaba samaraliroq qilish mumkin bo‘lar edi. Nanotexnologiya quyma materiallarni qanday qilib kuchliroq yoki foydaliroq qilish ustida ishlashdan tashqari, kichik mashinalar yoki inshootlarga ham e’tibor beradi. Masalan, hozirda biz foydalanayotgan kompyuterdagi tranzistorlar bir-biridan 50 nanometrdan kam bo‘lib, mavjud maydonni maksimal darajada oshirish uchun mo‘ljallangan. Yaqin kelajakda bu chegaralar kamaya boshlaydi. Nanotexnologiyaning maqsadi materiya tuzilishini aniq boshqarishdir. Ilg‘or nanotexnologiya bizga tomirlar orqali suzuvchi, buzilgan hujayrani olib tashlaydigan va to‘qimalarning shikastlanishini tiklaydigan nanoqalamli tibbiy asboblarni yaratishga imkon berishi mumkin.

Quyida nanotexnologiyaning ijobiy va ba’zi salbiy tomonlarini qarab chiqaylik.

Nanotexlogiyadagi kashfiyotlardan **oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash** katta foyda keltirdi. Masalan, plastik idishlardagi nanometr kattalikdagi loy konlari gaz o‘tkazmaydigan to‘siq hosil qiladi, oziq-ovqat mahsulotlarini yaxshiroq saqlaydi. Bundan tashqari, nanosiq kumush zarralari ko‘pincha plastmassalar bilan aralashtiriladi, chunki bu moddalar saqlash idishlarida bakteriyalarni ko‘payishiga to‘sqinlik qiladi.

Kompyuterlardagi nanotexnologiya, kompyuter tranzistorlariga asoslangan an’anaviy kompyuter qismlariga qaraganda past haroratlarda kompyuter jarayonlarining tezroq ishlashini talab qiladi. Hisoblashda nanotexnologiya past haroratlarda va engilroq og‘irliklarda yaxshilangan protsessor quvvatini etkazib berish orqali issiqlik muammosini hal qiladi. Kompyuter ishlab chiqaruvchilari uglerod nanotubalari deb nomlangan uglerod atomlarining mikroskopik uzun iplarini kremniy chiplarini qayta ishlash quvvatining ikki baravar ko‘pligini ta’minlovchi kichik tranzistorlarda yaratadilar, shu bilan birga ular kamroq issiqlik va engil komponentlar ishlab chiqaradilar. Bundan tashqari, nanotexnologiya dasturlari yana-da samarali ishlashni ta’minlaydi, energiyani tejaydi va kichik ko‘chma elektron qurilmalar uchun batareyaning ishlash muddatini uzaytiradi. Nanotexnologiyalarning rivojlanishi bilan kompyuter xotirasi sezilarli darajada oshdi va yarimo‘tkazgich tezligi ancha tezlashdi. Ushbu yaxshilanishlar ma’lumot

almashish tezligi va tahlil qilinadigan ma’lumotlar miqdori bo‘yicha yutuqlarga olib keldi.

Nanotexnologiyalarni **tibbiyotda** qo‘llash ko‘plab tibbiy yutuqlarni ta’minladi. Tibbiy nanotexnologiyalarning bir qismi diagnostikaga tegishli. Ular DNKni aniqlash va genetik ketma-ketlikni aniqlashda yordam berish uchun ishlatiladi. Nanotexnologiyalarning tibbiyotdagi boshqa qo‘llanilishlari dorilarni boshqarish va to‘qima muhandisligi hisoblanadi. Giyohvand moddalarni iste’mol qilish an’anaviy in’ektsiyalarga qarshi implantatsiya orqali dorilarni qabul qilish orqali saraton kasalligini davolashda yordam beradi. To‘qimalar muhandisligi yangi nanotexnologiya bo‘lib, shikastlangan to‘qimalarni sun’iy ravishda tiklash yoki ko‘paytirishni o‘z ichiga oladi. Giyohvand moddalarni yetkazib berish tizimlari nanotexnologiyalarning potentsial qo‘llanilishi bo‘lib, u kasal odamga berilgan preparatning tanada qanday tarqalishiga e’tibor beradi.Ushbu dastur tanadagi zararlangan hududlarni aniqlaydi va keyinchalik dori-darmonlarni kerakli joyga etkazib beradi. Ushbu yutuqlar preparatning farmakologik va terapevtik ta’sirini yaxshilaydi deb o‘ylashadi. Nanoqurollarning rivojlanishi operatsiya yoki jarrohlik kabi vaziyatlarda yordam berishi mumkin. Bu shifokorlarga molekulyar darajada operatsiyalarni bajarishga imkon beradi. Nanoquurollar shifokorlar tomonidan uzoqdan qo‘mondon yordamida boshqarilib, tashxis qo‘yish va an’anaviy usullardan foydalanib amalga oshirib bo‘lmaydigan muolajalarga imkon yaratadi.

Molekulyar nanotexnologiyani **kimyo va atrof muhitda** qo‘llash allaqachon ijobiy foyda keltirdi. Kimyoviy kataliz - bu reaktiv yoki katalizator yordamida ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish jarayoni. Bu, ayniqsa, avtomobil chiqindilarini kamaytirish uchun avtomobil yonilg‘i xujayralarida yoki katalitik konvertorlarda ishlatilsa foydali bo‘lishi mumkin.

Ko‘plab shahar energetik kompaniyalari nanotexnologiyalar bilan shug‘ullanadigan kompaniyalardir, chunki ular o‘zlarining **energiya sohalarida** nanotexnologiyalardan foydalanadilar. Masalan, quyosh batareyalaridan foydalanish orqali energiya ishlab chiqarishni takomillashtirish. Hozirgi vaqtda ushbu quyosh batareyalari quyosh energiyasining taxminan 40 foizini aylantiradi, ammo nanotexnologiya sotib olingan energiya miqdorini oshirishi kerak.

Nanotexnologiyalarning **tijorat maqsadlarida** ishlatilishi kosmetik vositalar, himoya qoplamalari, dog‘larga chidamli kiyimlar, kompyuterlar va sport anjomlari kabi mahsulotlarda nanozarralarning ulkan hajmini o‘z ichiga oladi. Ushbu mahsulotlar ko‘pincha atomlarni yoki kichik zarrachalardan tashkil topgan nanomateriallarni o‘z ichiga oladi, ular o‘z ishlarini yaxshiroq bajarish uchun olimlar tomonidan qayta tuzilgan.

Nanotexnologiyalar yordamida yaratilgan materiallar ancha yengil, lekin juda mustahkam bo‘ladi. Bu **harbiy sohada,** ya’ni harbiy uskunalar va jihozlar (masalan, qurollar, shaharlashgan transport vositalari, va harbiya kiyimlar) uchun juda muhimdir. Samolyotlar va harbiy texnikalarning o‘lchamini va og`irligini kamaytirib, natijada mustahkamligi va tezligini oshiradi. Maxsus materiallarning ishlab chiqilishi zararli moddalar, masalan kimyoviy yoki biologik qurollardan himoya qilish imkonini beradi. Bu harbiy shaxslar va uskunalarning xavfsizligini

taminlashda muhim hisoblanadi. Nanomateriallar asosida ishlab chiqarilgan sensorli qurilmalar yuqori sezgirlikni va aniqlikni taminlaydi. Bular radar tizimlarida va razvedka uskunalarida qo‘llanilishi mumkin. Nanomateriallar yordamida yuqori himoya antikorrozion bronjeletlar va nurlanishdan himoya qiluvchi himoyalovchi vositalar yaratish mumkin. Bu harbiy texnikalarni uzoq muddat foydalanishga imkon beradi. Nanotexnologiyalar energiya manbalarini (masalan, batareyalar va yakuniy qurilmalar) yanada samarali ishlashini taminlashda yordam beradi. Bu harbiy operatsiyalar davomida qudratni uzluksiz taminlash uchun muhim hisoblanadi. Nanotexnologiyalar bilan bog‘liq qurilmalar va uskunalar kichikroq o‘lchamga ega bo‘lishi mumkin, bu esa ularni yana-da qulay va samarali ishlatishga imkon beradi. Nanotexnologiyalar ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash tizimlarini yana-da tez va samarali qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu harbiy aloqa tizimlarida muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda nanotexnologiyalar harbiy texnikalarning samaradorligini, ishonchliligini va uzoq muddatli foydalanish imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Nanotexnologiyalarning juda foydali ekanligi bilan birga xavfli tomonlari ham mavjud. Ularga misol keltiradigan bo‘lsak, harbiy olimlar va mudofaa tadqiqotchilari ko‘pincha xavfli qurollarni yaratish uchun nanotexnologiyalarni qo‘llashga intilishadi. Bunga inson o‘pkasini shikastlash yoki teriga kirib borish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan nanozarralarni yaratish kiradi. Ushbu nanopartikullar inson uchun xavfli bo‘lishi mumkin bo‘lgan metall yoki uglevodorod kabi zarralar bilan birlashtirilishi mumkin. Inson tanasida aksariyat tabiiy zarralarga nisbatan bag‘rikenglik rivojlanganligi sababli, nanozarrachalarning rivojlanishi urushda samarali vosita bo‘lishi mumkin, chunki inson tanasi bu yangi moddalarga hali o‘rganmagan.

Xulosa.

Nanotexnologiyaning inson hayotidagi, turmushda va harbiy sohadagi ahamiyati juda keng va katta imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Nanotexnologiya sog‘liqni saqlash, energetika, muhandislik va boshqa ko‘plab sohalarda inqilobiy o‘zgarishlar keltirmoqda. Masalan, nanomateriallar orqali ishlab chiqilgan dori-darmonlar ko‘proq samaradorlikka ega bo‘lib, tezroq tanaga singib ketadi. Energiya samaradorligi uchun nanotexnologiyalar, masalan, quyosh batareyalarini ishlab chiqishda, energiya iste’molini kamaytirishga yordam beradi. Qishloq xo‘jaligida esa nanoo‘g`itlar o‘simliklarning o‘sishini tezlashtiradi va ularni kasalliklardan himoya qiladi. Nanotexnologiya harbiy sohada ham muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, nanotexnologiya inson hayoti va turmush tarzini yaxshilashda, harbiy sohadagi imkoniyatlarni kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. U kelajakda ham turli sohalarda innovatsiyalarni keltirib chiqarishga olib kelishi kutilmoqda. Shuning uchun nanotexnologiyani rivojlantirish va uni qo‘llash masalalari jamoatchilikning e’tiborini tortishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Akademik litseylar uchun Fizika fanidan o’quv dasturi. T. 2024.
3. Gloria Harrison | harrison@scienceforming.com. maqolasi.
4. H. O. Abdullayev, S. U. Abdulboriyev. Nanotexnologiyaga kirish
5. (uslubiy qo‘llanma) © Namangan davlat universiteti 2012 yil
6. A.T.Teshaboyev, S.Z.Zaynobiddinov, Q.A.Ismoilov, Sh.A.Ermatov, V.A.Abduazimov. Nanozarralar fizikasi, kimyosi va texnologiyalari. Toshkent «Tafakkur bo‘stoni» 2014
7. N. Raximov, R. Rasulov. Nanofizika va nanoelektronika asoslari. Namangan-2012.

“TEMURBEKLAR MAKTABI” O‘QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI MAQSADLI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART- SHAROITLARI

Islamova Karima Turdiyevna
Toshkent “Temurbeklar maktabi”
harbiy akademik litseyi geografiya fani
bosh o‘qituvchisi
*karimaislamova30@gmail.com***.**

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari, kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun o‘quv va tarbiya jarayonida yangi g‘oyalarni yaratishning didaktik shart sharoitlari haqidagi fikrlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik sifatlari, bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat, shaxs kreativligi, kasbiy ijodkorlik, didaktika, shaxs fantaziyasi, tanqidiy fikrlash.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”

Sh. Mirziyoyev

Bugungi kunda asosiy e’tibor o‘quvchi yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga, ularning mustaqil fikrlaydigan, yuksak tafakkur egasi va ma’naviyatli insonlar bo‘lib shakllanishlariga qaratilgandir.

Birinchi navbatda kreativlik tushunchasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative”- yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida

iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrensning fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o‘zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama- qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi [1].

Didaktika (ta’lim nazariyasi: yunoncha “didaktikos” o‘rgatuvchi, “didasko” esa o‘rganuvchi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolar) ni o‘rganuvchi fan.

Geografiya fanini o‘qitishda ilg‘or zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Zero ta’lim jarayonida didaktik shart sharoitlarni yaratish, texnologik vositalardan foydalanish tabiiy fanlarni o‘rganishning har bir bo‘limida bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlashda beqiyos rol oynaydi [1].

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy- iqtisodiy shart -sharoitlar hamda inson ortogenizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxirigacha uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq.

“Temurbeklar maktabi”larida o‘quvchilar kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarida an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalar haqida fikr yuritishi, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi.

Binobarin, kreativlik sifatlariga ega bo‘lajak harbiylar kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, tengdoshlari bilan ijodiy yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi.

Didaktikaning asosiy kategoriyaiari quyidagilardan iborat: o‘rgatish, o‘rganish, o‘qitish, ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija. **O‘rgatish** – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati. **O‘rganish** - anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarmi egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi. **O‘qitish** – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan o ‘quvchilarning tartiblangan o‘zaro harakati. **Ta’lim** – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, kompetensiya va

fikrlash usullari tizimi hisoblanadi. Shuning uchun o‘quvchilarni kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda ta’limning didaktik shart –sharoitlari muhim rol o‘ynaydi.

Odatda o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari muammolarni hal qilishga intilishi o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog ham o‘quvchi ham o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak harbiylarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun o‘quvchilik va talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda

O‘quvchining o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, harbiy xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, o‘quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy - irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi [2].

Ta’lim va tarbiyaning mazmuni, maqsadining o‘zgarishi didaktika prinsiplari, uslublari va tashkiliy shakllarining ham o‘zgarishiga, rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Barcha fanlarni o‘rganishda, shu jumladan geografiya fanini o‘qitishda didaktik prinsiplar muhim o‘rin tutadi. Didaktik prinsiplar dars mazmuni va darsni tashkil etishga tegishlidir. Didaktik tamoyillarga o‘qitish va o‘qish jarayonida qoidalar sifatida rioya qilinishi zarur. Ular bir biriga bog‘lanib ketadi. O‘qituvchining o‘z ishiga ijodiy yondashuvi jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, yangiliklarni tezda ilg‘ay bilishi, fan yangiliklarini o‘rganib, o‘z faoliyatida qo‘llashi bilan ifodalanadi, chunki, o‘quvchi tezkor axborot bilan ta’minlanishi darkor [3].

Dars o‘tishda o‘qituvchi o‘quvchilarning qaysi guruhini mo‘ljalga olishi kerak: bilimdonlarnimi, bilimi o‘rtachalarnimi yoki bilim doirasi pastlarnimi? Bu savolga javob berish uchun har qanday darsda mazmun va shaklni hisobga olish kerak. Har qanday ma’ruza mazmunan nazariy jihatdan yuqori darajada, shaklan esa hammaga tushunarli bo‘lishi kerak. Ma’ruzaning hammabopligi avvalo uning shakliga, uslubiga, qanday auditoriyada o‘qilishiga bog‘liq. Ko‘pincha, o‘quvchilardan o‘qituvchi zerikarli ma’ruza o‘qiydi, tushunib bo‘lmaydi, degan shikoyatlarni eshitish mumkin. Tajribali pedagoglar buning sababini didaktikaning prinsiplari buzilganida, izchil mantiqning yo‘qligida, gaplarning murakkab tuzilishida, yaxshi misollar tanlanmaganligida, oldingi ma’ruza bilan bog‘lanish yo‘qligida deb ko‘rsatishadi. Ta’lim berish (didaktika)ning asosiy tamoyillari quyidagilar: faollik tamoyili inson ta’lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o‘zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangi - yangi sir asrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir. O‘quvchi o‘z harakati bilan fanlarni yaxshiroq o‘rganadi va o‘zlashtiradi. O‘quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o‘zlari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilib, intilsin. Buning uchun o‘quvchilar darsga faol qatnashishi lozim.

Nazariya bilan amaliyotning bir biri bilan bog‘liqligi, nazariy bilim doim kasb hunar amaliyoti bilan bog‘lanishi lozim.(3)

O‘qish va o‘qitish didaktik hatti harakatlar bilan bog‘liq. Didaktik hatti harakatlarga o‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rishi, uni o‘tkazishi va baholash faoliyati kiradi. Bu faoliyat quyidagi savollarda o‘z ifodasini topadi:

1. Kimlar o‘qitadi?
2. Kimlarni o‘qitish kerak?
3. O‘qitish orqali qanday maqsadlarga erishish mumkin?
4. Maqsadga erishish uchun nimani, qanday o‘qitish kerak?
5. Nazariy va amaliy darslarda qaysi metodlarni qo‘llab, dars o‘tish kerak?
6. Nazariy va amaliy darslarni qanday sharoitda o‘tkazish kerak?
7. O‘qishni qanday tashkil qilish kerak?
8. Ko‘zlangan maqsadga erishishni tekshirish uchun natijalar qanday baholanadi?

Dars berishning shakllari, uslublari turli-tuman. Maqsad, o‘tilayotgan dars har bir o‘quvchining ongiga etib borsin. Bu erda hal qiluvchi rolni didaktik sakkizburchak va o‘quv jarayonining mazmuni o‘ynaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quv jarayonini qanday o‘tishi qo‘yilgan maqsad bilan uni amalga oshirish birligidan iborat. O‘qituvchi, dars beruvchi sifatida har safar qanday qilib, qaysi usul bilan dars o‘tsam qo‘yilgan maqsadga erishaman deb o‘z oldiga savol qo‘yib, o‘ylab ko‘rsa, dars o‘tishning aynan mavzuga mos keladigan uslubini topishi mumkin [3].

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishda to‘sqinlik qiladi:

- o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- fikrlash va hatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- boshqalarga tobe bo‘lish;
- har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

O‘qituvchi o ‘quvchilarni yangi ma’lumot va manbalar bilan ta’minlaganda yoki yangi strategiyalarni qo‘llaganda, ularning ongi «uyg‘onadi» va e’tibor qaratadi. Masalan, biror-bir dengiz sayyohi yoki kashfiyotchiga o‘xshab kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o‘rnini almashtirish, o‘yinlar o‘ynash dars shaklini o‘zgartirish, va hokozo.

“Temurbeklar maktablari”da ham o‘qituvchilar o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo‘lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart - sharoitni yaratib bera olishlari zarur.

Xulosa. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari Ya.A. Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Bizga ma’lumki, u 1657 yilda chex tilida “Buyuk didaktika” asarini yozadi. Ya. A. Komenskiy didaktikani “Hammani hamma narsaga o‘rgatuvchi san’at” sifatida talqin etadi. Shu bois didaktika pedagogikaning “Nima uchun o‘qitish kerak?”, “Nimani o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?”, “Qanday hajmda o‘qitish kerak?”, “Kimlarni o‘qitish kerak?”, “Qayerda o‘qitish kerak?”, “Nimadan foydalanib o‘qitish kerak?” kabi savollariga javob izlaydi.

Demak, didaktika - pedagogikaning ilm-ma’rifat va ta’lim muammolarini tadqiq etadigan bir qismidir. Buyuk allomalarimiz Muhammad al-Xorazmiy,

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham ta’lim, o‘qitish va o‘qishga oid sharqona didaktik qarashlar aks ettirilganligi ma’lum. Shunday ekan, bugungi kunning eng dolzarb talablaridan biri o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishni didaktik shart sharoitlarsiz tasavvur qilish mumkin emas [4].

Tavsiyalar

O‘quvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishda quyidagilarni tavsiya qilamiz:

● birinchidan, pedagoglar o‘quv dasturlari va o‘quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashib, talabalarning umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishiga e’tibor qaratishi;

● ikkinchidan, tayyorlangan o‘quv materiallarining g‘oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikligini inobatga olish;

● uchinchidan, topshiriqlar o‘quvchilar yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egaligi, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi hamda talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;

● to‘rtinchidan, kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarning maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish;

● beshinchidan, o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlari rag‘batlantirilsa va o‘qituvchi tomonidan samimiy muhit talabalarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlashlari uchun sharoit yaratilsa, mustaqil, ijodiy, tanqidiy kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.(3)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. L.O‘. Xalikova “ Bugungi kun yoshlarida kreativ fikrlash va kreativlik jihatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, November,2023.
2. A.I.Avazboyev va boshqalar “Talabalarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning samarali yo‘llari” Education and Pedagogik Sciences, 2024.
3. Sh. M. Qodirova. “Didaktika va uning tamoyillari”, So‘nggi tadqiqotlar nazariyasi jurnali, 7-jild, 5-son -2024

KO‘RSATKICHLI VA LOGARIFMIK TENGLAMALARNI GRAFIK USULDA YECHISH

Janiqulov Qamariddin Kenjayevich

Shahrisabiz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litsey matematika fani oliy toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ko‘rsatkichli va logarifmik tenglamalarni grafik usulda yechishning eng sodda ko‘rinishi va uning asosiy xossalari hamda grafigi elementar

matematika kurslarida atroflicha o‘ganilgan. Maqolada ko‘rsatkichli va logarifmik tenglamalarni grafik usulda yechish, berilgan tenglamadan ikkita funksiya tanlab olinib ularning har birini grafiklari koordinata tekisligida yasaladi hamda ularning kesishish nuqtalari berilgan tenglamani yechimi deb tushunamiz. Funksiyalar grafiklari qaysi choraklarda joylashishi, ularning kesishish nuqtalari haqidagi savollarga to‘liq javob berilib tenglamani yechish ketma – ketligi sxemasi misollarda ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: logarifmik tenglamalar, ko‘rsatkichli tenglamalar, grafik usul, xossalar, elementar matematika, koordinata tekisligi.

Ma’lumki, o‘quvchilarga aniq bir dastur asosida matematika fani to‘g‘risida o‘quvchilarga yetarli darajada ma’lumot berish, ularni matematika fanining yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlash fanimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilar o‘qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o‘rganishlari, ya’ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerakki, shularni inobatga olib, ko‘rsatkichli va logarifmik tenglamalarni grafik usulda yechish yuzasidan ayrim misollarni keltirib o‘tmoqchimiz.

1-misol. $2^{x+1} - x \cdot 2^x - 1 = 0$ tenglama grafik usulda yeching.

Δ Tenglamaning chap tomonida berilgan $y = 2^{x+1} - x \cdot 2^x - 1$ funksiyaning grafigini chizish murakkabdir, shuning uchun bu tenglamani quyidagacha yozib olamiz: $2^{x+1} - x \cdot 2^x = 1$.



1-rasm

Bu tenglamaning har ikki tomonini $2^x \neq 0$ ga bo‘lamiz. Natijada

$2 - x = 2^{-x}$ hosil bo‘ladi. $y = 2 - x$ va $y = 2^{-x}$ funksiyalarning grafiklarini (1 – rasm) koordinata tekisligida chizsak, ularning kesishish nuqtalarining absissalari berilgan tenglamaning yechimi bo‘ladi.

J: $x_1 = -2$, $x_2 = 1{,}7$. ▲

2-misol. $3log_3(x + 2) + 2x - 3 = 0$ tenglama grafik usulda yeching.



2-rasm



3-rasm

$y = 3 - 2x$

Δ Berilgan tenglamani $3log_3(x+2) = 3 - 2x$ ko‘rinishda yozib olib, tenglikning har ikki tomonida turgan $y = 3log_3(x+2)$ va $y = 3 - 2x$ funksiyalarning grafiklarini koordinatalar tekisligida yasaymiz (2 – rasm). Bu grafiklar kesishish nuqtasining absissasi berilgan tenglamaning yechimi bo‘ladi

J: $x = 1$. ▲

3-misol. $lg|x| - x^2 + 5 = 0$ tenglamani grafik usulda yeching.

Δ Berilgan tenglamani quyidagicha yozib olamiz: $lg|x| = x^2 - 5$. va $y = lg|x|$ va $y = x^2 - 5$ funksiyalarni koordinatalar tekisligida grafiklarini yasaymiz (3 – rasm).

Bu grafiklar kesishish nuqtalarining absissasi berilgan tenglamaning yechimi bo‘ladi. **J:** $x_1 = \sqrt{5}$, $x_2 = -\sqrt{5}$ ▲

4-misol. $\begin{cases} xy + x - 2 = 0, \\ x - log_2(y+1) = 0 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini grafik usulda yeching.

Δ Berilgan tenglamalar sistemasini quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz:

$$\begin{cases} xy = -x + 2, \\ log_2(y+1) = x. \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = \dfrac{2-x}{x}, \\ y + 1 = 2^x. \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = \dfrac{2}{x} - 1, \\ y = 2^x - 1. \end{cases}$$

$y = \frac{2}{x} - 1$ $y = \frac{2}{x} - 1$ va $y = 2^x - 1$ funksiyalarning grafiklarini koordinata tekisligida yasaymiz: (4 – rasm).

Ularni kesishish nuqtalarini absissasi tenglamani yechimi bo‘ladi.

J: $x = 1, y = 1$. ▲



4-rasm

Ko‘rsatkichli va logarifmik tenglamalarni grafik usulda yechish tenglamani yechishni osonlashtiradi. Keyingi yillarda akademik litsey hamda umumta’lim maktablari o‘qituvchilari va o‘quvchilari o‘rtasida ko‘rsatkichli va logarifmik tenglamalarni yechishga bo‘lgan qiziqish ortdi. Oliy ta’lim muassasalariga kirish test savolarida, milliy sertifikat, olimpiadaga tayyorgarlik ko‘radigan o‘quvchilar uchun bu usul muhum ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. Darslik. “Cho‘lpon”, T. -2011.
2. Janiqulov Q.K. Parametrli tenglamalar va ularni yechish metodlari // Uslubiy qo‘llanma. “Samarqand davlat chet tillar instetuti” nashriyoti. 26.04.2023. – 126 bet.
3. Janiqulov Q.K. Parametrli tenglamalar yordamida o‘zlashtirish darajasini aniqlovchi test tizimi. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi № DGU 23796. 15.03.2023.
4. Djabborov M.S., Janiqulov Q.K., Xoliqulov F.T. “Algebra. Akademik litseylar 2 – kurs o‘quvchilari uchun” // O‘quv qo‘llanma. “TURON NASHR” nashriyoti – 2023 – 270 b.

MATEMATIKA FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Mamataliyev O‘tkir Ashurovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda dars mashg‘ulotlarini tashkil etilishida foydalaniladigan metodlar yoritib berilgan. O‘quvchilarda shakllantirish ko‘zda tutilayotgan kompetensiyalar, vazifa va uning mohiyatining muhimligi hamda hozirgi davrda, kompetensiyaviy yondashuv umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy hayotlarida samarali foydalanishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakaga yega bo‘lishi mumkin ekanligi dolzarb mavzu muammo sifatida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tayanch, kompetensiya, loyihalash, metodlar. o‘quvchilar, muallif, sinflar, shakllantirish, muammo, ijtimoiy.

Аннотация. В данной статье рассмотрены методы, применяемые при организации курсовой работы по совершенствованию методики преподавания математики в общеобразовательных школах. Актуальной темой проблемы является важность компетенций, задачи и ее сущности, которые предполагается сформировать у учащихся, а также тот факт, что в настоящее

время компетентностный подход может быть исползован в процессе обучения в общеобразовательных школах для приобретения учащимися знаний, умений и навыков, необходимых для их эффективного исползования в личной, социалной и профессиональной жизни.

Ключевые слова. База, компетенция, дизайн, методы. читатели, автор, классы, формирование, проблема, социалное.

Цель заключается в освещении совершенствования методики преподавания математики в общеобразовательных школах.

Annotation. This article discusses the methods used in the organization of course work to improve the methodology of teaching mathematics in secondary schools. The actual topic of the problem is the importance of competencies, tasks and its essence, which are supposed to be formed in students, as well as the fact that at present a competence-based approach can be used in the learning process in secondary schools for students to acquire knowledge, skills and abilities necessary for their effective use in personal, social and professional life.

Keywords. Base, competence, design, methods. readers, author, classes, formation, problem, social.

Goal. The aim is to highlight the improvement of methods of teaching mathematics in secondary schools.

Maqola bayoni. Tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini loyihalash orqali, undan o‘qitish metodlarini tanlash tamoyillari kelib chiqadi. Olimlarning kompetensiyasiyaviy yondashuv haqidagi fikrlari va bu boradagi qarashlari haqida to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lsak: D.B.Elkonin o‘quv faoliyatining namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ijtimoiyligini ta’kidlaydi. O‘quv faoliyati shunday faoliyatki, uning natijasida o‘quvchining ta’lim –tarbiya olishida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi,uning mahsuli esa turli motivlar asosida, qurilgan bo‘lib, ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalar yegallashi bilan birga kompetentligi rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. O‘quvchilarda shakllantirish va rivojlantirish ko‘zda tutilayotgan kompetensiyalar oldiga qo‘ygan vazifasi va mohiyatiga ko‘ra, bir-biridan farqlanadi. Masalan, umumiy kompetensiyalardan ta’lim kompetensiyalarini farqlash lozim ta’lim kompetensiyasi o‘quvchining kelajakdagi hayot faoliyatini modellashtiradi.[1.5].

Hozirgi davrda, kompetensiyaviy yondashuv umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy hayotlarida samarali foydalanishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishini ko‘zda tutadi. Mualliflar I.S.Sergeyev va B.P.Blinovaning kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatlari borasida ilmiy nazarlariga ham qo‘shilish mumkin: .[3.6.].

Ta’lim muassasasida o‘quvchilarni javobgarlikni his yetgan holda va ongli ravishda ta’lim olishga tayyorlash; Natijada, o‘qituvchi mehnatini yengillashtirish; o‘quvchilarning maqsadlarini pedagoglar tomonidan asosiy o‘qitish maqsadlari bilan moslashtirish; hayotda uchraydigan nostandart vaziyatlarga tayyorlashga erishish; amalda tarbiyaviy va o‘quv jarayoni birligini ta’minlash,uning doirasida bir

xil masalalarning sinflarda va sinfdan tashqari vaqtlarda turli metodlar bilan hamda ta’limning kundalik hayotga amaliyotda foydalanish mumkin ekanligini o‘quvchilarga anglatish.Bunda o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan hajmi emas, balki turli vaziyatlarda mazkur axborotlarni qabul qila olishiga e’tibor qaratiladi. Kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy yetishning to‘rtta yo‘nalishi ajratib ko‘rsatiladi: tayanch kompetensiyalar (fandan yuqori tavsifga ega bo‘lgan tayanch kompetensiya, xususan, tushunishning pedagogik texnologiyasi va texnikasi, turli ko‘rinishdagi axborotlarni olish va tahlil qilish); fanga oid ko‘nikmalarni umumlashtirish (fanga tegishli umumlashtirilgan ko‘nikmalarni shakllantirish); amaliy fan ko‘nikmalari (olinayotgan bilimlarni amalda qo‘llashga yo‘naltirish); hayotiy ko‘nikmalar(kundalik turmushda qo‘llaniladigan oddiy ko‘nikmalarning turlicha spektrlari) asosida tushuntirilgan[1.7.].

Natijada, kompetensiyaviy yondashuv umumiy o‘rta ta’limning muhim tarkibiy qismini tashkil yetishi aniqlandi. Xususan, o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga asos bo‘ladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv birinchi navbatda o‘qitishning zamonaviy ta’lim shakllaridan foydalangan holda, bilimlar to‘playdigan va ulardan keyingi hayotlarida foydalana oladigan shaxsni shakllantirishga imkon beradigan sharoitni yaratishni taqozo qiladi. Ta’lim kompetensiyasi–bu o‘quvchining obyektiv borliqda zaruriy ravishda shaxs ijtimoiy ahamiyatga molik samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari, faoliyat tajribasi, motivatsiyasi, mantiqiy fikrlashi, qiziqishlari va mazmunan yo‘naltirilganligi .

Kompetentlilik bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlar yig‘indisidan iborat shaxsiy natijalar, tizimli faoliyat. Bu esa, ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borishni taqozo yetadi.

Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv rejalarida o‘quvchilarga zamon talablari asosida bilim berish uchun quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllanadi:kommunikativ kompetensiya; axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi; o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi; ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; milliy va umummadaniy kompetensiya; matematik savodxonlik savodxonlik fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish kompetensiyasi; o‘quvchilarga innovatsion g‘oyalarni singdirish kompetensiyasi; taraqqiyotni isloh qilishning tamoyili va ustuvor yo‘nalishini sharhlay olish, mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va taraqqiy yetish davri haqida aytib bera olish, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va ulardan foydalanish. Shundan so‘ng mazkur tayanch kompetensiyalar o‘quv fani mashg‘ulotlariga singdiriladi. O‘quv fan rejalari quyidagicha singdiriladi [5.9].

Kompetensiyaviy yondashuv butun umumiy o‘rta ta’limning amaliy tavsifining kuchayishini taqozo yetadi. Bunda o‘qituvchi ham o‘z ish faoliyatini o‘zgartirishiga to‘g‘ri keladi, bosh vazifa o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimlarni oshirishga o‘rgatishi, tashabbus ko‘rsatishni, jamoada yashash va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishi kerak hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda jamiyatga ma’lumotli, axloqli, yangiliklarga qiziqadigan insonlar zarur. U quyidagi xislatlarga yega bo‘lishi zarur:o‘z xatti-harakatlarini tahlil qila bilishi; barcha harakatlarining

natijalarini tahlil qila oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan bo‘lishi zarur; tezkor ishlashi; hamkorlikda ishlay olishi; mamlakatning taqdiri, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashi uchun javobgarlikni his yetishni tarbiyalash lozim.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan standart talabida o‘quvchilarni atrof-olamni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishdan, foydali axborot-larni izlash, hayotda qo‘llash uchun o‘z tayyorgarligini kuchaytirish lozim.Shunga ko‘ra, zamonaviy dars mashg‘ulotlariga tayyorlanishi va uni o‘tkazishda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati o‘zgaradi. Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’limning ko‘p tarqalgan mashg‘ulot turi darsdir.

O‘qituvchi zamonaviy tipdagi dars mashg‘ulotini tayyorlash uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak. Maqsad va vazifalarni aniqlab olish. O‘quv materiallarini mazmunini ajratib olish. O‘qitish metodikasini tanlash. Nazorat metodlarini aniqlash.[10].

Dars mashg‘ulotlariga qo‘yiladigan didaktik-metodik talablar.

Dars qo‘yiladigan didaktik talablar	An’anaviy ma’ruza mashg‘uloti	Zamonaviy ma’ruza mashg‘uloti
Ma’ruza mazmunini e’lon qilish	O‘qituvchi tomonidan aytiladi	O‘quvchilar tomonidan shakllantiriladi
Maqsad vazifalarini aytish	O‘quvchilar nimani o‘rga-nishlari o‘qituvchi tomonidan shakllantiriladi va aytiladi	O‘quvchilar nimani bilishlari va nimani bilmasliklarini anglagan holda mashg‘ulotlarda ishtirok etadi
Rejalashtirish	O‘qituvchi o‘quvchilarga maqsadga erishishlari uchun qanday ishni bajarishlari kerak yekanligini aytadi	Ko‘zlangan maqsadga erishish metodlarini o‘quvchilar tomonidan rejalashtiriladi
O‘quvchilarning amaliy faoliyati	O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bajariladi	O‘quvchilar belgilangan reja asosida o‘quv faoliyatini amalga oshiradilar
Nazoratni amalga oshirish	O‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan bajariladigan amaliy ishlarni nazorat qiladi	Nazoratni o‘quvchilar amalga oshiradilar (o‘z-o‘zini va o‘zaro nazorat qiladilar)
O‘quvchilarni baholash	O‘qituvchi o‘quvchilarni auditoriyada baholaydi	O‘quvchi o‘zi va boshqa o‘quvchilarning faoliyatini baholaydi
Ma’ruzani yakunlash	O‘qituvchi o‘quvchilardan nimalarni eslab qolganini so‘raydi	O‘zaro savol-javob asosida

Muammoli va izlanuvchan vaziyatlarni tashkil qilib o‘quvchi faoliyatini faollashtiradi; O‘quvchining o‘zini xulosa chiqarishga odatlantirish. Shaxsiy harakat kelajakda o‘quvchining mustaqilligining shakllanishiga asos bo‘la oladi, demak, ta’limiy vazifa o‘quvchi harakatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni tashkil yetish lozim. Bunda o‘quvchi o‘qituvchi yordamida o‘quv faoliyatini shakllantiradi. O‘quvchi o‘qigan matniga doir grafik chizishi, ma’lum qonuniyatlar asosida masalalar yechishi, o‘rtoqlariga tushuntirib bera olishi lozim. Agar o‘quvchi

intellektual qobiliyatli bo‘lsa yangi sharoitlarda dadil qadam bilan oldinga intilsa, u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha oladi[4.].

Matematikani o‘rganishdagi kompetensiya egallagan bilimi, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayoti uchun zarur amaliy va ijodiy ishlarini bajarishda, texnik ijodkorlikka qiziqish ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati rivojlanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kommunikativ kompetentlilik: og‘zaki va yozma nutqini mukammal oshira borish; tuzilgan savollarga yozma va og‘zaki javob yoza olish; o‘z fikrini aniq va tiniq bayon yeta olish; qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash va ulardan foydalanib test va savollar tuza olish; guruhlarda ishlay olish, o‘z fikrini himoya qilish, ishontira olish; muammolarni hal qilishda o‘zini o‘zi boshqara olish, ona tilidan tashqari, horijiy tillarni ham o‘zgartirishi lozim.

Kommunikativ kompetentlilikni shakllantirish va rivojlantirish uchun:Darslik bilan muntazam ishlash;matn ustida ishlash ko‘nikmasi;mavzudan foydalanib savollarga javob topish;amaliy topshiriqlarni bajara olish;mavzu materiallaridan foydalanib elektr zanjir va grafik tuza olishi zarur. Bo‘lajak texnik mutaxassislarni shaxs sifatida o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini tarkib toptirish uchun mustaqil ish ta’limiga e’tiborini qaratish, o‘quv, test topshiriqlari to‘plamini yaratish, mavzuga oid o‘quv va video filmlardan foydalanish qo‘shimcha adabiyotlar va internet saytlaridan ma’lumotlarni saralash hamda mustaqil ish, ma’ruza va taqdimot materiallarini tayyorlashumuman intellektual kamolotga erishish talab yetiladi.

Dars mashg‘ulotining maqsadga muvofiq, namunali va samarali qilib tashkil etilishi o‘quv-uslubiy ta’minotning nechog‘lik mukammalligiga, shu bilan birga, o‘qituvchining o‘quv faniga oid bilimiga, darsni tashkil etish mahorati hamda darsdagi o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabat madaniyatiga uzliksiz bog‘liq bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim maktabilarda dars mashg‘ulotini namunali va samarali qilib tashkil etishning yana bir xususiyati – bu dars mashg‘ulotlarining oldindan pedagoglar tomonidan loyihalashtirilishidan iboratdir[7.10].

Umumiy o‘rta ta’lim maktabilarda dars mashg‘ulotining o‘tishning yadrosi darsning maqsadi, mazmuni, shakli, metodi, dars mashg‘ulotida ishlatiladigan vositalar, o‘quvchi va o‘qituvchi, dars loyihalari (darsning kengaytirilgan texnologik xaritasi) kabi elementlardan iborat metodik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Tarkibiy elementlar o‘zaro birlik va aloqadorlikda ta’lim jarayonining umumiy mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabilarda ta’lim jarayoni bir nechta shartlarga muvofiq tashkil yetiladi. Ular quyidagilardir:

o‘quvchining ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoji – ijtimoiy yoki shaxsiy;

ta’lim olishga bo‘lgan rag‘bat – motiv;

o‘quvchi faoliyatining mazmunini belgilash;

o‘quvchi faoliyatining boshqarish;

ta’lim jarayonini loyihalashdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabilarda o‘qitiladigan matematika da ta’lim jarayonini tashkil etishda dars mashg‘ulotlari loyihalarining o‘rni beqiyos. Loyihalash ta’lim jarayonini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini

ta’minlovchi muhim shartlardan biri ekanligi aniqlandi va ta’lim jarayoniga tadbig‘ etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘.N.Sultonova o‘.n. .“Fizikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish”. “texnika va texnologik fanlar sohalarining innovatsion masala-lari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjumani. -.:2020 yil 22 sentabr. - 410-412. B
2. O‘.N.Sultonova o‘.n. Formation of basis competences for studentsbusolvingproblems in physics. Page-.:107-114 vol 7 no 11.2019.
3. B.To‘rayev, sultonova o‘.n. fizikadan savol va masalalar to‘plami darslik.-t.:2021. -365 bet.
4. Sultonova o‘.n., Sultonov s.n. avtomatizatsiya eksperimenta v laboratornom komplekse po mexanike. //vыsshaya shkola.-.: 2018, 24 son. 32-33.b
5. Sultonova o‘.n. kadirova n.t. sultonov s.n. jiyanova s.i. payanova s.q. “technology to improve the methods of teaching physics in hicher education based on a competency approach (on the example of training technical engineers)” european journal of molekular&clinikal medicine issn 2515-8260 volume 7 issue -.:2020 y, 365-374.b
6. Sultonova o‘.n. to‘rayev b.e. sultonov s.n. “fizika fanidan muammoli masalalar yechishda kompetensiyaviy yondashuv” vыpusk 6 (50) f.a mamadaliev, egyptian triangle (books 1, 2,3) t/ “renessans press”-.: 2018 y, 144-149.b
7. Muslimov I.A., Boltaboev S.A., Sharipov Sh. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Kasb ta’limi yo‘nalishi magistrantlari uchun qo‘llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2003 yil.
8. Turakulov X. A., Turakulov O.X, Fayzimatov B.,Ubaydullaev S., Xamidov J.A. “Texnika fanlarini o‘qitishga yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ilmiypedagogik asoslari” Ukuv kullanma. Fargona - 2003 y. FarPI "Texnika" bulimi.

10-11 SINF O‘QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI INTEGRASIYALASH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Mamataliyev O‘tkir Ashurovich,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotasiya. Maqolada fanlararo kompetensiyalarni ishlab chiqish uchun turli o‘quv fanlari orasida umumiy bo‘lgan bilish faoliyatlari, ko‘nikma va malakalari, qo‘llanish metodlarini yoritgan holda olinadi. Bugungi kunning asosiy muammolaridan biri ta’lim muassasasi bitiruvchilari o‘zi tanlagan kasb bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyaviy yondashuv orqali rivojlantirishdan iborat. Fanlararo integratsiya talabalarni o‘z kasbiga, fanga bo‘lgan

qiziqishini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi, ularda amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllanishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetensiyaviy, fanlararo, ko‘nikma, malaka, yondashuv, integratsiya, malaka.

Fanlararo kompetensiyalarni ishlab chiqish uchun turli o‘quv fanlari orasida umumiy bo‘lgan bilish faoliyatlari, ko‘nikma va malakalari, qo‘llanish metodlarini yoritgan holda olinadi. Bugungi kunning asosiy muammolaridan biri ta’lim muassasasi bitiruvchilari o‘zi tanlagan kasb bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyaviy yondashuv orqali rivojlantirishdan iborat. Fanlararo integratsiya talabalarni o‘z kasbiga, fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi, ularda amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllanishida yordam beradi.

Uni fanlararo bog‘lanish asosida tashkil etish uch xil: umumta’lim, umumkasbiy va maxsus fanlar doirasida bajariladi. Umumta’lim fanlari (fizika) bilan umumkasbiy fanlar integratsiyasi maxsus fanlar bilan amalga oshiriladi. Bugungi kunning asosiy muammolaridan biri ta’lim muassasasi bitiruvchilari o‘zi tanlagan kasb bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyaviy yondashuv orqali rivojlantirishdan iborat. Fanlararo integratsiya talabalarni o‘z kasbiga, fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi, ularda amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantiradi. Fanlararo integratsiyani amalga oshirishdagi muammoni bartaraf etish uchun fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirish quyidagi muammolarni hal etishni nazarda tutadi.

- Matematika va kasbiy fanlarni O‘B amalga oshirish vositalaridan foydalanish;
- ta’limni uch tomonlama birlashuvini ta’minlash jarayoni va motivatsiyasi;
- ta’limning maqsadi, mazmuni, metodlari, turlari va vositalarini takomillashtirish.

Ta’lim mazmunini o‘quv fanlari bo‘yicha quyidagicha sohalar bo‘yicha tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.

1-soha Matematika ta’limi mazmuni – talabalarda ilmiy dunyoqarash va falsafiy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantiruvchi bilimlar doirasi.

2-soha Umumkasbiy ta’lim bo‘lajak texnik kasbga oid nazariy bilimlarni shakllantiruvchi bilimlar doirasi;

3-soha Maxsus ta’lim mazmuni kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish sohasi.

Bu sohalar (1-3) chegaralangan bo‘lib, muayyan fan yuzasidan beriladigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar majmuasidan iborat. Bunda 3 bilimlari tarqoq bo‘lib, hodisalar orasidagi bog‘lanishni tushuntirib bera olmaydi.

Fanlar bog‘lanishini jadval diagrammasi 2.4 jadval



4-soha Matematika va umumkasbiy fanlarni O‘B asosidagi ta’lim mazmuni talabalarda ilmiy dunyoqarash va falsafiy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantiruvchi, kasbga oid nazariy bilimlarni matematika qonuniyat va hodisalar asosida idrok etishlarini shakllantiruvchi bilimlar dorasi;[138.130.128.]

5-soha: Matematika va maxsus fanlarning O‘B asosidagi ta’lim mazmuni o‘quvchilarda tabiatdagi hodisalar va ularning kasbiy tayyorgarligiga oid amaliy bilimlarning o‘zaro bog‘liqligini idrok etishlarini shakllantiruvchi bilimlar doirasi;

6-soha: Umumkasbiy va maxsus fanlarning O‘B asosidagi ta’lim mazmuni-o‘quvchilarda kasbga oid nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi bilimlar doirasi.

Bu sohalar (4-6) “uzlukli soha”lar bo‘lib, FABni ma’lum chegarada ta’minlovchi bilimlar majmuasidan iborat. Bunda o‘quvchilarda bilimlari nisbatan umumlashgan bo‘lib, hodisalar orasidagi bog‘lanishni har doim ham tushuntirib bera olmaydilar.

7-soha: fizika, umumkasbiy va maxsus fanlarning O‘B asosidagi ta’lim mazmuni-talabalarda matematik, kasbiy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalarning o‘zaro uyg‘unlikda shakllantiruvchi bilimlar doirasi. Bu soha «uyg‘unlashgan soha» bo‘lib, FABni namunali amalga oshirilishini ta’minlovchi bilimlar majmuasidan iborat. Bunda o‘quvchilarda bilimlari umumlashgan bo‘lib, hodisalar orasidagi bog‘lanishni ilmiy asosda muntazam tushuntirib bera oladilar, amaliyotda duch keladigan vaziyatlarni fundamental bilimlarga tayangan holda izohlay oladilar.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim 11-sinf o‘quvchilarining 7-sohada keltirilgan bilimlar doirasi o‘z aksini topishi lozim. Bu esa ta’lim sifati va samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarda matematika va maxsus fanlarning O‘Bni amalga oshirilishi quyidagi to‘rt bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin:

Matematika va maxsus fanlarning O‘B masalalari va uning asosida yotuvchi tamoyillarni o‘rganish (o‘qituvchilarning nazariy tayyorgarligi);

FAB tamoyillari asosida bilimlarni differensiallash (ma’lum darslarga tayyorlanish);

FAB tamoyillari asosida o‘rganiladigan bilimlarni tegishli mavzular bo‘yicha integrallash;

Darsni FAB asosida tashkil etish.[86.98.110.]

Birinchi bosqich o‘qituvchilarning ta’lim jarayoni bilan bog‘liq mustaqil faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bosqichda FAB mohiyati chuqur o‘rganilib, o‘zlashtiriladigan bilimlar aniq ajratib ko‘rsatiladi. Uchinchi bosqichda bu bilimlar matematika va maxsus fanlarning O‘B talablari nuqtai nazaridan integrallanadi. To‘rtinchi bosqichda ushbu bilimlar bevosita amaliyotga tadbiq etiladi, ya’ni dars jarayonida o‘quvchilarga beriladi.

Ta’lim jarayonida masalalar ishlash orqali xilma-xil ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalar amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan fanlararo bog‘lanish asosida masalalar echish orqali mavzu mazmunini va masalalar echishni o‘rganib olishlaridan iborat. Ta’lim samaradorligini oshirishda va o‘quvchi ma’lum darajada o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishda to‘laqonli

bilim olishda, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda masalalar echish o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shuning uchun darslarida ko‘proq masalalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish va ulardan foydalanish usullarini ishlab chiqish o‘qitish metodikasini fanlararo bog‘lanish asosida ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri sifatida olg‘a suriladi.

O‘quvchi fanlararo bog‘lanish asosida masalalarni yechish jarayonida fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali jamiyat uchun zarur bo‘lgan yangi bilimlar mazmunini tushunib yetadi, masala shartida berilgan yangi holatlar bilan tanishadi, zarur bo‘lgan masalani echishda turli fanlarga oid qonun va nazariyalarni qo‘llash orqali yangi usullarni o‘zi uchun kashf qiladi. Fanlararo bog‘lanishlar asosida ma’lum tipdagi masalalarni echish usuli va uni bir necha marta takrorlash orqali o‘quvchida ko‘nikma va malakalarni shakllanishi bilan bir qatorda fanlararo bog‘lanish asosida bilimlari orta boradi. Integrativ bilimlar asosida masalalar yechish o‘quvchini aniq fikrlarini ajrata olish va xulosalar yasash, ma’lumotlar va ilmiy faktlarni aniqlash, ma’lumotlarni mos keltirish va qarama-qarshi qo‘yish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqot ishlaridan ma’lum bo‘ldiki, ko‘pchilik o‘qituvchilar fanlararo bog‘lanish asosida masalalarni yechishga qiynalishadi, buning asosiy sababi fanlararo bog‘lanishlarni masalalar yechish jarayoniga tatbiq eta olmasligi. O‘quvchilarga ta’lim berish jarayonida fanlararo bog‘lanish asosiy o‘rinda turadi. Chunki har bir hodisani ilmiy jihatdan asoslash unga ko‘p tomonlama yondashishni talab etadi. Masala va mashqlar yechishning muhim didaktik talablaridan biri fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchi uchun masala bayonini eng qulay variantlarini tanlay olishi hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi darsda, darsdan va sinfdan tashqari ishlarda izchil ravishda (oddiydan murakkabga tomon) fanlararo masalalar echishi va bu jarayonda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish nazariyasi hamda amaliyotini uyg‘un ravishda tashkil etishi lozim. O‘qituvchi bu jarayonlarni amalga oshirish natijasida o‘zining kasbiy kompetentligini takomillashtirish barobarida o‘quvchilarda fanlararo masalalar echish bo‘yicha tayanch hamda fanga doir kompetensiyalarini shakllanishiga ham zamin tayyorlagan bo‘ladi.

Ayrim mavzularni o‘rganishda fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari mavjudligi ko‘rsatilgan. Fizika fanlaridan o‘zaro aloqaning muhim shakllaridan biri matematik masalalarni fizik qonunlardan foydalanib yechishdir. Bir paytda ham fizikaga, ham matematikaga ta’luqli bo‘lgan masalalarni echish o‘quvchilar uchun foydali. Fizika fani arifmetik yoki algebraik ifodalari bilangina bog‘lanib qolmasdan, balki geometriya bilan ham bog‘liq. Ayrim mavzularni o‘rganishda fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari mavjud.

1. Hozirda yangicha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar jahonda barcha fanlarni o‘qitishda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hamda shu orqali ta’lim sifatini ta’minlash, ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlarning amaliy tatbiqlari samaradorligini oshirish va fanlararo aloqadorlik asosida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish kabi masalalarlarni qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. 10-11-sinf o‘quvchilarining

tafakkurini fanlararo bog‘lanish asosida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki, ularga o‘quv predmetlari orqali atrofimizdagi tabiat xodisalari o‘rgatiladi. Olam esa yagona bo‘lib, uni tashkil yetuvchi narsa va hodisalar bir biri bilan chambarchas bog‘langan. Demak, tabiat hodisalarini o‘rganuvchi predmetlar ham o‘zaro bog‘liq holda o‘qitilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Николаева И. Б. Реализатьсия межпредметных связей курса физики с общепрофессиональными и специалными диссиплинамы в военном вузе:дис. к. пед. н. – Челябинск, 1999. – 194 с.
2. Оскина.О.В. Методика обучения основам компьютерного моделирования будущих учителей физики в педвузе: диссертатсия... кандидата педагогических наук: 13.00.02 Самара 2000
3. Olimov Q.T.. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Dis. … ped. fan. dokt. – Toshkent: 2005. – 286 b.
4. Песталотсси И.Г. Избранные педагогические сочинения. Т. 2. М.: Изд-во АПН РСФСР, 1963. - с. 760.
5. Петровская.Л.А”Общение-компетентност-тренинг:избранные труды”, М.: Смысл,2007
6. Петряков.И.С.Математические кружки в в 8-10 классах.-Москва: Просвещение, 1987.- 4 с.
7. Плахова, В.Г. Методы формирования математической компетенсии у Студентов / В.Г. Плахова // Актуалные проблемы науки в России: Сб. материалов международной науч.-практ. конф. - Кузнетск, 2009. - С. 108-113
8. **“**PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.pedagoglar.uz Volume-256 9, Issue-2, May - 2022

"FAZOVIY JISMLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: VIZUALIZATSIYA VA INTERAKTIV METODLAR"

Turaboyev Bahodir Urolovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi
matematika fani bosh o‘qituvchisi
Tel: +99894263445 bahodirb467@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada akademik litsey o‘quvchilariga geometriya fanidan fazoviy jismlarni samarali va qulay tarzda o‘rgatishning ilg‘or metodlari yoritilgan. Fazoviy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan interaktiv yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar (3D modellash, virtual va kengaytirilgan reallik, STEAM), guruhiy va amaliy o‘quv jarayonlari tavsiflangan. Shuningdek, fazoviy jismlarni tushunishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinib, ularni yengib o‘tish bo‘yicha metodik takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari shuni

koʻrsatadiki, fazoviy tasavvurni rivojlantirishda vizualizatsiya va interaktiv oʻqitish muhim rol oʻynaydi.

Kalit soʻzlar: fazoviy jismlar, geometriya ta’limi, fazoviy tafakkur, interaktiv metodlar, 3D modellashtirish, virtual va kengaytirilgan reallik (VR & AR), steam ta’limi, geometriya vizualizatsiyasi, oʻyinli oʻqitish (gamifikatsiya), amaliy mashgʻulotlar.

Kirish.

Matematika ta’limining muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlgan geometriya oʻquvchilarning mantiqiy tafakkuri va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Fazoviy jismlar boʻlimi esa geometriyaning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, biroq koʻplab oʻquvchilar bu mavzuni oʻzlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu asosan uch oʻlchamli jismlarni ikki oʻlchovli muhitda tasavvur qilish va analiz qilish bilan bogʻliq.

Shu sababli, fazoviy jismlarni oʻrgatishda yangi innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish lozim. Zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar va amaliy mashgʻulotlar yordamida bu mavzuni yanada samarali oʻrgatish mumkin.

Fazoviy jismlarni oʻrgatishda uchraydigan muammolar quyidagilar:

1. Fazoviy tafakkur yetishmovchiligi boʻlganligi sababli, koʻplab oʻquvchilar fazoviy jismlarni ikki oʻlchovli qogʻozda yoki ekranda koʻrishda qiyinchilikka duch keladilar. shuning uchun, uch oʻlchovli jismlarning kesimlari, aylanishlari va proyeksiyalarini toʻliq tushunish uchun maxsus metodologiya talab etiladi. shuningdek, formula va xususiyatlarni eslab qolish qiyinchiligi ham oʻquvchilarni oʻqitishda fazoviy jismlarning sirt yuzasi, hajmi, diagonali va kesimlari bilan bogʻliq koʻplab formulalar mavjud boʻlib, ularni mexanik yodlash samarali emasligi kelib chiqadi. Bundan tashqari amaliy mashgʻulotlarning koʻplab maktab va litseylarda real modellar, 3D vizualizatsiya yoki laboratoriya uskunalari yetishmovchiligi oqibatida, faqat nazariy yondashuv orqali oʻqitish fazoviy fikrlashni rivojlantirish uchun yetarli emasligi kelib chiqmoqda.

Bularning yechimi sifatida hozirgi kunda maktab va litseylarda fazoviy jismlarni samarali oʻqitish usullari quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb oʻylayman.

Vizualizatsiya va interaktiv texnologiyalar, 3D modellash dasturlari (GeoGebra, AutoCAD, SketchUp, Blender) yordamida oʻquvchilarga fazoviy jismlar modellarini yaratish va ularni analiz qilish imkoniyati beriladi.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR & AR) texnologiyalari orqali fazoviy jismlarni real hayotda koʻrib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Matematik dasturiy ilovalar (GeoGebra 3D) yordamida jismlarni aylantirish, kattalashtirish va kesish jarayonlarini vizual koʻrish mumkin.

Chizma va grafika vositalaridan foydalanish: Oʻquvchilar maxsus elektron planshetlar yoki grafik dasturlardan foydalanib, fazoviy jismlarning aniq chizmalarini yaratishlari mumkin.

Real obyektlardan foydalanish oʻquvchilarga kundalik hayotda uchraydigan geometrik shakllarni tahlil qilish orqali mavzuni tushuntirish (masalan, kub

shaklidagi qutilar, konus shaklidagi muzqaymoqlar, silindrsimon quvurlar) samarali bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘zlari kartondan yoki plastmassa materiallardan maketlar yasab, jismlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunishlari mumkin.

Ijodiy yondashuv: O‘quvchilarga o‘zlari ixtiro qiladigan fazoviy shakllar va strukturalarni yaratish topshirig‘ini berish orqali ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Guruhli va loyihaviy ishlar

O‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali fazoviy jismlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishadi.

STEM va STEAM metodlari orqali o‘quvchilarga muhandislik va san’at bilan bog‘liq loyiha ishlarini berish mumkin.

Matematik kvest va boshqotirmalar: Jamoaviy faoliyatni oshirish uchun maxsus kvest o‘yinlari tashkil etish va unda fazoviy jismlarga oid vazifalar kiritish mumkin.

Gamifikatsiya va o‘yin metodlari

"Kahoot", "Quizizz" platformalarida o‘yin elementlari orqali fazoviy jismlar bo‘yicha test va viktorinalar o‘tkazish.

O‘quvchilarni fazoviy jismlar bilan bog‘liq boshqotirmalar va muammolar orqali fikrlashga undash.

Matematik simulyatorlardan foydalanish: O‘quvchilar interaktiv o‘yinlar yordamida fazoviy jismlar xususiyatlarini o‘rganishlari mumkin.

Fazoviy jismlarning o‘quvchilar hayotidagi ahamiyati juda katta ahamiyatga egadir.

Shuningdek, matematika va geometriya fanlari inson tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Fazoviy jismlar (kub, parallelepiped, prizma, piramida, shar va boshqalar) esa makon va shakllarni tushunishda asosiy vositalardan biridir. O‘quvchilarning fazoviy jismlar haqida bilimga ega bo‘lishi nafaqat matematik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki kundalik hayotlarida, kasbiy yo‘nalishlarida ham katta ahamiyatga ega.

1. Tafakkurni rivojlantirish.

Fazoviy jismlar haqida tushuncha o‘quvchilarning fazoviy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Ular muayyan shakllarni tasavvur qilish, hajmni his qilish, nisbatlarni anglash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu esa muhandislik, arxitektura va dizayn kabi kasblar uchun muhim asos yaratadi.

2. Amaliy hayotda qo‘llanilishi.

O‘quvchilar har kuni turli fazoviy jismlarga duch kelishadi: binolar, transport vositalari, mebellar, texnik qurilmalar barchasi fazoviy shakllarga ega. Ushbu bilimlar me’moriy loyihalash, qurilish, transport muhandisligi va boshqa sohalarda qo‘llaniladi.

3. Texnologiya va innovatsiyalar.

Zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishda fazoviy geometrik tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 3D-modellashtirish, animatsiya, robototexnika kabi yo‘nalishlarda fazoviy jismlarni tushunish katta ahamiyatga ega.

4. O‘quv jarayonidagi ahamiyati.

Matematika darslarida fazoviy jismlar bilan ishlash o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantiradi. Masalan, geometriya darslarida maket yasash, 3D chizmalardan foydalanish o‘quvchilarni yanada qiziqtiradi va ularning o‘qish jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

5. Kasbiy yo‘nalishlar uchun asoslar.

Ko‘pgina kasblar fazoviy tafakkurni talab qiladi. Muhandislik, dizayn, arxitektura, aerokosmik texnologiyalar, stomatologiya, tibbiyot sohalari fazoviy jismlarni o‘rganishni talab qiladigan muhim yo‘nalishlardir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, fazoviy jismlarni o‘rganish o‘quvchilarning nafaqat maktabdagi, balki kelajakdagi hayotlarida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu bilimlar kundalik hayotda qo‘llanilishi, texnologik innovatsiyalarni tushunish va muhandislik hamda ilm-fan sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli, fazoviy jismlarni chuqur o‘rganish va amaliy mashg‘ulotlar orqali tushunchalarni rivojlantirish o‘quvchilar uchun juda foydali bo‘ladi. Fazoviy jismlar mavzusini samarali o‘rgatish uchun an’anaviy yondashuvlar zamonaviy innovatsion metodlar bilan boyitilishi kerak. 3D modellashtirish, virtual reallik texnologiyalari, amaliy loyihalar va guruhli mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish mumkin. Bu esa nafaqat geometriya fanini oson tushunishga, balki kelajakda muhandislik, arxitektura va dizayn sohalarida muvaffaqiyat qozonishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Van Hiele, P. M. (1986). Structure and Insight: A Theory of Mathematics Education. Academic Press.
2. Tall, D. (2013). How Humans Learn to Think Mathematically: Exploring the Three Worlds of Mathematics. Cambridge University Press.
3. Usmonov, A. (2020). Geometriya o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

KO‘CHAR VA KO‘CHMAS BLOKLI SISTEMALARDA JISMNING KINEMATIK PARAMETRLARINI HISOBLASH METODIKASI

Turayeva Lolaxon Yuldashevna
MG Toshkent “Temurbeklar maktabi”
fizika fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘char va ko‘chmas blokli sistemalarda jismning kinematik parametrlarini koordinata kiritish usulida hisoblash –blokli sistemalarda ixtiyoriy koordinatadagi tezlik va tezlanishning yo‘nalishi va son qiymatini hisoblash usuli bayon etildi.

Kalit so‘zlar: Ko‘char blok, ko‘chmas blok, oddiy mexanizm, kinematik parametr, koordinatalar usuli, gorizontal sirt.

Bloklar ko‘char bloklar hamda ko‘chmas bloklarga bo‘linadi. O‘qi qo‘zg‘almas bo‘lgan bloklarga ***ko‘chmas bloklar*** deyiladi. O‘qi qo‘zg‘aluvchan bloklarga esa ***ko‘char bloklar*** deyiladi.

Ko‘chmas bloklar kuchdan hech qanday yutuq bermaydi. 1-a,rasmda G yukni ko‘chmas blok yordamida tekis ko‘tarish jarayoni tasvirlangan. Bunda ko‘taruvchi F kuch yukning og‘irligi G ga teng bo‘ladi. Bunga esa ko‘chmas blok markaziga nisbatan F va G kuchlardan moment olib ishonch hosil qilish mumkin. Haqiqatan ham, $\sum m_i\left(\vec{F}_i\right)=0, \rightarrow\ G\cdot R-F\cdot R=0, \rightarrow\ G=F$ bo‘ladi. Agar odam arqonni $\vartheta_1=\vartheta$ tezlik bilan pastga tortsa, yuk ham xuddi ana shunday $\vartheta_2=\vartheta$ tezlik bilan yuqoriga ko‘tariladi. Chunki, arqon cho‘zilmas bo‘lgani uchun uning uzunligi o‘zgarmas saqlanadi.

Ko‘char blok kuchdan ikki marta yutuq beradi, lekin masofadan (yoki tezlikdan) ikki marta yutqazadi. 1-b,rasmda G yukni ko‘char blok yordamida tekis ko‘tarish jarayoni tasvirlangan. Bunda ko‘taruvchi F kuch yukning og‘irligi G ga nisbatan ikki marta kam, ya’ni $F=\frac{G}{2}$ bo‘lib, agar odam arqonni $\vartheta_1=\vartheta$ tezlik bilan pastga tortsa, yuk esa $\vartheta_2=\frac{\vartheta}{2}$ tezlik bilan yuqoriga ko‘tariladi. Chunki, odam arqon uchini biror $x_1=\ell$ masofaga tushirganda, shu uzunlikdagi arqon ko‘char blokning har ikki tomonidan $x_2=\frac{\ell}{2}$ uzunlikdagi arqonlar qisqarishi evaziga bo‘ladi.



1-rasm

Agar oddiy mexanizmda ko‘char bloklar soni ikkita bo‘lsa, bu mexanizm to‘rt marta yutuq beradi, lekin masofadan (yoki tezlikdan) to‘rt marta yutqazadi.

1-c,rasmda G yukni ko‘char bloklar yordamida tekis ko‘tarish jarayoni tasvirlangan. Bunda ko‘taruvchi F kuch yukning og‘irligi G ga nisbatan to‘rt marta kam, ya’ni $F=\frac{G}{4}$ bo‘lib, agar odam arqonni $\vartheta_1=\vartheta$ tezlik bilan pastga tortsa, yuk esa $\vartheta_2=\frac{\vartheta}{4}$ tezlik bilan yuqoriga ko‘tariladi.

Agar oddiy mexanizmda ko‘char bloklar nechta bo‘lsa, bu mexanizm 2^n marta yutuq beradi, lekin masofadan (yoki tezlikdan) to‘rt marta yutqazadi. Boshqacha aytganda, mexanizmdagi har bir blok kuchdan ikki marta yutib, masofadan (yoki tezlikdan) esa ikki marta yutqazadi. 1-g,rasmda G yukni ko‘char blok sistemasidan iborat oddiy mexanizm yordamida tekis ko‘tarish jarayoni tasvirlangan. Bunda ko‘taruvchi F kuch yukning og‘irligi G ga nisbatan 2^n marta kam, ya’ni $F=\frac{G}{2^n}$

bo‘lib, agar odam arqonni $\vartheta_1=\vartheta$ tezlik bilan pastga tortsa, yuk esa $\vartheta_2=\frac{\vartheta}{2^n}$ tezlik bilan yuqoriga ko‘tariladi. O‘quvchilar bir qancha blokli sistemalarda jismning kinematik parametrlarini hisoblashga qiynalishadi. Shuning uchun bunday tipdagi masalalarni koordinata kiritish usuli orqali hisoblashni tavsiya qilamiz. Ushbu usulning boshqa usullardan afzalligi shundaki, biz kiritgan koordinata kinematik parametrlar ya’ni tezlik, tezlanishning son qiymati va yo‘nalishini yuqori aniqlikda hisoblashga yordam beradi. Namuna sifatida quyidagi masalani hisoblaymiz.

Masala. Gorizontal sirtda bir xil M massali bursok yengil vaznsiz iplar va bloklar yordamida (2-rasm) rasmda ko‘rsatilgan holatda keltirilgan. Ipning uchiga F kuch vektori qo‘yilgan bo‘lsa, sistemaning shu uchi qanday tezlanish bilan harakat qiladi?



2-rasm

Yechish.a)1-jism uchun dinamik jihatdan Nyutonning II qonunidan foydalangan holda quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz. $F+F+F=M\cdot a_1$; $3\cdot F=M\cdot a_1$ (1)

b) 2-jism uchun ham Nyutonning II qonunidan foydalanib quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz. $-F-F=M\cdot a_2$; $-2\cdot F=M\cdot a_2$ (2)

c) Koordinata kiritish usulidan foydalanib, harakat davomida ipning umumiy uzunligi o‘zgarmasligini L=const bilgan holda hisoblaymiz.

$$L=X_A-X_1+\pi\cdot R+X_2-X_1+\pi\cdot R+\Delta l \quad (3)$$

L=0 o‘zgarmas kattalik bo‘lgani uchun hosilasi nolga teng bo‘ladi.

$$a_A+2\bullet a_2-3\bullet a_3=0; \quad (4)$$

$$\vartheta_1+2\bullet\vartheta_2-3\,\vartheta_3=0 \quad (5)$$

(4) ifodadan a_A ni topamiz. $a_A=3\bullet a_1-2\bullet a_2=0;$ (6)

(1) va (2) ifodalarni (6) ifodaga olib kelib qo‘yamiz:

$a_A=3\cdot\frac{3F}{M}-2\cdot(-\frac{2F}{M})=\frac{13F}{M}$ Javobi: $a_A=\frac{13F}{M}$

Ushbu usulning boshqa usullardan farqli jihati shundaki, blokli sistemalarni bog‘lovchi ipning ixtiyoriy momentidagi yoki koordinatasidagi tezlik va tezlanishni hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.B.Axmedov, Dusmuratov M.B Fizika (I-qism). Akademik litsey o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – 435 b.
2. T.M.Oplachko i dr.Fizika – Chast II. T:Chulpan. 2013.-208 str.

MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINI HISOBLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Turayeva Lolaxon Yuldashevna
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL fizika fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada magnit maydon induksiyasini differensiallash orqali hisoblash usuli bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Sinov zaryad, berk kontur, burovchi moment, magnit induksiyasi, musbat normal, o‘ng parma.

Elektr maydonini qo‘zg‘almas zaryad hosil qilsa, magnit maydonini esa harakatdagi zaryad hosil qiladi. Boshqacha aytganda, elektr maydoni siljiganda magnit maydoni hosil bo‘ladi. Elektr maydonidan farqli ravishda magnit maydoni berk maydondir, ya’ni magnit maydonining na oxiri va na boshi bor. Magnit maydonining miqdoriy xarakteristikasi sifatida, magnit induksiyasi deb ataladigan kattalikdan foydalaniladi. Elektr maydonini tekshirayotganda sinov zaryadidan foydalangan bo‘lsak, magnit maydonni o‘rganayotganda esa tokli berk kontur (simli ramka) dan, ya’ni sinov konturidan foydalanamiz.

Yuzi *S* bo‘lgan va *I* tok o‘tayotgan tokli ramkani doimiy magnit qutblari orasiga joylashtiraylik (1-rasm).



1-rasm

Doimiy magnit va tokli ramkaning magnit maydonlari ta’sirlashib, ramkani vertikal o‘q atrofida buruvchi moment hosil qiladi. Tajribalarning ko‘rsatishicha bu burovchi moment ramkadan o‘tayotgan tok kuchiga, ramka yuziga va maydonning kattaligiga bog‘liq ekan. Magnit maydon yo‘nalishi ramka tekisligiga perpendikulyar bo‘lganda burovchi moment nolga teng, parallel bo‘lganda esa burovchi moment maksimal bo‘lar ekan.Tokli ramkaga ta’sir qiluvchi burovchi momentning maksimal qiymati ramka yuzi va ramkadan o‘tayotgan tok kuchiga proporsional ekan.

$$M_{\max} \sim I \cdot S$$

Turli yuza va tok kuchiga ega bo‘lgan ramkalar uchun ramkaga ta’sir qiluvchi burovchi momentning qiymati ham turlicha bo‘lib, lekin M_{max} ning $I{\cdot}S$ ko‘paytmaga nisbati tokli ramka kiritilgan nuqta uchun o‘zgarmas kattalik ekan. Bu nisbat tashqi magnit maydonni kuch jihatdan xarakterlab, tokli ramka kiritilgan nuqtadagi magnit maydonining induksiyasi deyiladi.

$$B = \frac{M_{max}}{I \cdot S}$$

Maydonning biror nuqtadagi magnit induksiyasi shu nuqtada induksiya chiziqlariga parallel joylashtirilgan birlik yuzaga ega bo‘lgan berk konturdan birlik tok kuchi o‘tganda hosil bo‘ladigan burovchi momentga miqdor jihatidan teng bo‘ladi.

Magnit induksiyasining o‘lchov birligi *Tl* (Tesla) bo‘lib unga quyidagicha ta’rif beriladi:

Bir jinsli magnit maydoniga *1* m^2 yuzaga ega bo‘lgan va *1 A* tok o‘tayotgan sim ramka kiritilganda, bu ramkaga maydon tomonidan *1 N·m* maksmal burovchi moment ta’sir qilsa, bu maydonning induksiyasi *1 Tl* ga teng bo‘ladi.

$$\frac{1N \cdot m}{1A \cdot 1m^2} = 1\ Tl$$



2-rasm

3-rasmda ko‘rsatilgan yarim aylanalar shaklidagi konturlar bo‘yicha I tok oqmoqda. Kontur o‘lchamlari rasmda ko‘rsatilgan. O nuqtadagi umumiy magnit maydon induksiyasini hisoblang?



3-rasm



a rasmda ko‘rsatilgan chizma uchun magnit maydon induksiyasini hisoblashni 3 ta qismga ajratib olamiz.Va qulay usulda hisoblaymiz. Rasmga e’tibor qilib qarasak, 1- va 3- sohalarda magnit maydon induksiyasi nolga teng. Sababi magnit maydon induksiyasi toklar bilan ustma-ust tushgan.

$$\alpha = 0,\ \sin\alpha = 0$$

$$dB = \frac{\mu_0}{4\pi}\frac{Idl\sin\alpha}{r} = 0; \qquad B_1 = B_3 = 0;$$

2- soha uchun magnit maydon induksiyasini hisoblaymiz.Buning uchun yarim aylanadan qandaydir qismni ajratib olamiz. Aylanani radiusi r bo‘lsin.

$$dB_2 = \frac{\mu_0}{4\pi}\frac{Idl\sin\alpha}{r};\ B_2 = \frac{\mu_0 I}{4\pi r^2}\int_0^{\pi r} dl = \frac{\mu_0 I}{4r};$$

$$B = B_1 + B_2 + B_3; \qquad B = B_2 = \frac{\mu_0 I}{4r}; \qquad Javobi:\ \frac{\mu_0 I}{4r};$$



b rasmda ko‘rsatilgan chizma uchun magnit maydon induksiyasini hisoblaymiz.

X o‘qni va O nuqtani belgilab oldik. Bu masala yuqoridagi masalaning xususiy xoli. Buning uchun yarim aylanadan qandaydir qismni ajratib olamiz. Aylanani radiusi r bo‘lsin.

$$d\,l = R\,d\,\Theta\ ;$$

$$\pi\,R \to I\ ;\pi\,R\ \ sohadan\ \ I\ \ tok\ \ o't\sin.$$

$$d\,l \to i\ ;\ d\,l\ \ sohadan\ \ i\ \ tok\ \ o't\sin.\quad \frac{d\,l}{\pi\,R} = \frac{i}{I} \Rightarrow i = \frac{I}{\pi\,R}\cdot d\,l;$$

$$\int d\,B_x = 0; \qquad B = \int d\,B_y = \int d\,B\sin\Theta;$$

$$d\,B = \frac{\mu_0 I}{2\pi\,R} = \frac{\mu_0}{2\pi\,R}\cdot\frac{I}{\pi\,R}\cdot d\,l = \frac{\mu_0}{2\pi\,R}\cdot\frac{I}{\pi}\cdot d\,\Theta = \frac{\mu_0 I}{2\pi^2\,R}\cdot d\,\Theta;$$

$$B = \int_0^{\pi}\frac{\mu_0 I}{2\pi^2\,R}\cdot\sin\Theta = \frac{\mu_0 I}{\pi^2\,R}; \qquad Javobi:\ B = \frac{\mu_0 I}{\pi^2\,R};$$

Ushbu maqolada magnit maydon induksiyasini hisoblashga doir masalani differensiallash orqali hisoblash usuli bayon etildi. Bu usul magnit maydon induksiyasini hisoblashda qulay usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.B.Axmedov, Dusmuratov M.B Fizika (II-qism). Akademik litsey o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – 435 b.
2. T.M.Oplachko i dr.Fizika – Chast II. T:Chulpan. 2013.-208 str.

AKADEMIK LITSEYLARDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADIGAN NOAN’ANAVIY TA’LIM USLUBLARI VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.

Ulug‘berdiyev Quvondiq Tursunovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
o‘quv bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik litseylarda noan’anaviy ta’lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Muammo asosida o‘qitish(Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi), loyihaviy ta’lim**(**Loyihaviy ta’lim bu o‘quvchiga yo‘naltirilgan instruksiyaviy yondashuv bo‘lib unda ta’lim real topshiriqlar yoki muammolar asosidagi loyihalar asnosida tashkil etiladi), gamifikatsiya**(**O‘yin elementlari va o‘yin dinamikasini qo‘llash orqali har qanday jarayonni jonlantirish tushunchasidir), aylantirilgan sinf kabi yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, elektron ta’lim platformalari, virtual reallik, sun’iy intellekt va onlayn kurslarning ta’lim jarayonidagi roli ko‘rib chiqiladi. Maqola ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: noan’anaviy ta’lim, axborot texnologiyalari, akademik litsey, innovatsion ta’lim, elektron ta’lim, sun’iy intellekt, Yevropa tajribasi.

Asosiy qism: Bugungi kunda ta’lim jarayonida noan’anaviy uslublardan foydalanish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Akademik litseylar o‘quvchilarning chuqur bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, ularda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish va zamonaviy axborot texnologiyalari bo‘yicha mustahkam bilimlarni hamda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, halollik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxsiy xislatlarini, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish lozim. Ushbu maqolada akademik litseylarda ba’zi noan’anaviy ta’lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari ko‘rib chiqiladi.

Noan’anaviy ta’lim uslublari: Ma’lumki, an’anaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi markazda bo‘lsa, noan’anaviy ta’lim uslublari ko‘proq o‘quvchilar faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Quyidagi noan’anaviy ta’lim uslublari akademik litseylar uchun samarali bo‘lishi mumkin:

Muammo asosida o‘qitish (Problem-Based Learning – PBL)

Ushbu yondashuvda o‘quvchilarga real hayotiy masalalar taqdim etiladi va ular mustaqil ravishda yoki jamoaviy tarzda muammoni hal qilish yo‘llarini izlaydi.

Masalan matematika darslarida quyidagicha sodda masala berilishi mumkin.

O‘rdaklar suv ichishga qator bo‘lib ketayotgan edi. O‘rdaklardan biri oldinga qarab, 17 ta boshni ko‘rdi. Ortiga qarasa — 42 ta panja kelayotgan ekan. Jami nechta o‘rdak suv ichishga ketmoqda?

Ko‘p hollarda masala yechimida xatolik bo‘ladi, o‘rdaklarni sanayotgan o‘rdak qo‘shilmay qoladi. Shuning uchun javob odatda 38 ta deb belgilanadi. To`g`ri javob esa 39 ta. Bu yo`nalishdagi murakkabroq masalalar darsda muammo sifatida berilishi mumkin.

Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning – PBL)

O‘quvchilar muayyan mavzuga oid loyihalar ustida ishlash orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini hosil qiladilar.

Masalan vazifani quyidagicha qo‘yish mumkin. O‘rta asr shaharlarini loyihalash - O‘rta asr qishloqlari hayotini o‘rganing va ular uchun o‘rta asr shaharchasini loyihalashtiring. Shaharni o‘sha paytdagi mavjud sharoitlar va e’tiqodlar asosida rivojlantiring.

Bunday ko‘rinishdagi vazifalar o‘quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikrlashga majbur qiladi hamda vazifaga nisbatan qiziqishini oshiradi.

Gamifikatsiya O‘yin elementlaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin.

Bu uslub o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi– o‘yin elementlari orqali o‘quvchilar o‘zlashtirish jarayoniga qiziqish bilan yondashadilar, faollikni kuchaytirish – gamifikatsiya o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, raqobat muhiti yaratish – ballar, reytinglar, mukofot tizimlari orqali o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat shakllanadi, mustahkamlash va qayta o‘rganish – o‘yin shaklidagi topshiriqlar bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, moslashuvchan ta’lim – o‘yin elementlari turli yoshdagi o‘quvchilar uchun moslashtirilishi mumkin.

Masalan geomertiya fanida «Fales teoremasi va uning tadbiqlari» mavzusini o‘rganishda foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchlar teng sonli guruhlarga ajratiladi. Bu yerda har qaysi guruh ijodiy izlanib, kelgusidagi ishlarini rejalashtirishga o‘rganadilar. O‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni bajarib, dalil va isbotlar asosida o‘z javoblarini bildiradilar. Bu esa ularda o‘z bilim va iqtidoriga nisbatan ishonch hissini uyg‘otadi.

Flipped Classroom (Aylantirilgan sinf)

O‘quvchilar dars oldidan mustaqil ravishda materiallarni o‘rganadi, dars jarayonida esa olingan bilimlarni muhokama qilib, amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlashadi.

O‘quvchilarga mavzu oldiniroq beriladi va ular o‘zlarining video kontentini yaratishlari yoki turli platformalarda mavjud kontentdan foydalanishlari mumkin. Shundan so‘ng o‘quvchilar sinfga kelib, ertasi kuni mavzuni butun sinfga taqdim etadilar, o‘qituvchi esa ularga rahbarlik qiladi. Masalan fizika, kimyo, biologiya fanlaridan labaratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda foydalanish mumkin.

O‘quvchilarga vazifani, “Insonlarning yo‘l harakati qoidalarini buzish sabablari, yoki saylovchilarning befarqligi, muqobil energiyaga nisbatan jamoatchilik munosabati va boshqalar” kabi o‘yin mavzularda berish mumkin.

Hozirgi vaqtda Yevropa mamlakatlarida innovatsion ta’lim metodlariga katta e’tibor qaratiladi. Xususan: Finlyandiya ta’lim tizimi muammolar asosida o‘qitish va loyihaviy ta’limga asoslangan. O‘quvchilar o‘zlari mustaqil izlanishlar olib borib, real hayotiy vaziyatlarda yechim topishga harakat qilishadi.

Buyuk Britaniya ta’lim tizimida har bir o‘quvchining qobiliyat va qiziqishlariga mos keluvchi moslashtirilgan ta’lim dasturlari ishlab chiqiladi.

Germaniya dual ta’lim tizimi. Germaniyada akademik bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. O‘quvchilar kompaniyalar va ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega.

Axborot texnologiyalari ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitadi va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini interaktiv holga keltiradi. Shu o`rinda akademik litseylarda quyidagi texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin:

Elektron ta’lim platformalari Moodle, Google Classroom va boshqa LMS (Learning Management System) tizimlari dars materiallarini saqlash, tarqatish va nazorat qilish uchun juda qulay. Moodle — kurslarni boshqarish tizimi „elektron ta’lim“, shuningdek, „ta’limni boshqarish tizimi“ yoki „virtual ta’lim muhiti“ sifatida mashhur. Hozirda ta’lim jarayonini tashkil etishda, ayniqsa, masofaviy ta’limda keng foydalanilib kelinmoqda. Moodle ta’lim kelajagining timsolidir — texnologiya va pedagogikaning uyg‘unligi, cheksiz va doimiy takomillashtirish uchun ochiq. Bu elektron ta’lim olamida ajralmas vosita bo‘lib, ta’lim qanday berilishi va qabul qilinishini shakllantirish va qayta belgilashda davom etmoqda.

Google Classroom – o‘qituvchilarga o‘quv topshiriqlarini tezda yaratish va boshqarish, fikr-mulohazalarni bildirish va sinflari bilan muloqot qilishda yordam beradigan ta’lim vositasidir. Google Classroom-o‘quv muassasalari uchun Google tomonidan ishlab chiqilgan bepul veb-xizmati bo‘lib, topshiriqlarni qog‘ozsiz yaratish, almashish va baholashni osonlashtirishga qaratilgan. Google Classroomning asosiy maqsadi o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida fayllar almashish jarayonini soddalashtirishdir. Google Classroomda kurs yaratish uchun foydalanuvchi, avvalo, o‘z akkauntiga ega bo‘lishi kerak.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR)VR texnologiyalari orqali laboratoriya ishlarini simulyatsiya qilish, AR orqali esa murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish mumkin.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) ta’lim sifati va foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etuvchi muhim ta’lim innovatsiyalaridir.

O‘quvchilar o‘z sinflarini tark etmasdan butun dunyo bo‘ylab muzeylar, tarixiy obidalar va turli joylarga virtual sayohatlar qilishlari mumkin, VR-dan foydalangan holda o‘quvchilar turli xil ko‘nikmalarni mashq qilishlari mumkin, masalan, jamoat oldida so‘zlash, mashinalarni haydash yoki asbob-uskunalar bilan ishlash.

AR- yordamida darsliklar, interaktiv 3D modellar, animatsiyalar va videolar bilan boyitilishi mumkin, bu esa materialni rganishni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi, AR o‘quvchilarni rag‘batlantiradigan va o‘rganishni yana-da qiziqarli va jalb qiladigan o‘yin ssenariylarini yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Jamoaviy loyihalar-o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali jamoaviy muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Simulyatsiyalar va rolda o‘ynash (Role-Playing) o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy tajriba orttirish imkoniyati yaratiladi.

Sun’iy intellekt (AI) yordami Chatbotlar, AI asosidagi repetitor dasturlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Onlayn kurslar va vebinarlarda Coursera, EdX, Udemy kabi platformalar orqali o‘quvchilar xalqaro darajadagi bilimlarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sun’iy intellekt (AI) - bu, savollarga javob berish, tasvirlar yaratish, matn yozish, ma’lumotlarni qayta ishlash va ma’lumotni tahlil qilish kabi turli vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimi. U inson miyasining ishlashiga taqlid qiluvchi neyron tarmog‘idan foydalangan holda ma’lumotlarni qayta ishlaydi.

Ta’lim sifati samarali baholash tizimi va interaktiv metodlardan foydalanishga ham bog‘liq. Zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi baholash usullari qo‘llaniladi:

Formativ baholash- O‘quvchilarning bilim darajasi muntazam ravishda tekshirib boriladi va o‘zlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich baholanadi. (Formativ baholash -o‘quvchilarning faolligi, bilim olishi, ehtiyojlari va o‘sishi haqida ma’lumot beruvchi doimiy jarayon bo‘lib, ularning darsdagi faoliyatini kuzatish, uy vazifalarini nazorat qilish, qisqa testlar, so‘rovnomalar va shu kabi boshqa shakllarni o‘tkazish orqali amalga oshiriladi). Summativ baholash-O‘quvchilar yakuniy natijalari sinovlar, testlar va imtihonlar orqali baholanadi. (Summativ baholash — o‘qishning ma’lum bir davrida (o‘quv dasturining bo‘lim va boblari, choraklik, o‘quv yili oxirida) o‘quvchining davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarida belgilangan kompetensiyalarni egallaganlik darajasini rasmiy baholash jarayoni bo‘lib, test, yozma ish, og‘zaki suhbat, loyiha ishi, taqdimot ishlari, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi, ijodiy ishlar va shu kabi boshqa shakllar yordamida amalga oshiriladi. Bunda, o‘qituvchi summativ baholash natijasida o‘quvchining o‘zlashtirishidagi ehtimoliy bo‘shliqlarni aniqlaydi, ularni o‘quvchi bilan birgalikda bartaraf qilish bo‘yicha ishlaydi)

Elektron baholash tizimlari Moodle, Google Classroom va boshqa platformalar yordamida avtomatlashtirilgan testlar va topshiriqlar orqali baholash amalga oshiriladi.

O‘z-o‘zini baholash va tengdosh baholash- o‘quvchilarning o‘z bilimlarini mustaqil baholashlari va tengdoshlarining natijalarini tahlil qilishlari orqali o‘zlashtirish darajasi oshiriladi.

Interaktiv metodlar esa o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Interaktiv taqdimotlar va muhokamalar o‘quvchilar mavzular bo‘yicha taqdimot tayyorlab, o‘z fikrlarini erkin ifoda etishadi.

Xulosa: Akademik litseylarda noan’anaviy ta’lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. O‘qituvchilarning innovatsion metodlardan foydalana olishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, zamonaviy ta’lim yondashuvlarini keng joriy etish va axborot texnologiyalaridan maksimal foydalanish hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Y.S. Sidiqova (2025) Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘llash): ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish
2. Abduraxmonova M (2022). O‘qitishning noan’anaviy metodlari, o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish usullari
3. Mayer, R.E. (2020). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
4. UNESCO (2021). Digital Learning and the Future of Education. UNESCO Publishing.

INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB FIZIKANI KASBGA BOG‘LAB O‘QITISH

Xasanova Gulshod Ro‘ziboyevna
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi fizika fani bosh o‘qituvchisi gulshodhasanovahl@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak harbiylarning bilim darajasi va intellektual salohiyatini yana-da rivojlantirish, ularni aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarzda harbiy oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirishga tayyorlash, harbiy-akademik litseylarda integrativ texnologiyalardan foydalanib, fizika fanini kasbga bog‘lab o‘qitish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy vatanparvarlik, mexanika, granata, uchish uzoqligi, avtomat, quvvat, kinetik energiya, optimal burchak.

Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi.
Sh.M.Mirziyoyev

Bugungi yosh avlodning faolligi, Vatanimiz taqdiri va taraqqiyotiga befarq emasligi, ertangi kunga katta umid va ishonch bilan qarayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Yuqori intellektual va ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual

va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligini ta’minlash uchun mas’uliyat hissini oshirish maqsadida fizika fanini harbiy sohaga bog‘lab o‘tish juda samarali hisoblanadi.

Fizikaning mexanika bo‘limi o‘q-dorilar, raketalar va snaryadlarning harakat trayektoriyasi, uchish uzoqligini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Snaryad yoki raketa havoga chiqib, tortishish kuchi va boshqa ta’sirlar ostida harakat qiladi. Bu bosqich quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Gravitatsiya kuchi ta’sirida snaryad pastga tortiladi.
2. Havoning qarshiligi tufayli havo molekulalari snaryad tezligini kamaytiradi.
3. Magnus effekti (agar snaryad aylansa) ta’sirida snaryad burama harakat bilan uchsa, havo oqimi ta’sirida uning trayektoriyasi o‘zgarishi mumkin [3].
4. Yonilg‘i yonishi (raketalar uchun) natijasida ba’zi snaryadlar uchish davomida qo‘shimcha tezlanish olishi mumkin.

Snaryad yoki granataning trayektoriyasi parabolik yoki ballistik egri chiziq bo‘lib, uni hisoblashda quyidagi harakat tenglamalari ishlatiladi:

$$y = y_0 + \vartheta_0 t \sin\alpha - \frac{gt^2}{2} = \vartheta_0 t \sin\alpha - \frac{gt^2}{2} \qquad (1)$$

$$\ell_{uch} = x(t_{uch}) = \vartheta_0 t_{uch} \cos\alpha = \ldots = \frac{\vartheta_0^2 \sin 2\alpha}{g} \qquad (2)$$

υ_0 – boshlang‘ich tezlik; α– otish burchagi; g – erkin tushish tezlanishi

Granatani uloqtirishning texnik qoidalari qanchalik oson bo‘lmasin, uni uzoqlarga otishda hamma ham yaxshi natijalarga erisholmaydi. Yer sirtidan gorizontga burchak ostida otilgan jismning uchish uzoqligini aniqlash formulasi $\ell_{uch} = \frac{\vartheta_0^2 \sin 2\alpha}{g}$ ga ko‘ra eng uzoq uchish masofasini aniqlaylik. Bu formulaga ko‘ra, jismni gorizontga 45^0 burchak ostida otganda uchish uzoqligi maksimal bo‘ladi.



1-rasm

$$\ell_{uch.\max} = \frac{\vartheta_0^2 \sin(2\cdot 45^0)}{g} = \frac{\vartheta_0^2}{g}$$

Jismni $45^0-\varphi$ va $45^0+\varphi$, ya'ni 45^0 ga nisbatan simmetrik bo'lgan burchaklar ostida otganda esa bir xil uzoqliklarga tushadi, lekin bundagi uchish uzoqligi maksimal uchish uzoqligidan kichikroq bo'ladi (1-rasm).

$$\ell_{uch}=\frac{\vartheta_0^2\sin 2\alpha}{g}=\frac{\vartheta_0^2\sin 2\left(45^0\pm\varphi\right)}{g}=\frac{\vartheta_0^2\sin\left(90^0\pm 2\varphi\right)}{g}=\frac{\vartheta_0^2}{g}\cos 2\varphi.$$ [1].

Agar havo qarshiligi hisobga olinmasa, granata eng uzoq masofaga yetib borishi uchun 45° burchak ostida otilishi kerak bo'ladi. Ammo real hayotda havo qarshiligi tufayli optimal burchak 40°- 42° atrofida bo'ladi.

"Quvvat" mavzusi ham harbiy sohaga bog'lab o'tilsa, bo'lajak ofitserlarning bilim va ko'nikmalari kengayadi.

Avtomatning quvvati (zarba kuchi) bir nechta fizik omillarga bog'liq. Asosiy omillar:

1. Avtomatning quvvati o'qning kinetik energiyasiga bog'liq bo'lib, u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$E_к=\frac{m\cdot\upsilon^2}{2}$; bunda *m* - jismning massasi, υ - uning tezligi.

Demak, avtomatning quvvati asosan **o'qning tezligi va massasi** ga bog'liq.

Masalan: **AK-47 (7.62×39 mm)** o'qining o'rtacha energiyasi ≈ **2000 J**; **M4 (5.56×45 mm)** o'qining energiyasi ≈ **1700 J**; **Snayper miltig'i (7.62×51 mm)** energiyasi ≈ **3500 J**

2. O'qning tezligi asosan poroxning yonish tezligi va miqdoriga bog'liq:

$$\vartheta=\sqrt{\frac{2PA}{m}}$$

Bu yerda: P – porox bosimi; A – barrel uzunligi va ichki diametri; m – o'q massasi.

Demak, **poroxning bosimi** qancha kaTta bo'lsa, tezlik ortadi, bu esa energiya ortishiga sabab bo'ladi. **Barrel (dovul)** uzunroq bo'lsa, gaz bosimi kattaroq bo'ladi va o'q tezligi ortadi.

Masalan: **AK-47** (barrel uzunligi **415 mm**) da o'q tezligi **715 m/s; M16** (barrel uzunligi **508 mm**) da o'q tezligi **930 m/s;** s**nayper (barrel uzunligi 600 mm+)**da o'q tezligi **900-1200 m/s**

3. Avtomatning quvvati uning kalibri va snaryad dizayniga ham bog'liq. Masalan, yirik kalibr ko'proq shikast yetkazadi. Buni aniq misollarda ko'rsak:

- **AK-47** katta kalibrga ega bo'lsa-da, o'qining tezligi kichikroqligi tufayli **quvvati o'rtacha**;
- **M16/M4** avtomati o'qining tezligi yuqori bo'lsa-da, lekin massasi kichik, shuning uchun **teshish qobiliyati yaxshi, ammo quvvati AK-47 ga yaqin**.
- **Snayper qurollari** katta kalibr va uzun barrelga ega bo'lgani uchun **eng yuqori quvvatga ega** [4].

Quyida shu mavzuga oid bir masala yechimini ko'rsatib o'taman:

Pulemyot 20 s da 60 dona o‘qqa 800 m/s boshlang‘ich tezlik beradi. Agar har bir o‘qning massasi 15 g bo‘lsa, pulemyotning foydali quvvati qancha ?

Berilgan:

t=20 s

n=60

υ=800 m/s

m=15 g = 0,015 kg

N=?

Yechish: pulemyotning har bir o‘qqa υ tezlik berganda bajargan ishi $A = m\upsilon^2/2$ ga teng bo‘ladi. Pulemyot ***n*** ta o‘qqa υ tezlik berganda bajargan umumiy ishi esa $A_{um} = n \cdot \frac{m \cdot \upsilon^2}{2}$ ga teng bo‘ladi. **t** vaqt ichida bajarilgan umumiy ishini uning quvvati orqali ifodalaymiz $A_{um} = N \cdot t$. Umumiy ishning yuqorida keltirilgan ifodalarini o‘zaro tenglab foydali quvvatini hisoblaymiz:

$$N = \frac{n \cdot m\upsilon^2}{2 \cdot t} = \frac{60 \cdot 0{,}015 kg \cdot (800 m/s)^2}{2 \cdot 20 s} = 14400 W$$

Javob: 14,4 kW [2].

Xulosa qilib aytganda, fizika fani harbiy sohada asosiy rol o‘ynaydi. U ushbu soha uchun zarur bo‘lgan tamoyillar, tushunchalar va nazariyalarni taqdim etish orqali ushbu tizimlar uchun zarur ilmiy asos yaratadi.

Shunday ekan, bo‘lajak harbiylarning bilim darajasi va intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish, ularni aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarzda harbiy oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirishga tayyorlash, harbiy-akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarining ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, ularni tabiatga, fizika darsiga, harbiy sohaga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish uchun dastavval ushbu fan taraqqiyoti va uning harbiy sohada qo‘llanilishining o‘ziga xos tomonlarini bildirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M.B. Dusmuratov, Axmedov Sh.B. Fizika 1-qism. “Mexanika va molekulyar fizika”. Akademik litsey o‘quvchilari uchun darslik. – T.: 2023.
2. Q.Suyarov va boshqalar. Mexanika. T-2016.
3. N.Sh.Turdiyev va boshqalar. Fizika. 10-sinf. “Niso Poligraf”. T-2017.
4. Elektron manbalar.

ANIQ FANLAR TIZIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ahmadjonova Umida Tojimurodovna,
Mamatqulova Dilbar Sattorqul qizi
Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi, talaba
umida.axmadjonova@bk.ru

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak aniq fanlarni (**matematika, fizika, kimyo)** o‘qitishda ta’lim integratsiyasi va innovatsiyasi usullari keltirilgan bo‘lib,

integratsiya va innovatsiya so‘zlarining ma’nolari tahlil keltilgan. Integratsiya va innovatsiya so‘zlarini fanga kirib kelishi va hozirda qo‘llanilishi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. ta’lim, integratsiya, innovatsiya, pedagogik innovatsion texnologiya, pedagogik innovatika fani

O‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirishda aniq fanlarning roli muhim ahamiyatga ega. Chunki, respublikamizda yuqori saviyadagi kadrlar tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ta’limning barcha bo‘g‘inlarida, ayniqsa, umumta’lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar maktablari, oliy ta’lim tizimida aniq va tabiiy fanlardan matematika, fizika, kimyo va biologiyani o‘qitishga, ustivor yo‘nalish berish zarurligini g‘arb mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlari ko‘proq ana shu fanlarni rivojlantirish va chuqur o‘qitish hisobiga fan va texnologiya sohasida dunyo miqyosida yutuqlarga erishganliklari isbotladi.

Insoniyat qadam qo‘ygan navbatdagi o‘n yilliklar fan-texnika va ishlab chiqarishni nihoyatda tez rivojlanayotganligi, shu bilan birga, atrof-muhitni inqirozli holatga kelib qolayotganligi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy munosabatlar murakkablashib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bu esa kishilik jamiyatining endigi taraqqiyotida yoshlar ta’lim – tarbiyasiga ko‘proq e’tibor berish zarurligini ko‘rsatadi[1].

Shunday ekan, ta’lim tarbiya jarayonida bugun eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Har kuni talaygina yangilik, yangi innovatsiyalar yurtimizga kirib kelmoqda. Yangi innovatsiyalar o‘z tushunchalari, “tili” bilan kirib kelib, fan-texnika taraqqiyotining darajasini asta-sekin yuksaltirmoqda. Vatanimizning pedagogik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas, albatta. Hozirgi milliy pedagogikamizning daraxti ikki hayotbaxsh irmoqdan suv ichadi. Biri - ming yilliklar davomida shakllanib, gavhar zarralaridan hosil bo‘lgan milliy tarbiya tajribasi bo‘lsa, ikkinchisi- jahonning ilg‘or, sinalgan innovatsion texnologiyalarning yutuqlaridir. Fan va amaliyot birligi ta’minlanishi uchun oliy ta’lim muassasalari faoliyati ham bundan mustasno bo‘lmasligi lozim. “Innovatsion texnologiyalar”, “pedagogik diagnostika”, “kibernetik pedagogika”, “test-reyting” kabi tushunchalarning tub mohiyatini o‘zlashtirmasdan, ulardan o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanmasdan turib, biz jahon pedagogik integratsiyasida o‘zimizning munosib mavqiyeimizga erishishimiz mushkul bo‘ladi. Shu ma’noda, “integratsiya” so‘zi birlashtirish degan ma’noni bildiradi desak, yanglishmagan bo‘lamiz[2].

Integratsiya- u nima uchun bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida zaruratga aylandi? Nega endi shuncha yillardan beri qo‘llanilib kelingan ta’lim jarayonini eskicha tashkil etishdan voz kechishimiz kerak va o‘quv jarayonini loyihalashga yangicha yondashish zarur? Bu kabi savollarga javob berish uchun, avvalo, ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini anglab olmoq lozim. Bu yo‘nalishlar:

- ta’lim mazmuni va tizimini isloh qilish;
- ta’lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta’limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmi yaratish;

-ota-ona, o‘qituvchi-talabaning ta’lim jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;

- va nihoyat, bu tub islohotlaming bosh harakatlantiruvci kuchi yangi pedagogik innovatsiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Yangi ta’lim tizimi, mazmuni, o‘quv reja, darsliklar asosida o‘quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, tashkil etish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Jahon pedagogik leksikonidan allaqachonlar “innovatsiya” tushunchasi keng o‘rin olgan. Bu tushuncha “yangilik”, “isloh” tushunchalari bilan moslashtiriladi. Keng ma’noda ta’lim tizimidagi har qanday o‘zgarish pedagogik innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalarni ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo‘llashgan, so‘ngra ta’lim tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan qo‘llandi. Pedagogik innovatsion texnologiya deb atalishining boisi shunda. Hozirga kelib pedagogik innovatika fani shakllandi. Pedagogik innovatikaga pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo‘llash haqidagi ta’limot sifatida qaraladi.

Hozirgi pedagogik innovatsion texnologiya tushunchasi keng o‘qituvchilar ommasining ijodiy faoliyatining mahsulidir. Faqat pedagogik innovatsion texnologiya tushunchasini to‘liq ishlab chiqib, uning ilmiy mohiyatini tushunib o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish lozim. Pedagogik innovatsion texnologiya izchil va ketma-ket amaliy faoliyatda, ta’lim-tarbiya jarayonida avvalgi rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishdir. Har qanday ta’lim-tarbiya jarayoni ma’lum pedagogik tizimda amalga oshadi. Pedagogik innovatsion texnologiya qanday usullar bilan o‘qitilsa natija yaxshi bo‘ladi, degan savolga javob beradi. U o‘z tizimiga ega bo‘lib, unda komponentlar ketma-ketligi, o‘zaro bog‘liqligi, bir butunligi saqlanadi. Pedagogik innovatsion texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta’limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik innovatsion texnologiyaning samaradorligi demakdir[3].

Pedagogik innovatsion texnologiyaning tasdiqlanuvchanligi ishlangan modeli boshqa pedagoglar qo‘llaganda ham xuddi o‘shanday samara-natija berishi kerakligini bildiradi. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina, ta’lim samarasi yangi bosqichga ko‘tariladi, ya’ni:

- talabaning o‘quv jarayoniga mas’uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;

- bilimlarni mustaqil egallash va erkin fikrlash malakalari shakllanadi;

-shaxsning jamiyatda o‘zining o‘rnini tezroq topib olishiga muhit yaratiladi.

Buning uchun bugun biz talabaga “sen buni bilishing kerak” degan majburlovchi da’vatdan “menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotda qo‘llashga qodirman” degan ichki ishonch va intilishni uyg‘otishga o‘tishimiz kerak.

Pedagogik innovatsion texnologiya ma’lum loyihani pedagogik tizimda amaliyotga qo‘llashdir[4]. Xo‘sh, hozirgi kunda yangi pedagogik innovatsion texnologiyaning mohiyati va mazmuni nimadan iborat? Bu, eng avvalo, ta’lim-tarbiya mazmunini milliyiashtirish. Bunda biz bugungi yosh avlod ta’lim-tarbiyasi

mazmunini o‘tmish avlodlarimiz yaratgan va jahon fani rivojiga asos bo‘lgan bilimlar, boy tariximiz, madaniyatimiz manbalarini hozirgi zamon fani yutuqlari bilan birlashtira olishimizda ko‘rishimiz kerak. Bu muammoni yechishda nihoyatda nozik va murakkab narsaga e’tibor berishni maslahat beramiz.

Hozirgi sharoitda ta’lim-tarbiyaning shakllanishi to‘g‘risida fikr yuritadigan bo‘lsak, Y.A.Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida yozganidek, ta’limning faqat dars, tarbiyada suhbat shakllar zamona talablarini amalga oshirish uchun yetarli emas. O‘qituvchilarimiz qolipga tushgan 5 bosqichli dars bilan birga ta’limning darsdan tashqari, o‘qituvchilar tajribasida nostandar darslar deb nom olgan shakllari, ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar musobaqa-munozara, mustaqil ishlash, konferensiya, sayohat kabi shakllaridan ham keng foydalanishlari lozim. Buning uchun o‘qituvchilar ta’limning darsdan tashqari har bir shaklining tuzilishi, bosqichlarini an’anaviy darsdan ustunligini amalda sinab ko‘rib, ta’sirchan shaklini aniqlashlari zarur. Bu, albatta, o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, buning uchun ta’lim nazariyasini, uning hozirgi zamon muammolarini bilish, ijod qilish, tinmay izlanishni talab etadi.

Talabalarning fanlarga qiziqishini ta’minlaydigan asosiy omil mazmun va uning mohiyati hisoblanadi. Hozirgi kunda fan-texnika jadal rivojlanayotgan bir paytda aniq fanlarni o‘qitish mazmunini, mohiyatini hamda vazifa va yondashuvlarni umumiy tarzda belgilash qiyin emas.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida aniq fanlar **(matematika, fizika, kimyo)** darsliklarining muqobil variantlarini yaratish va o‘quv jarayonida qo‘llash ta’lim sifatini yuqori darajada oshishiga yaqindan yordam berishini unutmasligimiz kerak.

Shu bilan birgalikda ta’limning zamonaviy yondashuvlar asosida olib borilishi talaba va o‘qituvchilarning zamon talablariga mos ravishda bilim berishlarini ta’minlaydi. No‘ananaviy dars o‘tishda interfaol usul va uslublardan foydalanish nafaqat o‘qituvchini, balki talabalarni ham yangicha yondashuvga, yangicha fikrlashga o‘rgatadi. Aniq fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida barcha o‘quv yurtlarida zamon talabi darajasida tashkil etish ta’lim ilmiy va tarbiyaviy tartibga hamda talaba va o‘qituvchi tanloviga bog‘liq. Suuningdek, barcha ta’lim tizimidagi talabalarni, o‘quvchilarni o‘qishdan tashqariga chalg‘ituvchi ikkinchi darajali narsalarga va o‘qitish mazmunidan yiroq turli xil tadbirlarga jalb qilmaslik ham o‘qish-o‘qitish tizimidagi dolzarb muammolarni hal qilishda, yuksak samaradorlikka erishishda muhim bir axamiyat kasb etadi

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, aniq fanlar yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak pedagoglarining kasbiy mahorati, o‘quvchilarni maktab ta’limiga samarali tayyorlash imkonini beradi. bo‘lajak aniq fanlar yo‘nalishi pedagoglarining faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o‘rganish natijalari o`quvchilarning o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda ularlarining shaxsiy sifatlari kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, bo‘lajak aniq fanlar yo‘nalishi pedagoglarining kasbiy mahoratga ega bo‘lishi, bilimdonligi va kreativligi o`quvchilarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak aniq fanlar

yo‘nalishida pedagoglarining maktabda amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aniq fanlar yo‘nalishi uchun o‘qitish metodikasi talaba(o‘quvchi)lar oladigan ta’lim sifati uchun muhim ahamiyatga ega. Aniq fanlar yo‘nalishi o‘qituvchilari doimiy kasbiy rivojlanishga va talabalarga eng yaxshi ta’lim berish uchun yangi va innovatsion o‘qitish yondashuvlarini integratsiyalashga sodiq bo‘lishlari kerak. Samarali o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va qo‘llash aniq fanlar yo‘nalishini rivojlanishi sanoatining uzluksiz o‘sishi va muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘rinova.(2023)Kimyo fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muammoli yondashuvlari. Международный научный журнал № 13 (100), част 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» 444-446
2. Тожимуродовна, А. Ё., & Тожимуродовна, А. У. (2022). Аграр соҳани барқарор ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини ўрни. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 894–897. Retrieved from
3. Axmadjonova, Y., & Axmadjonova, U. (2023). Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. *MMIT*, 112-113.
4. Джураева, Н., & Ахмаджонова, У. (2022). Fizika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобалном мире, 1(3), 241-243.
5.

FIZIKA FANI LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ahmadjonova Umida Tojimurodovna
Jizzax politexnika instituti[2] katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Fizikaning mexanika bo‘limidan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish jarayonida, aynan markazdan qochma kuch miqdorini aniqlashda kompyuterga ulangan CASSY qurilmasidan foydalaniladi. Tajribada olingan natijalar bevosita kompyuterlar yordamida hisoblanadi.

Tayanch so‘zlar: CASSY qurilmasi, sensor, kompyuter, markazdan qochma kuch, burchak, egri chizikli harakat, chiziqli tezlik, burchakli tezlik.

Kirish: Ma’lumki, markazga intilma kuch mavzusini yoritish uchun, avvalo, talabalarga chiziqli tezlik, burchak tezlik, markazga intilma tezlanish va tangensial tezlanishlar kabi tushunchalarni berish zarur. Shu bilan bir vaqtda egri chiziqli harakatni o‘rganishda talabalarga oldindan ma’lum bo‘lgan oniy tezlik alohida

ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu mavzuda mexanikaning asosiy masalasi jismning aylana bo‘ylab harakat qiladigan holati uchun yechiladi [1-2].

Asosiy qism: Jism aylana bo‘ylab harakatlansa, markazga intilma tezlanish hosil bo‘ladi. Biz Nyuton qonunlarini jismning aylanma harakatiga qo‘llab ko‘raylik.Aylana bo‘ylab tekis harakat qilayotgan jism tezlanishga ega. Bunday tezlanish markazga intilma tezlanish deyiladi .

a= $\frac{\vartheta^2}{R}$ (1) bu formulani Nyutonning ikkinchi qonuni F= ma (2) ga qo‘ysak F= $m\frac{\vartheta^2}{R}$ (3) hosil bo‘ladi va bu formula markazga intilma kuchni ifodalaydi yoki formulani quyidagicha ham ifodalash mumkin:

$\vartheta = \omega \cdot R$ (4) ekanligidan F= $m\frac{(\omega R)^2}{R} = m\omega^2 \cdot R$ (5)

Jismga ta’sir etayotgan markazga intilma kuch jismning massasiga va chiziqli tezligi kvadratiga to‘g‘ri proporsional, aylanish radiusiga esa teskari proporsionaldir .Bu xulosalarni o‘rganishni talabalarga mustaqil ish topshirig‘i sifatida berish tavsiya etiladi.

Ipga bog‘langan sharchani aylantirganimizda biz unga ip orqali ta’sir etamiz. Ip orqali sharchani markazga intilma kuch bilan markazga tortib turamiz. Sharcha massasi qancha katta bo‘lsa, biz uni shuncha katta kuch bilan tortib turishimiz kerak. Sharchaning chiziqli tezligi kvadrati qancha oshsa, uni tortib turish uchun shuncha katta kuch kerak bo‘ladi. Lekin ip qancha uzun bo‘lsa, ya’ni aylanish radiusi qancha katta bo‘lsa, sharchani tortib turish uchun shuncha kam kuch talab etiladi.

Nyutonning uchinchi qonunini ham aylanma harakat uchun qo‘llash mumkin. Nyutonning uchinchi qonuniga asosan markazga intilma kuchga miqdoran teng, lekin unga yo‘nalish jihatdan qarama – qarshi kuch ham mavjud bo‘lib, bu kuch markazdan qochma kuch deyiladi. Markazdan qochma kuch markazga intilma kuch kabi quyidagicha ifodalanadi:

F= $m\frac{(\omega R)^2}{R} = m\omega^2 \cdot R$ (6)

Markazdan qochma kuch aylanish markazidan radius bo‘ylab aylana tashqarisi tomon yo‘naladi. Moddiy nuqta (jism)ning erkin harakatini cheklab, uni egri chiziq bo‘ylab harakatlanishga majbur etadigan kuch.

Masalan, arqonga bog‘langan tosh (moddiy nuqta) gorizontal tekislikda aylantirilsa, markazga intilma kuch arqon tomondan toshga ta’sir etib, uni aylana bo‘yicha harakatlanishga majbur etadi. Markazdan qochma kuch esa tosh tomondan arqonga ta’sir etib, arqonni taranglashtiradi va hatto, uzishi mumkin.

Markazdan qochma kuchni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ya’ni kompyuter yordamida bajarish mumkin. Buning uchun **CASSY Lab 2 help** menyusidan foydalanamiz**. Laboratoriya ishi** Pocket-CASSY qurilmasida bajariladi.



1-rasm. Markazdan qochma kuch qurilmasi [6].

Markazdan qochma kuch qurilmasi F markazdan qochma kuchning r nuqtada joylashgan jism m massaga bog‘liqligini tajribaviy tadqiq etadi. Aylanish markazidan r masofada ω burchak tezlik bilan aylanayotgan jismga ta’sir qiluvchi markazdan qochma kuch quyidagicha aniqlanadi.

$$F = m\omega^2 \cdot R \quad (7)$$

Markazdan qochma kuch qurilmasi tutgichli qisqichlar bilan stolga mahkamlanadi. Markazdan qochma kuch qurilmasi shunday joylashtiriladiki aylanayotgan sterjen U – simon datchikli dastak orasidan bemalol o‘ta olsin. Ammo U-simon oraliqdan m - massali jism o‘tib yorug‘likni to‘sib qo‘ymasligi zarur. Markazdan qochma kuch qurilmasi B kirishga ulanadi, yorug‘lik datchigi 6-qutbli kabel bilan taymer korpusi A kirishiga Sensor-CASSY ga ulanadi. Markazdan qochma kuch aylantirish yuritmasi ta’minlash manbaiga ikkita kabellar bilan ulanadi. Markazdan qochma kuch qurilmasida sterjenga mahkamlangan m massali yukka ta’sir qiluvchi F- markazdan qochma kuch sterjen orqali va aylanuvchi o‘qqa o‘rnatilgan tenzadatchikka beriladi.

Tenzadatchikka qo‘yilgan kuch elektrik usulda o‘lchanadi. Tajriba uchun mo‘ljallangan aniqlik darajasida prujina deformatsiyasi elastikdir va deformatsiya koeffitsienti F kuchga proporsionaldir .

Qurilmaning tarkibi

1.CASSY-sensori 524 010 yoki 524
2.CASSY Lab 2 013 524 220
3.Taymerli adapter yoki S-Taymer 524 034 yoki 524
4.Markazdan qochma kuch qurilmasi-S 074 524 068
5.Ta’minlash manbai 521 49
6.Shoxsimon yorug‘lik datchigi 337 46
7.Ko‘p o‘zakli kabel, 6-o‘zakli 501 16
8.Tutgichli qisqich 301 06
9. Sterjen asos-taglik, U- simon, 20 sm 300 02
10.Sterjen ustun, 10 sm 300 40
11.Juft kabellar, 50 sm, qizil va ko‘k 501 45
12.Windows XP/Vista/7/8 OT o‘rnatilgan kompyuter

Agar mavjud markazdan qochma kuch qurilmasi (347 21) markazdan qochma kuch muftasi (524 0681) bilan modernizatsiya qilinsa ham o‘lchashlar va natijalarni qayta ishlash usuli o‘zgarmaydi va S-markazdan qochma kuch qurilmasi bilan farqi yo‘q. Markazdan qochma kuch qurilmasini (347 21) markazdan qochma kuch muftasi (5240681) bilan ishlatishdan oldin nol holati va kuchni ko‘paytirish koeffitsienti markazdan qochma kuch muftasi yo‘riqnomasiga asosan o‘rnatilishi lozim.

Aylanuvchi dastak tinch turganda ekrandagi kuchni 0 ga o‘rnatiladi. Buning uchun markazdan qochma kuch qurilmasida Settings Force FB1 tugmasini bosib →**0**← o‘rnatiladi (sichqonchaning o‘ng tugmasi bilan).

Kompensatsiyalovchi yuklarni qurilmaning qisqa dastagiga shunday o‘rnatingki bunda o‘lchangan F kuch yuksiz ammo xavfsizlik vintlari bilan o‘tkazilgandagi kabi bo‘lsin.

Yuritmaning ta’minlash kuchlanishi shunday ta’minlanishi zarurki bunda o‘lchangan kuch qiymati 15N dan oshmasligi zarur. Kuchlanishni 1,5v ga quyib, tajribani past ω burchak tezligidan boshlanadi va aylanishlar soni sanaladi. Kuchlanishni 3v ga quyib o‘lchashni kattaroq burchak tezligida davom ettiriladi.

Qator o‘lchashlar o‘tkazishda m massani o‘zgartirib (r= $const$) va r ni o‘zgartirib (m= $const$) hollarda o‘lchashlarni olib boriladi.

Buning uchun **Measurement → Append New Measurement Series** funksiyasini tanlang va kichik burchak tezliklardan boshlanadi.

Laboratoriya mashg‘ulotining ishchi formulasi quyidagi $F= m\frac{\vartheta^2}{R}$ (8) formuladan keltirib chiqariladi. Dastlab formuladagi ϑ topiladi.

$\vartheta = \frac{s}{t} = \frac{2\pi r}{T} = \frac{2\pi r}{\frac{t}{N}} = \frac{2\pi rN}{t}$ (9) topilgan qiymatni (8) ga quyib, $F = \frac{4\pi^2 RN^2 m}{t^2}$ (10) hosil qilinadi.

Hosil qilingan formuladagi R – markazdan yukkacha bo‘lgan masofa, N - aylanishlar soni, m – yukcha massasi, t – N marta aylanish uchun ketgan vaqt.

Kompyuterda olingan natijalar (10) formula yordamida hisoblanib, markazdan qochma kuch F va ω^2 qiymatlarni chiziqli bog‘lanishda ekanligi aniqlanadi. Olingan natijalar barcha aylanma harakat qiladigan qurilmalar , aynan shamol elektr dvigatellarida ham qo‘llaniladi.[3] da shamol elektr generatorining quvvati kompyuterga kiritilgan EHM dasturi yordamida hisoblangan.

Xulosa: Markazdan qochma kuchni Pocket-CASSY bilan kompyterda tez va yuqori aniqlikda yakuniy natijani olish imkoniyatiga ega bщlinadi. Bu qilingan dasturdan fizikadan lobaratoriya ishlarini avtomatik qayta ishlashda oliy o‘quv yurtlari, kollej va akademik litsey talabalari foydalanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мустафакулов, А. А., Халилов, О. К., & Уринов, Ш. С. (2019). Цел и задачи самостоятелной работы студентов.

2. Shermuhammedov, A. A., Mustafakulov, A. A., & Mamatkulov, B. H. (2021). Multimedia in the teaching of physics use. *Conferencea*, 105-108.
3. Arzikulov F.F., Mustafakulov A.A. va b.“Shamol elektr generatori kuvvatini ulchovchi dasturiy ta’minot” talabnoma rakami DGU 2021. 0103. 18.01.2021

O‘QUVCHILARNING TEXNIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA NOAN’ANAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Boltaboyeva Rayxan Ismailovna.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi
Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL katta o‘qituvchisi
Tel: +998935106285 *boltaboyevarayxan@gmail.com*

Annotatsiya: Hozirgi kunda zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda fizika fanining roli nihoyatda yuqoridir. Fizika ta’limida olingan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar nafaqat jamiyat, balki har bir individual shaxs uchun zamonaviy madaniyatning muhim elementi hisoblanadi, ayniqsa yoshlarning kelgusidagi kasbiy faoliyati fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lsa yana-da dolzarblik kasb etadi.

Kalit so‘zlar: metod, munozara, texnologiya, interaktiv, an’anaviy, model, dars.

Maktab ta’limida fizikani predmet sifatida o‘qitish va o‘rganish jarayonida egallangan barcha bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchilarning komil shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun juda muhimdir. Yillar davomida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish ta’limning samarali modellaridan biri bo‘lib qolmoqda. An’anaviy dars - muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, uni yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir. O‘quv materiali yangi va ancha murakkab bo‘lganida, an’anaviy dars ko‘p hollarda ta’lim jarayonining birdan-bir asosiy metodi bo‘lib qolmoqda

Ma’lumki, an’anaviy ta’lim jarayonining markazida o‘qituvchi turadi. An’anaviy dars o‘tish modelida ko‘proq ma’ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an’anaviy dars samaradorligi ancha past bo‘lib, o‘quvchilar ta’lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Bunday hollarda dars o‘tish, o‘quvchilarni faollashtirish va ularning e’tiborini ushlab turish qiyin bo‘lishi mumkin. Lekin hozirda ko‘p ishlatilayotgan noan’anaviy dars metodlaridan foydalanish orqali bu muammolarni yechish mumkin.

O‘quvchilarni faollashtirish uchun 3 ta muhim qoida:

📌 1. “O‘quvchi–faqat tinglovchi emas” - darsda faqat siz gapirib, o‘quvchilar tinglab o‘tirsa, natija bo‘lmaydi. Savollar bering, munozaraga torting, rolli o‘yinlar qo‘llang – shunda dars jonlanadi.

📌 2. Interaktiv metodlardan foydalanish-qiziqarli metodlar orqali o‘quvchilarni darsga tortish mumkin. Kichik guruhlarda ishlash, bahsli savollar, loyihalar, ijodiy topshiriqlar– bular sinfda faol muhit yaratadi.

📌 3. Texnologiyadan unumli foydalanish-bugungi kunda video, onlayn testlar, interaktiv taqdimotlar o‘qituvchilar uchun katta yordamchi. Texnologiyalarni darsga to‘g‘ri qo‘shish natijadorlikni 2-3 barobar oshirishi mumkin.

Quyida fizika darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan noan’anaviy metodlarga misollar keltirilgan:

1. “Ha yoki yo‘q”

Bu metoddan dars jarayonida o‘tilgan mavzuni takrorlab olish uchun, vaqtdan unumli foydalangan holda barcha o‘quvchilarni frontal baholashda ishlatiladi. Berilgan savollarga o‘quvchilar faqat “ha” yoki “yo‘q” deb javob berishadi. Masalan:

1. Zaryadli zarralar o‘z-o‘zidan harakatga keladi?
2. O‘tkazgich ko‘ndalang kesimidan vaqt birligi ichida oqib o‘tgan zaryad miqdoriga elektr toki deyiladi.
3. Vaqt davomida kattaligi va yo‘nalishi o‘zgarmaydigan tok o‘zgarmas tok deyiladi.
4. Tok kuchi voltmetr yordamida o‘lchanadi.
5. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni tok kuchi, kuchlanganlik va qarshilikni bog‘laydi.
6. O‘tkazgich qarshiligi tok kuchi va kuchlanishga bog‘liq.
7. O‘tkazgich qarshiligi temperaturaga bog‘liq.
8. O‘tkazgichlar ketma-ket ulanganda umumiy kuchlanish o‘tkazgichlardagi kuchlanishlarga teng.

2. “Fizik diktant”

Bu metod orqali o‘tilgan mavzularni yozma takrorlash, tezkor baholash, darsni mustahkamlash mumkin. Masalan:

“ Metallarda elektr toki” mavzusida diktant

1.Metallarda zaryad tashuvchi zarralar elektron ekanligini tasdiqlovchi tajriba rus fiziklari _____ va _____ taklif qilgan g‘oyaga asosan o‘tkazilgan.

2. T=300K da elektronning o‘rtacha issiqlik harakatining tezligi _____ ga teng.

3. Elektronlarning elektr maydon ta’siridagi yo‘naltirilgan harakat o‘rtacha tezligi esa _____ atrofida bo‘ladi .

4. Elektr toki juda uzoq masofalarga bir lahzadayoq uzatilishiga sabab, _____

5. O‘tkazgich temperaturasi oshirilganda uning elektr qarshiligi _____

6. Elektronni metalldan ajratib chiqarish uchun bajarish kerak bo‘lgan ishga _____deyiladi.

3. “Aqliy hujum” orqali formulalar ustida ishlash:

Bu orqali o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. O‘zlariga umuman notanish bo‘lgan formulalarni keltirib chiqaradilar. Shu orqali o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari mustahkamlanadi.

1.Lorens kuchi formulasini yozing:

2.Moddiy nuqta aylana bo‘ylab harakatlansa qanday kuch yuzaga keladi?

3.Ikkala kuchni tenglashtiring.

4. Magnit maydonidagi zaryadli zarrachaning harakat trayektoriyasi aylanadan iborat bo‘lsa, uning radiusi nimaga teng?

5. Aylanma harakatda aylanish davri nimaga teng edi?

6.Zarraning aylanish radiusini bilgan holda, uning aylanish davrini qanday hisoblash mumkin?

4. “Globoalfavit” metodi

Siz o‘tgan mavzu o‘quvchilar xotirasida qanchalik darajada qolganligini bilish hamda mustahkamlsh uchun foydali metod. Bu metodni bajarish uchun o‘quvchilarga har bittasiga og‘zaki ravishda bittadan harf aytiladi. Metodning sharti shundaki, topilgan so‘zlar o‘tilgan mavzuga tegishli va kamida ikkita bo‘lishi kerak.

Masalan, “ O‘zgaruvchan tok zanjiri uchun Om qonuni” mavzusi uchun:

S - sig‘im qarshilik, samarador qiymat, sxema

A - aktiv qarshilik, amplituda qiymat

T – tebranish, tok kuchi, tebranish konturi,tebranish davri

I – induktivlik, induktiv qarshilik, impedans

va hokazo. Har bir dars, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedogogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Shunday ekan har bir darsga mos texnologiya, metodlarni tanlash hurmatli ustozlarimiz zimmasida qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.A.V.Usova “Teoriya I metodika obucheniya fiziki v srednoy shkole” -2005
2.D.Xidoyatova. “Samarali interaktiv metodlar-1”-2023 y

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA INTEGRATSIYA USULLARIDAN FOYDALANISH

Avliyoqulov Abdug‘afur
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

“Tabiiy fanlarda matematikadan qanchalik ko‘p foydalanilsa, unda shunchalik ko‘p haqiqat bo‘ladi”.

I.Kant

Annotatsiya: Integratsiya, integratsiyalashgan dars usuli, integratsiyalashgan dars muammosi, integrativ ta’lim g‘oyasi, integratsiya kursi kabi tushunchalari ta’riflandi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, integrativ yondashuv, aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi, o‘qitish, kompetensiya, ta’limda integratsiya g‘oyasi.

Aniq va tabiiy fanlar o‘qituvchisi dars mashg‘ulotlarini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda ilmiy va ijodiy muammolarga duch keladilar. Bunda aniq va tabiiy fanlar o‘qituvchisi bir fan bo‘yich tayyorgarlik ko‘rib kelgan bo‘ladilar. Shu bilan birga darsga kelgan o‘quvchilar ham boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishga tayyor emaslar. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining bir fanni muvaffaqiyatli o‘rganish ko‘pincha ularning boshqa fan bo‘yicha ma’lum bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga bog‘liq. Aniq va tabiiy fanlar o‘qituvchilari bugungi mavzuning maqsadi, tarbiyaviy ahamiyati va dolzabligini o‘quvchilarga oldindan aytishi kerak. Chunki, rivojlanayotgan jamiyatimizda turli xil bilim sohalariga axborot resurslarida maqsadli foydalanish va yangiliklardan xabardor bo‘lish nazarda tutiladi. Shundan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida tashkil etishda qo‘yiladigan talablar o‘zgarib bormoqda. Ushbu muammoni amalga oshirish integrativ ta’lim metodologiyasi hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarga fanlararo umumlashmalarga erishish va dunyoning umumiy manzarasini tushunishga yaqinlashish imkonini beradi. Integrativ ta’lim o‘quvchilarni zamonaviy jamiyat hayotiga, kelajakda o‘z hayoti va kasbiy pozitsiyasini munosib tanlashga tayyorlashga qaratilgan, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu,ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish uchun juda muhimdir, uning usullari bilim va inson faoliyatining ko‘plab sohalariga qo‘llaniladi. Integrativ yondashuv pedagogik kategoriya sifatida bilim va malakalar yaxlitligini ta’minlashga qaratilgan muayyan o‘quv fanlarni maqsadli ravishda birlashtirish, mustaqil maqsadlar tizimiga sintez qilishdir. Integrativ ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarda atrofda bo‘layotgan hodisalar haqida yaxlit tushunchalarni yaratishdir, ya’ni o‘quvchilarni dunyoqarashini shakllantirishdir.

Integratsiyalashgan ta’lim jarayoni ikki turni o‘z ichiga oladi:

1. Gorizontal integratsiya (turli o‘quv fanlaridagi o‘xshash materiallarni birlashtirish). O‘rganishning mazmunli birligi sifatida boshqa o‘quv fanlarni mavzulari bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan mavzu olinadi.

2. Vertikal integratsiya – bitta o‘qituvchi tomonidan o‘z faniga turli xil o‘quv yillarida turli darajadagi murakkabliklarga tematik ravishda takrorlanadigan ma’lumotlarni birlashtiirish.

“Integratsiya” tushunchasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarda ikki ma’noga ega bo‘lishini ta’kidlash mumkin:

umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida atrof muhitda bo‘layotgan hodisalar haqida yaxlit tushunchalarni shakllantirish; (bu erda integratsiyani o‘rganish maqsadi sifatida qaraladi); bilimlarni birlashtirish uchun umumuy platformani topish (bu erda integratsiya o‘rganish vositasidir). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inegrativ ta’limning asosiy g‘oyalarini keltirish mumkin: ta’limning

individual yo‘nalish; umumlashtirilgan fan tuzilmalari va umumlashtirilgan faoliyat usullarini shakllantirish (umumiy tamoyillar, umumlashtiririshni anglash asosida bilimlarni egallash); ta’limda ma’no hosil qiluvchi motivatsiyani ustuvorligi (rag‘batlantiruvchi, ichki va tashqi, tashkiliy); ta’limning tizimliligi (o‘quvchilarning olgan nazariy bilimlar doirasidagi aloqalardan xabardorligi); muammoli ta’limni o‘rganish va dialogik mashg‘ulotni tashkil etish. Binobarin, har qanday dars integratsiya uchun asos sifatida olinishi mumkin, uning mazmuni ma’lum bir mavzuga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhini o‘z ichiga oladi, ammo integratsiyalashgan darsda boshqa fanlar va boshqa fanlar nuqtai nazaridan bilimlar, tahlil natijalari va tushunchalar ishtirok etadi. Shuni ta’kidlash lozimki, integrativ yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘quvchilarning ijodiy fiklash uslubini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarga aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishda o‘quvchilarni fanlarga bo‘lgan qiziqishi oshadi va dunyoqarashi kengaytiradi. Umumta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv vositasida o‘tish o‘quvchilar dunyoqarashini rivojlantiradi va o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘tish o‘quvchilarni harakat usullarini bir obyektdan ikkinchisiga o‘tish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarni fanni o‘rganishni osonlashtiradi va atrof muhitning yaxlitligi haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Umumta’lim maktab o‘quvchilariga integrativ yondashuv asosida o‘tishning quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

Integrativ ta’lim o‘quvchilarni olgan bilimlari asosida rag‘batlantirish vositasi bo‘lib, o‘quvchilarning o‘quv va kongitiv faoliyatini faollashtirishga va stress va charchoqni bartaraf etishga yordam beradi (jismoniy mashqlar, yangi qiziqarli ma’lumotlar); integrativ dars mashg‘ulotlarini rejalashtirish; integratsiyalashgan dars o‘quvchilarni olgan bilimlarini birlashtiradi.

Umumta’lim maktablarida quyidagi integrativ yondashuv usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha mavzulashtirilgan integrativ darslar o‘tkazish; darslarni bahs-munozara shaklida o‘tkazish; dars mashg‘ulotida integrativ yondashuv usullaridan foydalanish, aniq va tabiiy fanlarni o‘rganishga yordam beradi.

Aniq va fanlar o‘qituvchilarining uchta asosiy fazifalari mavjud:

1. O‘quvchilarni mustaqil bilish faoliyatiga jalb qilish (maktab, o‘quvchilarining ta’lim faoliyatini tashkil etish);

2. Individual baholash standartlarini qo‘llash asosida har bir o‘quvchi uchun muvaffaqiyat holatini yaratish, hissiy qo‘llab-quvvatlash;

3. Olingan natijani o‘qituvchi va o‘quvchi tomonidan tekshirish. (integratsiyalashgan darsning tuzilishi va mazmuni).

Integratsiyalashgan dars o‘quvchilarni taranglik, ortiqcha yuk va charchoqdan xalos bo‘lishga yordam beradi. Integratsiyalashgan darsni o‘tkazishda turli fanlardan dars beradigan o‘qituvchilar harakatlarini diqqat bilan muvofiqlashtirishni talab qiladi. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish usullari ikki yoki undan ortiq o‘qituvchilar tomonidan darsni loyihalash va o‘tkazish uchun asosiy tayyorgarlikka

ega bo‘lgan bitta o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilish maqsadga muvofiq. Integratsiyalashgan dars shakllari:

dars-o‘yin; dars-suhbat; dars-tadqiqot; dars-seminar; dars-konferensiya; dars-sayohat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv vositasida o‘tishning muvaffaqiyati ko‘pgina omillarga bog‘liq, masalan, dars boshida do‘stona psixologik muhit yaratilishi, o‘quvchilarni samarali hayotga tayyorlash kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarga beriladigan fan topshiriqlari, turli xil ish usullari va o‘quvchilarni qiziqishlari orqali o‘ylashlari kerak. Aniq fanlardagi simvolik belgilar, o‘quvchilarni qo‘llab-quvatlovchi diagrammalar o‘quvchilarni hissiy kayfiyatini oshirishga imkon beradi. Aniq va tabiiy fanlar darslarinig integratsiyalashuvi bizga ko‘plab muhim hodisalarni ko‘p qirrali tarzda ko‘rib chiqish, aniq fanlar darslarini hayot bilan bog‘lash, atrofimizdagi olamning boyligi va murakkabligini ko‘rsatish o‘quvchilarga qiziquvchanlk, ijodiy kuch bag‘ishlash imkonini beradi. O‘qituvchi uchun fanlarning integratsiyasi o‘quvchilarda bilim yo‘lidagi qiyinchiliklarni maqsadli ravishda engish va istagini rivojlantirishga imkon beradi. Misol uchun, aniq fanlarning individual savollarini tirli tabiiy fanlar bilan bog‘lash, ularni aqliy faoliyatiini rivojlantirish orqali integratsiyani tashkil qilishimiz mumkin. Ushbu turdagi dars mashg‘ulotlarining maqsadi:

Birinchidan, aqliy arifmetikaning o‘zi foydali narsa, u aqliy qobiliyatlarni (ayniqsa, fiklash tezligi, diqqat, xotira) rivojlanadi. Ikkinchidan, narsa va predmetlarni (tushunchalarni, miqdorlarni…) sanash imkonini beradi, shu bilan bilimning kerakli darajasini tekshiradi. Uchinchidan, mustaqil ish uchun xuddi shunday topshiriq berish (bu deyarli barcha o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadi) maktab o‘quvchilarini darslik matnlarini qayta o‘qishga majbur qiladi, fan o‘qituvchisi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajara olmaydilar.

Xulosa.

Demak, integratsiyalashgan dars - o‘quv jarayonining tashkil etish shakli bo‘lib, har doim ijodkorlik hissini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Беспалко В.П. Образование и обучение с участием компютеров. Воронеж. 2002 год. 352 стр.
2. Avliyoqulov A.A. Umumta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiya asosida o‘qitishning nazariy asoslari. “O‘zMU xabarlari” ilmiy jurnali. -T.: -2025, 1/2-son, B-54-56.
3. Avliyoqulov A. Umumta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiya asosida o‘qitishda o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish. // TDPU Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. -T.: -2024, 3-son, B-192-195.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI INTEGRATIV YONDASHUV VOSITASIDA O‘QITISHDA MANTIQIY MASALALARNI O‘RNI

Avliyoqulov Abdug‘afur
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Matematikani bilmasdan turib, na zamonaviy texnologiya asoslarini, na olimlarning tabiat va ijtimoiy hodisalarni qanday o‘rganishni tushunish mumkin emas.

Kolmogorov A.N.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuvlar metodologiyasi asosida o‘qitishda o‘quvchilarning olgan nazariy va amaliy bilimlarni o‘quvchilar ongiga singdirish va shakllantirish asoslari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: aniq va tabiiy fanlar, metodologiya, integratsiya, ta’lim, pedagogik texnologiya, uzviylik, integrativ yondashuv.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv vositasida o‘qitishda mantiqiy masalalarning o‘rni beqiyos. Bunda o‘quvchilar masalalarni yechishda mantiqiy arifmetik amallarni algoritmik asosida bajarishda o‘quvchilarning masalalarni tahlil qilish, taqqoslash, umumiy va turli narsalarni aniqlash, tasniflash va o‘xshashliklarni o‘rnatish o‘quvchilar bilimlarini rivojlantirish va mustahkamlashga zamin yaratadi. Bunda sinf guruhlarga bo‘linadi, har bir guruh induvidual topshiriqlarni bajaradilar. Mantiqiy masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilar quyidagi vazifalarni bajaradilar: - bu mantiqiy masalalarni yechish uchun o‘quvchilar algoritmik (mustaqil ravishda bajarilgan ishlar ketma-ketligi) sxemasini ishlab chiqish;- o‘quvchilarni fikrlash qobiliyati rivojlantirish; o‘quvchilarni bilim olish qobiliyatini, aniqlik, qat’iylik tasavvurlarini shakllantirish. Bu esa o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘quv faoliyatini amalga oshirish, o‘quv maqsadlarini belgilash, mantiqiy masalalarrni integrativ yondashuv asosida yechish vositalari va usullarini izlash va ulardan foydalanish, faoliyat jarayoni va natijalarini nazorat qilish va baholash imkoniyatini beradi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash darsida o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini, mantiqiy fikrlash va muloqor madaniyatlarini rivojlantirish mumkin. Mantiqiy masalalarni yechib chiqqandan so‘ng o‘quvchilar quyidagi ijodiy ishlarni juftlikda bajarish taklif etiladi. Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni o‘rganadilar: - xususiyatlari (muhim, ahamiyatsiz) aniqlash uchun mantiqiy masalalarni tahlil qilish; - qismlardan bir butunni yig‘ish, shu jumladan etishmayotgan komponentalarni to‘ldirish orqali mustaqil yakunlash; - ob’yektlarni taqqoshlash va tavsiflash uchun asoslar va mezonlar tanlash; - sabab va natija munosabatlarini o‘rnatish; - mantiqiy masalalar mohiyatini tahlil qilish; - gepotezalarni ilgari suring va ularni asoslang. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiya asosida o‘qitish va ta’limni uzviy bog‘lash muammosi

ham nazariy, ham amaliyot uchun muhim va zamonaviydir. Uning dolzarbligi maktablar oldiga qo‘yilayotgan yangi ijtimoiy fanlar bilan belgilanadi va fan va ishlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Zamonaviy ta’lim tizimi dunyo manzarasini yaxlit ko‘radigan, ushbu manzarani ifodalovchi hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik chuqurligini tushunadigan, yuksak ma’lumotli, intellektual rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini zamonaviy va dunyoviy dunyoqarashlarini iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot integratsiyasi tendensiyalari asosida o‘qitish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu esa o‘quvchilarni dunyoning yaxlit manzarasini anglash va og‘zaki nutq madaniyatini shakllantirishga zamin yaratadi.

Integratsiya – didaktik tamoyillardan biri bo‘lib, fanlarni yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni, differensiatsiya bilan birga kechadi. Integratsiya lotincha *integratio* – tiklash, to‘ldirish, *integer* – butun so‘zidan kelib chiqqan. Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi. Integratsiya ilgari bo‘lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o‘rganish obyektining yaxlitligi tartibga soladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi bajaradi. U o‘quvchilarni hisoblashga, yozishga, o‘qishga, aniq va tabiiy fanlar haqidagi tushunchalarni o‘rgatadi, o‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Integratsiyada eng muhim, o‘quvchilarning psixologik va fiziologik yoshxususiyatlarini hisobga olishdir. Umumiy o‘rta ta’limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Integrativ yondashuvni amalga oshirishda yordam beruvchi usul va vositalar quyidagilardan iborat: mustaqil ishlar; evrestik suhbatlar; ta’limning ko‘rgazmali metodlari; umumiy suhbatlar, ekskursiyalar; imo-ishorali ko‘rinishlar (pantomimalar); tabiiy fanlar va matematika daslarida og‘zaki rasm chizish; tabiiy fanlar daslarida tabiat tasvirlarini ifodali o‘qish; ona tili darslarida tabiiy fanlarga oid diktantlar, matnlar yozish; o‘lkashunoslik asosida matematik masalalarn hal qilish va boshqalar; ona tili, tabiiy fanlar darslarida kuzatishlar badiy asarlar materiallari asosida nutq o‘stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar. Ushbu tushuncha yangi ta’lim paradigmasi uchun gepotezani ilgari surishga imkon beradi: - mavjud ta’lim mavzuga asoslangan, ya’ni barcha fanlar aniq va tabiiy fanlar tizimi sifatida faoliyat yuritadi va zamon talablariga etarlicha javob bermaydi va o‘quv tizimiga fanlarning integratsiyalashuvini joriy etish hozirgi kunda maktab oldiga turgan muammolarni hal qilish imkonini beradi; - integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarga dunyoning yaxlit tasavvurini shakllantirishga va tabiatdagi, jamiyatdagi va butun dunyodagi hodisalar orasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari oldiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar o‘quvchilarni o‘qitishning yangi shakllarini izlashlarini talab qiladi. Ana shunday dolzarb muammolardan biri – umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’limning integratsiyalashuvi muammosidir. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiy

fanlarni integratsiyalash masalasiga bir qancha yondashuvlar paydo bo‘ldi: -aniq va tabiiy fanlardan ikki o‘qituvchi dars o‘tkazish yoki ikkita fanni bir darsda birlashtirib, uni bir o‘qituvchi tomonidan o‘tkazishdan boshlab integratsiyalashgan kurslar yaratguncha; o‘qituvchi o‘quvchilarni tabiatda va kundalik hayotda mavjud bo‘lgan barcha narsalar orasidagi bog‘liqlikni ko‘rishga o‘rgatish kerakligini his qiladi va biladi, shuning uchun ta’limda integratsiya bugungi kunning talabidir. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’limning integratsiyasi tabiat va jamiyatni yaxlit tushunish asoslarini yaratish va ularning rivojlanish qonuniyatlariga munosabatni shakllantirishdan iborat. Integratsiya fan tizimining kamchiliklarini takomillashtiradi va bartaraf etishga yordam beradi va subektlar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgan. Integratsiyaning maqsadi-o‘qituvchilarga turli fanlarning alohida qismlarini o‘qitishning maqsadlari va funksiyalari bir xil bo‘lgan yagona butunlikka birlashtirishga yordam berishdir.

Integratsiyalashgan dars o‘quvchilarga olgan bilimlarini yagona tizimda birlashtirishga yordam beradi. Integratsiyalashgan o‘quv jarayoni bilimlarni tizimli rivojlanishiga ega bo‘lishga yordam beradi, ko‘nikmalar umumlashtiriladi va fikrlashning barcha turlari rivojlanadi: vizual-samarali, vizual-majoziy, mantiqiy. Aniq va tabiiy fanlarni o‘zlashtirishda fan qonuniyatlarini anglashda sub’ektlar ichidagi va subektlaaro aloqalarni o‘rganishdan iborat. Bu tushunchlarni turli darslarda takrorlash, chuqurlashtirish va boyitish mumkin. Pedagogik loyihaning maqsadi – ta’limdagi ishning innovatsion shakli sifatida integratsiyaning mohiyatini ochib berish. Bunda erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. Faoliyatimiz asosi bo‘lgan mavjud nazariy masalalarni o‘rganish, bu masala bilan shug‘ullanuvhi masalalar o‘qituvchilar tajribasini o‘rganish.

2. Maktab o‘qituvchilarining o‘quv faoliyatida kognitiv motivatsiyasi darajalarini aniqlash.

3. Sharoit yaratish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalashuviga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etishning imkoniyatlarini ochib berish lozim. Bunda aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasi sohasidagi nazariy savollar amaliy dars ishlanmalari bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Bundan kelib chiqadiki, fanlararo aloqalar nafaqat mantiqiy, balki muayyan faoliyat turlari bo‘yicha ham amalga oshirilishi kerak. Umumta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiya vositasida o‘qitish o‘quvchilarni diqqat (bilimga qiziqish, qiyinchiliklarni engish) qilish butun sinf davomida shakllanadi. Aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv vositasida o‘qitish o‘quvchilarni motivlarni standartlashtirishga o‘quv jarayonini takomillashtirishning barcha vositalariga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarni turli xil ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, ular maktab o‘quvchilari uchun qulaylik va erkinlik muhitini yaratadi, o‘quvchilari mustaqil maqsadlarni qo‘yish jarayonlarini faollashtiradi.

Demak, integratsiya fanlarning differensiallashuv jarayonlari bilan birga sodir bo‘ladigan yondashuvi va bog‘lanish jarayonidir. Integratsiya fan tizimining kamchiliklarini takomillashtiradi va bartaraf etishga yordam beradi va subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aleksandr Grey. Tabiiy fanlar. 5-sinf. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. “O‘zbekiston” NMIU nashriyoti. Toshkent. 2024 yil. 149 bet.
2. Avliyoqulov A. Umumta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalashda o‘quvchilar motivatsiyasini rivojlantirish. NamDU ilmiy axborotnomasi jurnali. Namangan-2024, 3-son, B-1297-1302.
3. Avliyoqulov A. Umumta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalashda o‘quvchilar kompetensiyasini shakllantirish. “O‘zMU xabarlari” ilmiy jurnali. Toshkent-2024, 1/3-son, B-56-59.

FIZIKADAN TEST TOPSHIRIQLARINING MEZONLARI

B.F. Mirzamuratov,
TerDU O‘qituvchisi.
baxodirmirzamurotov@mail.ru.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida test usullarining qo‘llanishi va ularning afzalliklari haqida so‘z yuritiladi. Testlar o‘quvchilarning bilimini baholashda samarali vosita bo‘lib, turli shakllarda, masalan, tanlash usuli, yozma va kompyuter orqali o‘tkaziladigan testlar shaklida amalga oshirilishi mumkin. Maqolada testlarning ob’ektivligi, ishonchliligi, va ularni o‘tkazishdagi texnik imkoniyatlar (kompyuterlar, javob varaqlari va boshqa asbob-uskunalar) muhim talablarga alohida e’tibor qaratiladi. Testlarning samaradorligini oshirish uchun ularning dizayni, o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi, va o‘tkazish jarayonidagi shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: aniqlik, ob’ektivlik, EHM va perfokarton.

Tajribalar davomida bizga tanlash usulidagi testlarning quyidagi afzalliklari ma'lum:

- ularda variantlarning bir nechta bo‘lishi tanlash jarayoniga, demak, fikrlashga olib keladi. Bu esa o‘quvchilarning bilimini aniqroq baholashga yordam beradi;
- bu shaklni deyarli barcha mavzularda qo‘llash mumkin;
- tanlangan variant bir xil usulda; yozma testlarda doiracha shaklida, kompyuterdagi testlarda strelkani harakatlantirish yo‘li bilan belgilanadi;
- ushbu shaklni yozma testlarda ham (shablon qo‘yib) EHM da bajariladigan testlarda ham baholash qulay;

Fikrimizcha, yuqorida aytib o‘tilgan jihatlarning barchasi tanlash usulining eng qulay shakl ekanligidan dalolat beradi. Uni umumta'lim maktablarida ommalashtirish maqsadida tajribalarda, asosan, shu usuldan foydalanish mumkin. Testlarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan shakllaridan tashqari, har bir o‘quv fanining o‘ziga xos bo‘lgan maqsad va xususiyatlari hisobga olingan holda, ko‘plab tur va shakldagi testlarni yaratish mumkin. Masalan, chizmali testlar, rasmli testlar,

formulali testlar, grafikli testlar, hisoblash testlari, xaritali testlar shular jumlasidan. Ularni tuzish va qo‘llash o‘qituvchining istagiga bog‘liq. Testlar – o‘quvchilarning bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini aniqlaydigan eng yaxshi usul, degan fikrdan yiroqmiz. O‘ylaymizki, zamonaviy testlar bu jihatdan mukammal emas. Lekin hozirgi ta'lim jarayonida eng obektiv ko‘rsatkichlarga faqat shu usul bilan erishish hamda testlar yordamida bu jarayonni takomillashtirish mumkin. Testlar o‘z vazifasini qanchalik bajarayotganligini asoslab berish juda qiyin. Chunki biz ular bilan taqqoslash mumkin bo‘lgan aqlning obektiv mezoniga ega emasmiz. Shu o‘rinda mashhur testshunoslar R. Torndayk va E. Xagenlarning quyidagi fikrini keltirish mumkin. “Test uchun yaxshi topshiriqni o‘ylab topish san’at. Obrazli qilib aytganda, yaxshi sonatani yozish jarayonidagidek erkin va g‘aroyib ham emas, tort pishirishdagi belgilangan tartibda ham emas. Bu ularning orasidagi bir narsa”.

Test mezonlariga oid talablardan kelib chiqadi. Test talablari quyidagilar:

- testning shartlari, topshiriq va savollari asos o‘qilishi kerak, chunki uzundan-uzoq mujmal va murakkab iboralar o‘quvchi diqqatini jamlaydi;
- ta’lim beruvchi testlarda darslikdagi ta’rif va qoidalarni bermasligi lozim, chunki bu testning obektivlik xususiyatiga putur etkazishi mumkin;
- topshiriqlarning ma’nosida mujmallik yoki “qopqon”lar, ya’ni o‘quvchini noto‘g‘ri javobga undaydigan jihatlar bo‘lmasligi zarur;
- tanlash usulida tuzilgan testlarning variantlari mantiqsiz, haqiqatdan yiroq bo‘lmasligi kerak;
- o‘quvchilar testni bajarayotgan paytda bir-birlariga xalaqit bermaydigan darajada bemalol joylashishlari ularning test savollariga javob berishlariga sharoit yaratib beradi;
- testning boshlanish va tugash vaqti aniq belgilanishi kerak;
- darsliklar, jadvallar va ko‘rgazmali qurollar, shuningdek, o‘quvchilarning bir-birlarini ko‘rib olishlari imkoniyatlari bo‘lmasligi maqsadga muvofiq.

Ushbu talablardan testning mezonlari kelib chiqadi. Bu mavzu tilga olingan bir qator tadqiqot ishlarida, asosan, 2 ta mezon ko‘rsatiladi: ishonchlilik va maqsadga muvofiqlilik.

Test o‘tkazish uchun imkoniyatlar yaratilishi ,bu imkoniyatlar mavjud sharoitda haqiqiqy bo‘lishi kerak, ya'ni:

- yozma testlar o‘tkazilganda test kitobchalari, javob varaqalari, test natijalarini hisoblaydigan vositalarning etarli bo‘lishi;
- og‘zaki testlar o‘tkazilganda magnitofonlar, kartochkalar, ko‘rgazmali qurollar bo‘lishi;
- EHM da test o‘tkazilganda kompyuter va printerning, test matnlari yozilgan disketlarning tayyor bo‘lishi maqsadga muvofiq. Hisoblashga qulaylik agar testning natijalarini hisoblash yoki qayta ishlash oson bo‘lsa, demak, test ushbu mezonga javob beradi. Imtihon oluvchi qaysi javob yaxshiroq, to‘liqroq, to‘g‘riroq ekanligini o‘ylaydi. Shubhalanadi, qiynaladi. Obyektiv va guruhlar uchun mo‘ljallangan testlar bunday kamchiliklardan xoli. Lekin ular ham hisoblashga qulayligi jihatidan turlicha bo‘ladi. Masalan, javoblari bir varaqqa yozilgan, test natijalari javoblari har xil

varaqqa yozilgan test natijalariga nisbatan hisoblash oson. Chunki birinchi test natijalari javob varaqasiga:

a) shablonni qo‘yib;

b) EHM yordamida; v) perfokartonlar vositasida hisoblanishi mumkin. Ikkinchi test natijalarini bunday hisoblab bo‘lmaydi. Bu muhim mezon hisoblash aniqligiga va hisoblash uchun kerakli bo‘lgan vaqtga ta'sirini o‘tkazadi. Etalonlar Etalonlar raqamlarda ifodalanadi. Ular o‘quvchilarning oldindan belgilangan tarkibi bilan o‘tkazilgan test natijalari, ya’ni testni “standartlashtirish” jarayonida olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Bu ko‘rsatkichlar testlarni amaliy qo‘llashda katta rol o‘ynaydi. Standartlashtirilmagan test ayrim o‘quvchilarning qandaydir guruh chegarasidagina bilim darajalarini taqqoslash mumkin. Etalon ko‘rsatkichlari bizga testlar yordamida bilim darajasini faqatgina bir o‘quv guruhi yoki bir ta'lim muassasasi chegarasida emas, ancha keng ko‘lamda taqqoslash imkonini beradi. Aytaylik, biz 20 nafar o‘quvchidan iborat guruhda test o‘tkazdik. O‘quvchilardan biri, masalan, B. Abdullaev testning 20 ta savoliga to‘g‘ri javob berdi. 12 nafar o‘quvchi, ya'ni 60% o‘quvchi bundan kam savollarga javob berdi. Shu tariqa, “% darajasi” ushbu guruhdagi o‘quvchilarning qancha %i B. Abdullaevnikidan pastroq bilim darajasini namoyish etganligini ko‘rsatadi. Demak, B. Abdullaev test o‘tkazilgan mavzuni o‘quvchilarning 60% idan ko‘ra, yaxshiroq biladi, deyish mumkin. Test tejamliligi uning qancha vaqt davomida o‘tkazilishi bilan aniqlanadi. Uni bajarishga, natijalarni qayta ishlashga va testni bajargan o‘quchilarni e'lon qilishga oz vaqt ketsa, test shuncha tejamli hisoblanadi. Testning xolisonaligi o‘qituvchi yoki tadqiqotchi yoxud boshqalarning testni bajarishi hamda uning natijalarini hisoblash jarayoniga aralashmasligi bilan ta’minlanadi. Test o‘tkazilishi uchun imkoniyatlar yaratilishi uni o‘tkazadigan mutaxassisga bog‘liq. Bu imkoniyatlar tashqi va ichki shart-sharoitlardan kelib chiqadi. Hisoblashga qulaylik o‘qituvchi baholashning qaysi usulini qo‘llashiga bog‘liq. Yuqoridagi mezonlardan ikkita asosiy va eng muhimlarini, ya’ni testning ishonchliligi va maqsadga muvofiqliligini aniqlash maxsus usullar bilan bog‘liq.

Xulosa.

Umumta’lim maktablarida ommalashtirish maqsadida asosan, test usuldan foydalanib, testlarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan shakllaridan tashqari, har bir o‘quv fanining o‘ziga xos bo‘lgan maqsad va xususiyatlari hisobga olingan holda, ko‘plab tur va shakldagi testlarni yaratishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Fizika o‘qitish metodikasi asoslari. A.V.Perishkin va boshq. tahrir ostida. T.: 1990
2. No‘monxo‘jaev va boshqalar. Fizika. AL uchun. 1 qism. T.: 2002 y.
3. Djoraev M. Formirovanie veroyatnostno-statisticheskix idey i ponyatiy pri podgotovke uchitelya fiziki. – Osh, 2003

TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON DASTURIDAN FOYDALANISH DAVR TALABIDIR

Xollozov Bekzod Bekmatovich
2-Ixtisoslashtirilgan maktab internati direktori,
katta o‘qituvchisi.

Annotasiya. Maqolada tarbiyaviy tashkilot sifatida maktab internet to‘garagi shaxsni jamiyat madaniyatiga, shu jumladan, axborot madaniyatiga jalb qilish, tanishtirish, o‘sib kelayotgan avlodlarning kattalardan tashqarida individual rivojlanishi va ma’naviy-qadriyat yo‘nalishlari, jamiyatning real ijtimoiy-kasbiy strukturasiga (tuzilishiga) nisbatan tarbiyalanuvchilarning shaxsiy resurslariniga muvofiq tabaqalashtirish shart-sharoitlarini yaratish funksiyalarini amalga oshirish jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot, qadriyat, madaniyat, jarayon, innovatsion, tarbiyaviy zamonaviy, tabaqalashtirish texnologiya, axborot, kasbiy, madaniyat**.**

Abstract. The article discusses the role of the school Internet circle as an educational organization in attracting and introducing individuals to the culture of society, including information culture, individual development and spiritual and value orientations of the growing generation outside of adulthood, and stratification of the personal resources of the educated in relation to the real socio-professional structure (structure) of society. The processes of implementing the functions of developing conditions are highlighted.

Keywords. Information, values, culture, process, innovative, educational, modern, stratification, technology, information, professional, culture

Абстрактный. В стате рассматривается рол школного Интернет-кружка как образовательной организации в привлечении и приобщении личности к культуре общества, в том числе информационной, индивидуалному развитию и духовно-ценностным ориентациям подрастающего поколения за пределами взрослости, стратификации личностных ресурсов обучающихся по отношению к реалной социально-профессионалной структуре (структуре) общества. Объясняются процессы реализации функций обработки условий.

Ключевые слова. Информация, ценности, культура, процесс, инновационный, образовательный, современный, стратификация, технология, информация, профессионалный, культура.

10-11 sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ustuvorlik qiluvchi omillarni hisobga olib yaratiladi. Hozirgi kunda bunday omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: axborot madaniyatining mantiq bilan muvofiqligi; axborot madaniyati mazmunining o‘qitish tamoyillari bilan muvofiqlik darajasi (ilmiyligi, izchilligi, tizimliligi va boshqalar); axborot madaniyati tushunchasi va o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; shaxsning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari (tabaqalashtirilgan, tuzatishga

oid, ixtisoslashtirilgan ta’lim va boshqalar). Ta’lim mazmunining asosi didaktikaning eng muhim va an’anaviy muammolaridan biridir. 10-11 sinf o‘quvchilarida axborot madaniyati mazmuni va asosiy maqsadi axborotlashgan jamiyatda yosh maktab o‘quvchilari shaxsiyatining ijobiy tomonga rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishdan iborat bo‘lgan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun 10-11 sinf o‘quvchilari uchun zaruriy, maxsus tanlab olingan va davlat tomonidan tan olingan axborot kommunikatsion texnologiya vositalari bilan ishlash kompetensiyalari tizimi sifatida izohlanadi.

10-11 sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini rivojlantirishning ishlab chiqilgan metodik tizimi doirasida amalga oshirilayotgan mexanizm turli yo‘nalishlarda qay tariqa rivojlanib borishini ko‘rib chiqamiz. Jamiyatning axborot manbalari va bo‘sh vaqtni o‘tkazish shakllarining ustuvor o‘zgarishlarining to‘rtta o‘ziga xos yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadilar[60]: kitob o‘qishga qiziqish va kitoblarning axborot manbayi sifatidagi ahamiyati pasayadi; bo‘sh vaqt tarkibida televizor muhim rol o‘ynaydi, biroq uning axborot do‘stlar bilan muloqotning ahamiyati va vaqt bo‘sh vaqt tarkibida ham, axborot maydonida ham shaxsiy kompyuterlar va internet tarmog‘idan foydalanish o‘z mavqeini tez oshiradi.

Bu o‘zgarishlar insonlar kompyuterlar bilan ishlashda ko‘proq vaqt sarflab, ulardan nafaqat dam olish va o‘yin-kulgi vositasi, balki muhim aloqa vositasi sifatida ham foydalanib, biznes va o‘quv axborotlarini olishayotganidan dalolat beradi.

Maktab kompyuter to‘garagi – kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalariga qiziquvchi o‘rta maktab o‘quvchilarining umumta’lim maktabi negizida amal qiladigan tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan (shakllantirilgan) birlashmasi bo‘lib, uning asosida internetga kirish imkoniyati bilan axborot faoliyati yotadi. Tarbiyaviy tashkilot sifatida maktab internet to‘garagi shaxsni jamiyat madaniyatiga, shu jumladan, axborot madaniyatiga jalb qilish, tanishtirish, o‘sib kelayotgan avlodlarning kattalardan tashqarida individual rivojlanishi va ma’naviy-qadriyat yo‘nalishlari, jamiyatning real ijtimoiy-kasbiy strukturasiga (tuzilishiga) nisbatan tarbiyalanuvchilarning shaxsiy resurslariniga muvofiq tabaqalashtirish (differensiya qilish) shart-sharoitlarini yaratish funksiyalarini amalga oshiradi[77].

Maktab kompyuter to‘garagiga A.V.Mudrik konsepsiyasi doirasida ta’lim beruvchi tashkilot sifatida qarash uning faoliyatini tahlil qilishni ham taqozo qiladi [76]. Bizning fikrimizcha, maktab internet to‘garagi hayotining mazmuni asosini to‘garak uyushmasining mohiyatiga mos keluvchi muloqot va ma’naviy-amaliy tadbirlar tashkil qiladi. Bir-biri bilan va tashqi dunyo bilan o‘zaro faoliyatda bo‘lish jarayonida yuqori sinflar o‘quvchilari bir tomondan ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlar bilan o‘zaro faoliyat qilishadi, ularni iste’mol qiladilar, ikkinchi tomondan esa yangilarini (qadriyatlar, xulq-atvor namunalari, madaniy ob’yektlar) yaratadilar.

Maktab internet-to‘garagi faoliyatining zaruriy tarkibiy qismlari bilim va predmetli-amaliy faoliyatdir. Jamiyatga yo‘naltirilganlik, maktab hamjamiyatiga foydalilik 10-11 sinf o‘quvchilarining turli loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishlariga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, bolalarning aksariyati kompyuter yoki individual dasturiy mahsulotlar bilan ishlashni yetarli darajada o‘zlashtirmagan, shu bilan birga, o‘z faoliyalarini ijtimoiy maqbul me’yorlar asosida tashkish qilish

ko‘nikmalariga ham ega emas. Bu holat to‘garak rahbari oldiga tizimli ta’lim va tarbiyaviy ishni tashkil qilish vazifasini qo‘yadi.

Maktab internet-to‘garagi hayotiy faoliyatining o‘ziga xos sohasi global kompyuter tarmog‘ida ishlash hisoblanadi. U o‘z navbatida, bilish, muloqot va predmetli-amaliy hamda ma’naviy-amaliy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bu internetning bir qator tarkibiy qismlari tufayli amalga oshirilishi mumkin.

1. Internet butun dunyo bilan muloqot qilishning eng tez usuli hisoblanadi. Elektron pochta (e-mail) masofadan turib muloqot qilish va axborotdan foydalanish vositalari hisoblanadi. U matn, grafik tasvirlar, audio va video axborotlarni deyarli bir zumda turli makondagi qabul qiluvchiga uzatish (undan qabul qilish) imkonini beradi. Shu bilan birga, foydalanuvchilar muloqot (aloqa) vaqtida turli makonda turib pochtani tekshirishi mumkin bo‘lgan vaqtgacha saqlanadi va sinxron axborot almashinuvi shu tarzda amalga oshiriladi.

Tadqiqotimiz natijalari Internetdan loyiha usulida muvaffaqiyatli foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi. Misol tariqasida g‘oyalar, matnlar, chizmalar, eskizlar, texnologiyalar va boshqalarning muhokamasini ko‘rsatish mumkin. Bunda, muhokama qilayotgan shaxs, turli shakllarda (matn, grafik, rasm, audio, video va hok.) axborot bilan ta’minlash yo‘li bilan, o‘z islohlarini qiritishi mumkin. Albatta, bunday muloqotni amalga oshirish uchun texnik va tashkiliy jihatdan ma’lum shart-sharoitlar bo‘lishi zarur.

2. Obuna bo‘lish yoki ommaviy jo‘natish ro‘yxatlari (Mailing lists) foydalanuvchiga muntazam ravishda o‘z elektron pochta manziliga qiziqtirgan ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Albatta, bu ro‘yxatlarni yoki ro‘yxatni dastavval Internet tarmog‘ida topish (ularning elektron pochta manzillari, veb-saytlarini, va hok.) va ularga obuna bo‘lish zarur. Ushbu imkoniyatdan foydalanib, yuqori sinflar o‘quvchilari va ularning o‘qituvchilari vaqti-vaqti bilan dunyoning turli manbalaridan o‘zlarini qiziqtirgan ma’lumotlarni olishlari mumkin. Pochta ro‘yxatlaridan (Mailing lists) foydalanganda, talabalar o‘z kasbiy o‘z yo‘lini belgilashda axborot qo‘llab-quvvatlash yordamini olishlari mumkin. Bu holda rag‘batlantiruvchi (motivatsion) asosning roli ham o‘ta muhim. U yangi xabarlarni olishni kutishda ham, ularni muhokama qilishda ham, faoliyatning muayyan natijasi – uni amalga oshirish ob’yektida yoki bosqichida qo‘llash va aks ettirishda ham namoyon bo‘ladi.

3. Elektron konferensiyalar (kompyuter yoki telekonferensiyalar) – virtual muloqot to‘garaklari – juda keng doira (ko‘p sonli) ishtirokchilarni qiziqtirgan masalalarni muhokama qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, bir ishtirokchi yuborgan xabar ushbu konferensiyaning barcha abonentlariga keladi va har bir foydalanuvchi unga kelgan barcha xabarlarni qabul qiladi. Muloqotning bu usuli bir muayyan muammo, masala bo‘yicha ko‘pchilikning fikrini o‘rganish, uni muhokama qilish va fikr yoki takliflarini bildirish imkonini beradi. Tarbiya jarayonida bu imkoniyatdan turli-tuman bosqichlarda foydalanish mumkin. Elektron konferensiyalar, ayniqsa, muammolarga yechimlar izlash, g‘oyalar, texnologiyalarni topish yo‘llarini muhokama qilishda va loyihalar ustida ishlashda qiziqarli bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, elektron konferensiyalar talabalarga bo‘lajak kasbini

izlash natijalarini muhokama guruhlari, onlayn karyera xizmatlari, konsalting (maslahat) firmalari va hokazolarda muhokama qilish imkonini beradi. Biroq, elektron konferensiyalar sifat jihatidan yangi saviyada tashkil etilgan xalqaro aloqa vositasi bo‘lishi mumkinligi unutmasligimiz kerak. Bunday muloqot maktab o‘quvchilarining axborot madaniyati elementlarining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

4. Internet tinimsiz yangilanib, o‘sib boruvchi bilimlar manbaidir. Umumjahon miqyosidagi tarmoq (WWW – World Wide Web) yangi ma’lumotlarni qidirish, olish va o‘z ma’lumotlarini berish imkonini beradi. Axborot izlash imkoniyatlarining noyobligi shubhasiz. World Wide Web axborotni berish (taqdim etish) hajmida ham, turlarida ham, jahon axborot resurslariga qo‘shilish imkoniyatlarida ham katta imkoniyatlar ochadi.

O‘quvchilarni ijtimoiy ahamiyatga ega axborot-texnologik jihatdan o‘qitish (tayyorlash) uchun umumjahon miqyosida tarmoqdagi ***(WWW)*** ishlarning quyidagi asosiy yo‘nalishlari va natijalari qiziqarli bo‘lishi mumkin***:***

U yoki boshqa (mayyan) mavzu bo‘yicha bilim olish uchun kerakli ma’lumotlarni qidirish. Loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish davomida kerakli ma’lumotlar, aloqalarni (kontaktlarni) qidirish va olish. Internet global kompyuter tarmog‘ida loyiha faoliyati natijalari taqdimoti, binobarin, u bo‘yicha fikrlar, tavsiyalar, istaklar, buyurtmalar qabul qilish.

O‘z faoliyati natijalarini ko‘plab odamlarga tanishtirish orqali amalga oshira olish imkoniyati. Shu bilan birga, muayyan marketing ishlari, keng ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va reklama tadbirlari (kompaniyalari) o‘kazish zarur.

Axborot uzatish va qo‘llanilgan yangi texnologiyalardan haqida xalqaro tajriba bilan tanishishda axborot texnologiyalari madaniyati elementlarini shakllantirish.

Yuqori sinflar o‘quvchilarining kelajakdagi kasbini tanlashlari uchun onlayn ma’lumotlarni qidirish va olish.

Internet tarmog‘idan foydalanish xizmatini ko‘rsatadigan tijorat Internet to‘garaklaridan farqli o‘laroq, biz tadqiq qilayotgan hodisa ijtimoiylashuv jarayonlarini pedagogik boshqarish va 10-11 sinf o‘quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Tijorat internet to‘garaklari ta’lim tashkilotlari bo‘lmay, aksar hollarda tarmoqqa ulangan bir nechta shaxsiy kompyuterlari bo‘lgan kichik xonalardan iborat bo‘ladi va bunday to‘garaklarning egalari foydalanuvchilar qanday axborot uzatishi va qabul qilishi bilan qiziqmaydilar. Bunday joylarda dasturiy mahsulotlardan foydalanishga o‘rgatish amalga oshirilmaydi. Ko‘p hollarda bu yerda tom ma’nodagi "to‘garakning" o‘zi ham yo‘q, chunki foydalanuvchilarning tarkibi doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Ahyon-ahyonda kompyuter texnologiyalari va Internet resurslariga qiziqish asosida ixtiyoriy ravishda (o‘z-o‘zidan) u yoki boshqa darajada barqaror jamoalar shakllanadi.

Maktab negizida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha to‘garaklar, birinchi navbatda, asosiy faoliyat turi predmetidan farq qiladi. Eng ko‘p holatlarda, bu turli xil ijod turlari ("She’riyat ixlosmandlari to‘garagi", "Yosh aktyorlar to‘garagi", "Havaskor qo‘shiqlar to‘garagi"), muloqot ("Yuqori sinflar o‘quvchilari to‘garagi"), har qanday ilmiy mavzuni o‘rganish kabi faoliyat turlari kuzatiladi. Internet-to‘garagi uchun esa

bu axborot texnologiyalarini va shaxsiy kompyuter uchun dasturiy mahsulotlarni o‘zlashtirishdan iborat. Ish, tadbirlarning ayrim shakllari, bir qarashda, turli uyushmalarda, ayniqsa, jamoani shakllantirish borasida bir xil bo‘lishi mumkinligi ehtimoldan xoli emas. Biroq, bizning holatimizda, axborot o‘zaro faoliyatida urg‘ularni to‘g‘ri qo‘yish va ta’lim dasturining mazmuni tubdan o‘ziga xosdir. Quyida to‘garaklar orqali 10-11 sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini rivojlantirishga doir treninglardan namunalar keltiramiz.

"Tarmoq axloq-odobi" treningi.

Mashg‘ulotning maqsadi: o‘quvchilarga internetdan foydalanganda kiberbullingning oldini olish uchun ma’lum bir qoidalarga rioya etish zarurligini tushuntirish. Davomiyligi: taxminan 20 daqiqa. Materiallar: qog‘oz va ruchka, katta hajmdagi qog‘oz.Ushbu mashg‘ulotning maqsadi butun auditoriya uchun bir bo‘lgan internetdan foydalanish qoidalarini ishlab chiqishdan iborat. Qoidalar katta kog‘ozga yozilib, hamma o‘qiy olishi uchun devorga osib qo‘yiladi. Bundan tashqari o‘quvchilar quyi sinflar o‘quvchilari uchun ham umumiy qoidalarni ishlab chiqib, maktab vestibyuliga osib qo‘yishlari mumkin ekanligi asoslab berilgan.

O‘quvchilarga virtual makonda foydalanuvchilar uchun taalluqli umumiy qoidalarga rioya etish shartligi hakida so‘zlab bering. Ushbu qoidalarga amal qilish internetdan foydalanishni barcha uchun yoqimli mashg‘ulotga aylanishiga yordam beradi. O‘quvchilarni to‘rt guruhga ajrating. Guruhlardan boshqa o‘quvchilar ham ma’qullaydigan qoidalarni muhokama etishini so‘rang. Ular ikki yoki uchta umuman olingan qoidalarni qog‘ozga tushirishi kerak. Har bir guruh o‘z qoidalarini ovoz chiqarib o‘qiydi. O‘qituvchi esa ularni doskaga yozib qo‘yadi. Qoidalarni muhokama qiling. Ularning qay biri eng muhim? Qanday muhim qoidalar aytilmay qolgan? Qoidalar bo‘yicha butun sinf uchun umumiy bo‘lgan qaror qabul qiling. Uni qog‘ozga yozing. Oxirida qoidalarni buzganlarga qanday chora ko‘rish masalasini birgalikda muhokama eting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику. Yчебное пособие для студентов. - М.: Институт практической психологии, 1997. -365с.
2. Мудрик А.В. Социальная педагогика. - М.: Изд. центр «Академия», 2002.- 200с.
3. Мухина В.С. Возрастная психология: Yчебник для студентов вузов. М.: Издательский центр «Академия». С. 56-58
2. Негодаев И.А.Информатизация культуры. Ростов-на-Дону, 2002. - 406 с.
3. Нестерова Л.В. Формирование информационной культуры будущих инженеров лесного комплекса в процессе гуманитарной подготовки. Дисканд. пед. наук Брянск, гос. универ. Брянск, 2002. 229 с.
4. Никитина Н.Н., Железнякова О.М., Петухова М.А. Основы профессионально-педагогической деятельности, М.: Мастерство, 2002, С. 31.
5. Ожегов СИ. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений / СИ. Ожегов, Н.Ю. Шведова; Российская

академия наук. Ин-т русского языка им. В.В. Виноградова. - 4-е изд., доп. -М., 1997.-944 с.
6. Sultanova. O‘.N. “The Place of Competent Approach in Interdisciplinary Relations is a Guarantee of High Efficiency”. In IJICCE, Impact Factor -.:7.488 Volume 9, Issue 5, May 2021.

10 VA 11 SINF O‘QUVCHILARINI AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURIYATI

Xollozov Bekzod Bekmatovich
2-Ixtisoslashtirilgan maktab internati direktori,
katta o‘qituvchisi.

Annotasiya. Maqolada muammosini keng tadqiq etish maqsadida o‘quvchilarda axborot madaniyatini rivojlanirish turli yondashuvlar asosida tahlil qilindi va natijalari umumlashtirildi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, axborot madaniyati tushunchasini talqin qilishda "axborot" va "madaniyati" (madaniy) yondashuvlarni ajratib ko‘rsatishimizni **amalga oshirish jarayonlari yoritib berilgan.**

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy, “O‘qituvchi - o‘quvchi, axborot, *qadriyat,* madaniyat, jarayon, innovatsion, *tarbiyaviy,* zamonaviy, мadaniyat.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng barcha yo‘nalishlar bilan bir qatorda ta’lim sohasida ham ijobiy o‘zgarishlar boshlandi. Mustaqil Respublikamiz jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishi, mamlakatga chet el investitsiyalarini jalb qilish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, ilmiy-texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andozalariga mos keladigan salohiyatli kompetent kadrlar tayyorlash zaruriyati vujudga keldi. Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH, Janubiy Koreya va Rossiya kabi dunyoning yetakchi mamlakatlarida ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida, pedagogik jarayonlarni rivojlantirish, “O‘qituvchi - o‘quvchi ta’lim vositasi o‘quv muhitini shakllantirish” bo‘yicha olib borilgan loyihalarni amaliyotga tatbiq etish, o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirishga asoslangan axborot madaniyatini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. 10 va 11 sinf o‘quvchilarini o‘quvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy sohalardagi yangilanishining ishtirokchisi bo‘lgan o‘quvchilarga qo‘yiladigan zamonaviy talablardan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlantirish davrida 10 va 11sinf o‘quvchilar oldiga yangi talablarni qo‘yadi, ya’ni axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalarga ega bo‘lish va o‘z harakatlarini rejalashtirish, kelajagi va hayotiy, ta’limiy muammolarni hal qilish uchun kerakli ma’lumotlarni topish, o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayonning axborot modelini

yaratish va undan samarali foydalanish, raqobatbardosh bo‘lishini talab etadi. Bunday ko‘nikmalar bugungi kunda har bir o‘quvchi uchun zarurdir. Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda yuqori sinf o‘quvchilarining ta’limiga qo‘yiladigan talablarni quyidagicha tavsiflanadi:

1. Axborotlar bilan ishlash ko‘nikmasi orqali, kerakli axborotlarni izlash, faoliyati uchun kerakli materiallarmi saralash, to‘plash va undan kundalik faoliyatda, zarur ba’zi vaziyatlarda foydalana olish;

2. Umumiy madaniyati va bilimdonligi, izlanuvchanligi, bilimlarni kundalik hayotida mustaqil qo‘llash va bilish qobiliyati, rivojlanayotgan jamiyatda hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yashashga va harakat qilishga tayyorlik;

3. Bilim olish natijasida, yangi bilimlarni kashf etish;

4. O‘zini-o‘zi baholash orqali, o‘quv jarayonida ishtirok etish;

5. Mustaqillik, bilimdonlik, tashabbuskorlik, samaradorlik, mas’uliyat, keyingi ta’limga tayyorlik kabi fazilatlar mavjudligi.

Izlanishlar natijasida, 2030 yilda ta’lim tizimida faol pedagogik va tashkiliy-texnologik transformatsiya yuz berishi kutilmoqda. Rivojlanish davrida yuz berayotgan, internet, sun’iy intellekt texnologiyalari jadal kirib kelayotgan bir paytda, ta’limda pedagogik va texnologik transformasiyalar yuz berayotgan davrda o‘quvchining raqamli portreti qanday bo‘lishi kerak? Qayd etilgan texnologik, pedagogik va ijtimoiy transformatsiyalar yuz bergan vaqtda maktabning bitiruvchilari o‘quvchilari qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak degan muammolarga duch kelamiz?

Tadqiqot ishimiz davomida xorij ta’limotini o‘rganish, olimlarimizning qarashlari natijasida bugungi zamon o‘quvchilari egallashi kerak bo‘lgan fazilatlar: bilimga ega, bazaviy bilimlar va axborotlarni kundalik hayotda qo‘llay oladigan, yuksak axborot madaniyatiga ega bo‘lishi; kelajak kasbiga doir kasbiy ko‘nikmalarni mukammal egallagan, zarur holatlarda murakkab muammoli masala va muammolarni yecha oladigan; kreativ fikrlaydigan, yuzaga kelgan muammoni matematik va mantiqiy qonuniyat asosida ijodiy yondosh orqali hal eta oladigan; yuqori saviyadagi shaxsiy sifatlarga, ya’ni tez o‘zgaradigan muhitga moslashuvchan, jamoa bilan kirisha oladigan, yuksak madaniyatga va intellektual kompetensiyalarga ega bo‘la oladigan; axborot kommunikatsiyalarni, texnologiyalarini yuqori saviyada egallay-digan; bir nechta xorijiy tillarni biladigan; bo‘lishlari kerak.

Olimlarimizmning tadqiqotlarini o‘rganish va yetuk mutaxassislar fikricha, o‘quvchilar kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal qilishda o‘qish va yozish ko‘nikmalari, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi, moliyaviy savodxonlik, madaniy va fuqarolik savodxonligi kabi tayanch ko‘nikmalardan foydalanadilar. O‘quvchilar murakkabroq muammolarni tanqidiy fikrlash, kreativlik (ijodiy fikrlash), muloqot qilish ko‘nikmalari, jamoada ishlash ko‘nikmalari kabi kompetensiyalar orqali hal qilishadi.

O‘quvchilar atrof-muhit o‘zgarishlari muammolarini qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, qat’iylik, moslashuvchanlik, yetakchilik qobiliyatlari kabi shaxsiy fazilatlarni egallash orqali hal qilishadi.

Renessans davri talablarini asosida o‘quvchi: har bir o‘quvchining imkoniyat va qobiliyatlariga moslashtirilgan, ta’lim oluvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqiladigan, tabaqalashtirilgan dastur, o‘quvchilarning alohida-alohida qiziqishlari asosida ishlab chiqilgan rejalar va eng ko‘p xulosaga ega bo‘ladigan, mazmunli, dasturlar asosida o‘qiydi.

Shuningdek, 3-renisans davrida o‘quvchisi quyidagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim: EGRA – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dastlabki o‘qish savodxonligini baholash dasturi. EGMA – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dastlabki matematik savodxonligini baholash dasturi. (PIRLS)Progress in International Reading and Literacy Study– boshlang‘ich 4-sinf ta’lim oluvchilarining tilni matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro baholash dasturi. (TIMSS) Trends in International Mathematics and Science Study – 4 va 8-sinf ta’lim oluvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro monitoring. (PISA) The Programme for International Student Assessment–15 yoshli ta’lim oluvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar haqidagi baholash dasturlarini bilshi talab etiladi.

Kelajak asr o‘quvchisini baholashda quyidagi xususiyatlari e’tiborga olinishi lozim eng asosiysi o‘quvchining shaxsiy sifatlari, ko‘nikmalari asos qilib olinadi, ya’ni o‘rtoqlari bilan fikr almashib, o‘z fikrini to‘g‘riligini himoya qila oladigan, tanqidiy fikrlash, jamoa oldida ma’ruza qila olish, jamoada ishlay olish, yetuk rahbarlik qobiliyati, savodxonlik darajasi, kitobxonlik, jismoniy faollik darajalari, nostandart sharoitdan chiqib keta olish, kutilmagan muammolarni yechishda kreativlik kabi sifatlar hisobga olinadi. 10 va 11sinf o‘quvchilari uchun qayd etilgan barcha sifatlar va kompetensiyalar egallangan bilimlar, ya’ni fanga doir bilimlar bilan birga baholanadi. Biz yuqorida izohlab bergan o‘quvchiarning egallashi lozim bo‘lan jihatlarini isbotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” asosida 2030 yilga kelib o‘qituvchilar qanday bo‘lishini tashxiz qilishdi bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi :

1. Bitiruvchi sinf o‘qituvchlari bir nechta xorijiy tillarni mukammal egallaydi.
2. Axborot texnologiyalarini yuqori darajada o‘rganadi va biladi .
3. Katta hajmdagi raqamli ma’lumot (Big data - Big data) bilan ishlay oladi.
4. Tanqidiy fikrlash, ma’lumotlarning haqiqiy manbalari bilan ishlash kompetensiyalarini yuqori darajada egallaydi.
5. Ta’lim trayektoriyasini rejalashtirish borasida o‘z ishining novatori.
6. Katta hajmdagi bilimlar, axborot paketlari, bilan ishlashda ustozlik qila oladi.
7. Ba’lim berishning har xil shakllaridan, faoliyatning to‘ldirilgan borliq prinsipidagi simulyatorlaridan, ma’lum bir kompetensiyalarni shakllantirish uchun virtual o‘yinlardan foydalanadi.

8. O‘qitish jarayonini har bir o‘quvchining imkoniyat va qobiliyatlariga moslashtirilgan, individual o‘quv reja asosida tashkil etadi.

9. O‘quvchining barcha sayi harakatlari va ta’lim trayektoriyasini mustaqil ta’lim olishga yo‘naltiradi.

10. Barcha darslarni onlayn tarzda, virtual sinflar orqali taqdim etadi.

11. Kelajak kasbga yo‘naltirish masalasini ham o‘ziga xos uslubda hal etadi. Ma’lum bir hajmdagi ko‘nikmalarni egallagan o‘quvchiga kasbning andozasini qiyoslab ko‘rish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida qayd etilgan rivojlantirish konsepsiyasi barchasi innovatsion yondashuv asosida 10-11 sinf o‘quvchilarini axborot madaniyatini rivojlantirishning mazmuni va uning zamonaviy talablarini belgilaydi.

“Axborot madaniyati” tushunchasi quyidagi mazmunlarni o‘zida mujassam etadi: inson bilim egallashning zamonaviy vositalari, qayta ishlash va tizimlashtirish malakasiga ega bo‘lishini; tabiat va jamiyatda kechayotgan axboriy jarayonlarning mohiyatini tushunishni; faoliyat sohasiga oid xususiyatlari hamda turli manbalar bilan ishlashni bilish, axborotni tahliliy, asoslarini o‘rganishidir.

Tadqiqotimiz muammosini keng tadqiq etish maqsadida o‘quvchilarda axborot madaniyatini rivojlanirish turli yondashuvlar asosida tahlil qilindi va natijalari umumlashtirildi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, *axborot madaniyati tushunchasini talqin qilishda "axborot" va "madaniyat" (madaniy) yondashuvlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Куприянов Б.В., Подобии А.Е. Ситуационно-ролевая игра в социалном воспитании старшеклассников. - Кострома: КГПУ, 1998. - 56 с.
2. Липатов В.В. Формироване информационной уклтуры в процессе создания Web-сайтов. // Дополнителное образование. 2004. № 1. С. 58
3. Медзяновская Т.В. Рол традиционных институтов в формировании информационной культуры в современном обществе. Диссканд. культурологии. - М. Российский государственный университет физической культуры, спорта и туризма, - 2004,177 с.
4. Мирошкина М.Р., Андриади И.П. Клубные объединения как отражение молодежных интересов. // Дополнителное образование. 2004. № 6. С. 48.
5. Мудрик А.В. Введение в социалную педагогику. Учебное пособие для студентов. - М.: Институт практической психологии, 1997. -365с.
6. Мудрик А.В. Социалная педагогика. - М.: Изд. центр «Академия», 2002.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yaxshiboyev Ilxom Abriyevich
Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi zamonaviy dunyo ta’lim sohasidagi har bir detalga zamonaviy nigoh bilan qarashga undaydi. Shu jumladan, har bir fanni o‘z o‘quv metodikasidan tashqari, unda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ham mujassamlashtirgan tarzda o‘quvchilarga o‘rgatish ayni kunlardagi dolzarb masalalardan biridir, fizika fanining dunyo hamjamiyatidagi ahamiyati va ushbu fanni o‘quvchi-talabalarga o‘rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, innovatsiya, fizika, pedagogik texnologiyalar, o‘quv fan metodikasi, an’anaviy ta'lim.

Fizika fani bizni atrofimizdagi dunyoni, nafaqat dunyoni, borinki butun texnologiyani qanday ishlashini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, fizika bizga koinotni tartibga solishga yordam beradi. U asoslar bilan shug‘ullanadi va bir -biriga o‘xshamaydigan hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rishga yordam beradi. Fizika bizga ijodkorlikni ifoda etishga, dunyoni yangicha ko‘rishga va keyin uni o‘zgartirishga yordam beradigan kuchli yo‘nalishlar beradi. Fizika ma’lumotni tahlil qilish va fan, muhandislik va tibbiyot, shuningdek, iqtisod, moliya, menejment, huquq va davlat siyosatidagi muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan miqdoriy va analitik ko‘nikmalarni beradi. Fizika eng zamonaviy texnologiyalarning asosi bo‘lib, ilmiy, muhandislik va tibbiy tadqiqotlar va ishlanmalarda ishlatiladigan asboblar uchun asosdir. Ishlab chiqarishda fizikaga asoslangan texnologiyalar ustunlik qiladi.

Malakali fizika o‘qituvchilari bo‘lmagan maktablar o‘z o‘quvchilarini kelajakda ular erishishi mumkin bo‘lgan hurmatli va yaxshi maosh oladigan kasblardan uzib qo‘yadi. Fizikani o‘qiyotgan talabalar SAT, MCAT va GRE testlarini yaxshiroq bajaradilar. Fizika mutaxassisliklari MCAT da biologiya yoki kimyo fanlariga qaraganda yaxshiroq ishlaydi. Chunki, ushbu elektron vositalarni ta'lim muassasalarida fanni o‘qitishda fizik jarayonlarni, elektron darsliklar, animatsiyalar, virtual laboratoriya va tajribalarni tinglovchilarga dars davomida ko‘rsatib borilmoqda. Ta’lim jarayonida mavjud barcha fanlarning, ma’ruza laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarida yangi zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar ya’ni, raqamli o‘lchash asboblari, vertual laboratoriyalar, animatsiyalar, elektron darsliklar, hamda ular asosidagi multimediya vositalardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilishi va undan tashqari veb-saytlarning samarali tashkil qilinishi, ta’lim tarbiya samaradorligini oshirishda ham maktabda o‘tkazilayotgan turli xil ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy anjumanlarning ahamiyati katta bo‘lmoqda.

Fizika bo‘yicha mutaxassislik nafaqat fizika, balki barcha muhandislik va informatika fanlari bo‘yicha aspiranturaga mukammal tayyorgarlikni ta'minlaydi;

hayot fanlari, shu jumladan molekulyar biologiya, genetika va neyrobiologiya; yer, atmosfera; iqtisod va moliya; va davlat siyosati va jurnalistikada asqotadigan sohadir. Siz fizikasiz muhandis yoki shifokor bo‘lolmaysiz; o‘qituvchilik bilan shug‘ullanish ehtimoli kamroq; sizning video o‘yinlaringiz zerikarli bo‘ladi va animatsion filmlaringiz haqiqiy ko‘rinmaydi. Sizning global isish haqidagi siyosat qarorlaringiz unchalik ahamiyatli bo‘lmaydi. Fiziklar uchun maxsus so‘raladigan ish e’lonlari soni, masalan, muhandislarnikidan kichikroq bo‘lsa-da, fizika bo‘yicha malakaga ega bo‘lganlar uchun mehnat bozori har xil va har doim kuchli. Fizika miqdoriy, tahliliy tafakkurni rivojlantirganligi sababli, fiziklar boshqa texnik mutaxassislarga qaraganda yuqori boshqaruv va siyosat lavozimlarida bo‘lish ehtimoli ko‘proq faoliyat yuritishadi. AQSh hukumatidagi ilm-fan bilan bog‘liq uchta yuqori lavozimdan ikkitasi - energiya vaziri va Oq uyning fan va texnologiya siyosati idorasi direktori - hozirda fiziklardir. Hammamiz, shu jumladan professional fiziklar, o‘rta maxsus ta'lim tizmidagi fizika kurslarini qiyin deb bilamiz, chunki ular bizdan ko‘plab kasblar bo‘yicha fizika bo‘yicha o‘qitishni qimmatli qiladigan ko‘plab tushunchalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, tarix, psixologiya yoki kompyuter dasturlash kabi boshqa fanlarga qaraganda, fizikani kollejdan keyin (mustaqil yoki ish joyida) o‘rganish ancha qiyin.

Bugungi kun fizika o‘qituvchisi oldida turgan dolzarb muammolardan biri ta'limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni o‘qitish amaliyotida qo‘llashdir. Fizika o‘qituvchisi o‘quvchilarga fizika fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg‘ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishilsin. O‘qituvchi o‘tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o‘tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo‘lishi kerak. Darsni yangi pedagogik texnologiyalar:

— axborot vositalaridan foydalanib;

— ko‘rgazmali qurollari yordamida;

— interfaol metodlarni qo‘llash orqali;

O‘quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi ortadi. An’anaviy ta'limdan farqli zamonaviy ta'limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyati, bilimini nazorat qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash fizika fani o‘qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida o‘quvchilarning ilmiy faoliyatini, ijodkorligini oshiruvchi va shu bilan bir qatorda ta’lim-tarbiya jarayoninig samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan.

Shu tajriba asosini tashkil qiluvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilib, bu metodlarni dars jarayoniga qo‘llay bilish bugungi zamon fizika o‘qituvchisi zimmasiga yuklatilgan yuksak vazifadir. Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalanishi va yakuniy natija(samara)ning kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda bularni

to‘g‘ri baholay olishiga bog‘liqdir. Har bir o‘tiladigan darsda ta’limning aniq maqsadining belgilanishi o‘qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo‘yicha o‘qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi.

Fizika fan sifatida o‘tilgan vaqtdan boshlab fanning ma’lumotlar bazasi ko‘payib katta hajmni tashkil etmoqda va u yuqori tezlikda yil sayin boyib boryapti. Shu sababdan fizikani o‘tish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o‘quvchining o‘zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ma’lumotlar hajmini miqdoriy o‘lchamga keltirish zarur. Ta'lim tizimida multimediali elektron o‘quv adabiyotlar, ma’ruzalar virtual laboratoriya ishlari, har xil animatsion dasturlar slaydlar yaratishda kerak bo‘ladigan maxsus dasturlar hisoblanadi. Ta’lim tizimida yuqorida keltirilgan dasturlarda tayyor modellar mavjud bo‘lib bunda foydalanuvchi boshlang‘ich parametrlarni kiritib bir necha turkum ishlarni (laboratoriya, yong‘in xavfsizligi masalalarini tahlil qilishda, taqdimot ma’ruzalarida animatsiyalar) dan keng foydalanishi mumkin. Fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlariga: MatCad, MatLab, Maple, Crocodile, Physics, Electronics Workbench va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Axborot texnologiyalarning imkoniyatidan foydalangan holda kompyuter modellarini o‘quv jarayonlarida foydalanish o‘zining samarasini beradi.

Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish uchun axborot texnologiyada fizik bilimlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, modellashtirishning o‘ziga xos muhim tomonlari shundaki, turli xil asboblar tayyorlash shart emas, hodisalarni jonli va tabiiy ko‘rinishda tasvirlash, tajribani oz fursat ichida istalgan paytda takrorlash, kuzatish qiyin bo‘lgan va umuman kuzatilishi mumkin bo‘lmagan jarayonlarni ham namoyish eta olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kompyuter dasturini qo‘llash orqali o‘tilgan mashg‘ulotlar oddiy mashg‘ulotlardan ko‘ra yaxshiroq samara beradi. Fizika fanini o‘qitishda kompyuter dasturlaridan foydalangan holda, animatsiyali mashg‘ulotlar olib borish o‘qituvchi va tinglovchiga qulaylik yaratib, fizik jarayonlarning yuz berish mexanizmlari va bosqichlarini tushunib yetishda yaxshi samara beradi. Fizik jarayonlar mexanizmlarini, ularni ma’ruza, amaliy va, ayniqsa, tajriba mashg‘ulotlarida namoyish etish va bu holatlarni kompyuter texnologiyalariga tayangan holda olib borish o‘qitish jarayonida tinglovchilarga bilim berish va fan asoslariga doir ko‘nikmalar hosil qilish samaradorligini oshiruvchi omillari bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim modernizatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri bu "ommaviy foydalanish imkoniyati, ta'lim tizimining ta’lim tizimiga moslashuvchanlik, talabalarni tarbiyalash va o‘qitish xususiyatlari."

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan dasturlardan ma’ruza jarayonida qo‘llash natijasida qisqa vaqt ichida kerakli axborotni tinglovchi va o‘quvchilarga ko‘rgazmali o‘tkazish imkoniyati bor. Bu esa o‘quv samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Raximov O.D., Turgunov O.M. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. /Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2013.
2. Ta’lim bo‘yicha axborot texnologiyalari: tadqiqotlar. O‘qish uchun qo‘llanma Yuqori. Tadqiqotlar. muassasalar /. - 4-chi., Ched. - m.: "Akademiyaning" nashriyot markazi, 2008 yil. -192C.
3. Pedagogika: pedagogik nazariyalar, tizimlar, texnologiyalar: tadqiqotlar. Str uchun. Baland. va ommaviy axborot vositalari. Ped. Tadqiqotlar. Transport vositalari /, I.B. KOTOVA va boshqalar; Ed. . - 5-chi., Ched. - m.: 2004 yil nashriyot markazi, 2004 yil. - 512s.
4. Оценка качества подготовки выпускников средней школы по физике. / Сост. В.А.Коровин, В.А. Орлов. - М.: Дрофа, 2001,- 192сПрограммы общеобразовательных учреждений. Физика. Астрономия / Сост. Дик Ю.И., Коровин В.А. - М.: Просвещение, 2000,-287с.

TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O‘RNI

Mamatqobilov Mirolim Zafar o‘g‘li,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi
mirolimmamatqobilov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida ta’limning o‘rni, zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati, barkamol avlodning shakllanishi va unga xos xususiyatlar: yangicha tafakkur, falsafiy dunyoqarash, ma’naviy axloqiy poklik, yuksak ma’naviyat, tashabbuskorlik, vatanparvarlik va yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o‘rni haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari maqolada innovatsion texnologiyalar bilan ta’lim sifatini boyitib borish, bolalarning dunyoqarashini rivojlantirishga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, yangicha dunyoqarash, sifatli ta’lim, ezgu maqsad, kreativlik, ijodkorlik.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari ta’lim sifati yuqori cho‘qqilarga olib chiqish uchun zina vazifasini bajaradi. Axborot texnologiyalari kreativ dunyoqarashni shakllantiriadi. Ular ta’lim jarayonini sifat jihatidan oshirish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratish hamda global bilimlar almashinuvini tezlashtirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta’minotlar), elektron aloqa va antoelektronika-mikroprosessorlar, yarimo‘tkazgichlar va optik-tolali kabellar sohalaridagi kashfiyotlar bilan bog‘liq.

Axborot texnologiyalari yoshlarga ma’lumotlardan unumli foydalanish imkonini beradi. Kompyuterlarni bir-biriga ulash va ularni bir-biri bilan aloqa qilishga sozlash yangi kuchli texnologik tizimni umumiy protokoldan foydalanuvchi tarmoq axborot sistemalarini yaratishga imkon beradi. Ular odamlarni, ularning uylarini va idoralarni birlashtiradi hamda juda qisqa vaqt ichida ulkan topshiriqlar sonini ishlab chiqadi va bajaradi. Bu axborotlardan foydalanish xususiyatini va kommunikasiya tuzilishini tubdan o‘zgartiradi. Shu bilan birga kompyuter tarmoqlari Yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi. Ta’lim tizimi uchun bu o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida kommunikasiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o‘ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikasiya texnologiyalari uch yo‘nalishda ilgari bo‘lmagan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to‘siqlarni yengib o‘tish imkon beradi:

Birinchidan, bilimlarni egallash yo‘lidagi to‘siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta’lim olish yo‘lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta’limni rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to‘plash jarayonining mazmunli jihatini ta’minlash uchun kerak bo‘ladi. Internet va “Butun jahon tarmog‘i” barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo‘lidagi to‘siqlarni yo‘qotadi. Internet tarmog‘i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko‘plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta’lim tizimida qayta aloqani ta’minlash harakati.

Uchinchidan, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lidagi to‘siqlarni yo‘qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog‘liq sohalar hamda ta’lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta’lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo‘qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o‘quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Axborot texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni va ahamiyatini quyidagi jihatlarda ham ko‘rish mumkin:

- o‘quvchilar masofadan dunyoning istalgan nuqtasidan internet va raqamli platformalar tufayli bilim olishlari mumkin. Masalan, onlayn kurslar (Coursera, Khan Academy), elektron kutubxonalar va ochiq ta’lim resurslari (OER) har kimga yuqori sifatli materiallarni taqdim etadi;

- zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun’iy intellekt (AI) va adaptiv o‘quv tizimlari o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos keladigan dars rejalarini tuzishga yordam beradi. Bu o‘quv jarayonini yana-da samarali qiladi;

- COVID-19 pandemiyasi davrida Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar masofaviy ta’limning asosiy vositasiga aylandi. Bu tendensiya davom etib, geografik

chegaralarni yo‘qqa chiqardi va har qanday vaziyatda ham ta’lim olishga yordam beradi;

- virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va 3D modellar yordamida o‘quvchilar nazariy bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu, ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Masalan, Masalan, biologiya darsida organlarni 3D shaklda ko‘rish yoki tarix darsida o‘tmishni virtual sayohat qilish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi;

Ta’lim muammosini globalizasiyalashtirish – seminarlar o‘tkazishdan tortib terrorizm va diniy ekstremizim mohiyatini ochib berishgacha – elektron tarmoqlar axborot-tarbiyaviy imkoniyatlarini ahamiyatini oshiradi. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta’limni to‘plangan bilimlarni yetkazish, ularni to‘ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog‘lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan- bu ta’lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasidir. Bu har doim ham bo‘lmagan, ilg‘or axborot texnologiyalar ta’lim tizimida fanning ahamiyatini o‘zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o‘zi rivojlanishi bilan emas, balki ta’lim va o‘qitish tizimi bilan ham bog‘liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi.

Hozirgi kunda Internetda taxminan 2,5 mlrd noyob barcha foydalanadigan veb-sahifalar mavjud bo‘lib har kuni ular qatoriga yana 7,3 mln yangilari qo‘shilmoqda.

Zamonaviy kasblar, ham aynan axborot texnologiyalari bilan bo‘gliq. Masalan, Sun’iy intellekt mutaxassisi (AI Specialist) - Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish bilan shug‘ullangan mutaxassislar, Ma’lumotlar tahlilchisi (Data Analyst) - katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, biznes yoki ilmiy muammolarni hal qilishda yordam beradi, Kiberxavfsizlik mutaxassisi (Cybersecurity Expert) - nternet va raqamli tizimlar kengaygan sari, ma’lumotlarni himoya qilish tobora muhim bo‘lib bormoqda. Bu soha mutaxassislari hackerlik va kiberhujumlardan himoya qiladi. Sh

Sifatli ta’limni, ma’naviy-g‘oyaviy tarbiyasi darajasini oshirish vazifasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish so‘zsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Ta’lim tizimini rag‘batlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo‘lmaydi. Ta’lim tizimi yopiq nuqtai nazarlar, qarashlar statik tizimi emas, bir uzluksiz jarayondan iborat bo‘lishi kerak. Mustaqil Respublikamizning rivojlanishini kafolatlash uchun ta’lim tizimi dinamik, mukammal bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’limda axborot texnologiyalarni qo‘llash fanni yanada yuksaltirib qolmay, yoshlarda shu fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.Ma’lumotni tez va aniq izlab topish orqali, dunyoqarashi yanada kengayadi. Bu esa Yangi O‘zbekistonda malakali, bilimli yoshlarni yetishib chiqishida alohida o‘rin tutadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmoni. 2002 yil 30-may.
2. “Axborotlashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 11.12.2002.

3. G‘ulomov S.S va boshqalar: “Axborot tizimlari va texnologiyalari” Toshkent 2000.
4. Lex.uz
5. Aim.uz

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Muhammadiyev Behro‘z Hafizovich
Termiz davlat universiteti Umumiy fizika kafedrasi o‘qituvchisi
bmhafizovich1995@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning roliga alohida e’tibor qaratilgan. Raqamli texnologiyalar, jumladan interaktiv simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari, fizika ta’limining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida ko‘rsatilgan. Maqolada raqamli texnologiyalarning o‘quvchilarning nazariy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, tajriba o‘tkazish imkoniyatlarini yaratish va motivatsiyani oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, PhET Interactive Simulations (AQSh), CERN's Online Learning Resources (Shveytsariya) va Open Source Physics (Xalqaro loyiha).

Fizika fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning fanlarni chuqurroq tushunishlari va ularga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli texnologiyalar, jumladan, interaktiv simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ta’lim platformalari, fizika darslarida keng qo‘llanilmoqda. Bu vositalar o‘quvchilarga murakkab fizik jarayonlarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi va ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarni fizika ta’limiga tatbiq etish bo‘yicha dunyoda qator muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirilgan:

PhET Interactive Simulations (AQSh) – Kolorado Universiteti tomonidan yaratilgan interaktiv simulyatsiyalar platformasi. Bu platforma orqali o‘quvchilar fizik hodisalarni mustaqil o‘rganishlari va eksperimentlarni virtual ravishda bajarishlari mumkin. PhET simulyatsiyalari fizikani o‘rganish jarayonini interaktiv va vizual tarzda taqdim etib, o‘quvchilarga real hayotdagi jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Jumladan, fizikaning molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda ideal gazning asosiy xususiyatlari, gaz holat parametrlari orasidagi munosabatlarni tushuntirish uchun ishlatiladi. O‘quvchilar bosim, harorat va hajm o‘zgarishining gaz molekulalarining harakatiga qanday ta’sir qilishini kuzatishlari mumkin.

CERN's Online Learning Resources (Shveytsariya) – Yevropa Yadro Tadqiqotlari Markazi tomonidan yaratilgan ta’lim resurslari, talabalarga kvant

fizikasi va yadro fizikasi bo‘yicha ilg‘or bilimlarni taqdim etadi. CERN tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu resurslardan foydalangan holda, zarrachalar fizikasi, yadro fizikasi va kvant mexanikasi kabi murakkab mavzularni tushuntirish yanada osonlashadi. CERNning ochiq ma’lumotlar bazasi, virtual ekskursiyalar va interaktiv ta’lim platformalari o‘quvchilarning ilmiy qiziqishini oshirish va fizikani chuqurroq o‘rganish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Open Source Physics (Xalqaro loyiha) – fizika darslarini o‘z-o‘zini o‘qitish va laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish uchun mo‘ljallangan dasturlarni taqdim etadi. Bu platforma o‘qituvchilarga darslarini yanada qiziqarli qilish, talabalar esa fizik hodisalarni vizualizatsiya qilish orqali chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi. OSP dasturlaridan laboratoriya ishlarini modellashtirish, eksperimental natijalarni tahlil qilish va yangi ta’lim resurslarini yaratish uchun foydalanish mumkin.

OSP dasturlarini o‘qituvchilar va talabalar qanday ishlatishlari mumkin?

- **Laboratoriya tajribalari o‘rniga virtual simulyatsiyalar.** Ba’zi tajribalarni maktab yoki universitet laboratoriyalarida o‘tkazish qiyin bo‘lishi mumkin. OSP yordamida bu tajribalarni kompyuterda simulyatsiya qilib ko‘rish mumkin.
- **Mustaqil ta’lim va uyga vazifalar.** Talabalar mustaqil ravishda ma’lum fizik jarayonlarni modellashtirib, xulosalar chiqara olishadi.
- **Matematik modellashtirish.** O‘quvchilar EJS (Easy Java Simulations) yordamida o‘z fizik modellarini yaratishlari mumkin.
- **Eksperiment natijalarini tahlil qilish.** O‘qituvchilar va talabalar **Tracker Software** yordamida harakat traektoriyasini tahlil qilishadi. Masalan, sportchilar harakati yoki osmon jismlarining harakati kuzatilib, fizik tenglamalar bilan solishtirilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri

1. **Nazariy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish** – O‘quvchilar murakkab tushunchalarni ancha oson qabul qiladilar.
2. **Tajriba o‘tkazish imkoniyati** – Virtual laboratoriyalar tufayli qimmat yoki xavfli bo‘lgan tajribalarni xavfsiz amalga oshirish mumkin.
3. **O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish** – O‘yin elementlari va interaktivlik o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
4. **Masofaviy ta’lim imkoniyatlari** – Internet orqali istalgan joydan o‘qish va amaliy mashg‘ulotlarni bajarish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa.

Raqamli texnologiyalar fizika ta’limini yana-da interaktiv, vizual va moslashuvchan qilishga yordam beradi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, AR/VR, dasturlash va sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Biroq, ushbu texnologiyalarni an’anaviy usullar bilan uyg‘unlashtirish muhimdir. Haqiqiy laboratoriya tajribalari, amaliy ishlar va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyalar bilan birga rivojlantirilishi kerak. Fizika ta’limining kelajagi raqamli texnologiyalar va an’anaviy pedagogikaning optimal integratsiyasiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Redish, E. F. (2003). *Teaching Physics with the Physics Suite*. Wiley.
2. Zollman, D. (2014). *Learning and Teaching Physics with Interactive Simulations*. American Journal of Physics, 82(6), 495-501.
3. Bakhramovich N. A. THE OPPORTUNITIES OF TEACHING ASTRONOMY BASED ON MEDIA EDUCATION AT A SECONDARY SCHOOL //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 9.
4. Wieman, C., & Perkins, K. (2005). *Transforming Physics Education*. Physics Today, 58(11), 36.
5. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.
6. Oblinger, D. G., & Oblinger, J. L. (2005). *Educating the Net Generation*. Educause.

BA’ZI IRRATSIONAL TENGSIZLIKLARNI YECHISHNING SODDA USULLARI

Abrayev Dilmurod Shomurodovich,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi
matematika fani bosh o`qituvchisi
dilmurodabrayev@gmail.com

Annotatsiya: Matematika inson tafakkurining eng oliy yutuqlaridan biri bo‘lib, u faqatgina raqamlar va formulalar majmuasi emas, balki hayotiy muammolarni hal qilishda aql-idrok va mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi fan sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, murakkab masalalarni noodatiy usullar bilan yechish insonning ijodiy qobiliyatini oshiradi. Ushbu tezisda irratsional tengsizliklarni yechish usullaridan belgilash usuli orqali (ratsional) kvadrat tengsizlikka aylantirib yechish metodini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Tenglama, tengsizlik, yechim, kvadrat ildiz, irratsional tengsizlik, o‘zgaruvchini almashtirish usuli, oraliqlar usuli, aniqlanish sohasi, kvadrat tengsizlik.

Matematika va vatanparvarlik bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan tushunchalardek ko‘rinishi mumkin. Biroq, aslida, matematik tafakkur va innovatsion yondashuvlar millatning rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Teran fikrlaydigan insonda, albatta, vatanparvarlik va insoniylik, jamiyat rivoji uchun hissa qo‘shish g‘oyalari yaxshi shakllangan bo‘ladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: "Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo‘lmaydi."

Prezident matematika fanining rivoji va ta’lim tizimidagi o‘rniga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Uning fikricha, matematika nafaqat ilm-fan taraqqiyoti, balki mamlakatning iqtisodiy va texnologik yuksalishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. 2020-yil 31-may kuni olimlar bilan uchrashuvda matematik ongni bog‘chadan boshlab shakllantirish zarurligini ta’kidlagan edi. Shu asosda, V.I. Romanovskoy nomidagi Matematika institutida maktabgacha ta’lim, maktablar va oliy o‘quv yurtlaridagi darslarni muvofiqlashtiradigan tizim yo‘lga qo‘yilmoqda.

Irratsional tengsizliklar ildiz ostida noma’lumli ifodalar qatnashgan tengsizliklardir. Bunday tengsizliklarni yechishda bir qancha asosiy qoidalar mavjud bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Irratsional tengsizliklarning yana bir o‘ziga xosligi ularning aniqlanish sohasiga ham e’tibor qaratish zarurligidir.

Quyidagi:

$$\sqrt{f(x)} > g(x) \tag{1}$$

(1) ko‘rinishdagi irratsional tengsizliklarni yechishda odatda:

$$\begin{cases} f(x) > (g(x))^2 \\ g(x) \geq 0 \end{cases} \text{ va } \begin{cases} f(x) \geq 0 \\ g(x) < 0 \end{cases} \tag{2}$$

(2) sistemalarni ko‘rib chiqqan holda irratsional tengsizlikning yechimini izlaymiz.

$$\sqrt{f(x)} > f(x) + c \ (c \text{ -const}) \tag{3}$$

(3) ni yechishda ham odatda (1) ni yechish kabi umumiy holda (2) dan foydalanamiz. Ushbu tezisda (3) ko‘rinishidagi irratsional tengsizliklarni yechishda belgilash kiritish orqali birmuncha sodda bo‘lgan ratsional kvadrat tengsizlik ko‘rinishiga keltirib so‘ngra uni kvadrat tenglama bilan almashtirgan holda ildizlarini topib olamiz. Keyin esa ratsional kvadrat tengsizlik yechimlari sohasini oraliqlar usuli orqali topib olamiz. Albatta belgilash kiritayotganda ifodaning aniqlanish sohasini topib qo‘yishimiz muhimdir. So‘ngra ratsional kvadrat tengsizlik yechimlari va belgilash kiritilgan ifodadan foydalanib irratsional tengsizlikning yechimlari sohasini topib olamiz.

Misol 1: $\sqrt{x} > x - 6$ tengsizlikning butun yechimlari nechta?

$$\sqrt{x} = t, \ t \geq 0 \tag{4}$$

$$t > t^2 - 6, \ t^2 - t - 6 < 0 \tag{5}$$

$$t^2 - t - 6 = 0 \tag{6}$$

(6) kvadrat tenglamaning ildizlarini topamiz: $t_1 = -2, t_2 = 3 \Rightarrow t\epsilon(-2;3)$ bo‘lishi kerak, ammo (4) ga ko‘ra $t_1 \neq -2$, demak $t\epsilon[0;3)$, ya’ni, $x\epsilon[0;9)$ va butun yechimlari: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 ekan.

Demak, Javob: 9 ta.

Noodatiy usullar bilan yechim topish yosh avlodni tafakkurini kengaytirib, mantiqiy fikrlashga o‘rgatib, ularning ijodiy salohiyatini oshiradi.

Misol 2: $\sqrt{4+3x} > x$ (7) tengsizlikni yeching.

$\sqrt{4+3x} > \frac{4+3x}{3} - \frac{4}{3}, \ \sqrt{4+3x} = t, \ t \geq 0, \ t > \frac{t^2}{3} - \frac{4}{3}, \ t^2 - 3t - 4 < 0, \ \ldots$

Bu usul ayniqsa modulli ifodalar qatnashgan irratsional tengsizliklarni yechishda birmuncha qo‘l keladi:

Misol 3: $\sqrt{|x-3|+1} \geq 2|x-3|-1$ (8) tengsizlikni yeching?

$$\sqrt{|x-3|+1} \geq 2(|x-3|+1)-3,$$

$$\sqrt{|x-3|+1} = t,\ t \geq 1 > 0 \quad (9)$$

$$t \geq 2t^2-3,\ 2t^2-t-3 \leq 0 \quad (10)$$

$$2t^2-t-3=0 \quad (11)$$

(11) kv tenglamaning ildizlarini topamiz: $t_1 = -1$ va $t_2 = 1{,}5 \Rightarrow t\epsilon[-1;1{,}5]$ bo‘lishi kerak, ammo (9) ga ko‘ra $t_1 \neq -1$, demak:

$$t\epsilon[1;1{,}5] \Rightarrow \sqrt{|x-3|+1}\epsilon[1;1{,}5] \quad (12)$$

ifodaning ikkala tomonini kvatdatga oshiramiz:

$$(|x-3|+1)\epsilon[1;2{,}25] \Rightarrow |x-3|+1\epsilon[1;2{,}25] \Rightarrow |x-3|\epsilon[0;1{,}25] \Rightarrow$$
$$(x-3)\epsilon[-1{,}25;1{,}25] \Rightarrow x\epsilon[1{,}75;4{,}25]$$

Demak, Javob: $x\epsilon[1{,}75;4{,}25]$.

Xulosa: Irratsional tengsizliklarni yechishda uning turiga qarab, darajaga ko‘tarish, yangi o‘zgaruvchi kiritish, yoki grafik usuli qo‘llanilishi mumkin. Har bir usulning o‘ziga xos afzalliklari bor. Irratsional tengsizliklarni yechishda, balki boshqa turli masalalarda ularning tabiatiga qarab noodatiy usullardan foydalanish nafaqat murakkab masalalarni soddalashtirishga, balki inson tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Matematik tafakkur esa nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki milliy taraqqiyotning ham kalitidir. Shuning uchun har bir matematik yutuqni Vatan uchun qilingan xizmat sifatida ko‘rib, yosh avlodni matematik tafakkur va innovatsion yondashuvga o‘rgatish muhim vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A. A. Dubovik, “Matematik tahlil asoslari”, Toshkent, 2015.
2. R. I. G‘ulomov, “Oliy matematika”, Toshkent, 2018.
3. S. S. Xolmatov, “Algebra va analiz asoslari”, Toshkent, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi farmonlari va qarorlari. https://president.uz
5. Oliy ta’lim muassasalari uchun algebra darsliklari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashrlari.

O‘QUVCHILARGA KVADRAT FUNKSIYANI O‘RGATISH METODIKASI

Abrayev Dilmurod Shomurodovich,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi
matematika fani bosh o`qituvchisi
dilmurodabrayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kvadrat funksiya, uning umumiy ko‘rinishi, grafikasi va xossalari tahlil qilinadi. Kvadrat funksiyasi o‘zining grafikasi, teoremalar va amaliy qo‘llanilishi bilan muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, kvadrat funksiyasining qo‘llanilishi, fanlararo bog‘liqligi tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: kvadrat funksiya, kvadrat tenglama, koeffitsiyent, funksiyaning nollari, simmetriya o‘qi, parabolaning grafigi, parabola uchi koordinatalari, parabolaning o‘sishi va kamayish oraliqlari, to‘g‘ri chiziq, diskriminant.

Kvadrat funksiya matematikada muhim o‘rin tutadi va uning o‘rganilishi ko‘plab sohalarda, jumladan, geometriya, ayniqsa, fizikada kinematika va optikada parabolik shakllar va harakatlar tahlil qilinadi. Masalan, o‘q otish yoki tashqi kuch ta’sirida harakat qilayotgan ob’ektlarning yo‘nalishlari parabola shaklida bo‘ladi. Iqtisodiyotda esa, ishlab chiqarish va xarajatlarni optimallashtirish uchun kvadrat funksiyalar ishlatiladi. Kvadrat funksiya to‘g‘risida tushunchasi ko‘p sonli amaliy masalalarni hal qilishda yordam beradi. Uning asosiy xususiyati, grafikasi parabolaning shaklini hosil qilishidir. Kvadrat funksiyasining o‘rganilishida o‘quvchilar o‘zlarining fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, o‘z Vataniga nisbatan mas’uliyatni his qilishadi. Misol uchun, tarixiy obidalar va shaharlar o‘rtasidagi masofalarni hisoblashda kvadrat funksiyasini qo‘llash, ularga o‘z Vatanining go‘zalligini va uning madaniyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O‘rta arslarda yashab o‘tgan vatandoshimiz, buyuk faylasuf Al-Farobiy ("Ikkinchi o‘qituvchi") Aristotelning tasavvurlarini o‘rganib, o‘zining o‘tkir zehni va boy tafakkuriga tayanib mantiq va matematika sohalaridagi ko‘plab ilmiy ishlanmalarni yaratgan. Uning matematikada geometriya va mantiqqa oid izlanishlari, ayniqsa, algebraik funksiyalar va ularning geometrik tasvirlari haqidagi tushunchalarga zamin yaratgan. Kvadrat funksiyasining grafigidagi parabolaning xossalarini tushunish uchun uning geometriyadagi ishlari muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, bir so‘z bilan aytganda, Al-Farobiy kvadrat funksiya haqidagi matematik bilimlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.

Ta’rif: Kvadrat funksiya deb quyidagi ko‘rinishdagi ifodaga aytiladi:

$f(x) = ax^2 + bx + c, (a \neq 0)$. (1)

Bu yerda:

a – bosh koeffitsiyent, b – ikkinchi koeffitsiyent, c – ozod had,

$a \neq 0$, aks holda funksiya to‘g‘ri chiziq bo‘ladi.

(1) Kvadrat funksiyaning grafigi - parabola deyiladi.

Agar $a > 0$ bo‘lsa, parabola shoxlari yuqoriga qarab ochiladi, ya’ni $x\in(-\infty; x_0)$ da kamayuvchi, $x\in(x_0; \infty)$ da o‘suvchi bo‘ladi.

Agar $a < 0$ bo‘lsa, parabola shoxlari pastga qarab ochiladi, ya’ni $x\epsilon(-\infty; x_0)$ da o‘suvchi, $x\epsilon(x_0; \infty)$ da kamayuvchi bo‘ladi.

Kvadrat funksiyaning grafigini chizib o‘rganishimiz uchun uning shoxlari qaysi tomonga ochilganligi (a – bosh koeffitsiyentning ishorasi), simmetriya o‘qi ($x = x_0$), parabola uchi koordinatalari $(x_0; y_0)$, nollari ($x_1 va\ x_2$) va Oy o‘qini kesib o‘tish nuqtasi (c – ozod had) ni aniqlashimiz kerak.

Parabolaning uchi koordinatasi va simmetriya o‘qi uning xossalarini belgilaydi. Parabola uchi koordinatalari quyidagicha hisoblanadi:

$$x_0 = -\frac{b}{2a},\ y_0 = f(x_0) \qquad (2)$$

Bu yerda x_0 tepa - parabola tepasining x-koordinatasi. Parabolaning y_0-koordinatasini esa quyidagicha topish mumkin:

$$y_0 = f(x_0) = a{x_0}^2 + bx_0 + c$$

Shu tarzda, parabola uning $x = x_0$ bo‘lgan Oy o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziqdan iborat simmetriya o‘qiga simmetrik bo‘ladi.

Kvadrat funksiyaning nollarini ya’ni Ox o‘qini kesib o‘tish nuqtasini aniqlash uchun uni “0” ga tenglab kvadrat tenglama shakliga keltirib ildizlarini topib olamiz:

$$ax^2 + bx + c = 0 \qquad (3)$$

(3) Kvadrat tenglamaning ildizlari quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$x_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{D}}{2a} \qquad (4)$$

D – diskriminat, $D = b^2 - 4ac$.

Agar $D > 0$ bo‘lsa, tenglamaning ikkita haqiqiy ildizi mavjud.

Agar $D = 0$ bo‘lsa, tenglamaning bitta ikki karrali ildizi mavjud.

Agar $D < 0$ bo‘lsa, tenglama haqiqiy ildizlarga ega bo‘lmaydi.

Kvadrat funksiya analitik ko‘rinishda berilgan bo‘lsa odatda c – ozod had berilgan bo‘ladi, aks holda uni aniqlashimiz kerak. Chunki u grafikning qaysi choraklarda yotishiga bevosita aloqador.

Agar b yoki c koeffitsiyentlardan birortasi “0” ga teng bo‘lsa grafikni chizishimiz yanada osonroq kechadi.

Masalan: 1) $f(x) = ax^2 + bx = ax(x + \frac{b}{a})$ bo‘lsa nollarini hisoblash qulayroq: 0 va $-\frac{b}{a}$; koordinatalar boshidan o‘tuvchi ($c = 0$).

2) $f(x) = ax^2 + c$, $f(x) = x^2$ funksiya grafigini a marta vertikal cho‘zib c birlik yuqoriga ko‘tarish kifoya.

Masala: $f(x) = 2x^2 - 4x - 6$ funksiyani tekshiring.

Avvalo koeffitsiyentlari $a = 2$, $b = -4$, $c = -6$ ekanligini aniqlab olamiz.

$a > 0$ demak shoxlari yuqoriga ochilgan, $(0; -6)$ dan o‘tuvchi parabola.

$x_0 = -\frac{b}{2a} = -\frac{-4}{2*2} = 1$, $y_0 = f(x_0) = 2 * 1^2 - 4 * 1 - 6 = -8$, simmetriya o‘qi $x = 1$ to‘g‘ri chiziq, parabola uch koordinatalari $(1; -8)$, $x\epsilon(-\infty; 1)$ da kamayuvchi, $x\epsilon(1; \infty)$ da o‘suvchi ekan.

$D = b^2 - 4ac = (-4)^2 - 4 * 2 * (-6) = 64$ va (4) dan:

$x_{1,2} = \frac{-(-4)\pm\sqrt{64}}{2*2} = \frac{4\pm8}{4} = 1 \pm 2,$ nollari: $x_1 = -1$ va $x_2 = 3.$ Demak, $(-1; 0)$ va $(3; 0)$ nuqtalarda Ox o‘qini kesib o‘tadi.

(Ushbu ma’lumotlar orqali parabolani chizishingiz mumkin.)

Xulosa: Kvadrat funksiya matematikada muhim va keng qo‘llaniladigan mavzu hisoblanadi. Kvadrat funksiyalarining tenglamalari va ularning ildizlarini topish nafaqat matematikada, balki kundalik hayotda ham keng qo‘llaniladi. Masalan, kvadrat funksiyasi yordamida yer yuzasidagi ob’ektlar o‘rtasidagi masofa, vaqti-vaqti bilan o‘zgarmas kuchlar ta’siri ostida to‘liq aylanayotgan ob’ektning holati tahlil qilinadi. Kvadrat funksiyasining to‘g‘ri tushunilishi va qo‘llanilishi turli ilmiy va amaliy masalalarni hal qilishda yordam beradi. Kvadrat funksiyasi va uning xossalari haqida yanada chuqurroq o‘rganish, bu sohadagi bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimov, Sh.A. Xolmuhammedov, O.R. Mirzaahmedov, M.A. (2019). 9-sinf Algebra, darslik. 7-23-betlar. Toshkent.
2. Zaitov, A. Hamrayeva, R. Abdiyev, B. (2022). 10-sinf Algebra va analiz asoslari, darslik. 6-8-betlar. Toshkent.
3. Abduhamidov, A.U. Nasimov, H.A. Nosirov, U.M. Husanov, J.H. (2014). *Algebra va matematik analiz asoslari. Akademik litseylar uchun darslik*. 312-313-betlar. Toshkent.

GORIZONTGA BURCHAK OSTIDA OTILGAN JISMNING HARAKAT TENGLAMASI ORQALI FIZIK MASALALARNING ILMIY TAHLILI VA AMALIY AHAMIYATI

Obidjoniv Islomjon Mahmudjon o‘g‘li,
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Texnika va tabiatda yangi va yangi hodisalarning kashf qilinishi va ularning amalda qo‘llanilishi natijasida fizikadan astrofizika, geofizika, biofizika va shu kabilar mustaqil fanlar ajralib chiqa boshladi. Ma’lumki, fizika fanini o‘qitishning dastlabki bosqichi mexanika bo‘limidan boshlanadi. O‘quvchilar mexanika bo‘limini qanchalik puhta o‘zlashtirsa fanning keyingi bo‘limlarini ham oson o‘zlashtiradi. Ilmiy maqolamda masalalarni yechishda harakatlanayotgan jismning harakat tenglamasi orqali fizik kattaliklarni topishning qulayliklari aniq masalalar yechimi orqali ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: burchak, vektor kattaliklar, skalyar kattaliklar, oniy tezlik, koordinata, ko‘chish, uchburchak.

Ishonchim komil, biz jonajon Vatanimizga bo‘lgan cheksiz mehrimiz va sadoqatimizni muqaddas bayroq qilib, bor bilim va tajribamiz, aql-zakovatimizni ishga solib, yagona xalq, yagona millat bo‘lib, ko‘zlagan ezgu maqsadlarimizga, albatta, yetishamiz.

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Gorizontga biror α burchak ostida υ_0 tezlik bilan otilgan jismlarning murakkab harakatini ham ikkita mustaqil sodda harakatlarga ajratib tekshirish mumkin. Buning uchun harakatning boshlang‘ich tezligi υ_0 ni ϑ_{ox} gorizontal va ϑ_{oy} vertikal tashkil etuvchilarga ajratiladi. Bu υ_x gorizontal tekis harakatning tezligi bo‘lib, ϑ_y esa erkin tushish tezlanishli tekis o‘zgaruvchan harakatning oniy tezligidir. Bunday murakkab harakatning traektoriyasi ham paraboladan iborat bo‘ladi. Gorizontga biror α burchak ostida υ_0 tezlik bilan otilgan jismning ϑ_{ox} va ϑ_{oy} tashkil etuvchi tezliklari quyidagiga teng:

$$\left.\begin{aligned}\upsilon_{ox} &= \upsilon_0 \cos\alpha \\ \upsilon_{oy} &= \upsilon_0 \sin\alpha\end{aligned}\right\}$$

Jismning vertikal yo‘nalishda harakat tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$y = h_0 + v_{0y} \cdot t + \frac{g_y t^2}{2}$$

Ko‘rib turganingizdek masalalar yechishda jismning harakat tenglamasi tuzib ishlansa masalalarni yechishda nomalum fizik kattaliklarni topish osonlashadi. Ayniqsa olimpiada masalalarini yechishda bu juda qo‘l keladi. Quyida ushbu usullardan foydalanishni aniq masalalar misolida tushuntirib o‘tamiz:

1. Granata 10 m masofadagi 6 m balandlikdagi to‘siqdan o‘tib ketishi uchun, uni 2 m balandlikdan, gorizontga 30^0 burchak ostida, qanday minimal tezlik bilan otish kerak?

Berilgan: $\boldsymbol{d = 10\ m\ ;\ h = 6\ m\ ;\ h_0 = 2\ m\ ;\ \alpha = 30^o\ ;\ v_0 = ?}$



Boshlang‘ich tezlikning minimal qiymatida granataning devor ustidan o‘tayotgandagi tezligi gorizontal yo‘naladi:

$v = v_x$ (1) ; $v_x = v_0 cos\alpha$

Xarakat tenglamalarini tuzaylik:

$x = v_x \cdot t + \frac{g_x t^2}{2}$ => $x = v_0 cos\alpha \cdot t$ (2)

$y = h_0 + v_{0y} \cdot t + \frac{g_y t^2}{2}$; $v_{0y} = v_0 sin\alpha$; $g_y = -g$ => $y = h_0 + v_0 sin\alpha \cdot t - \frac{gt^2}{2}$ (3)

Granataning devor ustidan o‘tish momenti uchun: $x = d$; $y = h$ =>

$d = v_0 cos\alpha \cdot t$ (4) => $t = \frac{d}{v_0 cos\alpha}$ => (5) ga qo‘yib :

$h = h_0 + v_0 sin\alpha \cdot t - \frac{gt^2}{2}$ (5) => $h = h_0 + v_0 sin\alpha \cdot \frac{d}{v_0 cos\alpha} - \frac{g\left(\frac{d}{v_0 cos\alpha}\right)^2}{2}$ =>

$\frac{gd^2}{2v_0^2 \cos^2\alpha} = h_0 + d \cdot tg\alpha - h$ => $\boldsymbol{v_0 = \sqrt{\frac{gd^2}{2(h_0 + d \cdot tg\alpha - h)\cos^2\alpha}}} =$

$\sqrt{\frac{10 \cdot 10^2}{2 \cdot \left(2 + 10 \cdot \frac{\sqrt{3}}{3} - 6\right) \cdot \left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2}} = 19.4$ m/s

2. Fudbolchi to‘pni tepadi, shundan so‘ng to‘p ufqqa 30^0 burchak ostida 13 m/s tezlik bilan uchadi. Agar zarba darvozadan 11 m masofada berilgan bo‘lsa , gol bo‘ladimi? Darvoza balandligi 2.2 m (darvozabon yo‘q).



Berilgan: $\boldsymbol{\alpha = 30^o}$; $\boldsymbol{v_0 = 13\ m/s}$; $\boldsymbol{d = 11\ m}$; $\boldsymbol{h = 2.2\ m}$;

Go‘l bo‘lish sharti: $x = d$ da $y < h$

$x = v_0 cos\alpha \cdot t$ (1) ; $y = v_0 sin\alpha t - \frac{gt^2}{2}$ (2) =>

$y = x \cdot tg\alpha - \frac{gx^2}{2v_0^2 \cos^2\alpha} = 11 \cdot \frac{\sqrt{3}}{3} - \frac{10 \cdot 11^2}{2 \cdot 13^2 \cdot \left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2} =$

$= 1.57$ m < 2.2 => $y < h$ =>

3. Balandligi 8 m bo‘lgan sport zalida koptokni 20 m/s tezlik bilan tepilganda qanday maksimal masofagacha borishi mumkin? Uchish vaqtida koptok shiftga tegmasligi kerak.

Berilgan: $\boldsymbol{H \le 8\ m}$; $\boldsymbol{v_0 = 20\ m/s}$; $\boldsymbol{L_{max}}$ =?



Koptokning harakat davomidagi maksimal ko‘tarilish balandligi sport zal balandligiga teng deb olganimizda uchish uzoqligi maksimal bo‘ladi: $\boldsymbol{H = 8\ m}$

$L = v_x \cdot t_u$ (1) ; $v_x = \sqrt{v_0^2 - v_{0y}^2}$ (2) ;

$H = \frac{v_{0y}^2}{2g}$ (3) ; $H = \frac{gt_u^2}{8}$ (4)

(2) va (3) dan => $v_x = \sqrt{v_0^2 - 2gH}$; (4) dan => $t_u = \sqrt{\frac{8H}{g}}$ =>

(1) ifodaga qo‘yib: $L = \sqrt{v_0^2 - 2gH} \cdot \sqrt{\frac{8H}{g}} = \sqrt{\frac{8v_0^2 H}{g} - 16H^2}$

$$L = \sqrt{8H\left(\frac{v_0^2}{g} - 2H\right)} = \sqrt{8 \cdot 8 \cdot \left(\frac{20^2}{10} - 2 \cdot 8\right)} = 8 \cdot \sqrt{24} = 8 \cdot 4.9 = 39.2\ m$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020. https://president.uz/oz/lists/view/4057
2. Сборник задач по физике. 10-11 классы/Авт.-сост.Е.Г.Московкина, В.А.Волков.-М.:ВАКО,2017.
3. M.Ismoilov, M.Yunusov “Elementar fizika kursi” Toshkent o‘qituvchi nashiryoti
4. A.G‘aniyev, A.Avliyoqulov,G.Almardonova “Fizika I qism” Toshkent o‘qituvchi nashiryoti 2010-yil

FUNKSIYA GRAFIGINI BOSQICHMA BOSQICH CHIZISH METODIKASI.

Islomov Bobur Bahodirovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi
matematika fani bosh o`qituvchisi
e-mail: bobur1991islomov@gmail.com
Tel.: +998 93 610 01 62

Annotatsiya: Ushbu maqolada funksiyalarni tekshirish va ularning grafiklarini yasash usullari bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Funksiya grafigini chizish jarayoni, jumladan, aniqlanish sohasi, qiymatlar sohasi, juftlik va toqlik, davriylik, uzilish nuqtalari, monotonlik, ekstremum qiymatlari, qavariqlik va botiqlik, assimptotalarni aniqlash kabi muhim jihatlar yoritilgan. Shuningdek, hosila yordamida funksiyaning monotonligi va ekstremumlari aniqlash usullari ko‘rib chiqilgan. Maqola matematik tahlil asosida funksiya grafigini to‘g‘ri qurish metodikasiga bag‘ishlanib, o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so`zlar: Funksiya, teorema, ta’rif, aniqlanish sohasi, qiymatlar to‘plami, assimptotalar, ekstremumlar, monotonlik, funksiya grafigi, hosila, funksiya botiqligi, funksiya qavariqligi, funksiya uzluksizligi.

Asosiy qism.

Yurtimiz istiqlolga erishgan ilk kunlardanoq, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari Vatanimiz mustaqilligi va ozodligi tufaylidir. Hozirgi kunda ilm-fanga Prezidentimiz tomonidan alohida etibor berilmoqda.

Ayniqsa, matematika, kimyo, biologiya va geologiya fanlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi biz yosh matematiklarni ilm-fan bilan shug'ullanishga ilhomlantirib yubordi.

Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasi bo'lib, uning rivoji siyosiy-huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarga bevosita ta'sir etadi hamda ijtimoiy sohalar me'yoriy mohiyatini, kamolot darajasini belgilab beradi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlatida ta'kidlanganidek, malakatimiz ta'lim tizimi xodimlari oldida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talim tarbiya jarayonini jahon andozalar darajasiga yetkazishni ta'minlash asosiy vazifa qilib qo'yilgan.

Shu ma'noda olib qaraganda, yoshlarning yangi avlodi istiqbol masalalarini kun tartibiga dadil qo'yadigan va uni yecha oladigan, fikr yurutishning yuksak madaniyatini egallagan, siyosiy hamda ijtimoiy iqtisodiy hayotda o'ziga mustaqil yo'l topa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Ushbu maqolada biz funksiya grafigini chizish sxemasini tuzish haqida to'xtalib o'tamiz. Ma'lumki,funksiya grafigini yasash bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, aniqlanish va qiymatlar sohasini topish, juft toqligini aniqlash, daviylikka tekshirish, funksiya nollarini topish, ekstremum qiymatlari, eng katta va eng kichik qiymatlari, uzulish nuqtalari, monotonlik va qavariqlik(botiqlik) oraliqlarini aniqlash, assimptotik chiziqlarni aniqlash va grafigini chizish.

1. Hosila yordamida funksiyaning monotonlik oraliqlarini aniqlash.

Avvalo, hosila yordamida funksiyaning monotonligini aniqlash mumkinligini o'rganamiz. $f(x)$ funksiya $X = (a; b)$ oraliqda aniqlangan bo'lsin.

1-teorema. $f(x)$ funksiya $(a; b)$ oraliqda chekli $f'(x)$ hosilaga ega bo'lsin. Funksiyaning shu oraliqda o'suvchi (kamayuvchi) bo'lishi uchun

$$f'(x) \geq 0 \quad (f'(x) \leq 0), \; x\epsilon(a; b) \tag{1}$$

tengsizlikni bajarilishi zarur va yetarli.

Demak, funksiyani monotonlikka tekshirganda oldin uning hosilasini topish kerak, so'ngra hosila musbat (manfiy)bo'ladigan oraliqlarni aniqlash kerak. Hosila musbat (manfiy) bo'lgan oraliqlarda funksiya monoton o'suvchi (kamayuvchi) bo'ladi.

2. Funksiyaning ekstremum qiymatlari.

$max(min)$ lotincha $maximum(minimim)$ so'zidan olingan bo'lib, eng kata (eng kichik) degan ma'noni bildiradi. Funksiyaning maksimum va minimum qiymatlar funksiyaning ekstremumi deyiladi.

2-teorema. (funksiya ektremumga ega bo'lishining zaruriy va sharti).

Agar $f(x)$ funksiya $x_0 \in (a; b)$ nuqtada chekli $f'(x_0)$ hosilaga ega bo'lib, bu nuqtada $f(x)$ funksiya ekstremumga erishsa, u holda

$$f'(x_0) = 0 \tag{2}$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Eslatma. $f(x)$ funksiya uchun biror $x^*\epsilon(a; b)$ nuqtada chakli hosila mavjud va $f'(x^*) = 0$ bo'lishidan uning x^* nuqtada ekstramumga ega bo'lishi har doim kelib

chiqavermaydi. Haqiqatdan ham $f(x)=x^3$ funksiya uchun $f'(x)=3x^2$ va $x=0$ da $f'(0)=0$ bo‘lsa ham u $x=0$ nuqtada ektramumga ega emas.

Ravshanki, funksiya hosilasini nolga aylantiruvchi nuqtalar funksiyaning statsionar (kritik) nuqtalari deb ataladi.

Funksuyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini topish.

$f(x)$ funksiya $[a;b]$ segmentda aniqlangan va uzluksiz bo‘lsin. Veyershtrassning 2-teoremasiga ko‘ra funksiyaning $[a;b]$ da eng katta va eng kichik qiymatlari mavjud bo‘ladi va bu qiymatlarga segmentni nuqtalarida erishadi.

Eslatma. $f(x)$ funksiyaning eng katta qiymatini topish uchun $f(x)$ funksiyaning $(a;b)$ dagi maksimum qiymatlari topiladi. $f(x)$ funksiyaning $[a;b]$ kesmaning chegaralaridagi $f(a)$ va $f(b)$ qiymatlari topiladi. Yuqorida topiladigan maksimum qiymatlar bilan, $f(a)$ va $f(b)$ qiymatlar taqqoslanadi. Bu qiymatlar ichida eng kattasi $f(x)$ funksiyaning $[a;b]$ kesmadagi eng katta qiymati bo‘ladi.

Yuqoridagiga o‘xshash ravishda funksiyaning eng kichik qiymati topiladi.

3. Funksiyaning botiqligi va qavariqligi hamda egilish nuqtalari.

Funsiyaning botiqligini hamda qavariqligini ikkinchi tartibli hosila yordamida (agar u mavjud bo‘lsa) tekshirish mumkin.

3-teorema. $f(x)$ funksiya $(a;b)$ intervalda botiq (qavariq) bo‘lishi uchun shu intervalning nuqtalarida

$$f''(x)\geq 0 \ \ (f''(x)\leq 0) \qquad (3)$$

tengsizlikni o‘rinli bo‘lishi zarur va yetarli.

Endi funksiya grafigining egilish nuqtalarini qaraymiz.

4-teorema. (egilish nuqta bo‘lishning zaruriy sharti).

Agar $f(x)$ funksiyaning grafigi $M\big(x_0;f(x_0)\big)$ nuqtada uzliksiz ikkinchi tartibli hosilaga ega bo‘lsa, u holda $f''(x_0)=0$ bo‘ladi.

5-teorema. (egilish nuqta bo‘lishining birinchi yetarli sharti)

$f(x)$ funksiyaning x_0 nuqtada uzluksiz, bu nuqtada chekli yoki cheksiz hosilaga ega bo‘lib, x_0 nuqtaningn biror atrofida, ya’ni

$\forall x\in U_\delta^{-}(x_0)$ uchun $f''(x)\geq 0 \ \ (f''(x)\leq 0)$;

$\forall x\in U_\delta^{+}(x_0)$ uchun $f''(x)\leq 0 \ \ (f''(x)\geq 0)$;

Tengsizliklar o‘rinli bo‘lsa, u holda $M\big(x_0;f(x_0)\big)$ nuqta $f(x)$ funksiyaning egilish nuqtasi bo‘ladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib agar x_0 nuqtada $f(x)$ funksiya differensiallanuvchi bo‘lib uning biror chap va o‘ng atrofida turli xil qat’iy qavariqlikka ega bo‘lsa, u holda x_0 nuqta $f(x)$ funksiyaning egilish nuqtasi deyiladi, funksiya grafigini egilish nuqtasini $M\big(x_0;f(x_0)\big)$ deb belgilaymiz. M_0 nuqta atrofida funksiya grafigi M_0 nuqtadan o‘tkazilgan urunmani turli tomonida joylashga bo‘ladi.

6-teorema. (egilish nuqtasi bo‘lishning ikkinchi yetarli sharti)

Agar $f''(x_0)=0$ bo‘lib, $f'''(x_0)\neq 0$ bo‘lsa, u holda $M\big(x_0;f(x_0)\big)$ nuqta $f(x)$ funksiyaning egilish nuqtasi bo‘ladi.

Demak, $y=f(x)$ funksiya grafigining egilish nuqtalarini topish qoidasi quyidagicha bo‘ladi:

Funksiyaning $f''(x)$ hosilasi topiladi;

$f(x)$ funksiyaning 2-tur kritik nuqtalari, ya'ni $f''(x)$ hosila nolga aylanadigan yoki uzilishga ega bo‘ladigan nuqtalar topiladi, topilgan kritik nuqtalar $f(x)$ funksiyaning aniqlanish sohasini oraliqlarga ajratadi. Bu oraliqlarda ikkinchi tartibli $f''(x)$ hosilaning ishorasi tekshiriladi. Agar x_0 kritik nuqta botiqlik va qavariqlik oraliqlarini ajratib tursa, x_0 nuqta funksiya grafigining egilish nuqtasi absissasidan iborat bo‘ladi.

Funksiyaning egilish nuqtalardagi qiymatlari hisoblanadi.

Funksiyani tekshirib grafigini yasash quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

1. Funksiyaning aniqlanish sohasini topish.
2. Funksiya grafigining koordinata o‘qlari bilan kesishadigan nuqtalarini (agar ular mavjud bo‘lsa) aniqlash.
3. Funksiyaning uzluksizligini aniqlash, uzilish nuqtalarini topish.
4. Funksiyaning juft-toqligini hamda davriyligini aniqlash.
5. Funksiyaning monoton araliqlarini topish.
6. Funksiyaning ekstremum qiymatlarini topish.
7. Funksiyaning qavariqlik va botiqlik oraliqlarini, shuningdek egilish nuqtalarini topish.
8. Funksiyaning grafigi asimptotalarini topish.
9. Funksiyaning qiymatlar sohasini topish.
10. Funksiya grafini chizish.

Xulosa. Funksiya grafigini chizish nafaqat matematika, balki ko‘plab ilmiy va texnik sohalarda qo‘llaniladigan muhim amaliy vositadir. Uning yordamida matematik ob'ektlarni chuqurroq tahlil qilish va ularning xulq-atvorini yaxshiroq tushunish mumkin. Funksiya grafigini chizishning nazariy asoslarini bilish orqali, o‘quvchilar va tadqiqotchilar turli xil muammolarni yechishda samarali bo‘lishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.” Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori. PQ-4708 07.05.2020 qaroriga ilova. LEX.UZ
3. Г. М. Фихтенголц. Курс дифференциалного и интегралного изчисления. Том.1. Издателство “Наука” Москва 1966 г 607 с.
4. T. Azlarov, X. Mansurov Matematik analiz. 1-qism. Toshkent “O‘qituvchi”, 1974-yil, 431 bet.
5. A. Sa'dullayev, X. Mansurov, G. Xudoyberganov, A. Varisov, R. G‘ulomov Matematik analiz kursidan misol va masalalar to‘plami. Toshkent “O‘qituvchi”, 1993-yil, 517 bet.

FIZIKADAN NAMOYISH TAJRIBALARI YORDAMIDA O‘QUVCHILARDA AMALIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Islomov Murodulla Umarovich,
Djanikulov Sherali Baxodirovich
Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi

Annotatsiya. Maqolada ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi tomonlar faoliyatlarining psixologik-pedagogik jihatlari fizikadan eksperimental mashg‘ulotlarni o‘tkazish misolida qarab chiqilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются психолого-педагогические аспекты деятелности учителя и ученика в образовательном процессе на примере проведения эксперименталных занятий по физике.

Abstract. The article examines the psychological and pedagogical aspects of the activities of the teacher and student in the educational process using the example of conducting experimental classes in physics.

Tayanch so‘zlar: fizik eksperiment, bilim darajasi, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, o‘zlashtirish darajalari, statistik tahlil.

Fizika – tabiat haqidagi umumiy fan; materiyaning tuzilishi, shakli, xossalari va uning harakatlari hamda o‘zaro ta’sirlarining umumiy xususiyatlarini o‘rganadi. Bu xususiyatlar barcha moddiy tizimlarga xos. Turli va aniq moddiy tizimlarda materiya shakllarining murakkablashgan o‘zaro ta’siriga tegishli maxsus qonuniyatlarni kimyo, geologiya, biologiya singari ayrim tabiiy fanlar o‘rganadi. Binobarin, fizika fani bilan boshqa tabiiy fanlar orasida bog‘lanish bor. Ular orasidagi chegaralar nisbiy bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan turlicha o‘zgarib boraveradi. Fizika fani texnikaning nazariy poydevorini tashkil qiladi. Fizikaning rivojlanishida kishilik jamiyatining rivojlanishi, tarixiy davrlarning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlari ma’lum ahamiyatga egadir.

Fizika fani eksperimental va nazariy fizikaga bo‘linadi. Eksperimental fizika tajribalar asosida yangi ma’lumotlar oladi va qabul qilingan qonunlarni tekshiradi. Nazariy fizika tabiat qonunlarini ta’riflaydi, o‘rganiladigan hodisalarni tushuntiradi va yuz berishi mumkin bo‘lgan hodisalarni oldindan aytib beradi. Amaliy fizika ham mavjud (masalan, amaliy optika yoki amaliy akustika). O‘rganilayotgan ob’yektlar va materiallarning harakat shakllariga qarab, fizika fani bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan elementar zarralar fizikasi, yadro fizikasi, atom va molekulalar fizikasi, gaz va suyuqliklar fizikasi, qattiq jismlar fizikasi, plazma fizikasi bo‘limlaridan tashkil topgan. O‘rganilayotgan jarayonlarga va materiyaning harakat shakllariga qarab, fizika moddiy nuqta va qattiq jism mexanikasi, termodinamika va statistik fizika, elektrodinamika, kvant mexanika, maydon kvant nazariyasini o‘z ichiga oladi.

Fizikaning rivojlanish tarixini 3 davrga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1) qadimgi zamondan XVII asrgacha bo‘lgan davr; 2) XVII asrdan XIX asr oxirigacha bo‘lgan davr. Bu davrdagi fizika fani, odatda, klassik fizika nomi bilan yuritiladi; 3) XIX asr

oxiridan hozirgi paytgacha bo‘lgan davr. Hozirgi zamon fizikasi (yoki eng yangi fizika) shu davrga mansub. Fizika umumta’lim kursining tarkibi va mazmunini psixologik-pedagogik jihatlarini tahlil qilishda, dastlab biz mazkur kursning maqsad va vazifalari aniqlashtirib olishimiz lozim. Biroq fizika umumta’limning muhim bir kursi bo‘lishiga qaramay, unda yagona o‘quv predmeti emasligini, u umumta’limning bir qismi ekanligini e’tiborga olsak, u holda fizikani o‘qitishning maqsad va vazifalari ham, umumta’lim muassasalarida nazarga olingan maqsad va vazifalari bilan belgilanishini tushinish qiyin emas.

Pedagogik jarayoniga dialektik nuqtayi nazarida qaralganda, unda "ta’lim-tarbiya beruvchi" va "ta’lim-tarbiya oluvchi" bo‘lgan ikki tomonlar o‘rtasidagi faoliyatidan iborat bir butunlikni ko‘ramiz [1-3]. Ta’lim jarayonida "ta’lim-tarbiya beruvchi" va "ta’lim-tarbiya oluvchi" tomonlar faoliyatlarining maqsadga yo‘naltirilgan va uyg‘unlashgan holda tashkil etilishi, predmet bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirilishi hamda ularda zaruriy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirilishga qaratilganligi bilan muhim sanaladi. Ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchiga berilayotgan bilimlarning mohiyatini hayotiy muhimligini ochib berilishida, jumladan ularda fizikaga ehtiyojni qiziqishtirishni shakllantirish yuzasidan motivlarni vujudga keltirishi, o‘quv materialni yaxshi anglanishini ta’minlaydi.

O‘qituvchi har bir o‘quvchining bilimlarni qabul qilish xususiyatini va bilimlarni xotirasida saqlay olish qobiliyatini va shunga ko‘ra to‘plagan bilim, ko‘nikma va malakalarining turi (nazariy bilim, ularni amaliyotga qo‘llay olish, laboratoriya mashg‘ulotlarini mustaqil bajara olish darajasi va izlanuvchanligi) va hajmidan xabardor bo‘lishi asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga topshiriq va ko‘rsatmalarni berishni rejalashtiradi. Bu hol, o‘z navbatida, o‘quvchi va ta’lim beruvchi orasidagi muhim munosabatlarda o‘zaro ishonch hamda ularda fanga bo‘lgan qiziqtirish muhiti shakllanadi. Shuning uchun ham o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi hamkorlik deyiluvchi didaktik tamoyil o‘qitishni samarali kechishini ta’minlashda muhim omil sanaladi. Didaktikada bilimlarni o‘zlashtirishni uchta turli darajaga ajratadi: birinchi daraja – qabul qilish, tushunish va esda saqlab qolish, ikkinchi daraja – olingan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish, uchinchi daraja – olingan bilimlarni notanish bo‘lgan yangi vaziyatlarda qo‘llay olish. O‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishni yuqori darajasiga chiqarish uchun bugungi kunda ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanilmoqda [4; 5].

Ma’lumki, bugungi kunda ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning ko‘pchiligi kelajakda ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatadilar. Shu bois, o‘quv muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxassislarning texnikaning asosi sanalmish fizikadan eksperimental mashg‘ulotlarida o‘quv jihozlaridan foydalanish bo‘yicha (bilim, ko‘nikma va malakalarini) kompetensiyalarni o‘zlashtirishi ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda muhim omil sanaladi [6].

Pedagogik tadqiqotlarda ko‘rsatishicha, berilgan bilim, ta’lim oluvchining o‘zlashtirishi uchun uni kamida 2-3 marotaba, fikriy faoliyatlari zaif bolalarda esa, undan ham ko‘proq topshiriq va mashqlar berish orqali takrorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Takrorlash natijasida ma’lum jarayon yuzasidan o‘quvchida

shakllanayotgan ilmiy tushuncha va bilimlar miqdoriy o‘zgarishlarni o‘tib so‘ngra aniq sifatiy tus oladi va ma’lum ma’noda, o‘quvchi ongida “uyg‘onish” jarayoni yuzaga keladi. Insonning bilish faoliyati jarayonida, uning sezgi organlari tomonidan axborotlar qayd qilinib, so‘ngra u olingan axborot va ma’lumotlarni mushohada va tahlil qilish orqali solishtiradi. Oqibatda ular yaxshi anglanilish natijasida mustahkam bilimga aylanadi. Sinfdagi barcha o‘quvchi bir xil fikrlay olmasligi bois, ularning o‘zlashtira olish qobiliyatlari ham bir xil bo‘lmasligi tabiiy. Binobarin, pedagog ta’lim oluvchining imkoniyatini hamda o‘quvchining yoshiga mos fizilogik xususiyatlarni inobatga olgan holda o‘quv jarayonini rejalashtiradi.

Olib borilgan pedagogik tajribalarda sinfdagi o‘quvchilarga eksperimental topshiriq berilganda, aksariyat ularning ko‘pchiligi, masalan, dinamometr yordamida og‘irlik kuchini o‘lchay olsada, ammo ularda ishqalanish yoki Arximed kuchini (bu kuchlarning tabiati to‘g‘risidagi bilimlar shakllangan bo‘lishiga qaramay) aniqlash ko‘nikmasi yaxshi shakllanmaganligini guvohida bo‘lamiz. Buning sababi, o‘qitishda o‘quvchidagi erishilgan fundamental bilimlarni amaliyotga qo‘llashda, asbob va o‘quv jihozlardan amaliyotda foydalanish “kompetensiya” darajasiga olib chiqilmaganligidadir.

Tajribalardan kelib chiqib, o‘quvchida fanga oid bo‘lgan, ya’ni tajribani o‘tkazish, fizik kattaliklarni o‘lchash, asboblardan amaliyotda foydalana olish va xulosalar chiqarish kompetensiyasi shakllantirish muammosini Arximed kuchini aniqlash misolida keltiramiz:

Arximed kuchini aniqlash uchun zarur bo‘lgan jihozlar: dinamometr, suyuqlik solinadigan idish (silindr shaklida), metall jism va suyuqlik (suv).

Ishni bajarishning ketma-ketligi:

1.Dinamometrga jismni iling va uning og‘irligini havoda o‘lchang. Dinamometr ko‘rsatgan qiymatni F_1 =.....deb yozib oling.

2. Dinamometrga ilingan jismni suyuqlikka tushiring. (Bunda jism suyuqlikka to‘liq botgan holda bo‘lsin, ammo jism idish tubiga tegmasin). Jism suyuqlik ichida turganda dinamometr ko‘rsatgan qiymat F_2 =..... ni ham qayd qiling.

3. F_1-F_2 kuchlar farqi Arximed kuchining qiymatini beradi. O‘lchangan natijalarga ko‘ra jismga ta’sir qilgan Arximed kuchini hisoblang.

Yuqorida keltirilgan algoritm asosida o‘quvchi tajribani 2-3 marta takroriy bajarganda unda tajribani o‘tkazish, fizik kattaliklarni o‘lchash, asboblardan amaliyotda foydalana olish va xulosalar chiqarish kompetensiyasi samarali shakllanadi.

Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyida olib borilgan pedagogik tajriba natijasi 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Arximed kuchini aniqlash bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarining natijalari

Baho ko‘rsatkichlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi	
	Dastlabki nazorat	Yakuniy nazorat	Dastlabki nazorat	Yakuniy nazorat
5	4	5	5	16

4	22	20	21	20
3	21	23	20	13
2	3	2	4	1
O‘rtacha baho	**3,54**	**3,56**	**3,54**	**4,02**

Izoh:Tajriba guruhi – Tajriba o‘tkazilayotgan guruhlar, jami 50 nafar o‘quvchi.

Nazorat guruhi – Tajriba guruhiga teng kuchli bo‘lgan parallel guruhlar, jami 50 nafar o‘quvchi.

Dastlabki nazorat – Eksperiment o‘tkazishdan oldingi nazorat.

Yakuniy nazorat – Eksperimentdan keyin o‘tkazilgan nazorat.

1-jadvaldagi tajriba va nazorat guruhlari bo‘yicha qayd etilgan natijalar asosida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligi va samaradorligini o‘rganish maqsadida matematik-statistik tahlil amalga oshirildi. Tajriba guruhida o‘zlashtirish ko‘rsatgichi dastlabki nazoratga nisbatan 13,6 % ga, nazorat guruhiga nisbatan 12,9% ga oshganligi kuzatildi.

Xulosa.

1. O‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi ta’minlangan tartibli va mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilgan o‘qitish metodi joriy etiliishi, o‘qitish jarayonining bosh vazifalaridan bo‘lgan – ta’limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalariga qat’iy amal qilishni ta’minlaydi.

2. Ta’lim jarayonida bilishning nazariy va empirik metodlarining birligi prinsipi etib, o‘qitishda fizikadan nazariy va amaliy bilimlarni optimal uyg‘unligi asosida tashkil etilgan barcha amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar tomonidan erishilgan bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va malakalarning shakllanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

3. O‘quvchilarning o‘z faoliyatlarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilish qobiliyatini faollashtirish, dars samaradorligini oshirish, mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish masalalari, yangi pedagogik qarashlar, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida amalga oshirishni taqazo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Выготский Л.С., Психология: учеб. пособие / Л.С.Выготские. -М.:/ Апрел Пресс; М.: ЭКСМО-Пресс, 2002.
2. Сластенин В.А.Общая педагогика: учеб. пособие: в 2 ч. / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов. - М.: Владос,2003.
3. Abdullayeva Sh., Xolmamatova L.A. Pedagogika. o‘quv qo‘llanma.-T., 2005.
4. Djo‘rayev M. Fizika o‘qitish metodikasi. - Toshkent. “Abu matbuot-konsalt”, 2015. – 276 b.
5. Хуторский А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – М.: Изд. МГУ, 2003. – 416 с.
2. Usarov J.E. Kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini amaliyotga joriy etish: muammo va yechimlar // Fizika, matematika va informatika. T.:2016, №6. – 40-48 b.

YEVKLID FAZOSIDA CHIZIQLI ALMASHTIRISHLAR.

Jo‘rayev Elmurod Xo‘shmurodovich,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi
matematika fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yevklid fazosida chiziqli almashtirishlarga oid boshlang‘ich tushunchalar keltirib o‘tilgan. Chiziqli almashtirish, bazisdagi matritsa hamda nol almashtirishlarning ta’riflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yevklid fazosi, nol almashtirish, bazisdagi matritsa, nol element, vektor, chiziqli erkli vektor, Yevklid fazo.

Ushbu maqolada biz chiziqli fazoda aniqlangan akslantirishlar ichida muhim o‘rin egallaydigan chiziqli almashtirish tushunchasi o‘rganamiz.

1-ta’rif. n o‘lchamli V fazoda aniqlangan $A: V \to V$ akslantirish uchun

1) $A(x_1 + x_2) = A(x_1) + A(x_2)$;

2) $A(\lambda x) = \lambda A(x)$

shartlar bajarilsa, u holda A akslantirish chiziqli almashtirish deyiladi.

Odatda A chiziqli almashtirishning qiymati $A(x)$ o‘rniga Ax yoziladi.

1-misol. a) uch o‘lchamli $\mathbb{R}^3$ Yevklid fazosida vektorni koordinata boshidan o‘tadigan biror o‘q atrofida burishdan iborat bo‘lgan almashtirishni qaraymiz. Bunda har bir x vektorga uni burishdan so‘ng hosil bo‘lgan $A(x)$ vektorni mos qo‘yamiz. Bu moslik 1) va 2) shartlarni qanoatlantirishini tekshirish qiyin emas.

Masalan, 1) shartni tekshirib ko‘raylik: $A(x_1 + x_2)$ ifoda avval x_1 hamda x_2 vektorlarning qo‘shilishini, so‘ngra hosil bo‘lgan vektorning burilishini bildiradi. $Ax_1 + Ax_2$ esa avval x_1 hamda x_2 vektorlarning burilishini, so‘ngra ularning qo‘shilishini bildiradi. O‘z-o‘zidan ravshanki, ikkala holda ham natija bir xil bo‘ladi. Demak, A akslantirish chiziqli almashtirish bo‘ladi.

b) Bizga $\mathbb{R}^3$ Yevklid fazosi va uning koordinatalar boshidan o‘tuvchi biror tekisligi bo‘lgan V_1 qism fazosi berilgan bo‘lsin. Ixtiyoriy $x \in \mathbb{R}^3$ vektorga uning bu tekislikdagi $x_1 = Ax$ proeksiyasini mos qilib qo‘yamiz. Bu moslik ham chiziqli almashtirish bo‘ladi.

c) $[0,1]$ segmentda uzluksiz funksiyalardan iborat fazoni qaraylik. Bu fazoda aniqlangan $Af(t) = \int_0^t f(s)ds$ akslantirish chiziqli almashtirish bo‘ladi. Haqiqatdan ham,

$$A\big(f_1(t) + f_2(t)\big) = \int_0^t [f_1(s) + f_2(s)]ds =$$

$$= \int_0^t f_1(s)ds + \int_0^t f_2(s)ds = Af_1(t) + Af_2(t),$$

$$A(\lambda f(t)) = \int_0^t \lambda f(s)ds = \lambda \int_0^t f(s)ds = \lambda A f(t).$$

Endi chiziqli almashtirishlar ichida alohida ro‘l o‘ynovchi quyidagi 2 ta sodda almashtirishlarni keltiramiz. Ixtiyoriy vektorga shu vektorning o‘zini mos qo‘yuvchi E almashtirish, birlik almashtirish deyiladi, ya’ni

$Ex = x.$

Ixtiyoriy x vektorga nol vektorni mos qo‘yuvchi Θ almashtirish nol almashtirish deyiladi, ya’ni

$$\Theta(x) = 0$$

n o‘lchamli V chiziqli fazoda A chiziqli almashtirish berilgan bo‘lib, $e_1, e_2, \dots, e_n$ chiziqli fazo bazisi bo‘lsin.

1.1-tasdiq. Berilgan $g_1, g_2, \dots, g_n$ vektorlar uchun

$$Ae_1 = \mathrm{g}_1, Ae_2 = \mathrm{g}_2, \dots, Ae_n = \mathrm{g}_n$$

shartni qanoatlantiruvchi A chiziqli almashtirish mavjud va yagona.

Isbot. Dastlab, A chiziqli almashtirish Ae_1, Ae_2, ..., Ae_n vektorlar orqali bir qiymatli aniqlanishini ko‘rsatamiz. Haqiqatdan ham, V fazodan olingan ixtiyoriy

$$x = \xi_1 e_1 + \xi_2 e_2 + \cdots + \xi_n e_n$$

vektor uchun

$$Ax = (\xi_1 e_1 + \xi_2 e_2 + \cdots + \xi_n e_n) = \xi_1 Ae_1 + \xi_2 Ae_2 + \cdots + \xi_n Ae_n$$

bo‘ladi. Demak, Ax vektor $g_1, g_2, \dots, g_n$ vektorlar orqali bir qiymatli aniqlanadi.

Endi har qanday $g_1, g_2, \dots, g_n$ vektorlar uchun $Ae_1 = g_1$ tenglikni qanoatlantiradigan A chiziqli almashtirish mavjudligini ko‘rsatamiz.

Buning uchun ixtiyoriy $x = \xi_1 e_1 + \xi_2 e_2 + \cdots + \xi_n e_n$ vektorga $\xi_1 \mathrm{g}_1 + \xi_2 \mathrm{g}_2 + \cdots + \xi_n \mathrm{g}_n$ vektorni mos qilib qo‘yamiz. x vektor e_i bazis vektorlar orqali bir qiymatli ifoda etilgani uchun, unga muayyan bir Ax vektor mos qo‘yiladi. Bunday aniqlangan akslantirish chiziqli almashtirish bo‘ladi.

Chiziqli almashtirishlar va matritsalar orasidagi bog‘lanishni aniqlaymiz. Yuqoridagi tasdiqdan ixtiyoriy $g_1, g_2, \dots, g_n$ vektorlar uchun $Ae_1 = g_1, Ae_2 = g_2, \dots, Ae_n = g_n$ shartni qanoatlantiruvchi chiziqli almashtirish yagona ravishda aniqlanishiga ega bo‘ldik. g_k vektorning e_1, e_2, ..., e_n bazisdagi koordinatalarini $a_{1,k}$, $a_{2,k}$, ..., $a_{n,k}$ orqali belgilaylik, ya’ni

$$\mathrm{g}_k = Ae_k = \sum_{i=1}^{n} a_{i,k} e_i.$$

Ushbu $a_{i,k}$ koeffitsientlar orqali $(a_{i,k})$ matritsani hosil qilamiz. Hosil qilingan matritsa A chiziqli almashtirishning e_1, e_2, ..., e_n *bazisdagi matritsasi* deb aytiladi.

Shunday qilib, berilgan e_1, e_2, ..., e_n bazisda har bir A chiziqli almashtirishga $(a_{i,k})$ matritsa bir qiymatli mos qo‘yilishiga ega bo‘ldik. Demak, chiziqli almashtirishlarni matritsalar yordamida tasvirlash mumkin. Lekin ushbu matritsa bazisga bog‘liq ekanligini, bazis o‘zgarganda esa matritsaning ham o‘zgarishini ta’kidlab o‘tish joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ayupov Sh.A., Omirov B. A., Xudoyberdiyev A. X., Haydarov F. H. “Algebra va sonlar nazariyasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019 y.
2. Rasulov, T.H., Rashidov, A.Sh. Oliy matematika. O‘quv qo‘llanma. Buxoro-2022 Axborot manbalari.
3. www.pedagog.uz
4. www.edu.uz

UMUMTA’LIM MAKTABLARI FIZIKA DARSLARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI NAMUNAVIY TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Djumayev Yusup Abramatovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi fizika fani bosh o`qituvchisi
djumayevyusuf4@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqola umummta’lim maktablari fizika darslarida xalqaro baholash dasturlari namunaviy topshiriqlaridan foydalanish metodikasini o‘rganadi. Maqola o‘quvchilarning bilimlarini baholashda xalqaro standartlarga asoslangan metodlarni qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari orqali o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash, ularning bilim darajasini oshirish hamda ta’lim sifatini yaxshilash yo‘llari tahlil qilinadi. Ushbu metodika, o‘qituvchilarga fizika fanini samarali o‘rgatish, darslarni interaktiv va qiziqarli tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Umummta’lim maktablari, fizika darslari, xalqaro baholash dasturlari, metodika, namunaviy topshiriqlar, ta'lim sifatini oshirish, o‘quvchilar bilimini baholash, ta'limda innovatsiyalar.

Respublikamizda ta’lim tizimini isloh qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish ta’lim tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilangan[1].

Zamonaviy dunyoda, doimiy ravishda o‘sib borayotgan ma’lumotlar hajmi va mehnat bozorining doimiy yangilanishi sharoitida biz yaqin kelajakda qanday kasblar talab qilinishini aniq ayta olmaymiz. Jahon mehnat bozorida

raqobatbardoshligini ta’minlash uchun biz o‘quv jarayonini hozirgi zamonaviy natijalarga yo‘naltirishimiz, mustaqil fikrlaydigan, kelajakni yaratishga qodir, zamonaviy voqelikdan kelib chiqib, o‘z kasbiy malakasini qayta qurishga qodir insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunga erishish uchun har bir o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida davlat ta’lim standartida belgilangan natijalarga erishishga e’tibor qaratishi kerak. Bu talablar ta’lim sifatini baholashning xalqaro yondashuvlariga mos keladi. Bilim olish, birinchi navbatda, o‘quvchilarda ko‘p funksiyali savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayon bo‘lib, fizika tabiiy fanlar siklidagi o‘quv predmeti sifatida natijaga erishishning muhim bo‘g‘inidir.

O‘quv fanining fan komponentini o‘rganish va olingan bilimlarni amaliyotda, hayotda, jamiyatda qo‘llashda universal o‘quv faoliyatidan foydalanish samaradorligini baholash muhim.

Qanday ko‘nikmalar ilmiy savodxonlikni tavsiflaydi? Birinchidan, bu ilmiy bilimlar asosida tabiiy ilmiy hodisalarni tasvirlash yoki tushuntirish va bashorat qilish qobiliyati; ikkinchidan, tabiiy ilmiy tadqiqot usullarini qo‘llash va ma’lumotlarni sharhlash; uchinchidan, xulosani ilmiy dalillarga asoslash.

Ilmiy savodxonlikni ko‘rsatishning odatiy shartlari topshiriqda tasvirlangan vaziyat o‘quvchilar uchun notanish materialni ifodalaydi, ular bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini namoyish etishlari so‘raladi. Masalan:

1-savol: Bronza yoki keramika idishlarning qaysi biridan issiq suvni ichish osonroq? Sababini tushuntiring.

2-savol: Varaqning qalinligini aniqlash uchun o‘quvchi 50 varaqdan iborat bo‘lakning balandligini o‘lchagich bilan o‘lchadi va bu 1 sm ga teng bo‘ldi. Agar o‘lchagich xatoligi ±1 mm bo‘lsa, bu o‘lchovlar natijalariga ko‘ra qog‘oz varag‘ining qalinligi qancha? Javob: (±) mm.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning fizik mazmundagi matnli axborotlar bilan ishlash qobiliyatini, olingan bilimlarni qurilmani tavsiflash va turli texnik obyektlarning ishlash tamoyillarini tushuntirish uchun qo‘llash qobiliyatini tekshiradi[2].

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassislari bugungi kunda ta’lim tizimi uchun talablar juda muhim ekanini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy mamlakatlarda ta’lim va ilm-fan rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg‘or tajribalarni o‘rganish lozim[3]. Bugungi kunga qadar o‘tkazilgan so‘rovlar, so‘rovnomalar va monitoringlar o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va tahliliy tafakkurini rivojlantirishga, shuningdek, o‘qish savodxonligini shakllantirishga qaratilgan ta’lim va tarbiyani yanada takomillashtirish va yondashuvlar zarurligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida“ PF-5712-son farmoni.

2. Норба Е. А. Совершенствование методики преподавания физики на основе анализа мониторинговых процедур // Научно-методический электронный журнал «Калининградский вестник образования». - 2020. - № 3 (7) / сентябр. С. 32-43.
3. Зацепин Алексей Владимирович, Козлова Лола Салимбековна Международные программы, используемые для определения качества знаний в системе образования Республики Узбекистан // Педагогика. Психология. Философия. 2021. №4 (24).

PISADA TABIIY FANLAR BO‘YICHA SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARI

Djumayev Yusup Abramatovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi fizika fani bosh o`qituvchisi
djumayevyusuf4@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqola PISA (Xalqaro talim baholash dasturi) dasturi asosida tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning savodxonlik kompetensiyalarini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada tabiiy fanlar, xususan, fizika, kimyo, biologiya va astronomiya bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash uchun PISA dasturining qanday ishlashiga tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlikni rivojlantirishning muhimligi, bu kompetensiyalarni shakllantirishda o‘qituvchilarning roli va savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta'lim metodlari muhokama qilinadi. PISA dasturi orqali o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajasi o‘rganilib, zamonaviy ta’lim tizimining ahamiyatli jihatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, tabiiy fanlar, savodxonlik, kompetensiya, baholash, ta'lim metodikasi, o‘quvchilar bilimlari, kompetensiyalarni rivojlantirish, PISA dasturi, ta'lim sifatini oshirish.

Ilmiy savodxonlik insonning tabiiy fanlarga oid masalalarda faol fuqarolik pozitsiyasini egallash qobiliyati va uning ilmiy g‘oyalarga qiziqishi hisoblanadi. Bugungi bir-biriga bog‘langan, rang-barang va tez o‘zgarib borayotgan dunyoda yoshlar iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, raqamli, demografik, ekologik va hatto epidemiologik omillar ta’sirida voyaga yetmoqda. Global miqyosdagi muammo va qarama-qarshiliklar davri yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va shu bilan birga, yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Global muammolarni hal qilish har bir ishtirokchining global malakasini namoyish etadigan xalqaro hamkorlikni talab qiladi. PISA tadqiqotida global kompetentsiya quyidagi kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali qobiliyat sifatida aniqlanadi: global va madaniyatlararo muammolarni o‘rganish, turli dunyoqarash va istiqbollarni tushunish va qadrlash, boshqalar bilan muvaffaqiyatli va hurmatli munosabatda bo‘lish, jamoaviy farovonlik va barqaror rivojlanish uchun harakat qilish qobiliyati[1].

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligi insonning tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid masalalarni asosli muhokama qilishda ishtirok etish istagini va quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi(1-rasm):

hodisalarni ilmiy tushuntirish;

tabiiy fanlar tadqiqotining xususiyatlarini tushunish;

ma’lumotlarni sharhlash va xulosalar chiqarish uchun ilmiy dalillardan foydalanish.

Ilmiy savodxonlikni tavsiflovchi kompetensiyalar topshiriqdagi savol orqali bevosita tekshirilishi mumkin bo‘lgan aniq ko‘nikmalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalarni ilmiy savodxon shaxs amalga oshirishga qodir bo‘lgan asosiy harakatlar majmuasi sifatida ko‘rish mumkin.

Kompetensiyaning asosini tushuntirish, argumentlash, prognozlash va asoslash ko‘nikmalari bilan chuqurlashtiriladigan mazmun bilimlari tashkil etadi. Ushbu kompetensiya to‘rt turdagi ko‘nikmalarni baholaydi.



1-rasm. Tabiiy fanlar kompetensiyalari

Hodisani tushuntirish uchun tegishli ilmiy bilimlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Buni baholash bo‘yicha vazifalar dastur materialidan bevosita foydalanish mumkin bo‘lgan juda standart vaziyatning tavsifini taklif qiladi. Funksional savodxonlik bo‘yicha o‘quv maqsadi va topshirig‘iga misol keltirilgan.

Quyidagi diagrammada inson ko‘zining vertikal qismi ko‘rsatilgan(2-rasm).

Yorqin quyosh nuri ostida uzoqdagi obyektlarga qaraganimizda, quyidagi kombinatsiyalardan qaysi biri bizning ko‘z qorachig‘imiz hajmini va linzaning qalinligini to‘g‘ri tavsiflaydi?



2-rasm.

	Qorachiqning o‘lchami	Ko‘z gavharining qalinligi
A	Ortadi	qalinlashadi
B	Ortadi	ingichka bo‘ladi
C	Kamayadi	qalinlashadi
D	Kamayadi	ingichka bo‘ladi

Vazifa ko‘zning yorug‘likka moslashish (ko‘z akkomodatsiyasi) tamoyillarini bilishni talab qiladi va o‘quvchilardan olgan bilimlarini qo‘llashni talab qiladi. Bunda o‘quvchilarda vizual idrok haqidagi bilimlar tizimi orqali tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish shakllanadi[2]. Salomatlikni saqlaydigan komponent o‘quv maqsadini to‘ldiradi va shaxsiy kontekst bilan muvaffaqiyatli birlashtirilishi mumkin. Vazifaning funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilganligi va ilmiy bilimlarni qo‘llash qobiliyatini ochib beradigan ko‘rsatkich uning hayotiy vaziyat bilan bog‘liqligidir. Bunday turdagi topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarni tez javob berishga va bilimlarni qo‘llashga undaydi, ammo chuqurroq ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun erkin tuzilgan javob bilan mazmunli vazifalardan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Функционалная грамотност: Глобалные компетенции. Отчет по результатам международного исследования PISA-2018. Москва. – 2020.
2. Методические рекомендации по развитию естественнонаучной грамотности учащихся. Нур-Султан: филиал «Центр образовательных программ» АОО «Назарбаев Интеллектуалные школы», 2020. – 56 с.

TEXNIKAVIY MASALALARNI YECHISHDA ANIQ INTEGRALNI QO‘LLASH

Kenjayev Sharof Shermuxamatovich
Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi, kenjayevsharof@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada matematika fanidagi moddiy nuqtaning statik momenti va og‘irlik markazi, tekis egri chiziqning statik momenti va og‘irlik markazi, tekis figuralarning statik momenti va og‘irlik markazi, kuch ishini hisoblash, ularni talabalar tomonidan fanni o‘rganishdagi o‘rni, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotga qo‘llashdagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zalar: Moddiy nuqtaning statik momenti, moddiy nuqtaning o‘g‘irlik markazi, tekis egri chiziqning statik momenti, tekis egri chiziqning o‘g‘irlik markazi.

Moddiy nuqtaning statik momenti va og‘irlik markazi. XOY koordinatalar tekisligida quyidagi moddiy nuqtalar sistemasi berilgan bo‘lsin:

$A_1(x_1; y_1), A_2(x_2; y_2), \dots, A_n(x_n; y_n)$ (1)

Bu nuqtalarning massalari mos ravishda

$m_1, m_2, \dots, m_n$ (2)

dan iborat bo‘lsin. U holda, moddiy nuqtalarning OX o‘qqa nisbatan statik momenti (M_x) quyidagidan iborat bo‘ladi:

$$M_x = m_1 y_1 + m_2 y_2 + \cdots + m_n y_n \qquad (3)$$

yoki

$$M_x = \sum_{i=1}^{n} m_i y_i = m y_c \qquad (3')$$

OY o‘qqa nisbatan statik momenti esa

$$M_y = m_1 x_1 + m_2 x_2 + \cdots + m_n x_n \qquad (4)$$

yoki

$$M_y = \sum_{i=1}^{n} m_i x_i = m x_c \qquad (4')$$

$m = m_1 + m_2 + \cdots m_n$ bo‘lganda $(x_c;\ y_c) = \left(\frac{M_y}{m};\ \frac{M_x}{m}\right)$ koordinatali nuqtaga moddiy nuqtalar sistemasining *og‘irlik markazi* deyiladi.

Og‘irlik markazining koordinatalari $(3')$ va $(4')$ larga asosan quyidagi formulalar orqali topiladi:

$$x_c = \frac{M_y}{m} = \frac{\sum_{i=1}^{n} m_i y_i}{\sum_{i=1}^{n} m_i} \qquad (5)$$

$$y_c = \frac{M_x}{m} = \frac{\sum_{i=1}^{n} m_i x_i}{\sum_{i=1}^{n} m_i} \qquad (6)$$

Tekis egri chiziqning statik momenti va og‘irlik markazi. $[a; b]$ oraliqda uzluksiz hosilaga ega bo‘lgan AB egri chiziqli $f(x)$ funksiya berilgan bo‘lib, u L uzunlikka ega bo‘lsin. Bunda AB egri chiziqni bir jinsli, ya’ni chiziqli zichligi ρ o‘zgarmas, soddalik uchun $\rho = 1$ deb qaraymiz.

AB egri chiziqning OX va OY o‘qlarga nisbatan statik momentlarini hamda egri chiziqning og‘irlik markazini topamiz. Buning uchun AB egri chiziqni $A = A_0(x_0;\ y_0), A_1(x_1;\ y_1), \dots, A_n(x_n;\ y_n) = B$ nuqtalar orqali n ta bo‘lakka ajratamiz. Bu nuqtalarga l parametrning

$$l_0 = 0 < l_1 < l_2 < \dots < l_n = L$$

qiymatlari mos kelsin. l parametr A nuqtadan boshlangan yoydan iborat. $A_i A_{i+1}$ yoyning uzunligini

$$\Delta l_i = l_{i+1} - l_i,$$

shu yoyning massasini esa Δm_i bilan belgilaymiz. U holda, $\rho = 1$ bo‘lganda massa quyidagicha bo‘ladi:

$$\Delta m_i = \rho \cdot \Delta l_i = \Delta l_i.$$

Qism yoyning uzunligini moddiy nuqta deb qarasak, u holda, uning og‘irlik markazi unga mos keladigan qism yoy uzunligiga teng bo‘ladi, ya’ni $\Delta m_i = \Delta l_i$. Moddiy nuqtaning OX o‘qdan y_i, OY o‘qdan esa x_i masofalarda yotganligini e’tiborga olsak, quyidagi tenglamalar o‘rinli bo‘ladi:

$$\begin{cases} \Delta M x_i = y_i \Delta m_i = y_i \cdot \Delta l_i \\ \Delta M y_i = x_i \Delta m_i = x_i \cdot \Delta l_i \end{cases} \text{ va}$$

$\Delta l_i \approx \sqrt{1+\left(f'(x_i)\right)^2}\cdot x_i$ bo‘lganligi sababli,

$$\begin{cases}\Delta M x_i \approx f'(x_i)\sqrt{1+\left(f'(x_i)\right)^2}\cdot \Delta x_i \\ \Delta M y_i \approx x_i\sqrt{1+(f'^{(x_i)})^2}\cdot \Delta x_i\end{cases} \quad \text{va}$$

U holda, AB egri chiziq bo‘laklari yig‘indisining $\lambda = \max\limits_{1\le i\le n}\{\Delta l_i\}\to 0$ dagi limitlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

$$M_x = \lim_{\lambda\to 0}\sum_{i=1}^{n} f(x_i)\Delta l_i = \int_a^b f(x)\sqrt{1+\left(f'(x)\right)^2}\,dx, \qquad (7)$$

$$M_y = \lim_{\lambda\to 0}\sum_{i=1}^{n} x_i\cdot\Delta l_i = \int_a^b x\sqrt{1+\left(f'(x)\right)^2}\,dx, \qquad (8)$$

$$m = l = \int_a^b \sqrt{1+\left(f'(x)\right)^2}\,dx. \qquad (9)$$

(5)-(9) formulalardan foydalanib, tekis egri chiziq og‘irlik markazining formulalarini hosil qilamiz:

$$x_c = \frac{\int_a^b x\sqrt{1+\left(f'(x)\right)^2}\,dx}{\int_a^b \sqrt{1+\left(f'(x)\right)^2}\,dx}, \qquad (10)$$

$$y_c = \frac{\int_a^b f(x)\sqrt{1+\left(f'(x)\right)^2}\,dx}{\int_a^b \sqrt{1+\left(f'(x)\right)^2}\,dx}. \qquad (11)$$

Agar $f(x)$ ni $y = f(x)$ va $L = \int_a^b \sqrt{1+\left(f'(x)\right)^2}\,dx$ ekanligini e’tiborga olsak, (10) va (11) ni soddalik uchun quyidagi ko‘rinishlarda yozish ham mumkin:

$$x_c = \frac{\int_a^b x\sqrt{1+(y')^2}\,dx}{L}, \qquad (12)$$

$$y_c = \frac{\int_a^b y\sqrt{1+(y')^2}\,dx}{L}. \qquad (13)$$

(13) formuladan:

$$L\cdot y_c = \int_a^b y\sqrt{1+(y')^2}\,dx \qquad (14)$$

hosil bo‘ladi. (14) ning ikkala tomonini 2π ga ko‘paytirib, quyidagi formulaga ega bo‘lamiz:

$$2\pi y_c\cdot L = 2\pi\int_a^b y\sqrt{1+(y')^2}\,dx, \qquad (15)$$

(15)ning chap tomoni y_c radiusli aylana uzunligini, o‘ng tomoni esa AB yassi egri chiziqning OX o‘qi atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan sirt yuzasini ifodalaydi, ya’ni $2\pi y_c l = S$.

Demak, $L = \int_a^b y\sqrt{1+(y')^2}dx$ *yoy uzunligining,* $S = 2\pi\int_a^b y\sqrt{1+(y')^2}dx$ esa *aylanma jism sirtining yuzini* topish formulasidir.

Tekis egri chiziqni shu chiziq bilan kesishmaydigan biror o‘q atrofida aylantirishdan hosil qilingan sirtning yuzi bu chiziq uzunligini C og‘irlik markazi tomonidan chizilgan aylana uzunligiga ko‘paytirilganiga tengdir.

Tekis figuralarning statik momenti va og‘irlik markazi. $[a, b]$ oraliqda $x = a$ va $x = b$ to‘g‘ri chizig‘lar hamda OX o‘q bilan chegaralangan, manfiymas egri chiziqli trapetsiya $y = f(x)$ funksiya orqali berilgan. Egri chiziq massasi $\rho = 1$ zichlikda uzluksiz taqsimlangan bo‘lsin. U holda, egri chiziqli trapetsiyaning massasi uning yuzasini son qiymatiga teng. Egri chiziqli trapetsiyaning statik momentlari M_x va M_y ni topish uchun uni $x_i = a + \frac{b-a}{n}i$ $(i = 0,1,2,\ldots,n)$ nuqtadan o‘tuvchi va ordinata o‘qiga parallel bo‘lgan to‘g‘ri chiziqlar yordamida n ta bo‘lakka ajratamiz. Ajratilgan n bo‘laklardan birining massasi

$$\Delta S_i \approx y_i \cdot \Delta x_i$$

dan iborat. Bo‘lakning og‘irlik markazi $\left(x_i, \frac{y_i}{2}\right)$ni hisobga olib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\Delta M_{xi} = y_i \Delta x_i \cdot \frac{y_i}{2} = \frac{y_i^2}{2}\Delta x_i, \quad \Delta M_{y_i} = y_i \Delta x_i \cdot x_i = x_i y_i \cdot \Delta x_i.$$

Ularning barchasining yig‘indisini $\lambda = \max_{1\le i\le n}\{\Delta x_i\} \to 0$ dagi limitini topamiz:

$$M_x = \frac{1}{2}\lim_{\lambda\to 0}\sum_{i=1}^{n} y^2 \Delta x_i = \frac{1}{2}\int_a^b y^2 dx, \qquad (16)$$

$$M_y = \lim_{\lambda\to 0}\sum_{i=1}^{n} x \cdot y \Delta x_i = \int_a^b xy dx, \qquad (17)$$

$$m = \lim_{\lambda\to 0}\sum_{i=1}^{n} y \cdot \Delta x_i = \int_a^b y dx = S. \qquad (18)$$

(18) formula berilgan egri chiziqli trapetsiyaning massasidan iborat.

(10) va (11) yoki (12) va (13) dan og‘irlik markazining koordinatalarini aniqlaymiz:

$$x_c = \frac{M_y}{m} = \frac{\int_a^b xydx}{\int_a^b ydx} \qquad (19)$$

$$y_c = \frac{M_x}{m} = \frac{\int_a^b y^2 ydx}{\int_a^b ydx} \qquad (20)$$

(20) tenglamaning ikkala tomonini $2\pi m$ ga ko‘paytiramiz:

$$2\pi y_c \cdot m = \pi \int_a^b y^2 dx. \qquad (21)$$

Hosil bo‘lgan tenglamaning o‘ng tomoni aylanish jismining hajmi formulasidir. Agar $m = S$ ekanligini e’tiborga olsak, (21) ni quyidagicha ifodalash mumkin bo‘ladi:

$$V = S \cdot 2\pi y_c. \qquad (22)$$

Tekis figurani u bilan kesishmagan o‘q atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan jismning hajmi- shu figura yuzining shu shakl og‘irlik markazi chizgan aylana uzunligi bilan ko‘paytimasiga teng.

Kuch ishini hisoblash. O‘zgarmas F kuch OX o‘qi bo‘ylab yo‘naltirilgan hamda uning P nuqtasi OX o‘qi bo‘ylab $[a,\ b]$ kesmada joylashgan bo‘lsin. U holda, shu kesmada kuchning bajargan ishi

$$A = F|ab| \qquad (23)$$

formula yordamida hisoblanadi. Agar F kuch o‘zining kattaligini o‘zgartirsa, kuch ishini (23) formula yordamida hisoblashning imkoni bo‘lmay qoladi. Shuningdek, kuch bajargan ishni hisoblashda ko‘pincha quyidagi *Guk qonunidan* foydalaniladi:

$$F = kx, \qquad (24)$$

bunda F-kuch, x- prujinaning F kuch ta’sirida absolyut uzayishi, k-proportsionallik koeffitsiyenti.

$F(x)$ kuchning $[a; b]$ kesmada bajargan ishi aniq integraldan iborat:

$$A = \int_a^b F(x)dx. \qquad (25)$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. J.S. Sultonov, A.J. Sultonov Oliy matematika nazariy va amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Samarqand 2012.

2. Соатов Ё.У. Олий математика курси. I, II қисм. –Т.: Ўқитувчи, 1994.

3. Usmonov F.R., Isomov R.D., Xo‘jaev B.O. Matematikadan qo‘llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.

KONSTRUKTIV GEOMETRIYANING O‘QUVCHILAR FIKRLASHINI O‘STIRISHDAGI O‘RNI VA AYRIM MASALALAR YECHIMLARI

Umaraliyev Murodjaon Qambarali o‘g‘li,
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” HAL matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yasashga doir masalalarni o‘rganishning ahamiyati, masala yechishda amalga oshiriladigan bosqichlar haqida ma’lumotlar beriladi. Bundan tashqari bir nechta masala yechimi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: geometriya, konstruktiv geometriya, sirkul, chizg‘ich, to‘g‘ri chiziq, nuqta, burchak, uchburchak, aylana.

Bugungi ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talab meni fikrimcha shundan iboratki, biror fanni o‘rgangan o‘quvchi o‘z bilimlarini hayotda qo‘llay olsin. Nimalarnidir yodlab, lekin o‘z faoliyatida qo‘llay olmasa, bunday bilimdan jamiyatga hech qanday naf yo‘q. Finlandiya tajribasini joriy qilishga kirishilganining sababi ham shunda.

Geometriya fanida o‘rganiladigan yasashga doir masalalar ham o‘quvchilarni fazoviy tasavvurlarini kengaytirishda, ijodiy va konstruktorlik qobiliyatini rivojlantirishda va ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda katta ahamiyati bor.

Yasashga doir masalani yechishni to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin.

Ular: analiz, yasash, isbotlash va tekshirish bosqichlaridir.

1. Analiz (*analysis*) grekcha so‘z bo‘lib, biror jism yoki hodisani bo‘laklarga ajratib tekshirish degan ma’noni bildiradi.

Yasashga doir masalani analiz qilish deb, bu masalani yechilishi oldindan ma’lum bo‘lgan masalalarga ajratish va ularning yechilish tartibini aniqlashga aytiladi.

Analizda “izlangan figura topildi” deb faraz qilinib, uni masalaning talabiga mumkin qadar to‘la javob beradigan tarzda taxminan chizib qo‘yiladi. So‘ngra bu taxminiy figura (ya’ni analiz chizmasi) da berilgan ma’lumotlarning bor-yo‘qligi aniqlanadi va yetishmaganlari masala shartiga muvofiq chizib qo‘yiladi, bu figura asosida izlangan figura bilan masalada berilganlar orasidagi bog‘lanishlar aniqlanadi. So‘ngra bu figuraning qaysi elementlarini qay tartibda yasash mumkinligi belgilanadi.

Bu esa izlangan figuraning yasash rejasining aynan o‘zi bo‘ladi.

Analizda ko‘pincha masalada berilganlarga tayanib, shunday yordamchi figura topish nazarda tutiladiki, bu yordamchi figuradan izlangan figuraga o‘tish mumkin bo‘lsin.

Shuning uchun analiz – masala yechishning eng muhim (ijodiy) bosqichi yoki *tayyorgarlik bosqichi* deb ataladi.

2. Yasash – masala yechishning amaliy bosqichidir. Bu bosqichda analizda tuzilgan reja bo‘yicha sirkul va chizg‘ich yordamida izlangan figuraning ayrim elementlarini va butun figurani chiza olish talab etiladi.

3. Isbot(sintez). Bu bosqich masala yechishning sinash bosqichi bo‘lib, unda masalaning to‘g‘ri yechilganligi, ya’ni yasalgan figuraning masala talablariga javob berishi isbot qilinadi. Yasashda bajarilgan ishlarga va tegishli teoremalarga tayanib isbotlanadi.

4. Tekshirish. Bu bosqich ham masala yechishning ijodiy bosqichi bo‘lib, yasashga doir masalaning yechilishi umuman shu bosqichda yakunlanishi kerak.

Bu bosqichda masalada berilgan ma’lumotlarning o‘zgarishi masala yechimiga qanday ta’sir etishi o‘rganiladi, ya’ni qaysi hollarda yechimning bo‘lishi va nechta bo‘lishi, qanday hollarda yechimning bo‘lmasligi aniqlanadi.

Yasashga doir masalalarni bosqichlab yechish, to‘g‘ri yechish garovidir. Lekin, shuni esda tutish lozimki, har qanday masalani yechishda ham bu to‘rtala bosqichga rioya qilish shart emas. Masalaning og‘ir-yengilligiga, sodda-murakkabligiga qarab, bu bosqichlarning ba’zilarigagina to‘xtalish mumkin. Masalan, yechilish yo‘li masala shartidan anglashilib tursa, analizga hojat qolmaydi, yechishning to‘g‘riligi analiz va yasashdan ochiq ma’lum bo‘lsa, isbot uchun ehtiyoj qolmaydi.

Yasashga doir ba’zi masalalarni ko‘rib chiqamiz.

1-masala. Bir burchagi va shu burchagi uchidan chiqqan balandligi hamda bissektrisasi berilgan uchburchak yasang.

Analiz. Izlangan uchburchakni topildi deb faraz qilib, uni taxminan chizib qo‘yaylik: 1-chizmadagi ΔABC – izlangan uchburchak bo‘lib, uning berilgan elementlari esa $\angle A, \mathrm{AD} = h_a$ va $E\mathrm{A} = l_A$ bo‘lsin. Izlangan ΔABC ni yasash uchun uning A, B va C uchlarini topish kerak. Chizmaga ko‘ra, ΔABC ning A uchi undagi to‘g‘ri burchakli ΔADE ning A uchidan iborat; B va C uchlari esa DE to‘g‘ri chiziqning berilgan $\angle B_1AC_1 = \angle A$ burchak tomonlari bilan kesishish nuqtalaridan iborat.



1-chizma

Berilgan AD kateti va AE gipotenuzasi bo‘yicha ma’lum yo‘l bilan to‘g‘ri burchakli ΔADE yasash mumkin.

Masalaning shartiga ko‘ra, AE kesma berilgan $\angle A$ning bissektrisasi ekanligidan foydalanib, AB_1 va AC_1nurlarning AE ga nisbatan vaziyatini aniqlash (ya’ni bu nurlarni chizish) mumkin.

Masalada berilganlarga ko‘ra, ΔADE ni yasash va undan izlangan ΔABC ga o‘tish mumkin bo‘lgani uchun to‘g‘ri burchakli ΔADE yordamchi figuradir.

2-masala. Berilgan nuqtadan berilgan to‘g‘ri chiziqqa parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkazing.



2-chizma

Yasash. Berilgan *A* nuqtani berilgan *MN* to‘g‘ri chiziqning ixtiyoriy *B* nuqtasi bilan tutashtiramiz (2-chizma);bundan $\angle ABM$ hosil bo‘ladi. So‘ngra ABM burchakka nisbatan ichki almashinuvchi va unga teng BAC burchak yasaymiz.

Isboti. *AB* kesmaning o‘rtasi D nuqtadan *MN* to‘g‘ri chiziqqa *DE* perpendikular o‘tkazaylik. Bu perpendikularning *AC* to‘g‘ri chiziq bilan kesishish nuqtasini *F* bilan belgilab, hosil bo‘lgan ΔADF va ΔBDE larni tekshiramiz.

Yasalishiga ko‘ra, bu uchburchaklar bir-biriga (bittadan tomoni va unga yopishgan ikkitadan burchaklari) tengligi uchun $\angle AFD = \angle BED$ dir. Yasalishicha, $\angle BED$ to‘g‘ri burchak bo‘lgani sababli $\angle AFD$ ham to‘g‘ri burchak bo‘ladi, ya’ni $AC \perp EF$ ekanligi aniqlanadi. Bir to‘g‘ri chiziqqa perpendikular bo‘lgan ikki to‘g‘ri chiziq bir0biriga parallel degan teoremaga asosan $AC \parallel MN$.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R.K.Otajonov. Geometrik yasash metodlari. Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti.

TA’LIM JARAYONLARINI TASHKIL QILISHDA SUN‘IY INTELLEKT VOSITALARINING QO‘LLANILISHI

Raximova Tozagul Sobir qizi
Ibadullayev Abdulla Nazarbayevich
Jaloliddin Manguberdi nomidagi HAL,
informatika va AT fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Sun‘iy intellekt vositalari ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning o‘quv jarayonidagi tatbiqi interaktivlikni oshirib, individual yondashuvni kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intelekt(SI), Baholash tizimini avtomatlashtirish, o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, Algoritmlarni optimallashtirish, Adaptive trening, GitHub Copilot, Tabnine, DeepCode, Photomath, Microsoft Math Solver, Symbolab

Аннотация: Инструменты искусственного интеллекта играют важную роль в эффективной организации учебного процесса. Их применение в обучении повышает интерактивность и усиливает индивидуальный подход.

Ключевые слова: искусственный интеллект (ИИ), автоматизация системы оценки, автоматизация процесса обучения, оптимизация алгоритмов, адаптивное обучение, GitHub Copilot, Tabnine, DeepCode, Photomath, Microsoft Math Solver, Symbolab.

Аннотация Artificial intelligence tools play an important role in the effective organization of the educational process. Their application enhances interactivity and strengthens an individualized approach.

Keywords: Artificial Intelligence (AI), Assessment System Automation, Learning Process Automation, Algorithm Optimization, Adaptive Training, GitHub Copilot, Tabnine, DeepCode, Photomath, Microsoft Math Solver, Symbolab

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt (SI) vositalarining qo‘llanilishi tobora kengayib bormoqda. SI ta’lim jarayonlarini samarali tashkil qilish, individual yondashuvni shakllantirish va o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish imkonini beradi. Mazkur maqolada sun‘iy intellektning ta’lim tizimidagi roli, uning afzalliklari va qo‘llanilish imkoniyatlari yoritiladi.

Sun‘iy intellektning ta’lim tizimidagi roli. Sun‘iy intellekt texnologiyalari ta’lim sohasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda:

- **Individual ta’lim yo‘nalishi**: SI asosida ishlaydigan dasturlar har bir o‘quvchining bilim darajasini tahlil qiladi va shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini taklif etadi.
- **Baholash tizimini avtomatlashtirish**: Sun‘iy intellekt asosidagi dasturlar testlarni avtomatik baholash, insho va loyihalarni tekshirish imkonini beradi.
- **O‘quv jarayonini optimallashtirish**: SI algoritmlari ta’lim resurslarini optimallashtirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Informatika va AT fanini o‘qitishda sun’iy intellekt vositalarining qo‘llanilishi. Sun‘iy intellekt informatika fanida dasturlashni o‘rgatish uchun adaptiv trening tizimlaridan foydalanishga imkon yaratadi. Masalan, avtomatik kod yozish va xatolarni topish dasturlari o‘quvchilarga mustaqil ravishda dasturlash asoslarini o‘rganishga yordam beradi.

Kod yozishni avtomatlashtirish: GitHub Copilot va Tabnine kabi sun'iy intellekt tizimlari dasturchilarga kod yozishda yordam beradi.

Dasturiy xatolarni aniqlash: SI asosida ishlab chiqilgan linter va debugging vositalari, masalan, DeepCode va CodeQL koddagi xatolarni avtomatik tahlil qiladi.

Algoritmlarni optimallashtirish: Informatika o‘quvchilari uchun sun‘iy intellekt algoritm samaradorligini baholash va yaxshilashda yordam berishi mumkin.

Kod yozishni o‘rgatish: Codecademy va DataCamp kabi platformalar SI yordamida foydalanuvchilarning qaysi mavzularni yaxshi tushunishini aniqlab, shunga mos ravishda topshiriqlar beradi.

Matematika fanida qo‘llanilishi: Sun‘iy intellekt algoritmlari matematik misol va masalalarni yechishda yordam beruvchi tizimlarni yaratish uchun qo‘llaniladi.

Geometriya va algebra muammolarini hal qilish: **Photomath** va **Microsoft Math Solver** kabi ilovalar o‘quvchilarga tenglamalarni yechishda va algebraik ifodalarni soddalashtirishda yordam beradi.

Matematik konsepsiyalarni tushuntirish: **Wolfram Alpha** kabi platformalar murakkab matematik tushunchalarni oddiy tilga tarjima qilib, ularning mantiqiy izohini beradi.

Matematik amaliyotlarni avtomatlashtirish: **Symbolab** kabi ilovalar differensial va integral hisoblash, matritsalar bilan ishlash kabi murakkab hisob-kitoblarni bajarishda yordam beradi.

Shaxsiylashtirilgan matematika o‘quv tizimlari: **Carnegie Learning** kabi platformalar o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan topshiriqlar beradi.

Til o‘rganish jarayonida qo‘llanilishi: Sun‘iy intellekt matnlarni tarjima qilish, grammatik xatolarni tuzatish va talaffuzni yaxshilash uchun ishlatiladi. O‘quvchilar sun‘iy intellekt yordamida interaktiv mashg‘ulotlarda qatnashishlari mumkin.

Sun‘iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari Sun‘iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

O‘quv jarayonining shaxsiylashtirilishi: O‘quvchilar o‘z bilim darajasiga mos kurslarni oson tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tahlil va kuzatuv imkoniyatlari: O‘qituvchilar o‘quvchilar natijalarini tahlil qilish va ularga mos keladigan maslahatlar berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Interaktiv ta’lim uslublari: Virtual o‘qituvchilar va sun‘iy intellekt yordamida o‘quvchilar yanada qiziqarli va interaktiv ta’lim olishlari mumkin.

Vaqt va resurslardan samarali foydalanish: SI asosida ishlovchi tizimlar o‘qituvchilarga ortiqcha vaqt sarflashning oldini olib, samarali ishlashga yordam beradi.

Sun‘iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi Hozirda ta’lim sohasida qo‘llanilayotgan sun‘iy intellekt texnologiyalariga quyidagilar kiradi:

Chatbot va virtual o‘qituvchilar: Sun‘iy intellekt asosida ishlab chiqilgan chatbotlar o‘quvchilarga individual yondashuv asosida ta’lim berishga yordam beradi. Masalan, **Duolingo** kabi til o‘rgatish dasturlarida chatbotlar o‘quvchilarga muloqot orqali mashqlarni bajarish imkonini beradi. Shuningdek, **Socratic** ilovasi matematika, fan va boshqa yo‘nalishlardagi savollarga javob topishda foydalanuvchilarga yordam beradi.

Intellektual o‘quv tizimlari: Adaptiv ta’lim platformalari har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos ta’lim materiallarini taklif qiladi. Masalan, **Khan Academy** va **Coursera** kabi platformalar sun‘iy intellekt yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilib, ularga mos tavsiyalarni beradi. Shuningdek, **Carnegie Learning** kompaniyasining intellektual matematika o‘rgatish dasturi o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilib, ularga mos vazifalar taqdim etadi.

Nutq va matnni qayta ishlash texnologiyalari: Sun‘iy intellekt yordamida nutqni matnga aylantirish, grammatik xatolarni aniqlash va avtomatik tarjima qilish texnologiyalari ishlab chiqilgan. Masalan, **Google Translate** va **DeepL** kabi tizimlar turli tillar o‘rtasida avtomatik tarjima qilishda sun‘iy intellektdan foydalanadi. **Grammarly** esa ingliz tilidagi matnlarni tekshirib, grammatik va stilistik xatolarni tuzatishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt haqida dunyodagi mashhur mutaxassislardan biri Microsoft koorporatsiyasi asoschisi **Bill Gates** quyidagicha fikr bildirgan: *“Sun’iy intellekt odamlarga ko‘proq imkoniyat yaratish uchun qo‘llanilishi lozim. Ta’lim sohasida u eng katta o‘zgarishlarni olib kelishi mumkin.”*

Bill Gatesning ushbu fikri sun’iy intellektning ta’lim sohasidagi ijobiy ta’siriga urg‘u beradi. SI insonlarga ko‘proq imkoniyat yaratish uchun vosita sifatida qaralishi kerak va ayniqsa ta’lim sohasida katta o‘zgarishlarni amalga oshirishi mumkin. Ushbu fikrni quyidagi jihatlar bilan asoslash mumkin:

Sun’iy intellekt ta’limda teng imkoniyatlar yaratadi. Dunyoda sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan millionlab odamlar mavjud. SI yordamida har kim internet orqali, individual yondashuv asosida, sifatli va tejamkor ta’lim olishi mumkin:

Masofaviy ta’lim – SI asosida ishlovchi platformalar (Coursera, Udemy, Khan Academy) orqali odamlar joylashuvdan qat’i nazar bilim olish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Shaxsiylashtirilgan o‘qitish – Har bir o‘quvchining bilim darajasiga mos keladigan individual dars rejalarini yaratish orqali har kim o‘ziga qulay tezlikda o‘rganishi mumkin.Duolingo yoki Khan Academy kabi sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanayotgan o‘quvchilar individual yondashuv bilan samaraliroq o‘rganmoqda.

Sun’iy intellekt o‘quv jarayonini samarali qiladi. An’anaviy ta’lim tizimlarida o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ko‘plab o‘quvchilarga dars o‘tadi va ularning har biriga individual yondasha olmaydi. Sun’iy intellekt quyidagilarga imkon yaratadi:

Adaptive Learning (Moslashuvchan o‘qitish) – SI o‘quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, keyin esa ularning ehtiyojlariga mos kurslarni tavsiya qiladi.

Avtomatik baholash tizimlari – SI yordamida insho va testlarni avtomatik baholash mumkin, bu esa o‘qituvchilarning vaqtini tejaydi va o‘quvchilarga tezkor fikr bildirish imkonini beradi.

Grammarly, Turnitin kabi sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning yozma ishlarini avtomatik tekshiradi va grammatik hamda stilistik xatolarni aniqlab, takliflar beradi.

Sun’iy intellekt yangi ta’lim texnologiyalarini yaratadi. An’anaviy ta’limdan farqli ravishda, SI asosidagi texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada jonli va interaktiv qiladi:

VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) texnologiyalari – O‘quvchilar tarixiy voqealarni VR orqali tomosha qilishi yoki kimyoviy tajribalarni xavfsiz tarzda bajarishi mumkin.

Interaktiv chatbot va virtual o‘qituvchilar – SI asosida yaratilgan chat-botlar o‘quvchilarga istalgan vaqtda yordam bera oladi.

Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin.

Google va Microsoft ta’lim uchun AI vositalarini ishlab chiqmoqda. Masalan, Google Lens matnni skanerlash orqali tushuntirish beradi, bu esa o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish imkonini taqdim etadi.

VR texnologiyalari orqali tarixiy sayohatlar yoki murakkab ilmiy tajribalarni real muhitda o‘rganish imkoniyati yaratilmoqda.

Sun’iy intellekt ta’limda til to‘siqlarini yo‘qotadi. Ko‘plab talabalar til bilmaslik sababli sifatli xorijiy ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan. SI ushbu muammoni hal qilmoqda:

Real vaqt rejimida tarjima qilish – Google Translate va DeepL kabi dasturlar matnlarni bir necha tillarga avtomatik tarjima qiladi.

Subtitrlangan va ovozli tarjimalar – Sun’iy intellekt video darslarni avtomatik subtitrlar bilan ta’minlab, turli tillarda ta’lim olish imkonini kengaytiradi.

Masalan,YouTube’da avtomatik subtitrlar orqali har kim turli tillardagi darslarni o‘rganishi mumkin. ChatGPT esa murakkab tushunchalarni oddiy tilga o‘girib tushuntirishi mumkin.

Sun’iy intellekt hayot davomida o‘qitish (lifelong learning) madaniyatini rivojlantiradi. Hozirgi kunda ta’lim faqat maktab yoki universitet bilan cheklanib qolmaydi. Sun’iy intellekt insonlarga har qanday yoshda o‘rganish imkoniyatini taqdim etmoqda:

Professional malaka oshirish – AI yordamida xodimlar o‘z kasbiy bilimlarini rivojlantira oladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kurslari – Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan kurslar orqali insonlar har qanday sohaga oid bilimlarni mustaqil egallashi mumkin.

LinkedIn Learning va Coursera kabi platformalar turli sohalar bo‘yicha kurslarni taqdim etadi va SI algoritmlari har bir foydalanuvchi uchun eng mos kurslarni tavsiya qiladi.

Bill Gatesning “Sun’iy intellekt odamlarga ko‘proq imkoniyat yaratish uchun qo‘llanilishi lozim” degan fikri bugungi kun haqiqatiga aylanmoqda. SI ta’limni yanada interaktiv, individual va qulay qiladi. Uning yordamida insonlar o‘z ehtiyojlariga mos tarzda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lib, kelajakda bilim olish jarayoni yanada takomillashishi kutilmoqda.

Xulosa.

Sun‘iy intellekt vositalari ta’lim jarayonlarini samarali tashkil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarga individual ta’lim olish imkoniyatini yaratib, o‘qituvchilarga esa samarali ta’lim berish jarayonini boshqarishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt ta’lim tizimini o‘zgartirish va uni yanada samarali qilish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Biroq uni to‘g‘ri yo‘nalishda va oqilona boshqarish zarur.Sun’iy intellekt o‘qituvchilar o‘rnini egallashi emas, balki ularga yordam berishi lozim. Masalan, SI avtomatlashtirilgan baholash, individual ta’lim rejalarini yaratish va takrorlash jarayonlarini osonlashtirishi mumkin, lekin u hali o‘qituvchining pedagogik mahoratini to‘liq almashtira olmaydi. Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan onlayn ta’lim platformalari (Khan Academy, Coursera, Duolingo va boshqalar) ta’lim sifatini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Biroq, bu resurslardan foydalanish madaniyati ham shakllantirilishi kerak, ya’ni o‘quvchilar faqatgina

tayyor javoblarni emas, balki tushunish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishi zarur.

Ba’zan yangi texnologiyalar murakkab interfeys yoki yetarli qo‘llab-quvvatlov yo‘qligi sababli o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan qiyin qabul qilinadi. Shu bois, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari sodda, qulay va keng ommaga mos bo‘lishi lozim. Sun’iy intellekt noto‘g‘ri ma’lumotlarni tarqatmasligi, o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishi va ularga zarar keltirmasligi muhim. Raqamli ta’lim vositalarining axloqiy me’yorlarga rioya qilishi kelajak avlod ta’limining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelajakda sun‘iy intellekt texnologiyalarining yana-da rivojlanishi ta’lim jarayonlarini yanada innovatsion va interaktiv qilishiga shubha yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tursunov A., Qodirov Sh. (2022). *Sun’iy intellekt va uning axborot texnologiyalaridagi o‘rni.* Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Jo‘rayev A. (2021). *Axborot texnologiyalari va ta’limda sun’iy intellekt imkoniyatlari.* Toshkent: Innovatsion ta’lim markazi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning *“Raqamli O‘zbekiston – 2030”* dasturi (2020).
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2023). *Ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma.*
5. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach.* Pearson.
2. Kurzweil, R. (2005). *The Singularity Is Near: When Humans Transcend Biology.* Viking Press.
3. Wooldridge, M. (2020). *The Road to Conscious Machines: The Story of AI.* Pelican Books.

HARBIY-AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Elyor Dilmonovich Matayev
DXX “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi
elyor-uz@inbox.ru
Hamdamov Laziz Shuhrat o‘g‘li
DXX “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi
Lazizhamdamov1994@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rni tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimida o‘quv

jarayonini takomillashtirish bilan birga, o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, harbiy-akademik litsey, raqamli ta’lim texnologiyalari, interfaol ta’lim, VR, AR, gamifikatsiya.

Kirish. Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy-akademik litsey o‘quvchilari uchun vatanparvarlik nafaqat ma’naviy-axloqiy fazilat, balki ularning kasbiy tayyorgarligi va harbiy burchiga sadoqatini mustahkamlovchi muhim omildir. Ushbu jarayonda zamonaviy ta’lim vositalari, jumladan, *raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish* o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol platformalar, elektron darsliklar, multimedia resurslari hamda kengaytirilgan va virtual reallik (AR, VR) texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Xususan, ta’lim jarayonida ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga tarixiy voqealarni jonlantirish, milliy qahramonlar jasoratini aniq tasavvur qilish va harbiy harakatlar taktikalarini vizual tarzda o‘rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, gamifikatsiya elementlarini joriy etish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish mumkin.

Maqolada raqamli ta’lim texnologiyalarining harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rni nazariy jihatdan yoritiladi. Xususan, zamonaviy ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlari, ta’lim jarayoniga ta’siri va samaradorligi bo‘yicha ilmiy qarashlar tahlil qilinadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalarining ta’limdagi ahamiyati. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda[55]. Harbiy-akademik litsey o‘quvchilari uchun esa raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish nafaqat bilim olish jarayonini soddalashtiradi, balki ularning harbiy tayyorgarligini ham kuchaytiradi.

Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar quyidagi jihatlari bilan muhim ahamiyat kasb etadi:

- *Vizual va interfaol ta’lim* – harbiy tarix, strategik rejalashtirish va milliy qahramonlar jasoratini raqamli formatda taqdim etish orqali o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish.
- *Real hayotga yaqin sharoit yaratish* – simulyatsiyalar va AR/VR texnologiyalari yordamida harbiy harakatlarni o‘rganish, jangovar vaziyatlarni model qilish.
- *O‘quvchilar motivatsiyasini oshirish* – gamifikatsiya yondashuvlari orqali ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish.

[55] Anderson, J., & Rainie, L. Digital Life in 2025: The Future of Education and Learning. Pew Research Center. 2020, 3-5 p.

- *Axborot resurslaridan samarali foydalanish* – elektron darsliklar, interfaol ma’lumotlar bazasi va onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish imkoniyati.

Raqamli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda, balki amaliy tayyorgarlik jarayonlarida ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, simulyatsion dasturlar yordamida harbiy taktikalar o‘rgatilishi yoki AR/VR texnologiyalari orqali real harbiy sharoit modellashtirilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarga ta’lim jarayonida faol ishtirok etish va jarayonni yanada chuqur anglash imkonini beradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini o‘qitishda samarali metod sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ular o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni vizual tarzda yetkazish va amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida ta’limda qo‘llanilayotgan asosiy raqamli texnologiyalarni ko‘rib chiqamiz.

Qo‘shilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalari.

AR va VR texnologiyalari an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda o‘quvchilarga aniq va jonli taassurot qoldiradi. Ularning ta’lim jarayoniga qo‘shilishi quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- *AR texnologiyasi* yordamida tarixiy shaxslar va harbiy harakatlar jonlantiriladi, o‘quvchilar virtual muhitda tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, Temuriylar davri harbiy yurishlarini AR ilovalar yordamida modellashtirish mumkin.
- *VR texnologiyalari* orqali harbiy taktikalar, jangovar holatlar va harbiy texnikalar bilan tanishish mumkin. Bu metod real hayotdagi mashg‘ulotlarning xavfsiz muqobili bo‘lib xizmat qiladi.

Elektron darsliklar, multimedia resurslari va interfaol platformalar.

An’anaviy darsliklarga nisbatan *elektron darsliklar* yanada ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi, interfaol shaklda taqdim etilishi va multimediaviy materiallar bilan boyitilishi bilan ajralib turadi. Ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlar e’tiborga olinadi:

- *Multimedia resurslari* – videodarslar, audio materiallar va animatsiyalar o‘quvchilarga mavzuni yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.
- *Interfaol platformalar* – masofaviy ta’lim va o‘quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy yechimlardan biridir.

Gamifikatsiya va motivatsion yondashuvlar.

Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini ta’limga tatbiq etish) orqali o‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasi oshiriladi. Harbiy-akademik litsey o‘quvchilari uchun quyidagi gamifikatsiya yondashuvlari samarali hisoblanadi:

- *O‘quv topshiriqlarini baholash tizimini o‘yin usulida tashkil etish* (masalan, ball to‘plash, bosqichma-bosqich rivojlanish).
- *Jangovar strategiyalarni simulyatsiya qilish* – tarixiy voqealar asosida virtual harbiy mashg‘ulotlarni o‘tkazish.
- *Harbiy mavzulardagi interfaol test va topshiriqlar* – o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga tatbiq etilganda o‘quvchilarning qiziqishi va ishtiroki oshadi, bu esa ularning o‘zlashtirish darajasini sezilarli ravishda yaxshilash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida vatanparvarlik ruhini shakllantirish.

Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarida vatanparvarlik ruhini shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bunda raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ta’lim jarayonida *raqamli vositalar yordamida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish* quyidagi jihatlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Harbiy tarix va milliy qahramonlar jasoratini virtual muhitda taqdim etish. O‘quvchilar vatanparvarlik ruhini chuqur anglashlari uchun tarixiy voqealar va milliy qahramonlarning hayoti haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak. Bunda quyidagi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- *Interfaol AR/VR dasturlar* orqali tarixiy jang sahnalarini jonlantirish. Masalan, Amir Temur yurishlarini virtual simulyatsiya qilish.
- *Raqamli arxiv va elektron muzeylar* – milliy merosga oid materiallarni interfaol tarzda taqdim etish.
- *Audio va video materiallar* orqali qahramonlik dostonlari, harbiy yurishlar va tarixiy voqealarni hikoya qilish.

2. Raqamli platformalar orqali vatanparvarlik mavzusida maxsus darslar tashkil etish. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida harbiy-akademik litsey o‘quvchilari uchun vatanparvarlik mavzusiga bag‘ishlangan maxsus kurslar va darslar tashkil etish mumkin.

- *Onlayn seminarlar va vebinarlar* – harbiy mutaxassislar, tarixchilar va milliy yetakchilar bilan uchrashuvlar.
- *Interfaol test va topshiriqlar* – milliy tarix, harbiy qoidalar va mardlik tarbiyasini mustahkamlashga qaratilgan savollar.
- *Mobil ilovalar* – harbiy fanlar va vatanparvarlik tarbiyasiga oid mustaqil ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.

3. Gamifikatsiya asosida vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish. O‘quvchilarni harbiy bilim va vatanparvarlikka qiziqtirish uchun *o‘yin texnologiyalaridan* foydalanish samarali natija beradi. Quyidagi gamifikatsiya elementlari raqamli ta’lim jarayoniga kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- *Tarixiy janglar asosida strategik o‘yinlar* – Amir Temur va boshqa buyuk sarkardalar yurishlarini model qiluvchi interfaol o‘yinlar.
- *Missiya va topshiriqlarga asoslangan dasturlar* – o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va ularni harbiy taktikalar bilan tanishtirish.
- *Jamoaviy musobaqalar va viktorinalar* – vatanparvarlik mavzusida bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, balki o‘quvchilarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy usullar orqali ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv tatbiq etilishi, o‘quvchilarni milliy qadriyatlar va tarixiy meros bilan yaqindan tanishtirish imkonini beradi.

Xulosa.

Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy raqamli vositalardan samarali foydalanish o‘quv jarayonini interfaol, qiziqarli va ta’sirchan qilish imkonini beradi. Maqolada quyidagi jihatlar yoritib berildi:

- *Interfaol ta’lim platformalari* yordamida o‘quvchilarni milliy tarix va harbiy meros bilan yaqindan tanishtirish imkoniyati mavjud.
- *AR/VR texnologiyalaridan foydalanish,* harbiy tarixiy voqealarni jonlantirish orqali, o‘quvchilarning tarixiy bilimlarini chuqurlashtirishga va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.
- *Gamifikatsiya yondashuvlari,* strategik o‘yinlar va interfaol topshiriqlar orqali o‘quvchilarni harbiy bilimlarga qiziqtirishda muhim rol o‘ynaydi.
- *Onlayn seminarlar, raqamli darsliklar va maxsus mobil ilovalar,* mustaqil ta’lim olish imkoniyatini kengaytirib, o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga yaqinlashtirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga joriy etilishi nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilar ongida milliy g‘urur, jasorat va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.
2. Oripov J., To‘xtayev O. “Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyati”. ― Science and innovation‖ elektron jurnali. № 6, avgust, 2022 yil. 308-312
3. Norov M.M. “Raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida qo‘llanilishi”. ― Scholar‖ elektron jurnali. № 31, 2023 yil. 4-7.
4. Anderson, J., & Rainie, L. Digital Life in 2025: The Future of Education and Learning. Pew Research Center. 2020.
5. Gee, J.P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Palgrave Macmillan. 2017.
6. www.ziyonet.uz
7. www.google.co.uz

KOMPLEKS HOSIL QILUVCHI SORBENTLARNING D-METALLAR BILAN KOORDINATSION BIRIKMALARI

X.X.Turayev., F.J.Mirzayeva., M.G Shopulatova
Termiz davlat universiteti shopulatova89@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning d-metallar bilan koordinatsion birikmalari o‘rganildi. Sorbentlar turli xil funksional guruhlarga ega bo‘lib, ular d-metallar bilan mustahkam koordinatsion bog‘lar hosil qilish qobiliyatiga ega. Tadqiqot davomida kompleks hosil bo‘lish jarayoni, uning termodinamik va kinetik xususiyatlari, shuningdek, metallarni tanlab bog‘lash samaradorligi tahlil qilindi. Eksperimental tadqiqotlar fizik-kimyoviy nazariy usullar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: kompleks hosil qiluvchi sorbentlar, d-metallar, koordinatsion birikmalar, fizik-kimyo nazariyasi, metallarni ajratish.

Kirish: Hozirgi kunda koordinatsion kimyo va sorbsiya jarayonlari kesishgan sohalarda olib borilayotgan tadqiqotlar atrof-muhit muhofazasi, analitik kimyo, biomeditsina va kataliz kabi muhim yo‘nalishlarda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kompleks hosil qiluvchi sorbentlar va ularning d-blok metallar bilan hosil qiladigan koordinatsion birikmalari sorbsiya jarayonlarining selektivligini oshirish, metallarni ajratib olish va qayta tiklash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Kompleks hosil qiluvchi sorbentlar – o‘z tarkibida funksional guruhlarni saqlovchi polimer yoki noorganik asosdagi materiallar bo‘lib, ular muayyan metall ionlari bilan kompleks birikmalar hosil qilish qobiliyatiga ega. Bu turdagi sorbentlar metall ionlari bilan mustahkam bog‘lanib, ularni muhitdan ajratib olish yoki to‘plash jarayonlarini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning d-metallar bilan koordinatsion birikmalarini o‘rganish zamonaviy kimyo fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Bu soha sorbentlarning yangi turlarini yaratish, ularning metallar bilan o‘zaro ta'sirini tushunish va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. **Kompleks hosil qiluvchi sorbentlar** tarkibida funksional guruhlar mavjud bo‘lib, ular metall ionlari bilan mustahkam komplekslar hosil qiladi. Bunday sorbentlar metall ionlarini ajratib olish, tozalash va kontsentratsiyalash jarayonlarida keng qo‘llaniladi. Masalan, tarkibida azot, kislorod va oltingugurt atomlari bo‘lgan polimer sorbentlar d-metall ionlari bilan samarali komplekslar hosil qiladi.d-metallarning koordinatsion birikmalari sorbentlarning funksional guruhlari bilan metall ionlari o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir natijasida hosil bo‘ladi. Bu jarayonda metall ionlari va ligandlar o‘rtasida kovalent va ion bog‘lanishlar shakllanadi. Koordinatsion birikmalarni sintez qilish uchun birikish, almashinish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan foydalaniladi. Hozirgi vaqtda Kompleks hosil qiluvchi ion almashinuvchi smolalarning asosiy qismi Dow Corporation (AQSh), Purolite Corporation (AQSh, Angliya, Ruminiya, Xitoy), Rom and Hass Company, Lanxess (Germaniya), Termax Limited (Xindiston), Karbolit (Rossiya) va boshqa

kompaniyalarda ishlab chiqariladi. Jahon bozoridagi ion almashinuvchi smolalar orasida kuchli asosli anionitlar va kuchli kislotali kationitlar muhim rol o‘ynaydi. .[1] Rangli va nodir metallarni murakkab aralashmalardan ajratish uchun ishlatilgan ionitlarga misollarni ko‘plab ishlarda uchratish mumkin. Quyidagi jadvalda tijorat ionitlari o‘rganilgan ba’zi adabiyotlar tahlili keltirilgan. .[2]

1.1-jadval

Ba’zi tijorat ionitlarining metallar sorbsiyasida qo‘llanilishi

Ionit	Funksional guruhi	Metallar
Amberlite^{TM} XAD4	gidroksam kislota	Cd, Cu, Mn, Pb, Zn
Dowex-M43	gidroksipropil pikolilamin	Au, Pt, Pd
Dowex-50W-X8	sulfopropil	Sr, Rb
Duolite C-467	aminofosfat	Pb, Hg, Cd, Ni, V, Cr, Cu, Zn
Lewatit Ionac SR-7	to‘rtlamchi ammoniy	Cr
Lewatit TP-214	tiosemikarbazid	Au
Purolite-S940	aminofosfat	Pb, Cd
Purolite A-400LT	to‘rtlamchi ammoniy	Pd, Pt, Au

Elementlarning mikromiqdorlarini konsentrlash va ajratish uchun Kompleks hosil qiluvchi polimer sorbentlar keng qo‘llaniladi. Ular qo‘llanilishining kelajakda rivojlanishi elementlar ionlarini murakkab kimyoviy tarkibli eritmalardan konsentrlashda yuqori tanlovchanligi va samarali ta’siri bilan bog‘liq. Sorbentlar zaharli emas, uzoq saqlashga turg‘un va tashish uchun qulay hisoblanadi. Kompleks hosil qiluvchi sorbentlar tarkibida eritmadagi elementlar ionlari bilan Kompleksli komplekslar hosil qilib ta’sirlashish qobiliyatiga ega bo‘lgan kimyoviy faol funksional analitik guruhlar borligi bilan alohida ahamiyatga ega.[3] .

Shunga ko‘ra, polistirol-azo-salitsil kislota tarkibida meta holatda o‘rinbosar bo‘lgan polimer Kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning mis (II) ionlari bilan kompleks hosil qilish jarayoni o‘rganilgan. Hosil bo‘lgan Kompleks tuzilishi elementlar sorbsiyasida qatnashadigan protonlar soni, sorbsiya pH i, funksional analitik guruhlarning tuzilishi, ularning kislota – asosli xossalari va boshqalarga asoslanib quyidagicha taklif etilgan:



Bu yerda X-meta o‘rinbosarlar: -H, -Br, -SO_3H, -AsO_3H_2, -NO_2, NH_2.

Ushbu tuzilish karboksildagi proton ajratgan kislorod bilan valent bog‘ va kuchsiz kislotali sorbsiya sharoitida dissotsiatsiyalanmay qolgan gidroksil guruh kislorodi bilan koordinatsion bog‘ hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.X. To‘rayev, Sh.A. Qosimov, A.T. Djalilov, F.B. Eshqurbonov Gidrazo-, fosfo- va ditiofosfoguruhli kompleks hosil qiluvchi sorbentlar. Toshkent «Universitet» 2019.
2. Полянский Н. Г., Горбунов Г. В., Полянская Н. Л. Методы исследования ионитов. М.:Химия, 1976. 286 с.
3. Исмаилов И.И., Джалилов А.Т., Аскаров М.А. Химически активные полимеры и олигомеры. – Ташкент: -Фан, -1993. -232 с.
4. Абдуталипова Н.М., Турсунов Т.Т., Назирова Р.А., Мухамедова М.А. Исследование комплексообразующей способности ионитов поликонденсатсионного типа // ВИИ Всероссийская интерактивная конф.(с международным участием) молодых учёных / Современные проблемы теоретической и экспериментальной химии, Саратов, -2010. - С.235-236.
5. Кокотов Ю. А., Пасечник В. А. Равновесие и кинетика ионного обмена. Л.:Химия, 1970. 336 с.

ISHQALANISH KUCHI MAVZUSINI O‘QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH.

Mirzayev To‘lanboy To‘lqinovich,
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi”
harbiy akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizikadan masalalar yechishda ishqalanish kuchlarining ahamiyati, qo‘llanilishi, dinamika bo‘limida muhum ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida fikir boradi.

Kalit so‘zlar: Dinamika,ishqalanish koeffitsiyenti,ishqalanish kuchlari, og‘irlik kuchi, vektorlar proyeksiyasi, kuchlar sistemasi.

Ishqalanish kuchlari tabiatda va turmushda katta amaliy ahamiyatga ega. Ishqalanish kuchlarini o‘rganishda bir qator uni yuzaga keltiruvchi sabablar ham o‘rganiladi.

Ishqalanish kuchi deb bir-biriga tegib turgan kantakt, yuzalarning g‘adir budirliklari tufayli harakat yo‘nalishiga qarama-qarshi yo‘nalishda paydo bo‘ladigan kuchga aytiladi.

Ishqalanish kuchining uchta turi mavjud.

I. Tinchlikdagi ishqalanish kuchi.

Jismni harakatga kelgunga qadar paydo bo‘ladigan qarshilik kuchidir. Tortish kuchi qancha qiymatga ega bo‘lsa tinchlikdagi ishqalanish kuchi ham aynan shuncha kuch bilan qarama-qarshi yo‘naladi.



II. Sirpanish ishqalanish kuchi.

Tinchlikdagi ishqalanish kuchining oxirgi chegarasi jismni joyidan qo‘zg‘atib olish uchun kerak bo‘ladigan kuchdir.

Sirpanis hishqalanish kuchi bir-biriga tegib turgan yuzalarning kattaligiga bog‘liq bo‘lmay, faqat jismni sirtga tik bosadigan bosim kuchi N ga to‘g‘r iproporsional bo‘ladi.

Gorizontal sirtda sirpanish ishqalanish kuchi ifodasi quyidagicha.

$$F_{ish} = -\mu N = -\mu mg\ (N) \quad (1)$$

Bu yerda: μ- ishqalanish koeffitsiyent.

R- Jismni tik ko‘taruvchi reaksiya kuchi

R=N- Jismni sirtga tik bosuvchi bosim kuchi.

F_{ish}- ishqalanish kuchi.



Ishqalanish koeffitsiyenti gorizontal sirtda turgan jismni joyidan qo‘zg‘atish uchun kerak bo‘ladigan kuch. Jism og‘irligining qanday qismini tashkil qilishini ko‘rsatadi.

$$\mu = \frac{F_{ish}}{N} \quad (2)$$

III. Dumalanish ishqalanish kuchi.

Sirtlarning g‘adir budirliklari tufayli sodir bo‘lmay balki deformatsiyalanish tufayli paydo bo‘ladigan aylanishga qarshilik ko‘rsatuvchi kuchga aytiladi.

Tajribalardan ma’lumki dumalanish ishqalanish koeffisenti sirpanish ishqalanish koeffisentidan kichik bo‘lar ekan. Tinchlikdagi va sirpanishdagi ishqalanish koeffitsiyentlari o‘lchamsiz kattalikdir.

Amaliy mashg‘ulotlar darsida, ishqalanish kuchi mavzusiga doir masalalar yechayotganda bevosita kuchlarning yo‘nalishlarini hisobga olib ularni o‘qlarga proyeksiyalab yechamiz.

№1-masala. *M* massali jismga gorizontal tekislikda tekislikka nisbatan α burchak ostida yuqoriga yo‘nalgan F_t tortuvchi kuch bilan ta’sir qilib tekis tortib ketayotgan bo‘lsa ishqalanish kuchi va ishqalanish koeffisenti nimaga teng bo‘ladi?



Burchak sinus va kosinuslaridan foydalanib tortuvchi kuchning *X* va *Y* o‘qlaridagi proeksiyalarini yozib olamiz:

$$\begin{cases} sin\alpha = \frac{F_{t.y}}{F_t} \\ cos\alpha = \frac{F_{t.x}}{F_t} \end{cases} \rightarrow \begin{cases} F_{t.y} = F_t \cdot sin\alpha \\ F_{t.x} = F_t \cdot cos\alpha \end{cases} \quad (3)$$

Agar jism tekis harakat qilayotgan bo‘lsa ($\vartheta = const$).

Vektor ko‘rinishidagi bu tenglamalarning *X* va *Y* o‘qlaridagi proeksiyalarini yozamiz:

$$\begin{cases} Y\ o'qi\ bo'yicha\ R = N\ \ N + F_{t.y} = F_{og'}\ \ \rightarrow N = F_{og'} - F_{t.y} = F_{og'} - F_t \cdot sin\alpha \\ X\ o'qi\ bo'yicha F_{ish} = F_{t.x} = F_t \cdot cos\alpha \end{cases} \quad (4)$$

Jismga ta’sir qiluvchi kuchlarning o‘qlardagi proyeksiyalaridan foydalanib (4) ishqalanish kuchi ifodasini quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz:

$$F_{ish} = \mu N = F_{t.x} = F_t \cdot cos\alpha \quad (4)$$

$$F_{ish} = \mu \mathrm{N} = \mu\left(F_{og'} - F_t \cdot sin\alpha\right) = F_t \cdot cos\alpha \quad (5)$$

$$\mu \mathrm{N} = \mu\left(F_{og'} - F_t \cdot sin\alpha\right) = F_t \cdot cos\alpha \quad (6)$$

Yuqoridagi ishqalanish kuchi (6) ifodasidan ishqalanish kuchi formulasini topsak quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\mu = \frac{F_t \cdot cos\alpha}{\left(F_{og'} - F_t \cdot sin\alpha\right)} \quad (7)$$

№2-masala. *M* massali jismga gorizontal tekislikda tekislikka nisbatan α burchak ostida pastga yo‘nalgan F_t kuch bilan ta’sir qilib tekis tortib ketayotgan bo‘lsa $\vartheta = const$ ishqalanish kuchi va ishqalanish koeffisenti nimaga teng bo‘ladi?



Burchak sinus va kosinuslaridan foydalanib tortuvchi kuchning X va Y o‘qlaridagi proeksiyalarini yozib olamiz:

$$\begin{cases} sin\alpha = \frac{F_{t.y}}{F_t} \\ cos\alpha = \frac{F_{t.x}}{F_t} \end{cases} \rightarrow \begin{cases} F_{t.y} = F_t \cdot sin\alpha \\ F_{t.x} = F_t \cdot cos\alpha \end{cases} \quad (8)$$

Agar jism tekis harakat qilayotgan bo‘lsa ($\vartheta = const$).

Vektor ko‘rinishidagi bu tenglamalarning X va Y o‘qlaridagi proeksiyalarini yozamiz:

$$\begin{cases} Y\ o'qi\ bo'yicha \quad R = N \quad N - F_{t.y} = F_{og'} \quad \rightarrow N = F_{og'} + F_{t.y} = F_{og'} + F_t \cdot sin\alpha \\ X\ o'qi\ bo'yicha \qquad\qquad F_{ish} = F_{t.x} = F_t \cdot cos\alpha \end{cases} \quad 9)$$

Yuqoridagi ifodalardan ishqalanish kuchi ifodasini topsak quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Fish = \mu N = F_{t.x} = F_t \cdot cos\alpha \quad (10)$$

$$F_{ish} = \mu N = \mu\left(F_{og'} + F_t \cdot sin\alpha\right) = F_t \cdot cos\alpha \quad (11)$$

$$\mu N = \mu\left(F_{og'} + F_t \cdot sin\alpha\right) = F_t \cdot cos\alpha \quad (12)$$

Yuqoridagi ishqalanish kuchi ifodasidan ishqalanish kuchi (12) formulasini topsak quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\mu = \frac{F_t \cdot cos\alpha}{\left(F_{og'} + F_t \cdot sin\alpha\right)} \quad (13)$$

O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini masala yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan psihologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori samaradorlikka ega ta‘lim jarayoni negizida o‘quvchilar dars jarayonida asosiy element bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O. I. Ahmadjonov. Fizika kursi 1-qism, Toshkent, «O‘qituvchi» 1989
2. A.S. Safarov. Umumiy fizika kursi, Toshkent, “O‘qituvchi”. 1992
3. G‘aniyev.A.G. Fizika I qism. – Toshkent. 2009.
4. Suyarov.Q. Fizika (Mexanika va molekulyar fizika). I kitob.Toshkent.

FIZIKA DARSLARIDA ISSIQLIK HODISALARINI O‘QITISH

Z.Mamatqulov, N.Rahmatov
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi fizika fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Har qanday jismda atom va molekularning o‘zaro ta’siri va uzluksiz harakatlari jismning issiqlik holatiga bog‘liqdir. Jismning temperaturasi ko‘tarila borishi bilan m olekulalarning Broun harakati, idish devorlariga ko‘rsatadigan bosimi va diffuziya tezligi orta boradi. Bu esa jismning issiqlik holati molekulalarining tartibsiz- xaotik harakat tezliklari bilan bog‘likligini ko‘rsatadi. Shuning uchun molekulalarning haotik harakatiga issiqlik harakati ham deyiladi.

Kalit so‘zlar: Issiqlik o‘tkazuvchanlik, Konveksiya, Nurlanish, issiqlik miqdori, molekula, kinetik energiya, potensial energiya.

Jismni tashkil qilgan molekulalarning har biri issiqlik harakati hisobiga aniq kinetik energiyaga ega bo‘ladi. Molekulalar orasidagi o‘zaro ta’sir kuchlari sababli jismni tashkil qilgan molekulalar potensial energiyaga ham ega bo‘ladi. Shunday qilib, jismni tashkil qilgan barcha molekulalarning kinetik va potensial energiyalari yig‘indisiga jismning ichki energiyasi deyiladi.

Har qanday jismning ichki energiyasi issiqlik holatiga bo‘g‘liq bo‘lganligi uchun jism issiqlik holatining o‘zgarishi bilan ichki energiyasi o‘zgaradi. Modda issiqlik holatining o‘zgarishi, ya’ni uni tashkil qilgan molekulalar issiqlik harakati tezliklarining o‘zgarishi natijasida modda yoki isiydi yoki soviydi. Demak, jismning issiqlik holati o‘zgarganda molekulalarning faqatgina kinetik energiyasi o‘zgaradi, buning natijasida uning ichki energiyasi ham o‘zgaradi. Modda bir agregat holatdan ikkinchisiga o‘tganda, ya’ni qattiq holatdan suyuq holatga, suyuq holatdan gazsimon holatga yoki aksincha o‘tishlarda modda molekulalarining o‘zaro joylashi va ular orasidagi o‘zaro ta’sir kuchlari o‘zgarib, molekularning issiqlik harakat tezliklari ham o‘zgaravedi. Demak, moddaning agregat holati o‘zgarganda molekulalarning kinetik va potensial energiyalari o‘zgarib, modda ichki energiyasining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.Jismning issiqlik holatini uning temperaturasi belgilaydi. Shunday qilib, jismning temperaturasi molekulalarning kinetik energiyasiga bog‘liq:molekulalarning tartibsiz harakat kinetik energiyasi qancha ko‘p bo‘lsa, jismning temperaturasi shuncha yuqori bo‘ladi. Binobarin, jism temperturasi jism molekulalarining barcha holatini, tezligini, o‘zaro ta’sir kuchlarini va ularning o‘zaro joylashishini, ya’ni jismning ichki strukturasini, aks ettiradi.Huddi shuningdek, jismning o‘lchamlari, elastiklik, elekr, magnit, optik xususiyatlari ham uning temperaturasiga bog‘liqdir.Mehanik ish bajarmasdan jismlar bilan atrofdagi muhit orasida ichki energiyasining almashishiga issiqlik almashishi deyiladi. Issiqlik almashishi jismlarning bir-biriga tegib turganda va bir-biridan ma’lum uzoqlikda bo‘lganda ham sodir bo‘lib, bunda jismning ichki energiyasi ham o‘zgaradi.Issiqlik almashishi jismlar yoki jism qismlari orasida temperatura farqi bo‘lgandagina amalga oshadi. Temperatura farqi katta bo‘lganda almashish protsessi intensiv

ravishda o‘tadi. Jismlar yoki jism qismlari orasidagi temperatura tenglashganda issiqlik almashinishi to‘xtaydi va bu holatga termodinamik muvozanat deyiladi. Shunday qilib, issiqlik almashishda juda ko‘p molekulalarning o‘zaro to‘qnashishi, sababli yuqori temperaturali jismdan past temperaturali jismga energiyaning uzatilishi ular temperaturalari tenglashgungacha, termodinamik muvozanat bo‘lgunga qadar davom etadi. Jismning issiqlik almashish protsessida ichki energiyasining o‘zgarishiga berilgan yoki olingan issiqlik miqdori deyilib, u Q harfi bilan belgilanadi. Binobarin, Q kattalik isiqlik almashish jarayonida jismning olgan yoki bergan energiya miqdorini ifodalaydi.

Agar jismning ichki energiyasini U harfi bilan belgilasak, bu energiyaning o‘zgarishi ΔU bo‘ladi. Agar issiqlik almashinish protsessida jismning ichki energiyasi ΔU ga o‘zgarsa, u holda jism Q issiqlik miqdorini oladi yoki beradi, ya’ni

$$Q = \Delta U$$

Shunday qilib, Q issiqlik miqdori issiqlik almashish protsessida berilgan yoki olingan energiya miqdorini ifodalaydi.

Bajarilgan A ish ham turli protsesslardagi mehanik energiya o‘zgarishining o‘lchovi bo‘lib, protsesslar turiga bog‘liq.

Bajarilagan ish bilan bir qatorda, berilgan issiqlik miqdori jismning yoki jismlar sistemasi energiya o‘zgarishining o‘lchovi hisoblanadi. Bu aytilganlardan issiqlik miqdorining o‘lchov birligi ishning o‘chov birligi kabidir, ya’ni:

$$|Q|_{CI} = 1J$$

Shuni eslatib o‘tish kerakki, tarixan issiqlik miqdori kaloriya (kal) larda o‘lchangan edi.

1 kal deb, 1g distillangan suvni, $19.5^0 C$ ***dan*** $20{,}5^0 C$ ***gacha isitish uchuin zarur bo‘lgan issiqlik miqdoriga aytiladi.***

Demak, ishning joul birligi va issiqlik miqdorining kaloriya birligi o‘rtasida ekvivalentlik mavjud bo‘lib, unga isiqlikning mehanik ekvivalentligi deyiladi.

U quyidagiga tengdir:

$$I = \frac{A}{Q} = 4{,}19\,\frac{J}{kal}$$

Bundan 1kal issiqlik miqdori 4,19 J ishga ekvivalent, ya’ni 1kal=4.19 joul.

Xuddi shuningdek, aksincha, issiqlikning kalloriya birligi va ishning joul birligi o‘rtasida ham ekvivalentlik mavjud bo‘lib, unga mexanik ishning ekvivalenti deyiladi. U quyidagiga tengdir:

$$k = \frac{Q}{A} = \frac{1kal}{4{,}19\,J} = 0{,}24\,\frac{kal}{J}$$

Demak, 1J ish 0,24 kaloriya miqdoriga ekvivalent, ya’ni 1J=0,24 kal. Bu kattalikdan foydalanib, 1joul ishni yana quyidagicha ta’riflash mumkin.

Bir joul deb, 0,00024 kg massali distillangan suvni 292,5K dan 293,5K gacha isitishda zarur energiya-issiqlik miqdoriga aytiladi.

SI da ish va issiqlik miqdorlari bir xil, ya’ni joullarda o‘lchanganligi uchun, ekvivalentlar ham birga teng.

Tabiatda issiqlik almashish hodisasi issiqlik o‘tkazuvchanlik, nurlanish va konveksiya yo‘li bilan amalga oshadi.

Issiqlik o‘tkazuvchanlik deb, modda molekulalari va boshqa zarrachalarining tartibsiz xaotik harakati sababli moddaning bir qismidan ikkinchi qismiga ichki energiyaning uzatilish protsessiga aytiladi.

Konveksiya deb, notekis isitilgan suyuqlik yoki gaz qatlamlarining og‘irlik kuchi ta’sirida siljishi sababli sodir bo‘ladigan issiqlik almashuv protsessiga aytiladi.

Nurlanish deb, jismlar ichki energiyasini nur chiqarish yo‘li bilan uzatish protsessiga aytiladi.

Issiqlik faqat havosiz fazoda nurlanish yo‘li bilan uzatilishi mumkin. Masalan, quyoshning energiyasi Yerga nurlanish yo‘li bilan uzatiladi.

Issiqlik almashinuvi tufayli jismning ichki energiyasi qanchaga o‘zgarishini ko‘tsatuvchi kattalik **berilgan** yoki **olingan** issiqlik miqdori deyiladi. Agar jismning ichki energiyasi oshsa u isiydi, aksincha kamaysa-soviydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008.-180 b.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (taolim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste’dod, 2010.-140 b.
3. Tolipov U., Usmonboeva M. pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2006.
4. M.D.Jo‘raev..”Fizika o‘qitish metodikasi”T.TDPU.,2013
5. M.Kurbonov, D.Begmatova “Fizika o‘qitish uslubi fanidan majmua” 2015

ANIQ FANLARNI O‘QITISHDA NOAN'ANAVIY TA’LIM USLUBLARI VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Noraliyev Sanjarbek Nurislom o‘g‘li
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi
matematika fani o`qituvchisi
e-mail: sanjarnoraliyev@gmail.com
Tel.: +(998)-91-583-93-43

Annotatsiya: Mazkur maqolada aniq fanlarni o‘qitishda noan’anaviy ta’lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. An’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, innovatsion ta’lim metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish hamda amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, interfaol vositalar, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlarining samaradorligi ko‘rib chiqilgan.

Ushbu maqola o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va ta’lim sohasidagi mutaxassislar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: Noan’anaviy ta’lim uslublari, zamonaviy axborot texnologiyalari, aniq fanlar ta’limi, interaktiv metodlar, stem yondashuvi, raqamli ta’lim platformalari, virtual va kengaytirilgan reallik.

Asosiy qism:

Aniq fanlarning ahamiyati: - Aniq fanlar o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar beradi, balki ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Quyidagi jihatlar aniq fanlarning bolalar uchun ahamiyatini ko‘rsatadi:

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – matematika va fizika kabi fanlar aniq mantiq asosida yechim topishga o‘rgatadi, bu esa o‘quvchilarning analitik tafakkurini shakllantiradi.

Muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshirish – real hayotdagi muammolarni ilmiy yondashuvlar orqali hal qilish imkonini beradi.

Texnologik va muhandislik sohalariga tayyorlash – informatika, fizika va kimyo fanlari kelajakda muhandislik, dasturlash va boshqa texnik yo‘nalishlarda muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor yaratadi.

Ijodiy yondashuv va innovatsiyalar – ilmiy tajribalar va tadqiqotlar orqali o‘quvchilar yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga o‘rganadilar.

Hayotiy bilimlar – kimyo va fizika kundalik hayotda duch kelinadigan jarayonlarni tushunishga yordam beradi, bu esa atrof-muhitga ongli yondashuvni shakllantiradi.

O‘quvchilarni aniq fanlarga qiziqtirish usullari:

Aniq fanlarga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun quyidagi usullar samarali bo‘lishi mumkin:

Haqiqiy hayot bilan bog‘lash – Matematik formulalar yoki fizika qonunlarini real hayotdagi misollar orqali tushuntirish o‘quvchilarga ularning amaliy ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Tajribalarga asoslangan o‘qitish – Kimyo yoki fizika darslarida laboratoriya ishlarini o‘tkazish orqali o‘quvchilarning fan bilan bevosita shug‘ullanishiga sharoit yaratish.

Texnologiyalardan foydalanish – Interfaol taqdimotlar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali qiziqarli ta’lim muhiti yaratish.

Mashhur olimlar va innovatsiyalar haqida hikoya qilish – Ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olimlarning hayoti va kashfiyotlari haqida hikoya qilish orqali o‘quvchilarga ilhom berish.

Mustaqil loyihalar va tadqiqotlar – O‘quvchilarga qiziqarli ilmiy loyihalarni bajarish imkoniyatini berish va ularning natijalarini taqdim etish.

Ko‘rgazmalar va ekskursiyalar – Ilmiy markazlar, laboratoriyalar va sanoat korxonalariga tashrif buyurish orqali fanlarning real hayotdagi ahamiyatini ko‘rsatish.

Interfaol guruh ishlari – Guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilar bir-biri bilan fikr almashishi va ilmiy muammolarni birgalikda hal qilishi mumkin.

Aniq fanlarni o‘qitishda noan'anaviy ta'lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish:

Bugungi kunda aniq fanlarni, jumladan, matematika, fizika, kimyo va informatika kabi fanlarni o‘qitishda noan'anaviy ta'lim uslublaridan va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy dars uslublaridan farqli ravishda, innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, ular o‘rtasida hamkorlik va ijodkorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada noan’anaviy ta’lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati, ularning afzalliklari va ta’lim jarayonidagi o‘rni keng yoritiladi.

Noan'anaviy ta'lim uslublari:

Noan'anaviy ta'lim uslublari aniq fanlarni o‘rganishda o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning dars jarayoniga chuqur kirishishini ta'minlaydi. Quyidagi noan'anaviy usullar samaradorligi bilan ajralib turadi:

Blits-test va fikr yuritish sessiyalari – o‘quvchilarning tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun testlar va muhokamalar o‘tkazish. Bu usul o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) – aniq fanlarni o‘yin elementlari yordamida o‘rgatish, masalan, matematik viktorinalar yoki kimyoviy tajribalarni virtual tarzda o‘tkazish. O‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.

Loyiha asosida o‘qitish – o‘quvchilar mustaqil yoki guruh bo‘lib muayyan mavzu bo‘yicha tadqiqot olib boradi va natijalarini taqdim etadi. Bu metod o‘quvchilarning tadqiqot qilish, ma’lumotlarni izlash va tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Muammoli ta’lim – o‘quvchilarga ma’lum bir masala yoki muammoni hal qilish topshiriladi, bu esa ularni izlanishga undaydi. Ushbu usul orqali o‘quvchilar muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish va optimal yechimlarni topish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Interfaol ta'lim – guruh bo‘lib ishlash, rolli o‘yinlar va bahs-munozaralar orqali o‘quvchilarning faolligi oshiriladi. Interfaol metodlar ta’lim jarayonini yanada jonli va samarali qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Aniq fanlarni o‘qitishda quyidagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samarali bo‘ladi:

Interfaol doskalar – murakkab tushunchalarni grafik va vizual materiallar yordamida tushuntirish imkoniyatini beradi. Interfaol doskalar yordamida grafiklarni yaratish, dinamik modellarni ko‘rsatish va o‘quvchilar bilan muloqot qilish osonlashadi.

Mobil ilovalar va platformalar – GeoGebra, Desmos, Wolfram Alpha kabi dasturlar orqali masalalarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish. Ushbu dasturlar o‘quvchilarga murakkab matematik va fizika tushunchalarini ancha tushunarli qilib yetkazishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari – individual yondashuv orqali har bir o‘quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar berish. Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarga moslashtirilgan ta’lim taklif qilinishi, ularga individual yondashuv asosida bilim berish imkoniyatini yaratadi.

O‘zlashtirishi sust bo‘lgan o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalar turli jihatlardan yordam berishi mumkin. Quyida asosiy usullarni ko‘rib chiqamiz:

Video va audio materiallar:

Vizual va audio ta’lim materiallari (masalan, YouTube darslari, TED-Ed) mavzularni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Lektsiyalarni qayta tinglash imkoniyati borligi o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi.

Gamifikatsiya va motivatsiya:

Ball yig‘ish, reyting tizimi va mukofotlar orqali o‘quvchilar darsga qiziqishi ortadi.

Masalan, ClassDojo, Kahoot! yoki Duolingo o‘yin elementi bilan ta’limni qiziqarli qiladi.

Online repetitorlik va virtual o‘qituvchilar

Zoom, Google Meet yoki Microsoft Teams orqali individual yoki guruh mashg‘ulotlari o‘tkazish mumkin.

Chatbotlar va sun’iy intellekt yordamida o‘quvchi xohlagan vaqtda o‘ziga kerakli tushuntirishni olishi mumkin.

Moslashuvchan o‘rganish va mustaqil ta’lim

Elektron platformalar (Coursera, Udemy, Khan Academy) o‘quvchiga mustaqil va o‘z tezligida o‘rganish imkonini beradi.

Turli xil manbalar orqali murakkab mavzularni turli usullarda o‘rganish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar o‘zlashtirishi sust bo‘lgan o‘quvchilar uchun ta’lim jarayonini moslashuvchan, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Shu sababli, ularni ta’lim jarayoniga keng joriy etish muhimdir.

Xulosa

Noan’anaviy ta'lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish aniq fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Innovatsion metodlarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish va kelajak avlodni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Uzbekistonda ta’lim islohotlari bo‘yicha hukumat hujjatlari va qarorlari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari).

2. Mayer, R. E. (2020). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge University Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. OECD (2019). Trends Shaping Education 2019. OECD Publishing.
5. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. Basic Books.
2. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning (4th ed.). Wiley.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA NOAN'ANAVIY TA'LIM USLUBLARIDAN VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Normuratova Gavhar Sherqobilovna
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi
biologiya fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola biologiya fanini o‘qitishda noan’anaviy ta’lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning ahamiyatini yoritadi. Biologiya fani o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarning, shu jumladan interaktiv ta’lim metodlari, loyiha asosida ta'lim, video va virtual laboratoriyalar kabi texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ilmiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ko‘rsatilgan. Maqolada interaktiv darslar, virtual laboratoriyalar va ko‘rgazmali materiallardan foydalanish orqali biologik jarayonlar, ekologik tizimlar, genetik o‘zgarishlar va boshqa murakkab mavzularni o‘quvchilarga yanada tushunarli qilish mumkinligi ta’kidlangan. Shuningdek, ta’lim texnologiyalarining o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, zamonaviy ilmiy yangiliklar va tadqiqotlarga qiziqish uyg‘otishga yordam berishi, ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Maqola noan’anaviy ta'lim uslublari va axborot texnologiyalarining biologiya o‘qitishda samarali integratsiyasini ko‘rib chiqadi va o‘quvchilarni yanada faol va qiziqarli o‘rganishga undaydi.

Kalit so‘zlar: Biologiya fani, noan’anaviy ta'lim uslublari, zamonaviy axborot texnologiyalari, interaktiv ta’lim, virtual laboratoriyalar, video darslar, ekologiya, genetik jarayonlar, amaliy ta’lim, innovatsion metodlar, ta’lim sifatini oshirish, ta'lim texnologiyalari, bilimni mustahkamlash, kreatif fikrlash.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilish, ularning qiziqishini oshirish va o‘rganish metodlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan. O‘quvchilarga faqat nazariy bilimlarni berish yetarli emas, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirish zarur. Shu bois, biologiya fani kabi amaliy jarayonlarga asoslangan fanlarni o‘qitishda noan’anaviy ta’lim uslublaridan va

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarur. Bu o‘quvchilarga fanlarni chuqurroq o‘rganishga, bilimlarini mustahkamlashga va ilmiy qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Noan’anaviy ta’lim uslublarining ahamiyati

Noan’anaviy ta’lim uslublari an’anaviy o‘qitish uslublaridan farq qilib, o‘quvchilarga o‘rganish jarayoniga faol jalb bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Bu uslublar orasida interaktiv ta’lim, g‘oyaviy ta’lim, ko‘rgazmali va amaliy ta’lim kabi metodlar mavjud. Biologiya fanini o‘rgatishda bu metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Misol uchun, interaktiv ta’lim uslubi orqali o‘quvchilar faqat darslarni tinglamay, balki o‘rganayotgan materialga oid savollarni berish, guruh bo‘lib muhokama qilish, tajribalar o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Biologiya darslarida bu uslub o‘quvchilarga biologik jarayonlar, o‘simliklar va hayvonlarning tuzilishi va hayoti haqida faol fikr yuritishga yordam beradi. Shu tarzda, o‘quvchilar o‘zlarini ta’lim jarayonining muhim ishtirokchilari sifatida his qilishadi.

Bundan tashqari, g‘oyaviy ta’lim metodidan foydalanish, o‘quvchilarga ekologik muammolarni, tabiiy hodisalarni yoki ilmiy yutuqlarni o‘rganish imkoniyatini beradi. Masalan, biologiya darsida tabiatni asrash va ekologik muammolarni hal etish borasida o‘quvchilarni chuqurroq fikr yuritishga undash mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarning ilmiy fikrlashini va jamiyatdagi ekologik masalalarga nisbatan mas’uliyatli yondashuvlarini rivojlantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘quvdagi roli.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, ayniqsa, internet va interaktiv ta’lim platformalari, biologiya fanini o‘rganishda katta imkoniyatlar yaratadi. **Virtual laboratoriya** kabi texnologiyalar o‘quvchilarga biologik jarayonlarni xavfsiz va qulay sharoitda o‘rganish imkonini beradi. Misol uchun, mikroskop bilan ko‘rish mumkin bo‘lmagan mikroskopik organizmlar yoki o‘simliklar va hayvonlarning ichki tuzilishini virtual tarzda ko‘rsatish orqali o‘quvchilarga ilmiy jarayonlarni tushunishda katta yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga tajriba va kuzatuvlar o‘tkazish imkoniyatini beradi, shuningdek, xavfsizlikni ta’minlashda yordam beradi.

Virtual laboratoriyalar yordamida o‘quvchilar amaliy tajribalarni o‘tkazishdan oldin o‘rganishlari mumkin, bu esa dars jarayonining samaradorligini oshiradi. Masalan, o‘simliklarning fotosintez jarayonini, hayvonlarning ichki tuzilishini yoki hujayra bo‘linishini virtual tarzda ko‘rsatish o‘quvchilarga bu jarayonlarni aniq va tushunarli ravishda o‘rganishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, biologiya faniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va o‘quvchilarning ilmiy bilimi darajasini yaxshilaydi.

Masalan: Fotosintez jarayonini o‘rganishda virtual laboratoriya yordamida o‘quvchilar o‘simliklarning xloroplastlaridagi jarayonlarni simulyatsiya qilishlari mumkin. Bunda o‘quvchilar uglerod dioksidi va suvning o‘simliklar tomonidan qanday qayta ishlanayotganini, fotosintez uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni ko‘rishlari mumkin. Bu tajriba o‘quvchilarga fotosintezning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Yoki genetika bo‘yicha o‘quvchilarni Mendel qonunlari, genotip va fenotip farqlari bilan tanishtirish uchun interaktiv testlar va simulyatsiyalarni qo‘llash mumkin. Virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilar dominant va retsessiv xususiyatlarning qanday o‘tishini ko‘rishlari mumkin.

Biotexnologiya va tibbiyotdagi zamonaviy yutuqlarni o‘rganishda videomateriallar orqali genetik modifikatsiya, klonlash va stem hujayralari bilan bog‘liq tajribalarga nazar tashlash mumkin. O‘quvchilar bu jarayonlarni amaliyotda qanday qo‘llanayotganini va bu texnologiyalarning insoniyat uchun ahamiyatini o‘rganishlari mumkin.

Shuningdek, **videodarslar** ta’lim jarayonida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va o‘quvchilarga materialni qayta ko‘rish imkonini beradi. Videodarslar yordamida o‘quvchilar biologiya fanining murakkab jarayonlarini vizual tarzda ko‘rib, tushunishni osonlashtiradilar. Fotosintez jarayoni, hujayra bo‘linishi yoki mikroorganizmlarning rivojlanishini video ko‘rsatmalar yordamida o‘rganish o‘quvchilarga tushunishni yanada osonlashtiradi. O‘quvchilar videodarsni bir necha bor ko‘rib, materialni mustahkamlashlari mumkin, bu esa mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan: hujayra bo‘linishi jarayonlarini videodarslar orqali ko‘rsatish mumkin. O‘quvchilar mitoz va meyozning bosqichlarini virtual simulyatsiyalar orqali kuzatishlari, hujayra bo‘linishining qanday sodir bo‘lishini va uning genetik xilma-xillikka ta’sirini o‘rganishlari mumkin. Bunda ularda esda qolish va tasavvur qilish yaxshi rivojlanadi.

Ekologik tizimlar va o‘simlik va hayvonlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rgatishda video materiallar va interaktiv modellar orqali o‘quvchilarga ekosistemalarning ishlashini ko‘rsatish mumkin. Masalan, oziq zanjirlarini va energiya oqimini virtual tarzda tasvirlash orqali o‘quvchilar ekologik muvozanatning qanday saqlanishini tushunishlari mumkin. Natijada o‘quvchilarda analiz, sintez va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Biotexnologiya va tibbiyotdagi zamonaviy yutuqlarni o‘rganishda videomateriallar orqali genetik modifikatsiya, klonlash va stem hujayralari bilan bog‘liq tajribalarga nazar tashlash mumkin. O‘quvchilar bu jarayonlarni amaliyotda qanday qo‘llanayotganini va bu texnologiyalarning insoniyat uchun ahamiyatini o‘rganishlari mumkin. Bu bilan ularda fantaziyasini kengaytirish va loyihalash qobiliyati rivojlantirishimiz mumkin.

Tajriba va eksperimentlarning samaradorligini oshirish. Biologiya fanini o‘rgatishda amaliy tajribalar katta ahamiyatga ega. Ba’zi tajribalar xavfli bo‘lishi yoki maxsus sharoitlarni talab qilishi mumkin. Virtual laboratoriyalar va videodarslar yordamida o‘quvchilar bu tajribalarni xavfsiz va samarali tarzda o‘rganishlari mumkin. Masalan, mikroskop yordamida ko‘rish mumkin bo‘lmagan mikroskopik hayvonlarni yoki o‘simliklarning rivojlanish jarayonlarini virtual tarzda o‘rganish o‘quvchilarga yanada chuqurroq tushuncha beradi.

Shuningdek, biologik tajriba va eksperimentlarni ko‘rsatishda videodarslar ham samarali vosita hisoblanadi. O‘quvchilar tajribalarni video orqali ko‘rishlari mumkin, bu esa o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minlash bilan birga, darsda qiziqarli

va interaktiv muhit yaratadi. Tajribalar va eksperimentlarni real va xavfsiz tarzda ko‘rsatish, o‘quvchilarga ilmiy bilimi va tajribalarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi.

Motivatsiyani oshirishda, o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga faol jalb bo‘lishi muhimdir. Interaktiv video materiallar, simulyatsiyalar va amaliyot orqali o‘quvchilarga biologiya fanining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarini ham tushuntirish mumkin. Bunday yondashuv, o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ta’limning samaradorligini yanada oshiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, ayniqsa, internet va onlayn ta’lim platformalari yordamida, ta’lim olish imkoniyatlari global miqyosda yanada kengaymoqda. Endilikda o‘quvchilar dunyoning istalgan burchagidan, istalgan vaqtda videodarslarni tomosha qilish va o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega. Bu, o‘z navbatida, ta’lim jarayonini global miqyosda rivojlantirishga yordam beradi. Biologiya kabi ilmiy fanlarda o‘quvchilarga global ekologik muammolarni o‘rgatish, zamonaviy texnologiyalar yordamida yanada samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa

Biologiya fanini o‘qitishda noan’anaviy ta’lim uslublari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Virtual laboratoriyalar, videodarslar, interaktiv ta’lim platformalari va boshqa zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarga biologiya fanini o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu metodlarning qo‘llanishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv qiladi. O‘quvchilarga biologik jarayonlarni ko‘rish, tajribalarni o‘tkazish va mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini yaratish orqali ta’limni yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S. S. Ibragimov, D. Sh. Akhmedov, Biologiya fani metodikasi. Toshkent, "O‘qituvchi" nashriyoti, 2015.
2. A. T. Mirzayev, Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 2018.
3. G. R. Aliyeva, Biologiya fanini o‘qitishda interaktiv metodlar. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2020.
4. Sh. R. Xudoyberganova, Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2021.
5. G. P. Peshkova, Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish: nazariya va amaliyot. Moskva, 2017.
6. M. M. Karimov, Biologiya fanida axborot texnologiyalarining ro‘li. Journal of Modern Education, 2019.
7. B. A. Yuldashev, Virtual laboratoriyalar va o‘quvchilarning ilmiy faoliyati. Ta'lim va texnologiyalar jurnali, 2020.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Biologiya o‘qitish dasturi. Toshkent, 2017.
9. Virtual laboratoriyalar va o‘quvchilarning faol ta’lim metodlari. Ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar konferensiyasi, 2022.

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Qorabekov O‘tkir Yangiboy o‘g‘li,
Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi,
qorabekov94@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun matematika fani o‘qituvchisining innovatsion texnologiyalardan qanday foydalanish kerakligi va uning samaradorligini bilish uchun ko‘rsatmalar berilgan. Shu bilan birga o‘qitish metodlari, jarayonning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilib o‘tilgan. Ta’limda innovatsion jarayonlarni olib borishga keng urg‘u berilgan.

Tayanch so‘zlar: Innovatsiya, innovatsion texnologiya, metodika, optimallashtirish, raqobat, matematik tahlil, kommunikatsiya, differensiallashtirish, tendentsiya, matematik madaniyat.

Аннотация: В этой статье представлены рекомендации для современного учителя математике, чтоби узнать, как исползовать инновационные технологии и узнать об их эффективности. При этом показаны методы обучения и основные направления процесса. В образовании болшое внимание уделяется проведению инновационных процессов.

Ключевые слова: Инновация, инновационная технология, методология, оптимизация, конкуренция, математический анализ, коммуникация, дифференциация, тенденция, математическая культура.

Sifatli ta’limga kirish O‘zbekiston ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, u Davlat qonunlari va qoidalari bilan tasdiqlangan. Oliy ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jumladan, harbiy ta’limdagi o‘quvchilarni matematikaga tayyorlash bugungi kunda ta’lim sohasida ko‘rib chiqilayotgan muhim masalalardan biridir. Chunki zamonaviy texnikalarning ishlash tizimi, ya’ni dasturiy ta’minoti matematik algoritmga asoslangan.

Maqolaning maqsadi matematika o‘qituvchilarining kasbiy madaniyati asoslarini shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion o‘qitish texnologiyalarini hisobga olgan holda bo‘lajak harbiy xizmatchi va ofitserlarni zamonaviy uslubiy va matematik tayyorgarligini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalarini rivojlantirish.

So‘nggi o‘n yillikda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati muammosiga etarlicha e’tibor berishdi. Xususan, hozirgi rivojlanish bosqichidagi pedagogik innovatsiya muammosi I.M.Bogdanova, L.I.Danilenko, V.F.Palamarchuk, I.P.Pidlasy, A.I.Prigojin, O.Ya.Savchenko, V.A.Slastyonin va boshqalarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. M.V.Bogdanovich, L.M.Dutko, M.V.Kozak, G.Kopernik, Ya.A.Korol, L.P.Kochina, N.P.Listopad, L.Shtabovalarning ishlarida jarayonli dasturiy ta’minot masalalari o‘rganilgan. Matematikani turli metodologik yondashuvlar bo‘yicha o‘qitish. Matematika

o‘qitishni individuallashtirish va differensiallashtirishning asosiy qoidalari (O. Pexota, S. Logachevska, A. Furman va boshqalar), matematikani o‘qitishda o‘quv va kognitiv faoliyatning individual va jamoaviy shakllaridan foydalanish tizimlari (Yu. Malovany, I. Cheredov, O. Yaroshenko va boshqalar); matematik tafakkur va matematik madaniyatni rivojlantirishning metodik asoslari (I. Kaplunovich, V. Kraevskiy, E. Lodatko, L. Fridman va boshqalar).

Ta’limdagi innovatsion jarayon - uni yangilash, o‘qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni, tashkil etilishi, shakllari va usullarini o‘zgartirish, ta’lim jarayonini yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan izchil, maqsadli harakatlar majmuidir.

Matematikada innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zarur sharti ta’lim tizimini isloh qilish, ta’limning yangi didaktik va uslubiy kontseptual asoslarini ishlab chiqishdir.

Ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bo‘lishi kerak:

- multimedia, gipermedia tizimlari, elektron darsliklar va boshqalardan foydalanishga imkon beruvchi fanga yo‘naltirilgan o‘quv va axborot muhitini yaratish;
- aloqa vositalarini (kompyuter tarmog‘i, telefon, televideniya, axborot almashish uchun sun’iy yo‘ldosh aloqasi) o‘zlashtirish;
- axborot makonida "navigatsiya" qoidalari va ko‘nikmalarini o‘rganish;
- masofaviy ta’limni rivojlantirish

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish klassik ta’limdan sifat jihatidan ustundir. U klassik ta'lim doirasida birlashtirib bo‘lmaydigan jarayonlarni birlashtiradi: ta’lim, bandlik, martaba rejalashtirish, uzluksiz ta’lim. Oliy ta’lim hamisha o‘z jamiyatining hayoti va muammolarini aks ettiruvchi o‘ziga xos namuna, ko‘zgu bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi, shuning uchun bugungi kunda ta’lim jamiyatdagi o‘zgarishlarni boshqarishning muhim omilidir. Bu fuqarolar farovonligini oshirish vositasi, iqtisodiy barqarorlik omili va milliy xavfsizlikning kafolati bo‘lishi kerak. Buning uchun esa ta’lim tizimi o‘quvchilarga individual xususiyat va qobiliyatlardan kelib chiqqan holda sifatli ta’lim, tarbiyachilarga – munosib mehnat va turmush sharoiti, kasbiy o‘sish, o‘z-o‘zini anglashi uchun sharoit yaratishi kerak. Buning uchun esa o‘quv jarayoniga talaba shaxsiga yo‘naltirilgan eng yangi texnologiyalarni joriy etish zarur.

Universitetlarimizda matematikani tayyorlash amaliyotiga quyidagi o‘qitish texnologiyalari faol kiritildi:

- turli faoliyatdan ko‘p tarmoqli bilim va ko‘nikmalarni integratsiyalashuvini ta’minlaydigan dizayn texnologiyalari;
- muqobil variantlarni tanlash asosida ijodiy vazifalarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyalari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- interfaol metodlar (guruhda ishlash, loyiha usuli, “aqliy hujum”, “arra”, “keys usuli”, “akvarium”, rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari, “katta doira”, “fikrlar ko‘lami”, “Sokratdan keyin suhbat”, “Assotsiativ buta”, “Ochiq mikrofon”, (energiya beruvchi mashqlar, guruh muhokamasi, o‘zaro o‘rganish);

- muammoli ta’lim texnologiyasi;

Ushbu maqsadga erishish uchun ijodiy shaxsni rivojlantirish bo‘yicha ishlar tizimi o‘quvchini ijodiy faoliyat sub’ekti sharoitiga qo‘yadigan va uning shaxsiyatini shakllantirishni ta’minlaydigan mazmun, usullar, shakllar, usullar va vositalarning organik majmui bo‘lishi kerak.

Oliy o‘quv yurtlarida matematika fani o‘qitishning asosiy shakli o‘qitishning passiv shakli sifatida keskin tanqid qilinganiga qaramay, ma’ruza bo‘lib qolmoqda. Ma’ruzalar oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning eng qadimgi va eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, ma’ruza kurslari o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan shaklda taqdim etadigan katta hajmdagi bilimlarni sintez qiladi. Lekin an’anaviy ma’ruzalar talabalar talabiga javob bermaydi. Ularning o‘rnini ko‘rgazmali qo‘llab-quvvatlash, o‘quv ma’ruzalari, interfaol muhokamalar, o‘quvchilarning o‘quv jarayonida faol ishtirokini ta’minlovchi multimedia ma’ruzalari egallaydi.

Bugungi kunda multimedia ma’ruzalarining mutlaq ko‘pchiligi o‘qituvchilarning shaxsiy ishtiyoqi, ijodkorligi tufayli tashkil etilmoqda. Multimediali ma’ruzalarni amalga oshirishdagi muammoning yana bir jihati kompyuter texnologiyasini o‘zlashtirmagan o‘qituvchilarning tayyorgarliksizligidir. Taqdimot dasturlari, multimedia ma’ruzalarini tayyorlash katta kuch va jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchilar o‘zaro boyitishga, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning o‘zaro bilim almashinishiga, intellektual saviyasini oshirishga, hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga, akademik birdamlikka yordam beradigan ijodiy ish sifatida berilgan mavzu bo‘yicha multimedia taqdimotlarini tayyorlashlari mumkin.

Matematikani o‘zlashtirishning hozirgi bosqichida samaraliroq o‘rganish uchun aniqlik tamoyilini qo‘llash (jadvallar, diagrammalar, grafiklar va h.k.lar) orqali oqlanadi, uni bizning fikrimizcha, kompyuter bajaradi. Shunday qilib, o‘qituvchi matematikani o‘rganish jarayonini optimallashtiradi va diversifikatsiya qiladi. O‘quv jarayoniga kompyuterlarni joriy etish shaxsning tanlash erkinligini ta’minlaydi va o‘quvchidan o‘z bilimiga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi; o‘quvchining intellekti madaniyatlar va avlodlar muloqotiga jalb etish orqali rivojlanadi; umumiy vazifani bajarish va umumiy maqsadga erishish uchun individual mas’uliyat va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydigan hamkorlikda o‘rganish; muammoli vaziyatlardan foydalanish va talabalar motivatsiyasini shakllantirish orqali bilim faolligini oshiradi.

Demak, zamonaviy matematika ta’limining jadallashuvi zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanish bilan bog‘liq. Bundan tashqari, O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini tashkil etish va talabalar bilimini baholash ustidan nazoratning reyting tizimi keng qo‘llaniladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘quv faoliyatini faollashtirish, o‘quvchilarning faol mustaqil ishlarini rag‘batlantirish, shuningdek, sog‘lom raqobat uchun sharoit yaratish orqali ta’lim sifatini oshirishdan iborat.

Matematikani o‘rganish jarayoni o‘quv materialini o‘quvchining boshiga avtomatik ravishda singdirish emas. Bu jarayonda ishtirok etish uchun insondan mashaqqatli aqliy mehnat, o‘z faoliyati talab etiladi. Tushuntirishlar va namoyishlar

o‘z-o‘zidan hech qachon haqiqiy va doimiy bilimni keltirmaydi. Bunga faqat matematikadan faol va interaktiv ta’lim orqali erishish mumkin. O‘qituvchining mahorati talabalarga har bir vaziyatda eng maqbul bo‘lgan vositalar bilan eng yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alixonov S. “Matematika o‘qitish metosikasi” Toshkent. O‘qituvchi 2010.
2. Meliqulov A. va boshqalar. Matematika. I-II qism. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 2004 y.
3. Мишин В. И. Методика преподавания математики в средней школе. Частная методика. М: 1987 г.

KINEMATIKA BO‘LIMIGA DOIR MASALALAR YECHISHDA VEKTOR KO‘RINISHIDAGI IFODALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI.

Qoraboyev Husniddin Soxibjonivich
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ma’lumki, fizika fanini o‘qitish mexanika bo‘limidan boshlanadi. Mexanika fizikaning eng qadimdan rivojlangan bo‘limidir. O‘quvchilar mexanika bo‘limini qanchalik puhta o‘zlashtirsa fanning keyingi bo‘limlarini ham oson o‘zlashtiradi. Biz bilamizki fizik kattaliklar ikki turga bo‘linadi, skalyar va vektor kattaliklar. Ushbu maqolada masalalarni yechishda fizik kattaliklarni vektor ko‘rinishidagi ifodalaridan foydalangan holda yondashishning qulayliklari aniq masalalar yechimi orqali ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Fizik kattalik, vektor, skalyar, tezlik, koordinata, ko‘chish.

Keyingi yillarda yurtimizda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa aniq fanlarni o‘qitish, ularni o‘zlashtirishga katta e’tibor berilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kungi oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham fizika fanining ahamiyati, mamlakat taraqqiyotidagi o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tdi: “Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo‘lganini ko‘ramiz. Haqiqatan ham, fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarda natijaga erishib bo‘lmaydi”[1].

Ma’lumki, mexanika bo‘limida ko‘plab vektor kattalikllar bilan ish ko‘riladi va bu kattaliklar orasidagi bog‘lanishlar ham vektor ko‘rinishidagi ifodalardan iborat, shu bilan birga bu kattaliklarni skalyar ko‘rinishida ifodalash orqali ham ular orasidagi bog‘lanish ifodalarini, o‘zgarish qonuniyatlarini (vaqt bo‘yicha, koordinata bo‘yicha, boshqa bir kattalikka bog‘liq ravishda…) yozish mumkin. Vektor

ko‘rinishidagi ifodalar skalyar ko‘rinishidagi ifodalarga qaraganda uch marta ko‘proq ma’lumot beradi. Masalan: tekis o‘zgaruvchan harakatda tezlikning o‘zgarish qonuni ifodasini yozaylik

$$\vec{v} = \vec{v}_0 + \vec{a}t \ (1)$$

(1) ifodani koordinata o‘qlariga proeksiyalarini yozish orqali vektor ko‘rinishidan skalyar ko‘rinishiga o‘tkazsak quyidagi uchta ifodaga ega bo‘lamiz.

X o‘qidagi: $v_x(t) = v_{0x} + a_x t$ (1)

Y o‘qidagi: $v_y(t) = v_{0y} + a_y t$ (2)

Z o‘qidagi: $v_z(t) = v_{0z} + a_z t$ (3)

Yoki tekis o‘zgaruvchan harakatdagi ko‘chish ifodasini koordinata o‘qlariga proeksiyalarini yozish orqali vektor ko‘rinishidan skalyar ko‘rinishiga o‘tkazsak quyidagi uchta ifodaga ega bo‘lamiz.

$\vec{S}(t) = \vec{v}_0 \cdot t + \frac{\vec{a} \cdot t^2}{2}$ proeksiyasi

X o‘qidagi: $S_x(t) = v_{0x}t + \frac{a_x t^2}{2}$ (1)

Y o‘qidagi: $S_y(t) = v_{0y}t + \frac{a_y t^2}{2}$ (2)

Z o‘qidagi: $S_z(t) = v_{0z}t + \frac{a_z t^2}{2}$ (3)

Ko‘rib turganingizdek masalalar yechishda skalyar ko‘rinishdagi ifodalarga o‘tib yechim izlashda tenglamalar soni uch marta ortib ketadi va bu katta noqulayliklar keltirib chiqarishi mumkin va eng muhimi ifodalar soni ortganda o‘quvchining xato qilish ehtimoli ham ortadi. Shuning uchun kinematika bo‘limidagi aksariyat masalalarni yechishda vektor ko‘rinishidagi ifodalardan foydalangan holda oson yechim olish mumkin. Ayniqsa olimpiada masalalarini yechishda bu juda qo‘l keladi. Quyida ushbu usullardan foydalanishni aniq masalalar misolida tushuntirib o‘tamiz:

1-masala. 60 m/s boshlang‘ich tezlik bilan gorizontal otilgan jismning harakat boshidan 8 s o‘tgandagi tezligini aniqlang. [2]



Berilgan: $v_0 = 60$ m/s ; $\vec{v}_0 \perp \vec{g}$; $t = 8$ s ; $v = ?$

Tezlikning o‘zgarish qonuni: $\vec{v}(t) = \vec{v}_0 + \vec{g}t$ => $\vec{g}t \uparrow\uparrow \vec{g}$ $(t > 0)$ => $\vec{v}_0 \perp \vec{g}t$ => Demak oniy tezlik vektori o‘zaro perpendikulyar yo‘nalgan ikkita vektor yig‘indisidan iborat.

Uning moduli: $v = \sqrt{v_0^2 + (gt)^2} = \sqrt{60^2 + (8 \cdot 10)^2} = 100$ m/s

2-masala. Balandligi 10 m bo‘lgan qoyadan gorizontal otilgan tosh, otilish nuqtasidan 14 m masofada yerga urildi. Toshning boshlang‘ich tezligi qanday? [2]

Berilgan: $h_0 = 10$ m; $(\vec{v}_0 \perp \vec{g})$; $S_m = 14$ m (maksimal ko‘chishi) ; $v_0 = ?$



Ko‘chish vektori o‘zaro perpendikulyar yo‘nalgan ikki vektor yig‘indisidan iborat:

$$\vec{S} = \vec{v}_0 t + \frac{\vec{g}t^2}{2}$$



$$S^2 = (v_0 t)^2 + \left(\frac{gt^2}{2}\right)^2 \Rightarrow v_0^2 = \left(\frac{S}{t}\right)^2 - \left(\frac{gt}{2}\right)^2 \Rightarrow v_0 = \sqrt{\left(\frac{S}{t}\right)^2 - \left(\frac{gt}{2}\right)^2}\ ;\ t_t = \sqrt{\frac{2h_0}{g}} \Rightarrow$$

$$v_0 = \sqrt{\frac{S_m^2 g}{2h_0} - \frac{gh_0}{2}} \Rightarrow v_0 = \sqrt{\frac{S_m^2 g}{2h_0} - \frac{gh_0}{2}} = \sqrt{\frac{14^2 \cdot 10}{2 \cdot 10} - \frac{10 \cdot 10}{2}} = \sqrt{48} = 6{,}9 \text{ m/s}$$

3-masala. Basketbolchi to‘pni halqaga uloqtirdi. Otish paytida to‘pning tezligi 8 m/s va gorizontga 60^0 burchak ostida yo‘nalgan. To‘p 1 s dan so‘ng halqaga tushgan bo‘lsa, u qanday tezlik bilan tushgan? [2]



Berilgan: $v_0 = 8$ m/s ; $\alpha = 60^o$; $t = 1$ s ; v =?



$$\vec{v} = \vec{v}_0 + \vec{g}t\ ;\ v = \sqrt{v_0^2 + (gt)^2 - 2v_0 gt\cos\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right)} =$$

$$\sqrt{v_0^2 + (gt)^2 - 2v_0 gt\sin\alpha} =$$

$$= \sqrt{8^2 + (10 \cdot 1)^2 - 2 \cdot 8 \cdot 10 \cdot 1 \cdot \frac{\sqrt{3}}{2}} = 5\ \text{m/s}$$

4-masala. Jism gorizontga 45^0 burchak ostida 10 m/s tezlik bilan otildi. Jismning harakat boshlangandan 1 s o‘tgandagi ko‘chishini toping. [2]

Berilgan: $\alpha = 45^o\ ;\ v_0 = 10\ \text{m/s}\ ;\ t = 1\ \text{s}\ ;\ S = ?$

$\vec{S} =$



$\vec{v}_0 t + \frac{\vec{g}t^2}{2}$ => $S =$

$$\sqrt{(v_0 t)^2 + \left(\frac{gt^2}{2}\right)^2 - 2 \cdot v_0 t \cdot \frac{gt^2}{2} \cdot \sin\alpha} =$$

$$= \sqrt{(10 \cdot 1)^2 + \left(\frac{10 \cdot 1^2}{2}\right)^2 - 2 \cdot 10 \cdot 1 \cdot \frac{10 \cdot 1^2}{2} \cdot \frac{\sqrt{2}}{2}} = \sqrt{150 - 50\sqrt{2}} = 8.9\ \text{m}$$

Yuqorida ko‘rib turganingizdek vektor ko‘rinishidagi ifodalardan foydalanish orqali aksariyat masalalar matematikadagi “Uchburchakning ikki tomoni va ular orasidagi burchak berilgan holda uning uchinchi tomonini toping” tipidagi masalalarga kelib qoldi va oson yechimga ega bo‘ldik. Vektor ko‘rinishidagi ifodalarni afzalliklari har bir bo‘limdagi masalalarni yechishda, mavzuni to‘liqroq tushunishda, o‘quvchiga sodda holatda yetkazib berishda katta natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020. https://president.uz/oz/lists/view/4057
2. Сборник задач по физике. 10-11 классы/Авт.-сост.Е.Г.Московкина, В.А.Волков.-М.:ВАКО, 2017.

O‘QUVCHILARGA ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA NOAN’ANAVIY TA’LIM USLUBLARI VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Raximova Tozagul Sobir qizi
Jaloliddin Manguberdi nomidagi HAL
informatika va AT fani o‘qituvchisi,
raximovatozagul@gmail.com
Avazmuratova Salomat Olimovna
Jaloliddin Manguberdi nomidagi HAL kimyo fani o‘qituvchisi
avazmurotovasalomat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda noan’anaviy ta’lim usullari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi yoritilgan. Noan’anaviy ta’lim metodlarining ilmiy asoslari, ularning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish va amaliy bilimlarini rivojlantirishga ta’siri haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, STEM-ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, teskari sinf modeli va gamifikatsiya kabi innovatsion yondashuvlarning afzalliklari, samaradorligi va xalqaro tajribalar asosida ta’lim jarayoniga joriy etish yo‘llari tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv platformalari, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR va AR) texnologiyalarining o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ta’siri o‘rganiladi. Ilmiy tadqiqotlar va ekspertlar fikrlariga tayangan holda, maqolada innovatsion ta’lim usullarining istiqbollari va ularning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Noan’anaviy ta’lim uslublari, innovatsion ta’lim, zamonaviy axborot texnologiyalari, STEM-ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, teskari sinf modeli, gamifikatsiya, interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt, VR va AR texnologiyalari, interaktiv ta’lim.

Аннотация. В статье рассматривается использование нетрадиционных методов обучения и современных информационных технологий в преподавании точных и естественных наук. Приводится информация о научных основах нетрадиционных методов обучения и их влиянии на развитие критического мышления учащихся, самостоятельной исследовательской деятельности и практических знаний. Также на основе международного опыта будут проанализированы преимущества, эффективность и способы внедрения в образовательный процесс инновационных подходов, таких как STEM-образование, проектное обучение, модель перевернутого класса и геймификация. Будет изучаться влияние современных информационных технологий, включая интерактивные доски, виртуальные лаборатории, платформы обучения на основе искусственного интеллекта, а также технологии виртуальной и дополненной реальности (VR и AR) на обучение студентов.

Ключевые слова: Нетрадиционные методы обучения, инновационное образование, современные информационные технологии, STEM-образование, проектное обучение, модель перевернутого класса, геймификация,

интерактивные доски, виртуальные лаборатории, искусственный интеллект, технологии виртуальной и дополненной реальности, интерактивное образование.

Abstract. This article discusses the use of non-traditional teaching methods and modern information technologies in teaching exact and natural sciences. The scientific basis of non-traditional teaching methods, their impact on the development of students' critical thinking, independent research and practical knowledge is provided. The advantages, effectiveness and ways of introducing innovative approaches such as STEM education, project-based learning, the flipped classroom model and gamification into the educational process based on international experience are also analyzed. The impact of modern information technologies, including interactive whiteboards, virtual laboratories, artificial intelligence-based learning platforms, virtual and augmented reality (VR and AR) technologies on the process of students' learning is studied.

Keywords: Non-traditional teaching methods, innovative education, modern information technologies, STEM education, project-based learning, flipped classroom model, gamification, interactive whiteboards, virtual laboratories, artificial intelligence, VR and AR technologies, interactive education.

Zamonaviy ta’lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan texnologik muhitda yangi pedagogik yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, aniq va tabiiy fanlarni (matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika) samarali o‘qitish uchun innovatsion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ta’lim jarayoni nafaqat o‘qituvchidan bilim berishni, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishni ham talab qiladi. An’anaviy ta’lim metodlarida o‘quvchilar odatda ma’lumotlarni yodlash va ularni sinovlarda qayta aks ettirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy ta’limda tushunchalarni amaliyotga tadbiq etish, mustaqil tadqiq qilish va ijodiy fikrlash muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, ta’lim tizimida noan’anaviy metodlarni joriy qilish va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi o‘quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkoniyatini yaratmoqda. Masalan, interaktiv laboratoriyalar, virtual haqiqat (VR), sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari o‘quvchilarga murakkab jarayonlarni tushunish va real hayotda qo‘llash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), muammoga yo‘naltirilgan ta’lim (Problem-Based Learning) va gamifikatsiya kabi usullar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Dunyo miqyosida ta’lim sifatini oshirish borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologiyadan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va ularning bilimlarni uzoq muddat eslab qolishiga yordam beradi. Masalan, Finlyandiya va Singapur kabi ilg‘or ta’lim tizimlariga ega mamlakatlar aynan innovatsion metodlardan keng foydalanish orqali o‘quvchilarining natijalarini yaxshilashga erishgan.

Ushbu maqolada aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda noan’anaviy metodlarning o‘rni, ularning ilmiy asoslari, mashhur olim va pedagoglarning fikrlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

An’anaviy ta’lim tizimida asosan o‘qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lib, o‘quvchilar esa tayyor bilimlarni qabul qiluvchilar sifatida faoliyat yuritadi. Ammo zamonaviy ta’lim tamoyillariga ko‘ra, o‘quvchilar bilimlarni faqat eslab qolish emas, balki ularni tahlil qilish, tadqiq qilish va amaliyotga tadbiq etish orqali o‘zlashtirishlari kerak. Shu sababli, so‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga noan’anaviy usullar keng joriy etilmoqda. Ushbu usullar o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Noan’anaviy ta’lim metodlarining samaradorligi bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Amerikalik pedagog Jon Dyui (John Dewey) o‘zining “Tajriba asosida ta’lim” (Experiential Learning) konsepsiyasida o‘quvchilarning faqatgina nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi, balki ular hayotiy tajriba orttirishlari lozimligini ta’kidlagan. Shuningdek, Lev Vygotskiy o‘zining ijtimoiy-kognitiv rivojlanish nazariyasida o‘quvchilarning bilim olish jarayonida o‘zaro hamkorlik va muammolarni yechish orqali ko‘proq rivojlanishini isbotlagan.

Quyida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda samarali bo‘lgan noan’anaviy ta’lim usullari va ularning ilmiy asoslari keltirilgan:

STEM-ta’lim (Science, Technology, Engineering, Mathematics)

STEM – bu fan (science), texnologiya (technology), muhandislik (engineering) va matematika (mathematics) fanlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatish usulidir. Ushbu metod aniq va tabiiy fanlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning ilmiy va texnologik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. STEM-ta’lim bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar an’anaviy metodlarga qaraganda STEM yondashuvi orqali bilimlarni 35-40% tezroq o‘zlashtiradilar. Bu yondashuv AQSh, Germaniya va Singapur kabi rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimida muvaffaqiyatli joriy etilgan.O‘quvchilar fizik qonunlarni tushunish uchun robototexnika loyihalari yaratadilar. Bularga misol qilib matematika darslarida real hayotiy muammolarni hal qilish uchun muhandislik yondashuvlaridan foydalanilanishni, biologiya fanida zamonaviy biotexnologiyalar bilan tanishish va tajribalar o‘tkazishni keltirish mumkin.

Loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning – PBL)

Bu usul o‘quvchilarning muayyan muammolar ustida ishlashini va o‘z loyihalarini yaratishini talab qiladi. Natijada, ular o‘rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.Kembrij universiteti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, PBL usuli bo‘yicha ta’lim olgan o‘quvchilar an’anaviy usulda o‘qigan tengdoshlariga qaraganda muammolarni hal qilish bo‘yicha 25% yaxshiroq natijalarga erishgan.

PBL ga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Kimyo darsida ekologik muammolar bo‘yicha tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish.

- Fizika darsida energiya manbalarini o‘rganish va quyosh panellari bo‘yicha tajriba loyihasini amalga oshirish.

Teskari sinf modeli (Flipped Classroom)

An’anaviy darslarda o‘quvchilar dars vaqtida nazariy bilimlarni o‘rganib, uyda mustaqil mashqlar bajarsa, teskari sinf modelida esa ular dars oldidan video darsliklar va elektron resurslar orqali nazariy materiallarni o‘rganib chiqadilar. Sinfda esa amaliy mashg‘ulotlar va muhokamalar o‘tkaziladi.Harvard universiteti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, teskari sinf modeli an’anaviy darslarga qaraganda o‘quvchilarning bilimlarni eslab qolish ko‘rsatkichini 30-50% ga oshirishga yordam beradi.Biologiya darsida o‘quvchilar oldindan video darslarni ko‘rib chiqib, sinfda tajribalar o‘tkazadilar.Informatika fanida dasturlash bo‘yicha uyga tayyorlov berilib, sinfda loyihalar ishlab chiqiladi.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish)

O‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ta’limni qiziqarli qiladi. Ushbu metodda o‘yin platformalari, ballar, reyting tizimlari va mukofot tizimlari qo‘llaniladi. Gamifikatsiya orqali ta’lim olgan o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi an’anaviy usullarga qaraganda 20-30% yuqori bo‘lishi aniqlangan. Bu usul xotira va e’tiborni oshirishga ham yordam beradi.

Matematika fanida raqobatga asoslangan o‘yinlar va viktorinalar tashkil qilish.

Kimyo fanida laboratoriya ishlarini bajarish uchun ball tizimidan foydalanish

Zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘rni va imkoniyatlari. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada samaraliroq qiladi. Raqamli ta’lim vositalari nafaqat o‘qitish jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarga o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatini ham taqdim etadi. Ta’lim sohasidagi tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini 30-40% ga oshiradi, bilimlarni eslab qolish darajasini esa 50% gacha yaxshilaydi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar individual ta’lim yondashuvlarini rivojlantirish, real hayotiy muammolarni yechish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli ta’lim platformalari o‘quvchilarga istalgan joy va vaqtda mustaqil bilim olish imkoniyatini taqdim etadi. Udemy, Coursera, Khan Academy, Duolingo, Quizlet kabi platformalar butun dunyo bo‘ylab ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, o‘zbek ta’lim tizimida ham Ziyonet, Bilim Ziyosi va boshqa platformalar orqali raqamli ta’lim manbalaridan foydalanish kengayib bormoqda.

Sun’iy intellekt (SI) ta’lim jarayonida o‘qituvchilarga yordamchi bo‘lib, individual yondashuv asosida ta’limni moslashtirishga imkon beradi. Masalan, SI yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi tahlil qilinib, ularga shaxsiy o‘quv rejasi ishlab chiqiladi.

Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

Chatbotlar: SI asosidagi virtual yordamchilar (masalan, ChatGPT) o‘quvchilarga real vaqtda savollariga javob olish imkonini beradi.

Intellektual baholash tizimlari: Testlar natijalarini tahlil qilib, o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.

Shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlari: Har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim yo‘nalishini belgilab beradi.

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari real dunyodagi tajribalarni simulyatsiya qilish orqali o‘quv jarayonini ancha samarali qiladi. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar, tibbiyot, muhandislik, arxitektura kabi sohalarda VR va AR texnologiyalari katta ahamiyat kasb etadi.

Virtual laboratoriyalar: Kimyo va biologiya fanlarida o‘quvchilar xavfsiz muhitda tajribalar o‘tkazishlari mumkin. Masalan, "Labster" platformasi VR laboratoriya tajribalarini taqdim etadi.

3D modellashtirish: Fizika va muhandislik darslarida murakkab jarayonlarni tushuntirish uchun ishlatiladi.

AR qo‘llanmalar: O‘quvchilar darslikdagi materiallarni jonlantiruvchi ilovalar orqali interaktiv o‘rganishadi.

Dasturlash va robototexnika sohalari bugungi kunda ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, aniq fanlarni o‘qitishda robototexnika o‘quvchilarning muhandislik va matematik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Lego Mindstorms va Arduino platformalari orqali robototexnika darslari.

Scratch va Python dasturlash tillari orqali boshlang‘ich kod yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

IoT (Internet of Things) loyihalari orqali aniq fanlarni amaliyot bilan bog‘lash.

Internet texnologiyalari orqali masofaviy ta’lim olish imkoniyati kengayib bormoqda. Pandemiya sharoitida onlayn ta’lim butun dunyo bo‘ylab asosiy o‘qitish usuliga aylangan edi. Bugungi kunda esa onlayn ta’lim an’anaviy ta’limni to‘ldiruvchi samarali vosita sifatida foydalanilmoqda.

Xulosa

Zamonaviy ta’lim tizimida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda noan’anaviy ta’lim uslublaridan va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va innovatsion o‘qitish metodlari o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Noan’anaviy ta’lim usullaridan foydalanish, jumladan, STEM-ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, teskari sinf modeli va gamifikatsiya, o‘quvchilarni o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishga undaydi. Bu usullar ta’lim jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quvchilarga o‘zlashtirish jarayonida ko‘proq imkoniyatlar yaratadi. Virtual laboratoriyalar, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari, kengaytirilgan va virtual haqiqat (AR/VR) texnologiyalari, interaktiv doskalar va onlayn ta’lim tizimlari orqali fanlarni chuqurroq o‘rganish imkoniyati oshadi.

Shunday qilib, noan’anaviy ta’lim usullari va zamonaviy texnologiyalarning uyg‘unligi o‘quvchilarning aniq va tabiiy fanlarni o‘rganish jarayonidagi natijalarini

yaxshilaydi. Bu esa kelajakda bilimga asoslangan jamiyat shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmadov Sh. "Innovatsion ta’lim texnologiyalari" – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2022.
2. Xolmirzayev B. "Oliy ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" – Samarqand, 2021.
3. Jonson R., "Gamifikatsiya va ta’limdagi yangi tendensiyalar" – New York: Oxford University Press, 2020.
4. UNESCO. "Digital Learning and Future Education" – Parij, 2023.
5. Mayer R. E., "Multimedia Learning" – Cambridge University Press, 2021.
6. "STEM Education and Its Impact on Students’ Future Careers" – Harvard Educational Review, 2022.
7. "Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Challenges" – IEEE Journal on Education, 2023.

WEB FAOLIYATGA TAYYORLASH ELEKTRON RESURSLARI YARATISH VA JORIY ETISH METODIKASI

Reymbayeva Nilufar Kadirbaevna,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi
Informatika va axborot texnologiyalar fani o‘qituvchisi
elektron pochta: rnq1989@mail.ru

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va web-resurslar ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Web faoliyatga tayyorlash elektron resurslarini yaratish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etish metodikasi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada web faoliyatga tayyorlash bo‘yicha elektron resurslar yaratish bosqichlari, ularning didaktik tamoyillari va ta’lim jarayoniga integratsiyalash usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy web-resurslarning afzalliklari, ta’lim jarayonidagi o‘rni va ulardan samarali foydalanish usullariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: web faoliyat, elektron resurslar, raqamli ta’lim, interaktiv o‘quv materiallari, web-platformalar, masofaviy ta’lim, web dizayn, web dasturlash.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va internet muhitidan keng foydalanish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Web faoliyatga tayyorlash nafaqat IT-mutaxassislar uchun, balki ta’lim, tibbiyot, biznes va boshqa sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun ham muhim kompetensiya hisoblanadi. Shu sababli, web faoliyatga tayyorlovchi elektron

resurslarni ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga joriy etishning metodologik asoslarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Web faoliyatga tayyorlash uchun elektron resurslar quyidagi asosiy vazifalarni bajarishi lozim:

Web texnologiyalarning asosiy tamoyillarini o‘rgatish (HTML, CSS, JavaScript, PHP va boshqalar);

Interaktiv mashg‘ulotlar va amaliy topshiriqlar orqali tajriba orttirish imkoniyatini yaratish;

Onlayn o‘quv kurslari va masofaviy ta’lim platformalariga integratsiya qilish;

O‘quvchilarga real loyiha ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ushbu maqolada web faoliyatga tayyorlash bo‘yicha elektron resurslarni yaratish metodikasi, ularning didaktik asoslari va ta’lim jarayoniga integratsiyalash usullari keng tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Web faoliyatga tayyorlovchi elektron resurslarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish muhim:

Didaktik tamoyillar

Elektron resurslar quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanishi lozim:

Yuzasidan chuqurlikka tamoyili – o‘quvchilar asosiy tushunchalar bilan tanishib, keyinchalik chuqur bilim olishlari uchun mos uslubiyatni ishlab chiqish.

Bosqichma-bosqich rivojlanish – web dasturlashni asosiy kod yozish tamoyillaridan tortib, murakkab loyihalarni yaratishgacha yetaklaydigan o‘quv materiallarini ishlab chiqish.

Interaktivlik va amaliyotga yo‘naltirilganlik – nazariyani minimal darajada tushuntirib, ko‘proq real loyiha va amaliy topshiriqlar asosida o‘qitish.

Texnik tamoyillar

Elektron resurslar quyidagi texnik talablarga javob berishi kerak:

Platformaviy moslashuvchanlik – web-resurslar kompyuter, planshet va smartfon ekranlarida to‘g‘ri ishlashi lozim.

Yuqori tezlik va optimallik – web-platformalar tez yuklanishi va o‘quvchilarga qulay bo‘lishi kerak.

Kiberxavfsizlik tamoyillari – elektron resurslar himoyalangan va shaxsiy ma’lumotlarni saqlash bo‘yicha xalqaro standartlarga javob berishi lozim.

Interaktivlik va multimedia qo‘llanilishi

Raqamli ta’lim platformalari quyidagi interaktiv elementlardan foydalanishi mumkin:

Element	Ta’lim jarayonidagi ahamiyati
Video darslar	O‘quvchilarga vizual tushuntirish beradi
Interaktiv kod muharrirlari	Kod yozish va natijani onlayn ko‘rish imkonini yaratadi
Loyiha asosida ta’lim	Real dasturiy ta’minot yaratish tajribasini oshiradi
Onlayn test va baholash tizimlari	Talabaning rivojlanish dinamikasini baholaydi

- Web faoliyatga tayyorlashga mo‘ljallangan elektron resurslarni ishlab chiqish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:
- Tahlil qilish va talablarni aniqlash
- O‘quvchilarning bilim darajasi va ehtiyojlarini o‘rganish.
- Kurs mavzularini belgilash va resurs tarkibini shakllantirish.
- Dastlabki prototip yaratish
- Web-resurs dizayni va interfeysini ishlab chiqish.
- Interaktiv elementlarni loyihalash.
- Resursni dasturiy ta’minotga joriy qilish
- Web-dasturlar uchun HTML, CSS, JavaScript, PHP, Python kabi texnologiyalarni qo‘llash.
- Ma’lumotlar bazasi va foydalanuvchi interfeyslarini optimallashtirish.
- Sinov va takomillashtirish
- Resursning ishlashini testdan o‘tkazish va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish.
- Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va interfeysni optimallashtirish.

Xulosa va munozara

Raqamli ta’lim sharoitida web faoliyatga tayyorlash bo‘yicha elektron resurslarni ishlab chiqish va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish muhim strategik yo‘nalishlardan biridir. Ushbu maqolada elektron resurslarning didaktik va texnologik asoslari, ularni ishlab chiqish bosqichlari va ta’lim jarayoniga integratsiyalash tamoyillari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalar ilgari surildi:

Web faoliyatga tayyorlovchi resurslar ta’limning sifatini oshiradi va o‘quvchilarning interaktiv ishtirokini kuchaytiradi.

Dasturiy vositalarni to‘g‘ri tanlash va pedagogik metodlarni to‘g‘ri joriy etish samaradorlikni oshiradi.

Onlayn ta’lim vositalari va elektron resurslarni rivojlantirish kelajakda masofaviy va raqamli ta’limni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jaksılıkovna, J. A. (2022). Ta’lim jarayonini bulutli xisoblash texnologiyasi asosida tashkil etishning pedagogik omillari. Gospodarka i Innowacje., 23, 77-82.

2. Jaksilikovna, A. K. A. (2023). Problematic educational technologies aimed at developing professional competence of future teachers. Confrencea, 11(1), 50-54.

3. Brown, T. (2021). Digital Education and Web Technologies: Innovations in Teaching and Learning. Cambridge University Press.

4. Johnson, M. (2020). Web-Based Learning Environments: Design and Implementation Strategies. Springer.

5. UNESCO. (2022). The Future of Digital Education: Global Trends and Best Practices.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QTISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING AHAMIYATI

Safarov Abdivoxid Shukurovich
Termiz davlat universiteti
E-mail: asafarov1977@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada auditoriyadan tashqari mustaqil ta’limni tashkillashtirishda masofali o‘qitish texnologiyasi, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Mustaqil ta’lim jarayonlarini tashkillashtirishda internet tizimida topshiriqlarning berib borilishi, bajarilgan topshiriqlarni muntazam nazorat qilib borish o‘qituvchi va talabalarning faolligini yanada oshiradi.

Kalit so‘zlar: mustaqil, ta’lim, sifat, aniq va tabiiy fanlar, interaktiv, metod, texnologiya, innovatsiya, internet, axborot, masofali, o‘qitish, pedagogika, bilim, ko‘nikma, shaffof, xolislik.

Respublikamizning ta’lim muassasalarida ta’limning uzluksizligini va uzviyligini ta’minlash borasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asoslangan va talabalarning ijodiy faolligini inobatga oladigan an’anaviy bo‘lmagan o‘qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, u quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- talabalarning mustaqil ta’lim haqidagi tushunchalarini aniqlash, nazariy va amaliy bilim olish faoliyatini tahlil qilish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikma va malakalarini o‘rganish asosida ularga mustaqil ta’lim olishning ijtimoiy–pedagogik ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot berish;
- talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoji va uning psixologik omillar asosida mustaqil ta’lim mazmunini ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan mustaqil ta’lim mazmuni asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mustaqil ta’lim olish o‘quv yuklamalari hamda vaqt meyorlarini aniqlash;
- didaktik jarayonni amalga oshirish maqsadida mustaqil ta’limning tashkiliy shakllari, samarali metodlari va vositalarini tanlash;
- ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun talabalarning mustaqil ta’lim olishga qiziqish va ehtiyojlarini e’tiborga olib, aniq mavzular bo‘yicha topshiriqlar, ishlanmalar, tavsiyalar ishlab chiqish;
- talabalarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;
- talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish va amalga oshirish;
- talabalarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini baholash [1, 3].

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta’limga quyidagicha ta’rif berildi: *mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir* [2, 4].

Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo‘ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Mustaqil ta’lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliligi hamda o‘quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog‘liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir.

Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda mustaqil ta’lim jarayoni talabalarda shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni, bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, ularning umumkasbiy va maxsus fanlarga oid bilimlardan ongli ravishda foydalanish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun asos bo‘ladi [3, 5].

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi maxsus elektron dasturlar, darslik va qo‘llanmalar yaratish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir [4, 5].

Talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini baholash va nazorat qilish talabalarga hamda o‘qituvchilarga biroz bo‘lsada qulaylik tug‘diradi. Chunki o‘qituvchi istalgan vaqtda va joyda talabalarning mustaqil ta’limni bajarish uchun berilgan topshiriqlarni onlayn tarzda nazorat qiladi va baholaydi. Shuningdek, talaba har bir mustaqil ta’lim mashg‘ulotida olgan baholarini biladi va natijasini kuzatib boradi [3].

Shunday qilib, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida auditoriyadan tashqari mustaqil ta’lim tarkibiy qismi bo‘lib, talabalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi. Auditoriyadan tashqari mustaqil ta’limda talabalarning auditoriyada olgan bilimlarini mustahkamlabgina qolmasdan, ularni yetuk shaxs sifatida rivojlantirish, o‘z vazifasiga ma’suliyatli bo‘lish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori. – Toshkent, 2020 yil, 7 may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 yil, 9 oktabr, №209(7439)-son.
3. Boltayeva SH. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etishda masofali o‘qitish texnologiyasining ahamiyati. //“Ta’lim, fan va innovatsiya” ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal ISSN 2181-8274, sah. 31-34, Toshkent, 4-son, 2022 yil.
4. Qo‘ysinov O.A. Mustaqil ta’lim olish jarayonida talabalarning ijodiy tafakkurlarini shakllantirish. // Ta’lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi:

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005. - B. 98 – 99.
5. Qo‘ysinov O.A. Talabalarning mustaqil bilim olish mahorati darajalarini aniqlash omillari // Ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2005. - №2. - B. 21 - 23

KIMYO FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Saparbaeva Zamira Bazarbaevna
O‘zbekistan Respublikasi IIV Nukus
“Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Kimyo fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. O‘yinlar interaktiv ta’lim muhitini yaratib, mavzularni chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

Аннотация: Использование дидактических игр при обучении химии повышает интерес учащихся к предмету и помогает закрепит знания. Игры создают интерактивную образовательную среду, способствуя более глубокому усвоению тем.

Annotation: The use of didactic games in chemistry teaching increases students' interest in the subject and helps reinforce knowledge. Games create an interactive learning environment, enabling a deeper understanding of topics.

Kalit so‘zlar: darslik, o‘quv dasturi, bo‘shliq, faoliyat, metodika, didaktika, pedagogika, kichik guruh, dars, o‘qitish.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega, ya’ni, har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’i nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta’lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilar tomonidan fanlar bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;

- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol metod texnologiyasining mohiyati o‘quvchilarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug‘dirishdan iboratdir. Bu metodga ko‘ra darslar bir necha bosqichga bo‘linadi:

1. Tashkiliy bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilarni faollashtirish, mavzuining mazmun mohiyatiga kirib borish, uni anglab etish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko‘zda tutiladi.

2. Aqliy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo‘llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo o‘quvchilarga aqliy hujum yo‘li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olinadi.

3. Tushunish bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshitiladi va o‘qituvchi tomonidan yangi fikrlar tomonidan to‘ldiriladi.

4. Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jumlalarda yozma ravishda bayon qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh topshiriq bo‘yicha o‘z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga ma’lum qiladi. Organik kimyo fanini o‘tishda quyidagi didaktik o‘yinlarni qo‘llash mumkin:

“Uchinchisi ortiqcha” o‘yini. O‘yin tartibi: o‘quvchilar o‘zlariga berilgan topshiriqdagi ortiqcha tushunchani topishlari kerak. Bunda atamalar yoki moddalar aralashtirib beriladi. Masalan: 10-sinfda “Uglevodlar” mavzusi bo‘yicha ushbu o‘yinni quyidagicha o‘tkazish mumkin.

Ortiqcha uglevodni aniqlang.

1. glyukoza, maltoza, fruktoza.
2. saxaroza, riboza, sellyuloza.
3. fruktoza, kraxmal, sellyuloza.

«Kim eng ko‘p kimyoviy formula yozadi» o‘yini. O‘yin tartibi: o‘quvchilar oldida faqat qog‘oz va qalam bo‘lishi kerak. O‘yinni «uglevodarodlar», «aminokislotalar», «oqsillar» mavzusi bo‘yicha o‘tkazish ayniqsa yaxshi natija beradi. Bu o‘yin uchun ma’lum vaqt belgilanadi.

Masalan, «aminokislotalar» mavzusi e’lon qilinadi deylik, o‘quvchilar esa belgilangan vaqt ichida o‘zlari bilgan barcha aminokislotalarni yozib chiqadilar.

Yozilgan har bir aminokislota uchun bir ball beriladi. Ball sifatida rangli kartochkalar beriladi. O‘yinda eng ko‘p kartochka to‘plagan o‘quvchilar g‘olib hisoblanadi.

“Kim chaqqon?” o‘yini. o‘yin tartibi: bunda o‘qituvchi har bir guruh sardoriga atom-molekula sharlarini tarqatadi va o‘zi oldindan tayyorlab kelgan (parta soniga qarab) moddalar formulasi yozilgan qog‘ozlarni tarqatadi va 3 daqiqa vaqt belgilab, shu formula asosida atom sharlarida moddalarning struktura tuzilishini yasashni aytadi va o‘quvchilar modda nomi va birikmadagi elementlarning valentligini ham aytishi zarur.

Qaysi guruh chaqqonlik bilan birinchi bo‘lib topshiriqni bajarsa, shu guruh sardori yana 5 ball olish imkoniyati ya’ni rag‘batga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o‘rganish jarayonida noan’anaviy usullarni qo‘llash o‘quvchilarning ilm olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, ularning mustaqil fikrlashiga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishiga, darslik, qo‘shimcha ta’lim vositalaridan mustaqil bilim ola bilishiga yordam beradi. Bu o‘rinda fan o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi va to‘liq qondirishi, ta’limning tashkiliy shakllarini tanlashidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tolipov O‘, No‘monova N.Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Xalq ta’limi.-Toshkent,2016.
2. A.Mavlyanov va boshqalar “dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish” Toshkent. 2018 y
3. Choriev R.Yangi pedagogik texnologiyalar-ta’lim–tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent - 2015.254-255 b.
4. Zunnunov A, Didaktika (Ta’lim nazaryasi).-Toshkent.,2016.-132 b.

MATEMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA MATEMATIK PAKET DASTURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Shoyliyev Salohiddin Baxtiyarovich
O‘R MG Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL
salohiddinshoyliyev26011987@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematikadan masalalr to‘plamidagi ayrim masalalarni yechish usullari ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu masalalarning chizmalari Geogebra dasturida ishlab chiqilgan. Maqolada keltirilgan misollarni “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litsey matematika darslarida ham qo‘llash mumkin.

Kalit so‘zlar: Geogebra, geometriya, algebra, dasturiy vositalar, grafik dasturiy ta’minoti, funksiya grafigi, grafiklar kesishmasi, tenglama, ildiz, piramida, silindr.

Kompyuter texnologiyalarining matematik paketlaridan “Grafice”, “Maple”, “Mathcad”, “MicroSoft mathematics”, “Master funksiya”, “Matematikam”, “Geogebra” kabi dasturlaridan foydalanish tasvirlarni aniq koordinatalar o‘qida ko‘rsatish, o‘zgartirishlar kiritish, tahlil qilish va ko‘proq misol va masalalarni yechish hamda grafiklari bilan ishlash imkoniyatini beradi. Bu esa o‘quvchilarni texnik vositalardan oqilona foydalanishga yo‘naltirib bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga erishish mumkun.

Matematik grafiki amaliy dasturi: bu amaliy dastur berilgan funksiyalarini dekart koordinatalar sistemasida grafikini ko‘rsatish va ularni kattalashtirish, kichiklashtirish imkoniyatlarini beradi.

GeoGebra bu – geometriya, algebra va boshqa fanlar bo‘yicha ta’limning turli darajalarida foydalanish uchun dinamik (“jonli“) chizmalar yaratish imkoniyatini beradigan bepul dastur hisoblanadi. U geometrik shakllar, algebraik ifodalar, jadvallar, grafiklar va statistika bilan ishlash uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu dasturiy ta’minot 2002-yilda avstriyalik matematik Markus Hohenvarter tomonidan yaratilgan bo‘lb, hozirgi kunda undan millionlab ki-shilar foydalanib kelmoqda.

1-misol. $y=x^2+2$ funksiyani garafigini yasang. Bizda bu dastur kompyuterimizda o‘rnatilgan va undan foydalanishni bilamiz. GeoGebra dasturiga kirib, menyular qatoridan grafk chizish operatsiyasini tanlaymiz va kerakli joyiga funksiya ko‘rinishini yozsak hech bir qiyinchiliksiz grafigini chizib beradi. Bu dasturdan foydalanish ham vaqtdan tejashni ham ta’lim oluvchilar qiziqishini yanada oshiradi.



2-misol. $0{,}5^x=x+3$ tenglama nechta ildizga ega. Bu ko‘rinishidagi tenglamalarning yechishda grafik usulidan foydalanamiz. Tenglikning ikkala qismini alohida funksiyalar deb olamiz hamda $y=0{,}5^x$ va $y=x+3$ funksiyani garafigini chizib ularning necha marta kesishishini aniqlaymiz. Buning uchun GeoGebra dasturiga kirib, menyular qatoridan grafik chizish buyrug‘ini tanlaymiz va kerakli joyiga funksiyalar ko‘rinishini yozsak hech bir qiyinchiliksiz funksiyalar grafiklarini chizib beradi. Menyular qatoridan grafiklar kesishish buyrug‘ini tanlaymiz va kerakli



grafiklarni belgilasak hech bir qiyinchiliksiz funksiyalarning kesishish nuqtalarini belgilab hamda bu nuqtalarning koordinatalarini ko‘rsatib beradi.

Demak, $0{,}5^x=x+3$ tenglama bitta ildizga ega.



3-misol. $log_2(x+1)=x^2-6x+8$ tenglama nechta ildizga ega. Bu tenglamani ham yechishda yuqoridagi usuldan foydalanamiz.

Chizmadan ko‘rinib turibdiki, $log_2(x+1)=x^2-6x+8$ tenglama ikkita ildizga ega.

Yana bir misol, endi fazoviy jismlar grafigini ko‘ramiz. Kurib turganingizdek chizmada silindr va piramida aks etgan:

O‘qituvchining vazifasi har bir ta‘lim oluvchini mustahkam bilim hamda ularning ko‘nikmalarni shakllantirish, mustaqil va erkin fikrlash, bilimlarini amalda tatbiq etishga o‘rgatish, ijroda va xulq-atvorini shakllantirishdan iborat. Shu jumladan Matematika fanini o‘qitishda masalaning ahamiyati juda katta bo‘lib, bunda o‘quvchilarda matematikaga bo‘lgan qiziqishni orttirish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta‘lim jarayonida amaliy va nostandart xarakterdagi masalalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday masalalarni



yechish o‘quvchilarda analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya kabi mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini, intuitsiya, egiluvchanlik va moslashuvchanlik kabi fazilatlarni rivojlantirib, o‘quvchilarni olingan natijalar ustida tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi.

Demak, darslarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida olib borish o‘quvchilarni darsda befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va



izlanishga majbur etishi, kompyuter savodxonligini oshishiga, adabiyotlar o‘qishiga, qiyin o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning kamayishiga hamda o‘zi tanlagan kasbiga

bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish orqali egallanishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmining oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Geometriya 10-sinf [Matn]: darslik / B. Xaydarov, N. Tashtemirova, I. Asrorov − Toshkent: Res-publika ta’lim markazi, 2022. − 192 b.
2. 10-sinf Algebra va analiz asoslari [Matn]: darslik / A. Zaitov [va boshqalar] − Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. − 192 b.
3. http://www.geogebra.org – geometriya va algebra fanlari bo‘yicha dinamik (“jonli”) chizmalar yaratish imkoniyatini beradigan bepul dastur.

ANIQ FANLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION JARAYONLARNI YO‘LGA QO‘YISH

Tojimatov Qobiljon Maxammadtoir o‘g‘li
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi
Telefon:+998916700932
qtojimatov@inbox.ru

Annotatsiya. Maqolada fizika ta’limiga o‘qitish texnologiyasi va boshqa o‘quv innovatsiyalarini joriy etish hamda ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning muhim sabablari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, fizika, o‘qitish, innovatsiya, simulyatsiya.

Texnologiya kuchli vosita sifatida darsda chuqur va doimiy ta’sirga ega bo‘lib, undan foydalanish o‘qituvchilarning ta’lim berishi va o‘quvchilarning o‘quv jarayonlarini osonlashtirish va tushunarli qilish orqali darslarni o‘qitish usullarini kuchaytira oladi. Shuning uchun o‘qituvchilarning darsda texnologiyadan qanday foydalanishiga qiziqish ortib bormoqda. Har doim o‘zgarib borayotgan XXI asrda ta’lim oldidagi muammolar o‘qitish va o‘rganishga samaradorlik va qiymat qo‘shadigan texnologik vositalarni qanday topish va ulardan foydalanishdir.

Texnologiyadan foydalanish XXI asrda bizning hayot tarzimizga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Texnologiya aloqa, moliya, savdo, ta’lim va hatto sport o‘yinlarida ham keng qo‘llanilmoqda. Ta’limda texnologiya o‘qitish va o‘qitish usullarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega. Tez o‘zgarishlar o‘qituvchilardan o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, mustahkam ta’lim tizimini yaratishga olib keladigan o‘qitish va o‘qitishda innovatsiyalarni kiritish uchun texnologiyadan foydalanishga tegishli javobni talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchilarning darsda texnologiyadan qanday foydalanishiga qiziqish ortib bormoqda. Har doim o‘zgarib borayotgan XXI asrda ta’lim oldidagi muammolar o‘qitish va o‘rganishga samaradorlik va qiymat qo‘shadigan texnologik vositalarni qanday topish va ulardan foydalanishdir. Texnologiya kuchli vosita sifatida darsda

chuqur va doimiy ta’sirga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning o‘qitish amaliyotini va o‘quvchilarning o‘quv jarayonlarini osonlashtirish orqali darslarni o‘qitish usullarini o‘zgartirishi mumkin. Samarali ta’lim va o‘qitish uchun o‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlarga kirish, tartibga solish va baholash va amaliy g‘oyalarni real dunyo sharoitida yangilash uchun yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini talab qiladi. So‘nggi yillarda zamonaviy kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda dars mashg‘ulotlarni tashkil etishning innovatsion shakllari tobora ko‘payib bormoqda.

Fan ta’limida texnologiyadan foydalanish targ‘ib qilinadi, chunki texnologiya faol o‘rganish imkoniyatlarini beradi, o‘quvchilarga yuqori kognitiv darajalarda ishlashga imkon beradi, konstruktiv ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi. Texnologiya fanni o‘qitishning tadqiqot va amaliy jihatlarini yaxshilaydi; maktab ishlarini ishlab chiqarishni tezlashtiradi va oshiradi; motivatsiya va faollikni oshiradi; tadqiqot va tajribalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, texnologiyani fanni sinfiga integratsiya qilish uchun quyidagi standartlar ishlab chiqilgan.

- Texnologiya fanning mazmuni kontekstida joriy etilishi kerak.
- Texnologiya tegishli pedagogika bilan munosib ravishda fanga tadbiq etilishi kerak.
- Fanni o‘qitish texnologiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanishi kerak.
- Texnologiya ilmiy qarashlarni yanada qulayroq qilishi kerak.

Ma’lumotlarda ta’kidlanishicha, texnologiya bilan har qanday yaxshi o‘qitishning markazida uchta asosiy komponent mavjud: tarkib, pedagogika va texnologiya, shuningdek, ular o‘rtasidagi va o‘rtasidagi munosabatlar. Texnologik, pedagogik va mazmunli integratsiyaga hozir e’tibor qaratilayotgan bo‘lsada, o‘qituvchilar ushbu komponentlarni o‘z ta’limlarida, ayniqsa dunyomizning bu qismida integratsiyalashganligini ko‘rsatadigan dalillar kam. Ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar texnik vositalarni sotib olishga e’tibor qaratmoqdalar, bu uskunalar maktablarda qanday qo‘llanilishiga emas, balki maktablarda o‘rnatishga ko‘proq e’tibor berishadi. Ular ta’lim muassasalariga faqat texnologiyani olib kirish uning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun yetarli emasligini ta’kidlaydilar. Muhimi, o‘qituvchilar o‘z darslarida texnologiyadan qay darajada foydalanadilar Texnologiyani pedagogika va mazmunga integratsiya qilish uchun o‘qituvchilar o‘zlari o‘rgatadigan fan mazmuni va texnologiyani qo‘llash orqali ushbu mavzuni qanday o‘zgartirish mumkinligi haqida bilimga ega bo‘lishlari kerak va aksincha, aniq fanlarni o‘qitish muayyan texnologiyadan foydalanish natijasini qanday o‘zgartirishi mumkinligini bilishlari kerak.

O‘qituvchilar sinfda texnologiyani samarali integratsiya qilish uchun o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin bo‘lgan yondashuvlardan biri bu texnologiya, mazmun va pedagogikani uyg‘unlashtirish uchun kasbiy rivojlanishning turli bosqichlarida ishlashdir Ko‘pgina tadqiqotchilar fizikani o‘qitishda texnologiya muhim ahamiyatga ega ekanligini qabul qiladilar.

Yillar davomida o‘quvchilarning fizika fanidan past ko‘rsatkichlari tadqiqotchilarni asosiy sabablarni izlashga majbur qildi va tadqiqotchilar sinf ichidagi va tashqarisidagi omillarni mumkin bo‘lgan sabablar sifatida aniqladilar. O‘quvchilarning fizikaga qiziqishi yo‘qligi va yomon ishlashning asosiy omillari o‘qituvchilarga bog‘liq. Bir qator xalqaro olimlar ta’kidlashicha, fizika fani o‘qituvchilari standart muammolarni hal qilish va eslab qolish orqali o‘rganishga asoslangan an’anaviy o‘qitish yondashuvlariga amal qiladilar. Bu omillardan asosiysi o‘qituvchi omili edi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘rta maktab darajasida fanga qiziqish pasaygan, chunki mavzu ularga yomon taqdim etilgan. Tadqiqotda ishtirok etgan fizika fani o‘qituvchilari ham o‘quvchilarning qiziqish darajasi pastligining sabablaridan biri yomon o‘qish ekanligini tan olishdi. Fizika o‘qituvchilari qanday pedagogik yondashuvlardan foydalanadilar va ular texnologiyani o‘qitishga kiritadimi yoki yo‘qmi, bu qanday texnologiya ekanligi aniq emas. Aynan shu asosiy muammo va bu moammo quyidagi savollarni keltirib chiqaradi.

O‘quvchilar va o‘qituvchilarning fizika darsida texnologiyadan foydalanish haqidagi tasavvurlari qanday?

- Fizika o‘qitishda qanday texnologiya mavjud?
- Fizika o‘qituvchilari qanday pedagogik yondashuvlardan foydalanadilar?

Fizika ta’limiga texnologiya va boshqa o‘quv innovatsiyalarini joriy etishning eng muhim ikkita sababi

1) o‘quvchilarning fizikadan bilim olish qobiliyatini oshirish

2) o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan munosabatini yanada yaxshilashdir

Maktablarda fizikani o‘qitish uchun eng keng tarqalgan texnologiyalar kitoblar, bo‘r, oq doska, jadvallar, laboratoriya jihozlari va ma’lum darajada kompyuter texnikasi va dasturiy ta’minot ekanligiga o‘quvchilar va o‘qituvchilar ham rozi. Laboratoriya uskunalari kabi fanni o‘qitish uchun mavjud bo‘lgan ushbu umumiy texnologiyalar analog va an’anaviy xususiyatga ega bo‘lib, ular fanni o‘qitish uchun emas, balki fan bilan shug‘ullanish uchun mos keladi. Biroq, o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan e’lon qilinganidek, kompyuterlar bilan ishlaydigan simulyatsiyalar va videolar fizikani o‘qitishda eng kam qo‘llaniladigan texnologiyalardan biri edi. Shuning uchun ba’zi o‘qituvchilar sinflarda fizikani o‘rgatish uchun video va simulyatsiya emas, balki taqdimot dasturidan foydalanishlari mumkin. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilar fizikani o‘qitish uchun simulyatsiyalar, modellar, animatsiyalar va videolar kabi raqamli texnologiyalar talab qiladi.

Shuning uchun aytish mumkinki, fizikani o‘qitishning ustun usullari bu savollar va javoblar va namoyish usullari. Ushbu usullar maktablarda keng tarqalgan texnologiyalar bo‘lgan kitoblar va laboratoriya uskunalari kabi an’anaviy texnologiyalarga mos kelishi mumkin. Maktablar jihozlangan laboratoriyalarga ega bo‘lishi mumkin, ammo har bir o‘quvchining ishi uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun o‘qituvchilar ushbu ilmiy asboblar bilan birgalikda savol-javob va namoyish usullaridan foydalanishlari kerak. Fizika darsidagi tushunchalar va qonunlarni namoyish etish kabi o‘qitishga yo‘naltirilgan ushbu yondashuvlar fizikani

ko‘plab o‘quvchilar uchun qiziqarli qiladi. Ammo hozirda fizika darslarida o‘qituvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlar va bo‘r va nutq ko‘rsatmalari ustunlik qiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar, agar muammolarni hal qilish uchun modellashtirish, animatsiyalar va simulyatsiyalarni o‘z ichiga olgan o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanilsa, fizikani o‘rganish yana-da qiziqarli bo‘lishini ta’kidladilar.

Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchilar fizikani o‘qitishda foydalanadigan umumiy texnologiyalar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini uyg‘otmaydigan jadvallar kabi an’anaviy turlardir. Fizika o‘qituvchilari kamdan kam hollarda fizikani o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalar shaklini kiritadilar. Shuning uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarga berilgan tushunchalar yoki ko‘nikmalarni yaxshi tushunishlari uchun darslarni o‘tkazishda o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanishlari tavsiya etiladi. Fizika o‘qituvchilari ushbu tadqiqotda ko‘rsatilganidek, darslarni o‘tkazishda ma’ruza usulidan foydalanishdan qochishlari kerak. Bundan tashqari, fizika o‘qituvchilariga o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadigan video va simulyatsiyalar kabi zamonaviy va raqamli texnologiyalarni birlashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Albion, P., Jamieson-Proctor, R., & Finger, G. (2010). Auditing the TPACK competence and confidence of Australian teachers: The teaching with ICT audit survey (TWICTAS). Paper presented at the 21st International Conference of the Society for Information Technology & Teacher Education (SITE 2010), San Diego, California, United States.
2. Borich, G. D. (2007). Effective teaching methods: Research-based practice: Prentice Hall.
3. Bryan, J. (2006). Technology for physics instruction. Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 6(2), 230-245.
4. Buabeng, I. (2018). Physics classroom interactions: Teaching strategies and practices. Journal of Research in Science, Mathematics and Technology Education, 1(3), 311-328.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Turayev A.K
Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi
turayevazam1982@gmail.com +998904266499

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarga informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim

jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, platforma, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt.

O‘quvchilarga informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanib, ulardan ta’lim sohasida foydalanish zarurati ortib bormoqda. Axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va o‘quv jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda infratuzilma va texnik vositalarning yetarliligi ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim muassasalari kompyuter sinflari, interaktiv doskalar, internetga ulangan qurilmalar va turli elektron darsliklar bilan ta’minlanishi lozim. Shu bilan birga, onlayn ta’lim muhitining rivojlanishi masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirib, o‘quvchilar istalgan vaqtda va joyda ta’lim olishlariga sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish ham dolzarb masalalardan biridir. Internet xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborotga tanqidiy yondashish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilishi zarur. Chunki bugungi kunda kiberxavfsizlik masalalari dolzarbligi ortib bormoqda va axborotlarni himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini yanada shaxsiylashtirish mumkin. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilib, ularga mos keladigan ta’lim usullarini tavsiya qilishi mumkin. Bu esa har bir o‘quvchining individual xususiyatlariga mos keladigan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi. Masalan, ChatGPT yoki boshqa sun’iy intellekt asosidagi vositalar o‘quvchilarga qiyin savollarga javob topishda yordam berishi, murakkab algoritmlarni tushuntirib berishi va ularning bilim olish jarayonini tezlashtirishi mumkin.

Shuningdek, mobil texnologiyalar ham ta’lim jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalar yordamida o‘quvchilar dars materiallariga istalgan vaqtda murojaat qilishlari mumkin. Masalan, turli ta’lim ilovalari orqali o‘quvchilar mustaqil mashg‘ulotlar olib borishlari, amaliyot mashg‘ulotlarini bajarishlari va o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazishlari mumkin.

Barcha zamonaviy texnologiyalar ta’lim tizimiga joriy etilganda, ularning samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarning motivatsiyasini ham e’tiborga olish kerak. Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘llash) ta’lim jarayoniga qo‘shilganda, o‘quvchilarni darslarga jalb qilish yanada osonlashadi. Masalan, dasturlash fanini o‘qitishda o‘quvchilarga real loyihalar ustida ishlash imkonini berish yoki ularni turli tanlovlarga jalb qilish ularning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, informatika va axborot texnologiyalarining iqtisodiyot va jamiyatga ta’siri ham o‘quv dasturlarida o‘z aksini topishi lozim. Axborot texnologiyalari orqali global iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilishi muhimdir. Bu esa o‘quvchilarga nafaqat texnologiyalardan foydalanish, balki ulardan samarali daromad manbai sifatida foydalanish imkoniyatini ham yaratadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda zamonaviy usullar va texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning qiziqishini uyg‘otish, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Birinchi navbatda, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali o‘quv jarayonini interfaol va qiziqarli qilish mumkin. Masalan, virtual va kengaytirilgan realilik (VR va AR) texnologiyalari yordamida o‘quvchilar murakkab tushunchalarni vizual tarzda idrok etishlari va ularni amaliyotda ko‘rishlari mumkin. Bu esa nafaqat darslarni yana-da qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Misol uchun, biologiya darslarida inson anatomiyasini o‘rganishda VR texnologiyalari yordamida o‘quvchilar inson tanasining ichki tuzilishini batafsil ko‘rishlari va tushunishlari mumkin. Xuddi shu texnologiyalar informatika darslarida ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan, kompyuter tarmoqlari yoki ma’lumotlar bazasi tuzilmalarini VR yordamida vizualizatsiya qilish orqali o‘quvchilar murakkab tushunchalarni osonroq tushunishlari mumkin.

Ikkinchi tomondan, onlayn ta’lim platformalari va masofaviy o‘qitish usullari informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. O‘quvchilar istalgan vaqtda va istalgan joyda dars materiallariga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, onlayn testlar, videodarslar, interfaol vazifalar va forumlar orqali o‘quvchilar bilimlarini mustahkamlashlari va o‘zlarining bilim darajasini tekshirishlari mumkin. Masalan, Coursera, Khan Academy, Udemy kabi platformalar orqali o‘quvchilar dunyoning eng yaxshi o‘qituvchilaridan dars olishlari va yangi bilimlarni o‘zlashtirishlari mumkin. Bu esa ularning bilim doirasini kengaytirish va global miqyosda raqobatbardosh bo‘lish imkoniyatini beradi. Misol tariqasida, Khan Academy platformasida o‘quvchilar dasturlash, matematika, fizika kabi fanlarni bepul o‘rganishlari va interfaol mashqlar orqali bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Uchinchidan, sun’iy intellekt (AI) va ma’lumotlarni tahlil qilish (data analytics) kabi zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘rganish jarayoni aniqroq baholanishi mumkin. AI asosidagi tizimlar har bir o‘quvchining zaif tomonlarini aniqlab, ularga moslashtirilgan dasturlar va vazifalar taklif qilishi mumkin. Bu esa individual yondashuvni ta’minlash va har bir o‘quvchining potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Misol uchun, AI yordamida o‘quvchilarning dasturlashda qilgan xatolarini tahlil qilish va ularga to‘g‘ri yo‘nalishni ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini kuzatib borishlari va ularga moslashtirilgan dars rejalarini tuzishlari mumkin. Masalan, Google Classroom yoki

Microsoft Teams kabi platformalarda o‘quvchilarning faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasi va testlardagi natijalari avtomatik tarzda tahlil qilinadi va bu ma’lumotlar asosida o‘qituvchilar har bir o‘quvchi uchun individual yondashuvni ishlab chiqishlari mumkin.

Shuningdek, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda dasturlashni o‘rgatish katta ahamiyatga ega. Dasturlashni o‘rganish orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va algoritmik tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Buning uchun Scratch, Python, JavaScript kabi dasturlash tillaridan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, robototexnika va avtomatlashtirish kabi sohalar bilan tanishish orqali o‘quvchilar texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishini ko‘rishlari va ularni o‘z loyihalarida qo‘llashlari mumkin. Misol uchun, LEGO Mindstorms, Arduino kabi platformalar yordamida o‘quvchilar robotlar yaratishlari va ularni dasturlash orqali boshqarishlari mumkin. Bu esa ularning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni innovatsion fikrlashga undash imkoniyatini beradi. Masalan, Arduino yordamida o‘quvchilar oddiy robotlardan tortib, uy avtomatikasiga oid loyihalarni amalga oshirishlari mumkin.

Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar (cloud technologies) ham ta’limda keng qo‘llanilmoqda. Bulutli xizmatlar orqali o‘quvchilar va o‘qituvchilar dars materiallarini saqlash, ulashish va birgalikda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa hamkorlikni oshirish va loyihalarni birgalikda amalga oshirish imkoniyatini beradi. Misol uchun, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar orqali o‘quvchilar va o‘qituvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishlari, vazifalarni baham ko‘rishlari va birgalikda loyihalarni amalga oshirishlari mumkin. Masalan, o‘quvchilar Google Docs yordamida bir vaqtning o‘zida bir hujjat ustida ishlashlari va o‘z fikrlarini baham ko‘rishlari mumkin.

Xulosa

Axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda IT sohasi dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun o‘quvchilarni dastlabki bosqichdan boshlab zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish va ularni ushbu sohada qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish juda muhimdir. Masalan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), kiberxavfsizlik, bulutli texnologiyalar kabi sohalarda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar talab qilinmoqda. Shuning uchun maktablarda informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda ushbu sohalarga alohida e’tibor berish zarur. Misol uchun, o‘quvchilarga sun’iy intellekt asosida oddiy chatbotlar yaratishni o‘rgatish yoki katta ma’lumotlar bilan ishlashga oid loyihalarni amalga oshirishni ko‘rsatish mumkin. Ta’lim sohasida texnologiyalarni qo‘llash nafaqat bilimlarni oshirish, balki ijodiy yondashuv, innovatsion fikrlash va yangi yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shuning uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish – bu nafaqat zarurat, balki kelajakni qurishning asosiy omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azizxo‘jayev N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" – T.: Fan, 2010.
2. Xodjayev N.X. "Axborot texnologiyalari va tizimlari" – T.: Sharq, 2018.
3. Gafurov I., Xaitov A. "Raqamli ta’lim texnologiyalari" – T.: Ilm Ziyo, 2021.
4. Khan Academy, Coursera, Udemy – Onlayn ta’lim platformalari https://www.khanacademy.org, https://www.coursera.org.
5. Learning Management System (LMS) platformalari haqida umumiy ma’lumot – https://elearningindustry.com.

THE IMPORTANCE OF ORGANIZING LABORATORY TRAINING IN CHEMISTRY IN SECONDARY EDUCATION SCHOOLS

Xamidov Davlatmurod Xayrulloyevich
chemistry teacher, Military-academic lyceum of “Yosh chegarachilar”
davlatxamidov@gmail.ru

Annotation. Opinions were expressed about the laws and rules of using the chemistry room, the room where laboratory exercises are held, and the pharmacy where reagents are stored, and the importance of similar factors in chemistry classes in secondary schools.

Key words: chemistry, natural sciences, chemicals, laboratory, tripod, test tubes, glass rod, beaker, funnel.

It is known that chemistry is one of the natural sciences, and it is a science that studies the transformation and transformation of chemical substances into each other. Along with theoretical information, the role of practical-laboratory work is very important in mastering science. Practical work helps to fill the theory and expand imagination. Laboratory works, practical works are mainly carried out in laboratories, especially in chemistry rooms of secondary general education institutions. In secondary general education schools, the chemistry room consists of a room where laboratory exercises are held and a laboratory where reagents are stored. In the laboratory room, there are cabinets for storing various tools and reagents, tables for students to practice, various models and stands. Students' desks and the teacher's desk are equipped according to the content of each lesson.

There must be a water tap and a gas burner near the table where the teacher demonstrates the experiment. Students use an alcohol lamp. A laboratory tripod, a tripod with test tubes, a 100 or 250 ml flask, a 2 or 5 milliliter pipette, a 25 cm long glass rod, a beaker, a funnel and a porcelain glass are placed on the student's desk. Salt, acid and base solutions of various concentrations are kept in the lab room (laboratory) and the lab technician himself pours them to the students when necessary. In addition, the laboratory room should have firefighting equipment (a

box filled with sand, a fire extinguisher, etc.) and a first aid kit at one end and in a convenient place. In any laboratory, there is definitely a specialist working as a laboratory technician. The duties and tasks of each laboratory assistant are determined based on the uniqueness of the institution where he works.

The laboratory assistant monitors the students' compliance with safety rules while performing laboratory work. The laboratory technician should constantly increase his theoretical and practical knowledge and submit an exam to the teacher every year. At the end of every day, he checks that the electrical appliances in the cabinet are turned off, that there are no reagents left on the tables, that the water and gas taps are closed, and then locks the cabinet. Every laboratory technician should have a gown, glasses, and rubber gloves. The laboratory worker must always be neatly dressed, work with equipment properly, wash his hands with soap after working with substances. It is not recommended to wear synthetic clothes in the laboratory. The laboratory assistant and the teacher should thoroughly prepare the educational laboratory experiment together before the training, and secondly, they should try to perform a certain experiment without the participation of the student. Otherwise, when showing the experiments to the students, if some important part does not come out as expected (for example, if the gas does not come out, or if the precipitate does not fall, or if the color does not change), the reliability of the experiment may be damaged. The laboratory assistant prepares the necessary tools and reagents for the experiment or laboratory exercise based on the card prepared by the teacher. In some cases, some necessary things may be forgotten by the laboratory technician. Therefore, the teacher must inspect the prepared educational equipment and reagents and tell the laboratory technician what is missing. Using active methods of teaching in chemistry classes, paying great attention to the experiments and laboratory exercises that are the basis of the lessons, organizing them correctly, attracting the full attention of students to the experiments, it is necessary to get students to approach each event as researchers. The main goal of the practical training is to find out how thoroughly the theoretical knowledge of all the topics covered has been mastered. All necessary equipment and reagents must be prepared in advance for conducting such an exercise. For this reason, a few days before the training, the teacher tells the laboratory technician what preparation work should be done and writes it down in the laboratory technician's work journal. During the implementation of the experiment, it is necessary to control the activity of students, to highlight who is doing well, to monitor safety techniques and results. At the end of the work, it is necessary to leave a few minutes for pre-assembly. After the work is completed, its results are discussed and written in a notebook. After the completion of each laboratory work, the teacher gives a score to each student, taking into account the reports of the students on the laboratory exercise and how they conducted the experiment.

Currently, chemistry and chemical production are gaining great importance in the national economy. It made it possible to synthesize products that do not exist in nature, to use them for the creation of various machines and tools, for the

construction of residential buildings and the production of consumer goods. Only raw materials, ore, coal, oil, etc. are taken from nature.

Most metals are corroded by air, water, acid, alkali and salt solutions. This phenomenon is called corrosion. The word corrosion comes from the Latin "corrodore" which means decay. Corrosion is of two types in terms of its physico-chemical properties: chemical and electrochemical corrosion.

Gas corrosion is particularly damaging to metallurgy. To protect iron and steel products from gas corrosion, their surface is covered with aluminum. Corrosion caused by liquid fuels is included in the sentence of chemical corrosion. The main components of liquid fuel do not corrode metals, but corrosion occurs as a result of the effect of sulfur, hydrogen sulfide and sulfur-containing organic substances contained in petroleum and lubricating oils on metals. This effect is manifested only in waterless conditions. Converts to electrochemical corrosion in water. Several measures are used to protect metals from corrosion: a) covering the metal surface with other metals; b) covering the metal surface with non-metallic substances; d) adding various additives to metals; e) covering the metal surface with chemical compounds.

One of the methods of covering the metal surface with other metals is anodizing. The standard electrode potential of the metal used for this purpose should have a negative value compared to that of the metal that must be protected from corrosion in the active range of metals. For example, zinc coating (anodic coating) of iron is extremely beneficial, because the iron object does not corrode until all of the zinc coating its surface is depleted. When iron is coated with tin, a cathodic coating is obtained, because the coating metal is more original than the metal being coated. If somewhere in the cathode coating moves, the protected metal, i.e. iron, corrodes very quickly. Covering the surface of metals with varnish, paint, rubber, lubricating oils (solidol, technical vaseline), enameling and hokozo protect metals from corrosion. By adding 0.2-0.5% copper to ordinary steel, the corrosion resistance of steel can be increased by 1.5-2 times. Stainless steel contains up to 12% chromium, which is in a passive state and gives the steel its strength. Adding nickel and molybdenum to steel increases its corrosion resistance. Such steels are called alloyed steels. Coating the metal surface with chemical compounds. By carrying out special chemical operations, it is possible to cover the metal surface with a film of corrosion-resistant compounds. Such curtains are called oxide, phosphate, chromate and other curtains. The process of forming a corrosion-resistant oxide film on a metal surface is called oxidation. There are three ways to oxidize a metal object:

1) the surface of the metal object is oxidized by organic substances at a high temperature (blackened, blued, etc.);

2) a metal object (such as MnO_2; $NaNO_3$; $K_2Cr_2O_7$) is heated to the boiling temperature of a concentrated alkali solution in the presence of oxidizing agents;

3) electrolysis is carried out by placing a metal object in an electrolyte solution on the anode pole, this process is called anodization. Corrosion activators and inhibitors.

In most cases, students do not pay attention to the specific properties of the formed substances. Therefore, after evaluating the laboratory work, briefly commenting on the experiment will help to master the lesson well. Chemistry and especially its laboratories are interesting as well as extremely responsible.

It is more appropriate if the teacher and the laboratory assistant show the more complicated laboratory work to the students as a demonstration experiment, and also ensure that all students arrive on time for the laboratory session. is also very important.

If a student comes late to the lesson, he cannot understand the content of the experience, the sequence of work, and as a result, he will be behind everyone else. It works best if everyone starts and ends the experiment at the same time as much as possible.

When performing experiments, the order of work must be strictly followed. It is advisable to set the time in advance. In addition, it is appropriate to follow the principle from simple to complex when performing experiments.

REFERENCES

1. A.E. Yangibaev, M.Ergasheva "Organization and conduct of chemistry laboratory work in general secondary schools" Guide. Tashkent - 2010. 59 pages.
2. T.S. Nazarova, A.A. Grabetsky, V.N. Lavrova. Experimenting with chemistry at school. T. "Teacher". 1992, pp. 6-11, 104-105.
3. Egamberdiev, M. S., Oripov, I. U., & Sh, T. S. (2022). Development of a method for measuring the layer moisture condition of concrete and various bases. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 4, 82-84.
4. Kadyrov, Z. Z., Oripov, I. A., Tagiyev, A., Shomurodova, G., & Bobirova, M. (2022). Water-conserving irrigation technologies in say irrigation, effects on say growth and development. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 79-84.
5. Bekmurodovna, Kh. Z., & Umirzokov, J. U. Foreign experience on doing». Editorial college, 367.

PRODUCTION AND TECHNOLOGY OF POLYMERS

Khamidov Davlatmurod Khayrulloyevich
Chemistry teacher of Military academic lyceum
"Yosh chegarachilar"
davlatxamidov@gmail.ru

Abstract. In our era, when science and technology are rapidly developing, ensuring the fire safety of industrial facilities and structures with complex structural structures is one of the most urgent issues. In the developed countries of the world, great attention is being paid to the creation of highly effective fire retardants and coatings based on mineral raw materials aimed at increasing the fire resistance of

construction structures and materials. In the Republic of Uzbekistan, large-scale measures are being taken to ensure the fire safety of buildings and structures by creating and improving modern fire protection devices and systems.

Key words: science, technology, structures, coplex, rain, industry, hypan, ultrasound.

Discussion and results

It consists of creating content and developing technology for new fire-fighting coating compositions based on local raw materials. - Development of an effective method of obtaining fire-resistant and heatinsulating highly dispersed fillers based on GIPAN and multifunctional compositions; - Development of methods of increasing the efficiency of flame- and heatresistant, as well as fire-extinguishing compositions based on kaolin and liquid glass by influencing the physical state, thermal and thermal properties of GIPAN, its modified forms; - the physical properties, structure and chemical composition of the polymer are affected by the external field (ultrasound, heat) and chemical reagents, ensuring the achievement of the given thermal and physical parameters of the refractory compositions based on GIPAN; - development of fire protection mechanisms of wooden and inorganic building structures using the created heat-insulating compositions; Creation of effective fireresistant coatings on the basis of GIPAN, using them to increase the fire resistance of wooden and inorganic building structures, and to develop methods of multi-level fire protection; - creation of new compositions of heat-insulating materials based on local raw materials, analysis of their main fire-technical characteristics and development of non-combustible coatings and construction materials based on them; - Development of stable dispersed systems based on GIPAN and creation of high-performance fire extinguishing compositions based on them, as well asdevelopment of methods for evaluating the effectiveness of liquid fire extinguishing compositions. -quantum-chemical modulation and analysis of the structure and properties of primary substances. - Welding conditions with GIPAN, organosilicon substances in different proportions were studied and antiperins with high viscosity were obtained; - the optimal composition of the polymer obtained on the basis of GIPAN and TEOS in a ratio of 50:1 with liquid glass and kaolin was selected and high-dispersion fillers were developed that are heat-resistant and fireproof; - a method of increasing fire and heat protection functions of polymers was developed by modifying finely dispersed sodium silicate with the help of ultrasound and chemical reagents; - in accordance with the state standard (GOST 16363-98), new compositions with a multi-level fire protection function were developed based on polymers, which ensure the transfer of wooden building materials to the group of hard-to-burn materials; - the technology of obtaining fire-protective silicate products based on polymers was developed; - a non-flammable and heat-insulating material based on polymers designed to be used as a fire barrier was developed; - new liquid fire extinguishing compositions based on polymers were created and a method for evaluating the effectiveness of additional indicators of these compositions was developed. - properties of substances in the initial and intermediate transition states

were analyzed quantum-chemically, and electron distribution and charge distribution in their molecules were studied.

Conclusion

As can be seen from the above studies, at present, the rapid pace of scientific and technical development sharply increases the demand for thermostable and fireresistant polymer materials. Studies show that the next direction of application of organosilicon compositions is that they can be used as heat-insulating materials for reactors, pipelines and power plants operating at high temperatures. Due to the resistance of these materials to radiation, their use in nuclear energy can be of great interest. In addition, the shielding ability of organosilicon compounds, even without special additives, can be said to be higher than that of ordinary polymers due to the greater atomic mass of silicon compared to carbon.

REFERANCES

1. Isayev S. Kh., Kadirov Z. Z., Oripov I. O., & Bobirova M. B. (2022). Effects of resource-saving irrigation technologies in sunflower irrigation on soil hydrogeological conditions. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 4, 95-100.
2. Egamberdiyev, M. S., Oripov, I. U., Hakimov, S., Akmalov, M. G., Gadoyev, A. U., & Asadov, H. B. (2022). Hydrolysis during hydration of anhydrous calcium sulfosilicate. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 4, 76-81.
3. Egamberdiev, M. S., Oripov, I. U., & Sh, T. S. (2022). Development of a method for measuring the layer moisture condition of concrete and various bases. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 4, 82-84.

LOGARIFM TUSHUNCHASINI YANGICHA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA TUSHUNTIRISH

Xazratova Gulshoda Abdulatif qizi
O'zbekiston Respublikasi IIV Xorazm akademik litseyi
Matematika fani o'qituvchisi
Rajapova Avazjon Mo'minjonovna
O'zbekiston Respublikasi IIV Xorazm akademik litseyi
Matematika fani o'qituvchisi
xazratovagulshoda5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Logarifm tushunchasi sodda, qulay hamda qiziqarli tarizda yoritilgan boʻlib, mavzuni oʻrganayotgan talaba yoki

oʻquvchida ushbu mavzuga qiziqish yanada ortadi. Mavzuni esa turli oʻyinlar yordamida yanada mustahkamlab oladi.

Sonning logarifmi. Darajaga koʻtarish amaliga teskari amalni qarab chiqaramiz. $a^x = b$ ifodada x noma'lum boʻlib, uni topish: koʻrsatkichni topish amali deyiladi.

Misollar: $3^x = 27$ bo′lsa, $x = 3$; $2^x = 8$ bo‘lsa, $x = 3$; $5^x = 25$ bo‘lsa , $x = 2$; $10^x = 1000$ bo‘lsa, $x = 3$; $10^x = 0{,}01$ bo‘lsa, $x = -2$.

Ta’rif. Berilgan sonning berilgan asosga ko‘ra logarifmi deb, berilgan sonni hosil qilish uchun shu asosni ko‘tarish kerak bo‘lgan daraja ko‘rsatkichini aytiladi.[1]

Agar $a^x = b$ bo‘lsa, ta’rifga ko‘ra $x = \log_a b$. Bunda a – logarifmning asosi, b - logarifmlayotgan son, $a > 0$, $a \neq 1$ deb olinadi. $b > 0$ bo‘lishi ko‘rinadi.

$a^x = b \Rightarrow x = \log_a b \Rightarrow a^{\log_a b} = b$ ayniyat hosil bo‘ladi. Bunga asosiy logarifmik ayniyat deyiladi:

$$\mathbf{a^{\log_a b} = b}$$

Logarifmning ta’rifidan uning quyidagi xossalari kelib chiqadi:

a) Asos 1 dan farqli har qanday musbat son bo‘lganda:

$\mathbf{\log_a 1 = 0.}$ Chunki $a^0 = 1$

b) Asosning shu asosga ko‘ra logarifmi 1 ga teng:

$\mathbf{\log_a a = 1.}$ $a^1 = a$

c) $\log_a y_1 = \log_a y_2$ tenglikdan $y_1 = y_2$ ekanligi kelib chiqadi.

Endi logarifmlarning xossalarini qaraymiz.

Algebraik ifodaga kirgan sonlarni ularning logarifmlari orqali ifodalashni shu ifodani logarifmlash deyiladi.

a) Ko‘paytmaning (bo‘linmaning) logarifmi ko‘paytuvchilar (bo‘linuvchi va bo‘luvchi) logarifmlarining yig‘indisiga (ayirmasiga) teng:

$$\mathbf{\log_a (A \cdot B) = \log_a A + \log_a B.}$$

Isbot. $\log_a A = x_1$, $\log_a B = x_2$ bo‘lsin. Logarifmning ta’rifiga ko‘ra:

$$a^{x_1} = A, a^{x_2} = B$$

Bulardan:

$$a^{x_1 + x_2} = A \cdot B$$

Yana ta’rifga ko′ra:

$$\log_a (A \cdot B) = x_1 + x_2 = \text{Log}_a A + \log_a B.$$

Buni asosiy logarifmik ayniyat yordamida ham ko′rsatish mumkin:

$$a^{\log_a A} = A \ , a^{\log_a B} = B \ ,$$
$$a^{\log_a A + \log_a A} = AB$$

Ta’rifga ko‘ra:

$$\mathbf{\log_a (A \cdot B) = \log_a A + \log_a B}$$

Bo‘linmaning logarifmi ham shunday topiladi:

$$\mathbf{\log_a (A : B) = \log_a A - \log_a B.}$$

b) Darajaning logarifmi daraja ko′rsatkichi bilan asos logarifmining ko‘paytmasiga teng:

$$\mathbf{\log_a b^m = m \cdot \log_a b.}$$

Isbot: $\log_a b = x$ desak, $b = a^x$ va $b^m = a^{mx}$.

Demak,

$$\log_a b^m = m \cdot \log_a b.$$

Buni boshqacha isbotlash ham mumkin:

$\log_a b^m = \log_a (b \cdot b \cdot b \cdot \ldots \cdot b \cdot) = = \log_a b + \log_a b + \ldots + \log_a b = m \cdot \log_a b.$

m ta m ta

c) Ildizning logarifmi ildiz ostidagi son logarifmining ildiz ko‘rsatkichiga bo‘linganiga teng:

$$\log_a \sqrt[n]{b} = \frac{1}{n} \log_a b$$

d) Bir asosdan boshqa asosga o‘tish formulasi.

$$\log_a b = \frac{\log_c b}{\log_c a}$$

[2].

Mustahkamlash:

Bu bosqichda o‘quvchilar misollar yechish orqali shaharlarga borish yo′nalishini topishadi.



1-rasm

1. $\log_2 16+\log_3 81$
2. $\log_5 125$
3. $\log_4 64$
4. $\log_6 36+\log_3 27$
5. $\log_3 81+\log_5 25$
6. $\log_4 256+\log_5 125$
7. $\log_2 8+\log_9 81$
8. $\log_3 27 \cdot \log_2 8$
9. $\log_7 49 \cdot \log_4 64$
10. $\log_2 32 \cdot \log_8 64$

2-shahar

1. $\log_5 125$
2. $\log_3 81 \cdot \log_5 25$
3. $\log_4 16$

4. $\log_6 36+\log_3 27$
5. $\log_2 16+\log_3 27$
6. $\log_4 256$
7. $\log_2 8+\log_9 81$
8. $\log_2 32 \cdot \log_8 64$
9. $\log_3 27 \cdot \log_2 8$
10. $\log_7 49 \cdot \log_4 64$

3-shahar

1. $\log_2 16+\log_3 27$
2. $\log_2 8+\log_9 81$
3. $\log_4 256$
4. $\log_3 3$
5. $\log_3 27 \cdot \log_2 8$
6. $\log_4 256+\log_5 125$
7. $\log_7 49 \cdot \log_4 64$
8. $\log_6 36+\log_3 27$
9. $\log_5 125$
10. $\log_2 32 \cdot \log_8 64$

[3]

“Matematik bozor” o‘yini.

Bunda o‘quvchilar 3 xil qiyinlik darajasidagi savollar tanlashadi va savollarga to‘gri javob berishsa darajasiga mos holda ballarni qo‘lga kiritishadi.

2-rasm [4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Algebra va analiz asoslari A. N Kolmogorov
2. Qiziqarli matematika Y. I Perelman
3. Higher Algebra Hall Kinght
4. Matematikada 41 metod Gulnaz Kutubxonasi
5. Matematikadan testlar to‘plami

ОЛИМПИАДЫ ПО ФИЗИКЕ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К НАУКЕ И ТВОРЧЕСТВУ.

Кунназаров Аббаз Бисенбаевич
Нукус – учитель физики военно-академического лицея «Школа Темурбека».
+99893 920 38 39

Annotatsiya: Ushbu maqola fizika fanidan o‘tkaziladigan olimpiadalar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini va ijodkorligini rivojlantirishdagi ahamiyatini o‘rganadi. Fizika olimpiadalari, o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, murakkab masalalarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish imkoniyatini beradi. Maqolada, olimpiadalar jarayonida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va jamoaviy ish ko‘nikmalarini qanday rivojlantirishi, shuningdek, bu jarayonning ta’lim tizimidagi o‘rni va kelajakdagi ilmiy faoliyatlariga ta’siri haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: fizika, o‘qitish jarayoni, olimpiada, ijodkorlik, bilim, ijodiy fikrlash, zamonaviy texnologiyalar, yangicha yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение олимпиад по физике в развитии интереса учащихся к науке и творчеству. Олимпиады по физике дают учащимся возможность применять теоретические знания на практике, решать сложные задачи и повышать навыки творческого мышления. В статье представлена подробная информация о том, как развиваются навыки саморазвития, самостоятельного мышления и работы в команде у студентов в ходе олимпиад, а также о роли этого процесса в образовательной системе и его влиянии на будущую научную деятельность.

Ключевые слова: физика, учебный процесс, олимпиада, творчество, знания, творческое мышление, современные технологии, новые подходы.

Abstract: This article examines the importance of physics olympiads in developing students' interest in science and creativity. Physics Olympiads give students the opportunity to apply theoretical knowledge in practice, solve complex problems and increase their creative thinking skills. The article provides detailed information about how students develop self-development, independent thinking and teamwork skills during the Olympiads, as well as the role of this process in the educational system and its impact on future scientific activities is given.

Key words: physics, teaching process, Olympiad, creativity, knowledge, creative thinking, modern technologies, new approaches.

Введение. Наука физика вносит большой вклад в научно-технический прогресс человечества, изучая и понимая законы природы. Олимпиады играют важную рол в повышении интереса учащихся к физике и развитии их творческих способностей. Олимпиады по физике не только дают учащимся возможность применит теоретические знания на практике, но и развивают навыки творческого мышления. В ходе олимпиад учащимся приходится решат

Ushbu bo‘limlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, elektr hodisalarining nazariy va amaliy jihatlarini bosqichma-bosqich o‘rganish imkonini beradi. Ayniqsa, Joul-Lents qonuni energiyaning issiqlikka aylanish jarayonini tushuntiruvchi asosiy qonunlardan biri bo‘lib, elektrotexnika va kundalik hayotda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada mazkur qonunning amaliy tadbiqini o‘qitish metodikasi IMRAD modeli asosida tahlil qilinadi.

Materiallar va usullar.

Darsni samarali o‘tish uchun quyidagi metod va vositalar qo‘llanildi:

1. Tajribaviy yondashuv – Joul-Lents qonunini amaliy tajribalar orqali tushuntirish.

2. Muammoli ta’lim – o‘quvchilarga turli real hayotiy muammolarni yechish orqali bilim berish.

3. Hisoblash topshiriqlari – Joul-Lents qonuni asosida issiqlik miqdorini hisoblash.

4. PISA uslubidagi topshiriqlar – o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini oshirishga qaratilgan muammoli vaziyatlar.

1-soatlik dars ishlanma

Mavzu: Joul-Lents qonunining amaliy tadbiqi

Sinf: 8

Dars turi: Yangi bilim berish

Dars metodi: PISA topshiriqlari asosida muammoli ta’lim, tajriba, amaliy topshiriqlar

Darsning maqsadi:

1. Ta’limiy maqsad: Ushbu darsning asosiy ta’limiy maqsadi o‘quvchilarga Joul-Lents qonuni va uning amaliy tadbiqini tushuntirish, elektr tokining issiqlik ajralishi bilan bog‘liq jarayonlarni ilmiy asosda tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. O‘quvchilarga elektr toki o‘tganda ajraladigan issiqlik miqdorini aniqlash usullari, bu jarayonning texnik va kundalik hayotdagi qo‘llanilishi haqida tushuncha beriladi.

2. Tarbiyaviy maqsad: Ushbu dars orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, texnik tafakkurni rivojlantirish va elektr energiyasidan oqilona foydalanish madaniyatini singdirish maqsad qilingan. Joul-Lents qonunini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nafaqat fizik jarayonlarni tushunib olishadi, balki ulardan kundalik hayotda va texnik sohalarda qanday foydalanish mumkinligi haqida fikr yuritishadi.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: Ushbu dars o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ilmiy tahlil qilish va amaliy tajribalarga asoslangan o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Joul-Lents qonuni orqali o‘quvchilarda elektr energiyasining issiqlik hosil qilish xususiyatlarini tushunish, formulalar bilan ishlash va real hayotga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsad qilingan.

Darsning rejasi: (Izoh: O‘qituvchi sinf o‘quvchilarining imkoniyatidan kelib chiqqan holda darsni tashkil qilish bosqichlariga va vaqtiga o‘zgartirish kiritish mumkin).

N	**Dars bosqichlari**	**Vaqti**
1	Tashkiliy qism	5 minut
2	O‘tilgan mavzuni takrorlash	10 minut
3	Yangi mavzuni o‘rganish	15 minut
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
5	Uyga vazifalar	5 minut

Tashkiliy qism:

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashadi, sinfning to‘liqligi va darsga tayyorgarligini tekshiradi.

O‘quvchilarga dars davomida faol ishtirok etish, kuzatuvchan bo‘lish va eksperiment natijalarini aniq qayd etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Sinfda qulay psixologik muhit yaratish uchun qisqa motivatsion so‘zlar aytiladi.

Mavzu bo‘yicha qisqacha kirish so‘zi aytilib, Joul-Lents qonunining texnik qurilmalarda qanday qo‘llanilishi haqida savollar beriladi.

O‘tgan mavzuni takrorlash

1. Elektr tokining ishi va quvvati

Elektr toki ish bajara oladi va bu ish issiqlik, yorug‘lik yoki mexanik energiyaga aylanishi mumkin. Elektr tokining bajargan ishi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$A = UIt$

bu yerda:

- A – elektr tokining bajargan ishi (Joul yoki kilojoul),
- U – kuchlanish (Volt),
- I – tok kuchi (Amper),
- t – vaqt (sekund).

Elektr tokining quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$P = UI$

Shuningdek, Om qonunidan foydalanib, quvvat quyidagi ko‘rinishda ham ifodalanishi mumkin:

$P = I^2 R$ yoki $P = U^2 / R$

2. Elektr toki ta’sirida o‘tkazgichlarning qizishi

Elektr toki o‘tkazgichdan o‘tganda, o‘tkazgich qiziydi. Bu jarayon Joul-Lents qonuni bilan izohlanadi:

$Q = I^2 R t$

bu yerda:

- Q – ajralgan issiqlik miqdori (Joul),
- I – tok kuchi (Amper),
- R – o‘tkazgichning qarshiligi (Om),
- t – vaqt (sekund).

Bu qonunga ko‘ra, tok kuchi ortishi yoki o‘tkazgichning qarshiligi katta bo‘lishi natijasida ko‘proq issiqlik ajraladi. Ushbu hodisa elektr choynak, pech, dazmol kabi maishiy jihozlarning ishlash prinsipiga asoslangan.

3. O‘tgan mavzu bo‘yicha masala yechish

Masala 1:

Kuchlanishi 220 V bo‘lgan elektr pech 10 minut davomida 5 A tok o‘tkazdi. Pechning bajargan ishini va quvvatini hisoblang.

Yechim:

Ish: $A = UIt = 220 \times 5 \times (10 \times 60) = 660000$ J

Quvvat: $P = UI = 220 \times 5 = 1100$ W

Masala 2:

Qarshiligi 5 Om bo‘lgan o‘tkazgich orqali 3 A tok 2 daqiqa davomida o‘tganda ajralgan issiqlik miqdorini aniqlang.

Yechim:

$Q = I^2 R t = 3^2 \times 5 \times (2 \times 60) = 5400$ J

Yangi mavzuni o‘rganish Elektr energiyasining issiqlikka aylanishi hayotimizning turli jabhalarida keng qo‘llaniladi. Maishiy texnikalar (elektr choynak, dazmol, pech), sanoat isitish tizimlari va hatto transport tizimlarida bu hodisadan foydalaniladi. Bu jarayon Joul-Lents qonuni bilan izohlanadi.

1. Joul-Lents Qonuni va Uning Fizik Mazmuni: Joul-Lents qonuniga ko‘ra, elektr toki o‘tkazgichdan o‘tganda ajraladigan issiqlik miqdori quyidagi formulaga bo‘ysunadi:

$Q = I^2 R t$

bu yerda:

- Q – ajralgan issiqlik miqdori (J),
- I – tok kuchi (A),
- R – o‘tkazgichning qarshiligi (Om),
- t – vaqt (s).

Ushbu qonun energiya o‘zgarishi tamoyiliga asoslanadi: elektr energiyasi issiqlik energiyasiga aylanadi.

2. Amaliy qo‘llanilishi va real hayotiy misollar

2.1. Maishiy texnikalar

Joul-Lents qonuni elektr choynak, pech, dazmol va elektr isitgichlarda qo‘llanadi. Masalan, elektr pechdan foydalanganda, spiral ichidan tok o‘tib, uni qizdiradi va issiqlik hosil qiladi.

2.2. Sanoat va transport tizimlarida qo‘llanilishi

- Metalllarni payvandlash va eritish – katta tok kuchi yordamida metall qismlar eritilib, ular bir-biriga qo‘shiladi.
- Avtomobil dvigatellari va tormoz tizimlari – elektr energiyasi issiqlikka aylanishi natijasida ishqalanish va harakatni boshqarish mumkin bo‘ladi.

3. Eksperimental faoliyat: Amaliy tajriba

Tajriba maqsadi: Joul-Lents qonunini tajribada tekshirish.

Kerakli asbob-uskunalar: o‘tkazgich, ampermetr, voltmetr, qarshilik, vaqt o‘lchagich, elektr manbayi.

Ish jarayoni:

1. O‘tkazgichdan turli tok kuchlari bilan elektr toki o‘tkaziladi.
2. O‘tkazgichning harorati o‘lchanadi.
3. Qizish darajasi $Q = I^2Rt$ formulasi orqali hisoblanadi.

Natijalar tahlili: O‘quvchilar elektr toki kuchi ortgan sari ajralgan issiqlik ham ortishini kuzatadi va real hayotda bu hodisaning ahamiyatini tushunib yetadi.

Bu mavzuni o‘rganish orqali o‘quvchilar:

- Nazariy bilimlarini real hayotdagi holatlar bilan bog‘lash (elektr energiyasining turli amaliy foydalanishlarini tushunish).
- Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va hal etish (elektr jihozlari samaradorligini oshirishga oid savollarni tahlil qilish).
- Tajribalar orqali ilmiy dalillarga asoslangan fikrlashni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, Joul-Lents qonuni nafaqat nazariy jihatdan muhim, balki kundalik hayotda ham keng qo‘llaniladigan fizik qonuniyatlardan biridir.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Nazariy tushuncha va tahlil qilish savollari

1. Joul-Lents qonuni qanday fizik hodisani ifodalaydi?
2. Elektr toki o‘tkazgichdan o‘tganda nima sababdan issiqlik hosil bo‘ladi?
3. Joul-Lents qonunining formulasi qanday va undagi har bir kattalik nimani anglatadi?

4. Qanday qilib elektr pech va dazmollarda elektr energiyasi issiqlik energiyasiga aylanadi?

5. Elektr toki ajratgan issiqlik miqdorining ortishiga qanday omillar ta’sir qiladi?

2. Hayotiy holatlarga asoslangan qo‘llash savollari

6. Siz elektr choynak ishlatayotganda uning simlari sezilarli darajada qizib ketayotganini payqadingiz.

Bu hodisa nima sababdan yuzaga kelishi mumkin?

Issiqlik ajralishini kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rish kerak?

7. Ikki xil uzunlikdagi va bir xil qalinlikdagi mis simdan va po‘lat simdan iborat elektr o‘tkazgich bor.

Qaysi simdan o‘tgan elektr toki natijasida ko‘proq issiqlik ajraladi?

Nima uchun?

8. Elektr payvandlash uskunasida ishlatiladigan elektrod tezda qiziydi va eritiladi.

Bu jarayon qanday fizik qonuniyatlarga asoslanadi?

Qaysi elektr kattaliklarini boshqarish orqali payvandlash jarayonini samarali bajarish mumkin?

3. Eksperimental va hisoblash savollari

9. Masala: Qarshiligi 10 Om bo‘lgan o‘tkazgich orqali 2 A tok 5 daqiqa davomida o‘tkazildi. Shu vaqt ichida hosil bo‘lgan issiqlik miqdorini hisoblang. (Joul-Lents qonuni formulasi asosida yeching!)

10. Eksperiment tahlili:

Siz laboratoriyada elektr spirali orqali tok o‘tkazib, uning qizish darajasini kuzatyapsiz.

Agar tok kuchini ikki baravar oshirsangiz, ajraladigan issiqlik qanday o‘zgaradi?

Agar o‘tkazgich uzunligi oshirilsa, qanday natija kuzatiladi?

4. Muhokama va tanqidiy fikrlash savollari

11. Elektr pechlarning samaradorligi haqida fikr yuriting:

Joul-Lents qonuni asosida qanday qilib elektr pechlarning samaradorligini oshirish mumkin?

Samarador pechlar ishlab chiqarishda qanday materiallar ishlatilishi lozim?

12. Energiya tejamkorlik nuqtayi nazaridan, uy xo‘jaliklarida ishlatiladigan elektr isitgichlarning foydali ish koyeffitsenti qanday oshirilishi mumkin?

Uy vazifasi uchun 15 ta tahliliy mulohaza savollari berildi

Tahliliy mulohaza savollari

1. Joul-Lents qonuniga ko‘ra, elektr toki ajratgan issiqlik miqdori tok kuchining kvadratiga bog‘liq. Demak, tok kuchi ikki baravar oshirilsa, issiqlik qanday o‘zgaradi? Bu qanday amaliy oqibatlarga olib keladi?

2. Qanday qilib elektr energiyasining issiqlikka aylanishi ba’zan foydali, ba’zan esa zararli bo‘lishi mumkin? Hayotiy misollar bilan izohlang.

3. Elektr pech va elektr choynak qaysi omillar sababli har xil tezlikda qiziydi? Joul-Lents qonunidan foydalanib izohlang.

4. Metall elektr simlari juda qizib ketsa, qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin? Elektr simlarini haddan tashqari qizib ketishidan qanday himoya qilish mumkin?

5. Ikkita o‘tkazgich berilgan: biri uzun va ingichka, ikkinchisi esa kalta va qalin. Agar ularga bir xil tok berilsa, qaysi biri ko‘proq qiziydi va nima uchun?

6. Nima uchun elektr pechlar va isitgichlarning ichida simlar oddiy mis yoki alyuminiydan emas, balki nikel-xrom qotishmasidan tayyorlanadi?

7. Agar maishiy texnikalarda qarshilik katta bo‘lsa, qurilmaning samaradorligi qanday o‘zgaradi? Issiqlik ajralishi ortadimi yoki kamayadimi?

8. Nima uchun uzoq masofalarga elektr energiyasini uzatishda yuqori kuchlanish ishlatiladi? Joul-Lents qonuni asosida tushuntiring.

9. Sizningcha, kelajakda energiya tejamkor isitish tizimlari yaratish uchun qanday yangi materiallar yoki texnologiyalar ishlab chiqilishi mumkin?

10. Nima uchun elektr dvigatellarda va generatorlarda ajraladigan issiqlikni kamaytirish muhim? Issiqlik yo‘qotilishini minimallashtirish qanday samaralar beradi?

11. Elektr choynak ishlaganda simi ham biroz qizishini kuzatish mumkin. Agar sim butunlay qizib ketsa, bu qanday muammolarga olib kelishi mumkin? Buning oldini olish uchun qanday choralar ko‘rilishi kerak?

12. Nima uchun uzun elektr simlarining qarshiligi katta bo‘ladi? Agar siz elektr tarmoqlarining samaradorligini oshirishni istasangiz, qanday o‘zgarishlar kiritgan bo‘lardingiz?

13. Ba’zi elektr asboblarida issiqlik hosil bo‘lishi ijobiy holat bo‘lsa (masalan, elektr pech), ba’zilarida esa salbiy (masalan, kompyuter protsessori). Ushbu hodisalarga asoslanib, texnologiya sohasida qanday muhim xulosalar chiqarish mumkin?

14. Agar elektr simining materiali yomon o‘tkazuvchi bo‘lsa, Joul-Lents qonuni bo‘yicha qanday natija yuzaga keladi? Ushbu bilim elektr uskunalarni loyihalashda qanday qo‘llaniladi?

15. Agar siz elektr isitgichining samaradorligini oshirmoqchi bo‘lsangiz, uning konstruksiyasida qanday o‘zgarishlar qilgan bo‘lar edingiz? Joul-Lents qonuni bu borada qanday rol o‘ynaydi?

Bu savollar o‘quvchilarga elektr energiyasining issiqlikka aylanishi, materiallarning xususiyatlari, energiya samaradorligi va amaliy muammolarni hal qilish bo‘yicha chuqur fikrlash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Joul-Lents qonunining amaliy tatbiqini o‘quvchilarga tushuntirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar samarali natija berdi. O‘quvchilar elektr toki o‘tkazgich orqali o‘tganda hosil bo‘ladigan issiqlik miqdorining qanday omillarga bog‘liqligini tushunib yetdilar. Real hayotda ushbu qonunning qo‘llanilishi bilan bog‘liq misollar orqali mavzu yanada tushunarli bo‘ldi. Xususan, dazmol, elektr pech, choynak, elektr isitish tizimlari va payvandlash uskunalari Joul-Lents qonuni asosida ishlashi o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi.

Shuningdek, amaliy tajribalar va masalalar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini chuqurlashtirdilar. Elektr tarmoqlarida energiya yo‘qotishlarini kamaytirish, samaradorlikni oshirish va issiqlik ajralishining oldini olish bo‘yicha muhim xulosalar chiqarildi. O‘quvchilar uzoq masofalarga elektr energiyasini yetkazishda yuqori kuchlanishdan foydalanish zarurligini tushundilar. Bu orqali ular energiya samaradorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanishning muhimligini anglab yetdilar.

Muhokama natijasida shuningdek, zamonaviy ta’lim yondashuvlarining samaradorligi tasdiqlandi. PISA talablariga mos holda savol-javob, tahliliy fikrlash va hayotiy masalalarga asoslangan ta’lim metodlari o‘quvchilarning mavzuni mustahkam o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Eksperimentlar orqali mavzuni amaliy tushunish o‘quvchilarning qiziqishini oshirdi va ularni ilmiy izlanishlarga undadi. O‘quvchilar elektr toki ajratgan issiqlik miqdorini hisoblash, turli materiallarning qarshilik xususiyatlarini solishtirish va texnologiyalardagi muammolarni hal qilish bo‘yicha ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Bundan tashqari, o‘quvchilar energiya tejamkorlik va ekologik muammolar bo‘yicha ham bilimlarini kengaytirdilar. Elektr isitish tizimlarining samaradorligini oshirish, issiqlik ajralishini kamaytirish va energiya yo‘qotishlarini oldini olish bo‘yicha yechimlar ishlab chiqish muhimligi tushuntirildi. Kelajakda energiya tejovchi qurilmalarni ishlab chiqishda qaysi materiallar afzal ekanligi, elektr tarmoqlari samaradorligini oshirishda qanday yondashuvlar qo‘llanilishi kabi muhim muammolar muhokama qilindi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot Joul-Lents qonunini o‘qitishda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim usullaridan foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishini va ularning fizik hodisalarni real hayot bilan bog‘lash qobiliyatini rivojlantirishini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning ilmiy tafakkuri, muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalari va mustaqil izlanish olib borish qobiliyati ortdi. Shu bois, kelgusida bu yondashuvlarni yana-da rivojlantirish va boshqa fizika qonunlarini ham shu tarzda o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, Joul-Lents qonunining amaliy tatbiqi fizika ta’limida muhim o‘rin tutishini ko‘rish mumkin. Mavzuni o‘quvchilarga samarali yetkazish uchun an’anaviy yondashuvlardan tashqari, amaliy tajribalar, hayotiy misollar va zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish katta natija berdi. O‘quvchilar elektr toki o‘tkazgich orqali o‘tganda ajraladigan issiqlik miqdori qanday omillarga bog‘liqligini nafaqat nazariy, balki eksperimentlar orqali ham tushunib yetdilar. O‘quvchilar real hayotdagi elektr jihozlari va sanoat uskunalarida Joul-Lents qonuni qanday ishlashini anglab, energiya samaradorligi, issiqlik yo‘qotishlari va elektr uzatish tizimlarining ishlash prinsiplari haqida bilimga ega bo‘ldilar. Bundan tashqari, ular energiya tejash va ekologik muammolar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ham fikrlashga o‘rgandilar. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, PISA talablariga mos tarzda tashkil etilgan dars jarayoni o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi. Eksperiment va masalalar orqali o‘quvchilar fizik qonuniyatlarni real hayotga tatbiq qilish ko‘nikmalarini shakllantirdilar.

Umuman olganda, ushbu metodika Joul-Lents qonunini o‘qitishda yuqori natijadorlik ko‘rsatdi va fizika faniga bo‘lgan qiziqishni oshirdi. Kelajakda ushbu yondashuvni boshqa fizik qonunlarni o‘qitishda ham qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirish, texnologik yangiliklarni ishlab chiqish va ilmiy tafakkurni rivojlantirishda bunday ta’lim usullarining roli katta ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fizika fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent, 2023.
2. 8-sinf Fizika darsligi. Mualliflar: R. Xolbo‘tayev, S. T. Xabibullayev, A. O. Mahmudov, Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyoti, 2023.
3. Joul-Lents qonunining elektr tizimlarida qo‘llanilishi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. R. Resnick, D. Halliday, K. Krane. Fizika, 1-jild. Toshkent: «Fan», 2010.
5. M. V. Volkenstein. Fizika va texnika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2007.
6. B. I. Spasskiy. Umumiy fizika kursi: Elektr va optika. Moskva: Nauka, 2002.
7. PISA xalqaro baholash dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 2021-yil 6-aprel, PQ–5070-son.
9. Joul-Lents qonunining texnikada va kundalik hayotda qo‘llanilishi. Ilmiy maqolalar to‘plami, Toshkent: TATU nashriyoti, 2020.

   Internet manbalari:
10. https://www.pisa.oecd.org/
11. https://www.physics.org/
12. https://www.sciencedirect.com/

AKADEMIK LITSEYLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

J.K.Kalimbetov,
IIV Nukus “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litsey o‘qituvchisi, (PhD),
jkalimbetov@umail.uz

Annotatsiya: Akademik litseylarda matematika o‘qitishning xususiyatlari hamda muammolarini tadqiq qilish bo‘yicha bajarilgan ilmiy izlanishlar sifatida A.Abduxamidov, O.Musirmonov, A.Nasimov, A.Normatov J.Xusanov, A.YU.Bakirova, X.A.Sultonova, SH.S.Saipnazarov, I.U.Ibragimov, U.X.Xonqulov, E.O.SHaripovning ilmiy tadqiqot ishlarini ta’kidlab o‘tish mumkin. Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va undan foydalanishga doir ilmiy-tadqiqot

ishlari A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, SH.S.Axrarov, U.SH.Begimqulov, R.Boqiev, M.X.Lutfullaev, I.I.Tayloqov, A.Haitov, U.YUldashev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Akademik litseylarda o‘qituvchilar matematika ta’limining butun muammosini o‘quvchilarga faqatgina muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini berish bilan cheklanibgina qolmay, o‘quvchilarning shaxsiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi ham muhim. Ba’zi pedagoglar matematik rivojlanishni – matematika fani sohasidagi dalillar va malakalarni egallash jarayoni oqibatida o‘z-o‘zidan kelib chiquvchi deb hisoblaydi. O‘quvchilarga matematikadan bir nechta formula, ta’rif va teoremalarni o‘tib, masalalar to‘plamidan bir necha yuz masalalarni echimini topish orqali zaruriy rivojlanishni egallaydi. Bilim, ko‘nikma va malakalarning mazkur miqdori kamaytirilsa, kutilgan natija va rivojlanishni ta’minlab bo‘lmaydi. Bu nuqtai nazar pedagogik jihatdan xato hisoblanadi.

Sifatli ta’limga kirish O‘zbekiston ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, u Davlat qonunlari va qoidalari bilan tasdiqlangan. Oliy ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jumladan, harbiy ta’limdagi o‘quvchilarni matematikaga tayyorlash bugungi kunda ta’lim sohasida ko‘rib chiqilayotgan muhim masalalardan biridir. Chunki zamonaviy texnikalarning ishlash tizimi ya’ni dasturiy ta’minoti matematik algoritmga asoslangan.

Maqolaning maqsadi matematika o‘qituvchilarining kasbiy madaniyati asoslarini shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion o‘qitish texnologiyalarini hisobga olgan holda bo‘lajak harbiy xizmatchi va ofitserlarni zamonaviy uslubiy va matematik tayyorgarligini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalarini rivojlantirish.

So‘nggi o‘n yillikda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati muammosiga etarlicha e’tibor berishdi.

Matematika o‘qitish nazariyasi va metodikasi o‘quvchilarning rivojlanishi, matematik tarbiyasi masalalariga borgan sari ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Bu haqda o‘qitish metodikasiga nisbatan asta-sekin o‘zgarib borayotgan qarashlar va bu bilan bog‘liq ravishda mazkur fan nomining o‘zgarishi guvohlik bermoqda: matematika metodikasi (matematikaga yo‘l) – matematika didaktikasi (matematika o‘qitish) – matematika pedagogikasi (matematik tarbiya). Zamonaviy umumta’lim dasturi ta’limning bosh maqsadlari qatorida “o‘quvchilarning intellektual rivojlanishlari”ning ko‘rsatilishi ham bejizga emas. Matematika ta’limi jarayonida o‘quvchilar shaxsini rivojlantirish masalasiga taniqli matematik, pedagog A.I.Markushevich katta e’tibor qaratgan. Uning fikriga ko‘ra, maktabda matematika ta’limining butun muammosini o‘quvchilarga faqatgina muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini berish bilan cheklash mumkin emas. Bu matematikaning umumiy ta’limdagi rolini qonuniy ravishda cheklagan bo‘lar edi.

Ta’limdagi innovatsion jarayon - uni yangilash, o‘qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni, tashkil etilishi, shakllari va usullarini o‘zgartirish, ta’lim jarayonini yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan izchil, maqsadli harakatlar majmuidir.

Asosiy qism: Matematikada innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zarur sharti ta’lim tizimini isloh qilish, ta’limning yangi didaktik va uslubiy kontseptual asoslarini ishlab chiqishdir.

Xulosa: Demak, zamonaviy matematika ta’limining jadallashuvi zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanish bilan bog‘liq. Bundan tashqari, O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini tashkil etish va talabalar bilimini baholash ustidan nazoratning reyting tizimi keng qo‘llaniladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘quv faoliyatini faollashtirish, o‘quvchilarning faol mustaqil ishlarini rag‘batlantirish, shuningdek, sog‘lom raqobat uchun sharoit yaratish orqali ta’lim sifatini oshirishdan iborat.

Matematikani o‘rganish jarayoni o‘quv materialini o‘quvchining boshiga avtomatik ravishda singdirish emas. Bu jarayonda ishtirok etish uchun insondan mashaqqatli aqliy mehnat, o‘z faoliyati talab etiladi. Tushuntirishlar va namoyishlar o‘z-o‘zidan hech qachon haqiqiy va doimiy bilimni keltirmaydi. Bunga faqat matematikadan faol va interaktiv ta’lim orqali erishish mumkin. O‘qituvchining mahorati talabalarga har bir vaziyatda eng maqbul bo‘lgan vositalar bilan eng yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni. Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. – T.: «Sharq», 2013.
2. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar mohiyati va qo‘llanilishi. / Metodik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. 111-112b.
3. Alixonov S. “Matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent. O‘qituvchi 2010.
4. Xonqulov U.X. Akademik litseylarda matematikaning stoxastika yo‘nalishi elementlarini o‘qitishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish: ped.fan.bo‘yicha fal.dok.dis. –Toshkent, 2019.
5. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy acoclari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.– 160 bet.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI TARBIYASIDAGI VIRTUAL AXBOROT VOSITALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Mustafaev Kuwatbay Muratbaevish
O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
Nukus “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan ayni paytda har qanday ommaviy axborot vositasining jahon axborot makonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, taraqqiy topishi uning oldida turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi. Shu bois bugungi dunyoni, uzoq-yaqinda yashayotgan odamlarning hayotini ommaviy

axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Binobarin, OAV insoniyat hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog‘lanib ketgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, internet, ijtimoiy tarmoq, ommaviy axborot vositalari, glaballashuv, uyali telefon.

Jahon axborot makonining globallashuvining ayni sharoitida inson ongi, qalbi, milliy mentaliteti, sog‘lom e’tiqodi, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ularining kamol topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan g‘oyaviy-mafkuraviy, axborot tahdidlari ta’siri sezilmoqda.

Davlatimiz rahbari Murojaatnomada «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!» deya iqtibos keltirib, oldimizga ko‘plab maqsad va vazifalar belgilab berdi[1]

Bugungi globallashuv sharoitida axborotga bo‘lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Shu boisdan, bugungi kunda xolis va haqqoniy axborotni tarqatish, aholining, birinchi navbatda, yoshlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko‘ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot xuruji avj olgan asrda atrofda sodir bo‘layotgan voqealar haqida haqqoniy ma’lumotlarga ega bo‘lish, har qanday noxolis axborotlar zamirida yot g‘oyalar mavjudligini aholiga va avvalo yoshlarimizga tushuntirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’sir kuchining beqiyosligi ayon bo‘lmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali juda tez fursatda tarqalayotgan ijtimoiysiyosiy, mafkuraviy axborotlarning ko‘p foizi jahonning turli mamlakatlarida tashvish uyg‘otmoqda.

Dunyoga egalik qilishga intilayotgan kuchlar aynan axborotdan qurol sifatida foydalanishga urinmoqda. Boshqacha aytganda, bir tomondan axborot insoniyat ma’naviy olamini kengaytirish, inson ilmutafakkurini boyitishga xizmat qiladigan manba sifatida ahamiyat kasb etayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, axborot insonni o‘zligi, millati, vatanidan ajratadigan va oxiroqibat butunlay manqurtga aylantiradigan «qurol»ga ham aylanib borayotgani bugun hech kimga sir emas. Hozirning o‘zidayoq juda ko‘p mamlakatlar o‘z madaniyati, an’analari va ma’naviy qadriyatlarini yot axborot ta’siridan himoya qilish uchun maxsus choralar ko‘rishga majbur bo‘lmoqda. Shu sababli shiddat bilan kechayotgan voqea-hodisalar oqimida kirib kelayotgan axborotning mazmunini anglash, uni to‘g‘ri talqin etib, xulosalar chiqarish nihoyatda muhim hisoblanadi. Bugun aholi, jumladan, yoshlar kundalik hayoti, ta’lim jarayoni, ish faoliyatida ham turli mazmundagi ma’lumotlarga ommaviy axborot vositalari orqali ega bo‘lmoqdalar. Ular ko‘rayotgan filmlar, ko‘rsatuvlar, tinglayotgan radioeshittirishlar mazmun-mohiyati nuqtai nazaridan kelib chiqib, ularning ma’naviy olamiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. OAVlar orqali ta’sir etishning ijobiy va salbiy ko‘rinishlarini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, inson ma’naviy kamolotida u qabul qilayotgan axborot muhitining roli katta. Demak, bugun yoshlarning nimani ko‘rib, nimani tinglayotgani birinchi navbatda u voyaga yetayotgan oila, shu bilan bir qatorda ta’lim muassasalari e’tiboridan ham chetda qolishi kerak emas.

Axborot makonining eng jadal vositalaridan yana biri internet hisoblanadi. Axborot almashish imkoniyatining mavjudligi va kattaligi bizga keng imkoniyatlar beradi, shu bilan birga insonni ogohlikka chaqiradi. Negaki, internet tarmog‘ida

bizga kerakli va zarur bo‘lgan axborotlar bilan bir qatorda milliy mafkuramizga yot bo‘lgan, ma’naviyatimizga mos kelmaydigan vayronakor va tajovuzkor g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi sahifalar ham bor. Ayniqsa, keyingi yillarda xalqaro tizimda inson ongini zaharlovchi ma’lumotlar – tajovuzkorlik, jangarilik, qotillik ruhidagi, yolg‘onchilik hamda insoniylik, jamiyatga zid bo‘lgan boshqa axborotlarni targ‘ib qiluvchi sahifalarning ko‘payganligi har birimizni ogohlikka chorlaydi. **Odnoklassniki, Facebook, Twitter, You Tube** kabi ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning biror masala–kitoblar, suratlar, filmlar, qo‘shiqlar haqida bahslashayotganiga ko‘p guvoh bo‘lamiz[2].

Albatta, fikr almashish ongni charxlaydi, tafakkurga quvvat beradi. Lekin ba’zi ijtimoiy xavfli axborotning aks ta’siri uning o‘zidan ham xavfliroq manzaralarni hosil qilishi mumkinligini unutmasligimiz lozim.

Internet, uyali telefonlar, axborot texnikasi – bularning barchasi inson aqlidroki, salohiyatining samarasi, inson uchun, uning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilish uchun xizmat qiladi, biroq ochig‘ini aytganda, hech qanday avtomatlar, mashinalar, kompyuterlar inson o‘rnini bosa olmaydi, inson qalbi, ruhiga ma’naviy ozuqa bo‘la olmaydi. Bizning maqsadimiz ulardan voz kechish emas, ulardan oqilona foydalangan holda, o‘zligimiz, qadriyatlarimizni saqlab qolishdan iborat. Bunda albatta, oila, mahalla, ta’lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlarining roli nihoyatda katta. Shularni hisobga olgan holda, globallashgan axborot sharoitida yoshlarning g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalalari bo‘yicha quyidagi takliflarni bildirish mumkin: - axborot sohasida yoshlarda ijtimoiy fikrni tahlil qilish tizimini kuchaytirish; - yoshlarning «virtual» axborot maydonidagi dunyoqarashini o‘rganish, bu boradagi faoliyat samaradorligini oshirish; - chet el ijtimoiy tarmoqlarining ko‘pchiligida bizning milliy mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan salbiy tomonlari ham mavjudligini o‘quvchilarga mashg‘ulotlar davomida tushuntirib borish (masalan, informatika fanining internetni o‘rganish bo‘limida, tarbiyaviy soatlarning ma’lum bir daqiqalarida); - internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish; -milliy qadriyatlar va o‘zligimizni anglash, ma’naviyatimizga tahdid kelajagimizga tahdid ekanligini, axborot makonida globallashuv va kuchli raqobat sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish; - o‘sib kelayotgan yosh avlodning media savodxonligi va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini oshirish - o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishda media-ta’limning, xususan, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish kerak.

Bu tadbirlarni amalga oshirishda ilmiylik, muvofiqlashtirish, tizimli boshqaruv tamoyillariga rioya etish va tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatini hisobga olish juda muhimdir, jamiyatimizning keng qatlamlari: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ota-onalar va pedagoglarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, so‘z inson ma’naviy olami haqida borar ekan, ma’naviy tarbiya mamlakatimiz va fuqarolik jamiyati taraqqiyotining muhim omili ekanligi barchamizga ma’lum[3].

Darhaqiqat, globallashgan axborot sharoitida, har bir xatti-harakatida Vatan va xalq manfaatlarini o‘ylab yashaydigan barkamol insonni tarbiyalash bosh maqsadga aylanishi lozim. Fikrimizcha, yoshlarning ong, tafakkur tarbiyasiga e’tiborni qaratish ularning ma’naviy olami daxlsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yoshlarda g‘oyaviy mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayoni zamonning bugungi talablari hamda aniq chora-tadbirlar asosida, respublika ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, ommaviy axborot vositalari faoliyati davomida muntazam va uzluksiz olib borilishi darkor.

Yoshlarning axborot oqimiga munosabatini to‘g‘ri yo‘naltirishda ota-onalar, ustoz va murabbiylar ilm va tarbiya berish jarayonida yoshlarga tushuntirishlari, fikrlarni solishtirish, ularni turlarga ajratish, yaxshi va yomonni farqlashga o‘rgatishlari lozim. Ularning nimani ko‘rib, nimani eshitayotgani va bu haqdagi fikr-mulohazalari bilan oilada ota-onalar, ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va murabbiylar muntazam qiziqib borishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
2. Тайлакова Ш.Н. Формирование идеологического иммунитета учащейся молодежи на основе средств массовой информации в условиях глобализации информационных технологий. Современное образование 2015, № 5 стр 5
3. Усманова З.Б. Роль средств массовой информации в формировании политико-правовой активности учащийся молодёжи. Современное образование 2017, № 1

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA ENERGIYAGA OID DASTLABKI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIATA’LIM RESURSLARINING O‘RNI

Xaliyarov Jasur Xidirovich.
Termiz davlat universiteti. xjxjasur@mail.ru
Raupova Sojida Abduvaitovna.
Termiz davlat pedagogika instituti.
sojidaraupova38@gmail.com
Muratova Gulshod Botir qizi.
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti.

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarga energiyaga oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishning metodik tavsiflari hamda mediata’lim resurslaridan foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: mediata’lim, mediatexnologiya, energiya manbalari, mediata’lim resurslari.

Jamiyatning raqamli transformatsiyasida mediata’limni modernizatsiyalash jarayonining bir qismi sifatida virtual olamning paydo bo‘layotgan afzalliklarini hisobga oladi va mediatexnologiyalar salohiyatidan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Raqamli multimedia ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish nafaqat maktab o‘quvchilarini o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish, balki ularni raqamli jamiyatda hayotga tayyorlashning samarali vositasiga aylanmoqda. Zamonaviy dunyoda media-ta’lim muhandislik ta’limi, yoshlarning ilmiy-texnik ijodkorligini, ijodiy media faoliyatini ommalashtirish hamda media ijodi madaniyatini shakllantirishda muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

Ta’limning turli shakllarida amalga oshiriladigan media-ta’lim o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijodiy anglashini rivojlantiradi, u turli manbalardan olingan ma’lumotlarni uyg‘un tarzda birlashtirish, uni tanqidiy baholash, tahlil qilish, qayta ishlash, qo‘llashni o‘rganadi[1].

O‘quvchilar uchun o‘quv jarayoni rasmiy ta’limning eng asosiy darajasi bo‘lgan boshlang‘ich ta’limdan boshlanadi. O‘quvchilar ta’limidagi mavzulardan biri qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasidir. Qayta tiklanadigan energiya manbalari tabiatdan kelib chiqadigan, erkin foydalanish mumkin bo‘lgan, uzluksiz va cheksiz foydalanish mumkin bo‘lgan energiya manbalaridir. Ta’lim o‘quvchilarni o‘rgatilayotgan materialga qiziqtirishi va munozaralar davomida faol bo‘lishi uchun imkon qadar jozibador tarzda to‘plangan o‘quv vositalaridan foydalanishni talab etadi(1-rasm). O‘rganishning dastlabki natijalari berilgan savollarga o‘quvchilarning ma’lumotlarni qay darajada o‘zlashtirishini va baholash mezoni sifatida ishlatilishini aniqlashga qaratilgan[2].

1-rasm. Energiya manbalariga oid savollar

Mediata’lim resurslari (masalan, videolar, illyustratsiyalar, interaktiv o‘yinlar va onlayn materiallar) o‘quvchilarga yangi bilimlarni qiziqarli va tushunarli tarzda taqdim etish imkonini beradi.

Mediata’lim resurslari yordamida energiyaning kundalik hayotdagi o‘rni, masalan, elektr energiyasining ishlatilishi yoki qayta tiklanadigan energiya manbalarini taqdim etish, o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi[3].

O‘quvchilar faolroq bo‘lishi, muhokamalarini o‘tkazishda zerikmasliklari uchun jozibador raqamli ta’lim usullari bilan qo‘llash lozim. Atrof-muhit muammolari boshlang‘ich sinflarda energiya savodxonligi dasturlarining paydo

bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Tarbiyaning bir qismi bo‘lgan energiya savodxonligini o‘rganish o‘quvchilarning energiyadan oqilona foydalanishga bo‘lgan munosabati va xulq-atvorini yanada chuqurlashtirishni talab qiladi.

Energiya tushunchalari tabiiy fanlar orqali shakllantirish, o‘quvchilarga energiyaning turli shakllari, uning saqlanishi va uzatilishi haqida tushuncha berishning samarali usulidir. Tabiiy fanlarda energiya konsepsiyasini o‘rganishda asosiy maqsad energiyaning qonuniyatlarini va tabiatdagi o‘zgarishlarni tushunish hisoblanadi.

Tabiiy fanlar orqali energiya tushunchasini o‘rganish, o‘quvchilarga ilmiy va amaliy jihatdan energiyaning tabiatdagi o‘zgarishlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu metodologiya, shuningdek, kelajakda energiyani tejash va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan qarorlarni qabul qilishga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. М.В. Кузмина. Методические рекомендации «Медиаобразование как ресурс профессионалной ориентации детей и молодежи» / – Киров: ИРО Кировской области, 2020. – 60 с.
2. Rohman, A., & Nandiyanto, A. B. D. (2022). Learning of Renewable Energy Sources in Elementary School Based on Digital. Open Global Scientific Journal, 1(1), 33–40. https://doi.org/10.70110/ogsj.v1i1.6
3. Malikova Y. V. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2-qism / Y. V. Malikova. - Toshkent. “Novda Edutainment”.2023. - 120

УРАВНЕНИЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ КОЛЕБАНИЙ В ПРОВОДАХ ПРИВОДЯЩИЕ К УРАВНЕНИЯМ ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА

Каржавова Азиза Рустамовна
студентка 4-курса
Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Аннотация. В статье приведены некоторые примеры применения дифференциальных уравнений для моделирования таких реальных процессов, как колебания струны, электрические колебания в проводах, распространение тепла в стержне и пространстве. В данной статье рассматриваются задачи математической физики, приводящие к уравнениям с частными производными.

Ключевые слова: Гидродинамике, теории упругости, электродинамика, сила инерции, падение напряжения, линейная плотность, сопротивление и коэффициент индуктивности.

Введение

Изучением дифференциальных уравнений в частных производных занимается математическая физика.

Классические уравнения математической физики являются линейными. Особенность линейных уравнений состоит в том, что если U и V – два решения, то функция $\alpha U + \beta V$ при любых постоянных α и β снова является решением. Это обстоятельство позволяет построит общее решение линейного дифференциального уравнения из фиксированного набора его элементарных решений и упрощает теорию этих уравнений.

Современная общая теория дифференциальных уравнений занимается главным образом линейными уравнениями и специальными классами нелинейных уравнений. Основным методом решения нелинейных дифференциальных уравнений в частных производных выступает численное интегрирование.

Методы и материалы исследования

Круг задач математической физики тесно связан с изучением различных физических процессов. Сюда относятся явления, изучаемые в гидродинамике, теории упругости, электродинамике и т.д. Возникающие при этом математические задачи содержат много общих элементов и составляют предмет математической физики.

Постановка задач математической физики, будучи тесно связанной с изучением физических проблем, имеет свои специфические черты. Так, например, начальная и конечная стадии процесса носят качественно различный характер и требуют применения различных математических методов.

Круг вопросов, относящихся к математической физике, чрезвычайно широк. В данной стате рассматриваются задачи математической физики, приводящие к уравнениям с частными производными.

Расположение материала соответствует основным типам уравнений. Изучение каждого типа уравнений начинается с простейших физических задач, приводящих к уравнениям рассматриваемого типа.

Чтобы получить уравнение движения, нужно внешние силы, приложенные к элементу, приравнять силе инерции. Пуст ρ - линейная плотность струны. Тогда масса элемента струны будет $\rho\Delta x$. Ускорение элемента равно $\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}$. Следовательно, по принципу Даламбера будем иметь:

$$\rho\Delta x \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = T \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}\Delta x.$$

Сокращая на Δx и обозначая $\frac{T}{\rho} = a^2$, получаем уравнение движения

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}. \quad (1)$$

Это и есть волновое уравнение – уравнение колебаний струны [3]. Для полного определения движения струны одного уравнения (1) недостаточно. Искомая функция $u(x, t)$ должна удовлетворят еще граничным условиям, указывающим, что делается на концах струны $(x = 0, x = \ell)$, и начальным условиям, описывающим состояние струны в начальный момент (t = 0). Совокупность граничных и начальных условий называется краевыми условиями.

Как указывалось выше, к уравнению (1) приводит и задача об электрических колебаниях в проводах. Электрический ток в проводе характеризуется величиной i (x, t) и напряжением v (x, t), которые зависят от координаты x точки провода и от времени t. Рассматривая элемент провода Δx можем написать, что падение напряжения на элементе Δx равно $v(x, t) - v(x + \Delta x, t) \approx -\frac{\partial v}{\partial x}\Delta x$. Это падение напряжения складывается из омического, равного $iR\Delta x$, и индуктивного, равного $\frac{\partial i}{\partial t} L \Delta x$.

Итак,

$$-\frac{\partial v}{\partial x}\Delta x = iR\Delta x + \frac{\partial i}{\partial t} L \Delta x, \quad (2)$$

где R и L – сопротивление и коэффициент индуктивности, рассчитанные на единицу длины провода. Знак минус взят потому, что ток течет в направлении, обратном возрастанию v. Сокращая на Δx, получаем уравнение

$$\frac{\partial v}{\partial x} + iR + L\frac{\partial i}{\partial t} = 0. \quad (3)$$

Далее, разность токов, выходящего из элемента Δx и входящего в него за время Δt, будет

$$[i(x, t) - i(x + \Delta x, t)]\Delta t \approx -\frac{\partial i}{\partial x}\Delta x \Delta t.$$

Она расходуется на зарядку элемента, равную $C\Delta x \frac{\partial v}{\partial t}\Delta t$, и на утечку через боковую поверхность провода вследствие несовершенства изоляции, равную $Av\Delta x\Delta t$ (здес A – коэффициент утечки). Приравнивая эти выражения и сокращая на $\Delta x \Delta t$, получим уравнение

$$\frac{\partial i}{\partial x} + C\frac{\partial v}{\partial t} + Av = 0. \quad (4)$$

Уравнения (3) и (4) принято называть телеграфными уравнениями [4].

Из системы уравнений (3) и (4) можно получить уравнение, содержащее только искомую функцию i (x, t), и уравнение, содержащее только искомую функцию v (x, t). Продифференцируем члены уравнения (4) по x; члены

уравнения (3) продифференцируем по t и умножим их на C. Произведя вычитание, получим:

$$\frac{\partial^2 i}{\partial x^2} + A\frac{\partial v}{\partial x} - CR\frac{\partial i}{\partial x} - CL\frac{\partial^2 i}{\partial t^2} = 0.$$

Подставляя в последнее уравнение выражение $\frac{\partial v}{\partial x}$ из уравнения (5), получим:

$$\frac{\partial^2 i}{\partial x^2} + A\left(-iR - L\frac{\partial i}{\partial t}\right) - CR\frac{\partial i}{\partial x} - CL\frac{\partial^2 i}{\partial t^2} = 0$$

или

$$\frac{\partial^2 i}{\partial x^2} = CL\frac{\partial^2 i}{\partial t^2} + (CR + AL)\frac{\partial i}{\partial t} + ARi. \quad (5)$$

Аналогичным образом получается уравнение для определения v (x, t):

$$\frac{\partial^2 v}{\partial x^2} = CL\frac{\partial^2 v}{\partial t^2} + (CR + AL)\frac{\partial v}{\partial t} + ARv. \quad (6)$$

Если пренебречь утечкой через изоляцию $(A = 0)$ и сопротивлением $(R = 0)$, то уравнения (5) и (6) переходят в волновые уравнения:

$$a^2\frac{\partial^2 i}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 i}{\partial t^2}, \quad a^2\frac{\partial^2 v}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 v}{\partial t^2},$$

где обозначено: $a^2 = \frac{1}{CL}$. Исходя из физических условий, формулируют граничные и начальные условия задачи.

Результаты и обсуждения материалы исследования

В стате приведены некоторые примеры применения дифференциальных уравнений для моделирования таких реальных процессов, как колебания струны, электрические колебания в проводах, распространение тепла в стержне и пространстве.

Работа начинается с рассмотрения простейших задач, приводящих к дифференциальным уравнениям гиперболического типа (колебания струны, электрические колебания в проводах). Затем рассматривается один из методов решения уравнений данного типа.

Заключение

В заключение хотелось бы отметить особую роль дифференциальных уравнений при решении многих задач математики, физики и техники, так как часто не всегда удается установить функциональную зависимость между искомыми и данными переменными величинами, но зато удается вывести дифференциальное уравнение, позволяющее точно предсказать протекание определенного процесса при определенных условиях.

СПИСОК ИСПОЛЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Н. С. Пискунов «Дифференциальное и интегральное исчисления», М., «Наука», 1972, том. 2.
2. И. М. Уваренков, М. З. Маллер «Курс математического анализа», М., «Просвещение», 1976.
3. А. Н. Тихонов, А. А. Самарский «Уравнения математической физики», М., «Наука», 1972.
4. Владимиров В. С. «Уравнения математической физики», М., «Наука», 1988.

USE OF NON-TRADITIONAL METHODS AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING MATHEMATICS

Darmonova Adolat Bahodirovna[1],
Abdurakhmonov Hasanjon Kotibjon oglu[2]
CSPU Teacher of the Department of Mathematics Teaching Methods,
CSPU student

Abstract. This study analyzes the use of non-traditional methods and information technologies in teaching mathematics. The study examines how innovative approaches and technologies can be used to improve the effectiveness of mathematics and the quality of the teaching process. In particular, the importance and benefits of the integration of information technologies and interactive methods in mathematics education are studied.

Keywords: Mathematics, teaching methods, non-traditional methods, information technologies, interactive education, innovative pedagogy, methodology.

INTRODUCTION. In addition to traditional approaches to teaching mathematics, the use of non-traditional methods and information technologies plays an important role in improving the quality of education. The teaching process using modern technologies and interactive methods can be interesting and effective for students. Many teachers of mathematics teach lessons using traditional methods, but these methods are sometimes not enough to form in-depth knowledge of mathematics in students. Therefore, the study examines the importance and role of non-traditional methods and information technologies in education.

MAIN PART.

1. The importance of non-traditional teaching methods in teaching mathematics.

Non-traditional teaching methods help teachers to motivate students and engage them in the lesson. These methods allow them to learn mathematics not only theoretically, but also practically. For example, teaching mathematics through project-based learning, gamification, problem-solving, and role-playing can be

effective. Students consolidate their knowledge by participating in solving problems that they themselves can apply in practice.

Project-based learning is useful for broadening students' perspectives on mathematics and acquiring new knowledge. For example, students solve mathematical problems in groups and learn to solve problems in different ways. This method helps students develop their thinking skills. At the same time, gamification can make learning more interesting and motivating. Adding game elements makes learning mathematics more engaging and helps students focus on the lesson.

2. The role of information technology in mathematics teaching.

Information technologies create new opportunities in mathematics education. With the help of interactive whiteboards, virtual laboratories, online platforms and mobile applications, students solve mathematical problems more easily and effectively. The use of these technologies allows students to perform frequent tests and exercises, analyze their results, and receive interesting feedback from the teacher.

With the help of interactive whiteboards and online platforms, the student will have the opportunity to self-assess and discuss with the teacher. At the same time, virtual laboratories allow students to visualize complex mathematical processes, which allows the teacher to effectively manage education. Creating opportunities for easy and quick solution of mathematical problems through mobile applications will constantly involve students and teachers in the educational process.

3. The interaction of non-traditional methods and information technologies.

The integration of unconventional methods and information technologies increases the effectiveness of teaching mathematics. For example, the combined use of gamification and interactive technologies makes learning more interesting and easier for students. This process forms a new format for the teacher's method of managing the educational process, teaching students not only how to solve mathematical problems, but also how to freely express their thoughts when solving problems.

LITERATURE ANALYSIS. There are a number of scientific developments on the use of non-traditional methods and information technologies in teaching mathematics. A.A. Usmanov’s book Innovative Approaches to Teaching Mathematics discusses the effectiveness of using technologies in teaching mathematics[1]. Also, B.T. Khojaev’s article Information Technologies and Education examines the importance of information technologies in the teaching process[2]. Another important source is D.R. Karimov’s book Non-Traditional Teaching Methods, which presents the advantages of integrating innovative pedagogical technologies into the teaching process of mathematics[3].

RESEARCH METHODOLOGY AND METHODOLOGY. The study used a combination of qualitative and quantitative methods. Quantitative methods measured student learning performance using questionnaires and tests. Qualitative methods included interviews with teachers and students to analyze how they use

information technology and non-traditional methods. Such a combination methodology helps to conduct a comprehensive analysis of the educational process.

CONCLUSION. The integration of non-traditional methods and information technologies in teaching mathematics makes the learning process of students effective and interesting. With the help of information technologies, students develop skills in solving real-life problems. Non-traditional methods, on the other hand, give teachers the opportunity to encourage students to be active and increase their motivation to learn. Thus, it is necessary to combine technology and non-traditional methods to increase the effectiveness of mathematics teaching.

REFERENCES:

1. Usmanov A. A. (2017). Innovative approaches to teaching mathematics. Tashkent: “O‘qituvchi”.
2. Khojaev B. T. (2019). Information Technologies and Education. Samarkand: Uzbekistan Education.
3. Karimov D.R. (2020). Non-traditional teaching methods. Tashkent: Ilm-Ziyo.
4. Ibragimov S.A. (2018). The role of information technologies in teaching mathematics. Tashkent: Science and Education.
5. Bunyodov E.F. (2021). Interactive methods and innovations in teaching mathematics. Samarkand: University Press.
6. Davronov R. (2020). Application of non-traditional pedagogical methods in mathematics. Tashkent: O‘qituvchi.
7. Teshabaev I.M. (2019). Integration of information technologies and interactive methods in education. Bukhara: Bukhara University Press..

ЗАДАЧИ, ПРИВОДЯЩИЕ К УРАВНЕНИЯМ ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА. УРАВНЕНИЕ КОЛЕБАНИЙ СТРУНЫ

Каржавова Азиза Рустамовна
студентка 4-курса Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация. В статье приведены некоторые примеры применения дифференциальных уравнений для моделирования таких реальных процессов, как колебания струны, электрические колебания в проводах, распространение тепла в стержне и пространстве.

Ключевые слова: Струно, принцип Даламбера, нелинейный уравнений гидродинамике, теории упругости, уравнение гиперболического типа, поперечный колебаний струны, продольных колебаний стержня.

Изучением дифференциальных уравнений в частных производных занимается математическая физика. Классические уравнения математической физики являются линейными.

Современная общая теория дифференциальных уравнений занимается главным образом линейными уравнениями и специальными классами нелинейных уравнений. Основным методом решения нелинейных дифференциальных уравнений в частных производных выступает численное интегрирование.

Круг вопросов математической физики тесно связан с изучением различных физических процессов. Сюда относятся явления, изучаемые в гидродинамике, теории упругости, электродинамике и т.д. Возникающие при этом математические задачи содержат много общих элементов и составляют предмет математической физики.

Постановка задач математической физики, будучи тесно связанной с изучением физических проблем, имеет свои специфические черты. Так, например, начальная и конечная стадии процесса носят качественно различный характер и требуют применения различных математических методов.

Круг вопросов, относящихся к математической физике, чрезвычайно широк. В данной статье рассматриваются задачи математической физики, приводящие к уравнениям с частными производными.

Расположение материала соответствует основным типам уравнений. Изучение каждого типа уравнений начинается с простейших физических задач, приводящих к уравнениям рассматриваемого типа.

Уравнения с частными производными 2-го порядка гиперболического типа наиболее часто встречаются в физических задачах, связанных с процессами колебаний. Простейшее уравнение гиперболического типа

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}.$$

называется волновым уравнением. К исследованию этого уравнения приводит рассмотрение процессов поперечных колебаний струны, продольных колебаний стержня, электрических колебаний в проводе, крутильных колебаний вала, колебаний газа и т.д.

В математической физике под струной понимают гибкую, упругую нит. Напряжения, возникающие в струне в любой момент времени, направлены по касательной к ее профилю. Пуст струна длины ℓ в начальный момент направлена по отрезку оси Ox от 0 до ℓ. Предположим, что концы струны закреплены в точках $x = 0$ и $x = \ell$. Если струну отклонит от ее первоначального положения, а потом предоставит самой себе или, не отклоняя струны, придать в начальный момент ее точкам некоторую скорость, или отклонит струну и придать ее точкам некоторую скорость, то точки струны будут совершат движения – говорят, что струна начнет колебаться. Задача заключается в определении формы струны в любой момент времени и определении закона движения каждой точки струны в зависимости от времени.

Чтобы получить уравнение движения, нужно внешние силы, приложенные к элементу, приравнять силе инерции. Пуст ρ - линейная

плотность струны. Тогда масса элемента струны будет $\rho\Delta x$. Ускорение элемента равно $\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}$. Следовательно, по принципу Даламбера будем иметь:

$$\rho\Delta x \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = T \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}\Delta x.$$

Сокращая на Δx и обозначая $\frac{T}{\rho} = a^2$, получаем уравнение движения

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}.$$

Это и есть волновое уравнение – уравнение колебаний струны.

В статье приведены некоторые примеры применения дифференциальных уравнений для моделирования таких реальных процессов, как колебания струны, электрические колебания в проводах, распространение тепла в стержне и пространстве.

Работа начинается с рассмотрения простейших задач, приводящих к дифференциальным уравнениям гиперболического типа (колебания струны, электрические колебания в проводах). Затем рассматривается один из методов решения уравнений данного типа. В заключение хотелось бы отметит особую рол дифференциальных уравнений при решении многих задач математики, физики и техники, так как часто не всегда удается установит функциональную зависимость между искомыми и данными переменными величинами, но зато удается вывести дифференциальное уравнение, позволяющее точно предсказать протекание определенного процесса при определенных условиях.

ЛИТЕРАТУРА.

1. Н. С. Пискунов «Дифференциальное и интегральное исчисления», М., «Наука», 1972, том. 2.
2. А. Н. Тихонов, А. А. Самарский «Уравнения математической физики», М., «Наука», 1972.
3. Владимиров В. С. «Уравнения математической физики», М., «Наука», 1988.

TERMODINAMIK MASALALARNI YECHISHDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARDAN FOYDALANISH

Xolliyev Diyor Navruz o‘g‘li
Termiz davlat universiteti
Fizika ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
kholliyevdiyorn@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda ta’limga qaratilayotgan yuksak e’tibor zamirida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash va sifatli ta’lim berish asosiy maqsad qilib belgilangan. Ushbu maqsad yo‘lida fizika o‘qitishda o‘quvchilar va

talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda amaliy mashg‘ulot va masala yechish darslari katta ahamiyatga ega. Amaliy mashg‘ulot darslarida masalalarni yechishda ayrim murakkabliklar kelib chiqadi.

Ushbu maqolada termodinamika bo‘limining issiqlik almashinuv jarayoniga oid masalani yechishda differensial tenglamalardan foydalanish metodini qo‘lladik. Maqolamiz manfaatli tomoni shundaki qo‘yilgan masala real sharoitda mavjuddir. Undan tashqari fizika va matematika fanlari bir-biriga bog‘liqligini va matematikani qanchalik chuqur bilsak, fizika masalalarining shunchalik mohiyatini teran anglab yetishimizga yordam berishini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Maqsad, differensial, mohiyat, real, ko‘nikma, manfaat.

Masala: Temperaturasi 25° bo‘lgan metall parchasi pechga qo‘yildi.Pechning temperaturasi 25°C dan boshlab minutiga 20°C tezlik bilan tekis ravishda ko‘tarila boshladi. Pech va metall temperaturasining farqi T°C bo‘lganda,metall minutiga 10·T°C tezlik bilan isitila boshlaydi.Metall parchasini 30 minutdan keyingi temperaturasini toping.

Yechilishi: Metall va pech temperaturasining vaqtga bog‘liq o‘zgarishini ifodalovchi masalani quyidagicha yechamiz:

Belgilar:

$T_m(t)$ - metall temperaturasining vaqtga bog‘liq funksiyasi,

$T_p(t)$ - pech temperaturasining vaqtga bog‘liq funksiyasi.

Metallning boshlang‘ich temperaturasini:

$$T_m(0) = 25°\text{C}$$

va pech temperaturasini:

$T_p(t) = 25 + 20t$ (minutiga $20°\text{C}$ o‘sish tezlik bilan).

Metall temperaturasining o‘zgarishi minutiga $10 \cdot \big(T_p(t) - T_m(t)\big)$ tezlik bilan bo‘ladi. Shunday qilib, differensial tenglama:

$$\frac{dT_m}{dt} = 10\big(T_p(t) - T_m(t)\big)$$

Pech temperaturasini $T_p(t) = 25 + 20t$ sifatida qo‘shamiz:

$$\frac{dT_m}{dt} = 10((25 + 20t) - T_m(t))$$

yoki

$$\frac{dT_m}{dt} + 10T_m(t) = 250 + 200t$$

Bu chiziqli differensial tenglama. Uni quyidagi ko‘rinishga keltiramiz:

$$\frac{dy}{dt} + P(t)y = Q(t)$$

bu yerda $P(t) = 10$ va $Q(t) = 250 + 200t$.Integrallovchi omil integrallovchi omilni topamiz:

$$\mu(t) = e^{\int P(t)dt} = e^{10t}.$$

Tenglamani har ikki tomonini $\mu(t) = e^{10t}$ ga ko‘paytiramiz:

$$e^{10t}\frac{dT_m}{dt} + 10e^{10t}T_m = e^{10t}(250 + 200t)$$

Chap tomoni to 'liq hosila:

$$\frac{d}{dt}(e^{10t}T_m(t)) = e^{10t}(250 + 200t).$$

Integrallash

To‘liq hosilani integrallaymiz:

$$e^{10t}T_m(t) = \int e^{10t}(250 + 200t)dt$$

Bu integralni qismlarga ajratamiz:

$$\int e^{10t}(250 + 200t)dt = 250\int e^{10t}dt + 200\int te^{10t}dt$$

Birinchi integral

$$\int e^{10t}dt = \frac{1}{10}e^{10t}$$

Ikkinchi integral Qismlarga bo‘lish usulini qo‘llaymiz:

$$\int te^{10t}dt = \frac{t}{10}e^{10t} - \frac{1}{100}e^{10t}$$

Shunday qilib:

$$\int e^{10t}(250 + 200t)dt = 250 \cdot \frac{1}{10}e^{10t} + 200\left(\frac{t}{10}e^{10t} - \frac{1}{100}e^{10t}\right).$$

Ochib yozamiz:

$$\int e^{10t}(250 + 200t)dt = 25e^{10t} + 20te^{10t} - 2e^{10t}$$

Bu natijani differensial tenglamaga qo‘yamiz:

$$e^{10t}T_m(t) = 25e^{10t} + 20te^{10t} - 2e^{10t} + C$$

bu yerda C - integrallash doimiysi. Tenglamani e^{10t} ga botlamiz:

$$T_m(t) = 25 + 20t - 2 + Ce^{-10t}$$

Yoki:

$$T_m(t) = 23 + 20t + Ce^{-10t}$$

Boshlang‘ich shart Boshlang‘ich shartga ko‘ra $T_m(0) = 25$:

$$25 = 23 + C \cdot e^0.$$

Shundan $C = 2$. Yakuniy yechim:

$$T_m(t) = 23 + 20t + 2e^{-10t}$$

30 daqiqadan keyingi temperatura

$$T_m(30) = 23 + 20 \cdot 30 + 2e^{-10\cdot 30}$$

Eksponenta juda kichik bo‘lgani uchun $e^{-300} \approx 0$. Shunday qilib:

$$T_m(30) \approx 23 + 600 = 623°\text{C}.$$

Javob:

Metallning 30 daqiqadan keyingi temperaturasi: $623°\text{C}$

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, termodinamikaga oid bu turdagi masalalar differensial tenglamalardan foydalanib yechilsa masalaning asl mohiyatini anglash osonlashadi, hisoblashga oid chalkashliklar kamayadi, ishlash vaqti

qisqaradi, jarayon haqidagi tasavvur ham to‘liqroq bo‘ladi. O‘quvchi va talabalar ushbu usulda masalalarni ishlashi orqali o‘zlarida differensial tenglamalar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirib boradi, bu esa o‘quvchi va talabalarda aniq va teran fikrlash qobiliyatlarini shakllantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdukarimovich, R. I. . (2023). Methodology for Developing Research Ability of Students in Physics Education. JOURNAL OF THEORY, MATHEMATICS AND PHYSICS, 2(3), 19–21.
2. Shapulatovich I. N., Abdukarimovich R. I. METHODOLOGY OF DEVELOPING CAPACITY OF STUDENTS IN PHYSICS //Conference Zone. – 2021. – C. 133-134.
3. Narbaev A. B. Methods of using media education and telecommunication technologies in teaching the topic" Visual motion of the sun and stars" //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2020. – Т. 2020. – №. 1. – С. 119-125.

YUZALARNI HISOBLASHDA GPT-DAN FOYDALANISH USULLARI

Boborajabova Mohira Ramazon qizi
Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada, yuzalarni hisoblashda GPT (Generative Pre-trained Transformer) modelining qanday ishlatilishi va uning matematik va ilmiy hisob-kitoblar jarayonlarini optimallashtirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kirish. Yuzalarni hisoblash geometriya, differensial geometriya, fizikada va muhandislikda muhim ahamiyat kasb etadi. GPT modelidan foydalanib, turli xil yuzalarni aniqlash, hisoblash va vizualizatsiya qilish mumkin. Ushbu maqolada GPT yordamida yuzalarni hisoblashning samarali usullari ko‘rib chiqiladi.

1. Yuzalarni hisoblashning nazariy asosi

Yuza maydonini hisoblash uchun quyidagi asosiy usullar mavjud:

• Analitik usul: Berilgan funksiyaning yuzasi ostidagi integralni hisoblash.

• Numerik usul: Monte-Karlo usuli

Geometrik usul: Cheklangan sohalarning uzunligi va kengligi orqali hisoblash.

Matematik ifoda sifatida, agar sirt z = f(x,y) funksiyasi orqali berilgan bo‘lsa, uning yuzasi quyidagicha aniqlanadi:

$$A = \iint\limits_{D} \sqrt{1 + \left(\frac{\partial f}{\partial x}\right)^2 + \left(\frac{\partial f}{\partial y}\right)^2}\, dxdy$$

2. GPT yordamida analitik yuzalarni hisoblash

GPT analitik ifodalarni soddalashtirish va yuzalarni hisoblashda quyidagicha yordam beradi:

• Integrallarni analitik hisoblash

• Sirt elementlarini tahlil qilish

•Matematik modellashtirish

Misol: Kvadratik paraboloid $z = x^2 + y^2$ yuzasining ma'lum sohadagi maydonini hisoblash uchun GPT dan quyidagicha foydalanish mumkin:

1. Sirt elementini aniqlash
2. Gradientlarni hisoblash
3. Ikki marta integralni yechish

GPT ushbu integrallarni analitik yoki numerik usulda yechib beradi.

GPT yordamida numerik hisoblash

Agar analitik yechim topish murakkab bo‘lsa GPT Python vositalari uchun numerik hisoblash usullaridan foydalanadi. Masalan:

• Monte-Karlo usuli: Tasodifiy nuqtalar generatori orqali yuzani hisoblash.

• Trapesiya usuli: Bo‘laklarga ajratib, har bir qism uchun soddalashtirilgan hisob-kitob.

Misol: Sfera yuzasini hisoblash:

$A = 4\pi R^2$.Agar radius R berilgan bo‘lsa, GPT Python kod orqali bu qiymatni aniqlashi mumkin.

4. Yuzalarni vizualizatsiya qilish

GPT yordamida yuzalarni uch o‘lchovli grafiklar orqali vizualizatsiya qilish mumkin:

• Matplotlib va Plotly

• Maydonli xaritalash (heatmap)

• 3D modeli

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
from mpl_toolkits.mplot3d import Axes3D

x = np.linspace(-2, 2, 50)
y = np.linspace(-2, 2, 50)
X, Y = np.meshgrid(x, y)
Z = X**2 + Y**2

fig = plt.figure()
ax = fig.add_subplot(111,
projection='3d')
ax.plot_surface(X, Y, Z, cmap='viridis')
plt.show()
```

Misol uchun, $z = x^2 + y^2$ paraboloidining yuzasini GPT yuqoridagicha hosil qilishi mumkin:

Bu kod paraboloidning uch o‘lchamli modelini yaratadi.

5. Amaliy qo‘llanilishi

1. Muhandislik - Strukturaviy tahlillar uchun.
2. Geometriya va differensial geometriya

Sirtlarning xossalarini o‘rganish uchun.

3. Geofizika - Yerni tekisliklar bilan taqribiy model qilish.
4. Kompyuter grafikalari - 3D modeling va animatsiyalar yaratish.

Xulosa. GPT yordamida yuzalarni hisoblash analitik, numerik va vizualizatsiya usullari orqali amalga oshirilishi mumkin. GPT integral hisoblash, Python dasturlash va grafiklar yaratish bilan birga imkon beradi.natijalar olishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. James Stewart - Calculus: Early Transcendentals, 8-nashr, Cengage Learning, 2015. Yuzalarni hisoblash uchun ikki va uch o‘lchovli integrallar haqida batafsil tushuntirish.
2. M. P. do Carmo - Differential Geometry of Curves and Surfaces, Prentice-Hall, 1976.Yuzalar geometriyasi va uning differensial tenglamalar bilan bog‘liqligi.
3. G. B. Arfken, H. J. Weber Mathematical Methods for Physicists, Academic Press, 2013.
4. T. Apostol - Mathematical Analysis, Addison-Wesley, 1974. Analitik usullar bilan yuzalarni hisoblashga oid nazariy ma'lumotlar.

4-SHO‘BA: “YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URUR G‘OYALARI ASOSIDA O‘QITISH”DA YANGICHA MAFKURAVIY YONDASHUV

VATANPARVAR SHAXSNI SHAKLLANTIRISHGA UNDAYOTGAN OMILLAR

Choriyev Sanjarbek Anvarovich,
falsafa fanlari doktori, professor
Qarshi davlat universiteti
“Falsafa sotsiologiya” kafedrasi mudiri

Annotatsiya:Ushbu maqolada vatanparvar shaxsni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillar tahlil qilinadi. Vatanparvarlik tuyg‘usining shakllanishida oila, ta’lim tizimi, jamiyat, tarixiy va madaniy meros hamda ommaviy axborot vositalarining ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda vatanparvarlikni tarbiyalashda zamonaviy yondashuvlar va ularning samaradorligiga e’tibor qaratiladi. Maqsad — vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini oshirishda asosiy omillarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, shaxs, oila, ta’lim, jamiyat, madaniy meros, ommaviy axborot vositalari, tarbiya, milliy qadriyatlar.

Kirish

Vatanparvarlik—insonning o‘z yurtiga, uning tarixi, madaniyati va qadriyatlariga bo‘lgan chuqur muhabbat va sadoqat tuyg‘usidir. Bu tuyg‘u shaxsning faqat o‘z manfaatlarini emas, balki umumiy jamiyat va davlat manfaatlarini ham ko‘zlab yashashiga undaydi. Zamonaviy dunyoda globallashuv va madaniy o‘zgarishlar fonida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Ushbu maqolada vatanparvar shaxsni tarbiyalashda asosiy omillar tadqiq etilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sir doirasi ochib beriladi.

1**. Oila — vatanparvarlikning birinchi manbai**

Oila har bir shaxs uchun birinchi tarbiya maskani hisoblanadi. Bola dunyoga kelgan ilk kunlardan boshlab oila muhitida vatanga muhabbat va uning qadriyatlariga hurmat tuyg‘usini singdiradi. Ota-onalarning o‘z vatani haqidagi hikoyalari, milliy bayramlarni nishonlash, tarixiy voqealar haqida so‘zlab berishi bolada vatanparvarlik ruhini uyg‘otadi. Masalan, oilada "Mustaqillik kuni" yoki "Navro‘z" kabi bayramlarning ma’nosi tushuntirilsa, bu bolaning milliy ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oilaning tarbiyaviy ta’siri nafaqat so‘zlar, balki amaliy faoliyat orqali ham kuchaytiriladi. Ota-onalarning vatan uchun xizmat qilishga tayyorligi, jamiyatga foyda keltirishga intilishi farzandlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli oila vatanparvarlikning asosiy poydevori sifatida muhim o‘rin tutadi.

2. Ta’lim tizimi va uning vatanparvarlik tarbiyasidagi roli

Ta’lim tizimi vatanparvar shaxsni shakllantirishda ikkinchi muhim omildir. Maktablar, kollejlar va universitetlarda o‘quv jarayonida milliy tarix, adabiyot va madaniy merosga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Masalan, o‘zbek xalqining qahramonlik sarguzashtlari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shaxslarning hayoti va ijodi haqida o‘qish yoshlarda vatanga muhabbat tuyg‘usini oshiradi.

Ta’limda faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmaslik, balki amaliy faoliyatlar orqali vatanparvarlikni mustahkamlash lozim. Vatan tarixiga bag‘ishlangan ekskursiyalar, milliy qadriyatlarni ulug‘lovchi tadbirlar va sport musobaqalari bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning o‘z vataniga sadoqat bilan xizmat qilishga o‘rnak bo‘lishi ham muhimdir.

3. Jamiyat va madaniy muhitning ta’siri

Jamiyat vatanparvarlikni shakllantirishda muhim omillardan biridir. Inson jamiyat ichida yashaydi va uning atrofidagi odamlarning qarashlari, qadriyatlari va xulq-atvori unga ta’sir ko‘rsatadi. Agar jamiyatda vatanga muhabbat, uning taraqqiyoti uchun xizmat qilish kabi g‘oyalar ustuvor bo‘lsa, bu shaxsning vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi.

Madaniy muhit ham bu jarayonda katta rol o‘ynaydi. Milliy san’at, musiqa, teatr va kino orqali vatanparvarlik g‘oyalari targ‘ib qilinishi mumkin. Masalan, "Amir Temur" yoki "Alpomish" kabi tarixiy asarlarning sahnalashtirilishi yoshlarda milliy g‘urur va vatanga sadoqat tuyg‘usini uyg‘otadi.

4. Tarixiy va madaniy merosning ahamiyati

Tarixiy va madaniy meros vatanparvarlikning asosiy manbalaridan biridir. O‘z xalqining o‘tmishini bilish, uning yodgorliklari va an’analari bilan tanishish shaxsda vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantiradi. Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga sayohat qilish yoki u yerdagi yodgorliklar haqida o‘qish yoshlarda o‘z yurtiga hurmat tuyg‘usini oshiradi.

Tarixiy shaxslar va voqealar haqidagi ma’lumotlarni targ‘ib qilish orqali ham vatanparvarlikni kuchaytirish mumkin. Bu jarayonda muzeylar, ko‘rgazmalar va tarixiy kitoblar muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

5. Ommaviy axborot vositalari va zamonaviy texnologiyalar

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari (OAV) va internet vatanparvarlik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Televideniya, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali vatanparvarlikka doir filmlar, ko‘rsatuvlar va maqolalar targ‘ib qilinishi mumkin. Masalan, milliy qahramonlar haqidagi hujjatli filmlar yoki vatan himoyasiga bag‘ishlangan kliplar yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, virtual reallik (VR) va onlayn platformalar orqali vatan tarixi va madaniyatini o‘rganish imkoniyatini yaratish ham samarali usuldir. Bu yosh avlodni qiziqtirish va ularning vatanparvarlik tuyg‘usini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Vatanparvar shaxsni shakllantirishda oila, ta’lim tizimi, jamiyat, tarixiy-madaniy meros va ommaviy axborot vositalari muhim omillar sifatida xizmat qiladi.

Ushbu omillarning har biri o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini tarbiyalash uchun ushbu omillarning samarali faoliyatini ta’minlash va zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash lozim. Kelgusida bu jarayonda davlat, jamoat tashkilotlari va aholining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirov N. "Milliy tarbiya va vatanparvarlik". Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Saidov A. "Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish". Toshkent: Fan, 2020.
3. Abdullayev M. "Ta’lim tizimida milliy qadriyatlar". Toshkent: Sharq, 2019.
4. Navoiy A. "Xamsa". Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1989.
5. "O‘zbekiston tarixi". Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

SHAXSNI TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O`QITISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Majitov Maxmud Abdimo‘min o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsenti
mazhitov1981@inbox.ru

Annotatsiya: Maqolada shaxsni takomillashtirishda ijtimoiy fanlarni o‘qitish eng muhim vositalardan biri ekanligi asoslangan. Maqolada xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy fanlarga bo‘lgan e’tibor yil sayin oshib borayotgani ochib berilgan. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlarni o‘qitish tajribasi va erishilgan yutuqlar umumlashtirilgan, mavjud muammolar tahlil qilingan va ularni bartaraf etish yo‘llari ifodalangan.

Kalit so‘zlar: inson, shaxs, jamiyat**,** muammo**,** ijtimoiy fanlar, ijtimoiy fanlar funksiyalari, ijtimoiy fanlarni o‘qitish muammolari, ijtimoiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirish yo‘llari.

Shaxs – ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalarning individual ifodasi, ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar kombinatsiyasi, inson ijtimoiyligining shaklidir. Shaxs – inson ijtimoiy mohiyatining konkret ifodasidir. U insondagi insoniylik me’yorini xarakterlaydi. Shaxs – inson va jamiyat kesishgan chorrahakim, uning turli faoliyatlaridan insoniyat tarixi tarkib topadi. Mazkur tushuncha, bir tomondan, inson ijtimoiy, ma’naviy, madaniy rivojining darajasini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, uning ixtiyorini, o‘ziga xosligini anglatadi. Shu boisdan ushbu tushuncha o‘ziga xos nazariy asos vazifasini o‘taydiki, uning yordamida yakka kishi rivojining darajasi, shu jarayon kamchiliklari aniqlanadi va baholanadi.

Shaxsning falsafiy talqini - bu shaxs tushunchasi, uning mohiyati va inson hayoti va jamiyatdagi ahamiyatini falsafiy tadqiq etishdir. Faylasuflar shaxsni individuallik, o‘z-o‘zini anglash, iroda erkinligi, axloqiy va axloqiy tamoyillar, shuningdek, ijtimoiy va madaniy omillarni o‘z ichiga olgan hodisa sifatida tadqiq qiladilar.

Shaxsni tushuntirishda faylasuflarni o‘ylantirayotgan asosiy savollardan biri - bu shaxsni o‘ziga xos va takrorlanmaydigan qiladigan mohiyat. Faylasuflar, shuningdek, shaxsning qanday shakllanishi, qanday rivojlanishi va uning rivojlanishiga qanday omillar ta’sir qilishini o‘rganadilar.

Inson shaxsi mutlaqo o‘zgarmas fenomen emas. Uning tarkibidan joy olgan elementlar insonning butun umri davomida shakllanib va takomillashib boradi. Ushbu jarayon o‘z-o‘zidan, stixiyali ravishda kechmaydi, albatta. Shaxs tarkibiy elementlari turli shart-sharoit, omil, voqea va hodisalar ta’sirida rivojlanadi. Inson shaxsi tabiatini mazkur shart-sharoit va omillar ta’siridan xoli holda talqin qilish biryoqlama, ilmiy asoslanmagan va ob’ektivlikdan yiroq xulosalarga olib keladi.

Zamonaviy falsafa, psixologiya va pedagogikada shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni determinizm prinsipi nuqtai nazaridan tadqiq qilinmoqda. Bizga ma’lumki, determinizm - voqelik hodisalarining aloqadorligi va o‘zaro shartlanganligi haqidagi ta’limotdir. U narsa va hodisalarni konseptual va tarkibiy tahlil qilish bilan cheklanmasdan, ularni voqelikdagi boshqa jarayonlar bilan aloqadorlikda o‘rganish zarurligini uqdiradi. Determinizm haqidagi tasavvurlar ilmiy uslub tarkibiga kiradi – bu tasavvurlar tadqiqotni turli shart-sharoit, sabab va qonuniyatlar, ta-biat, jamiyat va tafakkurdagi har qanday o‘zgarishlarni aniqlash hamda tahlil qilish asosida amalga oshirishga undaydi. Determinizm asosini esa sababiyat va qonuniyatlar konsepsiyasi tashkil etadi.[1]

Shaxsning shakllanishi jarayoni ko‘plab omillarga, jumladan, ijtimoiy muhit, madaniyat, din, ta’lim va boshqa omillarga bog‘liq. Хусусан, та’lim – shaxsda bilim, malaka, ko‘nikma, qadriyatlarni vujudga keltirishga qaratilgan va muayyan maqsadga muvofiq tarzda yo‘naltirilgan jarayondir. U shaxsning qaror topishiga eng salmoqli ta’sir o‘tkazadigan omildir, chunki aynan uning davomida shaxsning asosiy aqliy va jismoniy imkoniyatlari rivojlanadi. Uzluksiz ta’lim shaxsni ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-ilmiy, aniq va texnikaviy bilimlar bilan qurollantiradi.Ularning inson shaxsi shakllanishiga ta’siri turlicha kechadi. Masalan, ijtimoiy va gumanitar bilimlar shaxs hayotiy maqsadlari, ideallari, qadriyatlari, ehtiyojlari va manfaatlari xarakterini shakllantiradi. Aniq va tabiiy-ilmiy bilimlar esa ilmiy dunyoqarashni vujudga keltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Insonning u yoki bu bilim sohasidan bexabar qolishi uning shaxs sifatida shakllanishiga putur yetkazadi. Binobarin, har qanday jamiyatda uzluksiz ta’lim shaxsga turli sohalarga oid bilimlarni mutanosib ravishda yetkazishga yo‘naltirilmog‘i darkor.

Global jamiyat bilan bog‘liq tendensiyalarining shaxsga salbiy ta’siri tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar imkoniyatlaridan bu ta’sirni kamaytirish yo‘lida foydalanish masalasi ayniqsa dolzarblashib bormoqda.

[1] Qarang: Novaya filosofskaya ensiklopediya. V 4-tomax./ Pod red. V.Stepina i G.Semigina. Tom 2.- M.: Мысl, 2010.- S.631.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar – kishilik jamiyati taraqqiyoti, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy sohalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, bu jabhalarga doir bilimlarni shakllantirish, saqlash va translyatsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy faoliyat shaklidir.

Qaysiki jamiyatda ijtimoiy-gumanitar fanlarning to‘laqonli shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin yaratilsa, o‘sha jamiyatda, birinchidan, ijtimoiy voqelikni ilm-fan pozitsiyasidan o‘rganish, ikkinchidan, jamiyatdagi jarayonlarning mohiyatini o‘z vaqtida va to‘g‘ri uqib olish, uchinchidan, ijtimoiy jarayonlardagi salbiy tendensiyalarni aniqlash, to‘rtinchidan, turli ijtimoiy muammolar sabab va oqibatlarini o‘rganish, beshinchidan, jamiyat kelajagiga doir ilmiy bashoratlarni yaratish, oltinchidan, jamiyat a’zolari dunyoqarashini ijtimoiy manfaatlarga mos ravishda shakllantirib borish imkoni paydo bo‘ladi. Eng muhimi, ijtimoiy-gumanitar fanlar inson shaxsini takomillashtirish, ya’ni uning hayotiy maqsadlarini shakllantirish, bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, e’tiqodini qaror toptirish, xulq-atvori va faoliyatini jamiyat manfaatlariga yo‘naltirishning muhim omili bo‘lib kelgan va kelajakda ham shunday bo‘lib qoladi.

Rivojlangan xorij mamlakatlarida ijtimoiy fanlarni o‘rganish zamonaviy shart-sharoitlarda samarali hayot kechirish va faoliyat ko‘rsatishning muhim omili sanaladi. Shu boisdan bu mamlakatlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos tizimi shakllangan. Masalan, AQShda Leyk okrugi Kolleji falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy ish, antropologiya, tarix, siyosatshunoslik va psixologiyadan mutaxassislar tayyorlaydi. Salem davlat universitetida etika, ijtimoiy siyosat, menejment, huquqshunoslik va shu kabi ta’lim yo‘nalishlari mavjud. Shimoliy Dakota davlat universiteti asosiy e’tiborni sotsiologiya va oilaviy terapiyaga qaratgan.

Masalan, “QS World University Ranking by Subject 2015” jahon universitetlari reytingida Garvard universiteti, Kaliforniya universiteti, Viskonsin universiteti ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yetakchilar sifatida qayd etilgan.[1]

Ilg‘or universitetlar huzurida ijtimoiy bilimlarni o‘zlashtirishga moyil shaxslar, hatto xorij mamlakatlarining fuqarolariga mo‘ljallangan o‘nlab o‘quv kurslari faoliyat ko‘rsatadi. Masalan, birgina Yel universitetida “World Fellows”dasturi asosidagi o‘quv kurslariga har yili 3 mingdan ortiq da’vogar hujjat topshiradi.[2:14] Bunday kurslar yordamida fuqarolar ijtimoiy bilimlarining oshirilishi AQShda fuqarolik jamiyatining misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishiga zamin yaratdi.

Aqliy markazlar – gumanitar fanlarning ijtimoiy missiyasini yorqin namoyish etadigan fenomendir. CAP (Central Asia Program) loyihasi rahbari, fransiyalik olima Marlen Lyaruelga ko‘ra, birgina Vashingtonning o‘zida to‘rt yuzdan ziyod aqliy markaz mavjud. AQSh poytaxti, jahon diplomatiyasining markazi bo‘lmish Vashington bu jihatdan gumanitar soha vakillarini ohanrabo kabi o‘ziga tortayotgan maskan hisoblanadi, chunki u yerda ilmiy karera qurish va katta daromad ko‘rish imkoniyati mavjud. Bu aqliy markazlardan ko‘zlangan pirovard maqsad esa Markaziy Osiyo davlatlari haqida bilimlar bazasini yaratib, bu bazani “monetizatsiya” qilish, ya’ni mintaqada ishlashni istagan tijoriy tashkilotlar, siyosiy

tuzilmalarga sotish, qolaversa, Vashington elitasida mintaqa haqida aniq tasavvur hosil qilishdan iborat edi.[3:28]

Yevropaning qariyb barcha yetakchi oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy fanlarni o‘qitish tizimida asosiy e’tiborni globallashayotgan dunyoda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarni ilm-fan pozitsiyasidan tadqiq qilishga qodir mutaxassislarni tayyorlashga qaratmoqda. Masalan, Germaniyaning yetakchi ta’lim muassasalaridan biri hisoblangan Vitten universitetida falsafa, siyosatshunoslik va iqtisodiyotning turli yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlar va magistrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.[4]

Bundan tashqari Gumbolt nomidagi Berlin universtitetida to‘rtta falsafa fakulteti faoliyat yuritib kelmoqda.[5]

Shuningdek M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Falsafa fakultetida o‘n olti xil falsafaga oid kafedralar va oltita ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat olib borishmoqda.[6]

Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy fanlarni o‘qitish borasida, xususan, Berlinda bir necha yillardan buyon “Yevropada gumanitar va ijtimoiy fanlar: yutuqlari va istiqbollari” mavzuida xalqaro simpozium o‘tkazish an’anaviy tus olgan.[7]

Ko‘rinib turibdiki, jahonning ijtimoiy taraqqiyotga yuz tutgan barcha mamlakatlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarga bo‘lgan e’tibor yil sayin yuksalib bormoqda, uning imkoniyatlari, bir tomondan, jamiyat oldida turgan muammolarni tadqiq qilishga, ikkinchi tomondan esa, insonni shaxs sifatida shakllantirishga safarbar qilinmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish masalasida mamlakatimizda qator masalalarni kun tartibiga qo‘yish, ularni samarali va tizimli hal qilish zarur bo‘ladi.

Birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning uzluksiz tizimini shakllantirish va rivojlantirish zarur.

Afsuski, keyingi yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni uzluksiz o‘qitish tizimiga darz ketdi. Umumta’lim maktablarida berilayotgan tahsilning atigi 5 foizi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish bilan bog‘liq. Oliy ta’lim muassasalarida ham bu borada ahvol yaxshi emas. Ayni paytda mamlakatda hanuzga qadar oliy ta’limdan keyingi davrda fuqarolarni ijtimoiy-gumanitar bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiluvchi o‘quv kurslari, markazlar qariyb mavjud emas. Buning ustiga ta’lim tizimining turli bosqichlarida tahsil berilishi nazarda tutilgan ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rtasida uzviylik ko‘rinmaydi. Natijada:

a) ijtimoiy-gumanitar fanlarning shaxs dunyoqarashi va ma’naviy qiyofasini insonparvarlik g‘oyalari asosida shakllantirish borasidagi qudratidan foydalanilmay qolinmoqda;

b) shaxs jahondagi eng zamonaviy ijtimoiy bilimlardan xabardor bo‘lish imkoniyatlaridan bebahra qolmoqda;

v) shaxs e’tiqodini mustahkamlash, qadriyatlari tizimini insonparvarlashtirish jarayoni zaiflashmoqda;

g) jamiyatda shaxsning ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarining qaror topishi jarayoni susaymoqda, ularning shakllanishi jarayoniga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari kamaymoqda;

d) shaxsni ijtimoiy taraqqiyot maqsadlariga yo‘naltirish, uni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarga safarbar qilish vazifasi bajarilmay qolmoqda;

ye) shaxsni postmodern jamiyatda ildiz otayotgan salbiy tendensiyalardan voqif qilish imkoniyatlari kamaymoqda;

j) shaxsning turli g‘ayriinsoniy g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi xavfi kuchaymoqda.

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni bitta kafedrada va aniq fanlarga xos pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish tajribasidan voz kechish kerak. Ijtimoiy fanlarning har biri inson shaxsining shakllanishi jarayoniga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatishga qodir. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning “bir nuqtadan” umumiy, standart talablar asosida amalga oshirilishi bu fanlar o‘rtasidagi tafovutni yuvib yuboradi, ularning shaxsga ta’sirini kamaytiradi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishga bunday yondashish deyarli uchramaydi.

Shu sababli ham bugungi kunda gumanitar bilimlarni dolzarblashtirish, soha vakillarini ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayoniga jalb etish uchun avvalo munosabat o‘zgarishi lozim: jamiyatda o‘tkir akademik va ijtimoiy bahslar uyushtirilib, tarixchi, tilshunos, jamiyatshunos va boshqalarning faoliyati taftish etilishi, talablarga ko‘ra ijtimoiy buyurtma shakllanishi lozim. To‘g‘ri qo‘yilgan maqsad to‘g‘ri natijalarga olib borishi ma’lum.[3:30]

Ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilari o‘quv yuklamasining haddan ziyod ko‘payib borayotgani talabalarni mustaqil shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan munozara, disput, suhbat, konsultatsiya tarzida mashg‘ulot o‘tkazish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga texnokratik yondashuvning oqibatlari haqida professor Q.Nazarov quyidagicha fikr bildiradi: “Asosan, g‘oyaviy ta’limga qaratilgan, ma’naviy kamolot manbai bo‘lgan va pirovard natijada, davlat ishlariga moyil, siyosiy yetuk avlodni tarbiyalashga yordam beradigan ijtimoiy fanlarga ham ikkinchi darajali o‘quv sohasi sifatida qaraladi. Ularga nisbatan texnokratik yodashuv ustuvor bo‘la boshlaydi, bu fanlarning asl tarbiyaviy funksiyasi bir chetga qolib, dars yuklamalari va baholash tizimi texnik fanlar bilan tenglashtiriladi.”[10:315]

Uchinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy-uslubiy markazlarni ko‘paytirish kerak. Mamlakat ijtimoiy-gumanitar fanlari inson shaxsining kamol topishi jarayonini takomillashtiruvchi, uni zamonaviy tendensiyalarning salbiy ta’siridan himoya qiluvchi omilga aylanishi uchun jahondagi ilmiy jarayonlardan chetda qolib ketmasligi, yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarni muntazam tadqiq etish imkoniga ega bo‘lmog‘i darkor.

To‘rtinchidan, ijtimoiy-gumanitar fan mutaxassislari tayyorlash tizimini ham takomillashtirish zaruriyati mavjud. Jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni ilmiy tahlil qilib berish, ijtimoiy taraqqiyot istiqbollariga doir bashoratlar tayyorlash, fuqarolar dunyoqarashini insonparvarlik g‘oyalari asosida shakllantira borish uchun mamlakatda yetarli darajada faylasuflar, sotsiologlar, siyosatshunoslar faoliyat ko‘rsatmog‘i darkor. Zero Prezident Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda:

“...ijtimoiy fanlarga e’tibor bermaslik oqibatida dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o‘zidan boshqani o‘ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona bo‘lgan va bugungi kunda chet ellarda “Boy berilgan avlod” deya atalayotgan yoshlar avlodi bizda ham vujudga kelmaydimi?”[11:234]

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar postmodern jamiyat tendensiyalarining shaxs ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sirini kamaytirishga xizmat qiladigan eng muhim sub’ektiv omil vazifasini o‘tamoqda. Shu boisdan ham jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida ularga bo‘lgan e’tibor oshmoqda. O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarni shaxsni takomillashtiruvchi qudratli omilga aylantirish uchun ularni o‘qitishning uzluksiz tizimini shakllantirish va rivojlantirish, oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni bitta kafedrada va aniq fanlarga xos pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish tajribasidan voz kechish, ijtimoiy fanlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy-uslubiy markazlarni ko‘paytirish, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur bo‘ladi.

Postmodern jamiyatdagi tendensiyalar bizdan ta’lim-tarbiya tizimiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Avvalo ilmiy muammoni va tadqiqot ob’ektini, mavzularini aniq belgilab olish zarur. Shundan keyin gumanitar fanlararo o‘ziga xos “mehnat taqsimoti” va kooperativ aloqalarni amalga oshirish zarur bo‘lsa, turli mutaxassislar jalb etilgan holda ilmiy laborotoriyalar tashkil qilinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- T.:O‘zbekiston, 2021. -464 b.
2. Stefanovich M. Izuchenie obщestvennыx nauk v SShA // www. hotcourses.ru.
3. Chemu uchili Navalnogo v SShA?// Argumentы i faktы, 2018, №30.
4. Asanov E. Gumanitar fanlardan nima naf?// Tafakkur jurnali, 2021 yil 4-son.
5. Magistr filosofii, politiki i ekonomiki // www.masterstudies.com.
6. https://philos.msu.ru/faculty_structure
7. VI Mejdunarodnыy simpozium «Gumanitarnыe i obщestvennыe nauki v Yevrope: dostijeniya i perspektivы».// vsenauki.ru

YOSH AVLODNI ONGIDA MILLIY G‘URUR TUYG‘ULARINI RIVOJLANTIRISHDA O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING TUTGAN O‘RNI

S.N.Tursunov
TerDU Tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrasi
Tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni ongida milliy g‘urur tuyg‘ularini rivojlantirishda O‘zbekiston tarixi fanining ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada tarix fanining ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning milliy o‘zlikni shakllantirishdagi ta’siri va zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarixiy bilimlarning

yoshlarda vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini oshirishdagi samarasi jadvallar orqali tasvirlanadi. Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik omillar ham e’tiborga olinadi.

Kalit so‘zlar: milliy g‘urur, O‘zbekiston tarixi, yosh avlod, ta’lim, vatanparvarlik, milliy o‘zlik, tarixiy ong.

Kirish

Zamonaviy davrda har qanday jamiyatning rivojlanishi uning yosh avlodining dunyoqarashi, o‘z millatiga bo‘lgan hurmati va g‘ururi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgani, o‘ziga xos davlatchilik tajribasi va boy tarixiy merosga ega ekanligi yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston tarixi fani esa bu jarayonda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqola yosh avlod ongida milliy g‘urur tuyg‘ularini rivojlantirishda tarix fanining tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlanadi.

1. O‘zbekiston tarixi fanining ta’limdagi o‘rni

O‘zbekiston tarixi fani umumiy ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida muhim o‘rin tutadi. Bu fan nafaqat o‘tmishdagi voqealarni o‘rganish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarda o‘z xalqining boy madaniyati, qahramonliklari va yutuqlariga hurmat tuyg‘usini uyg‘otadi. Tarix fani orqali yoshlar o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan o‘ziga xos an’analari, davlatchilik tajribasi va mustaqillik yo‘lidagi kurashlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.

Masalan, Amir Temur davri, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy kabi buyuk allomalarning ilmiy merosi yoki XX asrdagi mustaqillik uchun kurashlar yoshlarda o‘z millatiga nisbatan faxr hissini oshiradi. Bu jarayonda tarix fani nafaqat faktlarni o‘rgatadi, balki ularni tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

2. Milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishdagi tarix fanining roli

Milliy g‘urur – bu shaxsning o‘z millatiga mansublik hissini chuqur idrok etishi va uning yutuqlaridan faxrlanishidir. O‘zbekiston tarixi fani bu tuyg‘uni rivojlantirishda quyidagi yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi:

- **Tarixiy shaxslar orqali namunalar yaratish:** O‘zbek xalqining buyuk shaxslari haqidagi bilimlar yoshlarda vatanparvarlik va o‘ziga ishonch hissini oshiradi.
- **Mustaqillik yo‘lidagi kurashlarni yoritish:** 1989-1991-yillardagi voqealar, davlat tili maqomining qo‘lga kiritilishi kabi tarixiy lahzalar yoshlarga o‘z xalqining qat’iyatliligini ko‘rsatadi.
- **Madaniy merosning ahamiyati:** O‘zbek xalqining san’ati, me’morchiligi va adabiyoti haqidagi ma’lumotlar milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Tarixiy bilimlarning yoshlardagi ta’siri: Jadvallar bilan tahlil

Tarix fanining yosh avlodga ta’sirini aniqroq tushunish uchun quyidagi jadvallar keltiriladi. Ushbu ma’lumotlar taxminiy bo‘lib, umumiy tendensiyani ko‘rsatish uchun misol sifatida keltirilgan.

Jadval 1: O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishning yoshlardagi milliy g‘ururga ta’siri (foizlarda)

Yosh guruhi	Tarixiy bilimlardan faxrlanish darajasi	Vatanparvarlik hissi oshishi	O‘zlikni anglash darajasi
12-15 yosh	70%	65%	60%
16-20 yosh	85%	80%	75%
21-25 yosh	90%	85%	80%

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yosh o‘sishi bilan tarixiy bilimlarning milliy g‘ururga ta’siri ham ortib boradi. Bu esa tarix fanining o‘quvchilar ongida chuqur iz qoldirishini tasdiqlaydi.

Jadval 2: Tarix fanining turli jihatlari va ularning ta’sir sohalari

Tarixiy jihat	Ta’sir sohasi	Ta’sir darajasi (1-5 ball)
Buyuk shaxslar haqida bilim	Faxr va o‘ziga ishonch	4.5
Mustaqillik kurashi	Vatanparvarlik	4.8
Madaniy meros	Milliy o‘zlik	4.3
Ilmiy yutuqlar	Ilmga qiziqish	4.0

Ushbu jadvalda tarix fanining turli yo‘nalishlari yoshlarda turli xil ijobiy his-tuyg‘ularni rivojlantirishi ko‘rsatilgan. Eng yuqori ta’sir mustaqillik kurashi bilan bog‘liq bo‘lib, bu zamonaviy O‘zbekistonning asosiy g‘oyalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

4. Zamonaviy yondashuvlar va pedagogik usullar

Tarix fanining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy ta’limda quyidagi usullar qo‘llanilmoqda:

- **Interaktiv darslar:** Videomateriallar, virtual muzeylar va tarixiy joylarga sayohatlar yoshlarda qiziqish uyg‘otadi.
- **Muammoli vaziyatlar yaratish:** O‘quvchilarga tarixiy dilemmalarni hal qilish topshirig‘i beriladi, bu ularning tanqidiy fikrlashini oshiradi.
- **Tahlil va muhokama:** Tarixiy voqealarni zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilish yoshlarda o‘tmish va hozirgi kun o‘rtasidagi bog‘lanishni anglashga yordam beradi.

Masalan, O‘zbekistonning mustaqillikka erishish jarayonini o‘rganishda o‘quvchilardan “Agar o‘zbek xalqi 1989-yilda davlat tili uchun kurashmaganida, bugungi holat qanday bo‘lardi?” degan savolga javob izlash so‘ralishi mumkin. Bu yoshlarda o‘z xalqining qat’iyatliligini anglashga yordam beradi.

5. Xulosa va takliflar

O‘zbekiston tarixi fani yosh avlod ongida milliy g‘urur tuyg‘ularini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu fan nafaqat o‘tmishni o‘rganish vositasi, balki kelajakni qurishda yoshlarni ruhlantiruvchi kuchdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tarixiy bilimlar yoshlarda vatanparvarlik, o‘zlikni anglash va faxr hissini oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’limda interaktiv usullarni kengroq joriy etish va tarix fanini hayot bilan bog‘lash zarur.

Takliflar:

1. Tarix darslarida ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

2. Yoshlarni tarixiy joylarga sayohatlarga jalb qilish.
3. Tarix fanini boshqa fanlar (adabiyot, geografiya) bilan integratsiya qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev, R. (2022). *O‘zbekiston tarixi: O‘quv qo‘llanma*. Toshkent: Akademnashr.
2. Karimov, I.A. (1998). *O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida*. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Uljaeva, Sh. (2021). *O‘zbekistonning eng yangi tarixi*. Toshkent: TIIQXM.
4. Nurumbekova, Ya. (2023). *Bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy tayyorlash tizimi*. Toshkent: TerDU NMM.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Ta’lim dasturlari va metodik qo‘llanmalar*.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH G`OYALARI

Pardayev Toshkentboy Rajabovich
Termiz davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi professori
Tel: 99890 247 34 02 tashkenbay@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga oid tushunchalar, qarashlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, san’at sohasi, estetik ehtiyojlar, madaniy-ma’rifiy faoliyat.

Kirish

Marralar qanchalik baland olinmasin, loyihalar nechog‘li istiqbolli bo‘lmasin, Vatanni sevadigan, chin yurakdan mehnat qiladigan fidoyi insonlarsiz ularni amalga oshirish imkonsiz.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ma’naviy-ma’rifiy ishlarga

davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi.

Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so‘z bilan aytganda ma’naviy mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev – Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy etuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga

oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirla rtahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda», - deb bu borada qilishimiz lozim bo‘lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko‘rsatmalarni berib o‘tdilar. Bu so‘zlar zamirida hali oldimizda bu sohada juda ko‘p ishlarni qilishimiz lozimligini hayotni o‘zi isbotlamoqda. – Maqsadimizga erishish yangi demokratik jamiyatni qurish, islohatlarning taqdirini qanday kuchlarga ega ekanliklarimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday g‘oyalarga e’tiqod qilishiga, ma’naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog‘liqdir»- deydi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov. Shu bois yoshlarning ma’lumot olish imkoniyatini oshirish, milliy umuminsoniy tiklanish g‘oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biridir. Shuning uchun bugungi kunda o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan umuminsoniy ma’naviyatini va milliy qadriyatlarini singdirish yoshlarni vatanparvar, barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash madaniyat va san’at sohasining asosiy masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki, madaniyat va san’at jamiyat hayotining muhim ajralmas qismi bo‘lib, u inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Milliy Vatanparvarlik haqida so‘z borganda, bu o‘zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o‘z eliga sadoqat ahloqiyma’naviy qadriyatlar, g‘oyalar, qarashlar yig‘indisi tushuniladi. Vatanparvarlik tuyg‘usi, avvalo, insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishiga xizmat qiladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashda tashabbuskor bo‘lish, tinchlikni ko‘z qorachig‘idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi.

Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi.

Bugungi zamon shiddati inson uchun ma’naviyat naqadar najotkor kuch ekanini namoyon etmoqda. Zero, axloqsizlik, odobsizlik, ma’naviy qashshoqlik insonni ma’naviy tubanlik girdobiga giriftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltirayotganini namoyon etmoqda. Ma’naviyat insonning jamiyatda yashashi uchun zarur ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuch. Aynan ma’naviyat tufayli insonda go‘zal odob-axloq fazilatlari shakllanib, uning jamiyatdagi mavqeini belgilab beradi. Shu bois, jamiyat hayotida ma’naviyat masalasiga nihoyatda mas’uliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Zero, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqi jo‘sh urgan oriyatli, ma’naviy jasoratga ega odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarida ham Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, tarbiyalash ta’limining asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishda O‘zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o‘zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo‘lgan tuyg‘ular, fazilatlar o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy faoliyatda o‘z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo‘lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo‘l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Vatanparvarlik mavzusida juda ko‘p olim-u ulamolarimizning ijod namunalari-yu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zahiriddin Bobur, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya’ni bizning zamonamizda ham o‘ziga xos o‘rin egallagan bo‘lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma’noda, o‘zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu - insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta’lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo‘msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, uni yomon ko‘zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha’nini himoya qilish - bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas’uliyatli vazifalardandir. Vatan tushunchasini, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg‘usi nafaqat insonda, balki hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Baliq suvga, hayvon o‘zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O‘sha tafakkur qilmaydigan jonzotlar ham, hasharotlar ham o‘zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aql-u zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji bo‘lgan insonda esa bu tuyg‘u yuksak darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami kundan kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining sa’y-harakatlari, tashkbbuslari bilan yurtimiz hayotida misli ko‘rilmagan darajadagi taraqqiyotning pog‘onalarini ko‘rib guvohi bo‘lib turibmiz. Insonlarning tinchhotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro‘yini ko‘tarish, Prezidentimizning ta’birlari bilan aytganda, -xalqni rozi qilish» yo‘lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategikmasala sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonni yana-da rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan beshta ustivor yo‘nalishlari mazmunida ham shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon turmush tarzini yaxshilash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro‘yini oshirish va boshqa masalalar turibdi. Bunday ulug‘ ishlarni amalga oshirishda vatanparvarlik tuyg‘usi kuchli insonlarning fidoiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. “Vatan” - arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, - «Ona yurt» degan ma’noni anglatadi.

Vatan insonning kindik qoni to‘kilgan, avlod va ajdodlari tug‘ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma’naviy tushunchalarni anglatadi.

Vatanparvarlik - deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ma’naviy - axloqiy fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik - ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, yurtning o‘tmishi va kelajagi, xalq urf-odatlarini, kuy-qo‘shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish demakdir».

Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta’lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o‘quvchilarda barcha qobilyatni o‘sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Ilg‘or g‘oyalarni davrimizda roy berayotgan o‘zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o‘g‘il va qizlarda g‘oyaviy e’tiqodni ma’naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo‘lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta’sir ko‘rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi.Vatanparvarlik tushunchasi ko‘pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu to‘g‘ri. Ammo, biz bu tuyg‘uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma’noda qo‘llagan bo‘lamiz. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Vatan tushunchasi keng va tor ma’nolarda qo‘llash mumkin. Keng ma’nodagi tushunchasi: Vatan - bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azalazaldan iqtiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, tor ma’nodagisi esa kishi tug‘ulib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutiladi. O‘zbeklarda falonchi vatanli bo‘ldi, deyilganda o‘sha odam uy-joyli, boshpanali bo‘ldi degan ma’no ham shu nuqtai nazardan aytilgan bo‘lsa kerak. Alisher Navoiy ijodida Vatan tushunchasi keng ma’nolarda qo‘llanilgan. Bir ta’rifida Vatan so‘zini geografik ma’noda, ya’ni, tug‘ilib, o‘sib-ulg‘aygan joy mazmunida tadbiq etgan. Masalan, shoir ustodi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubida: Ki bo‘lmoq vatan ichra dushvor edi, Ko‘ngulga jafo daf’i ozor edi**,** - derkan, ona shahri Hirotnie’tiborga olgan. Ustod Maqsud Shayhzoda aytganidek, Navoiy «hatto Xuroson saltanatining yiroq viloyatlariga borganda ham o‘zini “g‘urbatda” his etgan», degan qarashlar mavjud. Navoiy 1465-1466 yillarga qadar, asosan, Hirot va Mashhadda yashagan. She’rdagi “g‘urbat” so‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu she’rni u o‘z vatani Hirotda emas, balki g‘urbatda - musofirlikda, demak, Mashhadda yozgan bo‘lishi kerak, degan taxminlar ham mavjud «Navoiyning o‘z tug‘ilgan ona shahri Hirotdan, qavmu qarindoshlaridan uzoq Mashhadda kechirgan yillari ancha mashaqqatli bo‘lgan bo‘lsa kerakki, - deydi professor Abduqodir Hayitmetov, - u «Majolisun nafois»da u yillarni eslab o‘zini “g‘arib” deb ataydi va kasal bo‘lib qolganda «bir joyda yiqilib qolganini aytadi». Tadqiqotchining taxminicha, ruboiy «shu vaqtlarda (ya’ni Mashhadda - I. H.) yozilgan bo‘lsa ajab emas». Demak, “g‘urbat” va “g‘arib” to‘rtlikdagi “belgi” so‘zlar bo‘lib, ruboiyning yaratilgan vaqti, bosh g‘oyasi va lirik qahramonning qayg‘uli holatini anglashga «ochqichidir. Darhaqiqat, xuddi shunday:
G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish

Shu misraning o‘zi go‘yo tugal mazmunli she’r. Uni o‘qigan zahoti, yurtidan

yiroqlardagi kishining qismati tasavvurda qariyb to‘la jonlanadi. Vatandan judolik g‘urbat. G‘urbatda yashash - g‘ariblik. G‘arib - shodlikdan mahrum bir bechora.

Ruboiyning oxirgi baytidagi obrazli qiyos Vatan va farzand o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur isbotlaydi.

Barkamol avlod ta’lim va tarbiyasi bilan bog‘liq qarashlarni Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatida juda ko‘p uchratamiz. Ma’lumki, Navoiy ham ijodkor, ham amaldor sifatida el osoyishtaligini saqlash, qishloq va kentlarni obodonlashtirish, yoshlarni bilim olishga chorlash uchun amaliy sharoitlar yaratishda tinmas va tolmas tashabbuskor bo‘lgan. U o‘z asarlarida bu g‘oyalarni keng targ‘ib etgan. Navoiy asarlaridagi g‘oyalar, o‘z davrida ilgari surilgan va amalga oshirilgan tadbirlar mazmun va mohiyatini bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liq tadbirlarda keng qo‘llashimiz zarur.

Xulosa qilib aytganda, Vatan sha’ni, or-nomusini jon-jahdi bilan himoya qiladigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash, buning uchun farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurt taqdiriga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirish mudom eng ustuvor masala bo‘lib davom etaveradi. Zero, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari, ezgu g‘oyalarni tarannum etish tinchlik va barqarorlikning asosi ekan, bu har bir vatandoshimizning muqaddas burchi bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyundagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risida»gi Qonun (O‘RQ-406-son).
3. Sayfullayev B., Rustamov V. (2016). Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati.Toshkent, 4. Xoji Ahmadjon Bobomurod. (2008). Islom odobi va ahloqi. Toshkent, 15 b.
4. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue1/2020.
5. Talaboyev, A. (2021). O‘zbek xalq musiqa ijrochiligi san’atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish omillari. Oriental Art and Culture, 2(4), 325-333.
6. Nabijonovich, T. A. (2022). Rajabiylar sulolasiga bir nazar. Oriental Art and Culture, 3(1), 633-642.

VORISIYLIK VA UNING YOSHLAR HAYOTIDAGI O‘RNI

Norqobilov Muzaffar Jumayevich
DXX ChQ “ Yosh chegarachilar” HAL direktori
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola vorisiylik (Vorisiylik) tushunchasini va uning yoshlar hayotidagi muhim o‘rnini o‘rganadi. Maqolada vorisiylikning ijtimoiy, madaniy va ta’limga ta’siri tahlil qilinadi, shuningdek, madaniy kapital va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning rivojlanishiga va jamiyatda integratsiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqiladi. Bourdieu, Lareau va Coleman kabi olimlarning nazariy asoslari orqali avlodlararo madaniy va ijtimoiy resurslarning uzatilishi tahlil qilinadi. Vositachilik (Vorisiylik) nafaqat individual rivojlanish, balki ijtimoiy ko‘chish va jamiyatga integratsiya qilishda ham muhim mexanizm hisoblanadi, bu yoshlarning jamiyat tuzilmalarida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Vorisiylik**,** madaniy kapital**,** ijtimoiy integratsiya**,** yoshlar rivojlanishi**,** ijtimoiy ko‘chish**,** ijtimoiy tarmoqlar**,** ijtimoiy kapital.

Kirish

Vorisiylik (yoki merosxo‘rlik) nafaqat genetik yoki moddiy boyliklarni o‘zlashtirishni anglatadi, balki jamiyatda o‘z o‘rnini topish va kelajakdagi muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, madaniy, va ma’naviy resurslarni ham o‘z ichiga oladi. Yoshlar uchun vorislik, ular o‘zlarining oila va jamiyatdan olingan bilimlarni, qadriyatlarni, va madaniy kapitalni o‘zlashtirishlari orqali shaxsiy rivojlanishga erishadilar. Ushbu maqolada vorisiylikning yoshlar hayotidagi o‘rni va uning ijtimoiy integratsiyasi tahlil qilinadi.

Vorisiylik tushunchasi

Vorisiylik tushunchasi, Bourdieu (1986) tomonidan "madaniy kapital" kontseptsiyasi orqali kengaytirilgan. Madaniy kapital, birinchi navbatda, ijtimoiy mavqe, bilimlar, urf-odatlar va qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jamiyatning o‘ziga xos yuksak darajasi yoki tizimini anglatadi. Yoshlar uchun vorislik nafaqat moddiy boyliklar (ya’ni, yer yoki mol-mulk) balki jamiyatda o‘z mavqeini topish, o‘zlarini anglash va ijtimoiy aloqalar o‘rnatish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Jamiyatning madaniy kapitali orqali yoshlar o‘zlarining ijtimoiy mavqeini belgilashadi (Lareau, 2003).

Shuningdek, vorislikning ikki asosiy omili mavjud: birinchisi - genetik va moddiy boyliklarni o‘zlashtirish, ikkinchisi esa madaniy va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish. Taqsimotning o‘ziga xosligi yoshlarning kelajagi va rivojlanishiga ta'sir etadi (Bourdieu, 1986).

Yoshlar hayotida vorisiylikning ahamiyati

Vorisiylikning yoshlar hayotiga ta’siri o‘zini ko‘proq ijtimoiy integratsiya jarayonida namoyon qiladi. Yoshlar o‘zlarining oilaviy kelib chiqishi, ota-ona ta’limi, iqtisodiy holatiga qarab jamiyatda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladilar. Lareau (2003) ta’kidlashicha, oilaviy muhit va madaniy kapitalning mavjudligi,

yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘z-o‘zini rivojlantirish, ta’lim olish va ijtimoiy tarmoqlarda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun yoshlar o‘z oilalaridan meros qilib olgan axloqiy va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtiradilar. Buning natijasida, yoshlar o‘zlarini jamiyatda eng yuqori ijtimoiy sinfga mansub deb his qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, yoshlarning vorislik orqali o‘zlari uchun ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari, ular qaysi oilaviy va madaniy tizimga mansub bo‘lishiga, oilalarining ta’lim darajasiga bog‘liq. Bourdieu (1986) va Lareau (2003) ta’kidlashlaricha, yoshlar, o‘zlariga oiladan olingan bilim va qadriyatlarni ishlab chiqish orqali o‘z kelajaklarini shakllantiradilar.

Vorisiylik va shaxsiy rivojlanish

Yoshlar, o‘z oilalaridan va ijtimoiy tizimdan olingan madaniy kapital va bilimlarni o‘zlashtirish orqali shaxsiy rivojlanishlarini davom ettiradilar. Masalan, bo‘lajak o‘qish muvaffaqiyatlari, kasb tanlashdagi qarorlar, va ijtimoiy tizimdagi muvaffaqiyatlar ko‘pincha oiladan olingan qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Erickson (2004) va Coleman (1990) tomonidan ta’kidlanganidek, yoshlarning shaxsiy rivojlanishi nafaqat o‘z ta'limlari bilan, balki ular o‘z oilalarining madaniy kapitalini qanday o‘zlashtirishlari bilan ham belgilanadi. Bu esa yoshlarning o‘zlariga bo‘lgan ishonch va kelajakdagi muvaffaqiyatlarida katta ta’sirga ega.

Shu bilan birga, yoshlarning jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari va o‘z-o‘zini rivojlantirishlari uchun, ularning ijtimoiy tarmoqlar orqali qanday aloqalar o‘rnatishlari va o‘zlarini qanday tanitishlari muhimdir. Bu jarayon ijtimoiy va madaniy tizimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak, chunki yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va rivojlanishi jamiyatning umumiy ijtimoiy integratsiyasi bilan bog‘liqdir (Erickson, 2004).

Vorisiylik va ijtimoiy integratsiya

Yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ularning oilalaridan olingan madaniy kapital va axloqiy qadriyatlar orqali amalga oshadi. Bu jarayon yoshlarning o‘zlarini qanday tanitishlari, o‘z ijtimoiy mavqeini qanday aniqlashlariga va ijtimoiy tizimga qanday integratsiyalashishlariga bog‘liqdir. Putnam (2000) o‘z asarida ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy kapitalning ijtimoiy tizimda qanday rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Yoshlar, o‘zlarini jamiyatda muvaffaqiyatli ko‘rsatish uchun, oilaviy tizimlar va jamiyatning madaniy kapitalini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak.

Yoshlarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni, ular o‘z oilalaridan meros qilib olingan tajriba va bilimlarni qanday rivojlantirishi bilan bevosita bog‘liqdir. Jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, yoshlarning o‘zlarini madaniy va ijtimoiy tizimlarda tanitishlari zarur.

Xulosa

Vorisiylik, yoshlarning shaxsiy rivojlanishida va jamiyatda o‘z o‘rnini topishda muhim ahamiyatga ega. Madaniy kapital va ijtimoiy integratsiya jarayonida vorisiylikning o‘rni yoshlarning muvaffaqiyatlarini ta'minlashda katta ta'sir ko‘rsatadi. Yoshlarning oilalaridan olgan bilim va qadriyatlar asosida shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education.
2. Lareau, A. (2003). Unequal Childhoods: Class, Race, and Family Life. University of California Press.
3. Erickson, B. H. (2004). Social Networks and the Internet: A Sociological Perspective. Sociology Compass.
4. Coleman, J. S. (1990). Foundations of Social Theory. Belknap Press.
5. Putnam, R. D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. Simon & Schuster.

ОИЛАДА БОЛАЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ.

Шарафутдинова Х.Г.
ТерДУ “Психология” кафедраси
мудири п.ф.д. (DSc)

Аннотация. Мазкур мақолада ҳарбий оилаларда психологик иқлимнинг фарзанд камолатига таъсирига оид психологик қарашлар баён этилган. Шунингдек, оилада психологик иқлимнинг мазмун моҳияти ёритилган.

Калит сўзлар: оила, ҳарбий оила, ватанпарварлик, оилавий муносабат

Annotation. The article describes psychological views on the influence of the psychological climate on the development of children in military families. The content of the psychological climate in the family is also emphasized.

Keywords: family, military family, patriotism, family relations

Аннотация. В статье описаны психологические взгляды о влияние психологического климата на развитие детей в семьях военнослужащих. Также подчеркивается содержание психологического климата в семье.

Ключевые слова: семья, семья военнослужащих, патриотизм семейные отношения

Мамлакатимиз келажагининг порлоқ бўлишида шижоатли, қатъиятли, илму фан, замонавий техника ва технологияларни пухта эгаллаган, давр талаблари асосида таълим ва тарбия олган, мақсадни аниқ қўйиб, шу асосда ҳаракат қилаётган ёшларнинг ўрни катта. угунги глобалашув шароитда инсон онги ва қалбини забт этиш учун курашлар кескин тус олаётган бир даврда халқаро майдонда ёшларни ҳар қандай хавф ва таҳдидлардан асраш, уларнинг мустақил фикри, эътиқодини ва қатъий ҳаётий позициясини шакллантириш энг муҳим ва кечиктириб бўлмас вазифалардан бир бўлмоқда.

Дарҳақиқат, ватанпарварлик ёшларда фуқаролик бурчи, шахсий масъулият ҳисси, Ватан тақдирига дахлдорлик туйғусини, фаол ҳаётий позиция ва қатъий эътиқодини, касбий маҳоратини шакллантирадиган

қудратли воситадир. Бундан унумли фойдаланган ҳолда ёшларимизда ёт ғояларга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш, Она-юрт тақдири учун масъулият туйғусини мустаҳкамлаш, уларни ўз касбига садоқатли ва ҳар томонлама етук кадрлар этиб тарбиялаш бўйича аниқ чора-тадбирлар кўришни тақозо қилмоқда.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев “Ватанпарварлик ҳар бир давлат ҳаётининг маънавий асоси ҳисобланади ва жамиятни ҳар томонлама ривожлантириш борасида энг муҳим сафарбар этувчи куч сифатида намоён бўлади”, дея бу жараёнга юксак баҳо берган эди[1]. Мамлакатимизда ёшларни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш, маънавий етук ва жисмонан соғлом баркамол авлодни вояга етказиш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган ислоҳотлар мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, халқ манфаати йўлида бор салоҳиятини сафарбар қиладиган, шижоатли мутахассис кадрларни етиштириш учун замин яратмоқда. Шу билан бирга, талабаларнинг ватанпарварлик даражасини ўрганиш, ўлчаш, квалиметрик таҳлил қилишни тизимлаштириш ва доимий коррекциялаш зарурати юзага келмоқда. Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш чора-тадбирларида “юксак маънавиятли, қатъий ҳаётий позиция, кенг дунёқарашга эга бўлган фидойи ва ватанпарвар ёшларни тарбиялаш” каби вазифалар белгиланган.

Мамлакатимиз келажагининг порлоқ бўлишида шижоатли, қатъиятли, илму фан, замонавий техника ва технологияларни пухта эгаллаган, давр талаблари асосида таълим ва тарбия олган, мақсадни аниқ қўйиб, шу асосда ҳаракат қилаётган ёшларнинг ўрни катта. угунги глобалашув шароитда инсон онги ва қалбини забт этиш учун курашлар кескин тус олаётган бир даврда халқаро майдонда ёшларни ҳар қандай хавф ва таҳдидлардан асраш, уларнинг мустақил фикри, эътиқодини ва қатъий ҳаётий позициясини шакллантириш энг муҳим ва кечиктириб бўлмас вазифалардан бир бўлмоқда.

Дарҳақиқат, ватанпарварлик ёшларда фуқаролик бурчи, шахсий масъулият ҳисси, Ватан тақдирига дахлдорлик туйғусини, фаол ҳаётий позиция ва қатъий эътиқодини, касбий маҳоратини шакллантирадиган қудратли воситадир. Бундан унумли фойдаланган ҳолда ёшларимизда ёт ғояларга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш, Она-юрт тақдири учун масъулият туйғусини мустаҳкамлаш, уларни ўз касбига садоқатли ва ҳар томонлама етук кадрлар этиб тарбиялаш бўйича аниқ чора-тадбирлар кўришни тақозо қилмоқда.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев “Ватанпарварлик ҳар бир давлат ҳаётининг маънавий асоси ҳисобланади ва жамиятни ҳар томонлама ривожлантириш борасида энг муҳим сафарбар этувчи куч сифатида намоён бўлади”, дея бу жараёнга юксак баҳо берган эди. Мамлакатимизда ёшларни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш, маънавий етук ва жисмонан соғлом баркамол авлодни вояга етказиш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган

ислоҳотлар мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, халқ манфаати йўлида бор салоҳиятини сафарбар қиладиган, шижоатли мутахассис кадрларни етиштириш учун замин яратмоқда. Шу билан бирга, талабаларнинг ватанпарварлик даражасини ўрганиш, ўлчаш, квалиметрик таҳлил қилишни тизимлаштириш ва доимий коррекциялаш зарурати юзага келмоқда. Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш чора-тадбирларида "юксак маънавиятли, қатъий ҳаётий позиция, кенг дунёқарашга эга бўлган фидойи ва ватанпарвар ёшларни тарбиялаш" [56] каби вазифалар белгиланган.

Оила – ривожланаётган жамият ижтимоий тузилишининг зарурий таркибий қисми, тарихан ўзгариб турувчи ҳодиса. У зиёли шахсларни кўпайтирадиган институт сифатида фаолият юритади, бу ижтимоий шаклланиш бўлиб, унда шахс ҳаётни ташкил этишнинг биринчи тажрибасини ўзининг асосий кўринишларида - ишлаб чиқариш фаолияти ва кундалик ҳаётда олади. Оилавий муносабатлар ва кундалик хатти-ҳаракатларни, келажакдаги оилавий ҳаёт сабоқларини, ҳаётий мақсадлар ва қадриятлар ҳақидаги ғояларни эгаллайди, маданиятга ва жамиятнинг ижтимоий меъёрларига қўшилади. Бу оиланинг асосий мақсади хамдир.

Боланинг шахсиятига оиланинг таъсири муаммосини кўриб чиқишнинг аҳамияти ота-оналар болани, унинг эҳтиёжларини, қизиқишларини, психологик ҳолатларини ва тажрибаларини қандай қабул қилишлари ва тушунишлари ва шунга яраша у билан ўзаро муносабатлари билан боғлиқ. Дастлаб болани, сўнгра ўспиринни ўзини ўзи идрок этиш ва баҳолаш, "мен" нинг ижобий ёки салбий қиёфасини шакллантириш, шахсини қабул қилиш ёки рад этиш юқоридаги жараёнларга боғлиқ холда шаклланади. Ота-оналарнинг фарзандларга бўлган муносабати уларнинг хатти-ҳаракатлари ва фаолиятининг мотивлари тўғрисида хабардорлигига, қадрият ва идеалларнинг шаклланишига, касбий қизиқишларининг таркиб топишига, ўзларини ва атрофдаги одамларни баҳолашлари асосида ижтимоий баҳолаш ва ўзини ўзи баҳолашларига таъсир қилади. Буларнинг барчаси болаларнинг шахсиятини шакллантиради.

Оила - бу аҳолининг кўпайиши ва янги авлодларнинг ижтимоийлашуви учун аниқ вазифаларни муваффақиятли ҳал этишга қодир бўлган давлатнинг ноёб тизимидир. Айнан шу сабабларга кўра мамлакатимизда оилани ижтимоий тизим, оила ва давлат ўртасидаги муносабатлар ва давлат оилавий сиёсатининг концептуал асослари сифатида касбий ўрганиш вазифаси амалга оширилмоқда. Оила айниқса, бола шахсини шакллантириш ва ривожлантиришда ниҳоятда муҳим рол ўйнайди [2]. Ҳаётнинг дастлабки дақиқаларидан бошлаб бола оилада ижтимоий мавжудот сифатида ривожланади. Ота-она ҳаётий мақомини автоматик равишда эгаллайди, чунки

[56] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги "Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3907-сон Қарори.- Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 20.08.2018 й., 33-сон

жисмоний ҳаёт тўғридан-тўғри маънода уларга боғлиқдир; келажакда уларнинг севгиси ва маъқулланишига бўлган эҳтиёж у учун худди шундай маънога эга бўлади. Ота-она билан муносабатларда бола ўзини тутиш кўникмаларини, шахслараро мулоқот қобилиятларини, жинсий хулқ-атвор моделларини ва бошқаларни жалб қилади ва ўрганади. Шу туфайли ота-она оиладаги шахслараро муносабатларнинг муҳим жиҳатларидан биридир.

Руссо Ж.Ж. таъкидлашича, “ҳар бир кейинги ўқитувчи болага аввалгисига қараганда камроқ таъсир кўрсатади.” [5]. Уйда тарбиянинг ўзига хослиги, авваламбор, яқин одамларнинг уларга бўлган биологик ва психологик боғлиқлиги туфайли бола ҳаётидаги устуворлиги, алоҳида аҳамияти билан изоҳланади.

Ватанпарвар инсонларни тарбиялашда халқимизнинг тарихий мероси катта аҳамиятга эга. Шу сабабли тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва келажак авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. 2018 йил 23 февралда эълон қилинган “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси”да ёшларни миллий ғоя ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг қалби ва онгига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканини чуқур сингдириш, қадимий тарихимиз ва маданиятимиз, жонажон Ватанимизнинг мустақиллиги ва равнақи йўлида фидокорона курашган миллий қаҳрамонларимиз билан фахрланиш, уларга муносиб бўлиш туйғусини шакллантириш кабилар асосий вазифалар этиб белгиланган[1].

Инсон улғайган сари унинг Ватан ҳақидаги тушунчалари ҳам кенгая боради. Юртимизда туғилиб-ўсган ҳар бир инсон “Ватаним” деганида ўз уйини, қишлоғини ёки шаҳрини эмас, балки Ўзбекистон Республикасини назарда тутади. Бу эса Ватан туйғусининг, ватанпарварликнинг халқимиз қалбидаги ифодасидир. Ватан туйғуси — бу азиз ва гўзал юртимизга ҳурмат ва садоқатли бўлиш. Ватан туйғуси — бу Турон, Мовароуннаҳр, Туркистон ва ҳозирда Ўзбекистон дея аталган заминда яшаб келаётган халқимизнинг олтин меросини, унинг тарихини ўрганишга интилишдир.

Ўз даврида “Юртим, Туроним, сендан айрилмоқ — менинг ўлимим, сенинг учун ўлмоқ — менинг тириклигимдур”, деб ёзган эди Фитрат [3]. Бу сўзларда ватанпарвар инсоннинг қалб нолалари ифодасини топган. Ўсиб келаётган ёшларни, яъни Ватанимизнинг бўлғуси ҳимоячиларини ватанпарварлик руҳида тарбиялаш — давр талаби. Ватанпарварлик инсоннинг ўз оиласига, авлод-аждодларининг ор-номусига чуқур эҳтироми, виждонига, бурчига ва ўз сўзига содиқлигидир. Агар инсонни болалик чоғидан ўз халқига, унинг анъаналарига, тили ва маданиятига муҳаббат ҳамда ҳурмат руҳида тарбия қилмасак, унда ватанпарварлик ҳисси бўлмайди.

Ватан ҳисси инсонга Ватанидан олисда бўлганида яққол сезилади. Турли сабаблар билан ўзга юртларда яшаган кўплаб ватандошларимизнинг ҳаёти аянчли ва қайғули кечгани бизга тарихдан маълум. Бунинг ифодасини буюк салтанат эгаси Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодида ҳам кўрамиз. Бобур

барча имкониятларга эга бўлишига қарамай, туғилиб ўсган Ватанидан олисда бўлгани учун ўзини бахтиёр инсон деб ҳисобламайди.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси ҳақида. Вазирлар Маҳкамасининг 23.02.2018 йилдаги 140-сон қарори.
2. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 29 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан байрам табриги. Тошкент, 14.01.2021
3. Болтабоев Ҳ., Фитратнинг илмий мероси. Тошкент, 1996
4. Лидерс А.Г. Семья как психологическая система. Очерки психологии семьи. — Москва-Обнинск. ИГ-СОЦИН, 2004. 294 с.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOIY FALSAFIY TAHLILI

Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti v.b professori (DSc)

Annotatsiya:Mazkur maqolada yoshlarni bugungi kunda o‘z vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashning ma’naviy-axloqiy jihatlari, ularda siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, diniy, axloqiy ongni tarkib toptirishda vatanparvarlikning ijtimoiy ahamiyati uning bir qator funksiyalari orqali amalga oshirilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, madaniyat, axloq, huquq, din, millat, milliy qadriyatlar, tarix, vatanparvarlik ruhi, ta’lim, tarbiya, yoshlar.

Insonning shaxsiy intilishlaridan tashqari, umuminsoniy qadriyatlarga ham ehtiyoji bor va ulardan biri vatanparvarlik tuyg‘usidir. Bu vatanparvarlik, o‘z vataniga muhabbat, bu barcha odamlarni yagona jamiyatga bog‘laydigan axloqiy xususiyatdir. Vatanga muhabbat bilan birlashgan jamiyatgina davlatni yaxlit va obod qilishga qodir. Vatanparvarlik - bu har bir oqilona odamga tushunarli va xos bo‘lgan tuyg‘u. Bu insonning individual va fuqarolik fazilatlariga xos axloqiy kategoriya. Vatanga muhabbat - vatanparvarlikning eng yuqori darajasi. Oldingi avlodlarning urf-odatlari va yutuqlarini qayta tiklab, kelajakka qarab siljish uchun sharoit yaratmoqdamiz va bu yoshlarni bag‘rikenglik va hamjihatlik ruhida tarbiyalash orqali tinchlik va barqarorlikni ta’minlash omili sifatida ta’limning o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”.

Vatanparvarlik murakkab strukturaga ega ijtimoiy hodisadir. Yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishning uchta eng asosiy substansional komponentini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

- vatanparvarlik ongi
- vatanparvarlik faoliyati
- vatanparvarlik munosabati.

Vatanparvar ong siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, diniy, tarixiy, axloqiy tarkibiy qismlarni o‘zida mujassam etgan ijtimoiy ongning alohida murakkab shaklidir.

Vatanparvarlik ongida siyosiy komponent, boshqaruv hokimiyatini insonlar ongida alohida o‘ringa ega. Vatanparvar kishi sotsiumning siyosiy tizimida o‘zgarishlar bo‘lib, davlat qiyin ahvolga tushib qolganda, mamlakatni iqtisodiy inqirozlar o‘z domiga tortayotgan pallada o‘z ona yurtida yashash qiyinlashgani uchun o‘z vatanini ayblamaydi. Ana shunday davrlarda vatanparvarlik tuyg‘ularining kuchi sinovdan o‘tadi. Shaxs o‘zining bor imkoniyati va iste’dodi bilan o‘z Vatanini muvaffaqiyatli rivojlantirishga harakat qiladi.

Vatanparvarlik ongini tahlil qilar ekanmiz, vatanparvarlik oddiy tuyg‘ular emas, bundan tashqari, bu hissiy idrokni ratsionalizatsiya qilish emasligiga e’tibor qaratmoqchimiz. Bu yerda inson ongining hissiy, aqliy va irodaviy in’ikos va ko‘rinishlari integratsiyalashishi ko‘zatilib, u faqat Vatan uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘lgan vatanparvar qahramonlarni yaratadi.

Vatanparvarlik insonnnng amaliy faoliyati hamdir. Chunki, inson Vatanni o‘ylab, uning taraqqiyoti, yorug‘ kelajagi yo‘lida mehnat qilsa, kurashsa, Vatanparvarlik amaliy faoliyatga aylanadi. Bu faoliyat esa barcha xalqlar hayotida yuksak insoniy fazilat sifatida qadrlangan. Rus faylasufi A.N.Radishev Vatanparvarlik fazilatini boshqa fazilatlardan uchta sifat-belgisiga ko‘ra farqlaydi. Bular - sharaflilik, xushxulqlilik, olijanoblik. Shu ma’noda, “Chinakam Vatanparvar” deganda Vatanni dushmandan himoya qiladigan, yurt ozodligi uchun kurashadigan, xalq manfaatlarini ko‘zlab ish tutadigan insonlarni tushunish maqsadga muvofiq.

Vatanparvarlikni shakllantirish va rivojlantirish kompleks tarzda tizimli amalga oshadigan jarayondir. Vatanni asrash, uning qudratini oshirish jamiyatdagi barcha ijtimoiy-tarbiyaviy institutlarniig sa’y- harakatlari orqali ro‘yobga chiqadi. Biroq, hamma ham yuksak Vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lavermaydi. Shu ma’noda, Vatanparvarlik bu insonning moddiy boyliklarga egaligi bilan emas, balki har bir insonning ichki ruhiy olamidagi subyektiv imperativdir. Ibrat tarzida 1991 yil mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov qancha tazyiqlarga qaramay, qo‘rqmasdan O‘zbekistonni - mustaqil davlat, o‘zbek xalqini - ozod xalq deb e’lon qilganligini aytish joiz.

Inson bilishining obyekti nafaqat tabiat, jamiyat, balki shu bilan birga unda insonning o‘zining tutgan o‘rnini bilish hamdir. Ijtimoiy ong formalari turli xil obyektlar, ijtimoiy manfaatlarni turli usullarda aks ettiradi. Ularning negizida erkinlik va uning gnoseologik ifodasi - o‘z-o‘zini anglash, birinchi navbatda, atrof-muhitdagi voqealardan farqlash yotadi. O‘z-o‘zini anglash ijtimoiy ongning barcha shakllarida mavjud ekan, ularda Vatanparvarlikning vojib bo‘lishi qonuniyatli holdir.

Shuning uchun ham o‘z-o‘zini anglashning bu shakllarida, ya’ni o‘zini o‘rab turgan tabiatni, muayyan jamiyat a’zosi ekanligi va fuqaro sifatida o‘z faoliyati va xalqi uchun mas’uliyatini bilishi vatanparvarlikning gnoseologik asosini tashkil etadi.

Vatanparvarlik munosabati vatanparvarlikning uchinchi asosiy substansional komponentidir. Vatanparvarlik munosabatlarining sub’ektlari ham shaxslar, ham bir-biri bilan faol o‘zaro munosabatlarga kirishadigan insonlarning turli jamoalari bo‘lishi mumkin. Vatanparvarlik munosabatlari – bu do‘stona hamkorlik yoki to‘qnashuv xarakterini olishga qodir bo‘lgan odamlarning bir-biri bilan munosabatlaridir. Bunday munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa shaklida yoki bilvosita shaklda bo‘lishi mumkin.

Inson jamiyat bilan tabiiy, estetik, diniy, ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy aloqalarda bo‘ladi. Bu aloqalar insonning bioijtimoiy madaniy hodisa sifatida shakllanishiga olib keladi. Ushbu aloqalar tizimida insonning o‘zi va u mavjud tabiiy va ijtimoiy makonning mavjudligi va erkinligini saqlashga intilish barcha ong formalarida Vatan his-tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Bu tuyg‘ularsiz Vatanning mavjudligini ta’minlay olish mumkin emas. “Vatan tuyg‘usi – bu aziz va go‘zal Vatanimizga yuksak e’tiqod bilash yashash, unga hamisha sadoqatli bo‘lishdir”. Ushbu tuyg‘u – yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda tarbiyaning barcha turlari bilan aloqadordir.

Yoshlarda vatanparvarlik e’tiqodini mustahkamlashning konseptual asoslari milliy tafakkur, ma’naviy jasorat, qat’iy fuqarolik pozitsiyasi, daxldorlik tuyg‘usi, aniq va ezgu maqsadlar bilan yashash kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bilan bog‘liq. Keng ko‘lamli, tizimli va maqsadli reja asosida muntazam amalga oshirib borish zarurligini taqozo etadigan vatanparvarlik e’tiqodi funksional va tashkiliy jihatlarni qamrab oladi. Bu jihatlarning axloqiy asosini ta’lim bilan tarbiyaning uzviyligi hamda madaniyat – ma’naviyat – falsafa o‘rtasidagi dialektik birlik tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlik funksiyasi, komponentlari, motivlari va gnosiologik asoslarini falsafiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, vatanparvarlik bugungi globallashgan davrda muhim konstruktiv fenomin bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi. 247 (6741)-soni. – 2017. 7 dekabr.
1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021.275-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018 . 229-bet.
3. .Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –Toshkent: 2020. 400-bet.
4. Hojiboev A. Falsafada ong muammosi // Falsafa. O‘quv qo‘llanma (E.Yu.Yusupovnnng umumiy taxrirn ostida). -T.: Sharq. 1999. - B. 373-374.”

VATANPARVARLIK MUQADDAS BURCH

Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li,
Termiz davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarbligi, ushbu jarayonning tarixiy asoslari, bugungi kundagi holati va kelajakdagi istiqbollarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Maqolada harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining milliy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni, oila, ta’lim tizimi, jamiyat va davlat siyosatining bu sohadagi hamkorligi keng yoritiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi tajribasi, statistik ma’lumotlar va amaliy misollar asosida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltiriladi. Maqola yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali mamlakatning mustahkam kelajagini qurish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar Harbiy-vatanparvarlik, yoshlar, O‘zbekiston, tarbiya, vatanparvarlik, milliy xavfsizlik, ta’lim, oila, jamiyat, davlat siyosati, Qurolli Kuchlar, mustaqillik, tarixiy meros, statistika, harbiy xizmat.

Kirish.

O‘zbekistonning 1991 yilda mustaqillikka erishishi mamlakat oldida nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, balki milliy xavfsizlik va vatanparvarlikni mustahkamlashda ham yangi vazifalar qo‘ydi. Mustaqil davlat sifatida o‘z chegaralarini himoya qilish, tinchlikni saqlash va xalqning birligini ta’minlash uchun yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining qariyb 35 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi (O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2023 yil), bu esa kelajakda mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun ularga katta mas’uliyat yuklaydi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni nafaqat harbiy xizmatga tayyorlash, balki ularda o‘z vataniga sadoqat, milliy g‘urur va mas’uliyat hissini shakllantirishni ham ko‘zda tutadi. Globallashuv sharoitida axborot urushlari, mintaqadagi xavf-xatarlar va geosiyosiy o‘zgarishlar yoshlardan o‘z mamlakatining qadimiyatlariga sodiq bo‘lishni talab qilmoqda. O‘zbekistonda bu jarayon “Yoshlar – kelajagimiz” strategiyasi doirasida amalga oshirilib, davlat tomonidan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bilan birga, ularni vatan himoyasi uchun tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqola O‘zbekistonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining bugungi holatini, uning tarixiy ildizlarini va kelajakdagi imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, amaliy misollar va statistik ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Muhokama va natijalar

1. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati va tarixiy asoslari

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlash bilan birga, ularda milliy ong, jasorat va fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbek xalqining tarixida bu tushuncha chuqur ildizlarga ega. Masalan, Amir Temur davridagi harbiy tuzum, Xiva va Qo‘qon xonliklarining o‘z chegaralarini himoya qilishdagi sa’y-harakatlari va 20-asrda Ikkinchi Jahon urushidagi o‘zbek xalqining qahramonligi bu sohaning tarixiy asoslarini ko‘rsatadi. O‘zbekistonlik 300 mingdan ortiq askar Ikkinchi Jahon urushida qatnashib, ularning aksariyati o‘z jasorati bilan orden va medallarga sazovor bo‘lgan (O‘zbekiston Milliy arxivi, 2020 yil).

Mustaqillik davrida esa 1992 yilda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilishi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy bosqichini boshlab berdi. Bu davrda milliy armiyaning shakllanishi bilan birga, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash va ularda vatanparvarlik ruhini oshirish uchun bir qator choralar ko‘rildi. Bugungi kunda mintaqadagi xavfsizlik muammolari, masalan, Afg‘oniston bilan chegaradoshlik va terrorizmga qarshi kurash, ushbu tarbiyani yana-da dolzarb qilmoqda.

2. O‘zbekistonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekistonda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Ta’lim tizimidagi dasturlar: O‘zbekiston maktablarida 9-11-sinflar uchun “Harbiy xizmatga tayyorgarlik” fani joriy etilgan bo‘lib, unda yoshlar harbiy texnika, birinchi yordam va vatan himoyasi asoslarini o‘rganadi. 2022 yilgi statistikaga ko‘ra, respublika bo‘yicha 1,5 milliondan ortiq o‘quvchi ushbu darslarda qatnashmoqda (Xalq ta’limi vazirligi, 2023 yil). Oliy ta’lim muassasalarida ham harbiy kafedralar faoliyat yuritib, talabalarni xizmatga tayyorlamoqda.

Harbiy-patriotik lagerlar va mashg‘ulotlar: “Yosh chegarachilar”, “Yosh vatandoshlar” kabi lagerlar tashkil etilib, ularda yoshlar jismoniy mashqlar, harbiy taktika va vatanparvarlik bo‘yicha ma’ruzalar bilan shug‘ullanishadi. Masalan, 2023 yilda Surxondaryo viloyatida 500 nafardan ortiq yosh ushbu lagerlarda ishtirok etdi (Mudofaa vazirligi, 2023 yil).

Ommaviy tadbirlar: Har yili 14 yanvarda nishonlanadigan “Vatan himoyachilari kuni” va 9 maydagi “Xotira va qadrlash kuni” kabi tadbirlar yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu kunlarda maktablarda ochiq darslar, harbiy paradlar va vatanparvarlikka bag‘ishlangan ko‘rgazmalar o‘tkaziladi.

Bu yo‘nalishlar davlatning yoshlar siyosati doirasida muvofiqlashtirilib, ularga moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatilmoqda.

3. Oila va jamiyatning tarbiyadagi o‘rni

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi oilada boshlanadi. Ota-onalarning farzandlariga o‘zbek xalqining o‘tmishdagi qahramonliklari, masalan, Jasoratli Jaloliddin Manguberdi yoki Ikkinchi Jahon urushidagi askarlar haqida hikoya qilishi yoshlarda vatan himoyasi mas’uliyatini shakllantiradi. Oila muhitida ota-bobolarning harbiy xizmatdagi xotiralari, mahalliy qahramonlar haqidagi rivoyatlar yoshlar uchun muhim tarbiyaviy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyat bu jarayonda targ‘ibotchi va qo‘llab-quvvatlovchi muhit sifatida ishtirok etadi. Mahalla tashkilotlari yoshlar bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazib, ularga vatanparvarlik haqida tushuncha beradi. Ommaviy axborot vositalari orqali milliy qahramonlar haqidagi filmlar, masalan, “Alpomish” yoki “Temur Malik” kabi asarlar namoyish etilib, yoshlarda o‘z tarixiga hurmat tuyg‘usi uyg‘otilmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston televideniyesida 20 dan ortiq bunday mavzudagi serial va hujjatli filmlar namoyish etildi (O‘zTV, 2023 yil).

4. Davlat siyosati va amaliy choralar

O‘zbekiston hukumati harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini davlat siyosatining muhim qismiga aylantirgan. Bu yo‘nalishda qabul qilingan asosiy hujjatlar:

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari to‘g‘risida”gi qonun (1992-yil): Harbiy xizmatning huquqiy asoslarini belgilab, yoshlarni xizmatga tayyorlashni qonuniy majburiyat sifatida mustahkamladi.

“Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun (2016-yil): Yoshlarni harbiy-patriotik tarbiyaga jalb qilishni davlatning ustuvor vazifasi sifatida ko‘rsatdi.

“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturi” (2020-2025-yillar): Ushbu dastur doirasida 2023-yilda 2 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ harbiy-patriotik loyihalarga ajratildi (Moliya vazirligi, 2023-yil).

“Vatanparvar” harakati bu sohada alohida o‘rin tutadi. Ushbu tashkilot 2019 yilda tashkil etilib, hozirgi kunda respublika bo‘yicha 10 mingdan ortiq yoshni qamrab olgan. Harakat doirasida sport musobaqalari, harbiy mashg‘ulotlar va vatan himoyasi bo‘yicha seminarlar o‘tkazilmoqda. Masalan, 2023-yilda Toshkent shahrida “Vatanparvar yoshlar” festivali tashkil etilib, unda 3000 ga yaqin yosh ishtirok etdi (Mudofaa vazirligi, 2023 yil).

5. Muammolar va yechim yo‘llari

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida quyidagi muammolar mavjud:

Axborot makonidagi tahdidlar: Ijtimoiy tarmoqlarda g‘arb madaniyatining ta’siri va salbiy targ‘ibot yoshlarda milliy qadimiyatlardan uzoqlashishga olib kelmoqda. Masalan, 2022 yilda O‘zbekiston yoshlarining 60 foizdan ortig‘i ijtimoiy tarmoqlardan asosiy axborot manbai sifatida foydalangani aniqlandi (Yoshlar ishlari agentligi, 2023 yil). Yechim sifatida vatanparvarlikka oid raqamli kontentni ko‘paytirish va yoshlar bilan onlayn platformalarda faol ishlash taklif etiladi.

Infratuzilma muammolari: Qishloq hududlarida harbiy mashg‘ulotlar uchun yetarli sport zallari va o‘quv markazlari mavjud emas. Masalan, 2023 yilda faqat 40 foiz maktablarda to‘liq jihozlangan harbiy mashg‘ulot xonalari borligi qayd etildi (Xalq ta’limi vazirligi, 2023 yil). Bu muammoni hal qilish uchun davlat va xususiy sektorni jalb qilgan holda infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Motivatsiya yetishmasligi: Ba’zi yoshlar harbiy xizmatni faqat majburiyat deb biladi. 2022 yilda o‘tkazilgan so‘rovda 18-25 yoshdagi yoshlarning 25 foizi harbiy xizmatdan qochishga urinishi aniqlandi (Yoshlar ishlari agentligi, 2023 yil). Buni bartaraf etish uchun harbiy xizmatning afzalliklari – oliy ta’limda imtiyozlar, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari – haqida keng targ‘ibot qilish lozim.

Yechim sifatida ta’lim dasturlarini yangilash, mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, harbiy xizmatni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish va yoshlar bilan muloqotni rivojlantirish taklif etiladi.

Xulosa

O‘zbekistonda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mamlakatning milliy xavfsizligini mustahkamlash, mustaqilligini himoya qilish va kelajakdagi barqarorligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon oilada boshlanib, ta’lim tizimi, jamiyat va davlat siyosati orqali davom etadi. O‘zbek xalqining boy tarixiy merosi, mustaqillik yillaridagi tajribasi va bugungi kunda amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarni vatan himoyasi uchun tayyorlashda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Agar biz yoshlarga o‘z xalqining qahramonlik sahifalarini chuqur anglatib, ularga keng imkoniyatlar yaratsak, ular nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro maydonda ham O‘zbekiston sharafini himoya qila oladigan ishonchli vakillar bo‘lib yetishadi. Shu maqsadda davlat siyosatini yana-da takomillashtirish, jamiyatning faolligini oshirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yoshlar bilan ishlashni kuchaytirish zarur. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi – bu bugungi kunning eng muhim vazifasi va kelajak uchun eng katta sarmoyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish to‘g‘risida”gi farmoni, 2020 yil.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari to‘g‘risida”gi qonun, 1992 yil.
3. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, 2016 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, “O‘zbekiston aholisi demografiyasi”, 2023 yil.
5. Xalq ta’limi vazirligining “Harbiy xizmatga tayyorgarlik” dasturi, 2021 yil.
6. Mudofaa vazirligi, “Vatanparvar harakati hisoboti”, 2023 yil.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi, “Ikkinchi Jahon urushidagi o‘zbek askarlari”, 2020 yil.
8. Yoshlar ishlari agentligi, “Yoshlar so‘rovi natijalari”, 2023 yil.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY-MADANIY VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Allamuratov Gulmurat Sultamuratovich
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga oid tushunchalar, qarashlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Milliy g‘urur, ta’lim, tarbiya, ongu shuuri, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhi, tarbiya, harbiy intzom.

O‘zligini anglashga intilgan har bir xalq o‘tmishini bilishi zarur. Tarixiy-madaniy merosni o‘rganish umuminsoniy tarixiy jarayonida qatnashib, jahon madaniyati xazinasiga qay darajada hissa qo‘shganligini bilish uchun ham muhimdir.

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy-madaniy merosimizni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu sababli, deb ta’kidlaydi davlatimiz rahbari, inson ma’naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir [1; 29-30 b].

Tarixiy-madaniy meroslarning o‘quvchilar ma’naviy madaniyatini rivojlantirishdagi ustivorligi, bizningcha, quyidagicha izohlanadi:

-tarixiy-madaniy meroslar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istagi, e’tiqodi, axloq qoidalarini o‘zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma’naviy va moddiy boylik bo‘lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi;

-tarixiy-madaniy meroslar tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, hayotda sinalgan, ijtimoiy taraqqiyotda ahamiyatli, avloddan-avlodga o‘tuvchi ijtimoiy hodisadir.

-tarixiy-madaniy meroslar jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarini ifodalovchi va saqlovchi qudratli omilidir.

Ma’naviy madaniyat yangi moddiy ehtiyoj va talablar, yangi texnika va texnologiya, yangi qulayliklar, farovonlikka mos holda rivojlanishi zarur. Ma’naviy madaniyatning mohiyati o‘quvchi shaxsida tashabbuskorlik, faollik, ishbilarmonlik, ijodkorlik, tadbirkorlik xislatlarini rivojlantirishga davlat qonunlari asosida qaratilgan bo‘lishi kerak. Ma’naviy madaniyatning ushbu mezonlarini rivojlantirishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li ta’lim jarayonlarini mustaqillik g‘oyalari bilan yugirilgan amaliyotni joriy etishdan iboratdir.

Demokratik ta’lim konsepsiyasi asosida tashkil etiladigan ta’lim jarayonlari ta’lim-tarbiya mazmunini milliy asosda qaytadan ishlab chiqishi, tarixiy-madaniy merosimizdan san’atkorona foydalanish usullarini chuqur bilishga e’tiborni kuchaytirishni, ta’lim-tarbiya shakllari, usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirishni, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yangi texnika va texnologiya asosida maktabni zamonaviy jihozlashni, shuningdek, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda o‘qituvchi shaxsining kasb tayyorgarligini takomillashtirishni taqozo etadi [2; 97-b].

Insoniyat XXI asrga katta hayotiy tajriba, bir olam bilim va yuksak darajada rivojlangan fan va texnika bilan kirib keldi. Dunyo xalqlari madaniy jihatdan o‘zaro yaqinlashdilar. Madaniyatning turli sohalarida misli ko‘rilmagan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ammo shu bilan birga, bugungi dunyo umumjahon miqyosidagi global

muammolarga, ta’lim sohasida internetda mavjud bo‘lgan axborot resurslarinan foydalanishda, bir so‘z bilan aytganda, murakkab vaziyatlarga ham duch kelmoqda.

Zamonaviy maktab o‘qituvchisiga kerak bo‘ladigan sifatlar:

-O‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga kerakli bilimlarni mustaqil egallagan holda moslashuvchan; hayoti davomida o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun egallagan bilimlarini amaliyotda turli muammolarni hal etishda qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak

-Mustaqil tanqidiy fikrlay oladigan, qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra oladigan va ularni hal etishning zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda oqilona yo‘llarini topa oladigan; egallangan bilimlar real hayotda qayerda va qay holatda qo‘llanilishi mumkinligini aniq anglay oladigan; g‘oyalarni yaratuvchi va ijodiy fikrlovchi shaxs bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda hech kim internetda mavjud bo‘lgan axborot resurslarining tarix, ijtimoiy tadqiqotlar, huquqshunoslik va boshqa gumanitar fanlarni o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirish qobiliyatiga shubha qilmaydi. O‘qitishning o‘z ustida mustaqil ishlashini oshirish, darsni audio va video ma'lumotlari bilan birga olib borish, maktab o‘quvchilarini gumanitar fanlarni o‘rganishga rag‘batlantirish kabi imkoniyatlarni eslatib o‘tish kifoya.

Internetning telekommunikatsiya imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. masofaviy o‘qitishni tashkil qilish va forumlar, suhbatlar, videokonferentsaloqa orqali muloqot qilish va internetning ta'lim resurslaridan o‘qituvchi tarix darslarida onlayn yoki oflayn rejimda muvaffaqiyatli foydalanishi mumkin.

Tarix o‘qituvchisining ta'limda Internet-resurslari bilan ishlashda asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tarixchi uchun axborot muhiti sifatida Internet -resurslarning ta'lim segmentidan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy -uslubiy tahlil qilish;

- mavjud o‘quv dasturiga muvofiq ta'lim resurslarini (tarix bo‘yicha ixtisoslashtirilgan saytlar, ma’lumotlar bazalari, ma’umotnomalar, entsiklopediyalar, muzey va arxiv saytlari, elektron kutubxonalar, ilmiy, ilmiy va o‘quv tashkilotlari saytlari, individual elektron hujjatlar) tanlash va tematik tasniflash;

- o‘quv jarayonlarida bevosita qo‘llash, shuningdek o‘quvchilarning ijodiy faolligini tashkil etish uchun Internetning o‘quv resurslarini izlash va o‘rganish yo‘nalishlari va usullarini ishlab chiqish;

- o‘qish jarayonining dinamikligini ta’minlaydigan va ixchamligi bilan ajralib turadigan o‘qituvchilar va talabalar uchun onlayn ish joyini tashkil qilish imkonini beradigan dasturiy mahsulotni o‘quv jarayoniga kiritish. [3]

Shu tufayli Internet-resurslardan foydalanish talab qilinmoqda va o‘qituvchilarni bunday resurslarning turlari va ulardan foydalanishning asosiy yondashuvlari bilan tanishtirish zarurati yaqqol ko‘rinib turibdi.

O‘zbekistonda bugungi kunda boy tarixiy, ma‘naviy merosimizni tiklash masalasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo‘lyozmalar nashr qilinmoqda. Boy tarixiy ma’naviy merosimizning namunalari bo‘lgan qadimgi qo‘lyozmalar, bitiklar, xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari, buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan dunyoviy va

diniy mavzulardagi asarlarni izlab topish, chet ellardagi ma‘naviy merosimiz namunalarini O‘zbekistonga qaytarish, xalqimizning ma‘naviy mulkiga aylantirish uchun ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Ilm-fanning turli sohalariga taalluqli bo‘lgan asarlar, badiiy adabiyotning nodir durdonalari, Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniylarning axloqiy mavzulardagi asarlari, Ahmad Yugnakiy va Yusuf Xos Hojiblarning pand nasihatlari, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshbandiylarning insonning ichki dunyosi, ruhiyatiga qaratilgan ta‘limotlari, Alisher Navoiy va boshqalar tomonidan yaratilgan badiiy ijod namunalari xalqimizning boy tarixiy va ma‘naviy merosi bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim muassasalarida ham vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, tarbiyalash ta’limining asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishda O‘zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o‘zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo‘lgan tuyg‘ular, fazilatlar o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy faoliyatda o‘z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo‘lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo‘l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir[4.735].

Vatanparvarlik mavzusida juda ko‘p olim-u ulamolarimizning ijod namunalari-yu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya’ni bizning zamonamizda ham o‘ziga xos o‘rin egallagan bo‘lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma’noda, o‘zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu - insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta’lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo‘msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, uni yomon ko‘zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha’nini himoya qilish-bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas’uliyatli vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild, - T.: O‘zbekiston, NMIU. 2017.-592 b.
2. Musurmonova O. Ma’naviy kadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 97 b.
3. Informatsionnыe i kommunikatsionnыe texnologii v obrazovanii [material iz IrkutskWiki]. - http://www.wiki.irkutsk.ru/index.php/
4. Mo‘minov M. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022

YOSH AVLODNI MEDIASAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kadirova Yakitjan Buvabayevna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti v.b.dotsent, (PhD)
Kadirovayakidjan@gmail.com
+99897 756 90 99

Annotasiya :Ushbu maqolada yosh avlodning mediasavodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, usullari va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), virtual platformalar, interaktiv dasturlar va sun'iy intellekt asosidagi vositalarning yoshlarning media muhitida to‘g‘ri yo‘nalish topishiga ko‘rsatadigan ta'siri o‘rganiladi. Shuningdek, raqamli dunyoda yosh avlodni axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalariga o‘rgatishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni muhokama qilinadi. Tadqiqotda empirik tahlil, kuzatish va xorijiy tajribalarni o‘rganish usullari qo‘llanilgan bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, yosh avlod, innovatsion texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tanqidiy fikrlash, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yosh avlodning hayot tarzi, ta'lim olish usullari va axborotni qabul qilish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar yoshlar uchun axborot olishning asosiy manbaiga aylangan. Biroq, ushbu imkoniyatlar bilan birga yolg‘on axborot (fake news), axborotni noto‘g‘ri talqin qilish va raqamli xavf-xatarlar kabi muammolar ham ortib bormoqda. Shu sababli, yosh avlodni mediasavodxonlikka o‘rgatish va ularga axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini singdirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Innovatsion texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, virtual reallik va interaktiv ta'lim platformalari mediasavodxonlikni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston yoshlarining mediasavodxonligini oshirishda ushbu texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligi ko‘rib chiqiladi.

1. Mediasavodxonlikning zamonaviy ta'limdagi o‘rni

Mediasavodxonlik deganda, shaxsning ommaviy axborot vositalaridan kelib chiqadigan ma'lumotlarni tushunish, tahlil qilish, baholash va ulardan oqilona foydalanish qobiliyati tushuniladi. UNESCO ma'lumotlariga ko‘ra, mediasavodxonlik zamonaviy jamiyatda fuqarolik faolligi, axborot xavfsizligi va shaxsiy rivojlanish uchun muhim ko‘nikma hisoblanadi. Yosh avlod uchun bu

ko‘nikma nafaqat axborotni iste’mol qilish, balki uni yaratish va tarqatish jarayonlarida ham mas’uliyatli yondashuvni shakllantiradi.

O‘zbekistonda yoshlar aholining katta qismini tashkil etadi va ularning aksariyati ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Biroq, “O‘zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha strategiyasi” (2020-2030) hujjatlarida ko‘rsatilganidek, yoshlar orasida axborotni tanqidiy qabul qilish darajasi hali ham yetarli emas. Bu esa innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali mediasavodxonlikni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

2. Innovatsion texnologiyalarning mediasavodxonlikka ta’siri

Innovatsion texnologiyalar yosh avlodning mediasavodxonligini oshirishda bir nechta yo‘nalishda samarali bo‘lishi mumkin:

Interaktiv ta’lim platformalari: Kahoot, Quizlet va Moodle kabi platformalar yoshlarga axborotni o‘yin elementlari orqali o‘zlashtirish imkonini beradi. Masalan, axborotning haqiqiy yoki yolg‘on ekanligini aniqlashga oid viktorinalar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Sun’iy intellekt vositalari: ChatGPT va boshqa AI asosidagi dasturlar axborotni tezkor tahlil qilish va yoshlarga axborot manbalarini tekshirish usullarini o‘rgatishda yordam beradi.

Virtual reallik (VR): VR texnologiyasi yordamida yoshlar real hayotga yaqin stsenariylarda axborotni qanday qabul qilish va undan foydalanishni o‘rganishi mumkin.

Mobil ilovalar: “Digital Literacy” kabi ilovalar yoshlarga raqamli muhitda xavfsiz harakatlanishni o‘rgatadi.

Xorijiy tajribaga nazar tashlasak, Finlyandiya va Kanada kabi davlatlarda mediasavodxonlik maktab o‘quv dasturlariga kiritilgan bo‘lib, innovatsion texnologiyalar orqali amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi. O‘zbekistonda ham ushbu tajribadan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

3. O‘zbekiston sharoitida mediasavodxonlikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

O‘zbekistonda yosh avlodni mediasavodxonlikka o‘rgatishda quyidagi innovatsion yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin:

Raqamli ta’lim resurslari: “Uzedu.online” va “Ziyonet” kabi platformalarda mediasavodxonlikka oid maxsus kurslar yaratilishi mumkin. Bu kurslar videodarslar, interaktiv testlar va amaliy topshiriqlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Ijtimoiy tarmoqlarda kampaniyalar: Telegram, Instagram va YouTube orqali yoshlarga axborotni tekshirish usullari bo‘yicha qisqa videolar tarqatilishi samarali bo‘ladi.

Maktablarda VR laboratoriyalari: Virtual reallik yordamida o‘quvchilar axborotning ijtimoiy ta’sirini tahlil qilishni o‘rganishi mumkin.

Tadqiqot davomida O‘zbekistonning bir qator maktablarida o‘tkazilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 70% dan ortig‘i ijtimoiy tarmoqlardan kelgan axborotga ishonishga moyil. Bu esa mediasavodxonlikni oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

4. Muammolar va yechimlar

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda bir qator muammolar mavjud:

Infratuzilma yetishmovchiligi: Ayniqsa, qishloq joylarida internet va zamonaviy qurilmalarga ega bo‘lish darajasi past.

O‘qituvchilar malakasi: Pedagoglarning ko‘pchiligida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetarli tajriba yo‘q.

Moliyaviy cheklovlar: VR va AI kabi texnologiyalarni joriy etish yuqori xarajatlarni talab qiladi.

Yechim sifatida quyidagilar taklif etiladi:

Hukumat tomonidan raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha investitsiyalar kiritish.

O‘qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etish.

Xususiy sektor bilan hamkorlikda arzon va samarali texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Xulosa

Yosh avlodning mediasavodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamon talabi hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, ta’lim muassasalari va xususiy sektor o‘zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Raqamli ta’lim platformalari, sun’iy intellekt va virtual reallik kabi vositalar yoshlarni nafaqat axborotni to‘g‘ri qabul qilishga, balki uni tanqidiy tahlil qilishga ham o‘rgatadi. Ushbu yondashuv kelajakda yoshlarning raqamli dunyoda xavfsiz va mas’uliyatli fuqaro sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha strategiya” to‘g‘risidagi farmoni, 2020 yil.
2. UNESCO. (2021*).* Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. Paris: UNESCO Publishing.
3. Islomov, Sh. Z. (2023). “Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining mediakompetentligini shakllantirish modellari”. Raqamli texnologiyalarning nazariy va amaliy masalalari xalqaro jurnali*, 4(6), 45-52.*

TARIX FANLARI BO‘YICHA PHD DISSERTATSIYALARINING XRONOLOGIK TAHLILI

(2016-2022 yillar misolida**)**

Bokiyev Anvar Axmedovich

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Termiz DU (O‘zbekiston Respublikasi)

E-mail: anvar.bakiev.uz@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada 07.00.00 – Tarix fanlari shifri bo‘yicha 2016-2022 yillarda O‘zbekistonda himoya qilingan PhD dissertatsiyalarining statistik va tizimli

tahliliga oid ma’lumotlar keltirilgan. PhD dissertatsiyalaridagi O‘zbekiston tarixi davrlarining yoritilish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Tayanch iboralar: dissertatsiya, statistik, ixtisoslik, referendum, konstitutsiya, shifr, xronologiya, davrlashtirish, Ahmadali Asqarov, Anatoliy Sagdullaev, davriy chegara, dissertatsiya pasporti, tizimli tahlil.

XXI asr jahon hamjamiyati va insoniyat oldiga kutilmagan global muammolarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, globallashuv va integratsiyalashuv davrida siyosiy, huquqiy, xalqaro, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda o‘z yechimini kutib turgan ko‘plab ziddiyatli masalalar ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Eski andozalardan voz kechib, jamiyat ahkomlarini saqlab qolish rivojlangan davlatlar aholisini ham jiddiy o‘ylantirmoqdaki, bularning bari bizga ham ta‘sir ko‘rsatmasligi mumkin emas.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl negizida, xalqimizga barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv va ijtimoiy kafolatlarni yaratib berish turibdi. Bu dolzarb masalalarni hal qilishda ilm-fanning o‘z o‘rni bor. Keyingi yillarda ta’lim tizimini rivojlantirish davlatimiz taraqqiyot strategiyasining markazida turibdi. Ilm-fanni rivojlantirish uchun olimlarimizga katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. 2023 yilning 30-aprelida umumxalq referendumi orqali yangilangan konstitutsiyamizda ham o‘qituvchilar va ilm ahliga alohida e’tibor berildi [1]. Chunonchi, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 50, 51, 52 va 53-moddalarida fuqarolarimizning ta`lim olish, o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmati, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, intellektual mulkning muhofaza qilinishi kabi huquqlari mustahkamlab qo‘yildi [2].

Lekin, shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, har qanday ilmiy tadqiqot mahsuli, u maqolami, risolami, monografiyami, darslikmi yoki dissertatsiyami jamiyat taraqqiyotiga, davlat barqarorligiga va eng muhimi xalqqa xizmat qilishi kerak.

Shu ma’noda, **mazkur maqolamizda** 2016-2022 yillarda 07.00.00-tarix fanlari ixtisosligi bo‘yicha O‘zbekistonda himoyasi e’lon qilingan PhD dissertatsiyalarining ba’zi bir statistik tahlillarini berishga harakat qilib ko‘ramiz [3] va ulardan xulosalar chiqargan holda, tarix fani istiqboli haqida fikr-mulohaza yuritishga harakat qilamiz.

Maqolada tadqiq etilayotgan davr mobaynida 07.00.00 – tarix fanlari ixtisosligi bo‘yicha OAK.uz saytida jami 424 ta PhD dissertatsiyalarining e’loni chiqdi. 2017 yilda bu miqdor bor-yo‘g`i 6 ta bo‘lgan bolsa, 2018 yilda 39 ta, 2019 yilda 48 ta, 2020 yilda 58 ta, 2021 yilda 97 tani, 2022 yilda esa 197 tani tashkil qildi. Statistik tahlilda ko‘rib turganingdek, 2017 yilga nisbatan 2022 yilda himoyasi e’lon qilingan dissertatsiyalar soni qariyib 30 barabarga ortgan.

Shu 424 ta dissertatsiyalarning 293 tasi, ya’ni 69,1 % 07.00.01-O‘zbekiston tarixi ixtisoslik shifri bo‘yicha bajarilgan [3]. Bu ko‘rsatgichda 2-natijani 39 ta dissertatsiya bilan 07.00.07- Etnografiya, etnologiya va antropologiya ixtisoslik shifri tadqiqotlari egallaydi.

Dissertatsiyalar va bajarilgan yo‘nalish shifrlarining miqdori 1-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan [4].

№	Ixtisoslik shifri	Ixtisosliklar nomi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	jami
1	07.00.01	O‘zbekiston tarixi	**2**	**23**	**30**	**32**	**76**	**130**	**293**
2	07.00.02	Fan va texnologiyalar tarixi					**1**	**1**	**2**
3	07.00.03	Jahon tarixi		**4**		**1**		**2**	**7**
4	07.00.04	Dinshunoslik (tarix fanlari)	**1**		**1**	**3**	**1**	**2**	**8**
5	07.00.05[57]	Islom tarixi va manbashunosligi (t.f.)	**1**						**1**
6	07.00.05	Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi					**1**	**3**	**4**
7	07.00.06	Arxeologiya	**2**	**2**	**4**	**3**	**2**	**8**	**21**
8	07.00.07	Etnografiya, etnologiya va antropologiya		**6**	**4**	**7**	**7**	**15**	**39**
9	07.00.08	Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari		**3**	**6**	**4**	**4**	**8**	**25**
10	07.00.01 07.00.02				**1**	**3**	**2**	**1**	**7**
11	07.00.01 07.00.04							**1**	**1**
12	07.00.01 07.00.05					**3**	**1**		**4**
13	07.00.01 07.00.06				**1**			**1**	**2**
14	07.00.01 07.00.07						**1**		**1**
15	07.00.01 07.00.08			**1**		**1**	**1**	**3**	**6**
16	07.00.01				**1**				**1**

[57]2017 yilda “Islom tarixi va manbashunosligi” ixtisosligi 07.00.05 – ixtisoslik shifrida edi. Ayni vaqtda “Islom tarixi va manbashunosligi” ixtisosligi Islomshunoslik fanlari (24.00.00) nomli fan tarmog`iga qarashli va 24.00.01 – ixtisoslik shifi bilan belgilanadi [6].

	17.00.06 (t.f.)								
17	07.00.07 07.00.08					**1**			**1**
18	07.00.03 07.00.08							**1**	**1**
	jami		**6**	**39**	**48**	**58**	**97**	**176**	**424**

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, dissertatsiyalar miqdori keskin oshgan bo‘lsa-da, tarix fanining 07.00.02 – Fan va texnologiyalar tarixi (2 ta), 07.00.03-Jahon tarixi (7 ta), 07.00.05 – Xalqaro munosabat va tashqi siyosat tarixi (4 ta) va boshqa yo‘nalishlaridagi dolzarb tarixiy masalalarga kam e’tibor qaratilgan. Mazkur tahlil tarix fanidagi tadqiqotchilik masalalaridagi muammolarni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Endi, PhD dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan, taqriz bergan va bajargan tadqiqotchilarimizda olima ayollarimizning ulushi haqida fikr yuritsak. 2017 yilda dissertatsiya himoyasi e’lon qilingan tadqiqotchilarning 2 tasi olima ayol bo‘lgan bo‘lsa, 2018 yilda bu ko‘rsatgich 11 taga, 2019 yilda 14 taga, 2020 yilda 16 taga, 2021 yilda 28 taga va 2022 yilda 49 taga etdi. Shunday qilib, tadqiq etilayotgan davrda himoyasi e’lon qilingan ayollar soni 120 tani tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich umumiy miqdorning 28, 3 % ni tashkil etadi.

2-jadval. FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYALARINING HIMOYASI E’LON QILINGAN DISSERTANTLAR STATISTIKASI

	Jinsi	**2017**	**%**	**2018**	**%**	**2019**	**%**	**2020**	**%**	**2021**	**%**	**2022**	**%**	**jami**	**%**
1	**erkaklar**	4	66,66	28	71,79	34	70,83	42	72,41	69	71,13	127	72,159	304	71,6
2	**ayollar**	2	33,33	11	28,20	14	29,16	16	27,58	28	28,86	49	27,840	120	28,3
	jami	**6**	**100**	**39**	**100**	**48**	**100**	**58**	**100**	**97**	**100**	**176**	**100**	**424**	**100**

PhD dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan olima ayollarimizning tarix fanlarini rivojlantirishda alohida xizmatlari bor. 2017-2022 yillarda olima ayollarimiz 138 ta PhD dissertatsiyalariga rahbarlik qilganlar. Bu ko‘rsatkich umumiy miqdorning 32,5 % ni tashkil etadi.

3-jadval. FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYALARIGA ILMIY RAHBARLIK QILGAN OLIMALARNING ULUSHI

№	**Jinsi**	**2017**	**%**	**2018**	**%**	**2019**	**%**	**2020**	**%**	**2021**	**%**	**2022**	**%**	**jami**	**%**
1	**erkaklar**	6	100	25	64,10	33	68,75	41	70,68	59	60,82	122	69,318	286	67,4
2	**ayollar**	-	0	14	35,89	15	31,25	17	29,31	38	39,17	54	30,681	138	32,5
	jami	**6**	**100**	**39**	**100**	**48**	**100**	**58**	**100**	**97**	**100**	**176**	**100**	**424**	**100**

Dissertatsiyalarning ilmiy qiymati, dolzarbligi, ahamiyatini aniqlashda rasmiy taqrizchlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Olimlarimizning bu sohadagi xizmatlarini ham maqolada statistik tahlil qilishga harakat qildik.

Quyidagi 4-jadvalda 2016-2022 yillarda O‘zbekistonda himoyasi e’lon qilingan dissertatsiyalarga rasmiy taqriz bergan olimlar statistikasi keltirilgan.

№	Jinsi	2017	%	2018	%	2019	%	2020	%	2021	%	2022	%	jami	%
1	**erkaklar**	10	83,3	46	58,9	74	77,1	87	75	147	75,7	282	80,1	646	76,2
2	**ayollar**	2	16,6	32	41,0	22	22,9	29	25	47	24,2	70	19,8	202	23,8
	jami	**12**	**100**	**78**	**100**	**96**	**100**	**116**	**100**	**194**	**100**	**352**	**100**	**848**	**100**

Tarix fanlari tadqiqotlarida tarixiy davrlar alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi bo‘yicha juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar qilingan va olimlar tomonidan turli xil-xil fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlangan [5]. Tarixni davrlashtirishda xronologik davrlashtirishning o‘ziga xos o‘rni bor. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari bo‘yicha olimlarimizdan akademiklar A.Asqarov va A.Sagdullaevlarning tadqiqotlari tahsinga sazovor [7]. Ilmiy tadqiqotlarda O‘zbekiston tarixini xronologik davrlashtirishda quyidagi andoza, boshqalariga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi:

1. Eng qadimgi davr;
2. Qadimgi davr;
3. Ilk o‘rta asrlar;
4. Rivojlangan o‘rta asrlar;
5. So‘nggi o‘rta asrlar;
6. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi va milliy o‘yg‘onish davri;
7. Sovetlar hukmronligi davri;
8. Mustaqillik davri.

2016-2022 yillarda himoyasi e’lon qilingan dissertatsiyalarning **davriy chegarasini (xronologiyasini)** tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 5-jadvalda **PhD dissertatsiyalarida O‘zbekiston tarixi davrlarining** yoritilish tahlilini amalga oshirishga birinchi marta harakat qilib ko‘rilgan. Bu masalani mukammal tahlil qilish mexanizmi hali ishlab chiqilmagan desak ham xato qilmagan bolamiz [4]:

№	Dissertatsiyalarning davriy chegarasi (xronologiyasi)	2017	2018	2019	2020	2021	2022	jami	%
1	Eng qadimgi davr	**2**	**1**	**1**	**1**	**3**	**2**	**10**	**2,358490**
2	Eng qadimgi va qadimgi davrlar	**1**	**1**		**2**	**3**	**3**	**10**	**2,358490**
3	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; Ilk o‘rta asrlar						**2**	**2**	**0,471698**
4	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; O‘rta asrlar			**1**				**1**	**0,235849**
5	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; Ilk va rivojlangan o‘rta asrlar			**1**				**1**	**0,235849**
6	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; Ilk, rivojlangan va so‘ngi o‘rta asrlar; Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri				**1**			**1**	**0,235849**

7	Eng qadimgi va qadimgi davrlar hamda Sovet va mustaqillik davrlari						1	1	0,235849
8	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; Ilk va rivojlangan o‘rta asrlar hamda Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri; Sovet va mustaqillik davrlari						1	1	0,235849
9	Eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha			1	2		1	4	0,943396
10	Qadimgi davr	1				1	2	4	0,943396
11	Qadimgi davr va ilk o‘rta asrlar								1,179245
12	Qadimgi davr; Ilk va rivojlangan o‘rta asrlar								0,471698
3	Qadimgi davr; Ilk, rivojlangan va so‘nggi o‘rta asrlar								0,235849
4	Qadimgi davrdan to hozirgi kungacha							1	2,594339
5	Ilk o‘rta asrlar							6	3,773584
6	Ilk va rivojlangan o‘rta asrlar								0,707547
7	Ilk, rivojlangan va so‘nggi o‘rta asrlar								0,471698
8	Ilk o‘rta asrlar hamda Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri; Sovet va mustaqillik davri								0,235849
9	Ilk o‘rta asrlardan to hozirgi kungacha								0,707547
0	Rivojlangan o‘rta asrlar						1	8	4,245283
1	Rivojlangan va so‘nggi asrlar davri								0,471698
2	Rivojlangan o‘rta asrlar hamda Mustaqillik davri								0,235849
3	Rivojlangan o‘rta asrlardan to hozirgi kungacha								0,235849
4	So‘nggi o‘rta asrlar							1	2,594339
5	So‘nggi o‘rta asrlar; Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri							2	2,830188
6	So‘nggi o‘rta asrlar; Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri; Sovet davri								0,235849
7	So‘nggi o‘rta asrlar; Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri; Sovet va mustaqillik davrlari								1,650943
8	Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri						8	4	8,018867
9	Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri; Sovet davrining dastlabki yillari								0,471698
0	Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri; Sovet davri						1	9	6,839622
1	Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri; Sovet va mustaqillik davrlari							3	5,424528
2	Sovet davri			0	3	7	8	6	17,924528
3	Sovet va mustaqillik davrlari					0	4	3	7,783188
4	Mustaqillik davri			2	2	7	7	5	22,405660

	JAMI		**9**	**8**	**8**	**7**	**76**	**24**	**1 00**

Endi, 5-jadvalda qayd etilgan ko‘rsatkichlar asosida PhD dissertatsiyalarining davriy tadqiqot chegaralari haqida ayrim fikr-mulohazalarni ta’kidlab o‘tsak. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatib turibdiki, 2016-2022 yillarda himoyasi e’lon qilingan dissertatsiyalarning katta ulushini Sovet hukmronligi va mustaqillik davrlarining tadqiqi tashkil etgan. 424 ta dissertatsiyadan 76 tasi (17,9%) **Sovet hukmronligi** davriga, 33 tasi (7,78%) **Sovet va mustaqillik** davrlariga, 95 tasi (22,4%) esa bevosita **mustaqillik** davriga tegishli tarixiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Holbuki, bu tarixiy davrlar qariyiib 3000 ming yillik davlatchiligimizning bir asrdan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Agar, Markaziy Osiyo mintaqasini antropogenez jarayoni kechgan hududlardan biri ekanligini inobatga olsak, bu ko‘rsatkich yana-da boshqacha ahamiyat kasb etadi.

Birinchi va ikkinchi uyg‘onish davrlarini o‘z ichiga olgan IX-XII va XIV-XV asrlar tarixiga oid tadqiqotlar dissertatsiyalar umumiy ulushining ancha kam ko‘rsatkichini tashkil etadi. Chunonchi, **ilk o‘rta asrlarning oxiri va rivojlangan o‘rta asrlar** tarixiy jarayonlari tadqiq etilgan dissertatsiyalar miqdori 30 tadan oshmaydi. Jadval ko‘rsatkichlariga asoslangan holda, bir necha mln yillarni o‘z ishiga olgan **eng qadimgi va qadimgi davrlar** tarixiy jarayonlari bevosita yoritilgan dissertatsiyalar miqdori 20 tadan (4,7%) biroz ko‘proq ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Dissertatsiyalarning xronologik, hududiy, sohaviy va boshqa xususiyatlari haqidagi tizimli va statistik tahlillar bitta maqolaning hajmiga sig‘maydi. So‘zni shu yerda muxtasar qilib shunday xulosa qilish mumkin. Himoya qilinayotgan dissertatsiyalar tizimli (hududiy, xronologik, sohaviy, tarmoqli va boshqalar) tahlil qilinsa, har bir dissertatsiyaning pasporti tuzilsa, statistik tahlillar amalga oshirilsa, ilmiy tadqiqotlardagi bo‘shliqlarni va kamchiliklarni ko‘rish imkoniyati bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida yaqin istiqbolda tarix fanlari bo‘yicha bajarilayotgan dissertatsiyalarning ilmiy qiymati, dolzarbligi va ahamiyatini yana-da oshirishga xizmat qiladi. Tarix fanlarining barcha sohalari va xronologik davrlari baravar rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR RO‘YXATI::

1. Jadvallarda dissertatsiyalar haqida keltirilgan ma’lumotlar oak.uz va ziyonet.uz saytlaridan olingan va maqola muallifi tomonidan tahlil qilingan.
2. Е.В.Зеймал. К периодизации древней истории Средней Азии. // Централная Азия новые памятники писменности и искусства. Сборник статей. – М., «Наука», 1987. – С.149-158; Щетенко А.Я. Проблемы хронологии цивилизации эпохи бронзы Средней Азии. //Археологические вести. – 2001. – №. 8. – С. 268-274; А.С.Сагдуллаев.
3. Tarixiy davrlashtirishning ayrim masalalari. // Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi muammolari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. 2018 yil 28 mart. 2-qism. – Samarqand, 2018. – B. 36-39.

4. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari ro‘yxati. Номенклатура специалностей научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации=nomenclature of specialities of scientific and scientific pedagogical personnel of higher qualification [Матн]. – Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2021. – Б. 47.
5. O‘zbekiston tarixi: (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). – T.,«O‘AJBNT» Markazi, 2003;UsmonovQ.,Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T., Moliya, 2005. – B. 13-14;
6. Asqarov A.A.O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T.,2007. – B. 15-23;
7. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K. 1 / Mas`ul muharrir: A. Sagdullayev; Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. – T., «Sharq» , 2010. – B. 7-8; 10.Eshov B.J. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari. / O‘zbekiston tarixini o‘qitish muammolari: tajriba va istiqbollari ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. – T., 2011. – B. 222-227;

HARBIY-AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA MILLIY G‘URUR G‘OYALARI SINGDIRISH

Saidov Ixtiyor Mizrabovich,
“Jaloliddin Manguberdi” nomidagi
harbiy-akademik litsey direktori

Annotatsiya: Harbiy-akademik litseylar mamlakatimizning kelajakdagi mudofaa va xavfsizlik tizimiga xizmat qiluvchi yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu muassasalarda nafaqat harbiy bilim va malakalar, balki Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish ham ustuvor vazifalardan biridir. Yosh harbiylar uchun milliy g‘urur hissi mustahkam bo‘lishi kerak, chunki bu ularning fidokorona xizmat qilishiga asosiy turtki bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Milliy g‘urur, an’analar, Alpomish.

Milliy g‘urur – bu shaxsning o‘z Vataniga, millatiga, uning tarixi va qadriyatlariga bo‘lgan hurmat va faxr hissidir. Bu tushuncha quyidagi omillar orqali shakllanadi:

- Tarixiy xotira va o‘tmishga hurmat – buyuk ajdodlarimizning qahramonligi va jasorati haqida bilimga ega bo‘lish.
- Milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat – o‘zbek xalqining urf-odatlari, madaniy merosi va urush qahramonlarini hurmat qilish.
- Vatan ravnaqiga hissa qo‘shish istagi – o‘z bilim va mahoratini mamlakat taraqqiyoti yo‘lida sarflash.

Harbiy akademik litsey o‘quvchilari uchun bu tushunchalar ayniqsa muhim, chunki ular kelajakda davlatning mustaqilligi va xavfsizligini ta’minlashda faol ishtirok etadilar.

Tarixiy xotira va o‘tmishga hurmat – buyuk ajdodlarimizning qahramonligi va jasorati haqida bilimga ega bo‘lish har qanday xalqning buyukligi uning tarixiy

xotirasiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va o‘tmish qahramonlarining jasoratlarini e’zozlashida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston xalqi ham ming yillik shonli tarixga ega bo‘lib, ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan davlatlar, harbiy yurishlar, madaniyat va ilm-fan rivoji bugungi avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk ajdodlarimizning qahramonligi va jasorati

Harbiy-akademik litsey o‘quvchilari uchun tarixiy xotira shunchaki o‘tmish voqealari to‘plami emas, balki o‘z xalqining kelajagini shakllantirishga xizmat qiladigan muhim vositadir. Milliy g‘urur hissini tarbiyalash uchun yoshlar quyidagi buyuk ajdodlarimizning jasorat va fidokorligini o‘rganishlari lozim:

- Amir Temur – dunyo tan olgan buyuk sarkarda, adolatli hukmdor va harbiy strateg. Uning "Kuch – birlikda" degan shiori har qanday harbiy rahbar uchun muhim hayotiy tamoyildir.
- Jaloliddin Manguberdi – vatanparvarlik va jasorat timsoli. U yurtini himoya qilish yo‘lida hech qachon taslim bo‘lmagan va hayotining oxirigacha kurash olib borgan.
- Alpomish – xalq eposlarida tasvirlangan mardlik va sadoqat ramzi. Harbiy yoshlar uchun u fidoyilik va matonat namunasi sifatida xizmat qiladi.
- Zahiriddin Muhammad Bobur – nafaqat buyuk sarkarda, balki yuksak ma’naviyat va tafakkur egasi. Uning "Boburnoma" asari har bir harbiy kadr uchun muhim saboqlar beradi.

Tarixiy xotirani mustahkamlashning muhimligi

Harbiy akademik litsey o‘quvchilari uchun tarixni o‘rganish shunchaki nazariy ma’lumot emas, balki shaxsiy kamolotning ajralmas qismidir. Chunki:

1. Vatanparvarlik hissini oshiradi – O‘z xalqining buyukligini bilgan inson uni himoya qilishga ham tayyor bo‘ladi.
2. O‘zlikni anglashga yordam beradi – Tarixni o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘z ildizlarini anglab yetadilar.
3. Ibrat va saboq beradi – O‘tgan ajdodlarning xatolaridan xulosa chiqarish, ularning yutuqlaridan ilhom olish mumkin.
4. Harbiy mahoratni rivojlantiradi – Amir Temur va boshqa buyuk sarkardalarning harbiy strategiyalarini o‘rganish bugungi harbiylar uchun ham foydalidir.

Milliy g‘urur g‘oyalarini singdirish usullari

1. Darslar va ma’ruzalar orqali harbiy litseylarda o‘quv dasturiga milliy g‘ururni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus darslar va ma’ruzalar kiritilishi lozim. Ayniqsa, tarix, adabiyot va harbiy strategiya fanlarida milliy qahramonlarimiz hayoti va ularning harbiy jasoratlari yoritilishi kerak.
2. Harbiy-tarixiy Ekskursiyalar va muzeylarga sayohatlar. Harbiy akademik litsey o‘quvchilari uchun tarixiy joylarga tashrif buyurish, muzeylarga ekskursiyalar tashkil qilish orqali ularga milliy qahramonlarimizning hayoti va faoliyati haqida batafsil ma’lumot berish muhimdir. Bu ularda milliy iftixor tuyg‘usini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Harbiy an’analar va ramzlarning ahamiyati. Harbiy litsey o‘quvchilari davlat madhiyasi, bayroq va gerbga bo‘lgan hurmatni chuqur his qilishlari lozim. Shu maqsadda, harbiy tantanalar, bayram tadbirlari va vatanparvarlik ruhidagi yig‘ilishlar muntazam o‘tkazilishi kerak.

4. Milliy qahramonlar bilan uchrashuvlar. Harbiy xizmatda ulkan yutuqlarga erishgan vatanparvarlar, faxriylar, harbiy rahbarlar bilan uchrashuvlar uyushtirish o‘quvchilarga katta ilhom bag‘ishlaydi. Ularning hayotiy tajribasi yoshlar uchun motivatsiya manbai bo‘lishi mumkin.

5. Adabiyot va san’at orqali tarbiya. Vatanparvarlik mavzusidagi kitoblar, filmlar, teatr spektakllari va qo‘shiqlar yoshlarning milliy g‘urur tuyg‘usini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, harbiy litsey kutubxonalarida bunday adabiyotlar va materiallarning mavjudligi ta’minlanishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin milliy g‘urur harbiy akademik litsey o‘quvchilari uchun faqat shaxsiy fazilat emas, balki Vatanga xizmat qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu g‘oyani yosh avlod qalbiga singdirish orqali, biz kelajakda o‘z yurtiga sadoqatli, fidoyi va jasur harbiy kadrlarni yetishtirishimiz mumkin. Shu boisdan, harbiy ta’lim tizimida milliy g‘urur g‘oyalarini singdirish tizimli va samarali ravishda olib borilishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1991.
2. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2017.
3. Orifjonova M. Vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Qosimov S. Jaloliddin Manguberdi – buyuk sarkarda va vatanparvar. – Toshkent: Sharq, 2005.
5. Saidov U. Harbiy tarbiya va milliy g‘urur shakllanishi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

ТУРОННИНГ ҲАРБ ИШИ ТАРИХИНИНГ ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШДАГИ ЎРНИ (мил. олд. 6-4-юзйилликлар мисолида)

Хамидов Одил Абдувоҳидович
Термиз давлат университети,
Фанлар академияси Тарих институти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
одилжонҳамидов8@гмаил.сом

Аннотация: Мақолада ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масаласининг долзарблиги, давлат сиёсати марказида турганлиги, бу борада олиб борилаётган ислоҳотларнинг муҳим жиҳатлари ҳамда глобаллашув

жараёнида ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг анъанавий ва замонавий усуллари ёритилган.

Калит сўзлар: ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, давлат сиёсати, ёшлар, ислоҳот, ҳаракатлар стратегияси, ёшлар иттифоқи, ҳарбий-маъмурий сектор, глобализация, ахлоқ, анъанавий ва замонавий усуллар.

Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихининг аҳамонийларга қарамлик даври тарихи 200 йил – мил. олд. 6-4-юз йилликларни ўз ичига олиб, ўзига хос хусусиятларга эга. Туроннинг Бохтар, Фарғона, Суғд ҳудудларида вужудга келган миллий давлатчилик тизими ҳамда шимолий ҳудудларда кўчманчи сак ва массагет қабилалар иттифоқи аҳамонийлар босқини натижасида қарамлик даврини ўз бошидан кечиради. Туроннинг аҳамонийларга қарамлик даврида ушбу ҳудудда Аҳамонийлар Форс салтанати таркибидаги бир неча сатраплик ва вилоятлар вужудга келган.

Айнан ушбу давр Турон халқлари миллий тарихини ёритиш, унинг ўзига хос маданиятини кўрсатиш, шунингдек, маҳаллий аҳоли маданияти устуворлигини кўрсатиш – долзарб масала ҳисобланади. Бу даврда туронликларнинг давлат ва ҳарбий бошқарувдаги ўрни етакчи ўринда кўтарилган, шунингдек, юрт ҳимояси, миллий озодлик курашларидаги ўрни яққол намоён бўлади. Бевосита, юнон манбалари орқали барчамизга маълум Тўмарис ва Широқ воқеалари бунга мисол бўлади. Шунингдек, туронликларнинг ҳарб иши тарихи, уларнинг жанговарлиги ҳақидаги кўплаб маълумотлар манбалар орқали келтирилиши мумкин. Бундай тадқиқотлар халқаро миқёсда олиб борилган ва эътироф этилган.

2004 йилда чоп этилган “Қадимги Шарқ тарихи” монографиясининг тегишли қисмларида Туроннинг аҳамонийларга қарамлик даври тарихи, жумладан, Туронда ҳарбий иш тарихи ёритилган[58]. 2005 йилда эса хитойлик тадқиқотчи У.Син томонидан Пенсилвания университетида Туроннинг аҳамонийлар даврига оид диссертация ёқланган. Ушбу диссертацияда Туроннинг 200 йиллик давр тарихи муаммолари асосан Аҳамонийлар салтанати орқали ёритилган. Бевосита ушбу давр тарихи долзарб муаммолари, аҳамонийлар мафкурасида Туроннинг ўрни, манбалари, санъат намуналарида туронликлар акс этиши, маъмурий тузилиши, меъморчилиги, дашт санъатида аҳамонийлар услубининг учраши масалалари ўрганилади[59]. Олиманинг 2005 йил Британия музейида бўлиб ўтган “Аҳамонийлар салтанати дунёси” анжуманида[60]ги маърузасида Аҳамонийлар салтанатидаги 17 та визуал манба-тасвирлар, жумладан, 8 та муҳр, 2 та муҳрнинг лойдаги акси ва булла ва сопол тахтачалардаги 7 та тасвир асосида Турон халқларининг аҳамонийларга қарамлик даври ҳамда миллий озодлик кураши тарихини реконструкция қилинадию Тасвирлар Персепол, Ниппур ва Дасклейон шаҳарларидан аниқланган. Ушбу тасвирлар Биринчи Ксеркс (мил. олдю 486-465 йй.),

[58]Пьянков И. В. Средняя Азия в ахеменидское время. Население // История древнего Востока. М., 2004. С. 727-728.

[59]Wu, X. Central Asia in the context of the Achaemenid Persian Empire (6th to 4th centuries B.C.). Ph.D. Dissertation, University of Pennsylvania. 2005.

[60] Wu Xin, 2010, p. 545-563

Биринчи Артаксеркс (мил. олд. 465-424 йй.) ва Иккинчи Дорйуш (мил. олд. 423-404 йй.) ҳукмронлигининг илк даврига оид бўлиб, мил. олд. 480-415 йилларга тўғри келади. Ушбу мақолага олиманинг 2005 йилда Пенсилвания университетида ҳимоя қилинган “Ўрта Осиё Аҳамонийлар империяси контекстида” диссертацияси асос қилиб олинган[61]. Кейинчалик олима томонидан ушбу муҳрлар асосида аҳамонийларга қарамлик даври жанг саҳналари ва иконография масалалари тадқиқ этилди ҳамда Турон салтанатнинг миллий озодлик курашлари кўп кузатилган минтақаси сифатида эътироф этилган[62]. Олиманинг бошқа бир қатор тадқиқотларида Туроннинг (хусусан, Бохтар сатраплиги) аҳамонийларга қарамлик даври тарихи ёритилиб, уларнинг салтанат барқарорлигига мунтазам таҳдид солиб турганлиги урғуланади[63].

2022 йилда А.К.Нефёдкин “Қадимги форсларда ҳарбий иш” тадқиқотида Турон халқларининг аҳамонийларгача ва аҳамонийларга қарамлик даври ҳарбий иш ва санъатини ёритади[64]. Хусусан, Зарер ҳақида афсона таҳлили асосида аҳамонийларга қарамлик давридан олдинги Турон халқлари ҳарбий санъати таҳлили кўрсатилган. Ушбу ғоя муаллифнинг 25 йил олдинги мақоласида илк бор илгари сурилган эди[65].

2023-2024 йилларда италиялик тадқиқотчи М.Феррарио томонидан Туроннинг мил. олд. 6-4-юзйилликларга оид сиёсий, ижтимоий-иқтисодий тарихи бўйича бир қатор илмий ишлар эълон қилинди. Жумладан, Иккинчи Куруш ва Биринчи Дорйуш томонидан Туроннинг кўчманчи сак-массагет қабилалари устига юриши, Томир хотун, Скунха воқеалари талқини, кўчманчилар орасида салтанатга ҳамкорлик нуқтаи назаридан Скунханинг мағлуб этилиши баён этилади[66].

2025 йил 19-21 март кунлари Москвада «Россия тарихи Шарқ қадимиятлари» анжуманида С.Болеловнинг “Жанубий Оролбўйи ҳудуди

---

[61] [Wu Xin, 2005]

[62] Wu, X. “O Young Man ... Make Known of What Kind You Are”: Warfare, History, and Elite Ideology of the Achaemenid Persian Empire // IrAnt 49: 2014. P. 209–299.

[63] Wu, X. Land of the Unrule – ables: Bactria in the Achaemenid Period // Weber, O. K., E. Hite, L. Khatchadourian, and A. T. Smith (eds.), Fitful Histories and Unruly Publics. Rethinking Temporality and Community in Eurasian Archaeology, Leiden: Brill, 2017. P 258–291. Wu, X. Exploiting the Virgin Land. Kyzyltepa and the Effects of the Achaemenid Persian Empire on its Central Asian Frontier // Lhuillier, J., and Boroffka, N. (eds.), A Millennium of History.The Iron Age in southern Central Asia (2nd and 1st Millennia BC). Proceedings of the conference held in Berlin (June 23–25, 2014). Dedicated to the memory of Viktor Ivanovich Sarianidi, Berlin: Reimer Verlag, 2018. P. 189–215.

[64]Нефёдкин А.К. Военное дело древних персов. М.: Эксмо: Яуза, 2022. 272 с.; Клейменов А.А. С опозданием о давно необходимом. Рецензия на книгу А. К. Нефёдкина «Военное дело древних персов». М.: Эксмо: Яуза, 2022. 272 с. (Лучшие воины в истории) // Тульский научный вестник. Серия История. Языкознание. 2024. №2 (18). С. 149–158.

[65]Нефёдкин А. К. Военное дело иранцев по данным «Сказания о Зарере» // Центральная Азия от Ахеменидов до Тимуридов: археология, история, этнология, культура. Матери- алы международной научной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения А. М. Беленицкого (Санкт-Петербург, 2–5 ноября 2004 года) / отв. ред. В. П. Никоноров. СПб.: ИИМК РАН, 2005. С. 138–140.

[66] Ferrario M. Before Skunḫa. A (Trans)Local Perspective on the Rise of the Teispid-Achaemenid Frontiers in Baktria, Sogdiana, and Beyond // DABIR: Digital Archive of Brief notes & Iran Review. 2023. Vol. 10. P. 61–115; Ferrario M. Expanders of the Realm. Sacred Kingship and Empire in Early Achaemenid Central Asia // Iran and the Caucasus. 2024. Vol. 28. P. 339–356.

қитъалараро маданий алоқалари ва савдо йўллари тизимида (илк темир даврида)”, В.В.Мокробородовнинг “Мил. олд. И мингйилликнинг ўрталарига оид айрим қурол-аслаҳа топилмалари ҳақида (Жанубий Ўзбекистон ёдгорликлари бўйича)” мавзуларидаги маърузаларида Туроннинг мил. олд. 6-4-юзйилликлардаги савдо алоқалари ва ҳарбий қуроллар тарихи ёритилади[67].

2018 йилда молдавиялик археолог Денис Топал томонидан сакларнинг акинак номли тиғли ханжарларига бағишланган диссертация ҳимояси амалга оширилди. Кейинчалик бу мавзуда археологнинг икки монографияси чоп этилди[68]. Умуман олганда Д.Топалнинг 100 га яқин илмий ишларида сакларнинг ҳарбий қуроли – акинак, унинг ясалиш технологияси ҳамда аҳамонийлар салтанатида тутган ўрнига бағишланган мақолалар эълон қилинган. Натижада акинакларнинг янги типологик классификацияси амалга оширилган. Шунингдек, акинаклардаги иконографик ва ўйма тасвирларнинг диний-ритуал ҳаётни ёритишдаги ўрни кўрсатилган.

Қисқа рўйхатдан ҳам кўришимиз мумкинки, Туроннинг ҳарб иши тарихи бўйича бир қатор тадқиқотлар яратилган. Уларда туронликларнинг мустақилликка интилиши, ҳарбий-куч-қудрати, жанговарлиги эътироф этилган.

Мил. олд. 6-4-юзйилликларда Аҳамонийлар салтанати Қадимги Шарқда йирик сиёсий кучга айланади. Салтанат Эрон жануби-ғарбидаги Форс вилоятида Иккинчи Куруш томонидан мил. олд. 550 йилда ташкил этилган эди. Турон тарихий-маданий вилоятлари аҳамонийлар босқинига қадар турли ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаларида бўлган. Бохтар тарихий-маданий вилоятида аҳамонийлар босқини арафасида ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожланган давлатчилик шаклланган бўлса, бошқа ҳудудларда давлатчилик шаклланиши кейинги даврларда бошланган (мас. Хоразм). Турон шимолий ҳудудларида бу даврда саклар қабилалар иттифоқи ҳукм сурган.

Бохтар подшолигининг аҳамонийлар босқинига қадар мавжудлигини ёзма ва моддий манбалар асосида исботлаб берган олима Е.Е.Кузмина унга қуйидаги тавсифларни беради[69]:

1) Бохтар ривожланган ва бой мамлкат бўлган;

2) Бохтар пойтахти Бақтра шаҳри бўлиб, мудофаа девори ва акрополига эга бўлган. Бақтра-Балх шаҳри арки аълоси ва мудофаа девори археологик тадқиқотлар орқали исботланган[70]. Ушбу подшолик таркибига Суғдиёна ва Марғиёна тарихий-маданий вилоятлари ҳам кирган.

---

[67] Предварительная программа Общероссийской с международным участием XXI Ежегодной Московской конференции «Восточные древности в истории России. Эпоха средневековья и ее археологическое окружение». 19–21 марта 2025 г. https://archaeolog.ru/press/events/vostochnye-drevnosti-v-istorii-2025

[68] Топал Д.А. Грифовые кинжалы типа Иссык и акинаки востока Евразии. Алматы: НИЦИА Бегазы-Тасмола, 2024. 224 с.

[69] КузьминаЕ.Е. К вопросу о формировании культуры Северной Бактрии (“Бактрийский мираж” и археологическая действительность) / Е.Е. Кузьмина // Вестник древней истории. - 1972. - № 1 (119). - С. 131-146.

[70] Young K. The South Wall of Balch-Bactra // AJA, 59, 1955; D. Sch1umberger, La prospection archeologique de Bactres // «Syria», 26, 1949, № 3/4.

Иккинчи Куруш Турон массагетлар қабиласини ўз давлати таркибига киритиш мақсадида ташкил этилган юриш пайтида, жангда ҳалок бўлади. Иккинчи Курушнинг Томир хотун бошчилигидаги массагетлар қабиласи билан бўлган жангда ҳалок бўлиши (*Ҳеродотус, Ҳисториес 1.201-14*) унинг ўлими билан боғлиқ воқеаларнинг бири бўлиб, қадимги дунё матнларида бошқа талқинлар ҳам учрайди.

Иккинчи Куруш даврида шимоли-шарқий ҳудудлар барқарор эмаслиги унинг мустаҳкам иншоотлар қурилишида кўринади. Масалан, антик манбаларга кўра, Туронда Яксарт бўйида Кирополис (юнон тилида –"Кир шаҳри") – Кирэсхата барпо этилади[71]. Ҳозирги кунда шаҳарнинг қайси ёдгорликка тўғри келиши бўйича бир қатор фикрлар мавжуд. Тадқиқотчилар ушбу шаҳарни Тожикистоннинг Куркат ёдгорлиги билан боғлашади. Юнон тарихчиси Страбон Александрнинг Туронга мил. олд. 329-327 йиллардаги юриши воқеаларини ёритиб, Иккинчи Куруш томонидан Яксарт (Сирдарё) бўйида асос солган Киропол шаҳри қамалини тилга олиб ўтган. Тарихчи қалъани Иккинчи Куруш асос солганлигини ҳамда салтанатнинг форпости (чегара истеҳкоми) эканлигини тилга олиб ўтган (*Страб. 11.11.4*)[72]. Тожикистоннинг Хўжанд вилояти ҳудудига тўғри келадиган Киропол истеҳкоми ўз вазифасига кўра, дарё йўли назорати ва дашт қабилалари чегарасида жойлашган. Жойлашувига кўра, истеҳком саклар ҳужуми таҳдиди остида шимолий чегара муҳофазаси амалга оширган[73]. Кейинги, хусусан, К.Рапин тадқиқотларида Киропол Жиззах вилоятидаги Нуртепа ёдгорлиги билан локализация қилинади[74].

Мил. олд. 530 йилда Иккинчи Куруш салтанати шимоли-шарқий ҳудудлари хавфсизлигини таъминлаш учун массагетлар устига юриш қилган ва ҳалок бўлган. Умуман олганда, Иккинчи Курушнинг ўлими бўйича кўплаб матнлар бўлиб(Амм. Марс. 23.6.7фф.; App. Анаб. 4.11.9; Диод. Сис. 2.44.2; Фронтин. Стр. 2.5.5; Жосепҳ. АЖ 11.2.1; Поляенус, Страт. 8.28; Страбо 11.6.2, 11.8.6.), уларни умумлаштириб учга бўлиш мумкин. Биринчиси, Геродотга кўра, Иккинчи Куруш массагетлар билан жангда ҳалок бўлган. Тарих отаси бошқа эҳтимоллар ҳам йўқ эмаслигини таъкидлаган. Иккинчиси, Ктесий дербикларга қарши жангда ҳалок бўлган. Учинчиси, Ксенофонтга кўра,

[71]Арриан, IV, 22; 3, 1–4; Дандамаев, 1985. С. 52; Иневаткина О.Н. Начальные этапы урбанизации Самаркандского Согда и его западные пределы // Материальная культура Востока. Сборник статей. Выпуск 5. Научн. ред. Л.М.Носкова – М.: Государственный музей Востока, 2010.С. 6-28.

[72] Ferrario M. Before Skunḫa. A (Trans)Local Perspective on the Rise of the Teispid-Achaemenid Frontiers in Baktria, Sogdiana, and Beyond // DABIR: Digital Archive of Brief notes & Iran Review. 2023. Vol. 10. P. 67.

[73] Ferrario M. Before Skunḫa. A (Trans)Local Perspective on the Rise of the Teispid-Achaemenid Frontiers in Baktria, Sogdiana, and Beyond // DABIR: Digital Archive of Brief notes & Iran Review. 2023. Vol. 10. P. 67.

[74] Rapin, C. On the way to Roxane 2. Satraps and hyparchs between Bactra and Zariaspa – Maracanda // Lhuillier, J., and N. Boroffka (eds.), A Millennium of History. The Iron Age in southern Central Asia (2nd and 1st Millennia BC). Proceedings of the conference held in Berlin (June 23–25, 2014). Dedicated to the memory of Viktor Ivanovich Sarianidi, Berlin: Reimer Verlag, 2018. P. 264; Goršenina, S.M., and Rapin C. Hellenism With or Without Alexander the Great: Russian, Soviet and Central Asian Approaches // Mairs, R. R. (ed.), The Graeco-Bactrian and Indo-Greek World, London: Routledge, 2020. P. 171–215; Rapin, C. The Empire's Northeast // Jacobs, B., and R. Rollinger (eds.), A Companion to the Achaemenid Persian Empire. 2 voll. Malden (MA): Wiley-Blackwell, 2021. P. 311–325; Ferrario M. Before Skunḫa. A (Trans)Local Perspective on the Rise of the Teispid-Achaemenid Frontiers in Baktria, Sogdiana, and Beyond // DABIR: Digital Archive of Brief notes & Iran Review. 2023. Vol. 10. P. 67.

Иккинчи Куруш тушида худони кўриб, ўз ажали билан вафот этган[75]. Унинг ўлими бўйича турли хил маълумотлар талқини Бекманда ҳамда Р.Биҳлерда келтирилган[76].

Иккинчи Курушнинг массагетлар устига юриши мафкуравий асосга ҳам эга бўлиб, Форс подшоҳи Месопотамия ва Элам анъаналарини давом эттириб, ўзининг енгилмас ва улуғворлигини намоён этмоқчи бўлган[77]. Геродот Иккинчи Курушнинг массагетлар устига юриш сабаблари сифатида форслар қўшинига ҳеч ким бас кела олмаслиги ҳақидаги ишонч бўлган *(Ҳдт. 1.204.2)*. Иккинчи Курушнинг массагетлар устига юришда ғалаба қозониши унинг аждодлари амалга оширилмаган қаҳрамонликни амалга оширилиши бўлар эди ва шарқдаги бўйсунмас душманни бўйсундирилиши ҳисобланар эди. Аммо ушбу ишни амалга ошириш Иккинчи Курушга насиб қилмади.

Беҳистун битикларида Биринчи Дорйушнинг қўзғолон кўтарган ҳудудлар ва ҳамда уларнинг мағлуб этилган йўлбошчилари ҳақида баён келтирилган бўлиб, унда Турон халқлари ҳам тилга олинади. Улар орасида саклар йўлбошчиси Скунха ҳам тилга олинади. Скунха сака тиграхауда қабиласига мансуб бўлиб, Сирдарё ортида яшаган бўлиши мумкин[78]. Умуман олганда Беҳистун битикларида келтирилган (ДБп сол. В §74) Биринчи Дорйушнинг саклар устига юриши географияси ва мағлуб этилганлар бир қатор баҳсли тадқиқотлар олиб борилган[79].

Бу тезислар орқали биз Биринчи Дорйушнинг мил. олд. 519-518 йиллардаги юриши қўзғолончиларга эмас, балки, бўйсундирилмаган халқлар устига босқинчилик характерига эга эканлигини кўрамиз[80]. С.Меннинг фикрича, Биринчи Дорйуш саклар устига юриши янги ерларни забт этилиши бўлсада, Беҳистун битикларида (ДБ §21Г) уларнинг йўлбошчиси Скунхани қўзғолон кўтарган 9 нафар қўзғолон раҳбарлари қаторида тасвирлайди[81].

Биринчи Дорйушнинг саклар устига юриши мафкуравий аҳамиятга эга бўлиб, Иккинчи Куруш томонидан амалга оширилмаган ишнинг бажарилиши эди. Шунинг учун бўлса керак, Беҳистун битикларида мағлуб этилган Скунха тасвири кейинчалик қўшиб қўйилган. Беҳистун тасвирларида Скунханинг қўшилиши орқали Биринчи Дорйушнинг аждодлари бажара олмаган вазифани

---

[75] Finn J. The Grand Strategy of Achaemenid Persia, 539–331 BCE // Brill's Companion to War in the Ancient Iranian Empires. John Hyland, Khodadad Rezakhani (eds.). Brill, 2024. P. 120-156.

[76] Beckman (2018); Bichler, R. ‘Kyros’ letzte Schlacht und sein Tod // Klinkott, H., A. Luther, and J. Wiesehöfer (eds.), Beiträge zur Geschichte und Kultur des alten Iran und benach- barter Gebiete. Stuttgart: Steiner, 2021. P. 49–92.

[77] Ferrario M. Expanders of the Realm. Sacred Kingship and Empire in Early Achaemenid Central Asia // Iran and the Caucasus. 2024. Vol. 28. P. 339–356.

[78] Schmitt R., 1991, pls. 5, 29, 34

[79] Ferrario M. Expanders of the Realm. Sacred Kingship and Empire in Early Achaemenid Central Asia // Iran and the Caucasus. 2024. Vol. 28. P. 339–356.

[80] Rung E. War and Ideology in Achaemenid Persia // Brill's Companion to War in the Ancient Iranian Empires. John Hyland, Khodadad Rezakhani (eds.). Brill, 2024. P. 101.

[81] Manning, S. Armed Force in the Teispid-Achaemenid Empire: Past Approaches, Future Prospects. Wiesbaden, 2021. P. 151.

уддалаганини кўрсатмоқчи бўлган[82]. Беҳистун битикларидан бошлаб кейинги битикларда саклар Аҳамонийлар салтанати *даҳ̣айāва* рўйхатига доимо киритилган[83].

Хитойлик олима У.Син фикрича, Биринчи Ксеркс давридан Аҳамонийлар салтанатининг шимоли-шарқий сатрапликларида туронликлар мунтазам салтанат барқарорлигига таъсир кўрсатиб, хавф ва тартибсизлик маркази бўлган. Бунинг исботи сифатида муҳрлардаги қўзғолончи туронликлар тасвирининг кенг учрашини мисол қилиб келтиради. Бизга маълумки, Иккинчи Куруш ва Биринчи Дорйуш даврида Туроннинг сак ва массагет қабилалари салтанатга таҳдид солган бўлган бўлса, Биринчи Ксеркс давридан Бохтар, Суғд ва Хоразм вилоятлари салтанат геосиётида доимий ва ортиб бораётган таҳдид сифатида кузатилади (Масиста қўзғолони). Турондаги тартибсизликлар бутун салтанат барқарорлигига таъсир кўрсатган[84]. У.Син фикрича, ушбу ҳолатнинг кучайиб бориши натижасида туронликлар (хусусан, саклар) салтанат душмани сифатида кўрилган. Форсларнинг Туронга ҳарбий юриш уюштириши доимий ва ўз-ўзини намоён қилиш характерига эга бўлган[85]. Аҳамонийлар салтанати саройида ва ҳукмрон элитаси орасида туронликлар билан кузатилган ҳарбий саҳналар акс этган муҳрлар кенг тарқалган. Бундан асосий мақсад Аҳамонийлар салтанати туронликларга ўз ҳукмронликлари кўрсатиш ва сингдирмоқчи бўлишган. Бу қадимги салтанатлар стратегияси ва мафкуравий сиёсати бўлган. К.Таплин ҳам Аҳамонийлар салтанати муҳрларини ўрганиб, уларда Турон ҳарбий ҳаракатлар кенг кузтилишини ҳамда бизга маълум бўлган юнон тарихчилари матнларидаги маълумотларида кўпроқ жанговар ҳаракатлар бўлганлигини урғулайди[86].

Туроннинг қадимги ҳарбий иши ва санъати ҳақида “Авеста” орқали маълумот олишимиз мумкин. Масалан, “Авеста” да бир қатор ҳарбий усул ва қуроллар терминлари келтирилади. Армия “спада”, ҳарбий чизиқ “расман”, камончилар “танвани”, камон тортиғи “джия”, ўттиз ўқни ўз ичига олувчи садоқ “акана”, палахмон “фрадахшана”, палахмон тоши “асан фрадахшана”,

---

[82] Rollinger, R., Degen, J. Conceptualizing Universal Rulership // Hilmar Klinkott/Andreas Luther/Josef Wiesehöfer (eds.), *Beiträge zur Geschichte und Kul- tur des alten Iran*, Stuttgart: Steiner, 2021. P. 187–224.

[83] Ferrario M. Expanders of the Realm. Sacred Kingship and Empire in Early Achaemenid Central Asia // Iran and the Caucasus. 2024. Vol. 28. P. 344.

[84] Wu, X. Central Asia in the context of the Achaemenid Persian Empire (6th to 4th centuries B.C.). Ph.D. Dissertation. University of Pennsylvania, 2005; Ferrario M. Before Skunḫa. A (Trans)Local Perspective on the Rise of the Teispid-Achaemenid Frontiers in Baktria, Sogdiana, and Beyond // DABIR: Digital Archive of Brief notes & Iran Review. 2023. Vol. 10. P. 64.

[85] Wu, X. Enemies of Empire: A Historical Reconstruction of Political Conflicts between Central Asia and the Persian Empire // Curtis, J., and St. J. Simpson (eds.), The World of Achaemenid Persia. History, Art and Society in Iran and the Ancient Near East, London – New York: I. B. Tauris, 2010. P. 559; Wu, X. “O Young Man ... Make Known of What Kind You Are”: Warfare, History and Elite Ideology of the Achaemenid Persian Empire // Iranica Antiqua. 2014. Vol. 49. P. 229-230.

[86] Tuplin, J.C. Sigillography and soldiers: cataloguing military activity on the Achaemenid period seals // Dusinberre, M. R. E., M. B. Garrison, and W. F. M. Henkelman, M. F. W. (eds.), The Art of Empire in Achaemenid Persia. Studies in honour of Margaret Cool Root, Leuven: Peeters, 2020. P. 378; Ferrario M. Before Skunḫa. A (Trans)Local Perspective on the Rise of the Teispid-Achaemenid Frontiers in Baktria, Sogdiana, and Beyond // DABIR: Digital Archive of Brief notes & Iran Review. 2023. Vol. 10. P. 65.

дубулға “саравара”, камар “камара”, от учун эгар “упар-спата”, от қамчиси “аштра”, тезкор жанговар отлар “арвант” деб номланган[87].

Аҳамонийлар салтанати ўз даврининг йирик салтанати бўлиб, ҳарбий бошқарувда алоҳида эътибор берган. Ушбу бошқарувда Туроннинг алоҳида ўрни кузатилган бўлиб, бевосита салтанатнинг ҳарбий стратегиясида минтақанинг ўрни кузатилади. Сатраплик доирасидаги бшқарувда Турон ҳудудида вилоятлар аҳолисининг жанговарлиги ва доимий мустақилликка интилиши ҳисобга олинган, албатта. Шунингдек, салтанат катта юришларида Турон аҳолисининг жанговар имкониятларидан унумли фойдаланилган.

Туроннинг аҳамонийларга қарамлик даври қўшин турлари бўйича бир қатор ёзма манбалар орқали маълумот олишимиз мумкин. Туронликлар Аҳамонийлар салтанати таркибида унинг юришларида иштирок этишган бўлиб, асосан сатраплар ва маҳаллий оқсуяк-ҳокимлар томонидан бошқарилган.

Суворийлар. Ҳарбий оқсуяклар от бошқариш билан алоҳида ажралиб турган. Жанговарлик тимсоли бевосита суворийлар ҳисобланган. Турон халқларида от – “аспа” номи аралашган исмлар учраб, бу суворийларнинг алоҳида мавқеини кўрсатган. Масалан, Виштаспа “учқур отлар эгаси”, Сатаспа “юзта от эгаси”, Аспабара “от ташувчи”, “отли (одам)” маэносини англатган[88].

Аҳамонийлар салтанати таркибида ёлланма қўшинлар ҳам алоҳида ўрин тутган. Ушбу ёлланма қўшин таркибига асосан юнонлар, шунингдек, карияликлар жалб этилган. Шунингдек, туронликлар ҳам салтанатнинг ёлланма қўшини таркибида фаолият юритганини кўришимиз мумкин. Ёлланма қўшин давлат ёки маълум бир шахс манфаатини намоён этиб, бунинг учун хизмат ҳақи олган. Бунда уларнинг этник ёки ижтимоий мансублиги эътиборга олинмаган ҳамда уларнинг қўшин таркибига киришига мажбурланмаган. Уларнинг юришга қатнашиши учун маблағ берилган.

К.Туплин гирканияликларни ёлланма қўшин сифатида қатнашганлиги бўйича бир қатор далилларни келтиради. Масалан, Мисрда “гиркан суворийси” (ТАДАЕ Б8.3) [89], мил. олд. 334 йилдаги Граник жангида гиркан, Мидия ва Бохтар суворийлари (Диод. ХВИИ 19), мил. олд. 400 йилда Пергам яқинида 80 та гирканиялик “шоҳ ёлланма қўшини” (Хен. ан ВИИ 8, 15) маълумотлар мавжуд. Шунингдек, ёлланма қўшин сифатида хоразмликлар, бохтарликлар, гирканлар, каспийлар, саклар ҳам фаолият олиб боришган[90].

---

[87] Ллевеллин-Джонс Л. Персия. Рождения и крах древней сверхдержавы. Перевод с английского А.Люльчака. Москва: Эксмо, 2024. С. 14.

[88] Ллевеллин-Джонс Л. Персия. Рождения и крах древней сверхдержавы. Перевод с английского А.Люльчака. Москва: Эксмо, 2024. С. 15.

[89] Porten B., Yardeni A. Textbook of Aramaic Documents from Ancient Egypt I–IV, Jerusalem 1987–1999; Smith H.S., Martin C. Demotic Papyri from the Sacred Animal Necropolis of North Saqqara: Certainly or Possibly of Achaemenid Date, in: P. Briant / M. Chauveau (Hg.), Organisation des pouvoirs et contacts culturels dans les pays de l’empire achéménide (Persika 14), Paris 2009, P. 23–78.

[90] Tuplin C. öldner und Berufssoldaten in der griechischen Welt Soziale und politische Gestaltungsräume Sänger, Patrick (ed.); Scheuble-Reiter, Sandra (ed.) from the series Historia – Einzelschriften, volume 269 Published by Franz Steiner Verlag, 2023

Мил. олд. 6-5-юзйилликлар Мисрдаги Элефантина оромий ҳужжатларида хоразмийлар, каспийлар, бохтарликлар ва уларнинг йўлбошчилари исмлари тилга олинган[91]. Катта эҳтимол билан улар ёлланма қўшин ёки аскар сифатида фаолият кўрсатишган.

Турли манбаларда сак-скифлар қўшин таркибида, жумлардан, кемада хизмат қилишганлиги келтирилади (Ҳдт. ВИ 113; ВИИ 184; ВИИИ 113; ИХ 31; App. an. ИИИ 8, 3.). Камбиз ҳукмронлиги даврида Бобилда саклар ҳарбий кемаларда фаолият кўрсатишган[92]. Бобилда Бит Даккурида "Саклар уйи/мулклиги" (Аккадча УРУ Э ^{ЛУ}Сак-ка) деган мавзе мавжуд бўлган[93].

Ахвамазда архиви ҳужжатларида ҳам Бохтарда ёллнама қўшин мавжудлиги ҳақида тўлиқ (АДАБ А2; АДАБ А4) ва қисман (С1; С5; Д1–18) далиллар мавжуд[94].

Геродотнинг матнларида бохтарликлар қуроллари тавсифида "маҳаллий, миллий" терминлари учраб[95], бу уларнинг миллий қуроллари юксаклигини кўрсатишда алоҳида ўрин тутган бўлиши мумкин.

Ханжар. Саклар орасида ушбу қурол турининг кенг тарқалганлиги бир қатор ёзма ва моодий манбалар орқали маълум. Саклар ханжарлари ТОшкент канали яқинидаги Бешбош қишлоғидан, Иссқикўл яқинидаги ёдгорликдан аниқланган ҳамда тадқиқотчилар томонидан мил. олд. 6-4-юзйилликлар билан саналаштирилган[96].

Туроннинг аҳамонийларга қадар ва аҳамонийларга қарамлик даври ҳимоя яроқлари – совут, қалқон, дубулға ва бошқалар ҳақида бир қатор маълумотлар бор. Турон тарихи бўйича энг қадимги ёзма манба Авестада дубулғалар ҳақида бир неча бор эслаб ўтилади: Митра ёркин олтин дубулғада, шамол худоси Вайю кумуш дубулғада тасвирланган, фравашилар эса бронза дубулғалар билан жиҳозланган[97]. Е.Е. Кузминага кўра, Авестадаги қисқа парчаларга асосан дубулға шакли ҳақида фикр юритиш мушкул, лекин маълумки, дубулғага елка ва ёноқ муҳофазалари боғланган[98].

Шуни таъкидлаш керакки, Авестага кўра, дубулғалар жуда кам сонли, фақат энг нуфузли жангчилар томонидан ишлатилган қурол сифатида тасвирланган. Эҳтимол, Туронда, ҳимоявий қурол-яроқлар жуда камдан-кам

---

[91] Porten B., Yardeni A. Textbook of Aramaic Documents from Ancient Egypt I–IV, Jerusalem 1987–1999.

[92] Dandamayev M.A. Saka Soldiers on Ships // IA, 17, 1982. P. 101–103.

[93] Joannès F., Lemaire A. Contrats babyloniens d'époque achéménide du Bît-Abî Râm avec une épigraphe araméenne // Revue Assyriologique 90, 1996. P. 4, 68.

[94] Naveh, J. and S. Shaked (eds). Aramaic Documents from Ancient Bactria (Fourth Century BCE) from the Khalili Collections. London: Khalili Family Trust, 2012; Henkelman, W., Folmer M. Your tally is full! On wooden credit records in and after the Achaemenid Empire // Silver, money and credit: a tribute to Robartus J. van der Spek on the occasion of his 65th birthday on 18th September 2014, edited by K. Kleber and R. Pirngruber. Leiden: Nederlands Instituut voor het Nabije Oosten, 2016. P. 133–239.

[95] Мончадская Е. А. Эсхил о Средней Азии // Страны и народы Востока. Выпуск X. Средняя и Центральная Азия. География, этнография, история. М.: Наука, ГРВЛ, 1971. С. 22—26.

[96] Бернштам А.Н. *Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая.* МИА, № 26, 1952. С. 35, рис. 14, *1;* Тереножкин А.И. *Памятники материальной культуры на Ташкентском канале.* Изв. Уз. ФАН СССР, 1940, № 3. Рис. 2.

[97] Кузьмина Е.Е. Бронзовый шлем из Самарканда // СА. 1958. №4. С. 121-122; Yt 13, 45; Yt 15, 57.

[98] Кузьмина Е.Е. Бронзовый шлем из Самарканда // СА. 1958. №4. С. 121.

қўлланилган ва фақат бойлик ва мансаб жиҳатидан юқори мақомга эга бўлган уруғдор оқсуяклар томонидан ишлатилган. Шунинг учун ҳам, оддий туронлик аскарларнинг тўлиқ қурол-аслаҳа тасвирларида (масалан, Геродот, И, 215; Страбон, ХИ, 8, 6, 8) ёки скифлар тасвирларида дубулғалар ҳақида умуман маълумот йўқ.

Турондаги энг қадимий дубулғалардан бири Самарқандда аниқланган. 1953 йили Самарқанд давлат музнй қўриқхонасига Афросиёб ёдгорлиги яқинида топилган жез дубулға билан мил. олд. 7-6 юзйилликларга оид сополлар топширилган. Бронза дубулға яхши сақланган ва яшил ранг билан қопланган. Дубулғанинг шакли узунчоқ, ён томонлари бироз қистирилган (икки ён орасидаги масофа 18 см). Олд қисмда 8,2 см баландликда юз учун тирқиш мавжуд. Дубулға бошга яқин жойлашган бўлиб, қулоқларни тўлиқ ёпган. Бурун устидан чиққан тўртиб чиққан қисми юқорига қараб тўлқинсимон тарзда юксалиб, уч томонига енгил бурилган тўмтоқ қиррали қисми бор. Дубулғанинг умумий баландлиги 24,5 см. Дубулғанинг пастки қисми мустаҳкамликни ошириш учун юмалоқ ҳалқа кўринишида қалинлаштирилган. Икки ён томонларда, горизонтал жойлашган қавариқ ҳалқалар (12 см узунликда) мавжуд. Ҳар бир ҳалқа остида учта тешик бор, бу тешиклар, эҳтимол, тери ёки кигиздан ишланган ёноқ муҳофазалари ва елка тўсмаларини бириктириш учун хизмат қилган. Дубулға 0,6 см қалинликка эга, ички қисмда ҳеч қандай ботиқ тузилмалар мавжуд эмас. Бу эса ташқи релефга мос келади. Ички томоннинг бир оз думалоқ тузилиши дубулғанинг бир парчадан қуйма шаклда ясалганини кўрсатади.

Саклар шунингдек, дубулғадан ташқари ўткир учли кигиз қалпоқ кийишган. Ёзма манбаларда дубулғалар ҳақида деярли ҳеч қандай маълумот учрамаса-да, қалпоқлар ҳақидаги маълумотлар жуда кўп учрайди. Масалан, Геродот шундай деб ёзади: “Саклар, скиф қабиласи, бошларига тик турган, зич кигиздан тикилган ўткир учли қалпоқ кийиб юришган”[99]. Бу қалпоқлар Европа скифлари, саклар ва туронликлар орасида жуда кенг тарқалган эди. Дубулға каби, қалпоқ ҳам бошга зич ёпишиб, қулоқлар, бўйин ва юзнинг бир қисмини ёпиб турган. Бурун устидан то қалпоқ чўққисигача битта тикиш чизиғи бор, бу эса унинг тик турган ҳолда шакл сақлашига ёрдам берган. Қалпоқнинг орқа қисми деярли тик тушган, олд томони эса бироз енгил эгик бўлган. Энг муҳим жиҳати қалпоқнинг олд қисмида қош шаклидаги тузилма мавжуд бўлиб, у бурунда туташган.

Бу бош кийим сакларнинг кундалик турмушига шунчалик чуқур кириб кетганки, улар ўз ватанида эмас, Мемфисда (Миср) ҳам уни ўзгартирмаган. Бу ерда отлиқ сак ёлланма аскарлари форс гарнизони таркибига кирган[100].

Сак кигиз қалпоқларининг тасвирлари кўп учраб, тиграхауда деб аталган сак гуруҳлари бор бўлиб, уларнинг номи айнан бош кийим номидан келиб

[99] Геродот, VII, 64.

[100] Flinders Petrie, W.M. *Memphis*, V. I. London, 1909, Pl. Xl, 42, 46, P. 17; *Memphis*, V. II, London, 1909, Pl. XXIX, 80, 84, P. 17; *Memphis*, V. III, London, 1910, Pl. XLII, 11, *136, 137, 138*, P. 56.

чиққан. Туронда ушбу шаклдаги бош кийим ва дубулға кушонлар, аршакийлар даврида давом этган ҳамда Панжикентдаги деворий тасвирларда ҳам учрайди.

Демак, Туроннинг мил. олд. 6-4-юзйилликлардаги тарихи туронликларнинг миллий озодлик ҳаракати ва салтанатда кучли ўрин тутганлиги кўринади. Шунингдек, 200 йил давомида Турон аҳамонийларга қарамлик даврини бошдан кечирган бўлса-да, қадимдан давом этган миллий ҳарб иши ва санъати анъаналари давом этган.

MILLIY TARIXIY VA ADABIY MEROSNI KAMAYTIRISH VA YEVROPA MA'NAVIY TARG'IBOTINI KENG YOYISH BORASIDAGI URINISHLAR VA ULARNING OQIBATLARI (1920-1985 YILLAR SURXONDARYO MISOLIDA)

Umarov Djamshed Sayitmuratovich
DXX CHQ "Yosh chegarachilar" HAL
"Ijtimoiy-gumanitar" fanlar kafedrasi
tarbiya fani bosh o'qituvchisi
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola 1920-1985 yillarda Surxondaryo viloyati misolida milliy tarixiy va adabiy merosning zaiflashishi hamda Yevropa ma'naviy targ'ibotining kengayishi jarayonlarini o'rganadi. Tadqiqotda Sovet davri siyosati, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va madaniy transformatsiyalarning mahalliy xalqning identifikatsiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Surxondaryodagi milliy adabiyot va an'analarning pasayishi, rus va Yevropa madaniyati unsurlarining joriy etilishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy va ma'naviy oqibatlar statistik ma'lumotlar va tarixiy dalillar asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Milliy meros, Surxondaryo, Sovet davri, Yevropa targ'iboti, madaniy identifikatsiya, adabiyot, ta'lim tizimi.

KIRISH

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy hududi sifatida o'ziga xos tarixiy va madaniy merosga ega bo'lib, bu meros qadimiy davrlardan beri shakllanib kelgan. Biroq, XX asrda, xususan, 1920-1985 yillarda Sovet Ittifoqi siyosati doirasida milliy tarixiy va adabiy merosga qaratilgan tazyiqlar kuchaydi. Bu davrda Surxondaryoda mahalliy adabiyot va an'analarni cheklash, rus va Yevropa ma'naviy targ'ibotini keng yoyish bo'yicha faol choralar ko'rildi. Natijada, milliy identifikatsiya zaiflashdi, mahalliy aholi o'z tarixiy ildizlaridan uzilib, yangi sovetlashtirilgan madaniyatga moslashishga majbur bo'ldi.

Maqola Surxondaryo misolida ushbu jarayonlarning qanday kechganini, ularning mahalliy jamiyatga ta'sirini va uzoq muddatli oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda tarixiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va mahalliy manbalardan foydalanilgan.

Asosiy qism

1. Milliy tarixiy va adabiy merosning kamayishi

1920-yillardan boshlab Surxondaryoda Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan milliy merosga qarshi siyosat boshlandi. Mahalliy maktablar va madrasalarda o‘zbek adabiyoti va tarixiga oid darslar qisqartirildi, o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalar va kitoblar yo‘q qilindi yoki arxivlarga olib ketildi. 1930-yillarda “xalq dushmani” sifatida ko‘rilgan mahalliy ziyolilarning qatag‘on qilinishi bu jarayonni yanada kuchaytirdi.

Masalan, Surxondaryoda Alisher Navoiy va boshqa klassik adabiyot namunalarini o‘qitish taqiqlanib, ularning o‘rniga rus va Yevropa adabiyoti targ‘ib qilindi. Bu holatni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Jadval 1. Surxondaryo maktablarida adabiyot darslari tarkibi (1920-1950 yillar)

Yil	O‘zbek adabiyoti (%)	Rus/Yevropa adabiyoti (%)
1920	70	30
1935	25	75
1950	15	85

2. Yevropa ma’naviy targ‘ibotining kengayishi

Sovet davrida Surxondaryoda rus tili va madaniyati asosiy targ‘ibot vositasi sifatida joriy etildi. Bu Yevropa ma’naviy qadriyatlarining bilvosita kirib kelishiga zamin yaratdi. 1940-1985 yillarda ta’lim tizimida rus tilidagi darsliklar ustunlik qildi, mahalliy xalqqa kommunistik ideologiya va G‘arb namunalariga asoslangan hayot tarzi singdirildi. Surxondaryoda kinoteatrlar va madaniyat uylarida sovet va Yevropa filmlari namoyish etilib, mahalliy an’analar ikkinchi darajaga tushirildi.

Jadval 2. Surxondaryoda xorijiy tillarni o‘rganish darajasi (1960-1985 yillar)

Yil	Rus tilini o‘rganuvchilar (%)	O‘zbek tiliga e’tibor (%)
1960	60	40
1975	75	25
1985	85	15

3. Oqibatlar

- **Madaniy identifikatsiyaning yo‘qolishi:** Surxondaryo aholisi, ayniqsa, yosh avlod o‘zbek adabiyoti va tarixidan uzoqlashdi. Bu milliy g‘urur va o‘zlikni anglashning pasayishiga olib keldi.
- **Ma’naviy bo‘shliq:** An’anaviy qadriyatlarning yo‘qolishi va sovetlashtirilgan madaniyatning joriy etilishi jamiyatda ma’naviy inqirozga sabab bo‘ldi.
- **Ijtimoiy o‘zgarishlar:** Rus tilining ustunligi Surxondaryoda mahalliy elitani chetlashtirdi va yangi sovetlashtirilgan tabaqa shakllanishiga olib keldi.

Xulosa

1920-1985 yillarda Surxondaryo viloyatida milliy tarixiy va adabiy merosning zaiflashishi va Yevropa ma’naviy targ‘ibotining kengayishi Sovet siyosatining natijasi edi. Bu jarayon mahalliy aholi uchun madaniy va ma’naviy yo‘qotishlarga olib keldi, ammo sovet jamiyatiga integratsiyani tezlashdirdi. Kelajakda milliy merosni tiklash va targ‘ib qilish uchun mahalliy tarix va adabiyotni o‘rganishga alohida e’tibor berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish yo‘lida”. Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
2. “Surxondaryo viloyati tarixi”. Toshkent: Fan, 1980.
3. Alisher Navoiy. “Xamsa”. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1985.
4. O‘zbekiston SSR tarixi (1920-1985). Toshkent: O‘zbekiston, 1975.
5. “Surxondaryo viloyati arxiv hujjatlari”, 1920-1985 yillar ma’lumotlari.

"YOSH CHEGARACHILAR" HARBIY-AKADEMIK LITSEYI OQUVCHILARIDA MILLIY GURUR TUYG`ULARINI RIVOJLANTIRISH

Umarov Jamshid Sayitmuratovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasi tarbiya fani bosh o‘qituvchisi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Kodirov Sunnatillo Xusanovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar”HAL Ijtimoiy-gumanitar
fanlar yo‘nalishi 323 B guruh o‘quvchisi

Annotasiya: Mazkur maqola "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o ‘quvchilarida milliy gurur tuygularini rivojlantirishning ahamiyatini va usullarini tahlil etadi. O‘quvchilarda vatanparvarlik, o‘z tarixiga hurmat va milliy qadriyatlarni uluglash kabi tuygularni shakllantirishda harbiy-akademik litseylarda olib borilayotgan ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘ziga xos orin tutadi. Milliy gurur o‘z vatani, millati va tarixiga bo‘lgan sadoqatni oshiradi hamda kelajakda malakali va fidoyi chegara xavfsizligi mutaxassislarini tayyorlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Milliy gurur, vatanparvarlik, yosh chegarachilar, harbiy-akademik litsey, ta‘lim, tarixiy qadriyatlar, madaniyat, sport, etakchilik, milliy gururni rivojlantirish.

Harbiy-akademik litseylarda o‘quvchilarning nafaqat harbiy mahorat, balki milliy gurur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu kabi muassasalar o‘quvchilarga nafaqat jangovar bilimlar, balki o‘z millati, tarixi va madaniyati haqida chuqur bilimlar ham berishi kerak. "Yosh chegarachilar" harbiy-

akademik litseyi nafaqat chegara xavfsizligini ta’minlovchi malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki ularning milliy g‘ururini oshirish, vataniga

bo‘lgan sadoqatini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Milliy g‘ururni rivojlantirishning ahamiyati

Milliy g‘urur tuygusi nafaqat individning o‘ziga, balki butun jamiyatga xizmat qiladi. U o‘z millatining yutuqlarini ulug‘lash, tarixiy qadriyatlarni hurmat qilish,

o ‘z vataniga sodiq bo‘lish kabi xislatlarni rivojlantiradi. Yosh chegarachilarni milliy gurur bilan tarbiyalash, ularning vatanparvarligini oshirish orqali ular kelajakda o‘z yurtiga sodiq, malakali va fidoyi chegarachilar bo‘lishadi.

"Yosh chegarachilar" litseyi o‘quvchilarida milliy gururni rivojlantirish usullari

1. **Vatanparvarlikni tarbiyalash**: harbiy-akademik litseylarda, o‘quvchilarga o‘z vatanining tarixiy merosini o‘rgatish, uning mustaqilligi, mardligi va qahramonliklarini uluglash, shuningdek, milliy qadriyatlarni hurmat qilish muhim. Bu yonalishda, oquvchilarga yurtni himoya qilishning nafaqat harbiy, balki ma'naviy ahamiyati haqida ham tushunchalar beriladi.

2. **O‘z tarixiga bolgan hurmatni oshirish:** O‘quvchilarga millatning ajdodlari, ulug insonlari va ularning o‘z yurtini himoya qilishdagi roli haqida ma’lumotlar berish, tarixiy shaxslarni va voqealarni o‘rgatish orqali milliy g‘ururni oshirish mumkin. Shuningdek, milliy bayramlar, tarixiy yodgorliklarni ziyorat qilish kabi amaliy faoliyatlar ham ta'limning bir qismi sifatida qabul qilinadi.

3. **Harbiy mahorat va xizmatga tayyorlash:** "Yosh chegarachilar" litseyida oquvchilarga yuqori darajadagi harbiy tayyorgarlik berish, ularni chegara xavfsizligini ta’minlashga tayyorlash, millatni himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ta’limning bir qismi sifatida, o‘quvchilarga o‘z mas’uliyatini his qilish, Vataniga bo‘lgan sadoqatini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan ma’naviy va jismoniy tayyorgarlik taqdim etiladi.

4. **Mentorlik va etakchilikka yo‘naltirish** Katta etakchilar, oz vataniga sodiq bo‘lgan shaxslar, yosh chegarachilar uchun o‘rnak bo‘lishi kerak. Ularning o‘z yurtiga bo‘lgan mehrini va fidoyiligini namoyish etish, yoshlarni hayotda o‘z yo‘lini topishda yordam beradi.

5. **Madaniy faoliyatlar va sport.** Milliy g‘ururni rivojlantirishda sport va madaniyat bilan shug‘ullanish ham muhim o‘rin tutadi. Harbiy-akademik litseyda

6. o‘quvchilar sport musobaqalarida ishtirok etib, o‘z jismoniy imkoniyatlarini oshirish bilan birga, milliy gurur va jamoa tuyg‘ularini ham rivojlantiradilar. Shuningdek, teatr, musiqa va boshqa san’at turlari orqali milliy madaniyatni

7. o‘rganish va undan zavqlanish ham milliy g‘ururni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

"Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o‘quvchilarida milliy gurur tuy

g‘ularini rivojlantirish nafaqat ularning ma’naviy kamolotini ta’minlaydi, balki yurtni himoya qilishda ularga kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Milliy g‘urur, o‘z xalqini sevish, uning tarixini ulug‘lash va kelajakka ishonch bilan qarashni ta’minlaydi. Bunday yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan yoshlar, kelajakda yurtni himoya qilishda

o‘zining barcha kuchini va bilimini ishlatishadi, bu esa mamlakatning xavfsizligi va mustahkamligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M. V. Kasyanov, "O‘zbekiston tarixi" – O‘zbekiston tarixini keng qamrovda yoritadigan asar bo‘lib, uning geografik, siyosiy va madaniy rivojlanishiga oid ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.
2. R. M. O‘tmishboev, "O‘zbekistonning Mustaqillik tarixi" – O‘zbekistonning mustaqillikka erishish yo‘lidagi tarixiy jarayonlar va voqealarni o‘zida aks ettiradi.
3. D. S. Nizomiddinov, "O‘zbekistonning Mustaqilligi va milliy azadlik" – Mustaqillik uchun kurashdagi muhim sanalar, voqealar va shaxslarni tahlil qiluvchi ilmiy ish.
4. X. T. Dadajanov, "Vatanparvarlik: tarix va pedagogika" – Vatanparvarlikni tarbiyalash va yoshlar orasida milliy g‘ururni rivojlantirishning pedagogik asoslari.
5. M. R. Karimov, "Milliy g‘urur va yoshlar tarbiyasi" – yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va ularning g‘ururini oshirishga oid ilmiy ish.
6. Sh. A. Xolbekov, "Yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirish" – Yoshlar orasida vatanparvarlik hissini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar.

SOVET HOKIMYATI DAVRIDA SURXON VOHASIDA MULKDORLARNI QATAG‘ON QILISH SIYOSATI.

Mengliboyev Akmal Xolto‘rayevich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
o‘qituvchisi Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) dotsent

Annotatsiya : Ushbu maqolada biz Sovet hokimiyati tomonidan milliy kamsitish, yer suv islohotlari natijasiga ko‘ra mahalliy aholini qatag‘on qilish siyosati qolaversa, yer-suv islohotlari jarayonida mulkdorlarning yerlari tortib olinar ekan, ularning yerlarini yo‘qsillarga bo‘lib berish, ortiqcha yerlarni boshqa hududlardan ko‘chirib keltirilgan aholiga taqsimlash siyosati yuritildi. Yer-suv islohotlaridan so‘ng tortib olingan yerlarda tashkil etilgan kolxozlarga Sherobod rayoni va Farg‘ona vodiysi aholisi, shuningdek, quloqlar va harbiy xizmatdan bo‘shatilgan askarlar joylashtirilganligi, bo‘ysunmagan kishilar qatag‘on qilinganligi aniqlanganligi haqida ma’lumot olish mumkin.

Kalit so‘zlar: Yer-suv islohoti, Turkiston ASSR, BXSR, XXSR, O‘zSSR MIK, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, harbiy tribunal, ogpu, katta qirg‘in.

1. Dolzarbligi: Milliy kuchlarga qarshi olib borilgan kurash natijasida qo‘rboshilar birin-ketin tor-mor etila boshlandi. Xususan, Boysun tumanida sovet rejimiga qarshi kurash olib borgan Boyto‘ra Xo‘jamberdiev boshchiligidagi guruh

1924 yilgi shiddatli janglardan so‘ng qizil askarlar tomonidan qo‘lga olindi. Harbiy tribunal hukmi bilan 23 yigit otuvga hukm qilindi. 1925 yilgi eng muhim siyosiy jarayon bu – O‘rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanishning o‘tkazilishi bo‘ldi. Ilgarigi Turkiston ASSR, BXSR, XXSR o‘rnida O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Qozog‘iston SSR, Qirg‘iziston SSR tashkil etildi. Buxoro Respublikasining sharqiy qismida Tojikiston ASSR tuzilib, O‘zbekiston SSR ga qo‘shib berildi. 1925 yil 29 yanvarida O‘zbekiston Inqilobiy Qo‘mitasining qarori bilan O‘zbekiston SSR tarkibiga Buxoro respublikasidan 3 viloyat (Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo), 9 uezd, 2 rayon va 48 volost kiritildi. Respublika ma’muriy tuzilishi oblast (viloyat), uezd va volostlardan iborat qilib qo‘yildi. Surxondaryo viloyati Boysun, Sariosiyo, Sherobod uyezdlariga bo‘lindi. Viloyat markazi Sherobod shahri bo‘ldi.

2.Metodlar va o‘rganilganlik darajasi: Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan yer-suv islohotlari va uning natijalari Surxon vohasi misolida hozirgacha maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Shuni hisobga olib, ushbu mavzuga oid tadqiqotlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1. Sovet davri tadqiqotlari; 2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan izlanishlar. Mavzusini yoritishda tarixiylik tamoyili asosida xronologik, ketma-ketlik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

3.Tadqiqot natijalari: Yer-suv islohotlari jarayonida mulkdorlarning yerlari tortib olinar ekan, ularning yerlarini yo‘qsillarga bo‘lib berish, ortiqcha yerlarni boshqa hududlardan ko‘chirib keltirilgan aholiga taqsimlash siyosati yuritildi. Shu bilan birga, mulkdorlarni repressiya qilishga alohida e’tibor qaratildi. Ularni qatag‘on qilish siyosati yer-suv islohotlari bilan qo‘shib olib borildi. Vohadagi er egalariga qarshi ommaviy qatag‘on siyosati 1928-yilning yozida boshlandi. Surxondaryo viloyat davlat arxivida saqlanayotgan o‘ta maxfiy hujjatda yozilishicha, 1928-yil avgustida Termizdagi 86 nafar savdogar xo‘jaligi chegara hududida yashayotganligi bahona qilinib, okrug ijroiya komiteti tomonidan boshqa o‘lkalarga surgun qilingan. 1928-yil noyabr-dekabr oylarida Pattakesar (hozirgi Termiz va Muzrabot) rayoni bo‘yicha 68 nafar mulkdor surgun qilingan. Shundan 13 nafari amir amaldori, 22 ruhoniy, 49 ta boylar bo‘lgan. Qatag‘onga uchragan 27 ta xo‘jalikda 150 jon yashashi aniqlangan. Tazyiqqa uchragan termizlik boylar orasida Abduvosiboy Halimboy o‘g‘li (Halimov Abduvosi) ham bor edi. Abduvosiboy Samarqand shahrida tug‘ilgan, Termiz shahrida qo‘rg‘on qurilishiga (1894-1904), shuningdek, temir yo‘lning keltirilishida (1914-1916), birinchi moliya muassasasi – bankning ochilishida (1902 y.) va boshqa ko‘pgina imoratlar qurilishida homiylik qilgan edi. Jarqo‘rg‘onda ham ko‘pgina yer-mulklari bo‘lgan. Sovet hokimiyati yillarida Termiz shahri, Narimanov ko‘chasi, 7-uyda ro‘yxatda turgan. 1928-yil 17 noyabrda Surxondaryo okrug, Pattakesar rayon erdan mehnatsiz foydalanishni tugatish komissiyasining raisi Masaidov, a’zolari – Safarov va Ibrohimov tarkibida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Abduvosiboy Halimovning xo‘jaligi O‘zSSR MIK tomonidan 1928-yil 1-noyabrda chiqarilgan 192-sonli dekretga asosan to‘liq tugatilib, butun mol-mulkini musodara qilish to‘g‘risidagi 14-sonli qaror chiqarilgan.

1928-yil dekabrida OGPU tomonidan Abduvosiboy, uning xotini, katta o‘g‘li Abduvahob, qizi Kubaro qamoqqa olinadi. Abduvosiboyni “ko‘mgan oltinlarni topib ber”, deb qattiq kaltaklaydilar. Sovuq dekabr kunlarida kiyimlarini y echib, hovlida yurg‘izadilar. Qattiq azoblar natijasida Abduvosiboy o‘ldiriladi. Uning xotini va qizi Kubaro 4 oydan keyin, o‘g‘li Abduvahob uch yildan keyin qamoqdan ozod qilinadilar. Abduvosiboyning oltin buyumlari bilan savdo qiladigan Abdunabi o‘g‘lini Rajab ismli turkman yigit pichoqlab o‘ldiradi. O‘ldirsa boyning o‘g‘lini o‘ldiribdida, deb Rajabga jazo bermaydilar.

Jarqo‘rg‘on rayoni (hozirgi Angor, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on) bo‘yicha jami 116 kishi, shu jumladan, 53 ruhoniy, 14 amaldor, 7 savdogar, 94 boy qatag‘onga uchragan. Surgun qilingan 51 ta xo‘jalikda 302 kishi yashashi aniqlangan291. Sherobod (hozirgi Sherobod va Qiziriq) rayoni bo‘yicha jami 194xo‘jalik surgun qilingan. Ulardan: ruhoniylar 46 xo‘jalik, amir amaldorlari 28 xo‘jalik, boylar 119 xo‘jalik, savdogarlar 15 xo‘jalik edi.Surgunga jo‘natilgan 22 oilada 149 kishi yashagan.

Boysun (hozirgi Boysun va Bandixon) rayoni bo‘yicha jami 117 kishi, shu jumladan, 35 ruhoniy, 39 amaldor, 30 boy, 13 savdogar surgun qilingan. Ularning 45 nafari Shait qishlog‘idan bo‘lgan.

Eng ko‘p surgun qilinganlar Denov rayoniga to‘g‘ri keldi. 1928 yil 3 dekabr holatiga ko‘ra, Denov (hozirgi Denov, Sho‘rchi, Oltinsoy) rayoni bo‘yicha jami 496 xo‘jalik, shu jumladan, 124 ruhoniy, 107 amaldor, 249 boy, 16 savdogar xo‘jaligi tugatilgan va o‘zlari surgun qilingan. Yer-suv islohotlarini o‘tkazish jarayonida sinfiy kurash avj oldirilib, ko‘pgina dehqonlarga tortib olingan yerlar bo‘lib berildi. Ammo ularning asosiy qismi yerni mustaqil ishlatish tajribasiga ega emas, imkoniyatlari ham chegaralangan edi. Shu bois 1929-yilda Surxondaryo okrugida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelindi. Yuzaga kelgan sharoitda sovet rejimi jamoalashtirish siyosatini yuritib, quloqlarga qarshi kurash boshladi. Quloqlashtirish ko‘lami, ayniqsa, 1930-yilga kelib jadal tus oldi. VKP(b) MK Siyosiy byurosining “Yoppasiga jamoalashtirish, rayonlarda quloq xo‘jaliklarini tugatish tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va VKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosining 1930-yil 26-yanvardagi “Quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog‘liq tadbirlar to‘g‘risida”gi ko‘rsatmalari asosida O‘zbekiston Kompartiyasi MK 1930-yil 17-fevralda “Kollektivlashtirish va quloq xo‘jaliklarini tugatish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. O‘zbekistonda quloq xo‘jaliklarini tugatish kampaniyasi shu qarordan so‘ng boshlandi 1930-yil fevral oyida OGPUning Surxondaryo okrug bo‘limi tomonidan Boysun rayonida quloqlarni aniqlash bo‘yicha tezkor ishlarni amalga oshirgan. Quyida OGPUning maxfiy ma’lumotlaridan namunalar keltiramiz:

1. Omonov Shodiqul—Darband qishlog‘ida yashovchi savdogar, boy.Yo ‘llanma ishchilarga ega. Qishloq vakili, VKP (b) a’zosi Rahimov Mahmatmirza bilan qarindoshchilik aloqalariga ega bo‘lganligi bois quloqqa tortilmagan.

2. Muzaffarov Boboxo‘ja-Pasurxi qishlog‘ida yashovchi boy. 12 botmon lalmi yeri, 4 tanob bog‘ va bedazori, 3 botmon sug‘orma yeri, 2 ta ho‘kiz, 3 ta eshak, 2 ta sigirga ega. 1929- yilga qadar muttasil yollanma ishchi kuchini ishlatgan. Qishloq vakili bilan aloqasi borligi uchun Muzaffarov quloqlar ro‘yxatiga kiritilmagan.

3. Jabborov Qo‘zi—Avlod qishlog‘ida yashovchi boy. 7 botmon lalmi eri, 1 ½ tanob bedazori, 1 ta ho‘kiz, 1 ta sigir, eshak, 2 ta ot, moyjuvozga ega, bir nafar yo‘llanma ishchisi bor, qishloq vakili yordamida quloqlar ro‘yxatiga kiritilmagan.

4. Ro‘ziyev Holiq—Pulhokim qishlog‘ida yashovchi boy. 6 botmon lalmi eri, 4 botmon sug‘orma eri, 3 tanob bog‘ va bedazori, 3 ta ho‘kiz, 2 ta sigir, 3 ta eshak, 3 ta ot, 50 bosh qo‘yga ega, yo‘llanma ishchi kuchidan foydalanadi. Pulhokim qishloq kengashi raisi O‘tayev Qosim yordamida quloqlar ro‘yxatiga kiritilmagan.

Surxondaryo okrug OGPU boshqarmasining 1930-yil 30-mart kuni Boysun rayon ijroiya komitetiga yo‘llagan maxfiy xatida quyidagi shaxslarni quloqqa tortish so‘ralgan.

Bular: 1. Mahmatqulov Rahmatqul – Darband qishlog‘ida yashovchi sudxo‘r boy. Xo‘jaligida 8 botmon lalmi eri, 1 botmon sug‘orma yeri, 220 bosh qo‘y 110 echkisi, 5 bosh qoramoli, 1 ta ot, 2 ta eshagi bo‘lgan, yollanma ishchi kuchini ishlatgan.

2. Karimqulov Qobil – Darband qishloq kengashidagi Sesanga qishlog‘ida yashovchi sobiq sudxo‘r boy. Xo‘jaligida 12 desyatinalalmi eri, 1 desyatina bedazori, 250 bosh mayda moli, 7 bosh qoramoli bo‘lgan, yollanma ishchi kuchini ishlatgan.

1930-yildan boshlab quloq xo‘jaliklarini tugatish va ularni javobgarlikka tortish bo‘yicha Surxondaryo okrug sudi tomonidan sosialistik musobaqa o‘tkazildi. Birgina Denov rayonidagi 5-sonli uchastka xalq sudi tomonidan 1930-yil 31-yanvardan 10-fevralga qadar 66 kishi quloq sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan. Faqat bir nafar kambag‘al borligi uchun unga imkoniyat berilgan. Qolganlari jarimaga tortilgan, mol-mulkining bir qismi musodara qilingan yoki topshirilmagan paxta va g‘allasi undirilgan302. Ushbu musobaqalarda sust ishtirok etgan va quloqlarga rahm qilgan sudyalar ishdan olinib, jinoiy javobgarlikka tortilgan. Xususan, Sheroboddagi 130-sonli uchastkaning xalq sudyasi Ro‘ziboyev Ernazar 1931-yilda boy-quloq elementlar bilan hamkorlik qilganlikda ayblanib sudga berilgan. Jamolashtirish davrida quloqqa tortilgan kishilarning ko‘pchiligi qamoq jazosiga hukm qilindilar. Masalan, denovlik Hojimurodov Sherdon (Murodov Xoji) OGPU doimiy vakilligi uchligi tomonidan 1930-yili 3 yil qamoqqa hukm etilgan, jazoni Samara lagerida o‘tagan. Bu joydan Leningrad Harbiy okrugi lageriga o‘tkazilgan. 1933-yil 29-yanvardan RSFSR Jinoyat Kodeksining 66 moddasi, 2-bandi bilan OGPUning Leningraddagi doimiy vakilligi uchligi tomonidan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazoni Uxto-Pechorsk lagerida o‘tagan, lagerdan 1938-yil 4-iyulda ozod etilgan.

Ommaviy qatag‘onlarning eng dahshatlisi, shubhasiz, 1937-1938-yillardagi “katta qirg‘in” hisoblanadi. “Katta qirg‘in”ga bolsheviklar partiyasi arboblari o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurashlari sabab bo‘ldi. Boshlanib ketgan yirik terrorda stalinchilar o‘zlariga qarshi bo‘lgan kishilarni yo‘q qilish bilan birga qamoqdan chiqib kelgan quloqlar, ruhoniylar, sobiq oq gvardiyachilar, yirik boylar va boshqa siyosiy dushmanlaridan ham qutulishni rejalashtirishdi. Shu maqsadda 1937-yil 30-iyulda NKVD komissari N.Yejovning “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa aksilsovet unsurlarni repressiya qilish bo‘yicha operasiya o‘tkazish to‘g‘risida”gi

00447-sonli mutlaqo maxfiy operativ buyrug‘i, 1999 yil 2 fevral chiqarildi. Unga ko‘ra, 1937-yil 5-avgustidan boshlab barcha respublikalar, o‘lkalar va oblastlarda sobiq quloqlar, faol aksilsovet unsurlar va jinoyatchilarni qatag‘on qilish operasiyasi o‘tkazilishi buyurildi.

4. Xulosalar:

Surxondaryo okrugida yer-suv islohotlariga mumkin qadar siyosiy tus berildi. Bungacha aholi o‘rtasida olib borilgan keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari natijasida er egalariga nisbatan nafrat to‘liq shakllantirilgan edi. Sovet davlati bu ishda qishloq kambag‘allarining yordamiga tayandi. Uni amalga oshirish repressiv yo‘l bilan olib borildi. Lekin yer-suv islohotlari O‘zbekistondagi agrar masalani hal etmadi. Negaki, islohotlar boylarning erinitortib olishga qaratilgan edi. Yer olgan dehqonlargaqishloq xo‘jaligi jihozlari etishmas, ko‘pchiligi ish yuritishni bilmas emas edi. Shuning uchun sovet hukumati O‘zbekistonda kolxoz tuzumiga o‘tishni lozim ko‘rdi. Chunki, yer-suv islohotlari qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish uchun sharoit tayyorlagan edi. Ommaviy qatag‘onlarning eng dahshatlisi, shubhasiz, 1937-1938-yillardagi “katta qirg‘in” hisoblanadi. “Katta qirg‘in”ga bolsheviklar partiyasi arboblari o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurashlari sabab bo‘ldi. Boshlanib ketgan yirik terrorda stalinchilar o‘zlariga qarshi bo‘lgan kishilarni yo‘q qilish bilan birga qamoqdan chiqib kelgan quloqlar, ruhoniylar, sobiq oq gvardiyachilar, yirik boylar va boshqa siyosiy dushmanlaridan ham qutulishni rejalashtirishdi. Shu maqsadda 1937-yil 30-iyulda NKVD komissari N.Yejovning “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa aksilsovet unsurlarni repressiya qilish bo‘yicha operasiya o‘tkazish to‘g‘risida”gi 00447-sonli mutlaqo maxfiy operativ buyrug‘i, 1999 yil 2 fevral chiqarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Turapova M.T. O‘zbekiston janubiy hududlarida demografik jarayonlar (XIX asrning II yarmidan– XX asrning I yarmigacha). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2021. –B. 87-88. 233
2. Yakubova D.T. O‘zbekistonda paxta yakkahokimligining o‘rnatilishi va uning natijalari (1930-1990 yillarda Surxon vohasi misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2021. –B.50. 234
3. Qobilov.X sovet hokimiyatining o‘zbekistonda amalga oshirgan yer-suv islohotlari va uning natijalari (1920-1940-yillarda surxondaryo misolida) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz, 2023
4. Umarov I. Badash: tarix va an'ana. –Termiz: Surxonnashr, 2018. –B. 36.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 18-fond, 1-ro‘yxat, 521 ish, 2-3 varaqlar.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 18-fond, 1-ro‘yxat, 521 ish, 13, 27-varaqlar.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 18-fond, 1-ro‘yxat, 521 ish, 13, 27, 28-varaq.

UCHINCHI RENESSANS YOSHLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Do‘lanov Otabek
Termiz davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini oshirish strategiyasini o'rganadi. Tadqiqot milliy o'ziga xoslik va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish muhimligini ta'kidlab, adabiyotlarni tahlil qilishni o'rganadi, o'qitishning innovatsion usullarini taqdim etadi va talabalarga potentsial ta'sirini muhokama qiladi. Amaliy amaliyotga asoslangan natijalar ta'limda vatanparvarlik haqidagi munozaralarga hissa qo'shib, o'qituvchilar, siyosatchilar va o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, pedagogika, ta'lim, milliy o'zlik, fuqarolik faolligi, o'quv dasturini ishlab chiqish, o'qitish metodikasi.

Vatanparvarlik mas‘uliyatli va band fuqarolarni shakllantirishda, o‘z mamlakatiga sodiqlik va sadoqat tuyg‘usini tarbiyalashda hal qiluvchi rol o ‘ynaydi. Ushbu maqola yoshlarda vatanparvarlikni rivojlantirish uchun samarali pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va taklif qilish, shu bilan shaxs va jamiyatning yaxlit rivojlanishiga hissa qo‘shishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish vatanparvarlik tarbiyasining ko‘p qirrali mohiyatini ochib beradi. Olimlar tanqidiy fikrlash va fuqarolik fazilatlarini targ‘ib qilishda jingoistik rivoyatlardan qochib, muvozanatli yondashuv zarurligini ta'kidlaydilar.

Pedagogik imkoniyatlarni oshirish uchun turli xil o‘qitish usullari taklif etiladi. Texnologiyalarning integratsiyasi, interfaol o‘quv faoliyati va loyiha asosida baholash talabalarni faol jalb qilishning samarali vositalari sifatida aniqlanadi. Bundan tashqari, sinfdan tashqarida haqiqiy misollar, mehmonlar ma‘ruzalari va tajribaviy ta’lim imkoniyatlarini kiritish talabalarning o‘z millati bilan aloqasini chuqurlashtirishi mumkin. Vatanparvarlik – bu shaxsning o‘z vatani, xalqi, tili, tarixi va madaniyatiga muhabbat bilan yondashuvi, ularni rivojlantirishga bo‘lgan intilishi. Vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda: Milliy g‘urur: O‘z milliy qadriyatlarini bilish va ularga hurmat. Fuqarolik mas’uliyati: Vatanni himoya qilish va uni rivojlantirishga mas’uliyatni his qilish. Tarixiy xotira: Milliy tarixni anglash va qadrlash hissini shakllantiradi. Ta’limda vatanparvarlikni targ‘ib qilishga xilma-xillik va tanqidiy fikrlashni hurmat qilgan holda milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash uchun muvozanatli va inklyuziv tarzda yondashish mumkin. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini yaxshilash bo‘ yicha ba’zi strategiyalar: Fuqarolik ta’limi va qadriyatlarni aniqlashtirish:

- Talabalarga o‘z millatiga asos bo‘lgan printsiplar va qadriyatlarni tushunishga yordam berish uchun fuqarolik ta’limini o'quv dasturiga kiritish.

- Turli xil istiqbollarni o‘rganish uchun tanqidiy fikrlash va hurmatli muloqotni ta’kidlab, qadriyatlar bo'yicha ochiq munozaralarni rag‘batlantirish. Inklyuziv Tarix va Madaniyat:

- Yutuqlar va muammolarni, shu jumladan turli guruhlar va istiqbollarning hissalarini tan oladigan tarixning muvozanatli va inklyuziv ko'rinishini taqdim eting. - Xilma-xillikda birlik tuyg‘usini tarbiyalash uchun millat ichidagi madaniy xilmaxillikni ta’kidlang. Xizmatni o'rganish va fuqarolik ishtiroki:

- Talabalarni o'z jamoalariga faol hissa qo'shishga undaydigan xizmatlarni o'rganish tashabbuslarini targ‘ib qilish.

-Talabalarni mahalliy muammolarni hal qiladigan, mas’uliyat hissi va atrof-muhit bilan aloqani rivojlantiradigan haqiqiy loyihalarga jalb qilish.

Tajribaviy o‘rganish:

-Milliy merosni o'rganish va qadrlashni kuchaytiradigan amaliy tajribalarni taqdim etish uchun tarixiy joylar, muzeylar va fuqarolik institutlariga ekskursiyalarni tashkil etish.

- Faxriylar, jamoat rahbarlari va tarixchilar kabi mehmon ma'ruzachilarni talabalar bilan tajriba va tushunchalarini baham ko‘rishga taklif qiling. Raqamli Fuqarolik:

- Fuqarolik ishtiroki va xabardorligi uchun texnologiyadan ijobiy foydalanishni ta’kidlab, mas'uliyatli raqamli fuqarolik bo‘yicha darslarni birlashtirish.

- Talabalarni dolzarb voqealar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha onlayn munozaralarda ishtirok etishga undash, bog‘liqlik va umumiy mas'uliyat hissini targ‘ib qilish.

Vatanparvarlik bayramlari:

- Milliy bayramlar va tadbirlarni ularning tarixiy ahamiyatini ta’kidlaydigan va talabalarni o‘zlari ifodalaydigan qadriyatlar haqida fikr yuritishga undaydigan tarzda nishonlash.

- Talabalar, o‘qituvchilar va ota-onalarni o‘z ichiga olgan vatanparvarlik tadbirlari va tadbirlarini tashkil etish, jamiyat va umumiy shaxs hissini tarbiyalash. tanqidiy fikrlash va media savodxonligi:

- Talabalarni axborot manbalarini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari va tarixiy rivoyatlarni tanqidiy baholashga o‘rgatish.

Vatanparvarlik va ma’naviy savodxonlik birgalikda yoshlarning o‘sishi va taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Milliy g‘urur – bu xalqning o‘z tarixiga, madaniyatiga, urf-odatlariga va an’analariga bo‘lgan ishonch va faxrdir. Bu hissiyotlar odamlarni birlashtiradi, ularning yagona maqsad va istiqbol yo‘lida harakat qilishiga yordam beradi. Milliy g‘urur xalqning o‘zligini anglash va o‘z kelajagini yaratish iste’dodini yangi avlodga yetkazish manfaatini oshiradi. Ma’naviyat insonning axloqiy, diniy va estetik qadriyatlari bilan bog‘liqdir. U insonlarning o‘zaro munosabatlarini, hayotiy qarorlarini va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiradi. Ma’naviyat kuchli ijtimoiy birlikni hamda barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Milliy g‘urur va ma’naviyat birlashganda, jamiyatda boshqalar bilan hurmat, tarafdorlik va hamjihatlikni ta’minlaydi. Bu hissiyotlar yoshlarda hayotga ijobiy qarash va kelajakka umid uyg‘otadi. Yoshlar – jamiyatning kelajagi va uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydigan qismidir. Ular yangi g‘oyalar, yangiliklar va energiya bilan to‘la. Yosh avlodni tarbiyalash, ularning ma'naviy, axloqiy va estetik qadriyatlarini shakllantirish jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.

Ma’naviy tarbiya – bu yoshlarning axloqiy me’yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va madaniy normalar asosida to‘g‘ri fikrlash, muomala qilish va qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. U ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshlarni ma’naviy tarbiyalash nafaqat bilim berish, balki ular ichida o‘z-o‘zini anglash, rahm-shafqat, adolat va vatanparvarlik kabi his-tuyg‘ularni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatning barqaror va farovon rivojlanishini ta’minlaydi.

2020-yil 29-dekabrdagi qaror, O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan. Ushbu qaror doirasida bir qator muhim yo‘nalishlar belgilandi.

Qarorda raqamli infratuzilmani yaxshilash, axborot texnologiyalarini joriy etish va innovatsion loyiha hamda dasturlarni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, yoshlar va tadbirkorlarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish uchun inson resurslarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishiga ko‘rsatma berilgan. Ushbu qaror iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va jamiyatni modernizatsiya qilish bo‘yicha yangi imkoniyatlarni yaratadi. U, shuningdek,

xalqaro hamkorlikni kengaytirish va O‘zbekistonni global raqobatbardosh mamlakat sifatida rivojlantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nozimov A. Yoshlar va ma’naviy tarbiya. Toshkent, 2020.
2. Rahmonov B. Vatanparvarlik va ma’naviy savodxonlik. Toshkent, 2019.
3. Abdullayev S. Milliy g‘urur va ma’naviyat. Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrdagi qarori.
3. Islom Karimov. O‘zbekiston – mustaqil davlat. Toshkent, 2015.

O`ZBEK XOTIN-QIZLARINING SOVET HUKMRONLIGI DAVRIDA IJTIMOIY O`ZGARISHLARI

Boltayeva Gulnoza Raxmatullayevna,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasi
tarix fani bosh o‘qituvchisi
tel: 90 212 90 75 boltaevagulnoza70@gmail.com

Annotatsiya: Ma’lumki, XX asrning dastlabki yillarida O‘zbekiston avval chor Rossiyasining, so‘ngra Sho‘rolar hukmoronligi ostida bo‘ldi. Ushbu yillarda mamlakatda katta ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, Sovet davlati tashkil topganidan so‘ng O‘zbekiston hududida ham chuqur madaniy, ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, “sovet sharqi” xotin-qizlarini “ozodlikka” chiqarish bahonasida sharq xalqlari turmush tarzida tubdan o‘zgarishlar qilindi. O‘zbek xotin-qizlari hayotida tub burulish davri edi. Sovet hukumati sharq ayollarini jamiyatning faol ishtirokchisiga aylantirdi. Ushbu maqolada o‘zbek xotinqizlarining sovet davrining dastlabki yillarida ijtimoiy ahvoli, ushbu yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar va islohatlar haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bolsheviklar, xotin-qizlar, hujum, madaniy-mafkuraviy o‘zgarishlar, ishchi kuchi, ta’lim, ijtimoiy-siyosiy holat, inqilob, ozodlik, tarbiya

Kirish

Tarixdan ma’lumki, XX asrning 20-30-yillarida O‘zbekistonda madaniy-ma’naviy sohada o‘ziga xos murakkablik, qiyinchilik jarayonlari yuzaga kelgan edi. XX asrning 20-yillari boshlarida bolsheviklar respublikamiz hududida madaniy qurilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta’lim tizimini shakllantirish ishlarini faol boshlab yubordi. Sovet hukumati o‘rnatilgach bolshevistik siyosiy doiralar insonlarning ongi, shuuriga kommunistik e’tiqodni singdirishga harakat qilar ekan, ularni ma’nan va ruhan tarbiyalashda adabiyot va san’atning o‘rni beqiyosligini hisobga olib, uni yangi sotsialistik qurilish xizmatiga faol jalb etishga harakat qildilar.

Rossiyadagi oktaybr to‘ntarishidan so‘ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat, iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy vaziyat O‘zbekistonda sobiq sovet davlatining barcha bosqichlarida mohiyatan chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Sobiq kommunistik partiyaning kuchli siyosiylashgan institutlari XX asr 20-yillaridan boshlab xotin-qizlar masalasida boshqa davrlarga xos bo‘lmagan, alohida siyosat yurgiza boshladi.

Ta’kidlash joizki, ushbu davrda O‘zbekistonda xotin-qizlarni jamiyatni faol ishtirokchisiga aylantirishga oid amalga oshirilgan ishlar haqiqatdan muhim va ahamiyatlidir. Xotin-qizlarni ozod qilish eng avvalo ularning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilash bilan ro‘yobga chiqadi. Shu sababli ham 20-yillar bu boradagi ahamiyatli bosqich bo‘ldi. Xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga jalb etilishi, jamiyatda ro‘y berayotgan voqealar oldida ularning o‘sib borayotgan mas`ulyati 20-30 yillarda o‘zbek xotin-qizlarining holatidan darak beradi. Ushbu yillardan boshlab ularning saflaridan minglab davlat arboblari, olimlar, san’atkorlar va boshqa kasb egalari yetishib chiqdi.

1917-yildagi bolsheviklar inqilobidan keyin SSSR hukumati uzoq muddatda kuchli va buzilmas sotsialistik rejim o‘rnatish uchun iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga harakat qildi. Buning uchun ko‘plab huquqiy-me’yorlar va targ‘ibot vositalaridan foydalanildi. 1920-yillarda butun SSSRda ayollarning jamiyatdagi rolini qayta ko‘rib chiqish, ularni ba’zi uy ishlaridan ozod qilish, ularga ta’lim olish va erkaklar bilan teng asosda ishlash imkoniyatini berishga qaratilgan siyosat amalga oshirildi. Chunki „Sharq ayollari“ SSSRda ayollarning teng huquqqa ega bo‘lmagan toifasi deb hisoblangan.

1920-yillarning o‘rtalaridan boshlab „Sharq ayollarini ozod qilish“ harakati uchun hujum degan maxsus nom paydo bo‘ldi. Ayollarga bolalarni parvarish qilish va sog‘lom turmush asoslarini o‘rgatuvchi, shuningdek, huquqiy masalalar, ayollar va bolalar tibbiy maslahatlari, tug‘ruqxonalar bo‘yicha maslahat beradigan maxsus ayollar bo‘limlari tashkil etildi.

Sovet tuzumi Ittifoqning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘rta Osiyoda ham ittifoq iqtisodiyotiga erishishga, ateistik, tenglikparast va dunyoviy davlat barpo etishga, til, madaniy va an’anaviy farqlaridan qat’i nazar, bir xil qadriyatlarga ega bo‘lgan sovet xalqini yaratishga harakat qildi. Bundan tashqari, Sovet Ittifoqi an’anaviy turmush tarzi bilan bog‘liq muammolarni o‘zgartirishga, yo‘q qilishga yoki hal qilishga harakat qildi Sovet hukumatining kun tartibidagi masalalardan biri O‘rta Osiyo “Ayollarni ozod qilish” edi. Bolsheviklar "ayollarni ozod qilish"dan maqsad asosiy e’tiborni iqtisodiy va siyosiy sohalarda yangi ishchi kuchini yaratishga qaratgan. Ular kommunistik jamiyatni barpo etish va uni bardavom qilish uchun ayollar muhim ijtimoiy qatlam ekanligiga qattiq ishonardilar. Ayollar bo‘lajak kommunistik avlodlarning onalari deb hisoblangan va Sovet Ittifoqi turli mintaqalarning turli xususiyatlaridan qat’i nazar, butun Ittifoqdagi ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ishtirokini rag‘batlantirgan.

Sovet hukumatining o‘zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarishdek murakkab ish 1919-yil 12-noyabrda RKP(b)ning Turkiston o‘lka qo‘mitasida xotin-qizlar bo‘limini tashkil etish bilan boshlagan edi. Keyinchalik u Turkiston KP Markaziy

Qo‘mitasi xotin-qizlar bo‘limiga aylantirildi. Sovet rahbarlari mamlakatning barcha hududlarida ayollarni ozod qilish uchun ko‘p harakat qilishgan. Ideal iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda ayolni erkak bilan tenglashtirish edi. Buning uchun Sovet rahbarlari ayollarga onalik va xotinlik rolini bajarishda yordam berish uchun ma’naviy va moddiy yordam ko‘rsatdilar. Biroq, Sovet Ittifoqining maqsadlari Ittifoqning turli mintaqalarida ayollarni ozod qilish har xil sharoit va usullar bilan bog‘liq edi. Shu sababli Lubin shuni takidlaydiki, Sovet Ittifoqining ayollarni ozod qilish siyosati huquqiy masala bo‘lsa-da, Markaziy Osiyoda bu ijtimoiy va iqtisodiy me’yorlar haqida emas, balki diniy va an’anaviy jamiyat masalasi edi.

Ayni vaqtda hududlarda xotin-qizlar bo‘limlarini tashkil etish masalasiga ham alohida e’tibor berila boshlandi. 1919-yil noyabrda Toshkent 1919-yil 14-dekabrda Samarqand, 1919-yil fevralda Farg‘onada, 1920-yil martda Sirdaryoda, so‘ngra Andijon, Kattaqo‘rg‘on, Kogon va boshqa hududlarda xuddi shunday bo‘limlar ochila boshlandi. 1920-yilga oxiriga kelib respublikada 40 ga yaqin xotin-qizlar bo‘limlari faoliyat yuritdi.

1920 yillarning ikkinchi yarmiga kelib Sovet hukumatining "Hujum"(-musulmon ayollarning kiyimini "ochish" va o‘zgartirish kampaniyasi) deb nomlangan kampaniyasi - Islomga qarshi kurashda, xususan, Tojikiston va O‘zbekistonda (va boshqa joylarda) markaziy rol o‘ynadi. “Hujum” kampaniyasi 1927-yilning mart oyida, Toshkentdagi Kommunistik partiya faollari Xalqaro xotin-qizlar kunini nishonlashdan so‘ng boshlandi. Keyinchalik bu kampaniya Sovet rejimi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va “O‘rta osiyolik mazlum ayollarni zulm ostidan, feodal patriarxal jamiyat zanjirlari ozod qilmoqchi” deb e’lon qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ayollar ozodligi O‘rta Osiyodagi tub musulmonlar orasidan sovet ittifoqchilari topish strategiyasining bir qismi sifatida amalga oshirilgan. Umuman olganda, Sovet davridagi ayollarni ochish kampaniyasi an’anaviy hayotga darhol va tubdan o‘zgarishlar kiritish uchun mo‘ljallangan edi.

Mintaqada, xususan, gender munosabatlari va oilaviy hayot sohasida Islom ta’sirini buzmoqda. Bolsheviklar ongli ravishda “madaniyatchi” sifatida harakat qilishdi va o‘zlarining "sivilizatsiya missiyasi" ning hajmi, shakli va xarakterini yoki ular singdirishga intilayotgan qadriyatlarni yashirishga unchalik harakat qilmadilar.

“Majburiy ozodlik” siyosati, pardani majburan tark etish va yolg‘izlik amaliyoti bir o‘zbek olimining ta’biri bilan aytganda, “azobli tarixiy jarayon bo‘lib, erkinlikning bevaqt, zaif va nuqsonli shaklini tug‘dirdi. Bugungi kunda ham sobiq Sovet Sharqining barcha ayollari tomonidan his qilinmoqda. Shunga qaramay, bolsheviklarning ko‘p g‘oyalari yangilik edi. O‘sha paytda ko‘pchilik hukumatlar ayollarning ehtiyojlariga javob beradigan farovonlik davlatlari haqida o‘ylamagan yoki yaratishga harakat qilmagan. Bolsheviklar ayollarga nisbatan madaniy va nomaqbul munosabatlarni qayta shakllantirishda muvaffaqiyat qozona olmaganligi aniq ko‘rinib tursa-da, 1920-yillarning oxiriga kelib ayollar davlat o‘qituvchisi, sog‘liqni saqlash xizmati, ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi va adolat tarqatuvchi rollarni o‘z zimmasiga ola boshladi.

Bu davrda o‘zbek xotin-qizlari rahbarlik lavozimlarida ham ishlash layoqatini ko‘rsatdilar. 1927-yili respublikadagi tuman ijroiya qo‘mitalari a’zolarining 20 foizi,

okrug ijroiya qo‘mitalari a’zolarining 17 foizi ayollar edi. Jahon Obidova O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi raisining o‘rinbosari, Tojixon Shodiyeva esa Prezidium a’zosi bo‘lgan. Biroq keyinchalik bu 2 nafar taniqli o‘zbek ayollari sovet hokimiyati tomonidan qatag‘on qilindi. XX asr 30-yillarida ayollar orasidan mashhur olimalar, shoiralar, yozuvchilar, muhandislar, shifokorlar, san’atkorlar, muallimlar yetishib chiqa boshladi. Osha yillarda Halima Nosirova, Tamaraxonim, Sora Eshonto‘rayeva, Mukarrama Turg‘unboyeva kabi o‘zbek qizlarining iste’dodi yarq etib ko‘zga tashlandi. Bu holatlarning barchasi o‘zbek xotin-qizlarining teng huquqli jamiyat a’zosi bo‘lish, madaniyat va bilimga intilishlarining samarasi edi.

Xullas, sovet davlatining ayollar byurosidagi siyosati kommunistik mafkura bilan sug‘orilgan holatda shoshmashosharlik bilan amalga oshirilsa ham o‘zbek ayollari qonida asrlar osha to‘planib borgan aql-idrok, shijoat va faollik kabi fazilatlari tufayli ko‘pgina ijobiy ishlarni amalga oshirdilar. 1920-yillarda O‘zbekistonda kuniga 40-80 nafar ayol ayollar klublariga shifokor maslahati uchun borganlar. Markaziy Osiyo ayollari hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan yuqorida aytib o‘tilgan Hujum kampaniyalariga parallel ravishda Sovet hukumati ta’lim va asosiy savodxonlikni kengaytirib, ayniqsa, qizlar va ayollarga e’tibor qaratdi. Rejim ayollarning ta’lim va savodxonlik darslarini faol ravishda targ‘ib qildi, universitetlarda talaba qizlar uchun kvota belgiladi va hatto ruxsat bermagan erkaklarni javobgarlikka tortdi. Bu ularning xotinlari va qizlari maktablarga borishlari uchun edi. Bu siyosat ayollarni faol fuqarolarga aylantirish, ularning an’ana va oilaga sodiqligidan voz kechib, ularni kengroq siyosiy hamjamiyat bilan tanishishga ko‘ndirish uchun strategiyaning elementlari sifatida tushuniladi. Shunga qaramay, ayollarning avtonom siyosiy faoliyati to‘xtatildi yoki ochiqdan-ochiq taqiqlandi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda sovetlarning xotin-qizlar bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy tadbiri tufayli o‘zbek ayollari ruhan uyg‘ondi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida erkin, faol qatnasha boshladi. Ammo, sovet davrida bu jarayonga bir tomonlama qaralib, faqat ijobiy baho berilgan bo‘lsa-da, o‘sha davrga tegishli ko‘plab birlamchi manbalar mahalliy aholining tarixan tarkib topgan turmush tarzi, urf-odatlari, islom dini bilan bog‘liq an’analar hisobga olinmagani bois, bu ishlar salbiy oqibatlar bilan kechganidan dalolat beradi.

Sovet tuzumi davrida ayolning nima qilishi yoki qilmasligi qat’iy chegaralar ichida, sovet hukumati ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilangan edi. Shuning uchun Sovet Ittifoqi ayollarning jamiyatdagi ahvolini yaxshilashga harakat qilar ekan, ushbu rejim ularga ham har doim ham ayollar uddalay olmaydigan og‘ir mas’uliyat va rollarni yukladi. Aftidan, sovet tuzumi sharq ayollarning sadoqatini, oilasiga bo‘ysunishni va hokazolarni yangi davlatga o‘tkazmoqchi bo‘ldi, lekin ularni ozod qilmoqchi emasdi. Faqatgina ulardan o‘zlari uchun sodiq fuqarolar tarbiyalash edi. Ammo shunga qaramay sharq ayollarining mehnatsevarligi, shijoati va qobilyatlari tufayli ularni yanada o‘z iqtidorlarini yanada keng ochishga yo‘l ochib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии. История изучения и современные проблемы. Ташкент,1991.С.19
2. Nishonboyeva Q.V. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari/20-30 yillar/ tajriba va oqibatlar. Tarix fan.diss.,1998. bet-31
3. Sharq Yulduzi, (4)1967:109
1. Abduqodirov. T. (2018). O‘zbekiston tarixi: Sovet davri. Toshkent:
1. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
4. Djurayev. M. (2020). Sovet davrida O‘zbekistonning iqtisodiy o‘zgarishlari.
2. O‘zbekiston tarixi va madaniyati, 3(1), 45-58.
5. Karimov. I. (2017). O‘zbekiston madaniyati va uning rivojlanishi. Toshkent:
3. O‘zbekiston davlat nashriyoti.

O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA YANGICHA YONDASHUV

Boltayeva Gulnoza Raxmatullayevna,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasi
tarix fani bosh o‘qituvchisi
Tel: 90 212 90 75 boltaevagulnoza70@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashning dolzarbligi, ta'lim tizimida bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashning usul va vositalari yoritib berilgan. Shuningdek, bag‘rikenglik tuyg‘usi davlat va jamiyat taraqqiyoti ushun muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston,yoshlar, bag‘rikenglik, tarbiya, ta'lim, pedagogika, jamiyat, mentalitet, talabalar, millat.

Kirish

Barchamizga yaxshi ma’lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma’naviy salohiyatiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi mamlakatimizda yoshlar siyosati samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinsh-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. Bag‘rikenglik - ko‘p ma'noli tushunsha, shu sababli uni falsafiy, tarixiy,badiiy, diniy, siyosiy nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqish mumkin. Bag‘rikenglikni pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, ayniqsa dolzarb masala hisoblanadi. Bag‘rikenglikning asosida, avvalo, shaxs tajribasi yotadi. Shu sababli bag‘rikenglik tarbiyasi, pedagogika nuqtai nazaridan, bag‘rikenglik tajribasini aniq maqsad

yo‘lida tashkil etishdan, ya’ni o‘zga kishilar bilan birgalikda harakat qilishni talab etuvshi shart-sharoitlarni sobitqadamlik bilan yaratishdan iborat. Bugun O‘zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. 2017 yil 30 iyunda mamlakatimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi, uning asosiy faoliyati yoshlarning barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi. Shuni alohida qayd etish lozimki, hozirgi globallashuv asrida yoshlarning dunyoqarashi, fikri kun sayin o‘zgarib bormoqda.

Bugungi kunda yoshlarni hayratlantirish, ularning ko‘nglidan chuqur joy oladigan loyihalarni ishlab chiqish ham qiyinlashib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ularning zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalanishi, dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklar, voqea-hodisalardan tez xabardor bo‘lishi bilan ham izohlanadi. Shu sabab, hozirda Yoshlar ittifoqi tomonidan yoshlar bilan ishlashda mutlaqo yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan mexanizmlar, metod va uslublardan foydalanishga harakat qilinmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida qator yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz aholisining qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari yoshlarni taraqqiyotning juda katta tayanchi, ulkan resurs, bebaho xazina, deb biladi. Mamlakatimizda yoshlar faoliyati bilan bog‘liq tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

2017 yilda yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat hayotida navqiron avlodning o‘rni va faolligini oshirish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. 2017 yil 30 iyunda O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tuzildi. Mazkur qonunda O‘zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasini tuzish va uning samarali faoliyat yuritishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, yangi avlodni xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo‘lishining huquq va imkoniyatlari belgilab berildi.

Yoshlarning dunyo miqyosida o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun 2018 yilda Samarqand shahrida O‘rta Osiyo yoshlari forumi o‘tkazildi. Uyushmagan yoshlarning bandligini ta'minlash masalalari ko‘rib chiqilib, ularni bunyodkorlik ishlariga jalb qilish, ijtimoiy faollashtirish borasida dasturlar qabul qilinyapti. Mamlakatimizda Yoshlar parlamenti, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida insoniyatga, ayniqsa, yoshlarga ma'naviy va axloqiy jihatdan tuban illatlarni o‘zida mujassamlashtirgan “ommaviy madaniyat” tahdid solmoqda. Bu unsur “madaniyat” deb atalsa-da, tub mazmun-mohiyati, maqsadlariga ko‘ra, chinakam madaniyatning kushandasi. “Ommaviy madaniyat” g‘arb madaniy hayotining deyarli barcha sohasini qamrab olgan bo‘lib, u xalqning o‘zligi va madaniyatini yo‘qotishga qaratilgan. U xalqni xalq, millatni millat qilib

turgan asoslar, ya’ni ming yilliklar mobaynida shakllanib, rivojlanib kelayotgan madaniy, ma'naviy, ma’rifiy, axloqiy va ruhiy an'ana, qadriyat hamda tamoyillardan begonalashtirishga yo‘naltirilgan xurujdir.

Bunday madaniyatga qarshi kurashish yo‘lida islom dinining insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalarini chuqur o‘rganish, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Qaffol Shoshiy, Abul Muin Nasafiy, Makhul Nasafiy, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg‘inoniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek va Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug‘ mutafakkirlarning ilmiy-ma’naviy merosini tadqiq etish bugungi kundagi manfaatparastlik botqog‘iga g‘arq bo‘layotgan insonlarni jaholat changalidan qutqarishda muhim ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Yoshlarimizni turli vayronkor g‘oyalardan asrashimiz, mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosidan bahramand qilishimiz kerak. Prezidentimiz bu haqda “Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb hunarlarni, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib, hayotdan munosib o‘rin topishlari uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”, dedi.

Ma’lumki, yurtimizda yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga olgan "beshta muhim tashabbus" amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarni axloqli qilib tarbiyalash, vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazishga qaratilgan. “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasi yoshlarni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, pirovardida yangi O‘zbekistonni bunyod etishda ularning asosiy kuch sifatida namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz aytganidek: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma’rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va, albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros, bu — yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik, bu — bilimsizlik!".

Yoshlarning intellektual va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida an'anaviy tadbirlar, konferentsiyalar o‘tkazilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Prezident maktablari, xalqimiz ardog‘idagi yozuvchi va shoirlar nomida ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar, Adiblar xiyoboni tashkil etildi. Ushbu xiyobon endilikda yoshlarimizning sevimli maskaniga aylangan.

Nafaqat bizning universitet, balki barcha oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli yoshlarga katta e'tibor qaratilayotganiga guvohmiz. Bugungi kunda tashabbuskor yoshlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar jarayonida bevosita ishtirok etmoqda. Yuzdan ortiq milliy-madaniy markazni birlashtiruvshi Respublika Baynalminal madaniyat markazi mamlakatda millatlararo hamjixatlik

va fuqarolarning o‘zaro totuvlik muhitini mustahkamlashga,milliy madaniyatlarni saqlab qolish va ularning ma'naviy qadriyatlarini targ‘ib qilishga hissasini qo‘shib kelmoqda.Mazkur markazlar madaniyatini targ‘ib qilish emas, shu bilan birga millatlararo munosabatda bag‘rikenglikni tarbiyalash asosida samarali ko‘pgina rejalarni amalga oshirmoqda.Yoshlarni yurtimizdagi milliy–madaniy markazlarga borib,u erda turli millatlarning milliy qadriyatlari, urf-odatlari va an'analariga guvoh bo‘lib ularni o‘rganishlari ularni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashda amaliy yordam bo‘ladi.Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalardan kelib shiqib bag‘rikenglik tarbiyasini o‘quv jarayoni bilangina cheklamasdan, mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda ham uzluksiz davom ettirish kerak. Buning ushun “bag‘rikenglik” mavzusida turli tadbirlar, anjumanlar, spektakllar, ijodiy ko‘rik tanlovlar o‘tkazib turish mumkin. Masalan, adabiy tanlov o‘tkazib, qatnashchilarga “Bag‘rikenglik-barqarorlik omili” degan mavzuda insho yozish taklif etiladi. Yoki, foto tanlov ftkazilib, harbir muallifning “Dunyoning bag‘rikeng insonlari” yoki,”Insoniyat—bag‘rikenglik yo‘lida” mavzuidagi foto suratlar turkumi yaratiladi.Tarixchi talabalar o‘rtasida madaniyatlarning o‘zaro ta'sirini, bag‘rikenglikning tarixiy ildizlari va zamonaviy muammolarini tasvirlaydigan eng yaxshi muzey kompozichiyasini yaratishga bag‘ishlangan tanlovlar ftkaziladi. Milliy-madaniy markazlarning ishtirokida davra sutsbatlari o‘tkazish, “Jahon musiqasi” turkumli keshalari, “Bag‘rikenglik maktabi” mavzudagi munozara va shu kabi tadbirlarni o‘tkazish katta qiziqish uyg‘otishi mumkin. Madaniyatlararo muloqotga bag‘ishlangan o‘ziga xos klublar yaratish lozim.

Yoshlarimizni m’naviy-axloqiy sog‘lom etib tarbiyalashda ularning muammolarini o‘rganish va bartaraf etish, madaniy-tarixiy an'ana, milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat ruhida tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta’lim dargohlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borish, navqiron avlodning bo‘sh vaqtini band qilish maqsadida turli ixtisos va yo‘nalishlardagi mutaxassislarni jalb qilgan holda, konferentsiya, davra suhbatlari o‘tkazish, ma’naviy targ‘ibotda uchraydigan muammo va kamchiliklarni ochiq muhokama qilish muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ko‘p jihatdan yoshlarimiz dunyoqarashi, tariximizga munosabat, milliy g‘oyaga sadoqat bilan uzviy bog‘liq. Bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli inson bo‘lish uchun o‘z milliy qadriyatlarini e’zozlashi, o‘zligini anglashi, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishi, ona Vatanini jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olishi uchun fidoyi bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzijev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqishga ko‘taramiz.Toshkent,O‘zbekiston‘ 2017y.
2. Beloleva G.V., Shmeleva G.M.Tolerantnost vpedagogike.M.,2002y.
3. Murtazayeva R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik.T;,Universitet‘.2007y.

4.Nemkova M.Razvitiye kulturы mejnachionalnых otnosheniy u shkolnikov—Ulyanovsk,2003y.
5.Turdiyev B. S.The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal Scientific Bulletin of Namangan State University. –2019. –T. 1. –No.6. –S.229-233.
6.Turdiyev B.S.Spiritual renewal and interethnic relations in the strategy of actions Teoriyaipraktikasovremennoynauki. –2018. –No.3. –S. 85-89.
7.Sobirovich T. B.O‘zbekiston demokratik jamiyat taraqqiyoti rivojida ma‘naviy yangilanishlar strategiyasining roli Imom Buxoriy saboqlari. –2020. No.2.–S. 118-121.

YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHDA JALOLIDDIN MANGUBERDINING JASORATI.

Avliyaqulov Isroil Murtazaqulovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasi tarix fani bosh o‘qituvchisi
Xurramov Asliddin Zayniddin o‘g‘li
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasi 2-bosqich o‘quvchisi.

Annotatsiya: Jaloliddin Manguberdi, XIII asrda Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori sifatida mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor kurash olib borgan. Uning jasorati, vatanparvarligi va qat'iyatliligi, bugungi yosh avlodni vatansevarlik ruhi bilan tarbiyalashda muhim o‘rnak sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu jarayonda ta'lim-tarbiya muassasalari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning roli muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi vatanparvarlik yoshlar tarbiyasi liderlik strategik fikrlash qaror qabul qilish madaniy meros milliy identifikatsiya tarixiy qahramonlik ta'lim-tarbiya metodlari.

Kirish

Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati- O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutadi. U XIII asr boshlarida Mo‘g‘ullar imperiyasiga qarshi kurashgan Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori sifatida tanilgan. Jaloliddin Manguberdi (1198—1231) – Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori (1220-yildan), Muhammad Xorazmshohning to‘ng‘ich o‘g‘li, 33 yil umr ko‘rgan bo‘lib, shundan 11 yili turli janglar ichida o‘tgan.

Jaloliddin Manguberdi vatanparvarlik, jasorat va matonat timsoli sifatida yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatidan yoshlarga vatanparvarlikni o‘rgatishdagi muhim jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati orqali yoshlarga vatanparvarlik, matonat va

qat‘iyatni singdirish mumkin. Uning mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor jangi, Vatanini himoya qilish uchun ko‘rsatgan jasorati o‘zbek yoshlariga vatanparvarlik hissini singdirishda yordam beradi. Jaloliddin Manguberdi liderlik qobiliyatlari va jamoaviy ishga yondashuvi orqali yoshlarga muhim “dars” beradi. Uning qo‘shinlarni boshqarishdagi mahorati, strategik fikrlashi va jamoaviy harakatlar muvaffaqiyatga erishishda qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Jaloliddin Manguberdi adolatli hukmdor sifatida tanilgan. Uning adolatli qarorlari va insonparvarlik siyosati orqali yoshlar adolat va insoniy qadriyatlarga hurmatni o‘rganadilar. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatidan foydalanish, yoshlarga vatanparvarlikni o‘rgatishda keng imkoniyatlar yaratadi. Uning hayoti va faoliyati orqali yosh avlodga jasorat, vatansevarlik, liderlik, adolat va insonparvarlik kabi muhim qadriyatlarni singdirish mumkin. Bu esa, kelajakda mamlakatimizning yorqin kelajagini qurishda muhim o‘rin tutuvchi, yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatidan foydalanish orqali yoshlarga vatanparvarlikni o‘rgatishning yanada chuqurroq jihatlarini ko‘rib chiqish mumkin. Uning hayoti va kurashlari orqali turli darslar o‘rganilishi mumkin, bu esa yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

Jaloliddin Manguberdi merosini yoshlarga tanitish orqali, ularning o‘z milliy madaniyati va tarixiga bo‘lgan hurmatini oshiradi. Bu, milliy tariximizni mustahkamlashga, yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usining shakllanishida yordam beradi. Yoshlarni o‘z milliy meroslarini asrash va rivojlantirishga undaydi. Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga qarshi kurashida ko‘rsatgan qarshiligi orqali mustaqillik va ozodlik uchun kurashning ahamiyatini ta'kidlash mumkin. Jaloliddin Manguberdi davrining madaniyati va san’ati, yoshlarga o‘z milliy madaniyatini qadrlash va uni asrashning muhimligini o‘rgatadi. Bu, ularning madaniy merosga bo‘lgan hurmatini oshiradi va uni kelajak avlodlarga yetkazishda faol rol o‘ynashga undaydi. Jaloliddin Manguberdi hayotidagi qiyin qarorlar, yoshlarga o‘z hayotlarida duch keladigan qiyin vaziyatlarda o‘zini o‘zi boshqarish va mustaqil qarorlar qabul qilishning ahamiyatini o‘rgatadi. Bu, ularni mustaqil fikrlashga va o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilashga tayyorlaydi. Jaloliddin Manguberdi tarixiy shaxsiyatidan foydalanish, yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Uning hayoti va kurashlari, o‘zbek yoshlariga vatanparvarlik, matonat, qat'iyat va liderlik kabi asosiy qadriyatlarni o‘rgatadi. Jaloliddin Manguberdi merosi orqali yoshlarga tarixiy merosni o‘rganish, milliy iftixor hissini kuchaytirish va o‘z milliy identifikatlarini qadrlashni o‘rgatish mumkin. Shu bilan birga, bu, ularni o‘z tarixi va madaniyatini asrash hamda kelajak avlodlarga yetkazish uchun mas'uliyatli bo‘lishga undaydi. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati va uning merosi, o‘zbek yoshlarini vatanparvar, ma'suliyatli va ko‘p qirrali shaxs sifatida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Jaloliddin Manguberdi tarixiy shaxsiyatidan foydalanish, yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Uning hayoti va kurashlari, o‘zbek yoshlariga vatanparvarlik, matonat, qat'iyat va liderlik kabi asosiy qadriyatlarni o‘rgatadi. Shu bilan birga, bu, ularni o‘z tarixi va madaniyatini asrash hamda kelajak avlodlarga yetkazish uchun mas'uliyatli bo‘lishga undaydi. O‘zbekiston hukumati 1998-yilda Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan

mislsiz jasorati, Vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida ―Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida‖ qaror qabul qildi. Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalariga va boshqalarga uning nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O‘zbekistonda 1999-yili keng nishonlandi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesalar yaratildi, 2000- yil 30-avgustda ―Jaloliddin Manguberdi‖ ordeni ta‘sis etildi. 1999-yilda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag‘ishlangan 25 so‘mlik esdalik tangalari muomalaga chiqarildi. 2000-yil 30-avgustda ―Jaloliddin Manguberdi ordeni ta‘sis etildi. Nizomga ko‘ra, orden bilan mamlakatimiz mustaqilligi, sarhadlari daxlsizligini himoya qilishda harbiy iste’dod, mardlik va qahramonlik namunasi ko‘rsatgan, davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shgan harbiy xizmatchilar taqdirlanadi. davlatning mudofaa qobiliyati. 2003-yil 22 avgustda Xorazm viloyati ushbu orden bilan taqdirlandi. Hech shubhasiz, bunda chuqur ramziy ma’no bor. Nega deganda, dunyodagi eng ulkan qahramonlik – bu Vatan mustaqilligi va ozodligi yo‘lida ko‘rsatilgan mardlik va jasoratdir. Bunday qahramonlik aslo unutilmaydi, hamisha xalq qalbida yashaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Jaloliddin Manguberdining hayot yo‘lini tahlil qiladigan, o‘sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko‘zi bilan qarab baho beradigan bo‘lsak, ular bizni mana shunday tabiiy va ibratli saboq-xulosalar chiqarishga undaydi. Birinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko‘rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo‘ravonlik bilan o‘z hukmronligini o‘rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo‘ladi. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati va uning merosi, o‘zbek yoshlarini vatanparvar, ma’suliyatli va ko‘p qirrali shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sagdullayev A. S. O‘zbekiston tarixi. –T. 2019.
2. Содиков Х. Султон Жалолиддин Мангуберди. –Т. 2009.
4. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T.1999;
5. Jaloliddin Manguberdi (o‘zbek, ingliz, rus tilida), T.1999;
6. Jaloliddin Manguberdi, Vatan, yurt himoyachisi, T.1999;
7. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi, T.1999;

TA’LIM MUASSASALARIDA O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O ‘TISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Avliyoqulov Isroil
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasi
tarix fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi ko‘rib chiqiladi. An’anaviy o‘qitish usullarining cheklovlari tahlil qilinib, zamonaviy interfaol usullar, masalan, guruh ishi, muhokama, loyiha asosidagi ta’lim va raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari muhokama qilinadi. Maqolada ushbu metodlarning o‘quvchilarning tarixga qiziqishini oshirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirishga ko‘maklashishi haqida dalillar keltiriladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston ta’lim tizimida amaliy qo‘llash uchun tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tarixi, interfaol metodlar, ta’lim muassasalari, zamonaviy o‘qitish usullari, tanqidiy fikrlash.

Kirish

O‘zbekiston tarixi fani maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda milliy ongni shakllantirish, o‘tmishga hurmat va kelajakka ishonch tuyg‘usini uyg‘otishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, ko‘pincha an’anaviy o‘qitish usullari — leksiyalar, yodlash va testlar — o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlay olmaydi va ularning qiziqishini susaytiradi. Shu sababli, interfaol metodlar zamonaviy ta’limda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola O‘zbekiston tarixi fanini o‘tishda interfaol usullarni qo‘llashning afzalliklari va amaliy yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan.

An’anaviy va interfaol usullarning farqi

An’anaviy o‘qitish usullari ko‘proq o‘qituvchining faolligiga tayanadi: u ma’lumotni yetkazadi, o‘quvchi esa uni qabul qiladi va eslab qoladi. Bu usul oddiy faktlarni o‘zlashtirishda samarali bo‘lsa-da, o‘quvchilarda chuqur tahlil qilish yoki tarixiy voqealarni zamonaviy hayot bilan bog‘lash ko‘nikmalarini shakllantirmaydi. Interfaol metodlar esa o‘quv jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, guruhlarda muhokama qilish, tarixiy loyihalar tayyorlash yoki raqamli vositalar yordamida virtual muzey sayohatlarini tashkil etish o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi va o‘qitishni yanada samarali qiladi.

Interfaol metodlarning turlari va ularni qo‘llash

1. Guruh ishi va muhokama O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, ma’lum bir tarixiy davr yoki voqea haqida munozara qilishlari mumkin. Masalan, “O‘zbek xonliklarining gullab-yashnashi sabablari” mavzusida fikr almashish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

2. Loyiha asosidagi ta’lim: O‘quvchilar guruh bo‘lib, masalan, Amir Temur davriga oid xarita, plakat yoki qisqa video tayyorlashlari mumkin. Bu ularga ijodiy yondashish va hamkorlikda ishlashni o‘rgatadi.

3. Raqamli texnologiyalar: Tarixiy filmlar, interfaol xaritalar yoki virtual haqiqat (VR) vositalari yordamida o‘quvchilar o‘tmishni “ko‘z oldida” tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, Xiva yoki Buxoro shaharlarining 3D modellarini ko‘rish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

4. Rolli o‘yinlar: O‘quvchilar tarixiy shaxslar (masalan, Al-Xorazmiy, Jaloliddin Manguberdi) rolini o‘ynab, o‘sha davr muammolarini muhokama qilishlari mumkin.

Interfaol metodlarning afzalliklari va kamchiliklari (Jadval 1)

Quyidagi jadvalda interfaol metodlarning afzalliklari va ehtimoliy kamchiliklari taqqoslanadi:

Metod	Afzalliklari	Kamchiliklari
Guruh ishi va muhokama	Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, qiziqish uyg‘otadi	Ko‘p vaqt talab qiladi, guruhni boshqarish qiyin
Loyiha asosidagi ta’lim	Ijodkorlikni oshiradi, amaliy ko‘nikmalar beradi	Resurslar (masalan, materiallar) zarur
Raqamli texnologiyalar	Vizual tasavvurni kuchaytiradi, zamonaviylik	Texnik jihozlar va internet talab qiladi
Rolli o‘yinlar	O‘quvchilarni faollashtiradi, qiziqarli	Tayyorgarlik va rejalashtirish kerak

Tadqiqot natijalari

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va ularning bilim darajasini yaxshilaydi. O‘zbekiston tarixi kabi murakkab va boy mavzularni o‘qitishda bu usullar o‘quvchilarga nafaqat faktlarni yodlash, balki ularni tahlil qilish va zamonaviy hayot bilan bog‘lash imkonini beradi. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrni o‘rganayotganda, o‘quvchilar bugungi iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan solishtirish orqali o‘z xulosalarini chiqarishlari mumkin.

Xulosa va tavsiyalar

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni faol fuqarolarga aylantirishda muhim qadam bo‘ladi. O‘qituvchilar ushbu usullarni qo‘llash uchun maxsus treninglardan o‘tishi, maktablar esa zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishi kerak. Shu bilan birga, o‘quv dasturlarini interfaol metodlarga moslashtirish bo‘yicha ishlar olib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev, X. (2020). O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy metodlar. Toshkent: Fan va Texnologiya.
2. Karimov, S. (2018). Tarix ta’limida interfaol usullarning o‘rni. O‘zbekiston Ta’lim Jurnali, 3(45), 12-18.
3. Smith, J. (2019). Interactive Teaching Methods in History Education. London: Academic Press.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi. (2022). Umumiy o‘rta ta’lim dasturi: O‘zbekiston tarixi. Toshkent.
5. UNESCO. (2021). Digital Tools in Education: Enhancing Learning Experiences. Paris: UNESCO Publishing.

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH – VATANPARVARLIKNING MA’NAVIY ASOSI

Turopov Yorqin Sharapovich,
Jizzax davlat pedagogika instituti falsafa,
“Tarbiya va huquq ta'limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
yorqin.turopov.78@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy o‘zlikni anglash tushunchasinining mohiyati, uning shakllanish xususiyatlari bayon qilingan.Milliy o‘zlikni anglashning ma'naviy kamolot, milliy tiklanish va milliy yuksalish jarayonlari bilan aloqadorligi tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: O‘zlikni anglash, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, ma'naviy kamolot, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy tiklanish, milliy yuksalish, taraqqiyot strategiyasi.

Vatanparvarlik – bu, shaxsning vataniga bo‘lgan muhabbati, sodiqligi, uning manfaatida uchun har qanday xizmatga shayligi va vatanni himoya qilishda, zarur bo‘lsa jonini fido qilishga tayyorligidir. Vatanparvarlik tug‘ilgan joyiga bo‘lgan mehrdan boshlanib, shaxs yetuk yoshga yetganda umumdavlat doirasidagi vatanparvarlikni anglash yuzaga keladi. Vatanparvarlik – bu, har bir millat va davlatning mavjud bo‘lishi, ravnaqi, rivojlanishini belgilovchi asosiy ijtimoiy ustunlardan biri hisoblanadi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo‘lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatanparvarlik shaxsning, millatning o‘zligini anglash jarayonlari bilan uyg‘un holda shakllanadi.

Milliy o‘zlikni anglash Vatan manfaati bilan uyg‘unlashsa, millat o‘z vatanining qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko‘p anglasa, kishilarda vatanparvarlik tuyg‘usi shuncha baland bo‘ladi. Milliy o‘zlikni anglash vatanparvarlikning shakllanishiga zamin bo‘luvchi ma'naviy asoslardan biridir.

Milliy o‘zlikni anglash insonda vatanparvarlik his-tuyg‘usining shakllanishida muhim o‘rin tutib, shaxs va jamiyatning ma'naviy kamolotida, fuqarolik jamiyatining moddiy-ma'naviy asoslarini mustahkamlashda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Milliy o‘zlikni anglash millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir.Milliy o‘zlikni anglash millatning o‘z tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlarini bilishi, milliy urf-odat va an'analarini e'zozlashi, ajdodlarining ma'naviy merosidan bahramand bo‘lgan holda uni asrab-avaylab kelajak avlodga qoldirishi kabi xususiyatlar tushuniladi.

Shu ma'noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi.U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi.Shuning uchun ham u qudratlidir.Tarixiy merosni asrab avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir" [1], degan fikrlari milliy o‘zlikni anglashda tarixiy merosning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Millat ma'naviy kamoloti, avvalo, ma'lum millatga mansub kishilarning o‘zligini anglash darajasida aks etadi.

Inson hayotining ma'no-mazmuni, maqsadini tushunib yetish, o‘zlikni anlashdan boshlanadi. Bu haqda O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “O‘zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, naslnasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o‘zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman”, degan edi [2]. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etilganda, uning mustaqil tafakkurga, e'tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o‘zgalar va butun borliq oldidagi mas'uliyat tuyg‘usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. “Men kimman?”, “Bu yorug‘ dunyoga nima uchun keldim?”, “Menga ato etilgan buyuk ne'mat – hayotimni nimalarga safarbar etmog‘im lozim?”. Inson borki, ertami-kechmi ana shu savollarga javob izlay boshlaydi, kamolot sari yo‘l oladi. Bu yo‘lni – o‘zlikni anglash deb aytish mumkin. O‘zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko‘tariladi. Demak, o‘zlikni anglash, avvalo har bir insonning shaxsi, alohida “men”i bilan bog‘liq. O‘zlikni anglash masalasiga faqat bugun e'tibor qaratilayotgani yo‘q. Bu boradagi qarashlar insoniyat jamiyatining paydo bo‘lishiga borib taqaladi. Delfadagi appolon ibodatxonasining devorlariga o‘yib yozilgan va an'ana bo‘yicha yetti yunon donishmandlaridan biri – spartalik Xilonga tegishli deb hisoblangan “O‘zligingni angla” shiori qadimgi yunon falsafasining o‘zak masalasi bo‘lib qoldi.

Ilmiy adabiyotlarda “o‘zlikni anglash” tushunchasining ham bir qancha talqini uchraydi. Masalan o‘zlikni anglash – insoning o‘zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushuncha. O‘zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to‘g‘ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish qonuniyatlarini bilish, Vatan, millat oldidagi mas'uliyat tuyg‘usi hamdir. O‘zlikni anglash mudom tarixiy rivojlanib boradigan shakl va ko‘rinishlarda, turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Uning birinchi shaklida inson his etish orqali o‘zini tabiatdan, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan ajrata biladi. O‘zlikni anlashning ikkinchi shakli yanada yuqori darajada namoyon bo‘lib, unda inson o‘zini biror-bir jamoa, u yoki bu madaniyatga tegishli ekanligi orqali

anglaydi. Va nihoyat, uchinchi, eng yuqori daraja – o‘zini “men” orqali boshqalar nuqtai nazaridan baholashi, erkinligini his etgan holda har bir xatti-harakatiga bo‘lgan mas'uliyatni his etishi, o‘zi qilayotgan ishlarining to‘g‘ri-noto‘g‘riligi, haq yoki nohaqligini nazorat qila bilishidir [3].

Siyosiy fanlar doktori V.Qo‘chqorov “o‘zlikni anglash” tushunchasi bilan “milliy o‘zlikni anglash” tushunchalarining ma'no-mazmunini taqlil etadi va quyidagicha izohlaydi: “O‘zlikni anglash kishining borliqda o‘z o‘rnini bilishi, ijtimoiy munosabatlarda o‘z “men”i va hayotiy maqsadlarini boshqa “men”lar hamda ularning hayotiy maqsadlari bilan munosabatida namoyon bo‘ladigan individual jihatlarining idrok etilishi sifatida qaraladi. O‘zlikni anglashning muayyan darajasi milliy o‘zlikni anglashdir. Milliy o‘zlikni anglash – millat va har bir millat vakilining umumiy madaniy negizga, til, madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf – odat va an'analarga mansubligini va o‘z o‘rnini idrok etishdir [4].

Milliy o‘zlikni anglash tufayli inson o‘tmishini xotirlaydi, buguni bilan taqqoslaydi, xulosa chiqaradi va shu asosda kelajakka nigoh tashlaydi.Ya'ni, o‘zlikni anglash insonni shaxs darajasiga ko‘tarib, ma'naviy axloqiy kamolot sari yeiaklaydigan ruhiy kuchdir. Ana shu jihatlar bevosita jamiyatning ma'naviy rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ladi. “Shaxs milliy o‘zligini anglashi” tushunchasining tarkibiy qismlari quyidagilardir: millatga (etnosga) mansublikni, uning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o‘rnini anglash; milliy g‘oyaga va qadriyatlarga sadoqat; millatning ehtiyojlari va manfaatlarini anglash, uning rivojlanish yo‘llarini bili; milliy taraqqiyotga xizmat qilib, jamiyatda fuqaroviy birlikni ta'minlashga hissa qo‘shish [5].

Milliy o‘zlikni anglash muammosi jahonning barcha mamlakatlariga aloqador bo‘lgan globallashuv jarayoni sur'atlarining tezlashib borishi bilan yanada dolzarblik kasb etmoqda.

So‘nggi vaqtlarda milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan qiziqish ijtimoiysiyosiy,falsafiy, tarixiy, pedagogik, psixologik yondashuvlarda kuzatilmoqda.

A.B.Bagdasarova milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchasini butun olam nigohi nazarida tahlil qiladi: milliy o‘z-o‘zini anglash o‘zida ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ta'limiy, estetik, falsafiy, diniy qarashlarni namoyon qiladi va diniy rivojlanishni turli millatlarda aks ettiradi. Shu yo‘sinda milliy tafakkur millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, hayotiy jarayonlari bilan birga milliy ta'limini aks ettiradi [6].

G.Nikishov (1998) urg‘uni o‘zlikni anglashning ma’nosiga qaratadi: o‘zlikni anglash har bir insonning alohida ratsional holda yoki aql orqali emas, uni chuqur anglashda, hissiyotda namoyon bo‘ladi va uning rivojlanishiga ko‘pgina omillar, intuitsiya va sezgi ta'sir ko‘rsatadi. Rus tilida u oddiy qalb deb e’tirof etiladi [7].

P.I.Kovalevskiyning fikricha, milliy tafakkur intellektual tabiatga ega. «Milliy o‘zlikni anglash, – deb yozadi Kovalevskiy, – idrokning akti hisoblanib, unda shaxs o‘zini millatning bir qismi deb hisoblaydi. Bu hayot boshlanishining asosini tushunish va maqsadlarning o‘zaro uyg‘unligi ta’siri bo‘lib, unga butun xalq va uning alohida a’zolari kirib ketadi»[8]. G.P.Fedotov millat va milliy o‘z-o‘zini anglash

muammolarini o‘rganishda, avvalo, biror bir xalqning mavjud bo‘lish tarixi, uning davlat qurishga bo‘lgan intilishlarini anglash lozim, deb hisoblaydi [9].

Milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishda asosiy ma’naviy vazifalar intellegentsiyaga yuklanadi, ya’ni bu tushuncha siyosiy xarakterga ega bo‘ladi. Shunday qilib, o‘zlikni anglash ong osti darajasida hosil bo‘lib, tafakkur darajasida namoyon bo‘ladi; o‘zining milliy xususiyatlarini saqlab qolishga intilayotgan individlar qarashlarini aks ettiradi.

O‘z-o‘zini anglash quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) ko‘niktirish; 2) himoyalash; 3) bilish; 4) o‘zini nazorat qilish.

Ko‘niktirish funktsiyasi – hayotiy faoliyat davomida individning milliy xususiyatlariga o‘rganishi. Bu jarayonda asosiy rolni o‘zida qadriyatlarning xususiyat tizimini saqlaydigan til o‘ynaydi. Shu bilan birga bu yerda tarixiy voqealarga tayanish, qaxramonlar, milliy madaniyat namoyondalariga ham tayaniladi. Til o‘rganish orqali shaxs milliy madaniyat olamiga kirib boradi. Milliy o‘zlikni anglashning yana himoya funktsiyasi ham mavjud. U madaniy qadriyatlarni saqlashda namoyon bo‘lib, milliy-madaniy qiziqishlarni himoyalash va rivojlantirish, milliy qadriyatlarni ichki yoki tashqi ta'sirlardan asrashni ta'minlaydi. Milliy o‘zlikni anglash an'analarini avloddan-avlodga uzatishda, bundan tashqari tarixiy, diniy va madaniy boyliklarni saqlashda ishtirok etadi. Bilish funktsiyasi nafaqat avlodlar xotirasini saqlashda, balki hayotning o‘zida butunligicha ham ishtirok etadi. O‘zini nazorat qilish va javobgarlik funktsiyasi ham bu jarayonlarda zarur bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash bahslardan xoli emas, ya'ni o‘zlikni anglash asoslarining buzilishi ijtimoiy harakatga ta’sir etadi. Javob reaktsiyasi madaniy xulqning ichki darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

N.V.Koksharov esa milliy o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy omillarni sanab o‘tadi: madaniyat, fan, til, ta’lim tizimi, ziyolilar va o‘z-o‘zini nazorat qilish.Til milliy madaniyatning asosi hisoblanib, tilni yo‘qotish milliy tafakkur yo‘qolishiga qo‘yilgan birinchi qadamdir [10].

Milliy o‘z-o‘zligini anglagan insongina Vatan qadrini biladi.Vatan esa tug‘ilib o‘sgan shahar yoki qishloqdan boshlanadi.O‘z-o‘zidan ma’lumki, inson qachonki mening Vatanim, yurtim, joyim degan ongli tushunchaga ega bo‘lsagina, ushbu xalq, millat dardida yonib yashaydi, uning ravnaqi uchun kurashadi.Bunda ta’lim tizimining ahamiyati katta. Chunki ta’lim faoliyati insonning dunyoqarashini shakllantirib, kelgusi mehnat faoliyatining samari bo‘lishi, farovon kelajagini ta'minlaydi.

Milliy o‘zlikni anglash shunchaki orzu-istak bilan amalga oshmaydi. Buning uchun mustaqillikka erishishning o‘zi kifoya qilmaydi.Milliy o‘zlikni anglash uchun ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash, uning imkoniyatlari va afzalliklaridan samarali foydalanish, ma'naviy-ma’rifiy sohadagi muammolarni hal eta borish talab qilinadi.

Milliy o‘zlikni anglash, ma'naviy kamolot va milliy tiklanish va milliy yuksalish tushunchalari tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Milliy o‘zlikni anglagan millat ma’naviy kamolotga erishib boradi, o‘z tarixini biladi, ajdodlarining ma’naviy merosini o‘rganib, ma'naviy boyliklar yaratib uluksiz yuksalish imkoniyatiga ega bo‘ladi.Milliy o‘zlikni anglash o‘z milliy-hududiy birligida

istiqomat qiluvchi millatdoshlari taqdiri, ularning o‘mishi va kelajagiga, yurtining ravnaqiga mas'uliyatni chuqur his etish bilan bir qatorda,boshqa mamlakatlarda yashovchi millatdoshlarining ham taqdirlariga befarq bo‘lmaslik kabi jihatlarda o‘z ifodasini topadi.

Milliy o‘zlikni anglash xalqning rivojlanish yo‘nalishini uning xalqaro miqyosda o‘zaro hamkorlik va birdamligi hamda umumiy fuqarolik mentalitetining shakllanishida O‘zbekiston jamiyatini yangi sifatiy bosqichdagi hamjihatlikka yo‘naltiradi.Ushbu maqsadni tub millat manfaati bilan bir qatorda jamiyatdagi barcha guruhlar manfaatlarini ham hisobga olgan holda izchillik bilan amalga oshirib borish milliy taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omildir.Bu omil vatanparvarlikning ma’naviy asoslaridan biri hisoblanadi.Vatanparvarlik his-tuyg‘ulari doimo tinchlik, birdamlik, hamkorlik va bunyodkorlik faoliyati mazmunida ifodalanishi maqsadga muvofiq.

Taklif va xulosa sifatida quyidagi fikrlarni keltirmoqchimiz:

–ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy-axloqiy sifatlarni singdirish orqali o‘zligini anglashga yordam beradigan differentsial pedagogik-psixologik dasturlarni yaratish;

–darslik, o‘quv qo‘llanmalarda milliy-axloqiy sifatlar, qadriyatlar, ajdodlarimiz merosini aks ettiruvchi manbalardan unumli foydalanish;

–ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev nutq, ma'ruza va asrlarida ta’lim-tarbiya, ilm-fan va ma’rifatga oid g‘oya va qarashlari hamda Taraqqiyot strategiyasidagi tegishli ustuvor yo‘nalishlarda beligilangan vazifalardan kelib chiqib bugungi kun talablari darajasiga ko‘tarish, yoshlar dunyoqarashiga ta’sir qiluvchi turli madaniy, siyosiy, ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish;

– pedagog kadrlarni ma’naviy-axloqiy bilimlarini chuqurlashtirish, o‘z fanining sirlarini yoshlarga yetkazishda milliy g‘ururni shakllantiruvchi tarixiy manbalardan foydalanish;

– yoshlar bilan turli sohaning yetakchi, namunali, ya’ni zamonamiz qahramonlari bilan davra suhbatlari va uchrashuvlar o‘tkazish;

– ularda ma’naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirish uchun yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olish;

– yosh davrlarga mos tarbiya vositalari va metodlari, psixologik ta'sir o‘tkazuvchi usullarni tanlay bilish;

– yoshlarda milliy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirishda muborak qadamjolarni ziyorat qilish, tarixiy maskanlarga sayohat uyushtirish, xalq og‘zaki ijodi bilan yaqindan tanishtirish;

– yoshlarda milliy ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishda oila, maktab, mahalla hamkorligini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 1.Mirziyoyev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.T.: “O‘zbekiston”, 2017. B.-29.

2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – T.: O‘zbekiston, 2003. B.-34.
3. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. B.-704.
4. 4..Qo‘chqorov V. “O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotining demokratiyalashishi jarayonida milliy o‘zlikni anglash muammosi” siyosiy-falsafiy tahlil Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2009. 12-b.
5. 5.Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. B.-408-409.
6. 6.Багдасарова А.Б. Механизм перерастания национального сознания в националистическое. // Журнал «Этнические проблемы современности». Вып. 4. – Ставропол: издателство СГУ, 1996. –С. 79.
7. Никишов Г. Русская музыка как зеркало русского самосознания. // «Русское самосознание»: философскоисторический журнал. СПб., 1998, № 4.

“TEMURBEKLAR MAKTABI” HARBIY-AKADEMIK LITSEYIDA AMIR TEMURNING “TEMUR TUZUKLARI” ASARNING O‘QUVCHILARGA SINGDIRISHDA TARBIYA FANI VA MA‘NAVIY-MA‘RIFIY TADBIRLARNI O‘RNI

Shakirova Nafisa Abrarovna
Toshkent “Temurbeklar maktabi”
harbiy akademik litseyi
Davlat va huquq asoslari fani katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyida Tarbiya fanining o‘qitilishida Amir Temurning “Temur tuzuklari” asaridan foydalnish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temur tuzuklari**,** vatanparvarlik, sipoh, askarlar, vazirlar, lashkarlar, navkar, uzuk, o‘git,yoshlar, harbiy vatanparvarlik.

“Temurbeklar maktabi” yoshlar ham, ota-onalar ham havas qiladigan maskan bo‘lishi kerak. Buning uchun ularning mavqeyi, saviyasi, bilim berish darajasi yuqori bo‘lishi zarur.”

Shavkat Mirziyoyev[101]

“Temurbeklar maktablari” harbiy-akademik litseylari oldidagi eng muhim vazifa o‘quvchilarda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish, xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk

[101] Temur tuzuklari.O‘quv qo‘lanma. Toshkent: “Kolorpak”,2021- B.:3

ajdodlarimizning, eng avvalo, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo‘lida o‘zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalashdan iborat.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartiga muvofiq “Temurbeklar maktablari” akademik litseylarida o‘qitiladigan “Tarbiya” fani o‘quv dasturi ma’naviy-axloqiy sohada zarur bo‘ladigan: odob-axloq, irodaviylik, komil inson, mehr-oqibatlilik, vatanparvar, Vatan himoyachisi, harbiy intizom, burch, sadoqat, mas`uliyat, ma’rifat, ma’naviyat, mafkura, milliy g‘oya, innovatsion fikrlash kabi tayanch tushunchalarini o‘z ichiga olgan mavzularni o‘z ichiga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-sonli qarori va unga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi”, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi PQ-140-sonli qarori bilan amaliyotgan kiritilgan “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”, Qurolli Kuchlar zaxirasini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan harbiy-akademik litseylar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilarini ta’lim va tarbiya jarayonida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalish asos qilib olingan.“Temurbeklar maktabi” uchun bizning fikrimizcha, “Tarbiya” fani o‘quv dasturi va mavzulari “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2020-yil 14-avgustdagi № 3-sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv rejalarga yondashilgan holda harbiy-akademik litsey o‘quvchilarining kundalik turmush hamda kelgusidagi kasbiy yo‘nalishidan kelib chiqqan holda harbiy akademik litsey uchun alohida tuzilishi lozim. Sababi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli qaroriga muvofiq 10 sinf uchun 30 ta mavzu va 11 sinf uchun 30 ta mavzuni o‘z ichiga qamrab olgan va umumiy 68 soat fan uchun berilgan.Shuningdek darsliklarda berilgan mavzular umumiy jihatdan maktab o‘quvchilari uchun tuzilgan.Ammo “Temurbeklar maktablari” o‘quvchisi bo‘lg‘usi

ofitser – Vatan himoyachisi bo‘lib shakllanishiga umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida kamolotga etgan shaxs bo‘lib shakllanishi, o‘zgalarga vatanparvar shaxsning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qilishi lozim. Bu esa o‘z navbatida harbiy-akademik litsey o‘quvchilari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida fan sifatida kiritilgan “Tarbiya” fani yo‘nalishidan farq qilgan holda harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini yuksak madaniyat, odob-axloq xislatlariga ega bo‘lgan komil harbiy xizmatchi sifatida shakllantirishga yo‘naltiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan biz “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilariga “Tarbiya” fanini o‘qitishdan maqsad - o‘quvchilarda o‘zbek xalqining boy tarixiy tajribasi, an’analari asosida axloq normalarini, ularni insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, xulq-atvor, odoblari, jamiyatga bo‘lgan xatti-harakatlaridagi axloqiy munosabatlar haqidagi bilimlarni berish orqali ma’naviy dunyosini boyitish, ommaviy madaniyat ko‘rinishlariga nisbatan mafkuraviy, axloqiy immunitetni kuchaytirish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishimiz lozim. Shuningdek “Tarbiya” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida o‘quvchi:

a) ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi bo‘yicha:

- burch hamda mas’uliyat hissini anglaydi va ularga rioya qiladi;
- milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni, milliy o‘zlikni anglaydi va unga munosib bo‘lishga harakat qiladi;
- o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladi va o‘zgalar tanqidini to‘g‘ri qabul qiladi;
- shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantiradi;
- nizoli vaziyatlarda o‘zini o‘zi idora qila oladi;
- ma’naviy-axloqiy fazilatlarni targ‘ib qila oladi;
- harbiy intizom, kompetentlik, burchga mas`uliyat kabi xislatlari bilan o‘zgalarga namuna bo‘la oladi.

b) harbiy kompetensiyasi bo‘yicha mintaqa va jahondagi harbiy-siyosiy vaziyatni tahlil qiladi, to‘g‘ri baho beradi va munosabat bildiradi;

- tinchlik va osoyishtalikning qadriga etadi va ta’minlanishiga hissa qo‘sha oladi;
- umumta’lim maktablari o‘quvchilarini yuksak ma’naviyatli, axloqiy sifatlarga ega vatanparvar qilib tarbiyalashga hissa qo‘shadi.

Bizning fikrimizcha, “Temurbeklar maktabi o‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda va ta’lim berishda Tarbiya fani yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi mavzular asosida dars jarayonini tashkil etsak maqsadga muvofiq bo`lar edi. Shuningdek mavzular doirasiga Amir Temur va uning Temur tuzuklari asarini kiritsak maqsadga muvofiq bo`lardi.

1.5. “Tarbiya” fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi

“Tarbiya” fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi

	Mavzu	Soatlar			
		Jami	Nazariy mashg‘ulot	Seminar mashg‘ulot	Mustaqil ta’lim
1-bosqich					
1	“Temurbeklar maktabi” o‘quvchisining odob-axloq qoidalari	2	2		
2	Vatan taraqqiyoti o‘zini anglashdan boshlanadi	2	2		
3	Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari	4	2		2
4	Jaloliddin Manguberdi jasorati – Vatan himoyachisi ma’naviyatini shakllanishidagi asosiy mezon	4	2		2
5	Amir Temur va temuriylar davri ma’naviy–axloqiy qarashlari	4	2		2
6	“Temur tuzuklari”da insonga xos fazilatlarning yoritilishi	2		2	
7	Harbiy xizmatchining odob-axloq qoidalari	4	2		2
8	Vatanni himoya qilish eng oliy qadriyat	2	2		
9	Abdulla Avloniyning “Turki guliston yoxud axloq” asarida tarbiya masalasi	2	2		
10	Oila–tarbiya o‘chog‘i	4	2		2
11	Ota–ona va farzandning oiladagi burchi	3		2	1
12	Islom dinida odob-axloq masalalarining yoritilishi	3	2		1
13	Tashqi va ichki ma’naviy tahdidlarning mazmun mohiyati	2	2		
14	Ma’naviy axloqiy qarashlarni shakllantirishda san’at va madaniyatning o‘rni	2	2		
15	Globallashuv jarayonining yoshlar tarbiyasiga ta’siri	2	2		
16	Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish zaruriyati	3	2		1
17	Yangi O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy sifatlari	2	2		
18	Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi – barkamol yosh avlodni tarbiyalash dasturi	2	2		
	Jami	49	32	4	13

Agar biz mavzularni tahlil qiladigan bo‘lsak mavzulamizning ko‘p qismida Amir Temur tuzuklaridan foydalanishimiz mumkin:

1-mavzu: “Temurbeklar maktabi” o‘quvchisining odob-axloq qoidalari

O‘zbekiston Respublikasidagi harbiy-akademik litseylarga buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur nomini berilishining sabab va mohiyati. “Temurbeklar maktablari”ning asosiy vazifalari. “Temurbeklar maktabi” Nizomida o‘quvchilarga qo‘yiladigan odod-axloq talablari. Mazkur talablarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlari talablariga hamohangligi.

2-mavzu: Vatan taraqqiyoti o‘zini anglashdan boshlanadi

Vatan tushunchasi mazmun mohiyati. Vatanparvarlik tushunchasi. Vatanparvar shaxsga xos fazilatlar. “Vatan ostonadan boshlanadi” naqlning mazmun mohiyati. “O‘zlikni anglash”, “milliy o‘zlikni anglash” va nihoyat “umumbashariy o‘zlikni anglash” tushunchalarining vatanparvarlik tushunchasi bilan bog‘liqligini yoritishda Amir Temur – o‘zligimizni anglash, milliy an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasidagi ulug‘vor ishlarda xalqimizga ma’naviy kuch bag‘ishlab kelayotgan ulug‘ siymolardan[102] bir ekanligini o‘quvchilarga yetkazish orqali o‘zlikni anglash aslida insonning o‘zidan boshlanishini tushuntirishimiz mumkin.

3-mavzu: Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari

Amir Temurning tuzuklaridan biri: “saidlar, ulamo, mashoyix, oqil-u donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e’tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini o‘rniga qo‘ydim. Shijoatli kishilarni do‘st tutardim, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi”[103] ushbu so‘zlari orqali Buyuk allomalarning axloqiy qarashlari tahlil qilinadi.

4-mavzu: Jaloliddin Manguberdi jasorati –vatan himoyachisi ma’naviyatini shakllanishidagi asosiy mezon

Jaloliddin Manguberdining vatanparvarligi va Vatan himoyachisi ma’naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar Jaloliddin Manguberdi – qudratli sarkarda. Jaloliddinning vatanparvarlik, yurt uchun fidoiylik xislatlari. Harbiylar ma’naviyati mezonlari va fazilatlari. Amir Temurning tuzuklaridan biri: “amirlar, sipoh-solorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo‘lib, ularning mardligu mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim”[104] ushbu so‘zlari orqali Jaloliddin Manguberdining vatanparvarligi yoritiladi.

5-mavzu: Amir Temur va temuriylar davrida ma’naviy axloqiy qarashlari

Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi. Amir Temurga xos insoniylik, davlat boshqaruvida adolat kabi axloqiy mezonlar. Buyuk Sohibqironning “Adolat-davlatning asosi va hukmdorning shioridir”[105] kabi o‘gitlari, shuningdek, “Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim.

---

[102] Temur tuzuklari O‘quv qo‘lanma Toshkent: “Kolorpak”,2021- B.:110

[103] Temur tuzuklari .Kitobni nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Rahimov.J.Toshkent. “SHODLIK NASHRIYOTI, 2018-B.:68

[104] Temur tuzuklari .Kitobni nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Rahimov.J.Toshkent. “SHODLIK NASHRIYOTI, 2018-B.:67

[105] Temur tuzuklari O‘quv qo‘lanma Toshkent: “Kolorpak”,2021- B.:58

Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim”[106]tuzuklari asosida o‘quvchilarga tuzuklarida sipohlar, sarkardalar ma’naviy qiyofasiga qo‘yiladigan axloqiy talablar keng tushuntirladi. Amir Temurning harbiy harakatlarida 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalari talablarini namoyon bo‘lishi .

6-mavzu: “Temur tuzuklari”da insonga xos fazilatlarni yoritilishi

“Temur tuzuklari” Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma’lumot beruvchi tarixiy asar. Asarda Amir Temurning farzandlariga atalgan o‘ziga xos vasiyat, pandnasihatlari va o‘gitlari. Amir Temur tuzuklarida sarkardalar, vazirlarni tanlash va ularga xos axloqiy normalarga bo‘lgan talablarni yoritilishi. “Kuch adolatda” shiori Amir Temurning insoniylik xislatlari timsoli.

7-mavzu: Harbiy xizmatchining odob axloq-qoidalari

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat nizomi, Intizom nizomlarida harbiy xizmatchining axloqiy normalarini belgilab berilishi.

Harbiy xizmatchi odob-axloq qoidalarini tushuntirishda Amir Temurning “Qilichim o‘tkir bo‘lsa-da o‘ylab qinidan chiqardim,shirinso‘z aytib, g‘animning imon topmog‘iga yo‘l ochdim”[107] ibratli so‘zlari va askarlar, vazirlar, lashkarlar haqidagi tuzuklaridan va katta nog‘ora va bayroq berish[108], navkarning begiga va bekning navkariga muomala qilish tuzuki[109]dan mavzuni yoritihda foydlanishimiz maqsadga muvofiqdir.

8-mavzu: Vatanni himoya qilish eng oliy qadriyatdir

Vatan himoyasi o‘zbek xalqi uchun muqaddas burch, oliy qadriyat ekanligini biz Amir Temurning tuzuklaridan biri: “do‘st-u dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo‘lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar. O‘zlarini ma’raka-maydonga halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar”[110] asosida darsni tashkil etish lozim.

Bizning fikrmizcha, “Temurbeklar maktabi” har bir o‘quvchisi Amir Temur tuzuklarni nafaqat yod olishi balki anglagan holda yurakdan bilishi lozim.

O‘z tajribamdan kelib chiqib, aytishim mumkinki, o‘quvchilarning Amir Temur va Temuriylar davri bo‘yicha bilimlarini oshirish, Amir Temurning “Temur tuzuklar” asari haqida bilim va ko`nikmalarini oshirish maqsadida Temur tuzuklari bilimdoni bilimdonlar bahsini tashkil etish lozim.

Bunda o‘quvchilarga, bir oy avval ushbu asarni mustaqil o‘qib o‘rganish vazifasi beriladi.

---

[106] Temur tuzuklari .Kitobni nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Rahimov.J.Toshkent. “SHODLIK NASHRIYOTI, 2018-B.:67

[107] Temur tuzuklari O‘quv qo‘lanma Toshkent: “Kolorpak”,2021- B.:47

[108] Temur tuzuklari .Kitobni nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Rahimov.J.Toshkent. “SHODLIK NASHRIYOTI, 2018-B.:106-109

[109] Temur tuzuklari .Kitobni nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Rahimov.J.Toshkent. “SHODLIK NASHRIYOTI, 2018-B.:116

[110] Temur tuzuklari .Kitobni nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Rahimov.J.Toshkent. “SHODLIK NASHRIYOTI, 2018-B.:67

Bir oydan so‘ng esa guruhlar o‘rtasida “Temur tuzuklari bilimdoni” intellektual o‘yini tashkil etiladi.

Kirish qismi: ViktorinadaToshkent “Temurbeklar makabi” HAL ijtimoiy – gumanitar fanlar va aniq fanlar yo‘nalishi o‘quvchilari 101,102,103,104-guruh va 105-guruh o‘quvchilari ishtirok etishadi.

Har bir ishtirokchi guruh o‘zlarini tanishtirishdi:

1. guruh nomi
2. guruh shiori.

Asosiy qism: Vikorina savollari “Inelektual o‘yin” uslubida beriladi. Tadbir boshida o‘quvchlarga vikotorina shartlari tushuntiriladi. Viktorinada Jami 60 ta savol o‘ynaladi. Savol-javoblar 2-bosqicha amalga oshiriladi.

I-bosqich. “Amir Temur va Temuriylar!”deb nomlanib, unda 30 ta savol 1 dan 30 gacha bo‘lgan raqamlar ichiga berkitilgan**.**

II-bosqich. “Temur tuzuklari”deb nomlanib unda ham 30 ta savol 1 dan 30 gacha bo`lgan raqamlar ichiga berkitilgan.

Savollari darajasi bir hil bo`lib har bir to‘g‘ri javobga 5 balldan baholanadi.

Har bir guruh tanlagan raqami darajasida savol tushadi va shu raqam guruhga agar to‘g‘ri javob bersa 5 ball sifatida baholanadi. Shuningdek, har bir savol uchun javob berish uchun o‘ylab olishga 40 soniya vaqt beriladi.

Tadbir qiziqarli bo‘lishi uchun boshqa mavzudan savollar berildi va Auksion savolar ham beriladi

Yakuniy qism: Tadbir oxirida hakamlar hay’ati tomonidan guruhlarning natijalari hisoblanadi va guruhlar I, II, III –o‘rinlar bilan taqdirlanadilar.

Temur tuzuklari asari o‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda va ta’lim berishda o‘rni judda kattadir. Shu sababdan ham tarbiya darslarini tashkil etishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etishda ushbu asardan foydalanishimiz maqadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Temur tuzuklari O‘quv qo‘lanma Toshkent: “Kolorpak”,2021- B.:47
2. Temur tuzuklari .Kitobni nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Rahimov.J.Toshkent. “Shodlik” Nashriyoti, 2018-B.:106-109

TALABA O‘QUVCHI-YOSHLARDA KREATIVLIK SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Sattorova Dilshoda Djavliyevna
TerDPI Pedagogika va inklyuziv ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
dilshodasattorova163@gmail.com

Annotasiya. Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Z.M.Bobur ilmiy va ma’naviy merosining o‘rni yoritilgan bo‘lib, vatanparvarlik go‘yasini “Boburnoma”dagi talqini keltirilgan.

Kalit so‘zlar. vatanparvarlik,vatan tuyg‘usi,komil inson, insonparvarlik, erkka intilish, ozodlik

Bugungi kunda jahonda ta’limga kreativ yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ sifatlarini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini

yaratish, o‘quvchilarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta’limning ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-uslubiy faoliyat mazmunini takomillashtirish, o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantiradi. Ta’limni modernizatsiyalashdan maqsad ta’limning taraqqiyotini ta’minlash, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari, har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim. Ana shu nuqtai-nazardan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

Har bir pedagog ta’lim jarayoni tashkilotchisi bo‘lib, mazmunli, qiziqarli, darsni sifatli tashkil etish pedagog faoliyatiga bog`liq hisoblanadi. Bo`lajak pedagoglar dars jarayoniga yangicha usul bilan yondashishi, kreativ g‘oyalarni yaratishi, yangi innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi, yangilikka intilishi va talabalarni dars jarayoniga qiziqtira olishi, yaratuvchanlikka o`rgatishi, yangi bilimlar bilan boyitishi, bilim olishga qiziqishini yanada oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kreativ shaxsni shakllantirish va kreativ ta’lim o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjud. Bu insonning kasbiy va ijodiy faoliyatining erishilgan darajalariga bog‘liqligini anglatadi.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Olimning fikriga “Agar o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”,- deb ta’kidlaydi.

Ta’lim tizimi shaxsiy rivojlanish uchun muhim bo‘lgan hayoliy tasavvurni emas, balki kreativ tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan. Shu sababli, ko‘pchilikning hayoliy tasavvurga moyilligi ko‘pincha o‘quv jarayonida so‘nib qoladi ammo bu ko‘pchilikka zarar yetkazmaydi, o‘zini kreativ muhitda, ilmiy, muhandislik yoki ixtirochilikda topadiganlar ko‘pincha o‘smirlik yoshida o‘zlarini tuzatishga majbur

bo‘lishadi. Bunda kreativ tasavvur va hayoliy tasavvurni rivojlantirish usuli katta yordam berishi mumkin. Hayoliy tasavvurni rivojlantirmoqchi bo‘lganlar ko‘pincha o‘smirlik yoshida o‘zlarini tuzatishga majbur bo‘lishadi. Bunda kreativ tasavvur va fantaziyani rivojlantirish usuli katta yordam berishi mumkin.

Kreativ tasavvuringizni rivojlantirish uchun bir qator mashqlar taklif etiladi. Ushbu mashqlarni mustaqil ravishda bajarish mumkin, ammo mashqlarning samarali ta’siri juftlikda yoki kichik guruhda bajarilganda erishiladi. Mashqlar, turli xil dam olish va musobaqa mashg‘ulotlarini o‘tkazish, test sinovlari va boshqalar uchun yaxshi didaktik vosita hisoblanadi.

Kreativ fikrlash ko‘nikmasini mashq qildirish natijasida talaba-o‘quvchilar faqatgina o‘rnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma’noga boy aloqalarni o‘rnatish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo‘ladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik harakterga ega bo‘ladi. Inson miyasi doimo to‘g‘ri ishlashga odatlangan, ya’ni, miya uchun faqat birgina to‘g‘ri javob mavjud bo‘ladi. Vaholanki, bu kreativlik emas.

Kreativlik – talaba-o‘quvchilarning o‘z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to‘g‘ri bo‘lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun talaba-o‘quvchilar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim. Bo‘lajak pedagog kreativlik rag‘batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o‘qituvchi va talaba-o‘quvchilar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo‘rqish, haddan tashqari baholarga e’tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamuammoli savolitilishdan qo‘rqish hissi mavjud talaba-o‘quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlik yuqumli xususiyatiga egadir; kreativ bo‘lish uchun kishi ko‘proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkin bo‘lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talaba-o‘quvchilarga ham taalluqli bo‘lib, kreativlik ustida ishlash talaba-o‘quvchilarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, talaba-o‘quvchilarni ruhlantirish va kreativ bo‘lishga undash o‘qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog‘liq. Kreativlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari talaba-o‘quvchilarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Talaba-o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchi alohida o‘rin tutadi. Bu jarayonda “o‘qituvchining roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat.

Bo‘lajak pedagoglar dars davomida o‘z kreativ g‘oya va fikrlarini turli yo‘llar bilan ifoda etishlari mumkin.

Talaba-o‘quvchilar miyada yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o‘rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak.

Xulosa qilib aytsak, o‘qituvchi talaba-o‘quvchilardagi kreativlikni noodatiy g‘oyalarni o‘rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag‘batlantirish orqali qo‘llab quvvatlaydi. O‘qituvchining talaba-o‘quvchilar berayotgan kreativ g‘oyalariga nisbatan to‘g‘ri munosabati ularning mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o‘qituvchi-talaba-o‘quvchi munosabatining muhim qismi bo‘lib, talaba-o‘quvchilar muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” T 2017 y.
2. Sh.M. Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlartini birgalikda barpo etamiz” T.: 2016 y
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Muslimov va boshq. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. T.: 2015
5. Musurmonova O. “Pedagogik texnologiyalar- ta’lim samaradorligi omili” T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020-y
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Q.:. Nasaf, 2000.

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI INNOVATSION O‘QITISH USULLARI

Jumanazarov Zohidjon Eldor o‘g‘li
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
https://orcid.org/0009-0009-0193-8539
e-mail: zohidjonjumanazarov7@gmail.com
Tel.:+(998)-94-043-2285

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda innovatsion o‘qitish usullarining ahamiyati yoritilib, ularning o‘quvchilarning faolligini oshirish texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiya qilinishining ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar*:* innovatsiyalar madaniyati, ta’lim, innovatsion usullar, o‘qitish strategiyalari, ishtirokni oshirish, fikrlash ko‘nikmalari, loyihaga asoslangan ta’lim.

Kirish

Bugungi ta’lim tizimida innovatsion o‘qitish usullari o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga jalb qilinishini oshirish hamda ularning akademik yutuqlarini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar doimiy o‘zgarib borayotgan ta’lim muhitiga moslashish jarayonida interaktiv o‘qitish strategiyalarini tatbiq etish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. S. Aruna va Kuchibhotla Swarna tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning diqqatini jamlashiga va dars jarayonida faol ishtirok etishiga sezilarli darajada ta’sir

ko‘rsatadi[111]. Shuningdek, guruh muhokamalari va onlayn resurslardan foydalanish o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi hamda bilimni yanada mustahkamroq egallashga yordam beradi. Elektron o‘qitish vositalari va interaktiv o‘qitish usullari nafaqat masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi, balki muloqot, tanqidiy fikrlash va zamonaviy muhitda moslashish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Interaktiv o‘qitish metodlarini tatbiq etish, ilg‘or texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘shish va mustaqil ta’limni rag‘batlantirish orqali ta’lim muassasalari o‘qitish va o‘rganish jarayonida doimiy rivojlanish va innovatsiyalar madaniyatini shakllantirishlari mumkin. Ilmiy tadqiqotlarga asoslangan strategiyalar va amaliyot orqali ta’lim sohasi raqamli davr talablariga moslashib boradi hamda o‘quvchilarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishishga tayyorlaydi. Zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlardan, jumladan, refleksiya, muammolarni hal qilish kabi strategiyalardan foydalanish o‘qituvchilarga har bir o‘quvchining shaxsiy ta’lim uslubi va ehtiyojlariga mos keluvchi jonli va interaktiv ta’lim muhiti yaratishga imkon beradi. Kelajakdagi o‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim muhitida duch keladigan qiyinchiliklarga tayyorlash uchun interaktiv o‘qitish usullari orqali mustaqil o‘qish va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega[112].

O‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga interaktiv mashg‘ulotlar va integratsiyalashgan pedagogik strategiyalarni kiritish universitet talabalarining ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Mustaqil o‘rganishga e’tibor qaratish esa o‘qituvchilarga doimiy ravishda o‘z pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish hamda o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Interaktiv o‘qitish strategiyalarini o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga va universitet o‘quv rejalariga integratsiya qilish o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatida samarali ishtirok etish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini yanada samarali qilish bilan birga, o‘qituvchilarga ham zamonaviy ta’lim muhitining o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi[113]. Mustaqil o‘rganishga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalariga e’tibor qaratish orqali o‘qituvchilar doimiy ravishda o‘z pedagogik mahoratini takomillashtirishlari va o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirishlari mumkin. Interaktiv o‘qitish usullari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish orqali ta’lim muassasalari doimiy takomillashuv va innovatsiyalar madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan hamkorlikka yo‘naltirilgan o‘qitish strategiyalari va jamoaviy loyihalar o‘quvchilarning turli fanlarni, jumladan strategik qaror qabul qilish kabi muhim yo‘nalishlarni chuqurroq anglashlari va

[111] S. Aruna, & Kuchibhotla Swarna. (2022). Cognitive Perception for Scholastic Purposes using Innovative Teaching Strategies. In Scalable Computing: Practice and Experience.

[112] S. Kenesbekova, Aigul Mukhametzhanova, Marzhangul Kussainova, Sayan Zhanbyrbayeva, & Laura Alipbayeva. (2024). Development of future elementary school teachers’ professional self-education readiness through interactive teaching methods. In Journal of Education and e-Learning Research.

[113] S. Aruna, & Kuchibhotla Swarna. (2022). Cognitive Perception for Scholastic Purposes using Innovative Teaching Strategies. In Scalable Computing: Practice and Experience.

o‘zlashtirishlari uchun samarali vosita hisoblanadi[114]. Ushbu innovatsion o‘qitish strategiyalari o‘quvchilarning nafaqat akademik ko‘rsatkichlarini oshirish, balki ularning intizomi, halolligi va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Rolli o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar kabi innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va bilimni eslab qolish qobiliyatlarini kuchaytirishlari mumkin. Innovatsion o‘qitish metodologiyalarining keng joriy etilishi, ayniqsa, raqamli asrda o‘quvchilarning muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tabiiy tilni qayta ishlash, tasvirlarni tasniflash va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasida qo‘llanilishi o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirish va natijadorlikni oshirish imkoniyatlarini yaratadi[115]. Onlayn ta’limning ommalashib borishi o‘qituvchilarni ushbu ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishga undaydi. Ta’lim jarayonida ijodkorlik, faollik va uzluksiz takomillashuv muhitini shakllantirishda yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion usullardan foydalanish, ilg‘or texnologiyalarni integratsiya qilish va mustaqil o‘qitishni targ‘ib qilish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni doimiy o‘rganishga undashlari va ularni hozirgi tez o‘zgarayotgan jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlashlari mumkin. Nazariy tahlil va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligi orqali ta’lim sohasi raqamli asr talablariga mos ravishda rivojlanishda davom etadi va zamonaviy muammolarni samarali hal qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Bugungi ta’lim muhitida texnologiyalarni sinflarga integratsiya qilish istisno emas, balki normaga aylangan. Boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quvchilari ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida texnologiyadan foydalanishga odatlanganlar[116]. Ushbu o‘zgarishlar mehnat salomatligi fanlari ta’limidagi o‘quv standartlarini ishlab chiqishga olib keldi, bu esa o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning ishtirokini oshirish uchun texnologiyalardan kengroq foydalanishga e’tibor qaratadi. Mislan Sihite va hamkasblarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, samarali rahbarlik strategiyalari ijobiy ta’lim muhitini yaratish, o‘qituvchilarning qoniqishini oshirish va natijada o‘quvchilarning akademik natijalarini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega[117].

Sinf muhitiga texnologiyani kiritishning afzalliklari shunchaki o‘qitish jarayonini osonlashtirish bilangina cheklanmaydi. Bu, ayniqsa, o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning umumiy akademik yutuqlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatish uchun muhimdir. Bugungi kunda pedagoglar

[114] Eni Susanti. (2023). Application of Cooperative and Collaborative Learning Methods in Learning Strategic Decision Making Courses. In JETISH: Journal of Education Technology Information Social Sciences and Health.

[115] S. Aruna, & Kuchibhotla Swarna. (2022). Cognitive Perception for Scholastic Purposes using Innovative Teaching Strategies. In Scalable Computing: Practice and Experience.

[116] Lea S. Eiland, & Timothy J. Todd. (2019). Considerations When Incorporating Technology Into Classroom and Experiential Teaching. In The journal of pediatric pharmacology and therapeutics: JPPT: the official journal of PPAG: Vol. 24 4 (pp. 270–275).

[117] Mislan Sihite, Asri Widiatsih, Loso Judijanto, & Noor Fazariah Handayani. (2023). A Bibliometric Analysis of the Relationship Between Leadership Styles and Teacher Satisfaction in Education Management Research. In The Eastasouth Journal of Learning and Educations.

nafaqat innovatsion o‘qitish metodlarini qo‘llash, balki samarali rahbarlik ko‘nikmalarini shakllantirishga ham e’tibor qaratishlari lozim. Bu esa ularning o‘quvchilar uchun qo‘llab-quvvatlovchi va samarali o‘quv muhitini yaratishlariga yordam beradi. Texnologiyani sinf va tajribaviy ta’lim muhitlariga integratsiya qilish ta’lim tajribasini boyitish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu jarayonda ba’zi muammolar ham mavjud bo‘lib, jumladan, texnologik vositalarga kirish imkoniyatlari, vaqtni samarali boshqarish va xarajatlar bilan bog‘liq masalalar o‘qituvchilar uchun muammoga aylanishi mumkin. Shunga qaramay, bu muammolarni oldindan rejalashtirish va ehtimoliy qiyinchiliklarga qarshi strategiyalar ishlab chiqish orqali bartaraf etish mumkin. Bu esa ta’limda texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayoniga gamifikatsiya elementlarini joriy etish o‘quvchilarning ishtiroki, motivatsiyasi va umumiy o‘quv natijalarini yaxshilashga yordam berishi aniqlangan. Kengaytirilgan reallik va gamifikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga qo‘shish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning turli ehtiyoj va xohishlariga mos keladigan dinamik va interaktiv ta’lim muhitini yaratishlari mumkin[118]. Gamifikatsiya strategiyalari o‘quvchilarning faol ishtirok etishlarini, bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va o‘qishdan zavq olishlarini ta’minlab, ularning akademik natijalarini yaxshilashga va ijobiy xulq-atvor hamda munosabat shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ta’lim dasturiga loyihaga asoslangan ta’lim (LAT) metodikasini integratsiya qilish gamifikatsiyaning foydalarini yanada kuchaytirishi mumkin. Bu usul o‘quvchilarga amaliy, jamoaviy o‘rganish tajribalarini taqdim etib, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va fanni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Loyihaga asoslangan ta’lim nafaqat tabiiy fanlar bo‘yicha ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarni STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etishga rag‘batlantiradi.

Xulosa

Ta’lim dasturiga mos keladigan loyihalarni to‘g‘ri tuzish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishlari mumkin. Umuman olganda, gamifikatsiya va loyihaga asoslangan ta’limni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish an’anaviy o‘qitish usullariga innovatsion yondashuv olib kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S. Aruna, & Kuchibhotla Swarna. (2022). Cognitive Perception for Scholastic Purposes using Innovative Teaching Strategies. In Scalable Computing: Practice and Experience.
2. S. Kenesbekova, Aigul Mukhametzhanova, Marzhangul Kussainova, Sayan Zhanbyrbayeva, & Laura Alipbayeva. (2024). Development of future elementary

[118] G. Lampropoulos, E. Keramopoulos, Konstantinos Diamantaras, & Georgios Evangelidis. (2022). Augmented Reality and Gamification in Education: A Systematic Literature Review of Research, Applications, and Empirical Studies. In Applied Sciences.

school teachers' professional self-education readiness through interactive teaching methods. In Journal of Education and e-Learning Research.
3. S. Aruna, & Kuchibhotla Swarna. (2022). Cognitive Perception for Scholastic Purposes using Innovative Teaching Strategies. In Scalable Computing: Practice and Experience.
4. Eni Susanti. (2023). Application of Cooperative and Collaborative Learning Methods in Learning Strategic Decision Making Courses. In JETISH: Journal of Education Technology Information Social Sciences and Health.
5. S. Aruna, & Kuchibhotla Swarna. (2022). Cognitive Perception for Scholastic Purposes using Innovative Teaching Strategies. In Scalable Computing: Practice and Experience.
6. Lea S. Eiland, & Timothy J. Todd. (2019). Considerations When Incorporating Technology Into Classroom and Experiential Teaching. In The journal of pediatric pharmacology and therapeutics: JPPT: the official journal of PPAG: Vol. 24 4 (pp. 270–275).

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI

Ismailova Gulsara Jalgasbayevna
Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litceyi psixologiya fani óqituvchisi
Telefon: 97-220-39-39
Jangabayev Nurmuxammet Tolıbayevich
I.Yusupov nomidagi ijod maktabi 7a-sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati va asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan. Vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodda milliy qadriyatlarga sadoqat, tarixiy merosga hurmat va fuqarolik burchini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada milliy an'analarni o'rgatish, tarixiy bilimlarni mustahkamlash, huquqiy ongni rivojlantirish, sport va ijodiy tadbirlar orqali Vatanga muhabbat uyg'otish kabi usullar tavsiflangan. Ushbu tadbirlar o'quvchilarning Vatan oldidagi mas'uliyatini oshirish va jamiyatga foydali fuqaro bo'lib yetishishiga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, tarixiy meros, huquqiy ong, fuqarolik burchi, yosh avlod, Vatanga muhabbat, ijodiy va sport tadbirlari.

Vatanparvarlik – bu insonning o'z Vataniga muhabbat qo'yishi, unga sadoqat bilan xizmat qilishga intilishi va milliy qadriyatlarini hurmat qilishidir. Vatanparvar inson yurtining ravnaqi uchun fidokorona mehnat qiladi, uning madaniyati, tarixi va mustaqilligini qadrlaydi, himoya qilishga tayyor bo'ladi. Vatanparvarlik nafaqat urush yoki harbiy xizmat bilan bog'liq tushuncha, balki har bir fuqaroning jamiyat

taraqqiyoti, ilm-fan, san’at va boshqa sohalardagi fidoyi faoliyatida ham namoyon bo‘ladi. Haqiqiy vatanparvar – o‘z yurtini sevadigan, uni obod qilishga hissa qo‘shadigan va kelajak avlodlarga munosib meros qoldirishni o‘z burchi deb biladigan insondir. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu yosh avlodning o‘z Vataniga, xalqiga, milliy qadriyatlariga hurmat va sadoqatini shakllantirish jarayonidir. Bu tarbiya ularning yurt ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishga, tarixiy merosni qadrlashga va milliy g‘ururni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari

1. Milliy qadriyatlarni o‘rgatish

O‘zbek xalqining boy madaniyati, urf-odatlari va an’analari bilan tanishtirish.

Buyuk ajdodlarimiz – Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur kabi shaxslarning merosi haqida bilim berish.

2. Tarixiy bilimlarni shakllantirish

Mustaqillik uchun kurashgan ajdodlarimiz, milliy qahramonlarimiz haqida ma’lumot berish.

O‘zbekiston tarixidagi muhim sanalarni nishonlash va ularga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazish.

3. Vatanga bo‘lgan sevgisini tarbiyalash

Ona tilini hurmat qilish, milliy musiqalar, folklor va adabiyot bilan tanishtirish.

O‘zbekistonning tabiati, madaniy yodgorliklari va tarixiy joylariga sayohatlar tashkil etish.

4. Huquqiy ong va fuqarolik burchini anglatish

O‘zbekiston Konstitutsiyasi, davlat ramzlari va qonunlarini o‘rgatish.

O‘quvchilarga o‘z huquq va majburiyatlarini tushuntirish.

5. Vatan himoyachilariga hurmat uyg‘otish

Harbiy vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish.

Harbiy qism va muassasalarga ekskursiyalar uyushtirish.

Harbiylar va faxriylar bilan uchrashuvlar o‘tkazish.

6. Ijodiy va sport tadbirlar orqali Vatanga muhabbat uyg‘otish

Vatan haqidagi insholar, she’rlar va rasmlar tanlovini tashkil qilish.

Sport musobaqalari, teatr sahnalashtirish va vatanparvarlik qo‘shiqlarini kuylash kabi tadbirlarni yo‘lga qo‘yish. Vatanparvar o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ustozlar quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratishlari lozim:

1. O‘qituvchining shaxsiy namuna bo‘lishi : O‘qituvchi o‘z Vatanini sevishi, milliy qadriyatlarni qadrlashi va bu fazilatlarni shogirdlariga yetkaza olishi kerak. Amaliy harakatlari bilan o‘quvchilarga Vatan uchun fidoyilik namunasini ko‘rsatishi muhim.

2. Tarixiy va milliy ongni shakllantirish: O‘qituvchi milliy tarixi, buyuk ajdodlari, mustaqillik yo‘li haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi lozim. Dars jarayonida tarixiy shaxslar hayoti, milliy qadriyatlar va urf-odatlar haqida ma’lumot berishi kerak.

3. Vatanparvarlik ruhidagi ta’lim va tarbiya usullarini qo‘llash. Darslarni milliy g‘oya va Vatan ravnaqi bilan bog‘lab tushuntirish.O‘quvchilarga o‘z fikrlarini bildirish va mustaqil fikrlash imkonini berish.

4. Huquqiy va fuqarolik ongini shakllantirish. Davlat ramzlari, Konstitutsiya va qonunlarni tushuntirish. O‘quvchilarga fuqarolik burchi va mas’uliyati haqida tushuncha berish.

5. Amaliy faoliyat va tashabbuskorlik.Vatanparvarlik mavzusidagi tadbirlar, musobaqalar va viktorinalarni tashkil etish. Tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, harbiy qism va muassasalarga tashriflar tashkil qilish.

6. Zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish. Innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning Vatan haqidagi bilim va tushunchalarini oshirish. Axborot texnologiyalaridan foydalanib, milliy tarix va madaniyatga oid interaktiv materiallarni taqdim etish.

7. Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik qilish. O‘quvchilar tarbiyasida oilaning o‘rni katta bo‘lgani uchun ota-onalar bilan doimiy muloqot qilish. Jamiyatdagi ilg‘or mutaxassislar, harbiylar va tarixchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish. Ustozlar vatanparvar o‘qituvchilarni yetishtirishda bu jihatlarga e’tibor qaratishsa, kelajak avlod Vatanga sodiq, bilimli va fidoyi bo‘lib shakllanadi. Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki: Vatanparvarlik tarbiyasi o‘quvchilarni fidoyi, mehnatsevar va vataniga sadoqatli inson qilib tarbiyalaydi. Buning uchun maktab, ota-onalar va jamiyat birgalikda harakat qilishi lozim. Tarbiya nafaqat darslarda, balki amaliy mashg‘ulotlar va hayotiy tajriba orqali ham shakllantirilishi muhim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyor, fidoyi insonlar etib tarbiyalash lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimini shakllantirish, ushbu faoliyatni uzluksiz va uzviy ravishda olib borish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, jumladan, vatanparvarlik g‘oyalari ruhida tarbiyalash muhimah amiyat kasb etadi.

Yoshlarimizni ana shunday ruhda tarbiyalash orqali biz mamlakatimiz ravnaqi va xavfsizligini ta’minlashga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid nutqlari va ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.
3. Navoiy A. “Mahbub ul-qulub” – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992.
4. Vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2021.
5. O‘zbekiston tarixi: darslik va qo‘llanmalar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2020.

6. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti nashriyoti, 2019.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URUR G‘OYALARI ASOSIDA O‘QITISHDA YANGICHA MAFKURAVIY YONDASHUV.

Almamatova Mavluda Rustam qizi
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Sayhun ilmiy axborotnomasi” jurnali tahririyat muharriri
e-mail: almamatovamavluda01@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlarini vatanparvarlik va milliy g‘urur g‘oyalari asosida o‘qitishda yangicha mafkuraviy yondashuvlar haqida so‘z boradi. Yosh avlod vatanparvarlik va milliy g‘urur g‘oyasi asosida tarbiyalansa yurtning kelajagi porloq bo‘lishi, har tomonlama taraqqiy etishi yoritilgan. Yoshlarga vatanparvarlik va milliy g‘urur g‘oyalarini singdirishda yangicha mafkuraviy yondashuvlardan foydalanishimiz zarur.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, milliy g‘urur, mafkura, millat, davlat, taraqqiyot;

Kirish. Vatan – tabarruk maskandir, ajdodlarimizdan bizlarga qolgan buyuk merosdir. Vatan – shu zaminda bo‘y cho‘zgan giyohdan tortib, uning daryolari va soylari, tog‘u toshlari, oddiy va kamtar, mehnatkash va fidoyi, mard va pahlavon odamlardan to eng kichik jonivorlargacha, barchamiz tug‘ilib, unib-o‘sgan makon bilan bog‘liq bo‘lgan narsalardir. Vatanimiz tuprog‘idagi oddiy chop‘ ham, oddiy tosh ham bizga muqaddas bo‘lib tuyuladi. Vatanga muhabbat onaga muhabbat kabi muqaddas tuyg‘udir.

Vatanga muhabbat inson qalbidagi eng toza va pokiza saqlanadigan eng nafis, eng ulug‘ bir tuyg‘udir. Ko‘pchilik insonlar olis o‘lkalarning g ‘aroyib mo‘jizalari qoshida hayratga to‘ladi, ammo hech kim, hech qachon o‘sha mo‘jizalarni deb Vatanidan voz kechgan emas. Olis-yaqindagi shaharlarni bir-biriga taqqoslagan inson, shubhasiz, avvalo ularning boy va ulkanligini nazarda tutadi.

“Vatan ostonadan boshlanadi” degan chuqur ma’noli ibora mavjud. Ibora orqali Vatanga bo‘lgan muhabbat oiladan shakllanishi bilib olamiz. Darhaqiqat, vatanparvarlik tushunchasining paydo bo‘lishi bolaning kindik qoni to‘kilgan yerdan boshlanadi. Shunday ekan, Vatanga bo‘lgan muhabbatni tarbiyalashni oiladan boshlashi lozim. Har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishda oilaning o‘rni beqiyos, chunki, inson, avvalo, oila bag‘rida unib-o‘sadi va shaxs sifatida shakllanadi. Buyuk jadidchi, mutafakkir Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila” asarida: “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi” deb yozgan.

Vatanparvarlik vatanga muhabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo‘lida hizmat qilishga tayyor turish demakdir. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy, ahloqiy his-

tuyg‘u sifatadi odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo‘ladi. Ijtimoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o‘z urug‘lariga, ona yerga, ona tilga, urf-odatlarga bog‘lik his bo‘lgan bo‘lsa, sinflar paydo bo‘lishi bilan vatanparvarlik g‘oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayot tobora ko‘proq sohalariga chuqurroq kirib bordi. Vaqtlar o‘tishi bilan bu tuyg‘u buyuk qudratga aylandi. Buyuk mutaffakir bobolarimiz “Biz tug‘ilgan yerimizdan uzoq ketsak, bizni tortib kelaturg‘on quvvat o‘z vatanimizning, ona tuproqning mehr-muhabbatidir” deb aytganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. 1. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy asoslar muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston tarixi, qadimiy madaniyati va milliy qahramonlarning jasorati yosh avlod uchun ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy asoslarni o‘rganish orqali yoshlar milliy o‘zlikni anglashni va Vatan ravnaqi uchun kurashish zaruratini tushunadilar.

2. G‘oyaviy asoslar yoshlarni mustahkam dunyoqarashga ega, mafkuraviy jihatdan sog‘lom shaxs sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi. Ushbu asosda milliy g‘oya va qadriyatlar, insonparvarlik, adolat, erkinlik kabi tushunchalarni yoshlarga singdirish orqali ularni jamiyatdagi turli mafkuraviy oqimlarga qarshi immunitetini kuchaytirish maqsad qilingan.

“Milliy g‘urur-shaxs, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissidir. Bu tuyg‘u o‘zini-o‘zi anglash shakllaridan biri bo‘lib, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy meros, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, qadr-qimmati, obro‘-etiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi”. Milliy g‘urur insonlarda quyidagi shakllarda o‘z ifodasini topadi:

- o‘z xalqi, millatining erishgan yutuqlari, qadriyatlari, milliy boyliklari, urf-odatlari, an’analaridan faxrlanish, uning hayotidagi o‘ziga xos xodisalarga befarq bo‘lmaslik;

- o‘z xalqi, millatining ravnaqi uchun fidoyilik ko‘rsata olish; -o‘z xalqi, millatining asrlar davomida yaratgan ma’naviy, madaniy, moddiy boyliklarini asrab-avaylash;

- xalqning milliy urf-odatlari, an’analari, qadriyatlarini e’zozlash va avaylab-asrash, ko‘paytirish;

- o‘z millatini qadrlashini kundalik amaliy faoliyatida namoyon eta olish kabilar.

Shu bilan bir qatorda milliy g‘urur egasi boshqa xalqlar va millatlarning vakillariga alohida hurmat-e’tibor bilan qarash, ularning madaniy boyliklarini qadrlay olish tuyg‘usiga ega bo‘ladi. Boshqa millat vakillarining madaniyati, urf-odatlari, an’analarini qadrlagan holda milliy g‘ururni millatchilik va soxta millatparvarlikdan farqlay oladi. Bunday sifatlarni yosh avlodga ta’lim-tarbiya jarayonida singdirish zaruriyati bugungi kunda ayniqsa kuchaymoqda.

Yosh avlod uchun milliy g‘urur tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur jarayonda o‘quvchilarda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, millat taqdiri uchun qayg‘urish, fidoyilik sifatlari tarkib topadi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchi-yoshlarda o‘z ajdodlari va bugungi vatandoshlarining yutuqlaridan faxrlanish, ularni avaylab-asrash va ko‘paytirishga intilish, jaxon xalqlarining ilg‘or madaniyati bilan o‘z xalqi madaniyatining yutuqlari bilan qiyoslash, undan faxrlanish tuyg‘usi

shakllantiriladi. Millatning jahon maydonida o‘zligini namoyon qilishi uchun hissa qo‘shish, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida xalqning yutuqlarini ko‘paytirishga bo‘lgan intilish kuchayadi. Buning natijasida yoshlar sog‘lom dunyoqarashga, milliy g‘ururga ega bo‘lib, vatan ravnaqi uchun tinmay harakat qilishga intiladilar. Ularda fidoyilik hissi yuksaladi. Bu jarayonda kitoblarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish talab etiladi. Kitoblarda o‘zbek xalqining o‘tmishi, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, tajribalari ifoda etilgan bo‘lib, ulardan o‘quvchi-yoshlarni xabardor qilish orqali milliy g‘urur tuyg‘usi shakllantiriladi.

Hozirgi yoshlar-Mustaqil O‘zbekistonining kelajagidir. Zotan, mana shu navqiron avlodni qanchalik ma’naviy jihatdan barkamol, yetuk kishilar qilib voyaga etkazsak, ularning har birida or-nomus, g‘urur, Vataniga sodiqlik hislari chuqur shakllantirib borilsa ko‘zlangan yuksak taraqqiyot marralari sari shu qadar komil ishonch ila ilgarilab boramiz.

Mustaqillik yillarida boy tarix va merosimiz, ko‘hna urf-odat va an’analarimizning qayta tiklanganligi, bugungi kunda mehr-oqibat, bag‘rikenglik, hamjixatlik kabi ezgu fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida yashash hayotimiz qoidasiga aylanib bormoqda.

Xalqimizning xohish irodasi bilan qat’iy belgilab olingan milliy taraqqiyot yo‘limiz asosida keng ko‘lamli islohatlar izchil davom ettirilayotgani, dunyoda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligiga qaramay iqtisodiyotimizning o‘sish sur’atlari, aholining farovonlik darajasi barqaror saqlanib qolayotgani, mamlakatimizda qabul qilingan muhim ijtimoiy islohotlar va davlat dasturlari ijobiy samaralar bermoqda.

Istiqlol yillari davlatimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, sud huquq tizimi va ma’naviyat, tashqi siyosat va xavfsizlikni ta’minlash borasida har tomonlama rivojlanish davri bo‘ldi. Istiqlol ne’matlarini bugun hayotimizning deyarli barcha sohalarida ko‘rish mumkin. Qayerga qaramang, obodlik, bunyodkorlik zavqi-shavqi kezmoqda. Bunday tinch va farovon hayotga xos nash’u namodan sevinasan, qalbing g‘urur-iftixorga to‘ladi. Shunda Istiqlolning qadr-qimmati bilinadi, uning bebaxo ne’mat ekanligini his etasan. Misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lmoqda.

Bugun yangicha fikrlaydigan, o‘z taqdirini yurtimiz taqdiri bilan bog‘liq holda ko‘radigan yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda. Yoshlarmiz siymosida muayyan kasb, ba’zan bir nechta yo‘nalish bo‘yicha diplom olgan, bir nechta xorijiy tilni biladigan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan, mustaqil inson sifatida shakllangan, el-yurt xizmatiga shay, yuragi yonib turgan navqiron yigit qizlarni ko‘rib, qalbingda ishonch, g‘urur va iftixor tuyg‘ulari jo‘sh uradi.

Tahlil va natijalar. Insonlarning baxtli bo‘lishida ertangi kunga bo‘lgan ishonchning ahamiyati beqiyosdir. Xalqmizning ishonchi va umidi esa farzandlarini vatanga foydasi tegadigan, barkamol inson qilib tarbiyalash. Ertangi kunga ana shu yerdan poydevor qo‘yadi, shu niyat bilan yashaydi, mexnat qiladi. Ortiqcha

bezovtalanmaslik, xotirjamlikning o‘zi ham baxt. Vatandoshlarimizning o‘zlarini baxtli xisoblashlariga, kelajakka ishonch bilan qarashlariga sabab bo‘lgan eng muhim omillardan biri – Istiqlol yillarida insonga, uning jamiyatdagi qadr-qimmatini ulug‘lashga qaratilgan e’tibordir. Chunki Yangi O‘zbekistonimizda ya’ni “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson.” Yurtboshimiz rahnomoligida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, jamiyatda ijtimoiy tenglikning qaror topishiga, aholining barcha qatlamlariga g‘amxurlik ko‘rsatilishiga, eng muhimi, fuqarolarning o‘zlarini namoyon etishlariga imkoniyat yaratildi. Qolaversa, so‘nggi yillarda iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanib borayotgani, odamlar tumushi tabora farovonlashayotgani-barchasi xalqimizning yutug‘i, baxti. Aslida ham, Istiqlol, bu baxt degani!

Mafkura – g‘oyalar majmyidir. Milliy mafkura – ijtimoiy mafkura shakllaridan biri, muayyan millatning etnosotsial birlik sifatida mavjudligi va rivojlanishi, erkin va ozod taraqqiyotini asoslash, ta’minlashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi. Milliy mafkurani faqat bir millat yoki xalqning mafkurasi deb tushunish to‘g‘ri emas. U muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasi ham bo‘lishi mumkin. Milliy tushunchasi nafaqat muayyan etnik birlik, balki “davlat” ma’nosini ham ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, “milliy daromad”, “milliy qurolli kuchlar” birikmalarida u “davlat” so‘zining ma’nodoshi sifatida qo‘llaniladi. Milliy mafkura millat va davlatning mustaqil rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi hamdir. Milliy g‘oya O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqi mizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etadi. Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash O‘zbekistonning har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Buning uchun barcha bir yoqadan bosh chiqarib, muqaddas ona-Vatanning hayotiy manfaatlarini yurakdan his etgan holda ularni ro‘yobga chiqarish uchun faol harakat qilishi, kurashishi zarur. Bu jarayon xalqimizning manfaatlarini, ularni o‘zida mujassam etadigan milliy g‘oyani anglash bilan bog‘liq holda kechadi. Vatan manfaati har bir fuqaro manfaatlari bilan uzviy bog‘langan. Chunki, Vatanning obodligi xalqning farovonligiga bog‘liq. Fuqarosi badavlat mamlakatgina moddiy va ma’naviy to‘kis bo‘ladi. Shunday ekan, milliy g‘oyaning muhim tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi va birdamligini mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa milliy milliy mafkuraning mohiyatini tashkil etadi. Milliy mafkura har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o‘zi va oilasi oldidagi burchi va mas’uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma’naviy mezon hamdir.

Mafkura quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e’tirof etadi va ulardan oziqlanadi: qonun ustuvorligi; inson haq-huquqlari va hurfikrlik; turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash; diniy bag‘rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish, ma’rifatparvarlik; o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribasi va madaniyatni o‘rganish. Milliy mafkura O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, falsafiy, tarixiy, qarashlar majmui, xalqni kelajakka

ishonch, e’tiqod ruhida tarbiyalovchi g‘oyaviy qurol, barcha toifa kishilarni shu maqsad yo‘lida birlashtiruvchi g‘oyat qudratli ma’naviy omil hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonning mustaqillikka erishishini tarixiy muqarrar jarayonligini ko‘rsatish; yangi Konstitutsiyada qonunan maqsad qilib qo‘yilgan adolatli demokratik, fuqarolik jamiyati haqida ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqish zarur. Sho‘rolar zamonida mafkura faqat sinfiy bo‘ladi, u milliy bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblanar edi. Milliy mafkura xususida hatto so‘z ham yuritilmas edi. Buning natijasida o‘zbek millatining milliy ongi, dunyoqarashi, milliy g‘ururi, iftixori anchagina sustlashtirib yuborilgan edi. Milliy mustaqillikka erishilgach, O‘zbekiston hukumati tomonidan milliy mafkuraning nazariy jihatdan ishlab chiqilishi, uni xalq orasida keng targ‘ibu tashviq qilish, har bir fuqaro ongiga mustaqillik mafkurasining mazmun-mohiyatini singdirish, istiqlol yo‘liga mos va xos o‘zbek milliy mafkurasini ilmiy asosda yaratish kabi o‘ta muhim va sharafli masalalar paydo bo‘ldi. Milliy mafkura yurtimizda yashovchi har bir fuqaro xalqimizning yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g‘oyalari hamda xalqimizning ishonch-e’tiqodini aks ettiradi. Jamiyat a’zolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Millati va dinidan qat’i nazar, fuqarolarimizning qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg‘usini qaror toptiradi. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma’rifiy yo‘l bilan singdiriladi. Milliy mafkuraning asosiy tamoyillari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta’minlashga yordam berish; qonunning ustuvorligi, demokratiya va o‘z-o‘zini boshqarishning hayotda mustahkam o‘rin egallayotganiga asoslanganlik; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayanish; xalqaro huquq qoidalariga mos kelish.

Mafkuraning asosiy g‘oyalari ma’rifatli dunyoda e’tirof etilgan umumiy qonun-qoidalar va xalqaro andozalar, umuminsoniy tamoyillar va qadriyatlarning ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklariga og‘ishmay amal qilish, demokratiya va gumanizm kabi tamoyillarning talablariga to‘la-to‘kis mos keladi. Milliy mafkuraning bosh va asosiy g‘oyalari – turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen, ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir g‘oya mutlaqlashti rilmaydi yoki mavjud hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi. Milliy mafkuraning bosh g‘oyasi o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqning umumiy manfaatlarini ifodalaydi. Mafkuramiz tayanadigan quyidagi umumbashariy tamoyil va qoidalar: qonun ustuvorligi; inson haq-huquqlari va hur fikrlilik; turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash; diniy bag‘rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish, ma’rifatparvarlik; o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish va hokazo. Ushbu qadriyatlar asosida shakllangan mafkura, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularni milliy darajada namoyon bo‘lishi uchun imkon

yaratadi. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, din va qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi, xalqimiz o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydi, uning asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mazkur mafkuraning jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashariy qadriyatlar mazmuniga mosligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Yosh avlod uchun milliy g‘urur tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur jarayonda o‘quvchilarda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, millat taqdiri uchun qayg‘urish, fidoyilik sifatlari tarkib topadi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchi-yoshlarda o‘z ajdodlari va bugungi vatandoshlarining yutuqlaridan faxrlanish, ularni avaylab-asrash va ko‘paytirishga intilish, jahon xalqlarining ilg‘or madaniyati bilan o‘z xalqi madaniyatining yutuqlari bilan qiyoslash, undan faxrlanish tuyg‘usi shakllantiriladi. Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlik va milliy g‘urur inson ma’naviyatining tarkibiy qismidir. Bu tuyg‘ularni yoshlar ongi va qalbiga singdirish, amalda joriy etish uchun barcha sohalarda tizimli ishlar olib borish zarur. Zero, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qiladigan yosh avlodni voyaga yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.504.
2. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi – davr talabi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019-yil 12-yanvar.
3. Najimitdinov M. K. “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”. Xalqaro ilmiy jurnal «Ilmiy impuls» № 21 (100).
4. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2013. 297-b.

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYA FANINING AKSIOLOGIK IMKONIYATLARI.

Quldashev Murodjon G‘aniyevich,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Farg‘ona “Temurbeklar maktablari”
harbiy akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuqori sinf o‘quvchilarini ma’naviy kompetentlikni rivojlantirish borasida jadidlar g‘oyaviy qarashlarini tarbiya fanida shakllantirishning pedagogik asoslari. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy-kasbiy

tayyorgarligi muammosi, ayniqsa, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, ma’naviy kompetentlik, axloqiy tarbiya**,** qadriyatlar ta’limi, aksiologik yondashuv, o‘z-o‘zini anglash, axborot madaniyati.

“Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.”

Sh. Mirziyoyev

Kirish:

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy kompetentliklarini rivojlantirishga alohida e’tibor bermoqda. Bu jarayon, o‘quvchilarning shaxsiyati, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va mas’uliyatini oshirishga qaratilgan. Tarbiya fani, ayniqsa, aksioologik (qadriyatlar) jihatdan, o‘quvchilarning ma’naviy kompetentliklarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tarbiya fanining aksioologik imkoniyatlari Tarbiya fani o‘quvchilarga ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy mas’uliyatni yetkazish orqali ularning ma’naviy kompetentliklarini rivojlantirishda bir qancha imkoniyatlarni taqdim etadi:[1]

Qadriyatlar ta’limi: Tarbiya fani orqali o‘quvchilarga ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar haqida ma’lumot beriladi. Bu, o‘quvchilarning o‘z qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Aksioologik yondashuv: Tarbiya fani o‘quvchilarni qadriyatlar asosida fikrlashga, tanqidiy nazar bilan qarashga va o‘z fikrlarini shakllantirishga undaydi. Bu jarayon ularning ma’naviy dunyosini boyitadi.[2]

Axloqiy tarbiya: O‘quvchilarga axloqiy me’yorlar va qoidalarni o‘rgatish, ularning ijtimoiy hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi. Axloqiy tarbiya, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Praktik faoliyat: Tarbiya fani doirasida o‘quvchilar turli ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishlari, jamoat ishlarida faol bo‘lishlari, o‘zlarining ma’naviy qadr-qimmatini oshirishga yordam beradi.

Yuqori sinf o‘quvchilari uchun ma’naviy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

O‘z-o‘zini anglash: O‘quvchilar o‘z ichki dunyolari bilan tanishishlari, o‘z qadriyatlarini aniqlashlari va ularni rivojlantirishlari lozim.

Ijtimoiy munosabatlar: O‘quvchilar o‘zaro hamkorlik va muloqot orqali ma'naviy kompetentliklarini oshirishlari kerak. Bu, ularning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi.

Raqamli va axborot madaniyati: Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilar axborotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va ma'naviy qadriyatlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Amaliy faoliyatlar: O‘quvchilar ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etish, qo‘shni va yaqinlariga yordam berish orqali o‘z ma’naviy kompetentliklarini rivojlantirishlari mumkin.

Yuqori sinf o‘quvchilariga ma’naviy kompetentliklarini rivojlantirish va ularni tarbiyalashda quyidagi amaliy mashg‘ulotlarni tavsiya qilaman:

Ijtimoiy loyihalar o‘quvchilarni jamoa bo‘lib ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirish. Masalan, mahalladagi muammolarni aniqlash va ularga yechim topish.

Axloqiy dilemmalar ustida munozara o‘quvchilarga axloqiy muammolarni taqdim etish va ularni muhokama qilish. Bu, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Rol o‘yinlari o‘quvchilarni turli ijtimoiy rollarda o‘ynashga taklif qilish. Bu, ularning empatiya, muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi.[4]

Kreativ yozuv o‘quvchilardan o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini ifodalaydigan hikoyalar, esse yoki she’rlar yozishni so‘rash. Bu, ijodkorlik va shaxsiy fikrlarni rivojlantirishga yordam beradi.[3]

Seminarlar va ma'ruza tadbirlari ma’naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy mas’uliyat haqida seminarlar va ma’ruzalar o‘tkazish. O‘quvchilarni mutaxassislar bilan uchrashtirish.

Praktik faoliyatlar o‘quvchilarni mahalliy jamoatchilik ishlariga jalb qilish, masalan, xayriya tadbirlari yoki tozalash aktsiyalarida ishtirok etish.

O‘z-o‘zini baholash va rejalashtirish o‘quvchilarga o‘z maqsadlari va qadriyatlarini aniqlash, ularni baholash va kelajak rejalari ustida ishlash imkoniyatini berish.

Muloqot va munosabatlarni rivojlantirish Guruhda muhokama qilish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘yinlar va mashqlar o‘tkazish. Ushbu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ma’naviy kompetentliklarini oshirishga, ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirishga va shaxs sifatida rivojlanishga yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasida tarbiyani takomillashtirishga doir turli yondashuvlarini o‘rganib shunday xulosaga kelindiki, o‘quvchining ma’naviy kompetentligini rivojlantirish umumiy va maxsus (o‘quv-analitik, qadriyatga yo‘nalganlik va refleksiv-faoliyatli) tarbiya va tarix fanlarning ommalashuvi, o‘quvchilar o‘quv faoliyati usullarining faollashuvi va o‘qituvchining boshqaruv faoliyati takomillashuvi hisobiga amalga oshadi. Shu bilan birga, tarbiya va adabiyot fanlarning ushbu salohiyati yuqorida sanab o‘tilgan komponentlar birligini ko‘zda tutuvchi tizim sifatidagina samarali tatbiq etilishi mumkin. O‘quvchilarda ma’naviy kompetentlikni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari tarbiya va tarix fanlarning aksiologik salohiyatini ro‘yobga chiqarishning o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi tarbiya va tarix fanlarning aksiologik asoslarini keng ommalashtirish; o‘quvchilar o‘quv faoliyatini ma’naviy-axloqiy tavsifdagi ma’lumotlar bilan boyitish; avvalgi ikki bosqichni tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish. Quyida mazkur yo‘nalishlarga to‘xtalib o‘tamiz. Tarbiya fanni aksiologik imkoniyatini ro‘yobga chiqarishning birinchi yo‘nalishi ushbu kurslarning qadriyatga yo‘naltirilgan tarkibiy asoslarini keng joriy etish, ya’ni ommalashtirish bilan bog‘liq. Ommalashtirish deganda, biz ushbu fanlarning ma’naviy asoslarini o‘quvchi tomonidan kelgusi hayotiy faoliyatda qo‘llash maqsadida o‘zlashtirilishini nazarda tutamiz, ya’ni mazkur fanlardagi o‘quv

materiallarining amaliy faoliyatini kuchaytirishni taqozo etib, bu ob'ektiv axloqiy bilimlarning yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan sub'ektiv bilimga "aylanishi"ni anglatadi. Pedagogik jarayonlarga aksiologik yondashuv va tarbiya fani pedagogik refleksiyani yorituvchi ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida ushbu soha fanlarining aksiologik asoslarini aniqlashtirishning quyidagi tamoyillari aniqlashtirildi: umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarga muvofiqlik; zamonaviy sharoitda ma'naviy bilimlarning ahamiyati; eydetik reduktsiya (ma'naviy hodisaning har qanday tanqid va baholashdan xoli bo‘lishi, uning shaxsiy mazmunining belgilanishi); qadriyatli-ma'noli yo‘nalganlik (har bir o‘quvchini mustaqil ta'lim olishning mohiyatini anglashi, ma'lumotlarning hamma uchun ochiqligi); fenomenologik reduktsiya (muayyan qadriyatni ajratib olish va unga e'tiborni qaratish, o‘quv materialini boyitish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan, yagona talqinga ega bo‘lmagan, o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradigan fenomenal dalillarni qo‘shish).

Xulosa. Tarbiya fani, o‘quvchilarning ma'naviy kompetentliklarini rivojlantirishda aksioologik imkoniyatlarga ega. Bu jarayon, o‘quvchilarning shaxsiyati va ijtimoiy mas'uliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, ta'lim tizimida tarbiya fanining o‘rni va ahamiyatini oshirish zarur. O‘quvchilarning ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish, ularga kelajakda muvaffaqiyatli va mas'uliyatli shaxslar bo‘lishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Askarov, S. (2007). Jadidchilik va ta'lim.
2. Xudoyberganov, B. (2012). Pedagogika va ma'naviyat.
3. Rasulov, F. (2018). Jadidchilikning pedagogik asoslari.
4. G‘afurov, J. (2015). Yangi o‘qitish metodlari va pedagogik texnologiyalar.
5. Karimov, I. (2010). O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida: ta'lim va tarbiya.

SURXON VOHASINING BUXORO AMIRLIGI DAVRIDAGI HAYOT TARZI

Muxammadiyev Omon Mamataliyevich
DXX CHQ "Yosh chegarachilar" HAL
"Ijtimoiy-gumanitar" fanlar kafedrasi
tarix fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligi tarkibida Surxon vohasi bekliklari tarixi, ijtimoiy iqtisodiy hayoti hamda amirlikdagi tutgan o‘rni va aholisining asosiy mashg‘uloti haqida ma'lumotlar keltirilgan. Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan hududlarda tuzilgan bekliklar soni bo‘yicha muammo ko‘rib chiqildi. Amirlik va Surxon vohasi ma'muriy – hududiy tuzilishi ilmiy adabiyotlar va arxiv manbalari asosida muhokama qilindi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi bekliklari, Surxon vohasi bekliklari, Denov, Boysun, Sherabod, Termiz, Ko‘hitang.

Surxon vohasidagi siyosiy hayot XVIII asrning birinchi yarmidan boshlab mang‘itlar sulolasi bilan bog‘liq holda kechadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez ko‘paya boshlaydi. XIX asrning boshlariga kelib amirlik aholisi taxminan 2 mln.dan oshiq, 50-yillariga kelib taxminan 2,5 mlndan ortiq kishini tashkil etgan. Buxoro shahrida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqand shahrida esa taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan. XIX asr o‘rtalariga qadar Surxon vohasida asosan uchta Sherobod, Boysun, Denov bekliklari mavjud bo‘lgan. Bu davr tarixchisi Muhammad Vafo ma’lumotlariga qaraganda, mang‘itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahimxon vohaga uch marta yurish qilgan. Mang‘itlar sulolasi hukmronligi yillarida Surxon vohasi to‘liq Buxoro amirligi tarkibiga kiradi.

Ma’lumki, Buxoro amirligi tarkibiga Sharqiy Buxoro va g‘arbiy Pomir tumanlari kirib, qishloq xo‘jaligiga asoslangan agrar mamlakat edi. Aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo‘lgan ulkan hududga ega amirlikning ishlovga yaroqli yerlari kam edi. Buxoro amirligida qishloq xo‘jaligi va chorvachilikning rivojlanishi natijasida chorva mahsulotlarining narxi ham unchalik yuqori bo‘lmagan.

Bu hududlarda savdo sotiq ishlari ham alohida o‘rin tutgan. Buxoro amirligidagi arzon narx tufayli Buxoro, Qarshi, G‘uzor, Yurchi, Denov, Sherobod savdo yo‘llarida 8 ming tuyagacha bo‘lgan karvon bilan savdogarlar yurishgan. Buxoro qayiqlarining Amudaryoda yurish qatnovi XIX asrning 80 yillaridan boshlanadi, bunda Termizning alohida o‘rni bor. Har bir qayiqda 120 pudgacha bug‘doy ortib tashilgan. Bug‘doy narxi ham uncha yuqori bo‘lmagan, masalan, 1 botmon bug‘doy 15 tanga; guruch 22 tanga; arpa 8 tanga atrofida baholangan. Shuningdek, ko‘plab karvonsaroylar ham o‘lkaning tog‘ hududlarida va voha qismlarida qurilgan. Bunga Ko‘hitangdagi G‘uzor Kalif savdo yo‘lidagi Rabot, Termiz Ayvanch karvon yo‘lidagi Xotinrabot karvonsaroylari misol bo‘la oladi. So‘nggi o‘rta asrlarda Termiz va Chag‘oniyonning chekka o‘lkalarga aylanib qolishi nafaqat iqtisodiy hayot, balki ilm-fan va adabiyotning rivojiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Amirlik aholisining katta qismini o‘zbeklar tashkil qilgan bo‘lib, juda ko‘plab o‘zbek urug‘lari vakillari amirlikning deyarli barcha hududlarida yashaganlar. Aholi tarkibidagi tojiklar Samarqand, Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, tog‘li tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko‘lob, Shahrisabz, Qobadiyon, Yakkabog‘ bekliklarida, Zarafshonning yuqori qismida istiqomat qilganlar. Buxoro amirligi hududida aholining kichik qismini arablar tashil etgan bo‘lib, ular asosan Qarshi va Sherobod bekliklarida yashaganlar.

Buxoro amirligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, ko‘pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi. Butun o‘rta asrlarda mavjud bo‘lganidek, amirlik davrida ham hunarmandlar uyushmalari (kasaba, sexga ega bo‘lganlar). Uning tashkil topishi mahsulot ishlab chiqarish

ustidan nazorat o‘rnatishga, mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bog‘liq edi. Amirlikdagi hunarmandchilikning barcha sohalarida bunday uyushmalar mavjud bo‘lib, uni saylab qo‘yiladigan shaxs rais yoki oqsoqol boshqargan. Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar narxini belgilashda, turli soliq va to‘lovlar yig‘imida, usta va shogird munosabatlarida, xo‘jalik ishlarini yuritishda uyushma raisining xizmati katta bo‘lgan.

Ilgarigi davrlarda bo‘lganidek, amirlikning hunarmandchiligi sohasida to‘qimachilik uning asosiy tarmog‘i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak yetarli darajada bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to‘qimachilik mahsulotlariga talab katta edi. Amirlikda ayniqsa bo‘z, chit, olacha ko‘p miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hisor, Baljuvon, Dehnov, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va ularning atroflarida ipak matolar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan. Boshqa shahar va qishloqlarda ham ip yigirish, mato to‘qish, tayyor kiyim tikish, gilam to‘qish va boshqa to‘qimachilik sohalari ancha rivojlangan. Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoroning zarbof to‘nlari, Shahrisabzning iroqi do‘ppilari, Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolari amirlikdan tashqarida ham juda mashhur bo‘lgan

Amirlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – kulolchilik edi. Xo‘jalik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kulolchilik amirlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Urgut, Dehnov, G‘ijduvon kabilar bo‘lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan. Amirlik kulolchiligida O‘rta Osiyoning ko‘pgina kulolchilik maktablariga xos bo‘lgan manzaralar(turli gullar va o‘simliklar tasviri), turli hayvonlar, qushlar, hasharotlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo‘llanilgan.

Amirlik iqtisodiyotining metallga ishlov berish sohasi ham yaxshi rivojlangan. Shahrisabz, Urgut, Nurota, Boysun, Sherobod kabi tog‘li tumanlardan ma’danlar qazib olingan bo‘lib, ulardagi konlardan foydalanish ba’zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi.

Bu davrda amirlikdagi metallga ishlov berish taraqqiy etgan quyidagi to‘rtta asosiy tarmog‘i-temirchilik, misgarlik, cho‘yan quyish va rixtagarlikni alohida ko‘rsatish mumkin. Temirchilik sohasida ustalar qishloq xo‘jaligida va kundalik turmushda ishlatadigan mehnat qurollari, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Amirlikning ko‘pgina shaharlarida Temirchi, Guzari, Chilangaron kabi chilangar-temirchilarning maxsus mahalla guzarlarining mavjudligi ushbu hunarmandchilik turining ancha taraqqiy etganligini ko‘rsatadi. Amirlikning asosan yirik shaharlarida misgarlik ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo‘lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko‘zacha, tog‘oracha kabi ko‘plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Surxon vohasi hayot tarzi shug‘ullanadigan mashg‘ulotlariga ko‘ra boshqa

bekliklardan ajralib turadi. Ma’muriy-boshqaruv tizimida an’anaviy xususiyatlar saqlanib qolgan, ammo mahalliy muarrixlar va arxiv manbalarida amirlik ma’muriy tizimda o‘zgarishlar ham bo‘lgan. Amirlik davrida Surxon vohasidagi hayot tarzi o‘zgarishlar markazdagi ichki iqtisodiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘zgarib turgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: Sharq, 1998.
2. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko‘zgusida.T., 2001.
3. Ananev A.G. Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvi yordamida sug‘orish loyihasi. T.: Sharq, 2002.
4. Bahodir Eshov,“O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”,Toshkent-2012
5. RDDTA. 400-fond, 24-ro‘yxat, 879-delo. 261-262-v
6. Logofet D.N. Na granitsax Sredney Azii (putevыye zametki v 3-x knigax). Kniga 2.SPb, 1909.–S.200–203

TARIX DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Ajiniyazov Baxadir Polatovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV
Nukus “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi, tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tarix fani darslari va to‘garaklarida tarixiy voqelikni to‘liqroq yetkazishda har xil metodlarning mavzu mohiyatini anglashga yordam berishi, o‘quvchilarning erkin fikrlash doirasini kengaytirishi, darsni samarali o‘zlashtirishi hamda amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdagi foydasi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogik yondashuv, interfaol metodlar, zamonaviy ta’lim, vizual o‘qitish usullari, muzeylar yoki tarixiy joylarga sayohat, tarixiy voqealar.

O‘quvchiyoshlar orasida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish, ularning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ta’lim-tarbiyaga har tomonlama e’tibor qaratish, o‘qitishning zamonaviy va samarali yo‘llarini topish hamda amalda tatbiq qilish bugungi kunda o‘qitish tizimining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta’lim-tarbiyasida buyuk va shonli tariximizga tayanishimiz lozimligini alohida ta’kidlaganlar.

Buni biz prezidentimizning: *“Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy*

tarixiga tayanamiz” va *“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho me’rosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”,* deb aytgan so‘zlaridan ham anglab olishimiz mumkin.

Bugungi kunda ta’lim tizimi doimiy ravishda rivojlanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan interfaol metodlar o‘quv jarayonida keng qo‘llanilmoqda.

Ayniqsa, tarix fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. An’anaviy dars uslublaridan farqli o‘laroq, interfaol metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi, ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda tarix faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Interfaol metodlar – bu o‘quvchilarning faolligini oshirishga yo‘naltirilgan, ularni mustaqil fikrlash va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida faol ishtirok etishga undaydigan pedagogik usullardir.

Bu metodlar orqali o‘quvchilar bilimlarni tayyor holda qabul qilishdan ko‘ra, ularni mustaqil izlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tarix fanida interfaol metodlar sifatida rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar, jamoaviy loyihalar, tarixiy rekonstruktsiyalar va muammoli ta’lim usullari qo‘llaniladi. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar dars jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Keng qo‘llaniladigan usullar – «Klaster», «Aqliy hujum», «Bingo», «Tushunchalar tahlili», «Blits-so‘rov», «Muammoli vaziyat» kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida «Sinkveyn», «To‘rtinchisi ortiqcha», «Assesment» metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida «Insert», «Pinbord», «Zinama-zina», «Bumerang» texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida «Venn diagrammasi», «Baliq skeleti», «Nima uchun?», «Qanday?», «Konseptual jadval» kabi grafik tashkil etuvchilar hamda «Tushunchalar tahlili», «T-jadval», «Rezyume», «SWOT tahlili», «Xronokross» metodlarini, uyga vazifa berishda «FSMU», «Klaster» metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta’minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Masalan, tarixiy hodisalarni sahnalashtirish yoki “Tarixiy sud” usulidan foydalanish orqali o‘quvchilar muayyan davr yoki shaxslarning qarorlarini baholashga o‘rganadilar.

Bu esa ularning tarixiy tafakkurini rivojlantiradi. “Aqliy hujum” usuli orqali o‘quvchilar tarixiy shaxslar yoki hodisalar haqida o‘z fikrlarini bildirish va ularni asoslab berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning analitik fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi.

Muammoli vaziyat metodida o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammoli vaziyat qo‘yadi va ular mustaqil ravishda yechim topishlari kerak bo‘ladi. Masalan: “Agar

Amir Temur Yevropaga yurishni davom ettirganida, tarix qanday o‘zgarishi mumkin edi?”. Bu metod o‘quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida jamoaviy ish muhim o‘rin tutadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarga jamoaviy muhokama qilish, guruh bilan ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, “Klaster” va “Venn diagrammasi” texnologiyalari orqali o‘quvchilar birgalikda muayyan tarixiy mavzuni tahlil qilib, natijalarni umumlashtirishga o‘rganadilar.

Interfaol metodlarning yana bir muhim jihati – vizual o‘qitish usullari bilan uyg‘unlashganligi. Masalan, tarixiy xaritalar bilan ishlash yoki tarixiy voqealarni chizmalar orqali ifodalash o‘quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunish va eslab qolish imkonini beradi. Bundan tashqari, “Tushunchalar xaritasi” usuli orqali o‘quvchilar tarixiy jarayonlar orasidagi bog‘liqlikni anglashlari mumkin.

Oddiy ma’ruza yoki darslik bilan cheklangan ta’lim jarayonidan farqli o‘laroq, interfaol metodlar darslarni yanada jonli va qiziqarli qiladi. Masalan, “Tarixiy ekspeditsiya” yoki “Tarixiy intervyu” usullaridan foydalanish orqali o‘quvchilar tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishib, o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek o‘quvchilarning tarix darslarida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash uchun amaliy metodlar ham juda katta yordam beradi. Masalan amaliy metodlarga muzeylar yoki tarixiy joylarga sayohat qilish orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarni yanada jonli his qilishadi, tarixiy obidalarga bevosita guvoh bo‘lishadi va o‘z bilimlarini boyitishadi.

Muzey ekskursiyalari davomida o‘quvchilarga mustaqil izlanish topshiriqlari berilishi mumkin. Masalan, “Xiva xonligining moddiy madaniyati” mavzusida o‘quvchilar Xiva muzeylarida mustaqil tadqiqot olib borishlari va natijalarini taqdimot shaklida namoyish etishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak tarix darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni faol va mustaqil o‘rganishga undaydi, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va tarix faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bundan tashqari, interfaol metodlar o‘quvchilarga jamoa bilan ishlash, muammolarni hal qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Metodlarning keng qo‘llanilishi o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish bilan birga, o‘quvchilarning tarix faniga bo‘lgan munosabatini ham ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Axmedov B. “Tarix o‘qitish metodikasi”. – Toshkent, 2018.
2. Saidov A. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent, 2019.
3. Qodirov H. “Interfaol metodlar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni”. – Samarqand, 2020.

O‘ZBEKISTON YOSHLARINI MILLIY G‘URUR G‘OYALARI ASOSIDA O‘QITISHDA YANGICHA MAFKURAVIY YONDASHUV

Umarova Shaxlo Baxtiyorovna
CHDPU Gumanitar fanlar kafedrasi,
fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya : Mazkur maqolada O‘zbekiston yoshlari orasida milliy g‘urur g‘oyalarini shakllantirish va ta’lim jarayonida yangicha mafkuraviy yondashuvlardan foydalanish masalalari yoritiladi. Globalizatsiya sharoitida yoshlarning milliy o‘zligini anglashida tarixiy xotira, madaniy meros, innovatsion ta’lim metodlari va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni muhokama qilinadi. Shuningdek, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan zamonaviy ta’lim yondashuvlari va loyihalarining samaradorligi tahlil etiladi. Maqola O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy g‘ururni shakllantirishga oid innovatsion pedagogik tajribalarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar :milliy g‘urur, yoshlar tarbiyasi, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, madaniy meros, innovatsion ta’lim, mafkuraviy yondashuv, vatanparvarlik, ijtimoiy tarmoqlar, milliy qadriyatlar

Kirish

Milliy g‘urur har bir millatning o‘zligini anglash, tarixiy merosini qadrlash va kelajakka ishonch bilan qarashiga asos bo‘luvchi muhim omildir. O‘zbekiston yoshlari orasida milliy g‘ururni shakllantirish nafaqat ta’lim tizimining, balki butun jamiyatning dolzarb vazifasidir. Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarni mafkuraviy tarbiyalashda yangicha yondashuvlar zarur. Ushbu maqolada milliy g‘urur g‘oyalarini ta’lim jarayonida targ‘ib etish va zamonaviy mafkuraviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Milliy g‘urur tushunchasi va uning ahamiyati

Milliy g‘urur — bu xalqning o‘z tarixiga, madaniyatiga, tili va an’analariga bo‘lgan hurmati, o‘zligini anglash hissi va kelajakka ishonchi bilan bog‘liq tushuncha. Yosh avlodda milliy g‘ururni shakllantirish quyidagi omillar orqali amalga oshiriladi:

- **Tarixiy xotira** – ajdodlarning qahramonlik tarixini bilish va ularning mehnatlarini qadrlash.
- **Madaniy meros** – milliy qadriyatlar, urf-odatlar va san’at asarlariga hurmat bilan qarash.
- **Vatanparvarlik ruhini mustahkamlash** – yoshlarning vatanparvarlik his-tuyg‘ularini rivojlantirish.

Mafkuraviy yondashuvlarning dolzarbligi

Yoshlarni milliy g‘urur ruhida tarbiyalashda quyidagi yangicha mafkuraviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Innovatsion ta’lim metodlari:**Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik uslublardan foydalanish milliy g‘urur tushunchasini yanada singdirishga

yordam beradi. Masalan, interaktiv darslar, multimedia vositalari, tarixiy rekonstruktsiyalar orqali milliy qadriyatlarni o‘rgatish.

2. **Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining roli**:Global axborot makonida yoshlarning milliy g‘ururini mustahkamlashda ijtimoiy tarmoqlar muhim vositaga aylanmoqda. Milliy o‘zlikni tarannum etuvchi kontentlar (videoroliklar, maqolalar, tarixiy lavhalar) orqali ta’sirchan mafkuraviy ish olib borish zarur.

3. **Milliy identifikatsiyani shakllantirishda san’at va madaniyatning o‘rni** :Yoshlar orasida milliy o‘zlikni shakllantirishda badiiy adabiyot, teatr, kino va musiqa muhim o‘rin tutadi. Tarixiy shaxslar hayoti va ularning qahramonligi aks etgan asarlar yosh avlodga ta’sirchan tarbiya berishga xizmat qiladi.

4. **Tarbiyaviy dasturlar va loyihalar**:O‘quvchilarga milliy g‘urur g‘oyalarini singdirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur. Xususan, “Men o‘zbekman!”, “Milliy qadriyatlar festivali”, “Ajdodlar merosi” kabi loyihalar orqali yoshlarning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligi mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda yoshlarni milliy g‘urur asosida tarbiyalash O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Bugungi kunda innovatsion ta’lim usullari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, madaniy tadbirlar va maxsus loyihalar orqali milliy o‘zlikni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim. Milliy g‘urur va vatanparvarlik g‘oyalari asosida ta’lim berish yosh avlodni mafkuraviy jihatdan yetuk, ijodkor va o‘z yurtiga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Jadval 1

Asosiy yo‘nalish	***Mazmuni va ahamiyati***	***Amaliy yondashuvlar***
Tarixiy xotira	*Ajdodlar merosi va qahramonlik tarixini anglash*	*Tarixiy ekskursiyalar, milliy bayramlarni nishonlash*
Madaniy meros	*Milliy urf-odatlar va qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish*	*Madaniy festival va teatr sahnalari*
Innovatsion ta’lim	*Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash*	*Interaktiv darslar, virtual muzeylar, AR/VR texnologiyalari*
Ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni	*Yoshlarning milliy g‘ururga bo‘lgan qiziqishini oshirish*	*Vatanparvarlik mavzusidagi videolar, bloglar*
Tarbiyaviy loyihalar	*Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash*	*“Men o‘zbekman!”, “Ajdodlar merosi” loyihalari*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. (1997). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
2. Karimov I.A. (1995). O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent: O‘zbekiston.

3. Mirziyoyev Sh.M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston.
4. Abdulla Avloniy (1912). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: “Maorif” nashriyoti.
5. G‘afurov A. (2020). O‘zbekiston yoshlari va milliy o‘zlikni anglash jarayoni. Toshkent: “Ilm-fan” nashriyoti.
6. Saidov A. (2019). Mafkuraviy tarbiya va milliy g‘oya: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Sharipov U. (2021). Globallashuv sharoitida milliy o‘zlik va mafkuraviy immunitet. Toshkent: “Yangi asr avlodi.”
8. ZiyoNet Elektron Kutubxonasi – O‘zbekistonda ta’lim va tarbiya masalalariga oid ilmiy maqolalar to‘plami. www.ziyonet.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023). Rasmiy nashr. Toshkent: O‘zbekiston.

ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ЎҚУВЧИЛАРИДА ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК ВА МИЛЛИЙ ТУЙҒУНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Жалалова Мухаббат Тургунбаевна
Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардия
“Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицей
психологи
Muxabbat.1978@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақолада бўлажак ҳарбий хизматчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг ўзига хос жиҳатлари илмий-амалий жиҳатдан ёритиб берилган.

Калит сўзлар: ҳарбий ватанпарварлик, профессионал, ахлоқий қадриятлар, миллий ифтихор, миллий мафкура, мемориал комплекс, музей.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2023 йил 29 июндаги 267-сон қарори Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишлари самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарорга мувофиқ Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашга доир ишлар самарадорлигини янги босқичга олиб чиқиш, мазкур йўналишда давлат ва нодавлат ташкилотлари ҳамда фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари фаоллигини янада ошириш, ёшлар онгига ватанпарварлик, мардлик туйғуларини сингдириш мақсадида 2023-2027 йилларда ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишлари самарадорлигини ошириш концепциясини амалга ошириш бўйича “Йўл харитаси” ишлаб чиқилди.

Бугунги глобаллашув ва кескин рақобат даврида, дунёнинг турли бурчакларида, жумладан, минтақамизда юз бераётган қуролли можаролар ва қарама-қаршиликлар, янги таҳдид ва хатарлар олдимизга кечиктириб

бўлмайдиган долзарб вазифаларни қўймоқда. Айнан шундай шароитда мамлакатимиз ёшларини ватанпарварлик, шу жумладан, ҳарбий-ватанпарварлик, юксак маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш, уларнинг онгига тинчлик ва тотувликни кўз қорачиғидек асраб-авайлаш зарурлигини чуқур сингдириш, “Халқ ва армия-бир тану, бир жондир!” деган эзгу ғоя асосида ёшлар тарбиясига масъул вазирлик ва идораларнинг куч ва имкониятларини бир ғоя, бир мақсад асосида бирлаштириш талаб этилмоқда.

Ҳар қандай оғир ва мураккаб вазиятда Ватанимизни кўз қорачиғидек асраш, унинг шуҳратини дунёга тараннум этиш билан боғлиқ энг муҳим тушунчаларни, ҳаётий ва профессионал кўникмаларни илм-маърифат, шунингдек, миллий қадриятлар асосида ёшларнинг қалби ва онгига илк болалик давридан бошлаб сингдириб бориш орқали Ватанпарвар, садоқатли ҳамда шижоатли ёшларни камол топтириш Концепциянинг асосий моҳиятини ташкил этади.

Юқорида келтириб ўтилган концепциянинг моҳиятидан келиб чиққан ҳолда бўлажак ҳарбий хизматчиларда аввалло миллий ғурур ва Ватанпарварлик туйғуси ҳамда ҳар томонлама соғлом ва чидамли, шу билан бирга ҳар қандай мураккаб жисмоний ва руҳий синовларга бардошли бўлишларини таъминлашда иштирок этувчи соҳа мутахассисининг махсус тайёргарлиги муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Мавзунинг долзарблигидан келиб чиққан ҳолда адабиётларда келтириб ўтилган ўзбек тилининг изоҳли луғатида: Ватан – кишининг туғилиб ўсган ўлкаси, шаҳри, она юрти, диёри, ҳар бир фуқаро учун мамлакат, турар жой, бошпана, маскан, уй маъноларини ифодалаши кўрсатилган. Инсон улғайган сари унинг Ватан ҳақидаги тушунчалари ҳам кенгая боради. Юртимизда туғилиб-ўсган ҳар бир инсон “Ватаним” деганида ўз уйини, қишлоғини ёки шаҳрини эмас, балки Ўзбекистон Республикасини назарда тутади. Бу эса Ватан туйғусининг, ватанпарварликнинг халқимиз қалбидаги ифодасидир.

Ватан туйғуси – бу азиз ва гўзал юртимизга ҳурмат ва садоқатли бўлиш. Ватан туйғуси – бу Турон, Мовароуннаҳр, Туркистон ва ҳозирда Ўзбекистон дея аталган заминда яшаб келаётган халқимизнинг олтин меросини, унинг тарихини ўрганишга интилишдир десак муболаға бўлмайди.

Ватан озодлиги учун жонини фидо қилган Тўмарис, Широқ, Спитамен, Нажмиддин Кубро, Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик сингари халқимизнинг мард ва жасур фарзандлари биз учун, ўсиб келаётган ёш авлод учун ўрнак-намуна тимсолидир. Масалан, бобомиз Нажмиддин Кубронинг ўчмас жасоратини эслайлик. Бу жасорат замирида она Ватанга чексиз муҳаббат ва садоқат туйғусининг ётиши ҳаммамизга маълумдир.

Ҳозирги вақтда ҳарбий хизматчи бўлишга интилаётган ўқувчилар эртага бизнинг қўлимиздан ишимизни оладиган, ҳаётимизни давом эттирувчи ва ўзидан кейинги авлодга етказувчи ворисларимиз, Ўзбекистонни буюк келажагини давом эттирувчилардир. Шу сабабли мамлакатимизда ёш авлодни ҳуқуқлари ва унинг тарбиясини юқори даражага кўтариш таълим ва тарбиянинг асосий вазифалардан бири десак адашмаймиз.

Миллий тарбия мезонларини белгилашда шахснинг ижобий сифатларидан миллий ифтихор, ватанпарварлик, миллатлараро мулоқот маданияти, миллий одоб, виждонийлик, иймон-эътиқод, миллий истиқлол мафкуравий онгини ривожлантириши зарурдир. Уларнинг акси бўлган салбий сифатлар; миллий бефарқлик, ватанфурушлик, хоинлик, манқуртлик, миллатчилик, маҳаллийчилик, виждонсизлик, мафкурасизлик каби сифатларга эса нафрат ўйғотиш лозимдир.

Ҳарбий таълим муассасаси ўқувчиларида ҳарбий соҳага қизиқишларини ошириш асосида ҳарбий Ватанпарварлик ва миллий ғурур туйғуларини ривожлантириш педагогик-психологик жараёнларни тадқиқ этиш шу куннинг муҳим масаласидир.

Ўқув муассасаларида таълим-тарбия ишида ўқувчиларни ижтимоий-фойдали меҳнатга жалб этиш усуллари ҳамда маънавиятга доир суҳбатлар, маъруза ва мунозаралар етарли даражада ташкил этиш лозим. Бу усуллар орқали ҳарбий лицей ўқувчиларида миллий тарбиянинг маънавий фазилатларини, ҳарбий ватанпарварлик туйғусини, она Ватанга хизмат қилиш истагини шакллантиришига хизмат қилади.

Ҳарбий таълим муассаса ўқувчиларида ҳарбий ватанпарварлик ва миллий ғурур туйғусини шакллантиришда ҳарбий лицей педагог ва психологларининг вазифалари муҳим аҳамиятга эга бўлиб ҳисобланади.

Мақсадга кўра, ўқувчи ёшларда ҳарбий ватанпарварлик ҳислатларини ҳамда Ватанга хизмат қилишдек миллий ғурурни шакллантириш, шунингдек, ҳарбий соҳани эгаллашга бўлган қизиқишларини ошириш ҳарбий таълим муассасалари олдида турган вазифаларидан бири ҳисобланади.

Ўқувчиларни ҳарбий касбга қизиқтириш асосида ватанпарварлик ҳиссини тарбиялашда:

- Ватанга хизмат қилиш эҳтиёжи ва заруриятини ривожлантириш;
- Иродавий сифатларни тарбиялаш;
- Меҳнат дарслари жараёнида бажариладиган ишларни келажакда касб-ҳунар эгаллашга йўналтириш;
- Оилада меҳнат, касб-ҳунар маданияти ҳақида тушунчаларини шакллантириш.

Илмий адабиётлар таҳлилидан келиб чиқиб, машғулот ва дарсдан ташқари вақтда ҳарбий ватанпарварлик тарбияси шакл ва услублари бўйича қуйидаги тавсияларга амал қилиниши мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз:

1. Буюк саркардаларимиз, хусусан Амир Темур ва бошқа саркардалар жанговар мероси ютуқлари ҳақидаги маъруза, суҳбатлар тайёрлаш ва ўтказиш;
2. Уруш ва меҳнат фахрийлари, Ўзбекистонлик жангчилар билан учрашувлар ташкиллаштириш;
3. Эътиборга сазовор саналарга бағишланган кечалар, ҳарбий ватанпарвар-лик тарбияси мавзуси бўйича анжуманлар ўтказиш;
4. Ҳарбий қисм ва ҳарбий таълим муассасаларига экскурсиялар уюштириш, бевосита таълим жараёни билан танишиш;

5. Турли ҳарбий спорт мусобақалари ва ўйинларида, ҳарбий-техник тўгараклар ишида иштирок этиш;

6. Ҳарбий ватанпарварлик тарбияси мавзусига оид кинофилм, телекўрсатувлар кўриш, тегишли мазмундаги бадиий, тарихий, илмий китобларни жамоада муҳокама қилиш, қаҳрамонлар (прототиплари), ёзувчилар, олимлар билан учрашиш;

7. Музейлар, мемориал комплексларга бориш, урушда ҳалок бўлган жангчилар биродарлик қабрларини зиёрат қилиш, жанговар ва меҳнат шон-шуҳрати жойларига сафарлар уюштириш;

8. Ҳарбий ватанпарварлик мавзусига бағишланган энг яхши иншо, ҳикоя, расмлар кўргазмаси, кўрикларини ташкил қилиш.

Ҳарбий таълим муассасаларига қўйиладиган энг муҳим талаб ва илмий-техникавий, ижтимоий тараққиётнинг қатъий шарти – кенг дунёқарашли, эгилувчан тафаккурга эга, ностандарт фикр юритувчи, тезкор қарор қабул қилишга қодир, ҳарбий соҳани эгаллашга юқори қизиқиш, ижодий фаолият юрита оладиган креатив ҳарбий мутахассисни шакллантиришдан иборат. Ижодий фаолият асосий турларининг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, унинг мунтазам равишда амалга оширилиши инсонда ўзгарувчан шароитларда ўзини йўқотмаслик, муаммони аниқ кўра олиш ва унинг янгилигидан қўрқмаслик, фикр юритишнинг янгилиги ва унумлилиги, ихтирочилик, сезгирлик каби сифатлар шаклланади. Бундай сифатларга ҳозир талаб катта, кейинчалик эса эҳтиёж бундан ҳам ошиб боради. Шу мақсадда замонавий ўқув жараёнида таълимнинг анъанавий, яъни репродуктив усулидан продуктив (маҳсулдор), қидирув-ижодий усулларига ўтиш муҳим.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизда кадрларни ўқитиш ва тарбиялаш миллий тикланишдан миллий юксалиш сари принциплари ва мустақиллик ютуқлари, халқнинг бой миллий, маънавий ва интеллектуал салоҳияти ҳамда умумбашарий қадриятларга таянган, инсонпарварликка йўналтирилган таълимнинг мазмуни давлат таълим стандартлари асосида ислоҳ қилинишига катта эътибор қаратилмоқда. Таълим олувчининг шахси, унда таълим ва билимларга бўлган иштиёқни кучайтириш, ҳаётий кўникмалар, ватанпарварлик ва инсоний қадр-қиммат туйғусини шакллантириш эса, асосан таълим муассасаси зиммасига юкланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 29 июндаги 267-сон қарори
2. К.Носиров, Т.Бурхонов Ватанпарварлик–миллий ғоямиз асоси, Т.2022
3. Сатиб-Алдиев А.А. Таълимнинг фаол шакл ва методлари. // Методик тавсиялар: – Тошкент.: ОУҚБЮ, 2007. – 45 б.
4. Махмудов Р.М., Акбаров Л.И. Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси амалда. Педагогс интернатионал ресеарч жоурнал. Волуме-1, Иссуе-1, Январй-2022, в 223-230.

URUSHDAN KEYING YILLARDA O‘ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARI AHOLISINING IJTIMOIY AHVOLI.

Ollomurodov Nurali Yoqub o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix va Falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi
nurali.47maktab@gmail.com
Tel:99891 510-19-92

Annotatsiya: Ushbu maqolada urushdan keying yillarida O‘zbekistonning janubiy hududlari qishloq aholisining ijtimoiy va maishiy hayoti, bunda yuz bergan o‘zgarishlar va uning natijalari, shuningdek, agrar soha vakillarining ta’minoti, daromadi va kundalik hayotida yuzaga kelgan muammolar va uning sabablari xolisona tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, savdo, tovar, qishloq, infratuzilma, muammo, o‘zgarish, ta’minot, taqchillik, daromad.

Kirish (Introduction)

Dunyo miqyosida O‘zbekistonning ijtimoiy soha va kommunal xo`jaligi tarixi, sovet mafkurasining jamiyat rivojiga ko‘rsatgan salbiy oqibatlari, o‘lkadagi iqtisodiy o‘zgarishlar, sovet davrida o‘lkadagi ijtimoiy hayot va u bilan bog‘liq muammolar, janubiy hududlardagi demografik holat, urbanizatsiya jarayonlari, uy-joy, ijtimoiy sohadagi islohotlarning natijalari kabi muammolar ustuvor mavzular sifatida keng o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar natijalari bu masalalar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish hamda ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli Surxon vohasida sovet hokimiyati davrida kommunal xo‘jaligi sohasidagi ishlarni amalga oshirish jarayonida uy-joy, qadriyatlarni mafkuraviy jihatdan kamsitilganligini tarixiy manbalarga tayangan holda o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Urushdan keyingi yillarda respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari sezilarli darajada rivojlanib bordi. Natijada aholining moddiy turmush sharoiti ham ancha yaxshilanib, ijtimoiy muammolari hal qilina boshladi. Endigi asosiy vazifa urushning butun og‘irligini yelkasiga olgan xalqning turmushini farovonlashtirish, ishchilar, xizmatchilar, injener-texnik xodimlar va ularning oilalarga moddiy va maishiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash zarur edi. Ayniqsa uy-joy qurilishi, mavjud uy-joy fondlarini ta'mirlash zarurati shu davrning dolzarb vazifalardan biri edi. Xususan shu davrda janubiy oblastlarining shahar aholisini uy-joy bilan ta'minlash masalasida ham anchagina ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda urushdan keying yillarida Respublikaning janubiy hududlari aholisining uy-joy bilan ta'minlash hamda yo‘l qo‘yilgan xato va nuqsonlar yuzasidan birlamchi manbalar asosida tahliliy fikrlar bayon qilingan. Bu

borada asosiy manba sifatida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari davlat arxivi materiallaridan keng foydalanilgan.

Natijalar va muhokama.

Ijtimoiy soha ishini ijobiy hal etish ko‘p jihatdan jamiyatda mavjud qatlam va guruhlarga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatga bevosita bog‘liq. Sovet davlatida aholining ijtimoiy tarkibini mustahkamlashning ustuvor maqsadi ijtimoiy jihatdan “tenglashuvga” erishish deb qaraldi va ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi tafovutlarni tugatish yo‘lidan borildi. Ushbu jarayon tabiiyki zo‘rovonlik, tayziq hamda sun'iy chegaralar orqali amalga oshirilgan edi. Aholi turli

qatlamlarining ehtiyojlari, maqsad va vazifalarini bir xillikka yo‘naltirishga e'tibor qaratildi. Bu esa turli tabaqalar o‘rtasida mehnat va turmushni, dam olishni tashkil etish shakllari va turlarini qisqartirilishi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi qarashlar, fikrlar xilma-xilligiga barham berilishiga olib keldi

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1946 yil 30 avgustda bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasida aholini uy-joy bilan ta'minlash yuzasidan aniq dasturlar belgilab olindi. Xususan, uy-joy muammosini hal qilish uchun katta miqdorda mablag‘ ajratildi, qolaversa, uy-joy qurish uchun korxonalarda alohida jamg‘armalar tashkil etildi. O‘zbekiston hukumati uy-joy qurish uchun 1946 yilga nisbatan 1947 yilda 1,5 baravar ko‘p mablag‘ ajratdi . 1948 yilga kelib uy-joy qurilishi uchun urushgacha bo‘lgan uchta besh yillikdagi mablag‘ga nisbatan 3 marta ko‘p mablag‘ ajratildi . Bu davrda Surxondaryo oblastining bosh shahri bo‘lgan Termizda ham anchagina bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. 1949 yilda shaharda uy-joy fondlari 1937 yildagiga nisbatan 2 marta ko‘paydi . Shu davrda oblastning Sho‘rchi, Sherobod, Jarqo‘rg‘on rayonlarining markazlarida ham ancha keng ko‘lamli qurilish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 1947-1951 yillarda shahar va shahar tipidagi posyolkalardagi uy-joy fondi qariyib uch baravar oshdi . Bu davrda davlat korxonalari bilan bir qatorda kooperativ tashkilotlar ham aholiga uy-joylar qura boshladi. 1947 yilda Surxondaryo oblasti paxta tozalash tresti uy-joy qurilishi uchun 265 ming rubl', Kitob paxta tozalash zavodiga esa 14 ming rubl' kapital mablag‘ ajratildi. Ushbu mablag‘lar hisobiga Surxondaryo paxta tozalash zavodi xodimlar uchun 116 kv metrli 2 ta uy qurilish rejalashtirildi. Biroq, turli sabablarga ko‘ra ajratilgan mablag‘ning katta qismi o‘zlashtirilmadi . Bunday holatni Denov paxta tozalash zavodi misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan: 1948 yilda Denov paxta tozalash zavodiga uy-joy qurilishi uchun 214 ming rubl' mablag‘ ajratildi. Biroq, ushbu mablag‘ning bor-yo‘g‘i 47 ming rubli o‘zlashtirildi xolos . Yildan-yilga aholi sonining o‘sib borishi bilan birga odamlarning uy-joyga bo‘lgan ehtiyoji ham ortib bordi. 1957 yilda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti “SSSRda uy-joy qurilishini rivojlantirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. 1956-1985 yillar oralig‘ida esa Ittifoq miqyosida 3 milliard kv metrdan ziyod bo‘lgan 66 millionga yaqin uy-joylar qurildi. Ta'kidlash joizki, yangi vujudga kelgan shaharlarning aksariyatida yevropalik millat vakillari kelib joylashdi. Bu davrda industrial sohada mahalliy millat vakillarining kamligi eng avvalo mahalliy aholi orasida ishchilarning kam sonliligi, ularning professional bilim darajasining pastligining asosiy sababi sifatida respublika shaharlarida ijtimoiy infrastrukturaning yetarli darajada rivojlanmaganligi

bilan izohlanadi. Natijada shaharlarda yevropalik aholining soni ko‘payib bordi. 1985 yilda Qashqadaryo oblastidagi 1444,8 ming aholining 364,3 mingi shaharlarda istiqomat qilardi. Surxondaryoda yashayotgan 1134,1 ming aholining 222,0 mingini shahar aholisi tashkil etardi

Bu davrda janubiy oblastlar aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatish tizimining qator tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish aholining kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish borasida ham anchagina ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa shahar aholisiga xizmat ko‘rsatuvchi maishiy xizmat sohalarining soni yil sayin ortib bordi. Maishiy xizmat sohasi janubiy oblastlar xalq xo‘jaligi tarmog‘ida nisbatan kech paydo bo‘ldi. Biroq shuni ta'kid qilish kerakki, ushbu soha mintaqa aholisi turmushida tamomila yangi soha emas edi. Toki 1956 yilda hunarmandchilik artellarining tugatilguniga qadar shahar va qishloq aholisining turmush ehtiyojlarini qondirishda maishiy xizmat bilan bog‘liq sanoat artellarining o‘rni nihoyatda katta edi. Jumladan Qashqadaryoning Qarshi, Shahrisabz va Kitob shaharlari , Surxon vohasining Boysun, Sherobod, Denov va Termiz shaharlari azaldan hunarmandchilik va maishiy xizmat yaxshi yo‘lga qo‘yilgan shaharlar sanalgan . Sovet tuzumi davrida aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi yakka holdagi kosibchilikdan sanoat arteliga, undan so‘ng esa maishiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘iga aylandi. Shu davrda maishiy xizmat ko‘rsatish tizimida etikdo‘zlik, soatsozlik, radio va telepparaturalarni ta'mirlash, kiyim kechaklarni kimyoviy yo‘l bilan tozalash, tikuvchilik, go‘zallik salonlari va boshqa shu kabi xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Maishiy xizmat tizimining yo‘lga qo‘yilishi aholining turmush farovonligini yanada yaxshilash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar turi va sifatining oshishiga asos bo‘ldi.

Tadqiq etilayotgan davrda Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlari aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami besh baravardan ortiq o‘sdi. Shuningdek, mazkur oblastlarning shahar aholisiga xizmat ko‘rsatuvchi maishiy korxonalar soni ham yildan yilga ko‘payib bordi. Masalan, 1960 yilda Qashqadaryo oblastida bunday korxonalar soni 262 tani tashkil etgan bo‘lsa, 1985 yilga kelib 1473 taga yetdi. Shu davrda Surxondaryo oblastidagi maishiy korxonalar soni ham mos ravishda 262 tadan 1114 taga ko‘paydi. Lekin shunga qaramasdan maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida erishilgan daraja aholi talabiga to‘liq javob bermas edi. Maishiy xizmat korxonalarining aksariyati alohida ixtisoslashgan binolarga ega bo‘lmagan. Ularda ishlovchi xodimlar soni ham bitta yoki ikkitadan oshmas edi. Maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarining aksariyatini soatsozlik, poyabzal ta'mirlash ustaxonalari va sartarashxonalar tashkil qilardi. Oblast maishiy xizmat korxonalarida fan-texnika va ilg‘or tajriba yutuqlari amalda qo‘llanilmas edi. Bunday sharoitda ko‘rsatilayotgan xizmatning sifati to‘g‘risida gapirmasa ham bo‘lardi. Shunga qaramasdan soha xodimlari iloji boricha ishni tashkil etish va aholini rozi qilish borasida sidqidildan izlanib xizmat qildilar.

Aholining ijtimoiy va maishiy hayotini izga tushishi va moddiy imkoniyatlarining ortib borishida aholi real daromadlarining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Shahar aholisining turmush darajasini yaxshilash esa ko‘plab omillarga bog‘liq. Eng muhim omillardan biri bu milliy daromadlar va ishlab chiqarish unumdorligidir. Urushdan keyingi davrlarda kommersiya narxlari yuqori, payok narxlari esa ancha

past edi. Ularni bir-biriga yaqinlashtirish orqali kartochka tizimini bekor qilish mumkin edi.

Shu bilan bir qatorda ishchi va xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish borasida ham bir muncha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ittifoq hukumati 1965 yildan boshlab xo‘jalikni boshqarishni ma'lum darajada isloh qilishga urinib ko‘rdi. O‘tkazilgan islohotlar natijasida xo‘jalik va korxonalarda, qurilish tashkilotlarida, maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalarida hosil qilingan daromadning bir qismidan maxsus jamg‘armalarni shakllantirish va ularning mablag‘larini ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarga, mehnatkashlarni moddiy rag‘batlantirishga sarflash imkoniyati vujudga keldi. Ushbu islohotlarning samarasi sifatida O‘zbekiston aholisining ham moddiy va maishiy farovonligi biroz bo‘lsada yaxshilandi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligidagi jiddiy siljishlar, sanoatning ma'lum darajada o‘sishi, mehnat unumdorligining oshishi, moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan aholining ko‘payishi ham ishchi xizmatchilar moddiy ahvolining yaxshilanishiga, ularning yillik daromadining o‘sishiga olib kelgan omillardan biri bo‘ldi.

Xulosa

Urushdan keying yillarda ham O‘zbekistonda turar-joy qurilishi yildan-yilga o‘sib borgan bo‘lsa-da, ammo aholining bu sohaga bo‘lgan talabini qondira olmadi. O‘zbekistonda aholining yillik o‘sishi yuqori bo‘lganligi bois yildan-yilga turar joylarga bo‘lgan ehtiyoj oshib bordi. Shu sababli ham Janubiy oblastlarning markaziy shaharlarida ko‘p qavatli uylar bunyod etilgan butun-butun mikrorayonlar paydo bo‘ldi. Ishchi xizmatchilarning shaxsiy uy-joy qurish tashabbusini bu tarzda bo‘g‘ib qo‘yilishi tufayli shaharlarda aholini uy-joy bilan ta'minlashda jiddiy muammolar vujudga keldi.

Ijtimoiy soha mamlakat iqtisodiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mazkur soha faoliyatini yo‘lga qo‘yish muayyan davlat siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu soha mamlakatda jamiyat taraqqiyotiningmuhim yo‘nalishi sifatida aholining turmush tarzi, yashash va mehnat qilish sharoiti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, barcha ijtimoiy guruh va tabaqalariga tegishli sohalarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Aholining yashash joyi, ya'ni shahar yoki qishloq hududida istiqomat qilishi, yoki kasbi, bajarayotgan ish turining jismoniy yoki aqliy mehnatliligi uning turmush darajasiga bevosita ta'sir qiluvchi omildir. Shuningdek, oila a'zolarining soni va tarkibiga ham bevosita bog‘liqdir. Sovet davlati iqtisodiy taraqqiyotida inson aqliy va jismoniy mehnati evaziga erishilgan darajasi, shahar va qishloq o‘rtasidagi, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘linmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘z MA 1619-fond, 13-ro‘yxat 381-ish, 287-varaq (Oz NA Fund 1619, List 13, Case 381, Sheet 287)

2. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 446-fond, 1-yozuv, 47-ish, 16-varaq (State archive of Surkhandarya region. Fund 446, record 1, case 47, sheet 16).
3. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 446-fond, 1-ro‘yxat 39-ish, 132-38-varaqlar (State archive of Surkhandarya region. Fund 446, List 1, Case 39, Sheets 132-38)
4. Qashqadaryo viloyati Davlat arxivi. 150-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 4-ish, 13-varaq
5. Pardaev T.R. O‘zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1945-1991 y.)– Tarix fanlari doktori (DSc) ilmiydarajasini olish uchun taqdim etilgan diss.Termiz,2021.95-bet

HARBIY-AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MILLIY VA PSIXOLOGIK ASPEKTLARI.

Usmanov Nusratillo Raxmatullayevich,
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy va amaliy fanlar” kafedrasi
psixologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada "Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy va psixologik aspektlari" mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘quvchilarda mustahkam vatanparvarlik hissini shakllantirishda milliy qadriyatlar va psixologik yondashuvlarning o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada milliy g‘oya, tarix, madaniyat va istiqlol ruhining o‘quvchilarga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatish bilan birga, psixologik jihatdan motivatsiya, ma’naviy o‘sish va shaxsiy rivojlanishning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarni vatanparvarlikka yo‘naltirishda psixologik metodlarning samaradorligi, xulq-atvorni shakllantirish va maqsadga erishishda qat’iyatli bo‘lishning roliga alohida e’tibor qaratilgan. Maqola harbiy-akademik litseyda zamonaviy ta’lim va tarbiya metodlarini psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish orqali Vatan oldidagi mas’uliyatni his qilgan mustahkam va ma’naviyatli yosh avlodni tarbiyalashning zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, milliy g‘oya, tarix, madaniyat va istiqlol ruhi, milliy qadriyatlar va psixologik yondashuv, motivatsiya, ma’naviy o‘sish, shaxsiy rivojlanish, milliy g‘oya, istiqlol ruhi, milliy madaniyat, urf-odatlar, komponent, an’analar, san’at, musiqa va adabiyot, psixologik aspektlar, ichki rag‘batlantirish o‘zini anglash, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy mas’uliyat, jamoaviy ruh, xulq-atvor.

Kirish. Harbiy-akademik litseylardagi ta’lim-tarbiya jarayoni nafaqat harbiy mahoratga, balki yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham alohida urg`u berib o`tadi. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, istiqlol g‘oyasi hamda psixologik yondashuvlarning ahamiyati katta. O‘quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirish faqat tashqi omillar bilan bog‘liq emas, balki ichki motivatsiya, ma’naviy o‘sish, shaxsiy va jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglash kabi psixologik jihatlar bilan bog`liq holda o‘z o‘rnini topadi. Ushbu maqolada harbiy-

akademik litseyda vatanparvarlikni tarbiyalashning milliy va psixologik aspektlari tahlil qilinadi.

Milliy aspektlar.

Milliy g‘oya va istiqlol ruhi

Milliy g‘oya va istiqlol ruhining o‘quvchilarga yetkazilishi harbiy-akademik litseyda vatanparvarlikni shakllantirishda eng muhim omil hisoblanadi. Harbiy-ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga Vatan, uning mustaqilligi, o‘tmishi va kelajagi haqida to‘liq tushuncha berish zarur. Milliy g‘oyani o‘zlashtirish, o‘z Vataniga bo‘lgan hurmatni kuchaytiradi va yoshlarni mustahkam vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Tarixiy xotira va qadriyatlar

Harbiy-akademik litseyda vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri tarixiy xotirani saqlashdir. O‘quvchilarni ajdodlarining jangovar faxri va ularning Vatan uchun qilgan xizmatlari haqida bilishlariga ko‘maklashish, ularni o‘z xalqining tarixiga nisbatan chuqur hurmat va g‘urur bilan tarbiyalashni anglatadi. Tarixiy shaxslar, ular qilgan xizmati va millatning o‘zligini saqlash yo‘lidagi fidoyiligi o‘quvchilarda chuqur vatanparvarlik hissini uyg‘otadi.

Milliy madaniyat va urf-odatlar

Milliy madaniyat va urf-odatlar bilan tanishtirish, harbiy-akademik litseyda vatanparvarlikni shakllantirishning muhim komponentidir. O‘quvchilarga o‘z xalqining an’analari, san’ati, musiqasi va adabiyoti orqali milliy ma’naviyatni o‘rgatish, ularning o‘z Vataniga bo‘lgan sadoqatini kuchaytiradi. Bu jarayon nafaqat ularda faxr tuyg‘usini, balki o‘zligini anglashni va o‘z madaniyatiga hurmatni shakllantiradi.

Psixologik aspektlar.

Psixologik motivatsiya va ichki rag‘batlantirish

Psixologik yondashuvlar orqali vatanparvarlikni shakllantirishda motivatsiya va ichki rag‘bat muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni o‘zining va Vatanining oldidagi mas’uliyatni anglashga undash, ularda ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Psixologik metodlar yordamida o‘quvchilarda Vatan uchun xizmat qilishning shaxsiy ma’nosi tushuniladi va bu ularni o‘z maqsadlariga erishishga rag‘batlantiradi.

O‘zini anglash va shaxsiy rivojlanish

Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda psixologik jihatdan o‘zini anglash muhimdir. O‘quvchilar o‘z ichki kuchini, imkoniyatlarini anglashlari kerak. Bu jarayon ularni shaxs sifatida rivojlantiradi va ularga maqsadga yo‘naltirilgan, qat’iyatli va Vataniga sadoqatli bo‘lishga yordam beradi. Psixologik yondashuvlar orqali o‘quvchilar o‘z kelajagiga, millatiga bo‘lgan mas’uliyatni his qilishadi.

Ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviy ruh

Vatanparvarlik tarbiyasida ijtimoiy mas’uliyatni his qilish ham muhimdir. O‘quvchilarni jamoaviy ishlar, umumiy maqsadlar uchun birlashish ruhida tarbiyalash ularni jamiyat oldidagi vazifalarini anglashga yordam beradi. Psixologik

yondashuvlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy va jamoaviy mas’uliyatini his qilib, o‘zaro hamkorlik va jamoaviy ishlarda faol ishtirok etishga undaydi.

Xulq-atvor va o‘zini tutish

Psixologik metodlar yordamida o‘quvchilarda to‘g‘ri xulq-atvorni shakllantirish muhimdir. Ularni intizomga, maqsadga erishish yo‘lida qat’iyatlilikka o‘rgatish, ular uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlashda yordam beradi. O‘quvchilarda o‘zini tutish va jamiyatdagi o‘rni haqida anglatish, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

Xulosa

Harbiy-akademik litseyda vatanparvarlikni shakllantirishning milliy va psixologik aspektlari bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi omillardir. Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, istiqlol ruhini o‘quvchilarga yetkazish va psixologik yondashuvlar orqali o‘quvchilarda nafaqat ma’naviy, balki shaxsiy rivojlanish ham amalga oshiriladi. Bu esa o‘quvchilarni mustahkam vatanparvar, intizomli, ma’naviy jihatdan o‘sishga tayyor va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his qiladigan yosh avlod sifatida tarbiyalashni ta’minlaydi. Shunday qilib, harbiy-akademik litseylar o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy va psixologik aspektlarning ahamiyati alohida e’tiborga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E. «Umumiy psixologiya» O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati T. 2010 y.
2. Nasriddinov Ch.R. “Harbiy psixologiya”. Toshkent. «Fan» nashriyoti 2004.
3. Nazarov, A. (2018). Psixologik tarbiya va uning yoshlar ta’limidagi roli. Tashkent: Yangi asr avlodi. - Psixologik tarbiya metodlari, ularning yoshlar orasida Vatanparvarlikni shakllantirishdagi roli.
4. Akbarov, F. (2017). Milliy ta’lim tizimida vatanparvarlikni shakllantirish metodikasi. Toshkent: Akademnashr. - Milliy ta’lim tizimida vatanparvarlikni shakllantirishda foydalaniladigan metodikalar.
5. Javlonov, S. (2016). O‘quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirish. Toshkent: Iqtisod-moliya. - Vatanparvarlikni shakllantirishdagi zamonaviy pedagogik usullar va psixologik yondashuvlar.

КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ.

Бобаназарова Шоира Содиковна
Преподаватель русского языка
военно–академического лицея «Ёш чегарачилар»
shoirabobonazarova73@gmail.com
Tel:(91)5778448

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые аспекты патриотического воспитания, такие как углубленное изучение истории своей страны, развитие чувства ответственности и гражданской позиции, а также

использование современных технологий и подходов в образовательном процессе. Акцент сделан на важности интеграции культурного и исторического наследия в учебный процесс, а также на поддержке со стороны государства и общественных организаций, что способствует формированию у учащихся глубокой приверженности своим национальным ценностям. Работа подчеркивает, что только комплексный подход, который сочетает традиционные ценности и современные инновации, может эффективно подготовить новое поколение патриотов, готовых служить своей Родине и обеспечивать ее безопасность и процветание.

Ключевые слова: патриотическое воспитание, военно-академические лицеи, национальные аспекты, образовательный процесс, воспитание гражданской ответственности, современные технологии, военные традиции, наставничество, культурное наследие, символика, государственная поддержка, молодежь, служение Родине, гражданская позиция, историческое воспитание.

Воспитание патриотизма у молодежи — это ключевая задача для формирования сильного и сплоченного общества, готового к защите своей Родины, сохранению ее традиций и культурных ценностей. В частности, в военно-академических лицеях, где обучаются будущие защитники Отечества, это воспитание становится еще более важным и должно включат в себя не только военную подготовку, но и глубокие национальные аспекты. Создание национальных аспектов патриотического воспитания учащихся военно-академических лицеев и внедрение современных тенденций в образовательный и воспитательный процесс играют ключевую рол в формировании ответственных и преданных граждан. Военно-академические лицеи, как учебные заведения, готовящие будущих офицеров, имеют особую миссию — не только передавать знания, связанные с военной наукой и тактикой, но и воспитывать высокие моральные и патриотические качества. Образование в таких учреждениях направлено на то, чтобы каждый учащийся осознавал важность своей роли в охране национальных интересов, понимал значимость своей Родины и готов был служить ей с честью и достоинством.

Одной из главных задач является развитие у обучающихся чувства гордости за свою страну, ее историю, культуру и героическое прошлое. В военно-академических лицеях это воспитание патриотизма должно быт неотделимо от национальных аспектов, которые придают глубину и значимость служению Родине. История своей страны, героические подвиги предков, традиции и обычаи должны стать неотъемлемой частью образовательного процесса, помогая воспитанникам понять, что их служба — это продолжение великой традиции защиты своего народа.

Создание национальных аспектов патриотического воспитания означает не только знакомство с историей своей Родины, но и углубленное изучение ее культурных и духовных ценностей. Это может включать в себя уроки, посвященные традициям и языку, литературе и искусству, а также достижениям в различных областях. Важно, чтобы воспитанники лицея

осознавали свою связь с культурой и народом, понимали свою роль в сохранении и передаче этих традиций следующим поколениям.

Особое внимание должно уделяться изучению героических страниц истории своей страны. Знание великого прошлого, побед и достижений предков формирует у учащихся чувство гордости за свою Родину, а также помогает развить чувство ответственности за её будущее. В военно-академических лицеях должно быть организовано глубокое изучение исторических событий, которые сыграли решающую роль в становлении государства, а также героических личностей, чьи подвиги вдохновляют на служение Отечеству.

В последние десятилетия во многих странах наблюдается активное внедрение современных тенденций в систему образования, и военно-академические учебные заведения не исключение. Одной из таких тенденций является использование информационных технологий для создания нового образовательного контента, который не только передает знания, но и помогает развить у учеников критическое мышление, личную ответственность и способность принимать взвешенные решения.

Современные методы воспитания включают активное использование мультимедийных технологий, которые помогают создать реалистичную атмосферу обучения. Важно, чтобы современные подходы к обучению сочетались с традиционными ценностями и ориентировались на конкретные потребности военнослужащих. Воспитание патриотизма, в свою очередь, может использовать такие новаторские подходы, как проектная деятельность, тематические конкурсы, военные исторические реконструкции, встречи с ветеранами, которые позволяют учащимся на практике осознать значимость патриотического служения.

Кроме того, в последние годы большое внимание уделяется развитию лидерских качеств, командной работы и личной ответственности. В военно-академических лицеях необходимо активно внедрять тренировки по лидерству, а также развивать навыки коммуникации и этики, которые будут полезны будущим офицерам как в службе, так и в личной жизни. Создание среды, в которой обучающиеся развивают не только профессиональные, но и моральные качества, становится важной составляющей патриотического воспитания.

Создание национальных аспектов патриотического воспитания в военно-академических лицеях и внедрение современных тенденций в образовательный процесс являются важными шагами на пути формирования граждан, готовых служить своей Родине, защищать ее интересы и сохранять ее культуру и традиции. Важно, чтобы воспитание будущих защитников было связано с глубоким пониманием роли своей страны в мировом контексте и важности служения ей. Совмещение традиционных ценностей с современными методами обучения поможет подготовить молодых людей к решению сложных задач и быть достойными гражданами своей страны. В военно-академических лицеях важнейшей задачей является не только подготовка

высококвалифицированных специалистов, но и воспитание их как патриотов своей страны, преданных службе и защите национальных интересов. В связи с этим, создание национальных аспектов патриотического воспитания играет важнейшую роль в процессе обучения и воспитания будущих офицеров. Это требует целенаправленного подхода, который сочетает в себе традиционные методы и современные инновации, а также адаптацию образовательного процесса к требованиям времени.

С каждым годом в мире происходят значительные изменения, включая глобализацию, которая иногда приводит к потере культурной идентичности у молодежи. В таких условиях, военно-академические учебные заведения должны стать оплотом сохранения и развития национальной идентичности. Патриотическое воспитание должно служить не только как инструмент формирования любви к Родине, но и как способ создания у учащихся устойчивой идентичности, базирующейся на уважении к своим культурным корням и историческому наследию. Важно, чтобы обучение в лицеях не только передавало знания, но и способствовало формированию духовных и моральных ориентиров, поддерживающих приверженность национальным идеалам.

Становление патриотизма у будущих военных начинается с личного осознания ценности Родины, которая основывается на многовековых традициях, историческом наследии, духовных ценностях и героическом прошлом. Осознание важности своей роли в обеспечении безопасности и стабильности государства, а также готовность защищать Родину от внешних и внутренних угроз являются краеугольными камнями патриотического воспитания в военно-академических учебных заведениях.

Внедрение современных образовательных технологий в патриотическое воспитание также играет важную рол. Современные тренажеры и симуляторы боевых действий могут не только подготовить их к возможным военным действиям, но и помочь понять истинную ценность мира и стабильности, а также научится работать в условиях стресса и неопределенности. Эти инструменты также являются мощным источником для развития лидерских качеств, командной работы, а также осознания ценности жизни и ответственности за каждого гражданина страны.

Одним из наиболее мощных элементов патриотического воспитания является личное взаимодействие с ветеранами войны и героями, которые прошли через важнейшие исторические события. В военно-академических лицеях регулярно проводят встречи с ветеранами, исторические лекции и презентации, на которых бывшие военнослужащие делятся личными историями и переживаниями. Такие мероприятия помогают будущим офицерам осознать не только теоретические аспекты истории, но и эмоционально прочувствовать значимость тех событий, которые формировали страну. Кроме того, включение таких мероприятий в образовательный процесс способствует воспитанию у молодежи уважения к прошлому, а также

формированию моральных принципов, таких как честь, долг, ответственность и преданность Отечеству.

Таким образом, создание национальных аспектов патриотического воспитания в военно-академических лицеях и внедрение современных тенденций в образовательный и воспитательный процесс требует комплексного подхода. Важно сочетать традиционные методы обучения и воспитания с использованием новых технологий, а также активно включат во внеурочную деятельность все те формы, которые способствуют развитию патриотических чувств, гражданской ответственности и уважения к культурному и историческому наследию своей страны. Современное патриотическое воспитание должно быть основано на осознании значимости служения Родине, готовности защищать ее интересы, а также на воспитании качеств, которые помогут создавать сильное, справедливое и процветающее общество.

Одним из важнейших аспектов патриотического воспитания в военно-академических лицеях является развитие у учащихся чувства ответственности за будущее своей страны. Важно, чтобы молодежь понимала, что патриотизм — это не только любовь и уважение к Родине, но и активная работа на благо общества. Это включает в себя не только профессиональное выполнение своих обязанностей, но и участие в общественной жизни, защита интересов граждан, а также поддержание мирной жизни и безопасности.

Для этого в образовательный процесс должны быть включены практические занятия, направленные на развитие таких качеств, как ответственность, инициативность, трудолюбие. Важно, чтобы учащиеся научились мыслить не только в рамках своей профессии, но и как граждане, которые ответственны за будущее своей страны. Специальные курсы и тренинги, связанные с моральными и этическими проблемами, такими как служение обществу, борьба с коррупцией, защита прав человека, могут стать важными составляющими образовательного процесса в лицеях.

Современная система образования должна интегрировать историческое и культурное наследие в учебный процесс, что особенно важно для военно-академических учебных заведений. Учащиеся лицея должны не только изучать историю войн и сражений, но и углубляться в культурные и философские традиции своей страны. Знание того, как формировались национальные ценности, какие философские, религиозные и культурные течения оказали влияние на развитие народа, помогает учащимся более осознанно подходить к вопросам патриотизма.

Воспитание патриотизма в военно-академическом учебном заведении невозможно без системы наставничества. Пример старших офицеров и преподавателей, их профессиональная этика, моральные и патриотические ценности, которым они учат подрастающее поколение, имеют огромное значение. Наставники, которые служат примером для своих воспитанников, способны вдохновить их на развитие, самосовершенствование и служение

Родине. Важно, чтобы молодежь видела, как патриотизм сочетается с профессионализмом и моральными принципами в жизни настоящих офицеров.

Роль старших наставников в воспитании не ограничивается только формальной передачей знаний. Они должны быть примером высоких моральных качеств, дисциплины, чести и мужества. Речь идет не только о военных, но и о преподавателях, которые участвуют в воспитательном процессе. Взаимодействие с такими людьми имеет глубокое значение для личного развития будущих офицеров и укрепления их патриотической позиции.

Важным элементом патриотического воспитания является уважение и знание военных традиций, символики, героического прошлого. В военно-академических лицеях необходимо постоянно напоминать учащимся о значимости военных традиций, чести военного служения и о том, что они являются частью великой истории своей страны. Традиции военной службы, такие как принятие присяги, участие в военных парадах, почитание героев и памятных дат, играют важную роль в воспитании чувства гордости за свою страну.

Кроме того, символика, такая как флаг, герб, гимн, имеет особое значение в патриотическом воспитании. Знание и уважение этих символов укрепляет национальную идентичность и помогает формировать чувство единства среди будущих военных. Эти элементы патриотического воспитания оказывают огромное влияние на моральное состояние воспитанников и их отношение к службе. Создание национальных аспектов патриотического воспитания в военно-академических лицеях и внедрение современных тенденций в образовательный процесс — это необходимая и важная задача для формирования нового поколения военных, которые будут не только высококвалифицированными специалистами, но и искренними патриотами своей страны. Важно, чтобы патриотизм, уважение к национальным традициям и ценностям, гражданская ответственность и готовность служит своей Родине стали неотъемлемой частью образовательного и воспитательного процесса. Только в таком случае мы сможем подготовить молодежь, которая будет не только защищать свою страну, но и приумножать ее достижения, создавать будущее, о котором можно гордиться.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Юрьев, В. В. (2017). Патриотическое воспитание как основа формирования гражданской
2. Пирогова, М. А. (2014). Влияние исторического контекста на патриотическое воспитание школьников. Казан: Издательство Казанского университета Федоров, И. П. (2015). Национальное воспитание в условиях глобализации: проблемы и решения. Москва: Наука.
3. Илин И.А. — «О патриотизме». М., 2005.

4. Подходы к воспитанию патриотизма в системе образования. Москва: Просвещение.
5. Ширяев, А. Н. (2018). История военного образования и воспитания. Санкт-Петербург: Русский музей.

VATANPARVARLIK VA JASORAT G‘OYALARI “SHOHNOMA” ASARI QAHRAMONLARI MISOLIDA

Nurullayev J.M.
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Tillar”kafedrasi dariy tili fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Abulqosim Firdavsiyning **“Shohnoma”** asari Sharq adabiyotining eng yirik va muhim asarlaridan biridir. 60,000 baytdan iborat bo‘lgan ushbu asar, qadimiy Eronning tarixiy voqealari, afsonaviy qahramonlar va podshohlar hayotini tasvirlash bilan birga, axloqiy, falsafiy, va vatanparvarlik g‘oyalarini ham o‘z ichiga oladi. Asar mifologik, qahramonlik va tarixiy qismlarga bo‘linib, har bir bo‘limda adolat, jasorat, sadoqat va vatanni himoya qilish kabi qadriyatlar yuksak darajada aks ettirilgan. Asarda **Rustam**, **Kova**, **Faridun** va **Iskandar** kabi qahramonlar o‘zining jasorati, adolatli boshqaruvi va vatanparvarlik g‘oyalari bilan yuksak axloqiy fazilatlarni namoyish etadilar. **"Shohnoma"** nafaqat qadimiy Eron tarixini, balki zamonaviy o‘quvchilarni ham vatanparvarlik, adolat va jasorat kabi qadriyatlar bilan tarbiyalashga yordam beradi. Asar o‘zining badiiy va axloqiy qiymatlari bilan jahon adabiyotining yirik yodgorliklaridan biridir.

Kalit so‘zlar: Shohnoma, Firdavsiyning asari, vatanparvarlik, jasorat, adolat, Rustam, Kova, Faridun, Iskandar, afsonaviy qahramonlar, tarixiy voqealar.

Abulqosim Firdavsiyning **“Shohnoma”** asari o‘zining ulkan hajmi va tarixiy ahamiyati bilan Sharq adabiyotining yirik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Firdavsiyning 30-35 yillik mehnati natijasida yozilgan bu asar 60,000 baytdan iborat bo‘lib, 4000 yillik tarixiy voqealar, afsonaviy va tarixiy qahramonlarning jasoratlari, vatanparvarlik g‘oyalari va axloqiy ta'limotlarni o‘zida mujassam etgan. "Shohnoma"da tasvir etilgan voqealar eramizgacha bo‘lgan 3223-yildan boshlanib, 4 sulola tarixini o‘z ichiga oladi. Bu sulolalar Peshdodiylar, Kayoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylardir. Har bir sulola o‘zining qahramonlari va ulug‘ ajdodlari bilan mamlakatning ravnaqiga hissa qo‘shgan.

Firdavsiyning **“Shohnoma”** asarida nafaqat tarixiy voqealar, balki axloqiy, falsafiy va vatanparvarlik g‘oyalari ham o‘z aksini topgan. Asar kompozitsion jihatdan uch qismga bo‘linadi: mifologik, qahramonlik va tarixiy qismlar. Mifologik qismda qadimgi Eron rivoyatlari va afsonalari, qahramonlik qismini esa Eronda yashagan pahlavonlar va shahsiy qahramonlar, xususan **Rustam** obrazini tashkil etadi. **Rustam**ning janglardagi jasorati, vatan uchun kurashi va o‘z jonini fido etishga tayyorligi asarda alohida ta'kidlanadi.

Asarda tasvirlangan **Kova** obrazida adolat va vatanparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topadi. **Kova** — bu o‘zining temirchilik kasbi bilan tanilgan va xalqni zulmdan ozod qilish uchun bosh ko‘taradigan bir qahramon. **Zahhok**ni mag‘lub etish uchun u xalq qo‘zg‘olonini boshqaradi va zulmga qarshi kurashish yo‘lida xalqni birlashtiradi.

Kovaning kurashi — bu adolat uchun, zulm va bezorilikka qarshi bo‘lgan kurashdir. Firdavsiyning asarida, bunday qahramonlikning zamonaviy ma'nosi, xalqni yovuzliklardan himoya qilish va adolatni tiklash muhim qadriyat sifatida ko‘rsatiladi.

Faridun obrazi esa “Shohnoma” da adolatli podshoh sifatida tasvirlanadi. **Faridun**ning davrida mamlakatda adolat hukm suradi va odamlar tinch hayot kechirishadi.

Bu obraz asarda odil podshoh va to‘g‘ri yo‘lni tanlagan qahramon sifatida namoyon bo‘lib, vatanparvarlik va adolatning timsoliga aylanadi.

Shuningdek, **Iskandar** obrazi ham “Shohnoma” da muhim o‘rin tutadi. Iskandar o‘zining adolatli boshqaruvi va bilimdonligi bilan ko‘plab xalqlarga tengdosh bo‘lib, uning hikmatli boshqaruvi boshqa Sharq adabiyotlariga ham ta'sir ko‘rsatgan. Navoiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy kabi adiblar o‘zlarining asarlarida Iskandarni o‘zlari ideallashtirgan podshoh sifatida tasvirlaganlar.

Firdavsiyning **“Shohnoma”** asari nafaqat Eron tarixini, balki vatanparvarlik, adolat, jasorat, sadoqat va yuksak axloqiy qadriyatlarni ham targ‘ib qiladi. Asar orqali ta'kidlanadigan asosiy g‘oya — o‘z Vatanini sevish, uni himoya qilish va uning uchun kurashishdir.

Asar barcha qahramonlarning o‘z jonlarini fido etishga tayyorligi, o‘z xalqlariga bo‘lgan sadoqati va vatanparvarligi orqali badiiy manba sifatida nafaqat o‘sha davr uchun, balki hozirgi zamon uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xulosa qilib aytganda “Shohnoma”ni o‘qish orqali nafaqat qadimiy Eronning tarixiy voqealari bilan tanishish mumkin, balki u zamonaviy o‘quvchilarni ham o‘z Vataniga bo‘lgan sadoqat, adolat va insoniylik kabi yuksak axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalashga yordam beradi. Firdavsiyning bu ulkan asari o‘zining axloqiy va estetik qiymati bilan jahon adabiyotining eng yirik yodgorliklaridan biri sifatida tarixda qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Firdavsiy, A. “Shohnoma”. Toshkent: Sharq nashriyoti.2007 yil
2. Nizomiy, G. "Iskandarnoma". Baku: Elm nashriyoti.1995 yil.
3. Jomiy, A. "Xiradnomai Iskandar". Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 1987 yil.
4. Navoiy, A. "Xamsa". Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti. 2010 yil.
5. Xusrav Dehlaviy, "Oinai Iskandariy". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.-1999 yil.
6. Abdullaev, A. Shohnomaning axloqiy va falsafiy mazmuni. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti 2010 yil.

7. Sadiqov, Sh. Shohnomaning jahon adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti. 2018 yil.
8. Firdavsi va uning asarlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar. Baku: O‘zbekiston Milliy Akademiyasi nashriyoti. 2014 yil.

VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URURNING SHAKLLANISHIDA TARIXNING O‘RNI

Muxammadiyev Omon Mamataliyevich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasi
tarix fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ongu shuurida vatanparvarlik va milliy g‘urur g‘oyalarini mustahkamlash uchun olib boriladigan ishlar, ularning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Mavzuga oid adabiyotlar o‘rganildi, mavzuning dolzarbligi ochib berildi, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillardan iborat. Shuningdek yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga oid tushunchalar, qarashlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Milliy g‘urur, ta'lim, tarbiya, ongu shuuri, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhi, tarbiya, harbiy intzom.

Vatanparvarlik tarbiyasi Tarix fani o‘qituvchilari uchun – Vatan tarixi, uning madaniyati qadr-qimmati haqidagi bilimlarni aniqlashdan boshlanadi. Ona tiliga, o‘z xalqining milliy madaniyatiga muhabbat, Vatan tarixini bilish - vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Vatanni himoya qilishda xalqning qahramonligi, fidoyilik, rahm – shafqat, axloqiy poklik-bu g‘oyalar zamonaviy hayotda dolzarbdir. Zamonaviy pedagogikada o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosini muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradigan ko‘plab hujjatlar va materiallar mavjud. O‘quvchilarda bu borada quyidagi usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

A) O‘quvchilarni ijtimoiylashtirish, fuqarolik madaniyatini shakllantirish, demokratik, huquqiy davlat qadriyatlari bilan tanitish, va ularga fuqarolik jamiyati asoslari haqida tushunchalarni shakllantirish;

B) Vatanimiz taqdiriga daxldorlik misolida vatanparvarlik va fuqarolikni tarbiyalash;

C) O‘zbek milliy tarixi va madaniyati qadriyatlarini saqlashga qaratilgan yaxlit, o‘ziga xos, erkin, insonparvar shaxs sifatida axloqiy shaxs obrazini shakllantirish

Respublikamizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumta’lim maktablarining o‘quv dasturlariga "Vatanparvarlik tarbiyasi" fanining kiritilgani, oliy o‘quv yurtlarida "Milliy g‘oya" kursining o‘qitilishi bu boradagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Biroq shuni ham ta’kidlash joizki, ayrim hollarda vatanparvarlik tushunchasi bir

tomonlama, tor doirada talqin etilmoqda. Tadqiqot jarayonida vatanparvarlik va milliy g‘ururni yuksaltirishga oid ko‘plab adabiyotlar o‘rganildi. Jumladan, A.Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari, Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romani, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor kabi adiblarning asarlarida bu mavzu teran yoritilgan. Shuningdek, Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", Shavkat Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz" asarlarida ham vatanparvarlik va milliy g‘urur masalalariga alohida e'tibor qaratilgan

Vatanparvarlik mavzusida juda ko‘p olim-u ulamolarimizning ijod namunalariyu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zaxiriddin Bobur, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya’ni bizning zamonamizda ham o‘ziga xos o‘rin egallagan bo‘lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma’noda, o‘zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu - insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta’lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo‘msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, uni yomon ko‘zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha’nini himoya qilish - bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas’uliyatli vazifalardandir.

Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta’lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o‘quvchilarda barcha qobilyatni o‘sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Ilg‘or g‘oyalarni davrimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o‘g‘il va qizlarda g‘oyaviy e’tiqodni ma’naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo‘lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta’sir ko‘rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi.Vatanparvarlik tushunchasi ko‘pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu to‘g‘ri. Ammo, biz bu tuyg‘uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma’noda qo‘llagan bo‘lamiz. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Vatanini yovga topshirishni or bilgan alloma bosqinchilarga qarshi jangga kiradi va mardlarcha shahid bo‘ladi. Hakimlar aytadilar: “Kishining vafodorligi uning o‘z vatani uchun qayg‘urishidan, birodarlarini sog‘inishidan va umrining zoye ketkazgan lahzalariga o‘kinib yashashidan bilinadi”. Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi uni vatanini himoya qilishiga, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishiga hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyat darajasida hissa qo‘shishga undashi lozim. Zero, har bir oilada o‘g‘il farzand tug‘ilganda ota-ona bilan bir qatorda yurt – Vatan ham suyunib, shodu hurram bo‘larkan. Chunki o‘g‘il farzand nafaqat ota-onasi, oilasini, balki butun xalqini, Vatanini himoya qiladigan o‘g‘lon hisoblanadi.

Yurtimiz tinchligi va barqarorligini saqlashda, mamlakatimiz hududini himoya qilishda Qurolli kuchlar, harbiy xizmatchilar, chegara qo‘riqchilarining xizmatlari beqiyosdir. O‘z oromi, tinchi, huzur-halovati, rohat-farog‘ati, kerak bo‘lsa jonidan kechib, Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini himoya qilayotgan qurolli kuchlar xodimlarining mashaqqatli xizmatlari alohida e’tirofga sazovar. Alloh insonni xalq qildi. O‘zi undan yaratgani va unga qaytaradigani yerga, zaminga, ona tuproqqa muhabbatni inson fitratiga qorishtirdi. Shayx Muhammad G‘azzoliy aytadilar: “Bashar o‘z yeriga, garchi u tap-taqir sahro bo‘lsa ham qattiq bog‘lanadi. Vatanni sevish inson ruhiyatidagi asl tabiatdir. Ushbu tabiat vatanda yashashda huzur-halovat, undan uzoq bo‘linganda sog‘inch, hujum qilinganda mudofaa va kamsitilganda g‘azab hislarini paydo qiladi”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, vatanparvarlik va milliy g‘urur inson ma'naviyatining tarkibiy qismidir. Bu tuyg‘ularni yoshlar ongi va qalbiga singdirish, amalda joriy etish uchun barcha sohalarda tizimli ishlar olib borish zarur. Zero, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qiladigan yosh avlodni voyaga yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat’i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llabquvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral, PF4947-son farmoni.
3. Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik- milliy g‘oyamizning poydevoridir. “ Tasvir “ nashriyot uyi Toshkent-2021.
4. I.A. Karimov – “Buyuk kelajagimizning haqiqiy kafolati” - Toshkent, “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1993.
5. https://natlib.uz – O‘zbekiston Milliy kutubxonasi electron adabiyotlar va tadqiqotlar sayti.

TA’LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Iminov Fazliddin Isaqjonovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL

“Kasbiy-amaliy fanlar” kafedrasi
ChQBT fani yetakchi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati, usullari va natijalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili, so‘rovnomalar o‘tkazishva kuzatuvlar amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun maktabgacha, maktab va oliy o‘quv yurtlarida tizimli ishlar olib borishzarur.

Kalit so‘zlar: harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, yoshlar, ta'lim muassasalari, milliy qadriyatlar, Vatan himoyasi

Kirish

Vatanparvarlik tuyg‘usi har bir inson qalbida yoshlikdan shakllanadi. Shu bois yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, globallashuv va axborot oqimi jadallashgan bir davrda bu masala yanada muhim ahamiyat kasbetmoqda . Yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish barchamizning burchimizdir .

Ushbu maqolaning maqsadi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati, usullari va natijalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili, so‘rovnomalar o‘tkazish va kuzatuvlar amalga oshirildi.

Usullar va adabiyotlar tahlili Tadqiqotda ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, monografiyalar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar va tarbiyachilar bilan suhbatlar o‘tkazildi.

Adabiyotlar tahlili: shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan Jumladan, A.A.Qo‘chqorov o‘zining dissertatsiya ishida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning pedagogik asoslarini tadqiq etgan . U.N.Nishonaliyev esa harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi masalalarini o‘rgangan

Biroq tadqiqotlar ko‘rsatadiki, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha tizimli ishlar yetarli darajada olib borilmagan. Aynan shu bois ham bu masala dolzarb bo‘lib qolmoqda. Maqolada tahlil uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

- Maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida yoshlarbilan olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha hujjatlar va dars ishlanmalarini o‘rganish;
- Pedagoglar va tarbiyachilar bilan suhbatlar o‘tkazish;
- Yoshlar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish.

Natijalar

Tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagilardan iborat: Maktabgacha ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asosan milliy qadriyatlar, xalq qahramonlari va sarkardalar haqidagi hikoyalar, vatanparvarlik mavzusidagi she'r va

qo‘shiqlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarga yoshligidanoq Vatan tuyg‘usini singdirish, ularning qalbida vatanparvarlik hissini uyg‘otish tarbiyaning muhim qismi sanaladi.

Umumta’lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. O‘quvchilarga "Vatan tuyg‘usi", "Milliy istiqlol g‘oyasi", "Ma’naviyat asoslari" kabi fanlar o‘qitiladi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda esa mehnat qahramonlari, Ikkinchi jahon urushi faxriylari va harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlar tashkil etiladi. Shuningdek, "Shunqorlar", "Alpomish" va "Tomaris" kabi harbiy-sport musobaqalari ham muntazam ravishda o‘tkazilib turiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yanada keng ko‘lamda olibboriladi. Talabalar "Milliy g‘oya", "Harbiy ta'lim", "Yoshlar va siyosat" kabi fanlarni o‘rganadilar. Talabalarni Vatan himoyasiga tayyorlash maqsadida maxsus kurslar va trening mashg‘ulotlari tashkil etiladi. Harbiy kafedralar faoliyati ham bu borada muhim ahamiyatga ega. O‘tkazilgan so‘rovnomalarda yoshlarning aksariyati (78%) harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyatini tushunishi va bu borada bilim va ko‘nikmalarga ega ekani aniqlandi. Ular Vatan ravnaqi va xavfsizligi yo‘lida xizmat qilishga tayyorliklarini bildirdilar.

Tahlil va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta'lim muassasalarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq maxsus fanlar o‘qitilmoqda, darsdan tashqari tadbirlar tashkil etilmoqda. Biroq ushbu faoliyatni yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish zarur. Jumladan, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tizimli asosda va uzluksiz ravishda olib borish lozim.

Ya’ni bu jarayon maktabgacha ta’lim muassasalaridan to oliy o‘quv yurtlarigacha uzviy davom etishi kerak. Tarbiya ko‘p qirrali bo‘lib, faqat milliy g‘oya va mafkurani singdirish bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarni jismonan va ruhan barkamol etib tarbiyalashga ham e'tibor qaratish zarur.

Bundan tashqari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va jamoatchilik institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Zero, vatanparvarlik faqat ta’lim muassasalarining ishi emas, balki jamiyatning barcha bo‘g‘inlaridagi tarbiyaviy faoliyatning asosi bo‘lishi kerak.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyor, fidoyi insonlar etib tarbiyalash lozim.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimini shakllantirish, ushbu faoliyatni uzluksiz va uzviy ravishda olib borish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, jumladan, vatanparvarlik g‘oyalari ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimizni ana shunday ruhda tarbiyalash orqali biz mamlakatimiz ravnaqi va xavfsizligini ta'minlashga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ochilov M. Muallim – qalb me’mori. – Toshkent: o‘qituvchi, 2001 – 224 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Турдиева, Г., & Абишов, М. (2024). Факторы, влияющие наизменениесуммы налога на прибыл коммерческих банков. Studiesineconomics and education in the modern world, 3(2), 9-18.
4. Turdiyeva,G., Kadirbaeva, A. (2024, February). Development pointsofthefactor analysis of the profit tax of commercial banks. In Proceedingsof International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 3, No.2, pp. 114-118).
5. Turdieva, G., Abishov, M., & Muratbaev, I. (2024). The impact of creditrisksonan effective organization in the financial services of commercialbanks. NRJ, 1(4), 215-225.

HARBIY SAN’AT TARIXI: AMIR TEMURNING QO‘SHINLARNI BOSHQARISHDAGI JANGOVAR MAHORATI

Shaymardanov Xamza
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Kasbiy-amaliy fanlar” kafedrasi
ChQBT fani o‘qituvchisi

Annotasiya: Amir Temur, tarixda Tamerlan nomi bilan tanilgan, 14-asrda Markaziy Osiyoda kuchli va buyuk imperiya yaratgan buyuk sarkarda bo‘lgan. U o‘zining harbiy san’ati va strategiyalari bilan mashhur bo‘lib, qo‘shinlarini boshqarishda yuqori mahorat ko‘rsatgan. Temurning jangovar mahorati o‘zining ajoyib taktikasi, harbiy inshootlar va zamonaviy jang usullarini qo‘llash bilan ajralib turadi. Uning harbiy rejalari va janglarga yondashuvi ko‘plab tarixchilar va olimlar tomonidan tadqiq etilgan. U o‘z qo‘shinlariga qat’iylik va yuqori intizomni ta’minlagan, shu bilan birga, harbiy strategiyada ijodkorlik va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega edi.

Kalit so‘zlar: Harbiy san’at, Amir Temur, Jangovar mahorat, Qo‘shinlarni boshqarish, Taktika va strategiya, Markaziy Osiyo, Temurning qo‘shinlari, Temuriylar imperiyasi,Harbiy intizom, Jang usullari

Kirish

Amir Temur (yoki Tamerlan) dunyodagi eng buyuk harbiy liderlardan biri hisoblanadi. Uning jangovar mahorati va qoshinlarni boshqarishdagi yuksak salohiyati uni tarixda alohida oringa qo‘yadi. Bu maqolada, Amir Temurning qo‘shinlarni boshqarishdagi harbiy san'atini tahlil qilish, uning strategik fikrlash usullari, taktikalari va jangovar uslublarini o`rganish maqsad qilinadi.

1. Amir Temurning harbiy san'ati va strategiyasi

Amir Temurning harbiy san’ati uning yirik shaxsiy fazilatlari va ajoyib taktikalariga asoslangan. U juda oziga xos harbiy strategiyani ishlab chiqqan bo‘lib,

shu bilan birga, janglar davomida yuqori darajadagi shaxsiy qat’iyat va iroda ko‘rsatgan. Temur o‘zining harbiy harakatlarida bir nechta asosiy tamoyillarga amal qilgan:

1. **Muvaffaqiyatli poydevorlar yaratish:** Amir Temur janglarga tayyorgarlikda yuqori sifatli qo‘shin tuzish, jangovar texnika va jangovar harakatlarni puxta o‘rganish, janglar uchun zarur bo`lgan moddiy resurslar va axborot tarmoqlarini yaratishga diqqatini jalb qilgan.
2. **Geografik jihatlarni hisobga olish:** Temur o‘zining harbiy harakatlarini juda puxta rejalashtirgan, janglarni strategik jihatdan qulay hududlarda o‘tkazgan. Uning janglari ko‘pincha tog‘lar, daryo o‘tish joylari yoki boshqa tabiiy to‘siqlarni o`zida jamlagan hududlarda amalga oshirilgan.
3. Psixologik bosim va qo‘rqitish: Amir Temur jangda raqiblarni psixologik jihatdan sindirishni muhim deb bilgan. Uning qo‘shinlari raqiblarni jangga kirishdan oldin qattiq qo‘rqitishga va ruhiy bosim o‘tkazishga qaratilgan strategiyalarni qo`llagan.

2. Amir Temurning jangovar taktikalari

Amir Temurning jangovar mahorati yuqori darajadagi taktika va texnikalarni qo‘llashda namoyon bo‘lgan. Uning jangovar taktikalarida quyidagi asosiy uslublar mavjud:

1. **Kuchli otliqlar va mo‘tabar qo‘shinlar:** Temur, odatda, jangda o‘zining otliqlarini asosiy jangovar kuch sifatida qo‘llagan. Otliqlarni tezkorlik va kuch bilan raqibni sindirishda ishlatish, Amir Temurning jangovar ustaliklaridan biridir.
2. **Kengaytirilgan frontlar va pozitsion janglar:** Temur raqibning kuchini bo`shatib, unga nisbatan keng frontni tashkil etgan va shu orqali raqibning harbiy kuchlarini bir joyga jamlab, asosiy zarbani qaratgan. Bu unga jangda ustunlik berish imkoniyatini yaratgan.
3. **Qo‘shimcha qo‘shinlardan foydalanish:** Temur jangga qo‘shimcha qo‘shinlar kiritish, qo‘shni kuchlarni qisqa muddatda yig‘ish va tezkor qarorlar qabul





qilishda mahoratini namoyon qilgan. Uning qo‘shinlari doimiy ravishda yaxshi tashkil etilgan va mobil bo‘lgan.

Amir temur armiyasi *Anqara jangi xaritasi*

3. Amir Temur va jangovar psixologiya

Temur janglarda raqiblarini jismoniy va ruhiy bosim ostiga olgan. Uning harbiy harakatlari ko‘pincha "qo‘rqitish" va "anglash" kabi psixologik uslublarga asoslangan. Temurning qo‘shinlari janglar oldidan raqiblarini jiddiy psixologik bosim ostiga olgan, masalan, jangni boshlashdan oldin qo‘shnilarni o‘z hududlariga kirib kelgan otliqlari bilan qo‘rqitib, ularni qo‘rqitish va bo‘ysundirish maqsadida olib borilgan. Bu janglarni yengishga yordam beradigan yana bir muhim jihatdir.

4. Amir Temurning jangovar g`alabalari va muvaffaqiyatlarining sabablari

Amir Temurning janglarida galaba qozonishining asosiy sabablaridan biri uning yuqori darajadagi harbiy intizomi va qat'iyatidir. Uning qo‘shinlari dushmanlari ustidan tezkor va to‘liq g‘alaba qozonishga imkon bergan. Temur raqiblarni yengish uchun o‘zining yuqori darajadagi tashkiliy qobiliyatlari, jangovar texnika va strategiyasini mukammal darajada qo‘llagan.

Xulosa

Amir Temurning qo‘shinlarni boshqarishdagi jangovar mahorati unikal va harbiy san’at tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning strategik va taktika bilimlari, qo‘shinlarni harbiy jihatdan yaxshi boshqarish usullari va psixologik bosim o‘tkazishdagi ustaligi uni o‘z davrining eng buyuk harbiy liderlaridan biriga aylantirgan. Temurning jangovar san’ati zamonaviy harbiy mutaxassislar tomonidan ham o‘rganilib, o‘zining strategik va taktika jihatlari bilan katta ta’sir ko`rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhammad Sodiq: "Temur va uning qo‘shinlari" –1991-1995 (O‘zbekiston tarixining zamonaviy tadqiqotlarida chop etilgan).
2. Rustamov Shavkat "Amir Temurning harbiy strategiyalari" –2000-yillar (bu asar 21-asrda boshlangan ilmiy ishlanmalar asosida nashr etilgan).
3. Ne’matov Azizbek "Temur va uning imperiyasining harbiy tuzilishi" –1998 (O‘zbekistonda Temur tarixiga oid ilmiy tahlillarni taqdim etgan asar).
4. Bobur Sharifov "Temur va Markaziy Osiyo tarixi" –2005 (Markaziy Osiyo tarixidagi Temur va uning davri haqida ilmiy yondashuv).
5. Qodirov Uyg‘un "Temuriylar davri va harbiy inqiloblar" –2003 (Temuriylar davri va ularning harbiy tashkiloti haqida ilmiy tadqiqot).
6. Justin Marozzi "Tamerlane: The Life and Legend of Amir Timur" –2004 (Bu kitobning inglizcha nashri 2004-yilda chop etilgan).
7. René Grousset "The Empire of the Steppes: A History of Central Asia" –1939 (Bu asar Markaziy Osiyo tarixiga oid klassik tadqiqot bo‘lib, 1939-yilda nashr etilgan).

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРГА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ БЕРИШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ҚАРАШЛАР

Даулетмуратов Рашит Бегимбаевич,
тарих фани ўқитувчиси, Ўзбекистон Республикаси ИИВ
Нукус "Темурбеклар мактаби" ҳарбий-академик лицейи,
расшиддаwлетмуратов1980@гмаил.сом

Аннотация. Ҳозирги кунда таълим сифатини ошириш, таълим тизимининг ривожлантириш ва ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари, таълимни модернизация қилиш доирасида амалга оширилган ишлар ва ислоҳотлар ёритиб берилган. Шунингдек, илғор таълим тармоқларини ривожлантириш мақсадида устувор йўналишларини белгилаш баробарида сифатли таълим тизимини ислоҳ этиш жараёнида миллий тарбиянинг мазмуни ва самарасини замон талаблари даражасига кўтариш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: 30 ёшгача бўлган давр, таълим муассасалари, мустақил фикрлаш, баркамол авлод, Янги Ўзбекистоннинг келажаги, ёшларга яратилган имкониятлар.

Халқимизда «таълим ва тарбия – бешикдан бошланади», деган ҳикматли сўз бор. Фақат маърифат инсонни камолга, жамиятни тараққиётга етаклайди. Шу сабабли мамлакатимизда таълим соҳасидаги давлат сиёсати узлуксиз таълим тизими принципига асосланган, бола туғилганидан бошлаб, 30 ёшгача бўлган даврда уни ҳар томонлама қўллаб–қувватлайдиган, ҳаётда муносиб ўрин топиши учун кўмак берадиган, яхлит ва узлуксиз тизим яратишга ҳаракат қилинаётгани бежиз эмас[1.227].

«Ўқитувчининг бош вазифаси ўқувчиларда мустақил фикр юритиш кўникмаларни ҳосил қилишдан иборат, буни яхши тушунамиз, лекин, афсуски, амалда тажрибамизда унга риоя қилмаймиз. «Мустақил фикрлаш катта бойликдир» **[2.8-9].**

Демократик жамиятда хар бир фуқаро, биринчи навбатда ёшлар, умуман хар бир инсон эркин фикрлаш қобилиятига эга этиб тарбияланади. Агар болалар эркин фикрлашни ўрганмасалар, таълим самараси паст бўлиши табиий.

Дарҳақиқат, юртбошимиз алоҳида қайд этиб ўтганларидек, ҳамон республикамиздаги умумий ўрта таълим ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқув юртлари, айниқса, олий ўқув юртлари ижтимоий факултетлари талабалари учун ҳар фандан давр талабига мос асосий манбалар, архив материаллари, давлат хужжатлари, хрестоматик материаллар билан бойитилган, илмий-назарий, методик ва дидактик жиҳатдан етук, тавсия этилиши лозим бўлган, яъни республикамиз таълим тизимида педагогик

амалиёт ва ҳар томонлама синов(эксперимент)да текшириб ўтилган теран дарсликларнинг яратилиши бирмунча оғир кечмоқда **[3.3].**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 мартдаги қарори билан тасдиқланган “Умумий ўрта таълим тўғрисида низом”да “Умумий ўрта таълим ўқувчиларга билимларнинг зарур ҳажмини беради, мустақил фикрлаш, ташкилотчилик қобилияти ва амалий тажриба кўникмаларини ривожлантиради, дастлабки тарзда касбга йўналтиришга ва таълимнинг навбатдаги босқичини танлашга ёрдам беради”, деб қайд этилган [4].

Таълимнинг сифатли бўлишидан жамият манфаатдор экан, бу ишни амалга ошириш нафақат давлат, балки жамиятнинг барча аъзоларига тааллуқли бўлиши зарур.

Аввало, таълим олувчилар мавжуд шарт - шароитлардан тўлақонли ва самарали фойдаланишлари керак. Бугунги кунда талабада аввалгиларига қараганда кўпроқ билим олиш имкони мавжуд. Ёшларимиз илм ҳақиқий бойлик эканлигини тушуниб боришлари лозим[5].

Бугунги кун глобаллашув даврида сифатли таълим масаласи муаллимлар, профессор-ўқитувчилар, олим ва мутахассисларни, балки кенг жамоатчиликни ва ҳар бир фуқарони бефарқ қолдирмаслиги керак. Чунки халқининг фаровонлиги ва Ватани равнақидан кўнгли тоғдек юксаладиган, юртининг тақдирини ўз тақдири деб билган аждодларимизнинг бой тарихий меросига, чексиз ҳурмат туйғуси билан яшайди [6].

Энг замонавий илмлар билан қуролланмаган, билим ва тафаккур уфқи кенг кишиларсиз Янги Ўзбекистоннинг келажагини, жаҳон ҳамжамиятидаги мустаҳкам ўрнини тасаввур этиб бўлмайди.

Шунинг учун ҳам баркамол авлодни тайёрлашнинг асосий бош воситаси бўлган сифатли таълим тизимини ислоҳ этиш жараёнида миллий тарбиянинг мазмуни ва самарасини замон талаблари даражасига кўтариш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ёшларимизни яратилган имкониятлардан тўғри, оқилона фойдаланишларини таъминлаш учун таълим-тарбия тизимида, тарғибот тизимида тегишли вазифаларни белгилаб олишимиз талаб этилади.

Ўқувчиларни профессионал ташхислаш ва касб-ҳунарга йўналтириш, шунингдек, ўғил-қизларни юқори малака талаб этмайдиган касбларга тайёрлаш умумий ўрта таълим мактабининг вазифаларидан бири сифатида белгиланган.

Шунингдек, ўқувчи шахсини мустақил фикрлаш, таълимнинг кейинги турини танлаш ҳамда ватанпарварлик ва миллий ғурурни эгаллашга тайёрлаш умумий ўрта таълимни амалга оширувчи таълим муассасалари билан бир қаторда давлатимизда ташкил етилган куч структурасига тегишли ҳарбий академик лицейларнинг ҳам мақсади экан.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 2021.
2. Каримов И.А. «Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.: «Шарқ». 1997.
3. Тошпулатов Т., Ғаффоров Я.Х. «Тарих ўқитиш методикаси». Тошкент. «Турон-иқбол»2010.
4. “Умумий ўрта таълим тўғрисида низом”. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 мартдаги қарори.
5. Мухамеджанова Л.А., Ивентев С.И., Рахимшикова М. «Значение нравственного воспитания в современное время» // Асадемис ресеарч ин эдусатионал ссиенсес. 2022. №НУУ Сонференсе 2. УРЛ: хттпс://сйберленинка.ру/артисле/н/значениенравственного-воспитания-в-современное-время.

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORLARINI VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URUR G‘OYALARI ASOSIDA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA YANGICHA MAFKURAVIY YONDASHUV.

Choriyeva Fazilat Ulug‘bek qizi
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL kadrlar bo‘linmasi 2-toifali mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda yangi O‘zbekiston yoshlariga ta’lim berishda turli xil mafkuraviy hujumlardan himoyalagan holatda ularni vatanparvarlik va yangicha mafkuraviy g‘oyalar asosida komil inson etib tarbiyalash to‘g‘risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’rifat, ma’naviy bo‘shliq, ta’lim-tarbiya, 3-Renessans, g‘oya, yangi O‘zbekiston, komil inson, mafkuraviy huruj, ta’limdagi islohotlar, davlatimiz kelajagi, mamlakat taqdiri, yangi tamaddun, ma’rifatparvar ajdodlarimiz merosi, individ, fuqorolik burch, vatanparvarlik.

Prezidentimizning 2021-yil 26-martda qabul qilgan «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan jamiyatda sog‘lom dunyoqarash, oila, ta’lim tashkilotlari, mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, internetdan foydalanish madaniyatini oshirish borasidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi.

Mafkuraviy hurujlar hanuzgacha davom etar ekan yoshlarni axborot hurujlaridan himoyalanish maqsadida ularda mafkuraviy immunitetni hosil qilish vazifasi ularning avvalo ota-onasi zimmasiga undan keyin ularning ustoz va murabbiylariga yuklatilishi lozim.Farzand dunyoga kelgach, u dastlabki tarbiyani oilasi ya’ni ota-onasidan oladi. Albatta, aka-uka qarindoshlar ham o‘z navbatida uning tarbiyasiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bola o‘quvchi sifatida maktabga qadam qo‘yar ekan, u jamiyat bilan hamnafas ta’lim-tarbiyani uzviy davom ettiradi. Maktab dargohida tarbiyani to‘liq o‘zlashtirib ta’lim sohasida kamchiliklari bo‘lsayu u bu

kamchiliklarini to‘ldirishga harakat qilsa jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi mumkin.Biroq aksi bo‘lib ta’lim olish darajasi yuqori, tarbiyasi sust bo‘lsa bunday insonni jamiyatga va davlat rivojiga tegadigan foydasidan zarari ko‘p bo‘ladi.

Davlatimiz Rahbari olib borayotgan odilona siyosat tufayli nafaqat yoshlar orasida balki aholi orasida ham kitobxonlik darajasi sezilarli darajada o‘sdi. Bundan tashqari ta’lim sohasidagi islohotlardan, xususan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qaytadan ishga tushirilishi va xususiylashtirilishi ham yosh avlodning maktabda ta’lim olishini davom ettirishida ijobiy tasir o‘tkazmoqda.Ta’lim sohasini uzluksiz ravishda samarali davom ettirish, oliy ta’limga yo‘naltirish borasida “Temurbeklar maktablari” va “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseylarini faoliyat olib borishi ham ta’lim sohasida yangicha mafkuraviy yondashuv kasb etmoqda.

1-Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek hali suyagi qotmagan farzandlarimizni o‘z holiga tashlab qo‘ysak tarbiyasi ilmi va ma’naviyati bilan shug‘ullanmasak kelajakda ularning komil insonlar bo‘lib yetishmog‘iga kim kafolat bera oladi? Biz jamiyatimiz davlatimiz kelajagini kimlarning qo‘liga topshiramiz ?

Binoning tayanchi ustunlar bo‘lsa, mamlakatning tayanchi ham yoshlar hisoblanadi. Axborot hurujlari orqali inson ma’naviyatiga mafkuraviy hujum qilish hozirgi ijtimoiy tarmoqlar ommalashib, rivojlanib borayotgan bir vaqtda tobora avj olmoqda.Ijtimoiy tarmoqlarning esa asosiy foydalanuvchilarini ham yoshlar tashkil etadi.Buyuk mutafakkir ajdodimiz Mahmud Az-Zamahshariyning: “Bamisoli tumov kishi gulning hidini sezmaganidek, ahmoq kishi hikmat lazzatini bilmaydi” degan edi. Darhaqiqat, endi ulg‘ayib, o‘sib, rivojlanib, oqni qoradan ajratishni o‘rganayotgan yoshlarga mafkuraviy hurujlar orqali ta’sir o‘tkazish bu nafaqat ularga balki butun mamlakat taqdiriga katta xavf solmasdan qolmaydi.

Yurtimiz kundan kunga rivojlangani sari boshqa ko‘plab rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarda uchrayotgan turli xil mafkuraviy hurujlar bizni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Yangi O‘zbekiston yoshlarini ushbu hurujlardan himoya qilish uchun ularni uzluksiz ravishda nazorat qilish ularni ta’lim-tarbiya olishiga befarq bo‘lmasligimiz lozim. Hozirgi zamonda yoshlarimizning tarbiyasi yoki ma’naviyatidagi kichik bir bo‘shliqni bo‘lishi kun kelib og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xususan diniy ekstremizm qurboni bo‘layotgan yoshlarning ham tarbiyasi ham ma’naviyatidagi bo‘shliq tufayli yuzaga kelmoqda. Bo‘shliq qachon bo‘ladi? Qachonki shaxs sifatida voyaga yetayotgan individni ta’sir doirasidagi insonlarning birida yetarlicha ta’lim-tarbiya berish ko‘nikmalarini yetishmasligida. Yoki o‘sha insoning o‘zi va uni o‘rnini bosuvchi shaxslarning yo‘qligida namoyon bo‘ladi. Bunda individni voyaga yetganidan so‘ng ham uni jamiyat uchun to‘laqonli xavfsiz shaxs deya ayta olmaymiz. Negaki bu turdagi shaxslar umr kechirish davomida ham ma’lum bir turdagi jinoyatga moyil shaxslar bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekistonni barpo etish g‘oyasi va Uchinchi Renessans asosini yaratish borasidagi tashabbusi bugun reallikka ko‘cha boshlagani ,Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangrayotgani,xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirayotgani ta’kidlanadi. Shu bilan birga ,yurtimiz zamin tarixida ikkita buyuk Uyg‘onish davriga beshik bo‘lgani ,dunyo ilm-fani rivojiga

ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ mutafakkirlarni yetishtirib bergani mahorat bilan qalamga olingan. Ayniqsa, Uchinchi Renessansga qo‘yilayotgan poydevor va yangi tamaddun asoslari aniq dalillar asosida ochib berilgan.

Hozirgi 3-Renessans davrida yangi O‘zbekiston yoshlari kelajagimiz bunyodkorlaridir. Yurtboshimizni ham yoshlarga berayotgan alohida e’tibori va e’tirofi ham bejizga emas aslida. Ma’naviyat suvi bilan sug‘orilgan har qanday ong har qanday mafkuraviy tahdidlarga munosib ravishda qarshi kurasha oladi. Buning uchun, avvalo, yoshlarimiz ongini faqat va faqat vatanparvarlikka yo‘g‘rilgan milliy g‘oyalar bilan to‘ldirishimiz lozim. Ajdodlarimizning bizga meros qilib qoldirgan o‘gitlari pand-u nasihatlarini hayotiy shiorimizga aylantirib olishimiz kerak.

Buyuk ajdodlarimizdan biri Abu Nasr Farobiy ta’lim va tarbiya to‘g‘risida quyidagi hikmatli so‘zlarni aytgan edi: ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi, tarbiya esa amaliy ish tajriba bilan bo‘ladi.

Yurtboshimiz bu borada quyidagi so‘zlarni aytgan edilar, “Marifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”

1-prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida nomli kitobida quyidagi jumlani keltirib o‘tadi: farzandlarimiz kelajak avlodlar bizdan shu o‘lkani shu muqaddas zaminni yana ham boy, kuchli va qudratli holatda qabul qilib olishlari uchun biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik tuyg‘ularini his etayotgan bo‘lsak o‘g‘il-qizlarimiz kelajak avlodlar ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg‘ularini his etishlari lozim bo‘lgan hamma ishni qilish –bizning fuqorolik burchimizdir.

Xulosa sifatida Yangi O‘zbekiston yoshlarini yangicha yondashuv asosida o‘qitishda birinchidan ularda eng avvalo vatanga sodiqlik, milliy o‘zlik g‘oyalari asosida ulg‘aytirish-tarbiyalash. Ikkinchidan, buyuk ajdodlarimizning boy merosi xususan jadidchilik harakati namoyondalari hayotidan namuna olib ta’lim-tarbiya berish. Uchinchidan, ularni yangicha mafkuraviy hurujlardan himoya qilish maqsadida ularda diniy bilim va ko‘nikmalarini yetarli darajada tanishtirish. Dunyo hamjamiyatida rivojlangan mamlakatlar yoshlari bilan bemalol raqobatlasha olishi uchun ularga eng so‘nggi innovatsion texnologiyalar asosida bilim berishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-5040-sonli farmoni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli farmoni;
3. I.A. Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”nomli kitobi;
4. 11.08.2020 yildagi Vazirlar mahkamasining 473-son qarori;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 02-fevraldagi PQ-54-sonli qarori;
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli farmoni;
8. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son.
9. Ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma’lumotlar.

СУРХОН ВОҲАСИДА ПАХТАЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МОДДИЙ ТЕХНИКА СОҲАСИ ВА СУҒОРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ

Жонқобилов Жахонгирбек Нормумин ўғли,
Денов Тадбиркорлик ва Педагогика Институти,
Тарих фани ўқитувчиси

Аннотация Ушбу мақолада биз Сурхон воҳасининг суғорилиш тизимлари ва иншоотларининг барпо этилиши ва бу жараён ВКП(б) МК ва СССР Халқ Комиссарлари Советининг 1945 йил июль ва 1946 йил 2 февралда чиққан буйруқларига асосан амалга оширилганлиги. Сурхондарё вилоятида улкан ирригация тармоқларини бунёд этиш даври бошланганлиги ҳақида маълумот олишимиз мумкин.

Калит сўзлар: ВКП(б) МК ва СССР Халқ Комиссарлари Совети, Сурхон-Шеробод, Оққўрғон, Гарангтўқай ва Заркамар, Ирригация.

Сурхон-Шеробод воҳасининг ўзига хос табиий шароитлари мавжуд. Бу ерда ижобий ҳароратнинг йиғиндиси 6 минг даражадан ортиқ, пахта учун ижобий таъсир кўрсатадиган ҳарорат йиғиндиси эса 3200 даражага яқин. Ўртача кунлик температурали кунларнинг йиллик миқдори – 10 (даража) дан юқориси 261 кун, 5 (даража) дан юқориси 44 кун бўлиб, нолдан пасти бир кун ҳам йўқ. Булутсиз кунлар ва қуёшли соатларнинг миқдори Бирлашган Араб Республикасидагига нисбатан бу ерда кўп. Дастлабки кўсакларнинг очила бошлаганидан то кузги совуқлар тушгангача яна 120 кун иссиқ вақт бўлиб, бу даврда барча кўсаклар очилиб улгуради. Май ва сентябр ойларининг температура шароитлари бир хил; «қиш» деган нарса бўлмайди, минимал ўртача кунлик иссиқлик температура бутун қиш бўйи плюс икки градус (даража)дан паст тушмайди. Ёғингарчиликлар жуда кам бўлади. Шеробод ва Термизда улар йил мобайнида 150 миллиметрдан ошмайди, шу жумладан декабрдан то май ойигача 90 миллиметрни ташкил этади. Ҳавонинг нисбий намлик даражаси жуда ҳам оз бўлиб, Ўрта Осиёнинг пахта етиштириладиган бирорта минтақасида учрамайди; бир йилнинг 200 кунида ҳавонинг нисбий ҳаво нами 30 фоиздан кам бўлади, ёз ойларида эса у 18-20 фоизгача пасаяди, жануби-ғарбдан эсадиган гармсел ҳавонинг нисбий намлиги 13-16 фоиз

бўлади[119]. Шеробод чўли Амударё билан Кўҳитангтоғ ва Боботоғ оралиғидаги катта текисликдан иборат. Чўлнинг шимоли-шарқий қисми Қизириқдара бўлиб, айрим жойлари чуқур жарликлардан иборат жой ҳисобланади. Чўл массивининг умумий майдони 3100 км^2. Унинг 25 % майдони Хавдаг ва Бошхотин тизмаси тепаликларидан иборат.

Шеробод чўли ўзининг тупроқ ва иқлим хусусиятларига кўра, Ўзбекистоннинг қишлоқ хўжалиги, айниқса, пахтачиликни ривожлантириш учун жуда қулай жой ҳисобланади. Аммо ҳудудда сув кам бўлганлигидан деҳқончилик қилиш анча қийин. Релефига кўра, Шеробод чўлидаги 50 минг гектар ер горизонтал, ўзи оқар сувлар билан таъминланган. Қолган 130 минг гектар ерни сувни механик кўтариш йўли билан суғориш мумкин. Шу сабабли Сурхон-Шеробод водийсининг жуда катта ер массивларидан, унинг иқлим шароитлари қанчалик қулай бўлишига қарамасдан, жуда кам фойдаланилган. Ваҳоланки Сурхон суви билан мазкур бой ўлкани жонлантириб юбориш мумкин эди.

Ер-сув ислоҳотлари даврида совет ҳукумати Сурхон воҳасида пахта учун муҳим ҳисобланган ирригация ва мелиорация ишлари тиклашга алоҳида эътибор қаратди. Янги ирригация тармоқларини бунёд этиш, мавжуд ариқ ва зовурларни қайта таъмирлаш учун катта миқдорда маблағ ажратилди. 1925 йилда Сурхон воҳасида 63,129 минг десятина ерга деҳқончилик қилинар эди.[120]Ушбу ер майдонининг 52,5 минг десятинаси суғоришга яроқли эди. Округ ташкил этилган даврда пахтага бўлган талабни қондириш учун ўртача бир омочга 2,72 десятина ер, бир боронага 9,49, бир кетмон ва белга 2,3, бир ўроққа 1,70 десятини ер тўғри келган[121].

1925 йилда Сурхондарё округида ирригация тизимини тезроқ тиклаш ва сув таъминотини яхшилаш мақсадида тўққизта сув тақсимлаш тармоғи ва 64 та мироблик бўлимлари ташкил этилди[122]. 1925 йилда бутун Сурхон воҳаси 2 та сув округига бўлинди. Биринчи сув тармоғи саналган Юқори Сурхон округи таркибига воҳанинг юқори қисми, яъни Қоратоғ, Дашнобод, Тўпаланг, Хўжаипок, Дагдон, Хўжаиоб-Қорасув дарёлари ва шу ҳудудларга қарашли тоғ булоқларида қурилган суғориш тизимлари кирди. Юқори Сурхон округининг асосий сув тармоғи Юрчи деб аталиб, у 6 та сув ҳудудларидан иборат бўлган. Иккинчи сув тармоғи эса 9 та сув тақсимлаш тармоғидан ташкил топган Шеробод округи ҳисобланар эди[123].

1925-1930 йилларда Сурхондарё вилоятида суғориш ишларини йўлга қўйишда «Мелиорация ширкатлари» нинг хизмати катта бўлди. Мелиорация ширкатлари–мелиорация ўтказиладиган ҳудудда ердан олинадиган даромадни кўпайтириш мақсадида тузиладиган ер эгаларининг уюшмаси. Бунда уюшма ер майдонига қараб барча харажатларни биргаликда кўтаради.

---

[119] Истомин М.С. Сурхондарёда ингичка толали пахтадан юқори ҳосил олиш агротехникаси. Т.; “Фан”,1968.– Б. 3.

[120]Сурхондарё вилояти давлат архиви. 18-фонд, 1-рўйхат, 92-иш, 112-варақ.

[121] Сурхондарё вилояти давлат архиви.1-рўйхат, 92-иш, 115-варақ.

[122]Сурхондарё вилояти давлат архиви. 19-фонд, 1-рўйхат, 92-иш, 113-варақ.

[123]Сурхондарё вилояти давлат архиви. 18-фонд, 1-рўйхат, 92-иш, 110-варақ.

Даромад ҳам шунга яраша тақсимланади. Мелиоратив ширкатлар совет ҳокимиятининг дастлабки ўн йиллигида суғориш тизимини яхшилашда катта ишларни амалга оширди. Шу сабаб, давлат бундай ширкатларни тузишда ёрдам берар, уларни ҳеч бир муаммосиз кредит билан таъминлар эди. Мелиорация ширкатларининг халқ хўжалигидаги аҳамиятини тушунган РСФСР ХКС 1923 йил 22 декабрда «Мелиорация ширкатлари низоми» тўғрисидаги Декретни қабул қилади. Унга мувофиқ мамлакатда мелиорация ширкатларининг фаолиятига рухсат берилди.

Мелиорация ширкатларининг вазифалари суғориш тизимларини тўғри ишлатиш, яхшилаш ва ривожлантириш, гидротехника иншоотларини қуриш ва таъмирлаш, сувни тежаш йўли билан партов ва бекор ётган ерларни фойдаланишга киритиш ишларидан иборат эди[124].Сурхон-Шеробод воҳасидаги биринчи «Мелиоратив ширкат уюшмаси» 1925 йилда ташкил топди. Ушбу уюшма ёрдамида 450 десятина ерни суғориш учун Қорасув ирригация тизимини тиклаш мақсадида Оққўрғон кентининг Новшаҳар қишлоғи аҳолиси оммавий равишда жалб қилинади[125].

1926 йилда Сурхон воҳасининг 37,2 минг деҳқон хўжалигида 25800 дона омоч, 11626 дона кетмон, 158 та от плуги, 77 дона темир борона, 30307 дона бел, 38271 дона ўроқ, 5415 дона шоха бўлиб, бу меҳнат қуроллари билан деҳқончилик ишлари қилинган ва янги ерлар ўзлаштирилган. Совет ҳукумати Сурхон-Шеробод воҳасида янги ерларни ўзлаштириш ва суғориш иншоотларини қуриш учун 1926 йилда 6 дона, 1927 йилда эса 13 дона трактор олиб келди. 1926 йилда Жарқўрғон «Мелиоратив ширкат уюшмаси» нинг кучи билан Занг каналининг бош қисмини тиклаш бўйича анча ишлар амалга оширилиб, 800 гектар янги ер ўзлаштирилди. 1927 йилда Термиз каналининг бош қисмида қайта тиклаш ишлари амалга оширилиб, Сурхон дарёсида дамба қурилди. Натижасида Мангузар ва Арпапояда 2 та гидрометрик сув тақсимлагич ўрнатилди[126]. Шунингдек, Сурхондарё бўйидаги Жалоир ва Оқтепа ариқлари ҳамда Жарқўрғон-Занг тўғони қурилиб ишга туширилди.

Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, янги ерларни ўзлаштириш, ирригация тармоқларини қуриш ва қайта таъмирлаш мақсадида совет ҳукумати қишлоқ хўжалигига 107386 сўмлик узоқ муддатли, 229614 сўмлик қисқа муддатли қарзлар берди. Совет ҳукумати Сурхондарёдаги жами деҳқон хўжаликларига 1926-1928 йилларда 1702 минг сўм миқдорида пул ажратди. 1927 йили 130 та хўжалик учун янги ерларни ўзлаштиришга мўлжалланган Қизириқ ва Занг каналлари қурилишига 41450 сўм пул сарфланди[127].

Деҳқонларга қишлоқ хўжалигини чуқур билиб олишига кўмаклашиш, ҳосилдорликни кўтариш, ерларнинг ҳолатини яхшилаш, экин турларини кўпайтириш, суғориш иншоотларини кўпроқ қуриш, ерларни шўрланишининг

[124]Ўзбекистон ССР тарихи. 3-жилд. –Б. 474.

[125]Аминова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане накануне сплошной коллективизации. –Т.: Фан, 1969.–С. 432-433.

[126]Турсунов С., ва бошқалар. Шеробод тарихидан лавҳалар. –Б. 237-238.

[127]Сурхондарё вилояти давлат архиви. 18-фонд, 1-рўйхат, 125-иш, 96-варақ.

олдини олиш мақсадида 1926 йил 1 апрелдан бошлаб Сурхондарёдаги Шеробод, Юрчи, Термиз, Жарқўрғон туманларида агроҳудуд бўлимлари вужудга келтирилди. Бу агроҳудуд бўлимларининг сони йилдан-йилга кўпайиб 1926 йилда 142 та, 1927 йилга келиб эса 400 тага етказилади[128].1925-1926 йилларда Сурхондарё округида Оққўрғон, Дашнобод, Шоқишлоқ, Ҳазорбоғ, Жарқўрғон, Қорлиқ мелиоратив ширкатлари ташкил этилди ва ушбу ширкатлар жамоалаштиришнинг бошланғич палласини ташкил этди. Янгидан ташкил этилган сув хўжалик бошқармаси воҳада сувдан фойдаланувчилар орасида тарғибот ва ташвиқот ишларини олиб бориб, Сурхондарё сув хўжалиги ишчилари, сув тақсимотчилари ва миробларни сайлов асосида тайинлашни йўлга қўйди. Сурхондарё округида илк бор мироблар сайлови махсус кўрсатмалар асосида ўтказилди. Бунда мироблар камбағал деҳқонлар орасидан сайланди. Масалан, 1925-1926 йилларда миробликка сайланганларнинг кўпчилигини кам ерли ва ўртаҳол деҳқонлар ташкил этиб, уларнинг сони 348 нафарга етган эди[129].

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Истомин М.С. Освоение новых земел в Сурхандари // Социалистическое селское хозяйство, 1954. №2. –С.8. (Истомин М.С. Освоение новйх земел в Суркхандари // Сотсиалистическое селское ҳозяйство, 1954. №2. – Р.8.)
2. Газета «Ленинское знамя». 3 июля, 1954. (Hewспапер "Ленинское знамя". Жулй 3, 1954).
3. Лапасов А.Ч. Истиқлол йўли: Ангор. –Термиз, 1992. –Б. 4–5. (Лапасов А.Ч. Истиклал Роад: Ангор. - Термиз, 1992)
4. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 45-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 16-варақ (Стате арчиве оф Суркҳандаря регион. Фунд 45, лист 1, сасе 26, шеет 16).
5. Венгрский В.Ўзбекистонда пахтачиликнинг ивожланиши. Тошкент. Ўзбекистон ССР сиёсий ва илмий билимлар тарқатиш жамияти.1958. № 24-25. –Б. 7 (Венгрскй В. Девелопмент оф соттон султиватион ин Узбекистан. Ташкент. Сосиетй фор диссеминатион оф политисал анд ссиентифис кноwледге оф тҳе Узбек ССР. 1958. Но. 24-25. – Р. 7.).

XIX-XX ASRLARDA DENOV TUMANI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISH TARIXI.

Shamayev Umarali Turg‘unboyevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
mustaqil taqdiqotchisi

Annatotsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Denov tumadigi yodgorliklarning joylashuvi va ularning tarixi arxeologik jihatdan qazishma

[128]Турсунов С.Н. ва бошқалар. Сурхондарё тарих кўзгусида. –Б.160.

[129]Сурхондарё вилояти давлат архиви. 19-фонд, 1-рўйхат, 45-иш, 6-варақ.

ishlarining olib borilishi qolaversa XX asr 90-yillari – XXI asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar Denov tumanidagi arxeologik yodgorliklarni tahlil etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslarning tadqiqotlari E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullayev, Sh.B.Shaydullayev, Z.Xoliqov, T.Annayev kabi tadqiqotchilarning ishlarida muhim masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yurchi, Kuloltepa, Changilbuva, Jartepa, Teshiktepa, Quloqtepa, Qizqo‘rg‘on, Qilichbuloq, Uchtepa, Chimqo‘rg‘on.

1.Dolzarbligi: Dunyoning bir qator ilmiy markazlari tomonidan Markaziy Osiyoning Baqtriya, So‘g‘d, Xorazmm, Choch va Farg‘ona tarixiy-madaniy viloyatlarining qadimgi tarixini o‘rganishda innovatsion texnologiyalar dan foydalanish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, qadimgi Baqtriyaning tarkibiy qismi hisoblangan Surxon vohasining ilk temir davri arxeologik yodgorliklari joylashuv geografiyasi o‘rganilmoqda. Shu bilan birgalikda Denov tumani arxeologik yodgorliklari ham o`rganib kelinmoqda. Bu borada zamonaviy texnologiya asosida Denov tumani arxeologik yodgorliklari tadqiq etilmagan va tuzib chiqilmagan, hamda qadimgi Baqtriya sivilizatsiyasining o‘ziga xosxususiyatlarini yangi asoslarda o‘rganish muhim vazifaga aylangan.

2.Metodlar va o‘rganilganlik darajasi: Denov tumanidagi arxeologik yodgorliklar ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotishlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1.XX asr 90-yillariga qadar olib borilgan tadqiqotlar;

2.XX asr 90-yillari va XXI asr boshlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar;

3.Xorijiy tadqiqotlar.

Mavzusini yoritishda tarixiylik tamoyili asosida xronologik, ketma-ketlik, tizimli yondoshuv, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

3.Tadqiqot natijalari: XX asr 60-70-yillaridan boshlab, Surxon vohasining qadimgi moddiy-madaniy tarixini o‘rganilishiga katta hissa qo‘shgan bir qator olimlar- A.A.Asqarov,L.I.Albaum,G.A.Pugachenkova, E.V.Rtveladze, Z.A,Hakimov, Sh.R.Pidayev, A.S.Sagdullayev, T.Sh.Shirinov, B.N.Abdullayev, Z.Xoliqov, T.Annayev, SH.SHaydullayev, U.V.Rahmonov tadqiqotlarini qayd etib o‘tish joiz.

A.A.Asqarov va L.I.Albaum tomonidan Surxondaryodagi Ulonbuloqsoy vohasida topib tekshirilgan Kuchuktepa o‘rganilishi asosida so‘ngi bronzava ilk temir davriga oid dehqonchilik uy-qo‘rg‘oni ilk bor butunlay qazib ochilgan. E.V.Rtveladzening Surxon vohasi arxeologik yodgorliklarining kartografiyasiga doir tadqiqotlari, qadimgi Baqtriya tarixiy geografiyasini yangicha asoslarda ochib berishga xizmat qildi.

XX asr 90-yillari – XXI asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar Denov tumanidagi arxeologik yodgorliklarni tahlil etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu o‘rinda E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullayev, Sh.B.Shaydullayev, Z.Xoliqov, T.Annayev kabi tadqiqotchilarning ishlarida muhim masalalar yoritilgan.

Ularning mazmunida Denov tumanidagi arxeologik yodgorliklarni hamda arxeologiya masalalariga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Umuman olganda Denov

tumanini tadqiq etishda E.V.Rtveladzening o‘rni benihoya ulkan hisoblanadi. Qorabog‘tepa qadimiy manzilgohida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, me’moriy nodir, uy-joy qurilishi uchun toshdan yo‘nib ishlangan, har biri kamida 400-500 kilogramm keladigan ustun tagida o‘rnatilgan uchta tagkursi topilgan. Ularni akademik G.A. Pugachenkova ekspeditsiyasi ilk bor ilmiy nuqtai nazardan o‘rganib chiqdi.

Qorabog‘tepadan taxminan 500 metr uzoqlikdagi Xonaqoh tepaligida qazilma ishlarini olib borish jaroyonida, loydan ishlangan varanglar bilan qoplangan 30 tadan ziyod noyob hayvonlar aniqlandi.Ushbu arxeologik tadqiqotlarda 1961 yili Toshkent Davlat universitetini tamomlagan, yosh iqtidorli arxeolog Bahodir Turg‘unov ham ishtirok etdi. Denov qadimiy tarixini o‘rganishda taniqli olim Bahodir Turg‘unov, Sa’natshunoslik ilmiy tadqiqot institute professori G.A. Pugachenkova rahbarligida Xolchayon qishlog‘idagi Xonaqo tepaligida 1960-1963 yillari tadqiqot ishlarini olib borib,loydan ishlangan 35 ga yaqin erkak, ayol hamda otlari yelib kelayotgan chavondozlar haykallari, ularning bahslashib turganliklari aks ettirgan devoriy suratlar mavjudligini aniqladi .G.A.Pugachenkova va B. Turg‘unov tepalik ostidan topilgan bir necha mis tangalarni o‘rganib, tangalar miloddan avvalgi IV va milodiy I asrlarga mansub ekanligini, ushbu tepalikda bundan 2400-2300 yil avval podshohning hashamatli saroyi qurilganligini aniqladilar. Qorabog‘tepada olib borilgan tadqiqotlarda arxitektura elementlari rim-yunon arxitektura yodgorliklarida miloddan avvalgi IV-III asrlarda keng qo‘llanilgan, keyinchalik ko‘p davlatlarga tarqalgan, shu jumladan O‘rta Osiyo yodgorliklarida ham ko‘plab uchraydigan holat ekanligi qayd etildi. Chunki ushbu arxetuktura elementlari, ya’ni binoning tagkurslari Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Italiya va Fransiya arxitektura inshootlarida ham mavjudligi alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.Ushbu topilmalar Xonaqotepaning ayvonida Dalvarzintepadagi ikkita boy badavlat shaharliklar uylari ayvonlarida, Ayritom, Eski Termizdagi Fayoztepa va Qoratepa buddaviy yodgorliklarida ham ishlatilgan elementlari bilan taqqoslanib, ilmiy tadqiq etildi. O‘zbekiston San'atsunoslik ilmiy-tadqiqot institutining ekspedisiyasi 1970 yillar oxirlaridan boshlab o‘rta asrlarda Surxondaryoning o‘rta va yuqori oqimlarida joylashgan Chag‘oniyon viloyatining markazi bo‘lgan Budrach shahristoni vayronlarida arxeologik qazishmalar olib bordi. Bu ishlarga akademik E.B. Rtveladze umumiy rahbarlik qildi.

1987 yil martida shahristonning shimoli-sharqiy qismida Dunyotepadan 180 metrlar shimolda shudgorlangan dalada bir qancha bronza ashyolar topildi. Bu buyumlar topilgan joyda, 15x15 metr kenglikda va 1 metrgacha chuqurlikda qazishma ishlari olib borildi. 1970 yil boshlarida yer haydash va tekislash vaqtida aftidan mazkur joydagi o‘rta asr qurulishi tekislab tashlanib, ulardan faqat pishiq g‘isht bo‘laklarigina saqlanib qolgan.

XIX asrda bir qancha chet el va rus olimlari shaharning o‘rnini aniqlashga harakat qilib ko‘rishdilar. Ammo o‘sha vaqtlarda Shaqriy Buxoroga kirib kelish nihoyatda mashaqqatli edi. Denov tumanisharqda Bobotog‘, g‘arbda Boysuntog‘ tizmalari bilan o‘ralgan. Yer osti suvlariga boy bo‘lgan hudud. Tekisliklarda bo‘z tuproq, daryo sohillarida o‘tloqi botqoq, tog‘ oldi va tog‘larda och qo‘ng‘ir tuproqlar

tarqalgan. Bu hududlarda esa bir qancha ko‘hna aholi manzilgohlari xarobalari topilgan.

Bulardan Yurchi, Kuloltepa, Changilbuva, Jartepa, Teshiktepa, Quloqtepa, Qizqo‘rg‘on, Qilichbuloq, Uchtepa, Chimqo‘rg‘on nisbattan qadimiyroq madaniy qatlamlarni uchratish mumkin. 1989 yilda Dalvarzintepada hamkorlikda arxeologik qazuv ishlari olib borgan O‘zbekiston- Yaponiya arxeologiya guruhi faoliyatining bir qismi bevosita Denov tumani arxeologiya yodgorliklari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ma’lumki, hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sa’natshunoslik instituti va Soko (Tokio, Yaponia) universitetlari tamonidan 1989-1993 yillarga (6 yilga) mo‘ljallangan “ Hamkorlik haqidagi shartnoma” asosida arxeologik qidiruv va qazishma ishlarini olib bordilar. (rahbarlar: B. Turg‘unov, Kato Kyudzo). Bu shartnoma asosida asosiy qidiruv va qazuv ishlari Dalvarzintepada xususan uning bu shaharning muhim inshoati ya’ni markaziy shahar buddaviylik ibodatxonasi hisoblangan DT-25 deb nomlangan inshaatda olib borildi. Dalvarzintepa buddaviylik inshoatini qazuv ishlari to‘plangan san’at namunalari, xususan, buddaviylik yo‘nalishida yasalgan haykaltaroshlik namunalari Xolchayon haykallari kabi hanuzgacha buddaviylik tarixini va bu din bilan bog‘liq badiiy sa’natni o‘rganishda o‘z o‘rnini saqlab kelmoqda.Dalvarzintepada amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari hamkorlikda o‘zbek-yapon olimlari (B. Turg‘unov, S.A. Savchuk-Qurbonov, D.S. Rusanov, J.Ya. Ilyasov, G.A. Pugachenkova, S.V. Levushkina, Kato Kyudzo, Kaleda Xirosi, Koyama Misiru, Xayasi Tosio) tomonidan hamkorlikda o‘zbek-yapon tillarida “Dalvarzintepa shahristoni “ (1989-1993 yillardagi qadimshunoslik tadqiqotlari) nomi ostida chop etilgan. Bu asarda Dalvarzintepa va unda o‘rganilgan buddaviylik ibodatxonasi qatori Denov tumanining ba’zi yodgorliklari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan va 630-640 yillarda Markaziy Osiyo bo‘ylab safar qilgan taniqli buddaviy kohin Syuan Szyan (Syaan Dzan)ning Chag‘oniyon viloyatida mavjud bo‘lgan 5 buddaviylik inshoati to‘g‘risidagi ma’lumotlari tahlil qilingan.

Ta’kidlash joizki, Denov tumanining arxeologik yodgorliklarini dunyoga, shu jumladan Yaponiya ilm ahliga va keng jamoatchilikka tanishtirishda hissa qo‘shganlar.O`zbekiston –Yaponiya olimlarining shu jumladan Denov tumani arxeologik yodgorliklarini o`rganish borasida amalga oshirilgan ishlarni O`zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday baxolagan “buyuk ipak yo`lining qadimiy ananalarini tiklashga munosib hissa qo`shgan asosiy yapon gumanist rassomi Toshkentning faxriy fuqorosi Isio Xirayama xotirasini biz hayolimizda qalbimizda saqlaymiz . U aynan o`zbekiston yo`lining tarixiy va manaviy markazi ekanini etiborga olib agar Yaponiya buddaviylik madaniyatining sharqiy diyori bo`lsa uning g`arbiy o`lkasi ko`xna o`zbekiston deb takidlangan edi . Bu buyuk insonning tashabbusi bilan madaniyat ,Toshkentda xalqaro karvonsaroyi tashkil etildi va unig nomi poytaxtimiz tarixidan xam munosib joy egalladi.

Xulosa: Denov tumani o‘zining qadimiyligi, arxeologik mabalarga boyligi bilan azal azaldan arxeologiya diqqat markazida bo‘lib keladi.

Tuman arxeologik yodgorliklarini aniqlash va ro‘yxatga olish ishlari, ularni saqlash va konsevatsiya qoilish chora tadbirlari haqida adabiyotlar o‘rganilib chiqilib o‘z xulosalari berilgan. Shuningdek tumanni qadimda Baqtriya, Keyinchalik

Toxaristonning, o‘rta asrlarga kelib esa Sag‘oniyonning, XII-XIV asrlardan boshlab esa Chag‘oniyon o‘lkasining muhim hududlaridan biri bo‘lib kelganligi ko‘rsatib berilgan. Denov tumani arxeologik yodgorliklarini ichida Xolchayon va Budrach yodgorliklarining o‘ziga xosligi qayd etilib, jumladan, o‘ziga xas tomoni bilan ko‘rsatib berildi. Jumladan Markaziy Osiyoda o‘ziga xosligi ko‘rsatildi.

Chag‘oniyon nomi bilan ushbu inshootlar keying davrlarda ham muomalada bo‘lganligi ko‘rsatib berilgan. Bu borada yetuk mutaxassislardan bo‘lgan T.Annayevning tadqiqot ishlari va xulosalari isbot sifatida keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 1.Arshavskaya .A., Rtveladze E. V.,Xakimov 3. A., Srednevekovne pamyatniki Surxandari, T., 1982.
2. 2.Pugachenkova G. A., Xalchayan. K probleme xudojestvennoy kultur Severnoy Baktrii, T., 1966;
3. 3.Pugachenkova A., Rtveladze E. V., Severnaya Baktriya — Toxaristan, Ocherki istorii i kultur, T., 1990;
4. 4.Rtveladze. A., Velikiy shelkovy put, T., 1999.
5. Pugachenkova. Arshavskaya Z. A., Rtveladze E. ,,Qiziltepa”
6. 6.Askarov A.A. Nekotoe vopros istori i stanovleniya uzbekskoy gosudarstvennosti. ONU, №3-4.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MA’NAVIY BARKAMOL VA VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI

Almardonov Ziyodullo Toshpo‘lat o‘g‘li
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
“Tillar” kafedrasi Pashtu tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashuv davrida yurtimizda yoshlarni ma’naviy barkamol va vatanparvar etib tarbiyalashdagi asosiy omillar, ushbu masalaning dolzarbligi va shu sohada olib borilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlarining ko‘lami, berilayotgan tavsiyalar haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ma’naviy, ma’rifiy, inson, yoshlar, vatanparvarlik, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, tahdid.

Kirish

Barchaga ma’lumki, bugungi kunga kelib, insoniyat turli xildagi har qanday olamshumul voqealarni tezda o‘zlashtirib, tezda unutadigan, o‘tkir geosiyosiy – ommaviy hodisalar jarayoni tez sur’atlarda rivojlanib, bir davlatni ikkinchisiga hushyor bo‘lishga chorlaydigan davrda yashamoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu davr texnogen va siyosiy globallashuvning eng yuqori darajasi deb izohlanmoqda. Mana shunday globallashuv jarayonida dunyodagi barcha xalqlar

hayotida tushunib bo‘lmaydigan, ularning ko‘p asrlar mobaynida o‘z tarixida rivojlangan milliy madaniyatning asl ko‘rinishlarini, uning jozibasi va go‘zalligini o‘zgartirib yuboradigan, xalqqa notanish bo‘lgan odat va ko‘nikmalar paydo bo‘lmoqda. Chunki an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi kurash jamiyat a’zolarini turli tomonlarga yetaklab ketayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. O‘z – o‘zidan ko‘rinib turibdiki, mustaqil O‘zbekiston ham dunyoda yuz berayotgan ana shunday an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyatlardan chetda tura olmaydi. Chunki hozirgi paytda barchaga ma’lumki, yer yuzi aholisi siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda bir – birlari bilan aloqadorlikda va o‘zaro manfaatdorlikda rivojlanmoqda. Tabiiyki, bunda qo‘shnichilik munosabatlari asosiy o‘rin tutadi va o‘z o‘rnida buning ijobiy va salbiy jihatlari ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda globallashuv jarayonining dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati, madaniyati va ma’naviyatiga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy ta’sirining ko‘rinishlarini mashhur hind davlat arbobi M. Gandining quyidagi so‘zlari orqali ifodalaymiz: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar–to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”[130] [https://bigasia.ru 2019. 20.06.]. Maxatma Gandining necha yillar oldin aytilgan yuqoridagi fikridan hozirgi dunyoda kechayotgan “globallashuv” jarayonning mohiyatini anglab olish mumkin. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, globallashuv jarayoni stixiyali tarzda yuzaga kelgan hodisalar oqibati emas. Bunday murakkab jarayon u yoki bu shaklda deyarli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lib, faqat bugungi kunga kelib, ijtimoiy – siyosiy va texnologik taraqqiyot ta’siri natijasida uning mohiyati o‘zgacha ko‘rinishga ega bo‘ldi. Mana shunday tahlikali davrlarda yoshlarning o‘z yo‘lini adashmasdan to‘g‘ri topib olishi uchun ularni yoshligidan ma’naviy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratmoq zarur, deb o‘ylaymiz. Hammaga ma’lumki, ma’naviy tarbiya deganda, insonning har tomonlama komillikka erishuvi tushuniladi va vatanparvarlik g‘oyasi bu tushunchaning o‘zagini tashkil etadi.

Muhokama va natijalar.

Hozirgi paytda yuqorida tilga olinganidek, globallashuv davrida mana shunday jarayonlardan adashmay, og‘ishmasdan to‘g‘ri yo‘lni tanlash o‘ta muhim jarayon hisoblanadi. Milliy madaniyat va ma’naviy qadriyatlar shaxsning hayot mazmunini, ma’naviy yaxlitlikni asrab qolishi, o‘z-o‘zini anglay bilishi va turmush tarzini belgilab beruvchi asosiy manba sifatida jamiyat va shaxs uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi zarur. Tadqiqotchi I.Ponomaryova bu xususda oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida olib borgan sotsiologik tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan 87% talabalar OAV va internet orqali kirib kelayotgan g‘arbona yurish – turish, an’ana va qadriyatlar tobora o‘rnashib qolayotganligini, yoshlarning aksariyati xorijiy kanallarda berilayotgan turli xil kinofilmlarni tomosha qilishga ishqiboz ekanligini, ularda bunday ehtiyojlarning ortib borayotganini shu bilan birga, yoshlarimiz orasida milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga bo‘lgan munosabat o‘zgarayotganligini ko‘rsatganligini ko‘rsatib

[130] 1 M. Gandi. https://bigasia.ru 2019. 20.06

bergan[131]. Vatanparvarlikni targ‘ib qilish, sadoqatli avlodni voyaga yetkazish vazifasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatimizning rivojlanganlik darajasi, hozirgi globallashuv davrida ushbu yo‘nalishdagi turli g‘oyaviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlarni ilmiy tahlil qilishda O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoevning asarlari, ko‘plab ma’ruza va chiqishlaridagi mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma’naviy omillarga alohida ahamiyat qaratish, ular asosida tarbiyalangan ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularda xalqimizning ezgu intilishlariga sodiqlikni shakllantirish haqidagi fikr – mulohazalari nazariy – metodologik asos bo‘lganini alohida qayd etishimiz lozim.

2022 - yil 28 - yanvarda Prezidentimizning Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha PF – 60 bilan tasdiqlangan 2022– 2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni va uning asosida qabul qilinayotgan bir qancha me’yoriy hujjatlar ma’naviy–ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risidagi qarori eng muhim va tayanch metodologik hujjatlardir. Ayni paytda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” (T.:O‘zbekiston, 2016.), “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” (T.: O‘zbekiston, 2017) kabi asarlari, jamiyatimiz taraqqiyotining ma’naviy-ma’rifiy sohalariga oid boshqa qaror va farmonlari ham ushbu ishimizning metodologik asosi hisoblanadi. Bugungi kunda vatanparvar ma’naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalash, bugungi globallashuv davrining talablariga mos va tahdidlarga bardosh bera oladigan yoshlarni voyaga yetkazish bilan bog‘liq masalalar tahliliga bag‘ishlangan asar va tadqiqotlar mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim va mutaxassislar faoliyatining tarkibiy qismiga aylangan deyish uchun barcha asoslar mavjud. Mamlakatimizda asosiy kuch hisoblangan yoshlar qatlami, ularning hayoti va faoliyatiga doir ayrim masalalar N.Temirova, Sh. Ermatov, T. Qurbonov, R. Qurbonov, D. Raximova kabi tadqiqotchilarning nomzodlik dissertatsiyalarida o‘z ifodasini topgan[132].[3, 112.] Xullas, navqiron va har ishga qodir yoshlar va ularning jamiyatdagi o‘rni, hayoti hamda faoliyati bilan bog‘liq turli masalalar respublikamizning juda ko‘plab salohiyatli olim va mutaxassislari tomonidan o‘rganilmoqda, ularning turli xil jihatlari to‘g‘risida ilmiy – tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin yurtimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish bilan bog‘liq falsafiy – ijtimoiy masalalar maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Bu esa, o‘z navbatida mazkur yo‘nalishda maxsus tadqiqot olib borish hamda tegishli nazariy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar tayyorlash zarurligidan dalolat beradi.

[131] F.Jalilova. “Jamiyat va boshkaruv” jurnali, 2010 yil, 1 son. 134-bet

[132] X.E.Abdunosirova. Yoshlarda tahdidbardoshlikni shakllantirish: tahlil va talqin dialektikasi. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Navoiy. 2021 yil. 112-bet

Ushbu yo‘nalishda xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi shundan dalolat beradiki, turli mamlakatlarda vatanparvar, barkamol avlodni tarbiyalash, turli tajovuzkor tahdidlarga chidam bilan bardosh beradigan yoshlarga xos xususiyatlarni shakllantirishga doir tadqiqotlar bugungi G‘arb dunyosining yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, AQShdagi V.Vilson xalqaro tadqiqot markazi (Woodrow Wilson International center for scholars, Washington), Yel universiteti, Garvard, Kolumbiya universitetlari, Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi (SOAS, Angliya), Gumbold universitetining Yevropa etnologiyasi instituti (Germaniya), Fransiyadagi Sarbonna universiteti, Institute of Central Asia (Fransiya), Parij Ijtimoiy fanlar Oliy maktabi (EHESS, Fransiya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti va boshqa shu kabi ilmiy markazlarda olib borilmoqda. Nafaqat Osiyo va Sharq ilm-fani, balki butun jahonning yetakchi ilmiy markazlari va OTMlari qatoriga kiruvchi Institute of Academy for study of the modern international relations Europe and Asia (Xitoy), Tokio universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika madaniyati va tilini o‘rganish tadqiqot instituti (Research Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa at the Tokyo University of Foreign Studies), Asian Strategy and Leadership Institute (Malayziya) bilan birga, Janubiy Koreyadagi Osiyo madaniyatini tadqiq etish instituti (Asia Culture Research Institute, Hindistondagi J.Neru universiteti Markaziy Osiyoni tadqiq etish xalqaro munosabatlar markazi (Central Asian Studies, School of International Studies, Jawaharlal Nehru University) kabilarda olib borilayotgan izlanishlarda ham biz tahlil qilayotgan mavzuga doir qimmatli natijalarga erishilgan[133].

Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usini oshishiga bugungi kunda ularning ma’naviy immunitetini shakllantirish tadbirlari alohida ahamiyat kasb etib, yuksak axloqiy madaniyatni talab etuvchi ijtimoiy – ma’naviy voqelik hisoblanadi. U yosh insonning shaxsi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, muayyan g‘oyaviy tarbiya va axloqiy madaniyat uyg‘unligini taqozo etadi. Tahdidbardoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan yosh avlod vakili, avvalo, ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiylik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yoshlardan biridir. Qolaversa, Vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi asosida shakllanuvchi tahdidlarga bardoshli bo‘lish muayyan milliy manfaatlar, umumiy maqsadlar asosida shakllanib, yoshlarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta’sir qilib, ularni mas’uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi. Bundan tashqari, yoshlarning tahdidlarga bardoshliligi ayni paytda ularning o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarashi, vatanni ko‘z qorachig‘iday asrashi, ilm – fan cho‘qqilari sari intilishi kabilar uchun muayyan tayanch omil bo‘lishi ham mumkin, albatta. Bularning barchasi Avesto zamonlaridan boshlab, Sharq va G‘arb ijtimoiy – falsafiy tafakkurida aks etgan purma’no fikrlar, mutaffakkirlarning asarlari Suqrot va Platon, Aristotel va Konfusiy, Al – Buxoriy va At – Termiziy, Al – Xorazmiy va Forobiy,

[133] X.E.Abdunosirova. Yoshlarda tahdidbardoshlikni shakllantirish: tahlil va talqin dialektikasi. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Navoiy. 2021 yil. 113-bet

Beruniy, Ibn – Sino, Abu Homid G‘azzoliy va Aziziddin Nasafiy, Jaloliddin Rumiy va Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband va Nizomulmulk, Amir Temur va Alisher Navoiy kabi atoqli allomalarning g‘oya va ta’limotlarining bugungi yoshlar tarbiyasiga o‘ziga xos ta’siri borligidan dalolat beradi, albatta. Bugungi kunda nafaqat zamonaviy qarashlar, balki ana shunday ulug‘ mutafakkirlarning g‘oya va qarashlarini chuqur o‘rganish va ularning asarlaridagi fikr va qarashlarini keng targ‘ib etish imkonini beruvchi izlanish va tadqiqotlarga ehtiyoj ortib borayotgani ham aslo bejiz emas. Bu esa, o‘z navbatida, axborot almashinuvi jadallashgan, globallashuv jarayonlari tinimsiz yangilanib borayotgan bugungi davrda ana shu zamonga mos va tahdidlarga chidamli yoshlarni voyaga yetkazish ehtiyoji ijtimoiy zaruratga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Demak, globallashuv jarayonida yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etishga qaratilgan bir necha taklif va xulosalarni ilgari surish mumkin:

- jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, yoshlar ongida taraqqiyotga xizmat qiluvchi an’anaviy va zamonaviy ijtimoiy – madaniy qadriyatlarni shakllantirish;
- yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, tarixiy tafakkurni shakllantirish va milliy mustaqillik g‘oyasi asosida tarbiyalash;
- ta’limda ilg‘or texnologiyalarni amalda qo‘llagan holda, jamiyatga kirib kelayotgan yangicha madaniyat va qadriyatlarni chuqur anglash, yoshlar ongida ularga qarshi tura oladigan kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- olimlarimiz tomonidan globallashuv jarayonining tendensiyalarini hisobga olgan holda, xalqimizning uzoq ming yillik milliy qadriyatlarni himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish;

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonining vujudga kelish sabablari, mohiyati va xususiyatlarini o‘rganish, bu jaroyonga yosh avlodni har tomonlama ijobiy tayyorlash, uning natijalarini tahlil etib, to‘g‘ri baho bera olish hamda bu qilinayotgan manfaatli ishlardan davlatimiz taraqqiyoti yo‘lida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish, zamon bilan hamnafas qadam tashlayotgan har bir olim va fuqaroning asosiy vazifalaridan biriga aylanmog‘i zarur.

REFERENCES

1. M. Gandi. https://bigasia.ru 2019. 20.06.
2. F.Jalilova. “Jamiyat va boshkaruv” jurnali, 2010 yil, 1 son.
3. X.E.Abdunosirova. Yoshlarda tahdidbardoshlikni shakllantirish: tahlil va talqin dialektikasi. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Navoiy. 2021

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING O‘RNI

Bekamova Manzura Mamat qizi
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL kutubxonachisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion usullarni amaliyotga tatbiq etishning ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, axborot-kutubxona, usul, faoliyat, kitob, rivojlanish.

Kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk, mo‘jizakor kuch bo‘lib, u insoniyatning tarixiy xotirasi, o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajagini yorqin ko‘rsatib berishga qodir mash’aladir.

Kitob insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi, aql qayrog‘i va bilim manbaidir. U fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo‘lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo‘tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Shu ma’noda Yurtboshimiz “Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda”, – deya ta’kidlaydilar. Shu boisdan ham O‘zbekiston yangi uyg‘onish davrini kitobxonlikni rivojlantirish va kutubxonalar faoliyatini tubdan yangilash hamda innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishdan boshladi. Chunki kutubxonalar ma’naviy yuksalishning o‘chog‘idir.

Tarixan olib qarasak, ilk kutubxonalar taxminan eramizdan 2600-yillar avval paydo bo‘lgan. Ammo, afsuski, u davrda ma’lumotlarning barchasini saqlab qoluvchi arxivlar mavjud bo‘lmagan, bo‘lsa-da, ular bizgacha yetib kelmagan. Hozirgi zamonaviy kutubxonalar esa shu qadar qulay, o‘ziga xos tarzda bunyod etilmoqdaki, ularni ko‘rib barchaning ko‘zi quvnaydi. Xo‘sh, zamonaviy kutubxonalar nimasi bilan ajralib turadi? Ularning noodatiy dizaynidan tortib, kitoblarning turli shakllarda chop etilganigacha kishi e’tiborni tortmay qolmaydi. Zamonaviy kutubxonalar yangicha arxitektura uslubida bunyod etilayotgan bo‘lib, bu ham kitobxonlarga o‘zgacha zavq bag‘ishlaydi.

Fan va texnika taraqqiy etgan davrda kutubxonalar bajaradigan vazifalar kengaydi, kutubxonachining professional faoliyatida ham qoidalar yangilanishiga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Endi tadbirlar miqdori, kitobxonlar va berilgan kitoblar soni kabi ko‘rsatkichlar Axborot-resurs markazi faoliyatini baholashda bosh omil bo‘lolmaydi. Kutubxonachidan audiovizual va elektron hujjatlar, zamonaviy texnika bilan ishlash malakasi ham talab etiladi. Raqamli davrda kutubxonalar o‘zlarining mavjud falsafasini rivojlantirishlari, foydalanuvchilarning manfaatlarini ta’minlash, xizmat ko‘rsatish va ehtiyojlariga hamda milliyligimizga mos keladigan fondlarni

yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kutubxona fondiga mazmunan sayoz, milliy-ma'naviyat va qadriyatlarimizga, axloq me'yorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan adabiyotlarni fond ro'yxatiga kiritmaslik lozim.

Eng yaxshi mudofaa - bu o'zgaruvchanlik, mohiyatni saqlab qolgan holda yangi shaklga o'tish qobiliyatidir. Bu bugungi kun kutubxonalarining faoliyatiga ham tegishli. Endilikda kutubxonalar faqat kitoblar va boshqa bosma materiallarni saqlash joylari emas, balki zamonaviy innovatsiyalarni qo'llash orqali ma'lumotlar almashinuvi va axborotlarni taqdim etishda muhim vositadir. Innovatsion usullarni qo'llash axborot-kutubxonalarning samaradorligini oshirish, ularning foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va yangi texnologiyalarni integratsiya qilishda katta ahamiyatga ega.

Kutubxonalar tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlaydigan akademik jurnallar, ma'lumotlar bazalari va ixtisoslashtirilgan resurslarga kirishni ta'minlaydi. O'quvchilar hamda tadqiqotchilar birlamchi va ikkilamchi manbalarga kirish uchun kutubxonalarga tayanadilar, ular asl tadqiqotlar va bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi raqamlashgan asrda kutubxonalar juda ko'p elektron resurslar, elektron kitoblar akademik ma'lumotlar bazalari va multimedia kontentiga onlayn kirishni ta'minlash uchun moslashgan. Ushbu raqamlashgan imkoniyatlar ta'limni yanada qulayroq qilib, o'quvchilarga geografik cheklovlardan qat'i nazar, masofadan turib materiallardan foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari Innovatsion texnologiyalar kutubxona xodimlarining ishini yanada soddalashtiradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali kitoblarni izlash, uni kitobxonlarga taqdim etish, qaytarish va boshqa jarayonlar tez va samarali amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yilning 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 26-dekabrdagi "Yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan "Yosh kitobxon" tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori natijasida yoshlarning mutolaa madaniyatini yuksaltirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish va ommalashtirish, sohaga innovatsion ishlanmalarni yaratish imkoniyatini vujudga keltirayotgani ham bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning ne chog'li muhim ekanligini anglatadi.

O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik, yurtga sadoqat, insonparvarlik, ruhida tarbiyalash maqsadida kutubxona fondini ham shu yo'nalishlarga mos, hamda o'quvchilarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda adabiyotlar bilan boyitib borishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Kutubxona fondi mazmunan xilma xil milliy va xorijiy matbuotning noyob to'plamidir. Kutubxona faoliyatining bosh maqsadi, milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng targ'ib qilish xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishni ta'minlash, ma'naviy boy,

vatanparvar va kamol topgan shaxsning ijodiy o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratish hamda butun insoniyat bilimini aks ettirgan, avvalo, O‘zbekistonga va uning milliy manfaatlariga, taalluqli bo‘lgan bilimlarning universal fondini yig‘ish, saqlash hamda o‘quvchilar foydalanishi uchun taqdim etishdir.

Makon va zamon masalasidan qat’i nazar elektron kitoblar, maqolalar va ilmiy ma’lumotlarni olishlari hamda ta’limiy saytlardan foydalanishlari uchun zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan kutubxona ham kitobxonlar bilan doimo gavjum.

Kutubxona xizmatlarini avtomatlashtirish, masalan, kitoblarni va materiallarni chiqarish-olish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali kutubxona xodimlarining vaqtini tejashga yordam beradi. O‘qish zallari, resurslar va kitoblarni qidirish tizimlari orqali foydalanuvchilar mustaqil ravishda kerakli ma'lumotni topishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar orqali axborot-kutubxonalar foydalanuvchilarga yanada ko‘proq va sifatli xizmat ko‘rsatishga imkon yaratadi.

Kutubxonani haqiqiy ma’naviyat o‘chog‘i deyish mumkin. Bu maskanda yaratilayotgan imkoniyatlardan, bo‘lib o‘tadigan suhbatlardan, kitobxonlar, albatta, o‘zlari uchun ma’naviy ozuqa oladilar.

Zero**,** kitob zamonlar dengizida sayohat qilayotgan va o‘zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga tashiyotgan hikmat kemasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yuldashev I., O‘. Nosirov. Kutubxona - axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, 2020.
2. Maxmudov M. Kutubxona - axborot faoliyatini boshqarish. - Toshkent 2019.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”. 2021.
4. Teshaboeva U. Yangi tizm yoshlarda mutolaa madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. // jur. Kutubxona.uz №2 (49), 2019.
5. Maxmudov M., Shokirov T., Niyozova E., Axborot-kutubxona xizmati: Nazariyasi va metodikasi. - Toshkent,2007.

FEATURES OF HUMAN PSYCHOLOGY IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION

Ismailova Gulsara Jalgasbaevna
Nukus ' Temurbek school" Military-academic lyceum Psychology teacher
Phone +998 97 2203939

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the peculiarities of human psychology, the processes of socialization and their relationship.

Keywords. Human psychology, socialization, thought, thinking, psyche, business acumen.

The development of modern science emphasizes the need to significantly strengthen the study of the developmental exercises of human psychology. The problem of artificial intelligence, in particular, requires the study of psychological differences in the socialization of man and the exercises of personal development.

Psychological development of a person is primarily directly related to the social center. In the science of world psychology, the interpretation of the individual as a product of the social center is accepted. It should be noted that the process of assimilation of social experience of a person, which reflects the relationship of the individual to the individual activity and the purpose for which he is engaged in spiritual activity, is characterized by personality traits, business acumen, perceptive motives.[134] In other words, entrepreneurship arises in the actions of a person who seeks to resolve the gifts in the environment.

A person's diligence helps him to choose a path for his future, to master it, to find his place in life. Monotonous living conditions have the potential to create different forms of personal activity and to create different living conditions. Thus, the notion of a person arises due to the fact that all external drivers that affect a person are enriched by social conditions, the structure of the internal educational units of business.

When a person participates in the activities of different groups in society, often they also perform various tasks, play different roles. For example, parents, children and more. It can also be humorous and amusing if it is weighty, demanding and not joining others in the line of duty, and if it is helpful and collaborative in the service.[135] From the above examples, one person in different situations plays opposite roles in terms of content. In some cases, a person shows the qualities that are appropriate to them in different situations, according to the circumstances, he plays the roles he has taken on in the home, in the service, in the community, in sports competitions, and so on, not against each other. The inconsistency of these human qualities, feelings, and attributes is one of the signs of a person's identity, in which contradictions, difficulties, and immature qualities are reflected in the fact that they are performed in different situations.

In Uzbekistan, the ban on the transfer of a person to a person is related to the process of building a humane, impartial, legal society, and is limited to the necessary categories, such as active participation in this social process. The development of the discipline of world psychology, as shown in the experiments of humanist scientists, shows that the psychological structure and psychological qualities of the individual form a unique, stable unity in each individual. This, in turn, allows you to strongly confirm the idea of the stability, rigidity, stereotypes of the psychological structure of the individual.

Mental conditions, gifts (feelings, desires, dreams, thoughts) are constantly changing, behavior in social groups changes depending on the role of the person in life, aging and psychological appearance of the person to some extent remains stable. This strict stability is closely connected with the stability of the set of social relations,

[134] Ш.Алланазарова, З.Матуразова. Шахстың психологиялық жағдайлары ҳәм өзгешеликлери. Нөкис – 2016. 39.

[135] Ш.Алланазарова, З.Матуразова. Психологияда билиў процесслери (Оқыў-методикалық қолланба). Нөкис – 2012. 32.

which is formed by human interaction with the conditions of its creation, the manifestation of its physical properties. But the stability we have mentioned has a strict nature. Therefore, changes in the psychological structure of the individual have been studied in a number of studies by psychologists. These changes are the center of human creation, the implementation of which is reflected in the service, they are directly related to the social impact, the state of education. Therefore, the relatively stable and relatively variable qualities of a person consist of a composite unit consisting of the individuality and interconnectedness of human emotions. In short, psychological differences in the process of socialization of the individual are a measure of all social relations.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Ш.Алланазарова, З.Матуразова. Шахстың психологиялыҳ жағ‘дайлары һәм өзгешеликлери. Нөкис – 2016. 39
2. Ш.Алланазарова, З.Матуразова. Психологияда билиў процесслери (Оқыў-методикалыҳ қолланба). Нөкис – 2012. 32.

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI

Toshpulatov Akmal Xolmirzayevich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati, mazmun-mohiyati hamda bu jarayonning asosiy usullari haqida batafsil ma’lumot beradi. Unda yosh avlodni Vatanga sadoqatli, jasoratli va ma’naviy yetuk shaxslar sifatida shakllantirish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar, turli tashkilotlarning roli va bu boradagi zamonaviy hamda an’anaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy ildizlari va bugungi kunda uning yoshlar hayotidagi o‘rni ochib beriladi. Maqola yoshlar tarbiyasiga oid ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar uchun foydali material bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy-vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, Vatanparvarlik, Vatan himoyasi, fuqarolik burchi, harbiy xizmat, milliy qadriyatlar, Vatan sadoqati, yoshlar siyosati, ma'naviy tarbiya.

Kirish

Hozirgi kuchli rivojlanish va global o‘zgarishlar davrida mamlakatimizning tinchligi, barqarorligi hamda istiqboli uchun asosiy ta’minot hisoblangan yosh avlodni vatanparvarlik ruhi bilan tarbiyalash masalasi o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu paytgacha bizga ma’lum bo‘lganidek, jahon miqyosida yoshlarni noto‘g‘ri yo‘llarga surib chiqish va ularni buzg‘unchi g‘oyalarga qaratishga intiladigan urf-odatlar ko‘payib bormoqda. Ana shuning uchun ham, bugungi zamon talablariga javob beruvchi tarbiya tizimini shakllantirishda xalqimizning tarixiy

merosi, madaniyati, urf-odatlari va an’analarini chuqur o‘rganish va ulardan foydalanish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Tarixiy merosni saqlash, uni o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazib berish hozirgi kunda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davrida har bir inson faoliyatini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Ammo biz buni unutmangki, halqimiz uchun eng oliy maqsad – tinch, barqaror va farovon hayotdir. Mustaqillikka erishgan yillarimiz mobaynida halqimizning tinch va farovon hayoti uchun ko‘plab salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu yutuqlarni yanada chuqurroq anglash va ularni saqlab qolish zaruriyati bizni yanada jiddiyroq ishlashga chorlaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida milliy armiyani shakllantirish va uni zamonaviy talablarga javob beradigan darajaga ko‘tarish uchun ulkan mehnatlar qilindi. Harbiy ta’lim sohasini takomillashtirish, mobil va tezkorlikka ega bo‘lgan, zamonaviy texnika bilan jihozlangan quvvatlarni tayyorlash bugungi kunda davlat siyosatining markaziy nuqtalaridan biriga aylanib qoldi. Millati, tili, dinidan qat’i nazar, har bir yosh inson milliy qadriyatlarning asosida tarbiya topishi kerak. Istiqlol davrida esa bu masala xalqaro hamjamiyatda ham o‘z o‘rnini egallagan.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va harbiy islohatlar “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi”ga mos keladi. Ushbu konsepsiya yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning butun tizimini yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tamoyillari, usullari, shakllari, bosqichlari va natijalarini baholash tartibi aniqlangan.

O‘zbekiston tarixida halq milliy – vatanparvarlik g‘oyasi atrofida jipslashib, inqirozli hodisalarni ichki va tashqi dushmalarni yenggan, ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarda ijobiy yechimlarga erishgan holatlari ko‘p bo‘lgan. Ulug‘ yengilmas, sarkarda, davlat arbobo Amir Temur o‘z ichiga Xorazm, Zakafkaziya, Eron va Panjobni olgan ulkan saltanat yaratishga muvaffaq bo‘lib, kuchli harbiy qudratga ega bo‘lgan. Amir Temur o‘z avlodlariga meros sifatida nafaqat ulkan qudrat, balki davlatni boshqarishda harakatga yo‘l ko‘rsatuvchi asarlarini qoldirdi. “Temur tuzuklari” donishmand hukumdor tomonidan yozilgan qimmatli tarixiy hujjatning nomidir. U ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchisi buyuk amirning xatti harakatlarining aftobiografik tavsifi bo‘lsa, ikkinchisi jamiyat a‘zolarining hulq-atvor qoidalari huuq va majburiyatlarini aniq belgilab beruvchi qonunlar majmuidir. Bu qonunlar shtatdagi oddiy fuqarolardan tortib amaldor va hukumdorlargacha mutlaqo barchaga taa‟luqli edi [1].

O‘zbekiston Respublikasi yoshlarini Vatanga mehr-muhabbat va milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, ularga Vatan himoyasining muqaddasligi va sharafli burch ekanini singdirish, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni ularning ongi va qalbida chuqur o‘rnatish, jonli Vatanimizning mustaqilligi va taraqqiyoti yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimizga faxr hissi uyg‘otish hamda ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish – bugungi kunda har birimizning muhim vazifamiz va burchimiz sanaladi.

Bugungi davr talablari yosh avlod ongiga Vatan, vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik hisslarini singdirishni talab etadi. Agar bu maqsadga erishsak, yoshlar o‘z Vatan oldidagi javobgarlikni to‘liq anglaydilar va uni himoya qilish uchun doimiy ravishda tayyor bo‘ladilar.

Xususan, 2023 yil 29 iyunda e’lon qilingan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi”da yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash “Vatan – ulug‘ burch – muqaddas!” konseptual g‘oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat’iy fikr va e’tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifalar etib belgilangan.

Inson o‘smir, rivojlana borishi bilan uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengayib, chuqurlashib boradi. Yurtimizda tug‘ilgan va o‘sgan har bir kishi “Vatanim” deganda faqat o‘z uyi, qishlog‘i, shahri yoki viloyatini emas, balki O‘zbekiston Respublikasini nazarda tutishi lozim. Har bir inson o‘zini O‘zbekistonlik sifatida his etishi, “Men O‘zbekistonlikman, men O‘zbekiston sharoitida dunyoga kelganman” degan g‘ururli tuyg‘uni ko‘klab ayta olishi kerak.

Vatan – kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg„usi, mas‟uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi [2].

Jumladan, har birimizning dili va yurag‘ida Vatan tuyg‘usi – bu bizning aziz va go‘zal yurtimizga bo‘lgan hurmat va sadoqatni anglatadi. Vatan tuyg‘usi – bu Turon, Movarounnahr, Turkiston kabi tarixiy diyorlarda yashab kelgan xalqimizning oltin merosini, uning buyuk tarixini o‘rganishga intilish hissidir. Vatan erkinligi uchun jonini fido qilgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur singari mard va jasur farzandlarimiz biz uchun, o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun o‘rnakli namuna sanaladi.

Vatanparvarlik – barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o„tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi [3].

Vatanparvarlik insonning o‘z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o‘z so‘ziga sodiqligidir. Shuning uchun ham

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi [4].

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog‘liq bo‘lgan davlat

xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas‘uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat [5].

Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yoshlarni, ya‘ni Vatanimizning bo‘lg‘usi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifamiz ekanligini unitmasligimiz lozim. Vatanparvarlik insonning o‘z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga, o‘z so‘ziga va xizmatiga sodiqligidir. Agar insonni bolalik chog‘idan o‘z xalqiga, uning an‘analariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi bo‘lmaydi. Tarixga nazar tashlasak, buyuk saltanat egasi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Buyuk davlat arbobo, sarkarda hukumdor, mo‘g‘ullar saltanatining asoschisi, iste’dodli yozuvchi, shoir va faylasuf, mashhur “Bobur-noma” (“Bobur eslatmalari”) aftobiografig muallifi Zoxiriddin Muhammad Bobur. Ma‘lumki, Bobur ma’rifatli va adolatli hukmdor, san’at, fan va madaniyat homiysi edi. O‘zi iste’dodli shoir va yozuvchi bo‘lib, u Agradagi (Hindiston) saroyi atrofiga butun badiiy elitani to‘pladi. Bobur o‘z hukumdorligining qisqa yillarida mamlakatdagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, halfaro savdo aloqalarini yaxshilash borasida ko‘p ishlarni amalga oshirdi. Uning sharofati bilan karvonsaroylar, kutubxonalar qurilishi keng tus oldi, Hindiston me’morchiligi va san’atida Markaziy Osiyo uslubi mustahkam o‘rin oldi. Buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki bunda ukmdorning o‘zi ham bor edi [6]. Zahiriddin Muhammad Bobur barcha imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, tug‘ilib o‘sgan Vatanidan uzoqda yashagani uchun o‘zini baxtli inson deb hisoblamagan. Vatan ravnaqi esa milliy g‘oyamizning yuksak qadriyatlaridan biri bo‘lib, u fuqarolarimizning bilim darajasi va kamolotiga bog‘liqdir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu ularning millati, tili yoki kasbidan qat’i nazar, Vatanga sadoqat hissini shakllantirish, fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar sifatida tarbiyalashga qaratilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda boshqa tashkilotlarning ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir-biriga bog‘liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmuasidan iborat [7].

“Vatanparvarlik” atamasi yunon tilidagi “pater” — Vatan degan so‘zdan kelib chiqqan. Vatanparvarlik deganda, Vatanga bo‘lgan muhabbat, uning o‘tmishi va bugungi kuni bilan faxrlanish mazmunidagi ma'naviy, siyosiy tamoyil va ijtimoiy hissiyotlar tushuniladi. Yoshlarning vatanparvarlik hissi, avvalo, oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida shakllanadi, keyinchalik umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida mustahkamlanib, oliy ta’lim muassasalarida rivojlantiriladi. Vatanni ma’naviy va tabiiy muhit sifatida tasavvur qilishga asoslangan qadriyatlarning o‘zlashtirilishi, ya’ni vatanparvarlikning hissiy tarkibi shakllanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ilmiylik, tarixiylik, aniqlik va tezkorlik, muntazamlilik, faollik, ta’lim va tarbiya ishlarining uyg‘unligi, tarbiya jarayonining izchilligi, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish kabi asosiy prinsiplari belgilab berildi [8].

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu nafaqat davlatning, balki jamiyatning ham muhim vazifasidir. Vatanparvarlik tarbiyasi mustaqillik, erkinlik, yurtga sadoqat kabi ezgu g‘oyalarni yoshlar qalbiga chuqur singdiradi va kelajakda ular ona Vatanini sevuvchi, uni himoya qilishga doim tayyor, jasur va ma’naviy yetuk shaxslar bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boymirzayeva R.X., Axmedova N. Temur kodeksi – buyuk siyosiy-huquqiy manba Yosh olim, 2017. № 43. B. 217-220. [elektron resurs]. Kirish rejimi: https://moluch.ru/archive/177/46185/.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi – V harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-64.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi – V harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-65.
4. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Xalq so‘zi. 247 (6741)-soni. – 2017. 7 dekabr.
5. Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023 yil 29 iyundagi 267- son qarori.
6. Bobur “Bobur-noma” Baku, 2011. B. 24, 139.

YOSHLARDA VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHDA “TEMUR TUZUKLARI” ASARINING ROLI VA AHAMIYATI

G‘aniyev Akmal Sobirovich
O‘zbekiston Respblikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent “Temurbeklar maktabi” tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya Maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruvi, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik masalasi ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Amir Temur, “Temur tuzuklari”, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik va davlat boshqaruvi

Mamlakatimiz qadimdan alloma-yu mutafakkirlar, olim-u fozillar diyori hisoblanadi. “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo‘q” [1] – dedi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev. Bu hududdan jahon ilm-fani ravnaqiga o‘zining

munosib hissasini qo‘shgan Abu Nasr Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari qomusiy allomalar, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi mutafakkirlar, To‘maris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi mard va jasur sarkardalar yetishib chiqdi. Zero, o‘zbek ma’rifatparvar adibi Abdulla Qodiriy ta’kidlaganidek, moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlidir. Ushbu tamoyilga amal qilgan holda, vatanimiz tarixini qunt bilan o‘rganishimiz lozim bo‘lgan yorqin sahifalariga nazar tashlalar ekanmiz, ular orasida hech shubhasiz, Amir Temur siymosi alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo‘lgan “Temur tuzuklari” asarida buyuk ajdodlarimizning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalariga oid qarashlari va pand-nasihatlari (o‘gitlari) har tomonlama aniq, ishonarli va ta’sirchan tarzda yoritilgan.

Dunyo tarixida qudratli saltanat barpo etgan Sohibqiron Amir Temur o‘zining azm-u shijoati, yuksak mahorati, mardlik va jasorati tufayli shonli tariximizda o‘chmas iz qoldirgan. U Kesh viloyatidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida 1336-yil 9-aprel kuni barlos urug‘ining oqsoqollaridan biri bo‘lgan Amir Tarag‘ay xonadonida tavallud topgan. U o‘zining ilk harbiy faoliyatini qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o‘zaro kurashlarida qatnashib jasorat ko‘rsatgan va janglarda chiniqqan, harbiy mahorat hamda oliyhimmatlilik sohibi bo‘lib borgan Amir Temur umri davomida to‘plagan boy tajribalari va kuzatishlariga tayanib, o‘zining saltanatni tutib turish va uni odilona boshqarish borasidagi qarashlarini “Tuzuk”larida jamlagan.

“Temur tuzuklari” asari Amir Temurning saltanatda olib borilgan adolatli boshqaruv siyosati haqida ma’lumot beradigan qimmatli asardir. Asar 2 qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, shu jumladan, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o‘z tasarrufiga kiritishi, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o‘ziga xos vasiyat, pand nasihatlari va o‘gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo‘sini va boshqa xususida gap boradi.

Ana shu to‘plam tarixiy asarlarda va turli tildagi tarjimalarga mos holda “Temur tuzuklari”, “Tuzukot Temuriy”, “Temurning aytganlari” va “Voqeoti Temuriy” – “Temurning boshidan kechirganlari”, “Qissai Temur”, “Malfuzoti Temuriy”, “Temur Qissasi”, “Zafar yo‘li”, “Zafarnoma”, “Tarjimai hol”, “Esdaliklar”, “Tanziymot” (yangi qonun-qoidalar, islohot), turkiy chig‘atoy tilidan rus tiliga

o‘girilganda Malfuzot va Tuzukot o‘rniga “Dastur ul amal” nomlari bilan mashhurdir [2].

“Temur Tuzuklarida” davlatni boshqaruv va ilm-fanga alohida e’tibor berilgan: O‘z tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, tartibi va qudrati yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xshaydirkim, ko‘rgan har kimsa undan nigohini olib qochadi. Shuning uchun ham men saltanatim binosini islom dini, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do‘stlarim oldimga panoh izlab kelganlarida, ularni o‘zimning baxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ulardan ayamadim. Yana o‘z tajribamdan bildimki, sodiq va haqiqy do‘st uldurkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stining dushmanini o‘z yovi deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, o‘z do‘sti uchun jonini ham ayamaydi. Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e’tiborli kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalolari va mashoyihlariga ta’zim bajo keltirib, ortiq hurmatladim, ularga suyurg‘ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o‘sha viloyatning ulug‘larini og‘a-inimdek, yoshlari va bolalarini bo‘lsa o‘z farzandalrimdek ko‘rdim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvdim. Har elning ulug‘larini, sharafli kishilarini hurmatlab martabalarini oshirdim [3].

Amir Temur davridagi “devon”, “vazir”, “hokim”, “g‘aznachi” kabi mansab va unvonlar bugun ham davlat boshqaruv tizimida alohida institutlar sifatida shakllantirilgan. Shuningdek, mamlakatning viloyat va tumanlarga bo‘linishi ham tarixiy asoslariga ega. Bugungi qonun chiqaruvchi organ – “Qurultoy” siyosiy institutining taraqqiy etgan va rivojlangan shaklidir.

Mehribonlik, xokisorlik, ochiq yuzlilik, qat’iyat, haqiqatgo‘ylik kabi fazilatlar Amir Temur yutuqlarining kalitlaridandir. Ezgulik dushmanni ham do‘stga aylantirishi haqida u bunday o‘git beradi: “Davlatim va saltanatim quyoshi ko‘tarilib kelayotgan vaqtda menga iltijo qilib kelgan yaxshi-yomon odamlar, xoh yaxshilik, xoh yomonlik qilgan bo‘lsin, saltanat taxtiga o‘tirganimdan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan xijolatga qo‘ydim… Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroq bo‘lishga intildim” [4]. Sohibqiron sadoqat, qat’iyat va adolatparvarlik kabi fazilatlarni ulug‘lagan. Ikkiyuzlamachilik, munofiqlik kabi razil odatlarga nafrat ko‘zi bilan qaragan. “Tuzuklar”da bunday hikoya qilinadi: “Tajribamda ko‘rdimki, aqlli dushman johil-u nodon do‘stdan yaxshiroq ekan. Chunonchi, Amir Qazag‘anning nabirasi amir Husayn nodon do‘stlardan edi” [5].

“Raiyatini o‘zimga qaratib oldim. Hammani qo‘rquv va umid orasida saqladim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim”[6], deb yozadi Amir Temur. Ibn Arabshoh “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” asarida bunday ma’lumotni keltiradi: “U hazil-mazax va yolg‘onni yoqtirmas, o‘yingayu ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi o‘ziga ozor yetadigan biron narsa bo‘lsa ham, sadoqat unga yoqar edi. Jasoratlilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. U xatosiz fikrlovchi, ajoyib farosatli, mislsiz baxtli, ulug‘vorligi o‘ziga muvofiq, qat’iy azm bilan so‘zlovchi, boshiga kulfat tushganida ham haqni so‘zlovchi kishi edi”.

Amir Temur o‘z imperiyasiga qo‘shib olgan mamlakatlarni idora etish uchun tayinlanadigan kishilarga qo‘yiladigan talablar tizimini ham ishlab chiqdi. Bunday rahbarlar Amur Temur talabiga ko‘ra qo‘yidagi fazilatlarga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan:

1) Oliy janob tabiatli va ruhiy holatining ko‘tarinkiligi;

2) Nozik aql va ziyraklik;

3) Yuksak malaka hamda xalq va qo‘shinga murojaat qila bilish;

4) Sabr-toqat va odamlar bilan murosaga kelishmoq. Mana shu yuqoridagi qoida va talablar Amir Temur hokimiyatini idora etishda va uni mustahkamlashda muhim o‘rinni egalladi. Sohibqiron tuzgan imperiyaning ma'muriy-xududiy bo‘linishi asosan tumanlardan iborat bo‘lganligi uchun yangi amirlik tizimini shakllantirish va mustahkamlash zarur edi. Shu bois Amir Temur 313 kishiga amirlik mansabini berishga farmon berib, shulardan bir kishini amir-ul-umaro, 4 kishini beklarbegi, 100 kishini o‘nboshi, 100 kishini yuzboshi va 100 kishini mingboshi etib tayinladi. Bulardan tashqari 8 ta amirlar amir-ul-umaro yordamchilari etib tayinlanganlar. Amir Temur milliy g‘urur, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar bilan qurollangan buyuk davlat arbobi edi. Mojar olimi Xerman Vamberi ta'kidlaganidek, O‘rta Osiyoda asl turklik davri Temurdan boshlangan. U turklarning mug‘ul-xitoy dunyosining ustidan g‘alabasini mujassam etib, milliy davlatga asos solgan, mamlakatning rasmiy tili turk (o‘zbek) tili bo‘lgan. Buyuk Amir Temurning siyosiy faoliyati nafaqat davlatchilik tarixini boyitishda, shu bilan birga hozirgi sharoitda milliy davlatchiligimizni mustahkamlashda ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Temur tuzuklarida Amir Temur o‘zi tuzgan qo‘shinning tuzilishi, qurollanishi hamda buyuk sohibqironning harbiy san'ati haqida ham muhim ma'lumotlar berilgan. Zero Amir Temur tuzgan qo‘shin o‘zining strategik va taktik maxorati bilan o‘sha davrning eng mukammal va kuchli armiyalaridan hisoblangan. Amir Temur esa jahonda mahoratli buyuk sarkarda sifatida shuhrat qozongan. Hozir ham ko‘pgina xorijiy mamlakatlar harbiy o‘quv yurtlarida “Temur taktikasi” mahsus kurs sifatida o‘tiladi. Yurtimiz va xalqimiz mustaqil bo‘lgach, mustaqil davlatchiligimiz asoslarini yaratishda buyuk Amir Temur va uning «tuzuklari»ga murojaat qilmoqdamiz. Uning «Kuch adolatda» tamoyili esa huquqiy davlat barpo etishimizda yo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Buyuk sohibqiron Amir Temurni nafaqat O‘rta Osiyo xalqi, uni butun jahon tan oldi. Chunki u faqat O‘rta Osiyodagina emas, dunyoning boshqa xalqlari uchun ham buyuk xizmatlar qildi.

Amir Temurning mardligi, jasorati ayniqsa, bunyodkorlik salohiyati barcha xalq va millatlar tomonidan tan olingan xislatlaridan biridir. Temur saltaniga elchi sifatida tashrif buyurgan

Klavixoning esdaliklari haqida Lyusen Keren shunday yozadi: “Yo‘l-yo‘lakay ular Amir Temurning vatani bo‘lmish Kesh shahrini ziyorat qildilar, uning darvozasi peshtoqiga “Qudratimizga shubha qiladigan bo‘lsang, biz qurdirgan binolarga boq” degan mag‘rur shior bitilgan “Oqsaroy”ni tomosha qildilar [7]. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy

resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir” [8]. Shunga ko‘ra biz bugungi jamiyatimizning oldida turgan inson omilini qadrlash, uning shakllanishi, kamol topishi va shu bilan birga ilm-fanni yuksaltirishda sohibqiron Amir Temurning bor boy madaniy va ma’naviy merosi “Tuzuklar” juda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. Islom sivilizatsiyasi markazining qurilish jarayoni bilan tanishish vaqtidagi nutqi. https://www.gazeta.uz/oz/2018/12/21/islom-sivilizatsiya/
2. M.Sherov, B.Xaitov. Amir Temur tuzuklariga harbiy-siyosiy sharh. (Monografiya), - Chirchiq, 2021. 7-bet.
3. Ahmedov B..Temur Tuzuklari -, forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy tarjimasi. Toshkent, 137-betlar
4. Temur tuzuklari. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. 89-bet.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URUR G‘OYALARI ASOSIDA O‘QITISHDA YANGICHA MAFKURAVIY YONDASHUV

Norqobilova Sumbula
TerDPI Maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Yosh avlod vatanparvarlik va milliy g‘urur g‘oyasi asosida tarbiyalansa yurtning kelajagi porloq bo‘lishi, har tomonlama taraqqiy etishi yoritilgan. Yoshlarga vatanparvarlik va milliy g‘urur g‘oyalarini singdirishda yangicha mafkuraviy yondashuvlardan foydalanishimiz zarur.

Kalit so‘zlar: milliy g‘urur, mafkura, millat, davlat, taraqqiyot;

Bugungi globallashuv tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan murakkab va shiddatli davrda mamlakatimiz yoshlarini mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ma’naviyatini yuksaltirish hamda turli xil tahdidlardan asrash ularni jangavor tayyorgarlik mashg‘ulotlariga, ma’naviy va mafkuraviy ishlarga, madaniyat san’at,jismoniy tayyorgarlik va sportga jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, harbiy burchni, xalqparvarlikni, targ‘ib qilish dunyoda sodir bo‘layotgan harbiy va siyosiy hodisalar bo‘yicha bilimlarni oshirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.SHu bilan birgalikda o‘quvchilar ongida vatan, vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish ham ahamiyat kasb etadi.

Shu singari ta’limni ustuvor yo‘nalishlari asosan bolalarning jismoniy va axloqiy rivojlanishi, intelektual shakillanishi, shaxsiy madaniyati va ma’naviyatini

shakllantirish, huquqiy vatanparvarlikni yuksaltirish, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirish pedagogik faoliyatni vazifalarini bajarish uchun tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda bizga ota-onalarning ham yordami kerak. Ota-onalar farzandlariga tarbiya bilan bir qatorda vatanga bo‘lgan sadoqat tushunchalarini ham o‘rgatishlari zarur hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish bugun kun maqsadiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakat tinchligi va rivojining bugungi, kelajagi bo‘lgan yoshlar jahonda ro‘y berayotgan vaziyatlarga o‘z shaxsiy prozitsiyasining bo‘lishi, o‘z mamlakati kelajagi uchun qayg‘urishida harbiy vatanparvarlik ruhini yanada rivojlantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil ravishda nostandart qaro qabul qilish malakalarini oshirish bo‘yicha ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda

Mamlakatimizda ma’naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash masalasi har doim davlad siyosatining muhim bir bo‘g‘in bo‘lib kelmoqda. Bu farzandlarimiz va kelajagimiz uchun zarur omil hisoblanadi. Shu paytgacha bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu islohotlar bugungi davr talablari darajasida keng qamrovli emasligi hamda ba’zi sohalarda kamchiligi ko‘rinib qolayotgani afsuski hech kimga sir emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Mirziyoev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida shunday deb ta’kidlagan edi " yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar”, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz ". Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yurt kelajagi ham ma’nan ham jismonan yoshlarimiz qo‘lida. Muhtaram yurtboshimiz aytganidek umumbashariy qadriyatlar va mustaqil fikrlar egasi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash va vatanparvarlik ruhini shakillantirish muhim prinsiplardan hisoblanadi

Davlatning shakillantirilishi vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Davlatga va davlat hokimiyatiga, umuman olganda, ma’suliyatli munosabat siyosiy muhim vatanparvarlikning ajralmas va muhim qismiga aylanadi, bu bilan siyosiy ongning xarakteriga ega bo‘ladi. Vatanparvarlik baynalminallik bilan o‘zaro baliq.

Baynalminallik - jahondagi turli millat va irqlarga mansub kishilarning xalqaro birdamligi, ularning bir-birini tushunishlari va o‘zaro ishonchi, madaniyati,qadriyatlar, bilim va texnologiyalar o‘zaro borishining asosi; millatchilikka umuman yo‘l qo‘yilmasligi, insoniyat tarixida turli millatlar va elatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy - ma’naviy aloqalar o‘rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borish jarayoni, mazkur munosabatsabatlarsiz esa, iqtisodiy taraqqiyot amalga oshmaydi.

Eng quvonarli jihati ko‘p millatli xalqimizda millatchilik tuyg‘usi umuman yo‘q desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir O‘zbekistonda yashayotgan inson ko‘nglida millatidan qatiy nazar vatan tuyg‘usi shakllangan .

O‘zbekiston respublikasi ilg‘or mamlakatlar bilan barcha sohada hamjihatlik, hamkorlik va birdamlikni amalga oshirishga intilmoqda, xalqaro munosabatlarning umum tan olinga qoida va tamoyillariga rioya qilmoqda. Mamlakatimizda barcha

fuqarolar, millati va irqidan qa’tiy naza, o‘zaro ishonch hamda birdamlikdani mustahkamlash yo‘lida harakat qilmoqda. O‘zbekiston 130 dan ziyot millat va elat vakillari yashaydi.

Vatanparvarlik faoliyati - bu vatanparvarlik ongini o‘zida mujassam etish va vatanparvarlik obyektiga nisbatan barcha turdagi ta’sirni amalga oshirish usuli sifatida vatanparvarlik maqsadlari amalga oshirishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Ushbu faoliyat vatanparvarlikning haqiqatan ham sezilgan va ko‘rinadigan tomoni moddiy asosini tashkil etadi. Agar ular Vatanga xizmat qilishga qaratilgan bo‘lsa, shaxsning o‘z mamlakatining taqdiri uchun ijtimoiy va ma’naviy javobgarligini ifoda eta olsa, ushbu harakatlarni vatanparvarlik deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlis Murojaatnomasi" 25.12.2017
2. "O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlad siyosati asoslari " to‘g‘risidagi qonun 1991 yil
3. Hasanboyev J va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at . T: Fan va texnologiya, 2009 - 490 b.
4. .Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.– T.: 2003. - 174 b.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARIGA MILLIY G‘OYALAR ASOSIDA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA KITOBNING TUTGAN O‘RNI.

Choriyeva Fazilat Ulug‘bek qizi
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL kadrlar bo‘linmasi 2-toifali mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi zamonaviy hayotimizda yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda kitob o‘qishning ahamiyati borasida statistikaga asoslangan fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kamolot, ma’naviyat, yaratuvchanlik, kashfiyot, stress, tibbiyot, ruhiy-psixologik, sodiq do‘st, fikrlash doirasi, o‘zlashtirish darajasi, xotira, so‘zamollik, muvaffaqiyat, qashshoqlik darajasi, yaxshilikka chorlash, moliyaviy holat, moddiy-ma’naviy yuksaltirish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Kitobsiz taraqqiyotga yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi.Kitob o‘qimagan odamning ham millatning ham kelajagi yo‘q”-deya ta’kidlaydilar.

Kitob insonni kamolotga yetishtirishdagi eng asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunga qadar zamon shiddat bilan o‘tgani sari kitoblarning ko‘rinishi ham muqovasining rang-barangligi ham o‘zgarib bormoqda. Ammo kitobning inson

ma’naviyatini yuksaltirishdagi qo‘shadigan xissasi hanuzgacha o‘zgargani yo‘q.Amir Temur bobomiz “Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir” degan edi.

Kitoblar qadimdan insoniyatni yaxshilikka chorlovchi ularning bilim darajasini oshiruvchi vosita sifatida foydalanilib kelingan. Chunki insoniyat kitobdan oladigan foydalarini qadimdan bilishgan. Ota bobolarimiz kitobdan keyinchalik ham kelajakda insonlar foydalanishlari uchun o‘z hayotidan ko‘rgan kechirganlarini,kashfiyotlarini kitob holatida kelajak avlodlarga yozib qoldirishgan.

Kitob inson salomatligi uchun ham foydali ekanligi tufayli ham hozirgi kunda o‘z nufuzini yo‘qotmagan. Muntazam ravishda kitob o‘qiydigan insonlar altsgeymer kasalligiga kitob o‘qimaydigan insonlarga nisbatan kamroq chalinishi tibbiyotdan bizga ma’lum. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra inson kuniga 6 daqiqa kitob mutoala qilishi uning stress holatini yaxshilashga yordam berar ekan. Kitob ruhiyat davolovchisi deyilgan yapon xalq maqollaridan birida.

Afsuski texnika taraqqiyoti sababli odamlar bo‘sh vaqtini asosiy qismini gadjetlar bilan o‘tkazishmoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda inson kun davomida gadjetlar uchun o‘rtacha 38% vaqtini sarflar ekan. Bu albatta juda achinarli holat. Chunki kitob o‘qimaydigan inson bo‘sh vaqtini gadjetlar bilan o‘tkazar ekan unda stressga tushish holati kuchayib va bu holatda bora-bora uni jinoyatga moyilligini oshirishga sabab bo‘lishi mumkin ekan.

Kitob nafaqat inson bilim saviyasini oshiruvchi buyum balki u inson uchun eng yaqin do‘stdir ham.Negaki inson har qanday ruhiy-psixologik tushkun holatida maslahatgo‘y bir do‘stga muhtoj bo‘lgani kabi tushkunlikka tushgan insonni ma’lumotlar bilan qiziqtirib-chalg‘itadigan bir yaxshi kitobga ham muhtojlik sezadi.Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do‘stlardir degan edi Viktor Gyugo.

Kitobning sahifalari xilma-xil rasmlarga boy bo‘lishi uni nafaqat yoshlarni o‘ziga jalb qiladi balki yoshi katta insonlarni ham fikrlash doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari kitob o‘qiydigan yoshlarni darslarni o‘zlashtirish darajasi boshqalarga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Bunga sabab kitob o‘qish xotirani kuchaytiradi. Muntazam ravishda kitob o‘qigan insonni kitob mutoala qilmaydigan insonlar bilan suhbat vaqtida ularni o‘rtasidagi farq sezilarli darajada bo‘ladi. Bu esa kitobni insonni omma oldida chiqishlar vaqtida so‘zamol bo‘lishini ta’minlaydi deb bemalol ayta olamiz. Kitob o‘qiydigan insonni ham muvafaqqiyatga erishish darajasi yuqori bo‘ladi.

Yevropa mamlakatlarida mahbuslarni qancha miqdorda kitob o‘qishiga qarab ularni jazo muddati kamaytiriladi.Misol tariqasida bitta kitob bir kun miqdorida belgilanadi. Chunki jazoni ijro etish vaqtida ko‘p kitob o‘qigan mahbuslar ozodlikka chiqqach ularni jinoyat qilish darajasi 30 % ga kamayar ekan.

Ko‘p hayriya ishlari bilan shug‘ullanadigan insonlar ham ko‘p kitob o‘qiydigan insonlar bo‘lishadi. Bu o‘z navbatida kitobning bizga beradigan yana bir foydali tomonlaridan biridir. Kitob o‘qish esa insonni yaxshilik qilishga chorlashiga yuqoridagi faktlar yana bir isbotdir.

Ko‘p kitob o‘qiydigan insonlar orasida qashshoqlik darajasi ham past bo‘lar ekan atigi 4 %. Kitob mutoala qilishni yoqtiradigan insonlar moddiy tomonlama

qiyinchiliklarga kamroq duch kelishi ya’ni ularning moliyaviy holati qoniqarli darajada bo‘lar ekan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki kitob o‘qish yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Kitob o‘qish orqali har bir inson o‘zi bilmagan ammo bilishni istagan ko‘plab savollariga javob topa oladi.Odamni ham ruhiy-psixologik ham tibbiy tomonlama ham moddiy-ma’naviy yuksaltirishda, rivojlantirishda kitobning o‘rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmoni;
2. Luiza Xeyning “Taqdiringizni boshqaring” nomli kitobi;
3. Doston Mustafoyevning “Hammasi kitob haqida” nomli kitobi;
4. Azamov B “Elektron qo‘llanmalar”;
5. G‘iyosiddin Yusufning “Men ham kitob o‘qiyman” nomli kitobi;
6. Davronbek Tojialiyevning “Kitob haqida kitob” nomli kitobi;

BO‘LAJAK HARBIYLAR TARBIYASIDA KITOBXONLIKNING O‘RNI

Umaraliyev Murodjon Qambarali o‘g‘li
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi telefon:+998973377889

Annotasiya: Ushbu maqolada yoshlarga bo‘lgan yondashuvning qanday bosqichlardan o‘tgani va ularni keng dunyoqarashli, vatanparvar, izlanuvchan bo‘lib kamol topishlarida kitobxonlikni ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy, siyosiy vaziyat, tabiiy paternalism, kitobxonlik, terrorizm.

Yangi O‘zbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari har tomonlama harakatlar ketayotgan davrda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kun o‘qituvchilarining asosiy burchlaridan biri. Guvohi bo‘lyapmizki dunyoda bugungi kunga kelib siyosiy iqtisodiy vaziyat tahlikali holga kelmoqda. Bunday vaziyatda yosh avlod Vatanini chin dildan sevmasa, himoya qilish burchi ekanini anglamasa, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanmasa davlat kelajagi havf ostida qolishi mumkin. Darhaqiqat, yoshlar har qanday davlat istiqbolining strategik imkoniyatini belgilovchi muhim qatlam sanaladi. Biroq, davlat taraqqiyotining istiqboli uning mazkur imkoniyatdan qay darajada foydalana olishi va unga o‘z kuch-kudratini safarbar etishiga bog‘liq. Xorijiy mamlakatlarda yoshlar siyosatining shakllanishi davlat miqyosida asosan XX asrning 50-60-yillarida boshlangan. Mutaxassislar buning oltita bosqichini e’tirof etishadi. Birinchi bosqich, XX asrning 50-yillaridagi “tabiiy paternalizm” bosqichidir. Bunda davlat va jamiyat o‘zining

konservativ yondashuvini namoyish etadi, ya’ni yoshlarga o‘ziga xos talablarga ega alohida ijtimoiy guruh sifatida e’tibor qaratmaydi.

Yoshlar muammolarini hal etish bilan asosan, ixtiyoriy tashkil etiladigan ijtimoiy, diniy va jamoat tashkilotlari shug‘ullanishgan. Ikkinchi bosqich, 60-yillarda “Yoshlar - qo‘rqinchli kuch” shiori bilan xarakterlanadigan va avlodlar o‘rtasidagi ziddiyatni aks etgiruvchi, yoshlarni neokonservativ kuch sifatida qabul qiluvchi bosqich sanaladi. Bu paytda yoshlar muammosini hal etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy davlat xizmatlari paydo bo‘ladi. Shuningdek, “yoshlar siyosatining tarmoq” modeli asosan arosatda qolgan yoshlar guruhi muammolarini hal etishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Uchinchi bosqich, 70-yillarda - yoshlar siyosatida demokratik qadriyatlarning qaror topishini o‘zida mujassam etgan bosqichdir. Bu bosqichda “Yoshlar - davlat va jamiyatning asosiy umidi"ga aylana boshlagan. Yoshlarning turli guruhlari uchun davlat tomonidan ko‘rsatiladigan kengaytirilgan infratuzilma xizmatlari paydo bo‘la boshlagan. Yoshlar nafaqat siyosatning ob’ekti, balki faol sub’ektiga aylana boshlagan. To‘rtinchi bosqich, 80-yillarning boshi 90-yillarning o‘rtalarida yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va rolini baholovchi “yoshlar -bu shunchaki yoshlarda” degan yakuniy demokratik yondashuv shakllangan bosqichdir. Bu paytda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi davlatni yoshlar siyosatining yunaltiruvchiligidan ancha chetlashtirdi. Yoshlarning o‘zi mazkur siyosatni shakllantirib, amalga oshira boshlashdi. Mazkur bosqichda davlat va nodavlat ijtimoiy xizmatlarining maqsadi nafaqat “uyushmagan yoshlar”ga, balki birinchi navbatda faol mehnat, o‘qish va professional mahoratga yo‘naltirilgan yoshlarga qaratilishi belgilandi. Beshinchi bosqich, 90-yillarning oxiridan 2001-yil 11-sentyabrgacha bo‘lgan davrda, turli hudud va mamlakat yoshlari hamda boshqa ijtimoiy guruh vakillarini mavjud zamonaviy va global muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan faol ijtimoiylashuvi va o‘zaro hamkorlikdagi kuchlarini birlashtirishni nazarda tutuvchi yoshlar siyosatini amalga oshirishning umumbashariy yondashuvi shakllantirilgan bosqich sanaladi. Oltinchi bosqich, 2001-yil 11-sentyabrdan boshlanib, hozirgi davrgacha davom etmoqda, chunki yoshlarning aksariyati terrorchilik va boshqa zarar keltiruvchi oqimlarning qurbonlariga aylandilar va uning cho‘qqisi sifatida 2014 yil Suriya va Iroq davlatining suvga boy yerlarida Islom davlati paydo bo‘lib, uning mafkuraviy ta’siri butun dunyoga ta’sir qila boshladi. Mazkur davlatning mafkurasi bevosita Internet hamda audio va videomateriallarda tarqala boshlab, o‘z girdobiga minglab yoshlarni jalb qilish asosida qonli terrorchilik hujumlar ko‘pgina dunyo mamlakatlarida yuzaga keldi, ya’ni AQShda, Kanadada, Shri-Lankada, Suriya va Iroqda, Afg‘onistonda, Isroilda, Rossiyada, Buyuk Britaniya, Germaniya va Frantsiya mamlakatlarida. Musulmonlar ham xristian yoshlarning yovuzli terrorchilik qurbonlariga aylandilar. Chunonchi, 2019-yilning mart oylarining o‘rtalarida Kraystcherch shahrining ikkita machitlarida (Yangi Zelandiyaning Janubiy orolida) o‘q otar quroldan tegishli otishmalar yuzaga kelib,uning natijasida politsiyaning xabariga ko‘ra 50 nafar shaxs o‘ldirildi, yana 50 nafari tegishli jarohatlarga ega bo‘ldi. Yangi Zelandiyaning Bosh vaziri Djasinda Ardern bu harakatlarni terroristik harakat deb baholadi. Ko‘rinib turibdiki, oltinchi bosqichda yoshlarning e’tiqodi va

sog‘lom mafkuraviy g‘oyaga ega bo‘lishi uchun yovuz ekstremistik va diniy fundamentalizmga ega bo‘lgan kuchlarga qarshi betinim mafkuraviy kurash ketmoqda va bu kurashda G‘arbning ommaviy madaniyat ta’siriga ham qarshi harakatlar olib borilmoqda.

Yoshlarni yod g‘oyalardan saqlash, o‘z fikriga ega bo‘lgan, sog‘lom dunyoqarashli qilib tarbiyalashda badiiy adabiyot samarali vositalardan biri deb hisoblayman. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar orasida kitobxonlokni targ‘ib qilishga qaratilgan say-harakatlari ham bejiz emas. Shu maqsadda bir nechta Qaror va Farmonlar qabul qilindi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, “2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, shular jumlasidandir. Bu harakatlari o‘z samarasini bera boshladi. Yoshlar orasida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish ortib boryapti. Yuqorida keltirilgan hujjatlarda kitob noshirlariga ham turli xil imtiyozlar berilganini ko‘rish mumkin.

Kitoblarning elektron savdolari ham ancha rivojlandi va bu rivojlanish davom etmoqda. Biz o‘qituvchilar turli xil fanlardan dars berish jarayonida o‘zimiz o‘qigan kitoblardan tinglovchilarimizga qisqacha ma’lumotlar berib borsak, bu ham o‘z natijasini beradi, ularda albatta kitob o‘qishga bo‘lgan mehr paydo bo‘ladi. Buni o‘z tajribamizda ham sinab ko‘rdik, 15-16 yoshgacha badiiy asar o‘qimagan o‘quvchilarimiz bergan tavsiyalarimizdan so‘ng bir necha kitob o‘qishga ulgurdilar va buni doimiy mashg‘ulotga aylantirdilar. Kitob targ‘ibotidagi yana bir usul deb sovg‘a sifatida yaqinlarimizga, do‘stlarimizga, o‘quvchilarimizga ham kitob bersak, bu ham o‘ziga yarasha samara berishi aniq. Xalqimizda “Eng yaxshi sovg‘a kitob” deb bekorga aytilmagan. Bo‘lajak harbiylarni strategiyalarni tushunishi, tarixni bilishi, ajdodlarimiz qanday salohiyatli bo‘lganini Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi haqidagi kitoblarni o‘qishiga bog‘liq deb o‘ylayman. Kitob mutolaasi haqidagi faylasuflar fikrlari bilan mulohazalarni yakunlamoqchiman.

Kitob zamonlar dengizida sayohat qilayotgan va o‘zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga tashiyotgan hikmat kemasidir. **Frensis Bekon**

Shunday odamlarni axtaringki, ular bilan suhbat qilmoq yaxshi kitob o‘qimoqqa barobar bo‘lsin. Shunday kitoblarni axtaringki, mutolaasi faylasuflar suhbatiga teng bo‘lsin. **A. H. Baxmanyor**

Yaxshi kitoblarni bugun o‘qing, yomon kitoblarni o‘qishga ertaga albatta vaqt topiladi. **Isaak Barrou**

Nodonlar-la o‘tirib-turmoqdan kitob bilan yolg‘iz qolmoq yaxshiroqdir. **Qosimbek Zokir**

Kitoblar sizni minglab asr avval dunyodan o‘tgan dohiylar bilan uchrashtiradi. **Rene Dekart**

Kitoblarim men uchun butun umrga yetajak ulkan qirollikdir. **Shekspir**
Men kitoblarni emas, kitoblar meni yaratdi. **Mishel de Monten**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Shavkat Mirziyoyev
2. Xalq so‘zi.uz sayti

HARBIY-AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINING KITOBGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH VA KUTUBXONADAN FOYDALANISHI

Mengliyeva Manzura Yo`ldashevna
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
ARM rahbari

Anotatsiya

Mazkur maqolada harbiy litsey o‘quvchilarining kutubxonadan foydalanishi, kitobga bo‘lgan qiziqishi va bu jarayonning ularning intellektual hamda ma’naviy kamolotidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Kutubxonaning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan tarbiyaviy va ma’rifiy ta’siri, shuningdek, kutubxona faoliyatini rivojlantirishga doir takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kutubxona, axborot, bilimlar, elektron kutubxona, elektron kataloglar.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Raqamli texnologiyalar rivoji ta'lim tizimiga katta o‘zgarishlar olib kirdi, bu esa kutubxonalar faoliyatida ham aks etdi. Zamonaviy elektron kutubxonalar o‘quvchilarga kerakli bilimlarni o‘z ichiga olgan kitoblar va boshqa ta’lim resurslariga qulaylik bilan kirish imkonini beradi. Kutubxona ishini raqamlashtirish va mobil ilovalar orqali foydalanish imkoniyatini yaratish, ayniqsa, litsey o‘quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega. Elektron kutubxona loyihasi orqali o‘quvchilar o‘z vaqtlarini tejab, istalgan joyda va vaqtda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligini, chegaralari daxlsizligini ta’minlash uchun mas’uliyat hissini oshirish, shuningdek, ularning huquqiy bilim va madaniyatini, O‘zbekiston Respublikasiga sodiq, fidoyi fuqarolarni aniq maqsadli va tizimli tayyorlash samaradorligini takomillashtirish litsey faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

Aqliy kamolot yuksak ilmiylikni, madaniyatlilikni va nafosatni o‘zida ifodalasa, jismoniy kamolot kitobxonni har tomonlama jismonan yetukligini anglatadi. Aqliy va jismoniy kamolotning kitobxonda uyg‘unlashuvi barkamollik

nishonasidir. Kitobxonning har tomonlama kamol topishi uni ma’naviy jihatdan ham taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatadi. Uni zamonaviy bilim egasi bo‘lishiga, ma’rifatli, madaniyatli shaxs bo‘lishiga olib keladi.

Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot- kutubxonachilik bilimlarini o‘quvchilar orasida targ‘ib qilishdir. Buning eng samarali yo‘llaridan biri axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi. Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma'lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarini ta’im jarayonida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o‘qish, eng muhimi, uni uqish, o‘rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma’lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo‘lish, ulardan foydalanishni o‘rganish kabilar kiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan amalga oshadigan, jo‘n narsa emas, albatta. Buning uchun axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislaridan juda keng bilim, mahorat talab qilinadi.

Harbiy litsey — bu nafaqat harbiy bilimlar, balki intellektual va ma’naviy kamolotga ham katta e’tibor qaratiladigan muassasadir. Litsey o‘quvchilari kelajakda mamlakat himoyasini o‘z zimmasiga olishni niyat qilgan yigitlardir. Shunday mas’uliyatli kasb egalarining shakllanishida bilim manbai bo‘lgan kutubxonalarning o‘rni beqiyosdir

Zamonaviy harbiy litsey kutubxonalari faqat darsliklar bilan emas, balki badiiy adabiyotlar, tarixiy asarlar, strategik fikrlashni rivojlantiruvchi ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitilgan. O‘quvchilar bu kitoblar orqali harbiy tarixni o‘rganadilar, mashhur sarkardalarning hayoti bilan tanishadilar, Vatanparvarlik, fidoyilik, irodalilik kabi insoniy fazilatlarni singdirib boradilar.

Litsey o‘quvchilari uchun kutubxona o‘qish jarayonini yengillashtirish va samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Elektron kitoblar, audiokitoblardan foydalanish o‘quvchilarga ko‘pgina qulayliklar yaratadi. Bu ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va bilim olish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Ko‘pgina litsey o‘quvchilari darsdan so‘ng kutubxonaga borishni odatga aylantirgan. O‘quvchilar orasida kitobxonlik bo‘yicha tadbirlar, o‘qilgan kitoblar yuzasidan muhokama kechalari tashkil etiladi. Harbiy litseyda kitobxonlik klublarini tashkil qilish orqali o‘quvchilar birgalikda kitoblarni muhokama qilishlari va bu orqali o‘z bilimlarini boyitishlari mumkin. Kitob o‘qigan o‘quvchilar rag‘batlantirib borilishi lozim. Bu, o‘z navbatida, boshqa o‘quvchilarni ham kitob o‘qishga qiziqishini oshiradi hamda o‘z fikrini erkin bayon etishga, tahlil qilishga bo‘lgan qobiliyatini oshiradi.

Shuningdek, kutubxona muhitida o‘zini tutish madaniyati, tartib-intizom, kitobga ehtirom kabi fazilatlar ham shakllanadi. Kitob bilan do‘stlashgan o‘quvchi har sohada muvaffaqiyatga erisha oladi. Ayniqsa, harbiy soha kabi qat’iyat va aqlni talab etadigan sohalarda bu nihoyatda muhim.

Xulosa qilib aytganda, Kitobxon - o‘quvchi oilada o‘rgangan tarbiyani kitobdagi voqea hodisalar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari kengayib

boradi. Shuningdek milliy qadriyatlarni anglash, ajdodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do‘stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik kabi fazilatlari yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta’sirchan shaklda ifodalandiki, unda yosh kitobxon ko‘p fazilatlarni o‘rganish, ma'nan boy shaxs bo‘lib shakllanishi mumkin.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, ma’naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikr ish yuritish ko‘zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi. Harbiy litsey kutubxonalari o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshiruvchi, ularni yetuk shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi muhim maskandir. Kitobga qiziqqan yosh harbiylar – bu bilimli, ma’rifatli va kuchli Vatan himoyachilaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xudoyberganov, N. (2021). Elektron kutubxona va uning afzalliklari. Toshkent: Ilmiy Nashr.
2. Amonov, B. (2022). Mobil ilovalar uchun dasturlash asoslari. Samarqand: TexnoPrint.
3. Rashidova, S. (2020). Yoshlar uchun raqamli ta'lim vositalari. Buxoro: Nashriyot Matbaasi. 4
4. Nishonov S. « Ta’lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta’limi, 2000 y.1- son, 12,16-b.
5. Tolipov O‘. O‘quvchilarni mustaqil ishlashda o‘qitish vositalari. T., « Xalq ta’limi » 2000 y. №3.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOBUR ILMIY VA MA’NAVIY MEROSINING O‘RNI

Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna
Jizzax politexnika instituti o‘qituvchi
yorqinoy.axmadjonova@bk.ru

Annotasiya. Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Z.M.Bobur ilmiy va ma’naviy merosining o‘rni yoritilgan bo‘lib, vatanparvarlik go‘yasini “Boburnoma”dagi talqini keltirilgan.

Kalit so‘zlar. vatanparvarlik,vatan tuyg‘usi,komil inson, insonparvarlik, erkka intilish, ozodlik

Vatanparvarlik - kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar

uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri.

Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat organlari, jamoa tashkilotlari va birlashmalarining yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashidagi maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Bundan asosiy maqsad-yoshlar ongida fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarni va konstitutsion burchlariga nisbatan sadoqat hissini shakllantirishdir. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, xalqimizning ma’naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan, yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, axloqiy-estetik jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishlarining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqishdan iborat [3].

Vatanparvarlik yetuk ma’naviyatdir. Jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ma’naviyatining o‘rni va ahamiyati juda ulkandir.

Jamiyatda yashovchi har bir inson o‘z e’tiqodi, maqsadi va manfaatlari bilan Vatanga hizmat qilishi uning buyuk kelajagi uchun intilishi lozim. Shunday taraqqiyotning muhim omillaridan biri bu insonlardagi Vatanparvarlik tuyg‘usidir.

Vatanparvarlik go‘yasi asarlarida alohida tarannum etilgan mutafakkirlarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Uning “Boburnoma” asarida haqiqiy vatanparvarlik faqat yetuk insongagina xos bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan.

Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zga yurtda vatan tuyg‘usini chuqur his qilgani uning asarlarida ifodalangan. Erkka intilish, ozod yashashga bo‘lgan ehtiyoj insonga xos bo‘lgan tuyg‘udir.

Inson o‘z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh mavzusi bo‘lib kelgan.

“Boburnoma” ulug‘ o‘zbek shoiri, jamoat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ham ayrim ma’lumotlar keltiriladi.

Garchi shoir Hindistondek buyuk mamlakatning podshosi bo‘lsa-da, o‘z vataniga sadoqati va e’tiqodini ko‘rsaddi. U Andijonni bir umr sog‘inib yashadi. O‘zining taqdiridan aziyat chekdi.

O‘zga yurtda podshoh bo‘lgandan ko‘ra, ona yurtida gado bo‘lib yashashni afzal ko‘rdi.

Biroq achchiq taqdirning bu o‘yinidan hech qachon voz kecha olmadi. U bir ruboiysida shunday deb yozgan edi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim,

oh Yo rab, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Ana shu tuyg‘u, ana shu dil o‘rtar vatan sog‘inchi “Hidi tilimi va mazasidan” hikoyasi[2]da badiiy ifodalangan: Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni bo‘ibti. Hindiston bog‘-rog‘i ko‘p, meva chevaga boy yurt ekan. Bobur “mendan yodgorlik qolsin” deb Hindistonning ko‘rkam joyiga bir bog‘ barpo ettiribti.

Dunyodagi eng katta bu bog‘ga turli yurtlardan nihollar keltirib ektiribti. Xalq dunyoga dong‘i ketgan bu bog‘ga “Bog‘i Boburiy” deb nom qo‘ydi. Bog‘dagi daraxtlar hosilga kirib, biram meva beribtiki, ularni hech yerga sig‘dirib bo‘lmabti. “Bog‘i Boburiy”ning chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, bodring, tarvuz bitibdi.

Ammo handalak bilan qovun bo‘lmabdi. Shoh bir yili qovun ektiribdi, bitmabdi, ikkinchi yil ektiribdi, bitmabdi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi.

Qovun bitishga bitibti-yu birinchi yili gulidayoq hosilini tashlab yuboribdi, ikkinchi yil palagi “o‘lib qolibdi”, uchinchi yil pishib yetmay turib so‘lib qolibdi. Bobur shoh bo‘lsa qovun topishini talab qilaveribdi.

Bu yil qovun ekib pishirmasanglar, hammangizni jazolayman,-deya g‘azablanibdi.

Bog‘bon nima qilishni bilmay rosayam boshlari qolibti. Oxiri Bobur shohga bildirmay, uzoq Farg‘onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Bobur shoh bir necha oyga ovga ketib, qaytib kelgach, bog‘bondan qovun yo‘qlatibdi. Bog‘bonlar Farg‘onadan keltirilgan qovunni olib borishibdi. Bobur shoh qovunni hidlab ko‘rib: -Qayerda bitgan?-deb so‘rabdi.

-Bog‘i Boburiy”da bitgan,-deb javob beribdi bog‘bon.

-Yo‘q, hidi boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerlarda bitmaydi, faqat bir o‘lkada yetishibdi, xolos. Sen meni aldayapsan-debdi Bobur shoh.

-Aldagan bo‘lsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun “Bog‘i Boburiy”da bitgan,-debdi bog‘bon so‘zidan qaytmay.

Bobur shoh qovunni hidlay-hidlay bo‘yiga mast bo‘lib, uni tilimlamoqchi bo‘libdi. Qovun pichoq tegartegmasdan tarsillab yorilib ketibdi. Bobur shoh bog‘bonga qarab:

Yolg‘on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq aytasan.

Pichoq tegartegmay yorilib ketadigan qovun faqat men bilgan o‘lkadagina bitadi.

Sen mening savolimga to‘g‘ri javob bermading, qahrim qattiqligidan qo‘rqmaysanmi,- debdi.

Bobur shohni aldab bo‘lmasligini bilgan bog‘bon rostini aytishga majbur bo‘libdi. -Farg‘ona viloyatidan keltirdik,-debdi ko‘ziga jiqqa yosh olib. Bog‘bonning gapidan Bobur shohning ko‘ngli buzilib, yig‘lab yuborishga ozgina qolibdi.

Ulug‘ shoir, buyuk sarkarda va jamoat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ona yurtga sog‘inchi, garchi podshoh bo‘lsa-da, o‘z vataniga hatto gado sifatida qaytish uning buyuk orzusi bo‘ldi. Biroq bu orzu armonga aylandi.

Mamlakatimizning iqtisoqiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotini yosh avlod hayotisiz, ularni har tamonlama barkamol shakllangan shaxs sifatida tarbiyalamasdan tasavvur etib bo‘lmaydi. Albatta, ularni komil inson sifatida ulg‘ayishi bugundanoq boshlashimiz lozim.

Binobarin, muhtaram birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘- e’tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib, hayotga kirib borishiga bog‘liqdir.Biz bunday haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”[2].

Shunday ekan yoshlarni o‘zbek degan millatining buyuk xalq farzandi ekanligini erta yoshlikdan anglashimiz, uning ong va shuuriga sindirilmog‘i lozim. Ana shundagina u, yoshlikdan buyuk xalqimiz urf-odatlari marosimlari, an’ana va qadriyatlarimizga chuqur ehtirom va e’tiqod ruhida shakllanadi, ulug‘ ajdodlarimiz, ulug‘ bobolarimiz g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. Ana shunday g‘oya, qarash ruhida tarbiyalash esa pedagoglar oldida juda cheksiz ma’suliyat va pedagogik tajriba hamda izlanishni talab etadi.

Bu maqsadni amalga oshirish ajdodlarimiz ilmi, kurash va jasorati hayoti bilan yoshlarni tanishtirish, vatanni sevish, ona-yurtni ardoqlash unga munosib avlod, yetuk farzand bo‘lib, yashash-uzluksiz ta’limda muhim ahamiyat kasb etadi.

Vatan har bir o‘zligini anglagan, avlod va ajdodlarini qadrlagan kishining eng muqaddas joyidir.

Inson o‘zining ma’naviy kamolotini yuksaltirish uchun yuksak mas’uliyatni his etishi, o‘z manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi asosida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi.

Vatanparvarlik kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan muhabbatini, munosabatini ifoda etadigan ma’naviy axloqiy fazilatdir.

Vatanparvarlik tuyg‘usi xalqning o‘z tarixini chuqur bilishi va undan g‘ururlanishida, buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy merosni ko‘z qorachig‘idek asrab, kelgusi avlodlarga yetkazishda, ajdodlar urf-odat, rasmrusum va udumlarni, meroslarni o‘rganib, uning qadriyatiga aylangan qismini davom ettirishda, ayniqsa, davlatimiz kelajagi, istiqlolining barqarorligi, kelajagining buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko‘maklashish kabi yuzlab fazilatlarda o‘z aksini topadi.

Zero, barcha zamonlarda har qanday millatning taqdiri uning kelajagi bo‘lgan yoshlar tarbiyasi bilan belgilanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z hayoti va ijodi bilan mamlakat ijtimoiy taraqqiyotida munosib o‘rin egalladi.

Uning hayoti va ijodini o‘rganish, Vatan ravnaqi uchun kurashish, yurtni qalb qo‘ri bilan sevish ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod uchun hayot mayog‘i bo‘lib, xizmat qilishi shart va lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 173- b.
2. Ibrohimov A.,Sultonov H., Vatan tuyg`usi.- T.: O`zbekiston,1996., 443-b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. “Yangi asr avlodi”, 2018., 704-bet

JALOLIDDIN MANGUBERDI – VATAN HIMOYACHISI

Ashurov Sodiqjon Komil o‘g‘li
Samarqand davlat universitetining
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix (mamlakatlar va yonalishlar) 2 kurs talabasi
E-mail fyyfddydy@gmail.com

Annotatsiya: Jaloliddin Manguberdi — o‘zining jangovar mahorati, jasorati va fidoyiligi bilan tarixda yodda qolgan buyuk hukmdorlardan biridir. U Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori bo‘lib, Mo‘g‘ul istilosiga qarshi kurashib, o‘z yurtini himoya qilish uchun jonini ham xatarga qo‘ygan mard Xorazm farzandidir. Ushbu maqolada Jaloliddinning shaxsiyati, uning Mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashi va yurtining ozodligi yo‘lidagi qahramonliklari tahlil qilinadi. Maqsad — Jaloliddin Manguberdining vatan himoyachisi sifatidagi merosini va uning tarixiy ahamiyatini chuqurroq o‘rganishdir.

Kalit so‘zlar: Qal’a, sarkarda, Xorazmshoh, jang, G‘azna, mo‘g‘ul, muarrix, Gurganch, Kaspiy, askar, Parvon, qarluq, nizo, orden, nizom, istilo, Marv, noib, vasiyat,

Kirish: El-yurt va davlat uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uradigan, odamlarning ezgu niyatlarini o‘ziga oliy maqsad qilib qo‘ygan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, har qanday vaziyatda ham xalqni birlashtirib, turli yomonlikdan asrash uchun safarbar eta oladigan shaxslargina tarixda o‘chmas nom qoldiradi. Jaloliddin Manguberdi hamda ana shunday mardlarning yorqin timsoli va ibratli namoyandasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan yana bir davati shuki, u barchamizni ona yurtimizning beg‘ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga, o‘sib kelayotgan, ertaga bizning o‘rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan farzandlarimizning kelajagini, baxt-saodatini himoyalashga, yorug‘ istiqbolga intilib yashashga chorlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Anushteginiylar sulolasi boshqargan Xorazmshohlar davlati (1097– 1231)ning ko‘p yillik tarixi o‘sha davr musulmon tarixchilari tomonidan yozilgan qator asarlarda o‘z aksini topgan. Ular asosida ushbu sulolaning so‘nggi vakili, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi hukmronligi, uning mo‘g‘ul istilochilariga qarshi qahramonona kurashi hamda G‘arbiy Osiyo sarhadlaridagi faoliyatini kuzatish mumkin. Bu manbalar orasida Jaloliddin Manguberdining shaxsiy kotibi (kotib al-insho), tarixchi Shihobiddin ibn Ahmad an-

Nasaviy qalamiga mansub „Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni“ (Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimayi holi) nomli asari alohida o‘rin tutadi. Nasso (Niso) viloyatidagi qal’alardan birining sohibi bo‘lgan Nasaviy 1224-yilda xizmat yuzasidan Iroqqa borib qoladi va o‘sha yerda Sulton Jaloliddinning xizmatiga kiradi. Shundan e‘tiboran u Jaloliddinning ishonchli mulozimlaridan biriga aylanib, to 1231-yilgacha, ya‘ni Jaloliddinning vafotiga qadar u bilan birga bo‘ladi.[1] Nasaviy o‘z qahramonini yaqindan bilgan, asarida bayon topgan voqea hodisalarining aksariyatida bevosita ishtirok etgan yoki shohid kishilarning xabarlariga tayangan, eng muhimi, xolisona va haqqoniy fikr bildirgan, bular asarning ilmiy qimmati hamda ishonchlilik darajasini oshiradi. Muallif o‘z asarini bitishga Jaloliddin vafotidan qariyb 10 yil o‘tgandan so‘ng 1241-yilda kirishgan. Jaloliddin Manguberdi haqida Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy o‘zining asarida shunday yozadi: Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so‘zlasha olardi. U mard, jasur bo‘lib, sherlar orasida eng zo‘r sher edi, qo‘rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo‘yardi, kam gapirardi. U haqgo‘ylikni, adolatni ulug‘lardi. Mashhur shoir va adib Maqsud Shayxzoda 1944-yilda Jaloliddin Manguberdi tarixiy dramasini yozgan.[2] Adib asarida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Biroq sobiq sho‘rolar davrida Jaloliddin Manguberdining sarkardalik faoliyati va uning Vatan ozodligi uchun olib borgan kurashi bir yoqlama yoki umuman fikr bildirilmasdi.

Jaloliddin Manguberdi haqida muarrix va yirik davlat arbobi Alouddin Atomalik Juvayniy tomonidan yozilgan „Tarixi jahonkushoy“ (Jahon fotihi tarixi) asari muhim manbalardan biri sifatida e‘tirof etilgan. Bundan tashqari, Mirxond „Ravzat us-safo“, Mirzo Ulug‘bekning „Tarixi arba ulus“ (To‘rt ulus tarixi) asarida Jaloliddin Manguberdi haqida ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. U haqdagi ma‘lumotlar, shuningdek, xitoy, mo‘g‘ul, arman va boshqa tillardagi manbalarda ham uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi: Jaloliddin harbiy muhitda ulg‘ayadi va jang san'atini erta o‘zlashtiradi. G‘azna (hozirgi Afg‘oniston) uning qaramog‘ida bo‘lishiga qaramay, otasi fitnalardan saqlanib, o‘g‘lini o‘zini oldida Gurganjda ushlab turadi. Yosh Jaloliddin dushmanlar bilan tinimsiz janglar bo‘lib o‘tuvchi chegaraga chiqishga haraqat qiladi. Chingizxonning rejalashtirgan bosqinidan xabardor bo‘lib, Jaloliddin otasidan qo‘shinini Sirdaryoga qo‘yib, dushmanni o‘sha yerda kutib olishini so‘raydi, lekin otasi himoya devorlari va qal'asi dushmanni mamlakatga qo‘ymasligiga amin bo‘ladi va qo‘shinni to‘plamaslikka qaror qiladi.[3] Mo‘g‘ullar shaharni shiddat bilan bosib oladi. Avvaliga, 1220 yil Buxoro, keyin Samarqand o‘rab olinadi. Jiddiy xastalangan Muhammad Kaspiyga qochadi. Uchta o‘g‘lini to‘playdi, Jaloliddinning beliga o‘z shamshirini osib, uni taxt vorisi etib tayinlaydi va boshqa ukalarini akasiga itoat qilishlarini undaydi. Muhammadning o‘limidan so‘ng Jaloliddin taxtga o‘tiradi, lekin Gurganj aslzodalari yangi hukmdorni

bepisand qilib, xalq madadidan chetda qoldirishadi. Jaloliddin uch yuz sodiq turkman jigitlaridan iborat qo‘shin to‘playdi va Xurosonga yo‘l oladi. Niso atrofida ular yetti yuz kishilik mo‘g‘ul qo‘shinini kutib olishadi va ularni osonlikcha yengishadi. Ushbu arzimas g‘alaba Xuroson aholisini mo‘g‘ul istilochilariga qarshi g‘ayratlantiradi, natijada, Chingizxon o‘z qo‘shinini Xorazm va Xurosonga yo‘llaydi va Jaloliddinning kichik ukalarini qo‘shini bilan yuzlanib, ularni ayovsiz tor-mor etadi.

Jaloliddin vasiyat qilib qoldirilgan yeri tomon yo‘l olarkan, Marv noibi Timur Malik va uning qirq ming kishilik lashkari, turkman xoni Sayfid-din va uning qirq ming kishilik lashkari bilan ittifoqdosh tutinadi. Qandahor yaqinida birlashgan lashkarlar qo‘shini mo‘g‘ullarni yo‘q qiladi va Jaloliddin G‘aznagacha yetib boradi. Murg‘ab yuqorisida unga Marvning sobiq noibi Xon Malik va turkman xoni Sayf id-din qo‘shiladi.[5] G‘aznaga keliboq, Jaloliddin tez orada, o‘n ming kishilik qo‘shin to‘plab, Qandahorni qamal qilgan mo‘g‘ullarga qarshi yurib, uni tor-mor etadi. Bo‘lingan xorazmlik lashkarlarning harbiy qo‘mondonlari o‘z hukmdorining muvaffaqiyati haqida eshitib, G‘aznaga to‘plana boshlaydi va tez orada, Jaloliddin boshchiligida 70 mingga yaqin askar yig‘iladi. U bilan birga og‘asi Amin al Mulk, sarkarda Timur Malik, qarluqlar xoni Azam Malik va afg‘onlar muallimi Muzaffar Maliklar ham keladi. Chingizxon hali xorazmshoh kuchidan bexabar bo‘lib, unga qarshi Shiki Xutuxu boshchiligidagi 30 minglik qo‘shinini jo‘natadi. Jaloliddinga nafaqat jangchilari, balki aholisi ham odil va haqqoniy hukmdor o‘rnida madad ko‘rsatgan.[6]

Parvondagi mag‘lubiyatdan so‘ng mo‘g‘ullar Afg‘oniston hududini tark etadi. Ularga javoban, Chingizxon xorazmshohlarga qarshi yangi jangda ishtirok etishga qaror qiladi. Ammo, Jaloliddin endigina Chingizxon bilan hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko‘rayotgan vaqt uni qo‘llab-quvvatlovchi sarkardalar orasida nizo kelib chiqib, qipchoq, qarluq va afg‘onlar Jaloliddinni tark etishadi.

Tahlil va natijalar: O‘zbekiston hukumati 1998-yilda Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, Vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida ―Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida qaror qabul qildi. Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalariga va boshqalarga uning nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O‘zbekistonda 1999-yili keng nishonlandi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesalar yaratildi, 2000- yil 30-avgustda ―Jaloliddin Manguberdi ordeni ta‘sis etildi. 1999-yilda Jaloliddin tavalludining 800 yilligiga bag‘ishlangan 25 so‘mlik esdalik tangalari muomalaga chiqarildi.[7]

2000-yil 30-avgustda ―Jaloliddin Manguberdi ordeni ta’sis etildi. Nizomga ko‘ra, orden bilan mamlakatimiz mustaqilligi, sarhadlari daxlsizligini himoya qilishda harbiy iste’dod, mardlik va qahramonlik namunasi ko‘rsatgan, davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shgan harbiy xizmatchilar

taqdirlanadi. Davlatning mudofaa qobiliyati. 2003-yil 22 avgustda Xorazm viloyati ushbu orden bilan taqdirlandi.[8]

Xulosa: Vatan ozodligi yo‘lida jon fido qilgan qahramonlarimiz orasida Jaloliddin Manguberdi alohida nom bilan e’tirof etiladi. Mo‘g‘ullar istilosi davrida o‘z xalqi osoyishtaligini va tinchligini o‘ylagan jasur, mard o‘g‘lonlarni vatan qahramoni sifatida qayt e’tish to‘g‘ri bo‘ladi. Yillar o‘tishi bilan ham Xorazmning mashhur o‘g‘loni tarix sahifalaridan o‘chmayapti. Mustaqillik yillarida ham Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtirish va uning jasoratini yoshlar orasida targ‘ib qilish borasida qator tadbirlar amalga oshirildi. Albatta, o‘z vatani uchun jonini ham ayamagan bunday vatanparvarlarimiz biz yoshlarga haqiqiy mardlik va jasorat timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999, 45. b.
2. Buniyotov Z., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097—1231), T., 1998, 57. b.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent.: „ Sharq“ 2001, 67. b.
4. Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixida tutgan o‘rni. Toshkent: „Yoshlar media print“ 2021. 34. b.
5. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahonkusho (Jahon fotihi tarixi) / Turk tilidan Rahim N tarjimasi. Toshkent: „Mumtoz so‘z“, 2015. 75. b.

“O‘RTA OSIYO SUVOROV”I YOXUD AMIR JAHONSHOH BAHODURNING HAYOTI VA LASHKARBOSHILIK FAOLIYATI

Turg‘unboyev Kamronbek Ilhom O‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
Xursanova Farangiz Ulug‘bek qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
ORCID ID: 0009-0003-1431-1942
Email: t.kamron@dtpi.uz
ORCID ID: 0009-0007-1935-9223
Email: farangizxursanova80@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur Sohibqironning sodiq va mohir lashkarboshilaridan biri Amir Jahonshoh bahodurning hayot yo‘li uning, qanday holatda Temuriylar qo‘shiniga kirib kelishi va qo‘shindagi yetakchi mavqelardan birini egallashi haqida so‘z boradi. Amir Jahonshoh Barlosning harbiy salohiyati, uning yov qo‘shinlariga qarshi mardonavor va qahramonona janglari, uning Temuriylar honadoni bilan quda-andachilik munosabatlari tilga olinadi. Mahoratli sarkardaning hayoti hamda harbiy faoliyati bo‘yicha turkiy va rus tarixchilari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari dalillar asosida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Amir Joku Barlos, Ulug‘bek(Amiri kabir), valiahd, Tarak daryosi, Qanbul,hirovul, Kondurcha (Qunduzcha).

Kirish: Amir Jahonshoh bahodur Barlos Hazrat Sohibqironning eng yaqin harbiy sarkardalaridan biri bo‘lgan Amir Joku Barlosning o‘gli bo‘lib, u XIV asr ikkinchi yarmi- XV asr boshlarida Temuriylar saltanatida faoliyat ko‘rsatgan kuchli sarkarda hamda Barlos urug‘ining Amirlaridan hisoblangan. Temuriylar davri bo‘yicha mutaxassis, Filologiya fanlari doktori Hamidullo Dadaboyev o‘z tadqiqotlari natijasida “Amir Jahonshoh Barlosni, Amir Jokuning to‘ng‘ich o‘g‘li va iste’dodli sarkarda” deb ta’riflagan.[1.9-10-betlar]

Amir Joku Barlos bir necha marotaba harbiy yurishlarda Amir Temurga hamroh bo‘lib, eng muhim harbiylik ishlarida bosh-qosh va yelkadosh bo‘lgan. Amir Jahonshoh Barlos ham otasining izidan borib, Sohibqiron qo‘shinida katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Asosiy qism: Amir Jahonshoh bahodur yigitlik yoshidan boshlab qo‘shinda xizmat qilaboshlaganiga qaramay uning nomi tarixiy adabiyotlarda 1384-yildan keyin ko‘p zikr etila boshlaydi. Bunga sabab o‘laroq tarixchi olimlar Amir Joku Barlosning vafot etishinin hamda uning o‘z qo‘l ostidagi qo‘shiniga o‘gli Jahonshoh bahodurning yetakchilik qilishganini keltirib o‘tadi.[2.88-bet]

Yana boshqa bir manbada Amir Joku Barlos Amir Temurning qayniotasi sifatida ham keltirilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar asosida tahlillar Amir Jahonshohning ham Amir Temurga quda-anda tushunchalari orqali bo‘g‘langanligini ko‘rsatadi. Tarixchi va adabiyotshunos olim Muhammad Ali “Ulug‘ saltanat”roman-epopeyasining Mironshoh Mirzo deb nomlanuvchi uchinchi qismida Amir Jahonshoh Barlosni, Amir Temurning to‘ng‘ich o‘g‘lidan nabirasi bo‘lgan va bir muddat (to bevaqt o‘limiga qadar) Valiahd deb e’tirof etilgan Muhammad Sulton Mirzo ibn Jahongir Mirzoning qaynotasi bo‘lganligini yozadi.[3.120-124-betlar]

Yuqoridagi ma’lumotlarga suyanadigan bo‘lsak, Amir Joku Barlosning vafotidan so‘ng Amir Jahonshoh Barlos va uning oilasi Temuriylar nazaridan chetda qolmagan balki, Sohibqiron honadoniga bevosita qon-qarindoshlik rishtalari orqali bog‘langan. Afsuski, Muhammad Sulton va uning rafiqasi (Jahonshoh bahodurning qizi) haqidagi ma’lumotlar kam saqlangan hamda o‘rganilgan bo‘lib, ushbu nikoh haqida tarixiy manbalarda, valiahdning vafotidan so‘ng deyarli biror ma’lumot uchramaydi.

Jahonshoh bahodurning harbiy faoliyati juda yorqin bo‘lib, biz buni bir necha ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqamiz. bahodur so‘zining o‘zi ham uning harbiy sohada layoqatli ekanligini ko‘rsatgan. Zafarnomada keltirilishicha Jahonshoh bahodur Tarak daryosi bo‘yidagi jangda Amir Temurni To‘xtamish qo‘shinidagi Ilg‘or qismining shiddatli hujumidan saqlab qolgan va keyinchalik bahodur unvoniga loyiq ko‘rilgan.

Keyinchalik u, Otasi va boshqa amirlar kabi Ulug‘bek (Amiri kabir) nomi bilan atalgan. Unga jang oldidan uyishtirilgan majlislarda qatnashish hamda fikr bildirish kabi imtiyoz ham berilgan. Amir Temur Ko‘ragon qo‘shinining to‘rtdan bir qismini Barlos urug‘iga mansub harbiylar tashkil etganini inobatga olsak, haqiqatdan, Amir

Jahonshohning nafaqat jang maydonida balki, jang oldidan yig‘ilgan qurultoylarda ham o‘z o‘rni bo‘lganini ko‘ramiz.

1391-yil Kondurcha (Qunduzcha) jangida Amir Jahonshoh o‘ng qanot hirovul qismida jang olib boradi va Mironshoh Mirzoning buyrug‘i bilan dushman qo‘shinlarining Qanbul qismlariga uyushtirgan hujumini mardonavor qaytaradi.[2.107-bet]

Amir Jahonshoh bahodur Dehli qal’asi uchun bo‘lgan jangda Amir Temur buyrug‘iga binoan qo‘shinning chap qanoti ya’ni javong‘orga yordamchi qo‘mondon sifatida tayinlangan. Javong‘orning qo‘mondoni Halil Sulton Mirzo bo‘lib, u ushbu jang vaqtida endigina 15 yoshda bo‘lgan va qo‘shinning harbiy tayyorgarligi va safda tarqab ketmasligi, markaz (Amir Temur chodiri) tomonidan berilgan buyruqlarning bajarilishiga aynan Jahonshoh bahodur mas’ul bo‘lgan. Amir Temur Sohibqiron yosh nabirasi (Halil Sulton Mirzo)ning ehtimoliy vujudga keltirishi mumkin bo‘lgan xatolarini, yordamchi qo‘mondon sifatida tayinlagan Amir Jahonshoh Barlosning tajribasi orqali ancha minimallashtirganini va bu qaror jang taqdiriga katta foyda keltirganini aytib o‘tishimiz lozim.

Natijalar tahlili: Amir Temur Sohibqiron qo‘shinida Amir Jahonshoh Barlosga o‘xshash bo‘lgan harbiy ishda uquvi baland sarkardalar ko‘plab uchraydi. Amir Jahonshoh bahodurning harbiy salohiyati chat el tarixchilari tomonidan ham yuqori baholanib, uning harbiy yurishlaridagi ishtiroki ham tadqiqiotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Shunday ishlardan biri Rossiya tarixchilari tomonidan amalga oshirilib, ular o‘z tadqiqotlari yakunida Amir Jahonshohni “O‘rta Osiyo Suvorovi” nomi bilan zikr etadilar.[4]

Natijalar yakuni shuni ko‘rsatadiki bu kabi harbiy shaxsiyatlar nafaqat turkiy va o‘zbek davlatchiligi tarixi uchun balki, butun jahon harbiy tarixi uchun o‘rganilishlikka molik shaxslardan biri o‘laroq diqqat markazida bo‘ladi.

Xulosa: Jahonshoh bahodur shiddat va siquvni sovuqqonlik va qaysarlik bilan birga ishlata olgan. Ajoyib taktik va qobiliyatli strateg bo‘lgan, Jahonshoh o‘zining qisqa umri davomida O‘rta Yer dengizidan Irtish daryosigacha bo‘lgan hududlarda jang qilgan. [4]

1404-yil bahorida g‘arbga qilingan "yetti yillik yurish"dan qaytayotib, Amir Temur mirzo Umar ibn Mironshohga Hulokuxonga tegishli ulusni ("Rum va Istanbulgacha, Shomu Misrgacha, Iroq va Forsgacha") meros qilib beradi va Jahonshoh bahodurni uning maslahatchisi etib, "Jahonshohbek so‘zidan chiqmag‘aysen va har nekim ul maslahat ko‘rsa, aning birla amal qilg‘aysen" deb ta’kidlaydi. [5]

XV asrda Temuriylar saltanatida vujudga kelgan ichki siyosiy kurash Jahonshoh bahodurni ham chetlab o‘tmaydi. O‘nlab janglarda g‘olib chiqqan Jahonshoh, siyosiy fitna tufayli o‘zining yaqin do‘sti tomonidan o‘ldiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. H.Dadaboyev. “Амир Темур – великий государственный деятель и полководец” Сборник материалов международной научной конференции.

2023 y. O‘zbekiston Respulikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi bosmaxonasi. 466 bet. UDC 355.48(063)
2. B. A. Usmonov “Amir Temur va temuriylar davri siyosiy tarixi” 2024 y.Farg‘ona. 299 bet. № 958 588
3. Muhammad Ali. “Ulug‘ saltanat” 2019-yil. Toshkent. 486-bet. ISBN: 978-9943-5827-6-7
4. Бобров Л.А. Полководцы Амира Тимура. Очерки по истории государственности_2020. Ташкент .С 308.

VATAN SAJDAGOH KABI MUQADDASDIR!

Kadirova Xalima Buvabayevna
Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti
Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi
dotsenti, s..f.f.d (PhD)

“Vatan mening jonu dilim sajdaxohindur”
Abdurauf Fitrat

Annotasiya Mazkur maqolada Vatan naqadar ulug` maskan ekanligi takidlanib, muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tasabbuslari bilan tashkil etilgan. “Vatandoshlar” jamoat fondi uning maqsad vazifalari qisqacha bayon etilib bu fondni rivojiga chet elda ham yurtimizda ham istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni qalbida vatanparvarlik tuyg`ularini rivojlantirishda, Oliy ta`lim maskanlari qoshidagi madaniyatshunoslik kafedralarining o`rni nihoyatda katta ekanligi takidlab o`tilgan.

**Tayanch so`zlar:** Vatan, xalq og`zaki ijodi, vatandoshlar, elat, urf odatlari, madaniyati.

Vatan naqadar buyuk so`z.Vatan-bu tug`ulib o`sgan joy,ona yurt,kishilarning yashab turgan, ularning avlod- ajdodlari tug`ilib o`sgan joy,hudud, ijtimoiy muhit, mamlakatni anglatuvchi tushuncha.Vatan tushunchasi asrlar davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot muhiti bilan o`zgarib, kengayib, rivojlanib kelgan.Qadimda muayyan qabila yashagan joy uning vatani sanalgan. Qondosh va tildosh qabilalarning birlashuvidan elat paydo bo`lgan.Elat istiqomat qilgan joy el deb yuritilgan. O`zbek xalq og`zaki ijodi “Alpomish” dostonida ham Chanbil eli degan ibora ishlatiladi.

Muayyan hudud doirasida markaziy boshqaruvni paydo bo`lishi bilan vatan sozi xalq va davlat tushunchalarini ham anglata boshlagan. Xalqning tili, urf odatlari,madaniyati, ma`naviyati, iqtisodiy-ijtimoiy turmush tarzi yuksalishi bilan kishilar o`rtasida mushtaraklik shakillandi[3].

O`zbekiston Respublikasi millati, tili, dinidan qat`iy nazar shu diyorda istiqomat qilayotgan barcha insonlarni vatanidir.Bu bizni bosh qomusimiz konnstitutsiyamizni 8-moddasida ham mustahkamlab qo`yilgan “O‘zbekiston

xalqini millatidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”[1].Bu o`rinda xalq,davlat va vatan ayni bir ma`noni anglatadi. O`zbekiston Respublikasi deganda vatanni tushinamiz,vatan deganda O`zbekiston Respublikasini tasavvur etamiz.

Sobiq mutabid tuzum davrida xukumron mafkura biz uchun asl vatan tushunchasini soxtalashtirib, qalbimiz va ongimizga mavxum vatan tushinchasini singdirmoqchi bo`lishdi.O`zbeklar uchun umrida borib ko`rmagan, minglab kilometr uzoqlikdagi giyoh unmaydigan, oylar davomida quyosh yuzini ko`rmaydigan joylar ham go`yoki O`zbekiston bilan bir qatorda vatan edi.Xolbuki vatan – tarixan shakllanngan aniq tushuncha.Mustaqillik xalqimiz ongi va shururida haqiqiy vatan xissi ona yurt tushunchalarini mustahkamlamoqda.O`z ona yurtini sevish va ardoqlash,sarhadlarini dahlsizligini saqlash,sha`nu sharafini yuksaltirish yo`lida fidokorona xizmat qilish, yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash bugungi kunda tom ma`noda sharafli ishga aylanmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning tashabbuslari bilan 2021 yil 11 avgustda «Vatandoshlar» jamoat fondi tashkil etildi. PQ-5220-sonli qaroriga asosan. Ushbu «Vatandoshlar» jamoat fondini tashkil etishdan asosiy maqsad – dunyoning 100 ga yaqin davlatlarida yashab kelayotgan 10 milliondan ortiq vatandoshlar, ular tomonidan tashkil etilgan 170 dan ortiq madaniy markazlarni qo‘llab-quvvatlashdir

“Vatandoshlar” jamoat fondining asosiy faoliyati yo`nalishlari etib quydagilar belgilandi:

- Chet elda yashab faoliyat yuritayotgan vatandoshlar va ular tomonidan tashkil etilgan jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qilish va aloqalarni rivojlantirish, hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishga yordamlashish;
- Xorijiy davlatlarda kiyin, og`ir ahvolga tushib qolgan vatandoshlarimizni muayyan tartibda moddiy va ma`naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, vatandoshlarimizga huquqiy ko`mak berish axborot jihatidan
- Xorijiy davlatlarda o‘zbek tili, xalqimizni madaniyati,urf-odatlari, an’analarini va milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishga va rivojlantirishga kqaratilgan faoliyat turlarini qo`llab quvatlash;
- Xorijiy davlatlarda vatanimizning boy yuksak ilmiy,ma`naviy merosini va madaniyatini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, yurtdoshlarga madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkillashtirishga yordamlashish ;
- Taraqqiy etgan chet davlatlarda yashab faqliyat yuritayotgan ilm va ijod ahllarining vatanimiz nufuzi va obro`sini oshirishga qaratilgan ilmiy, ijodiy izlanishlarini,faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Xorijiy davlatlarda yurtdoshlarimiz tomonidan tashkillashtiriladigan nufuzli tadbirlarda yurtimizdan yetishib chiqqan mashxur yozuvchilarimiz va shoirlarimizni, fan arboblari, diniy ulamolarimizni, madaniyat va san’at vakillarini, sportchilarimiz ishtirokini ta’minlashga yordamlashish;

- Xorijiy davlatlarda yashab faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimizni O‘zbekiston hududida tadbirkorlik qilishga, investisiyaviy mablag`lar kiritishga, ilmiy, ma’rifiy va madaniy faoliyat yuritishga keng jalb qilish;
- Xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimizni O‘zbekistonning boy tarixi, madaniyati, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid bo`lgan ma’lumotlar bilan ta’minlashga qaratilgan interfaol elektron portalni yo`lga qo`yish
- Xorijiy davlatlarda yashab faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizni o`zbek tili, madaniyati, kino va san`ati yo`nalishlarida Respublika fuqarolariga tenglashtirilgan holda oliy talimda o`qitish imkoniyatlarini yaratib berish kabi masalalar ham qo`yilgan.

“Vatandoshlar”jamoat fondini qator masalalarini amalga oshirishda oliy ta`lim qoshida tashkil etilgan “Madaniyatshunoslik” kafedralarining o`rni niyoyatda kattadir.Men bu “Madaniyatshunoslik” kafedralarining faoliyatlarini rivojlantirish tarafdoriman.Chunki “Madaniyatshunoslik” kafedralarida ishlab faoliyat yuritayotgan proffessor ustoz o`qituvchilarimiz, tayanch doktorantlarimiz, mustaqil izlanuvchilarimiz xalqimizni boy madaniyatini ochib berishda kata ilmiy izlanishlar olib borishadi.Undan tashqari bizning boy madaniy merosimizni ilmiy jihatdan vatandoshlarimizning ongi va shururiga sindirishda “Madaniyatshunoslik“ kafedrasi va ustozlarni xizmatlari kattadir

Xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan ilm ahllari bilan yurtimiz tarixi, madaniyati, san`ati bilan bog`liq bo`lgan ilmiy almashunuvlarda ham bu kafedralarni o`rni kata bo`ladi

Biz juda boy o`tmishga va madaniyatga ega bol`lgan xalqmiz.IX-XII asrlarda ilk uyg`onish davri (renesans) bizni hududimizda bo`lgan.Yurtimizdan jahon madaniyati va taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan olimlar yetishib chiqqan.

Buyuk vatandoshimiz al-Xorazmiyni “Al-jabr val muqobala” asarini yaralishi algebra fanini vujudga kelishiga asos bo`ldi.Oddiy cho`tagimizga solib yurgan bizga qulay bo`lgan smartfon telefonimizni vujudga kelishini tub negizida Al-Xorazmiyni kashfiyotlari yotibdi.Yana Xorazm diyoridan yetishib chiqqan Az-Zamaxshariy arab diyoriga borib arab gramatikasini yaratishi uning jahon sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo`shishidir.Bugungi kunda Az-Zamaxshariyni “Al-Kashshof” asari orqali Qur`oni o`rganamiz,bu biz uchun ulkan iftihordir.

Abu Rayhon Beruniy yerni dumaloq shaklda ekanligini birinchilardan bo`linb aniqlab, Amerika qit`asi mavjudligini Kolumbdan besh asr oldin mantiqqa tayangan holda bashotat qilgan.Bundan tashqari Farobiy , ibn Sino kabi allomalarimiz, dinni ravnaqi yo`lida xissa qo`shgan Al- Buxoriy.Al-Xakim at Termiziy,Iso Termiziy kabi allomalarimiz ham IX-XII asrlarda dunyo sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo`shishgan.

XIV-XVI asrlar Temuriylar davri madaniyatini yurtimiz va jahon taraqqiyotiga kata tasir qilganligini alohida takidlab o`tmoqchiman.Birgina Amir Temurni “Temur tuzuk”laridagi “Saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish tutgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo`lmagaysan”[2] so`zlarida chuqur ma`no bor.Buyuk sohibqiron Amir Temurni kata saltanatni qanday boshqarganligini shu ikki qator so`zidan ham bilib olishimiz qiyin emas. Amir Temurning ilm-fan, madaniyat,me`morchilik va san`at homiysi ham bo`lgan. Amir

Temurni nabirasi Mirzo Ulug`bekni falakkiyotshunoslikda qilgan izlanishlari o`sha davr jahon madaniyati va sivilizatsiyasi uchun olamshumul kashfiyot bo`ldi.1428-1429 yillarda Mirzo Ulug`bek Samarqandda rasadxona bunyod ettihradi.Bu rasadxonaga ulkan sekstant o`rnatilgan.Rasadxonada o`z davrini yetuk Qozizoda Rumiy, Jamshid G`iyosiddin al-Koshiy, Ali Qushchi singari olimlari osmon jismlarini o`rganishgan.O`sha davrda dunyoni biror nuqtasida osmon jismlarini kuzatuvchi bu darajada ulkan asbob bo`lmagan. Ulug`bek Samarqand, Buxoro, G`ijduvonda madrasalar ham qurdirgan bu madrasalar o`sha davr universiteti vazifasini o`tagan[4].Undan tashqari XV-XVI asrlarda Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur singari kabi buyuk mutafakkirlarimiz yashab ijod qilishgan va ular ham jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo`shishgan.

Xulosa o`rnida shuni aytmoqchi edimki, yuqorida nomi keltirilgan buyuk shaxslar haqiqiy vatanparvar bo`lishgan.Ular o`z davrida bor kuchi va g`ayratini vatani uchun sarflashgan.Men ayrim buyuk vatanvarvar shaxslarni tilga oldim xalos, bunday vatanparvar buyuk shaxslar yurtimizdan juda ko`p yetishim chiqishgan. Bunday buyuk vatanparvar insonlarni ilmiy merosini o`rganish, yurtimizda va xorijda yashayotgan vatandoshlarimizga yetkazishda va vatanparvarlik tuyg`ularini rivojlantirishda yuqorida takidlaganimdek “Madaniyatshunoslik” kafedralarini o`rni kattadir. Muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning imzolagan qarorlaridagi ko`plab masalalarni amalga oshirishda,xorijdagi vatandosh olimlarimiz bilan ilmiy ma`lumotlar almashishda hamda OTM bilan hamkorlik aloqalarini olib borishda bu kafedrani o`z o`rni bor deb bilaman.

ADABIYOTLAR:

1. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -O`zbekiston 2017 yil
2. Temur tuzuklari –Toshkent 2019 yil
3. Ma`naviyat asosiy tushunchalar izohli lug`at-Toshkent 2010 yil
4. Haqiqat manzaralari.100 mumtoz faylasuf/Taqdirlar,hikmatlar,aforizmlar/ T:Yangi asr avlodi.2014

JAMIYAT IJTIMOIY HAYOTINIG RIVOJIDA MA’NAVIY VA MODDIY QADRIYATLARNING O`RNI

Kadirova Yakitjan Buvabayevna
Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti
Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi
v.b.dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan modiy va ma’naviy qadriyatlar uzoq tarixiy jarayonda shakllangan ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligini o‘zida mujassamlashtiridi aytilib, milliy ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma’naviy borlig‘imizning muhim va serqirra

sohasi bo‘lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ma’naviy-ruhiy qarashlar, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, moddiy va ma’naviy hayot, demokratik erkinliklar, milliy qadriyatlar

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni jadal rivojlanishi insoniyat global muammolarini hal etishning nafaqat optimal yo‘llarini izlash, balki moddiy va ma’naviy qadriyatlarni asrash va kelajak avlodga yetkazish kabi masalalarni ishlab chiqishni ham taqozo etmoqda.

Insoniyat tarixidan bizga ma’lumki, har bir jamiyat, millat, xalq o‘z kelajagi, kelgusi avlodlarini yuksak ma’naviyatli, ilmli va eng asosiysi, baxtli bo‘lishlari uchun kurashadi. Shuning uchun moddiy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish xozirgi kunda dolzarb masaladir.

Shunday ekan, mamlakatimizda bu masala brinchi Prezidentimiz e’tiboridan ham chetda qolmaganligi asoslidir. Ya’ni, “Aslida, har qanday islohotning eng muhim samarasi avvalo xalqning ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo‘lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi” [1]. Bu esa jamiyat taraqqiyoti bevosita inson va halqning ma’naviy-ruhiy qarashlarini rivojlantirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Unda jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan intilishini xisobga olish zarurdir.

Bular Yurtboshimiz bo`lgan Islom Karimov tomonidan O‘zbekistonning taraqqiyot konsepsiyasi, Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar davlat dasturi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bilan hamohang bo‘lib, bevosita ularning ikkalasi ham komil inson tarbiyasi, ularning mustaqil fikrlash tafakkurini boyitishga qaratilganligi bilan izohlash mumkin. Shuning uchun bu yaxlit ta’limotlar hozirgi vaqtda xalqimiz moddiy va ma’naviy hayotining uzviy bir qismiga aylanib bormoqda.

Xalqimiz millat sifatida boshidan o‘tkazgan og‘ir sinovlardan sabr-bardosh, chidamlilik, kelajakka ishonch ruhida o‘tib, milliy, moddiy va ma’naviy qadriyatlarini saqlab qolganligi va bugungi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan chuqur islohatlar yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalash maqsadida milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishda katta e’tiborga sazavordir. Aynan shu qadriyatlarimizda jamiyat moddiy va ma’naviy hayotning uyg‘unligini ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Shu asnoda, inson o‘zining har bir harakati, faoliyatini ma’lum normalar, me’yorlar yordamida nazorat qilib turadi. Ular insonning faoliyatini jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan taqdirdagina qadriyatga aylanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tinchlik, farovonlik, tenglik, adolat, insonparvarlik, olijanoblik singari insoniy fazilatlar va hodisalar ham qadriyat hisoblanadi.

Shu o‘rinda yana bir haqiqat, “Bir so‘z bilan aytganda, inson o‘z timsolida ham moddiy, ham ma’naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob xilqat,

Yaratganning buyuk va sirli mo‘jizasidir”[2]. brinchi Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek: “Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi” [3]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, jamiyat taraqqiyoti moddiy va ma’naviy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rinadi.

Ko‘pgina mamlakatlar xalqlarining milliy istiqlol, demokratik erkinliklarni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lidagi sa’y-harakatlari o‘z yurti va mintaqalaridagi tinchlik va barqarorlikka bog‘liq ekani ravshan. “Qo‘shning tinch - sen tinch” maqolining tub ma’nosini dunyo ham, biz ham yanada teranroq anglamoqdamiz. Ko‘hna tarixga nazar tashlasak, aynan yurt tinch, el omonlikda yashagan davrlardagina xalqimiz moddiy va ma’naviy yutuqlarga erishganiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrga hukmronlik qilgan 40 yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo‘lgani sababli ilm-fan, madaniyat taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko‘hna zaminimiz gullab-yashnagan.[4]

O‘zbekiston xalqi tinchlikni o‘z orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari ro‘yobga chiqishining sharti deb biladi. Shuning uchun ham doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘lgan taqdirdagina o‘z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma’naviy jihatdan yuksaladi.

Mamlakatimiz rivojlanishining moddiy va ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, milliy mafkuraning asosiy g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish bugungi kunning dolzarb va amaliy masalasi sifatida yuzaga chiqmoqda.

Bu haqida yurtboshimiz shunday deydi: “.Ko‘rinib turibdiki, moddiy va ma’naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi” [5].

Ayni vaqtda ommaviy axborot vositalari orqali moddiy va ma’naviy qadriyatlarimizni ulug‘lovchi, ularga nisbatan insonlarda hurmat hissini kuchaytiruvchi ko‘rsatuvlarning mazmun va mohiyatini yanada kuchaytirish hamda inson qalbiga yetib boruvchi ilmiy ommabop maqolalar chop etilishi lozim.

Brinchi Prezidentimiz ma’naviy salohiyatimiz yuqori darajada ekanligidan dalolat beruvchi milliy qadriyatlarimizdan bo‘lmish Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yillik yubileyida so‘zlagan nutqida: “Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlari Sharq va G‘arb o‘rtasida o‘ziga xos ma’naviy-madaniy ko‘prik, umuminsoniy qadriyat va madaniyatlar silsilasida uzviy bir xalqa vazifasini ado etgan, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi” [6d], deganlarida mutlaqo haq edilar. Bizda milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash va yuksaltirish orqali ma’naviy immunitetni shakllantirishimiz uchun juda katta asosga egamiz. Buning yana bir

